2025
№1

TAFAKKUR ZIYOSI

ILMIY-USLUBIY JURNAL

ISSN 2181-6131

9 772181 613003

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining filologiya, falsafa, tarix va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. Jurnalning indeks raqami: 3535



Suratda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘i. Toshkent shahri, O‘zbekiston.

JDPU TAHRIRIY
NASHRIYOT
BO‘LIMI

2025 №1

TAFAKKUR ZIYOSI

ILMIY-USLUBIY JURNAL

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining filologiya, falsafa, tarix va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. Jurnalning index raqami: 3535

JDPU TAHRIRIY
NASHRIYOT
BO‘LIMI

ISSN 2181-6131

BOSH MUHARRIR

Shavkat Sharipov – pedagogika fanlari doktori, professor.

MUHARRIR O'RINBOSARI

Farrux Aqchayev – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

MAS'UL KOTIB

Abdug'affor Abdurahmonov – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

TARJIMONLAR:

Zubayda Jumayeva - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (rus tili bo'yicha).

Eldar Hasanov - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (rus tili bo'yicha).

Anora Jabborova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (ingliz tili bo'yicha).

Dildora Baxriddinova - katta o'qituvchi (ingliz tili bo'yicha).

MUSAHHIHLAR

Feruza Jumayeva - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.
Murodulla Jo'rayev - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

SAHIFALOVCHILAR

Sirojiddin Turg'unboyev

Zulayxo Shakarova

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

- **Anatoliy Sagdullayev**, tarix fanlari doktori, akademik
- **Komiljon Tojiboyev**, biologiya fanlari doktori, akademik
- **Andrey Zuyev**, Novosibirsk davlat universitetining Gumanitar instituti professori, tarix fanlari doktori (Rossiya)
- **Stiven Korbet**, Portsmud universiteti, tillar va amaliy tilshunoslik yo'nalishi professori (Buyuk Britaniya)
- **Seyko Wazake**, Chibu universiteti doktori (Yaponiya)
- **Donina Lyudmila**, Sankt-Peterburg davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi (Rossiya)
- **Jakelin Duglas**, Norwich tillar o'qitish instituti professori (Buyuk Britaniya)
- **Himmet Karadal**, Izzet Baysal universiteti professori (Turkiya)
- **Tuba Yilmaz**, Nejmiddin Erbakan universiteti professori (Turkiya)
- **G'ayrat Qodirov**, biologiya fanlari nomzodi, dotsent
- **Botir To'xtamishev**, texnika fanlari nomzodi, dotsent
- **Sarvar Nazarqosimov**, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
- **Qozoqboy Yo'ldoshev**, pedagogika fanlari doktori, professor
- **Usmonjon Qosimov**, filologiya fanlari doktori, professor
- **Abdug'afur Mamatov**, filologiya fanlari doktori, professor
- **Umrzoq Jumanazarov**, filologiya fanlari doktori, professor
- **Faniya Axmedshina**, tarix fanlari doktori, professor
- **Shokir G'afforov**, tarix fanlari doktori, professor
- **Baxti Ochilova**, falsafa fanlari doktori, professor
- **Hamid Meliyev**, pedagogika fanlari doktori, professor
- **Xudoybergan Mavlonov**, biologiya fanlari doktori, dotsent
- **Qo'chqor Hakimov**, geografiya fanlari nomzodi, dotsent.
- **Mo'min Hoshimxonov**, falsafa, filologiya va pedagogika fanlari doktori
- **Furqat Axmedov**, pedagogika fanlari nomzodi, professor
- **Akbar Saitkasimov**, falsafa fanlari doktori, professor
- **Zuhra Yaxshiyeva**, kimyo fanlari doktori, professor
- **Abdunazar Nurmonov**, pedagogika fanlari doktori, professor
- **Rustam Abdurasulov**, psixologiya fanlari doktori, dotsent
- **Marat Sultonov**, kimyo fanlari doktori, professor
- **Raximboy Yarmatov**, pedagogika fanlari doktori, dotsent
- **Ilyos Islamov**, tarix fanlari doktori, dotsent
- **Muxtorqul Pardayev**, tarix fanlari nomzodi, dotsent
- **Rabbim Yusupov**, texnika fanlari nomzodi, dotsent
- **Oleg Kim**, filologiyafanlari nomzodi, dotsent
- **Abduvali Shamshiyev**, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
- **Yulduz Karimova**, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
- **Kamoliddin Zoyirov**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
- **Sherali Abduraimov**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
- **Feruza Jumayeva**, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
- **Bobomurod Toshboyev**, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

MUASSIS – Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti.

Jurnal yilda 4 marta (har chorakda) chop etiladi.

Matnlarda foydalanilgan iqtibos va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

Jurnaldan ma'lumot ko'chirib olinganda, manba qayd etilishi shart.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining filologiya, falsafa, tarix va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal Jizzax viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasidan 2020-yil 25-aprelda 06-042 raqam bilan qayta ro'yxatga olingan. Jurnalning xalqaro ISSN raqami: 2181-6131.

Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 4-uy.
Telefon: +998 72 226 02 93,
+998 93 298 22 12
Faks: +998 72 226 46 56

2025-yil 25-mart kuni bosmaxonaga topshirildi.
Qog'oz bichimi A4.
Buyurtma: _____
Nashr adadi: 100

JDPU TAHRIRIY NASHRIYOT BO'LIMI

MUNDARIJA

01. TAQVIM

Alisher Navoiyning orifiy, irfoniy va gumanistik qarashlari 11
Mo‘min Hoshimxonov – f.f va p.f.d., Jizzax davlat pedagogika universiteti

“Boburnoma”da sifat yasovchi forscha fe’l va sifatdoshlar 20
Abdulhamid Abdumo‘minovich Abduvaliyev – katta o‘qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Ziyoda Norqo‘ziyevna Abduvaliyeva – katta o‘qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

02. PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA INNOVATSION TA’LIM

Ta’lim tizimida talabalar innovatsion tafakkurini rivojlantirish texnologiyalari 25
Davron Abdurakibovich Alibekov – f.f.b.f.d., dotsent,
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Intellektual tizimlar vositasida talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda pedagogik tamoyillar 31
Botir Baxtiyor o‘g‘li Abdullayev –p.f.b.f.d., dotsent,
Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali

Oliy ta’lim muassasalarida talaba qizlarni rahbarlik lavozimlariga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari 37
Refide Izmerovna Ablyakimova – katta o‘qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Professional ta’lim muassasalari maxsus fan o‘qituvchilarining mediakompetentligini rivojlantirish usullari 42
Akmal Rustamovich Hafizov – o‘quv ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari,
Buxoro neft va gaz sanoati kolleji

Bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ fikrlashni oshirish 46
Abdurasul Mirzaakbarovich Mirzaakbarov – o‘qituvchi, Namangan davlat pedagogika instituti

Decoding terminology: from basics to advanced terms 49
Iroda Jumanovna Mamarasulova – teacher, Jizzakh State Pedagogical University

Professional ta’lim maxsus fanlarni o‘qitishda sun’iy intellektdan foydalanish metodik funksiyasi 54
Farrux Furqat o‘g‘li Sharopov – o‘qituvchi, Buxoro energetika, neft va gaz sanoati texnikumi

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida muloqotchanlikni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari 60
Gulchexraxon Abidjanovna Muladjonova – o‘qituvchi, Andijon pedagogika instituti

Improving the use of pedagogical software tools in students' independent self-development in an information-based educational environment 65
Temurbek Maxsetbaevich Kudenov – assistant teacher, Nukus State Pedagogical Institute

STEAM fanini raqamli texnologiyalar orqali rivojlantirish 71
Sitora Muzaffar qizi Jamolova – tayanch doktorant, Shahrisabz davlat pedagogika instituti

03. AMALIY FANLAR

O‘quvchilarda milliy-iftixor tuyg‘usini rivojlantirishda kurash sportidan foydalanish imkoniyatlari 75
Furkat Quldashevich Axmedov – p.f.n., professor, Jizzax davlat pedagogika universiteti
Joxon Quldashovich Axmedov – dotsent, Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali
Ja’sur Ulug‘bek o‘g‘li Uluqmurotov - magistr, Jizzax davlat pedagogika universiteti

“Arxitekturaviy qalamtasvir, rangtasvir va haykaltaroshlik” fanidan talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish. 82
Nurmon Ochilovich Berdiyev – dotsent, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Chizmatasvir darslarida bo‘lajak arxitektor-dizaynerlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash. 88
Sherzod Choriyevich Bekmirov – katta o‘qituvchi, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

O‘quvchi-yoshlarda musiqiy tafakkur va uni rivojlantirish muammolari 93
Ahmadjon Qodirovich Jumayev – katta o‘qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Talabalarning jismoniy tarbiya bo‘yicha shaxsiy kompetensiyalarini shakllantirish 99
Furkat Quldashevich Axmedov – p.f.n., professor, Jizzax davlat pedagogika universiteti
Eldor Ziyat o‘g‘li Nurmatov – o‘qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti
Sardor Furqat o‘g‘li Quldashev – o‘qituvchi, Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Malakali voleybolchi qizlarning to‘pni o‘yinga kiritish texnikasi aniqligini nazariy tahlili 106
Ilhom Xaydarov – o‘qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

04. IJTIMOIY FANLAR

Jizzax vohasi ibtidoiy davr tarixining o‘rganilishi haqida. 112
Furqat Eshboyevich Toshboyev – professor, Jizzax davlat pedagogika universiteti
Nozima Bahodir qizi Eshmamatova – magistrant, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Activities of Samarkand madrasas during the Russian empire 117
Shakir Gafforov – Professor, Doctor of History, Samarkand State University

Ibn Xaldunning “Muqaddima”sida tarix falsafasi 128
Baxti Muradovna Ochilova – f.f.d., professor, Jizzax davlat pedagogika universiteti
Iskandar Amanov – talaba, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Alisher Navoiy tafakkurida oriflik va irfon ilmi rivojining muhim gumanistik jihatlari talqini 132
Mo‘min Hoshimxonov – f.f va p.f.d., Jizzax davlat pedagogika universiteti

Nanotexnologiyalar sohasidagi axloqiy va estetik muammolar 138
Hayot Xaitovich Ashirmatov – f.f.b.f.d., dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Oila tuzilmalarining o‘zgarishi va ularning zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy xulq-atvorga ta’siri 143
Nazira Abdusattorovna Muxtorova – deputat,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi

Neokonservativ “Aql markazlari”ning AQSh tashqi siyosatiga ta’siri (XXI asr boshlari) 149
Abrar Saloxiddinovich Turayev – s.f.b.f.d., dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

XIX asrning ikkinchi yarmida Samarqand vohasining suv xo'jaligi tarixidan.....157
Rustam Sharipovich Xoliqulov – t.f.n., dotsent, Samarqand davlat universiteti
Bobur Mirzaboyevich Bobodustov – assistent, Samarqand davlat universiteti

Zarafshon vohasida viloyat gazetalari faoliyati tarixi (1991-2021-yillar)..... 164
Abdug'affor Abdurahmonov – t.f.b.f.d., O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

The scientific legacy of Sharifjan Makhdum Sadri Ziya and his private library.....174
Dilnavoz Narzikulovna Tagoyeva – teacher, Doctor of Philosophy,
Bukhara State Pedagogical Institute

**"Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari" ijtimoiy g'oyasi
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy g'oyalar transformatsiyasining metodologik manbai sifatida**..... 180
Mansur Jamxur o'g'li Nabiyev – katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Qushayriy, Suhravardiy va Ibn Arabiy qarashlarida hol va maqom tushunchasi..... 186
Davronbek Hoshimovich Qodirov - PhD, Buxoro davlat universiteti

Amoralizm va immoralizmni oldini olishda Islom dini qoidalarining ahamiyati.....191
Odil Nodirovich Toshpulatov – bo'lim boshlig'i,
Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi

05. FILOLOGIYA FANLARI

Исторические и культурные факторы, способствующие заимствованию..... 196
Абдукарим Сулайманович Мусаев – д.ф.ф.н, и.о профессор,
Джизакский государственный педагогический университет
Мухлиса Кучкор кизи Абдухалилова – магистрант,
Джизакский государственный педагогический университет

Sleng birliklari hosil bo'lishning morfologik usuli..... 200
Abduvali Musayev – dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Oziq-ovqat konsepti: J.R.R.Tolkinning fentezi dunyosidagi taomlar tasvirlari..... 204
Nargiza Qo'chqarovna Bo'riyeva – dotsent, PhD, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Iqtisodiy-moliyaviy tematikali matnlarning pragmatik xususiyatlari..... 209
Shoxida Abdullayeva – f.f.b.f.d., dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Amerika romantizm adabiyoti vakili Edgar Po "Qarg'a" poemasi misolida..... 216
Komila Axrorovna Fayziyeva – f.f.d., dotsent, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Выражение символических знаков в этнофраземах..... 220
Зубайда Шавкатовна Жумаева – д.ф.ф.н., доцент,
Казанский Федеральный университет в городе Джизак

**Qiziltepa tumani toponimikasining tarixiy va madaniy aspekti:
oykonimlar, etnotoponimlar va ularning paydo bo'lish jarayoni**..... 224
Nurbek O'ktamovich G'aniyev – dotsent, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Yasama so'z va ularning o'rganilishi..... 229
Akmal Raxmatullayevich Tursunov – dotsent, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Zulfiya poetik maktabining taraqqiyot tamoyillari 234
Ma'mura Yusupova – direktor o'rinbosari, Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi

O'zbek adabiyotshunosligida modernizm muammolarining o'rganilishi. 238
Dilbar Eshboyevna Tangirova – katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Zulfiya she'rlarida frazemalarning qo'llanilishi. 240
Shaxribon Gulmurodovna Musurmankulova – katta o'qituvchi,
Guliston davlat pedagogika instituti
Hamrooy Qahramon qizi Safarova – talaba, Guliston davlat pedagogika instituti

Turkum romanlarda badiiy nutq masalasi 243
Dilnoza Nematullayevna To'rayeva –f.f.b.f.d., dotsent, Guliston davlat universiteti

06. TABIIY VA ANIQ FANLAR

On the solution of some linear partially integral equation 249
Ulug'bek Abdukadirovich Soatov – PhD of phizics and mathematics, associate professor,
Jizzakh Polytechnic Institute
Abduvali Shamshiyev – PhD in economics, associate professor,
Jizzakh State Pedagogical University

Dual ta'limni "Tarmoq – korxona – universitet" darajasida tashkil etishni bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllanishidagi ahamiyati 254
Ismoil Norkobilovich Kodirov – f-m.f.n., professor, Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti

Geografik obyektlarga nom tanlashning huquqiy-me'yoriy asoslari 260
Koshkar Makkamovich Xakimov – g.f.n., dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti
Mashrab Rustamovich Usmanov – dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Atom elektron qavatlarining tuzilishi mavzusini interfaol ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish 264
Dilafruz Muradova – dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Neytrino astronomiyasining erishgan natijalari orqali kosmologiyani o'rganish samaradorligi 269
Anvar Razzoqovich Qurbonov – dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti
Jaxongir Abdumalikovich Xotamov – o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Raqamli transformatsiyalash (neft-gaz) muhandislarini ixtirochilik faoliyatiga tayyorlashga ta'sir etuvchi omillar va xorijiy tajribalar 273
Marjona Qiyom qizi To'raqulova – p.f.f.d., dotsent, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

Raqamli ta'lim muhitida fizika fanini o'qitishning o'ziga xos jihatlari 280
Samar Sattor o'g'li Alikulov – dotsent, Jizzax politexnika instituti

Bo'lajak o'qituvchilarning matematik tayyorgarligini elektron ta'lim resurslari orqali rivojlantirishning ahamiyati. 285
Xaqnazar Xushmirzayevich Xamzayev – p.f.b.f.d., dotsent,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Nargiza Nuriddinovna Tuychiyeva – mustaqil tadqiqotchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Aldegidning olinishi va kimyoviy xossalarini klaster usulida o'qitish 293
Habiba Toshboboyevna To'rayeva – p.f.b.f.d., Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Fizika darslarida o‘quvchilarda ekologiyaga oid bilimlarni shakllantirishda integrativ yondashuvning o‘rni **297**
Orzigul Shonazarovna Eshtuxtarova – katta o‘qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

On certain aspects of teaching methods for solving chemistry problems **304**
Komila Khudoiberdievna Abduvaliyeva — senior lecturer, Jizzakh State Pedagogical University
Sarvinoz Sadridinovna Xojiyeva — senior lecturer, Jizzakh State Pedagogical University

07. YOSH TADQIQOTCHILAR

“Diskret matematika va matematik mantiq” fanini o‘qitishda “BOOL_TEST” dasturidan foydalanish metodikasi..... **310**
Javlon Yusupovich Xolmatov – katta o‘qituvchi, O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Baxt va hayotning mazmuni masalasi haqida ayrim mulohazalar..... **315**
Aziza Po‘latovna To‘rayeva – katta o‘qituvchi, Qarshi davlat universiteti

Ekologik madaniyatni shakllantirishda ekologik ta’limning o‘rni va ahamiyati..... **319**
Sitora Ayonovna Azamova – katta o‘qituvchi, Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Zarina Lochin qizi Arolova – talaba, Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Tilning ijtimoiy vazifalari va ularning tadqiqiga doir muammolar **323**
Mahliyo Hojiyevna Buxorova – katta o‘qituvchi,
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Флоронимия как часть национальной картины мира **327**
Зульфия Физулиевна Алихасанова – преподаватель,
Гулистанский государственный педагогический институт

Особенности парентетических конструкций русского, узбекского и азербайджанского языков..... **333**
Кулдаста Эйнуллаевна Кумметова – преподователь,
Гулистанский государственный педагогический институт

Literary Critics on The “Twenties” of new realism in Russian literature of the 21st century..... **337**
Elvina Abdulkhakovna Azimova – teacher, Jizzakh State Pedagogical University

Наследие Джона Рональда Руэля Толкина..... **345**
Руслан Арсенович Асанов – преподаватель,
Гулистанский государственный педагогический институт

Yuqori yarim tekislikdagi chorak aylanalar oilasi bo‘yicha integral geometriya masalasi..... **350**
Ixbol Iskandarovna Sadikova – o‘qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Ibn Arabiy ta’limotida ruhiy poklik va kamolotga yetishish masalalari..... **353**
Mohlaroyim Shuxrat qizi Yarashova – o‘qituvchi, Osiyo xalqaro universiteti

Chorva kasalliklarini an’anaviy davolash usullari xususida (Jizzax vohasi misolida) **357**
Muhammad Xolmumin o‘g‘li Tilavboyev – o‘qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida astronomiya o‘qitishda kuzatuv ishlarini tashkil etish usullari..... **360**
Obid Bahodir o‘g‘li Saydayev – o‘qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Perifraza tilshunoslik sohasida stilistik vosita sifatida **364**
Shaxnoza Primkulovna Allayorova – o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani tarjimalarida madaniy va milliy xususiyatlarni yetkazish muammolari **369**
Kamola Khujumova – stajor o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Kognitiv lingvistikada konsept nazariyasi va uning tavsifi **374**
Solijon Azizov – stajor o'qituvchi, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ingliz tilida energetikaga oid birliklarning sintaktik usulda yasalish tadqiqi **381**
Zebo Meliyevna Nizomova – tayanch doktorant, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Xalq rivoyatlari va hikmatli so'zlar – o'quv jarayonini tashkil etishda ilmiy ma'lumotlar manbai sifatida **385**
Saodat Dilshodovna Fayzullayeva – tayanch doktorant, Navoiy davlat universiteti

Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarida iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirish jarayoni **390**
Yulduz Boboxolovna Mingboyeva – mustaqil tadqiqotchi, Jizzax politexnika instituti

XX asrning 40-yillarida Samarqand sanoatida xotin-qizlarning mehnat faoliyati va ularning ijtimoiy o'rni **395**
Aziza Usarovna Shotemirova – tadqiqotchi, Samarqand davlat universiteti

Jamiyat barqarorligini ta'minlashda yoshlar ijtimoiy manfaatlarini ro'yobga chiqarishning ahamiyati **400**
Ja'farxon Isaxonov – mustaqil tadqiqotchi, Samarqand davlat chet tillar instituti,
Jizzax shahar "Registon" o'quv markazi direktori

Mahalla raislarining ma'naviy-axloqiy sifatlarini tizimli ta'lim jarayonida rivojlantirish xususiyatlari **404**
Ikrom Muxtarovich Matkarimov – mustaqil tadqiqotchi, Urganch davlat pedagogika instituti

Jamiyat taraqqiyotida inson resurslari ahamiyatining ijtimoiy-falsafiy tahlili **410**
Suyarbek Amrullayevich Saydiyev – mustaqil tadqiqotchi, Samarqand chet tillari instituti

Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda ma'lumotlar bazasidan foydalanishning innovatsion texnologiyalari **414**
Dilshod Pahlavonovich Nabiyev – tayanch doktorant, Buxoro davlat pedagogika instituti

Ichki nutqning shakllanishi va egosentrik nutqdan farqli tomonlari **419**
Marjona Jinaydullo qizi Raxmonova – izlanuvchi,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning pedagogik asoslari **422**
E'zozaxon Baxrom q'izi Xaitova – magistrant, Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ijodkor shaxsining badiiy asarda namoyon bo'lishi (To'ra Sulaymon lirikasi misolida) **427**
Yorqinjon O'rmonali o'g'li Xayitboyev – magistrant, Guliston davlat universiteti

Xolid Husayniyning "Ming quyosh shu'lasi" asarida obrazlar talqini **431**
Sevinch Nurilla qizi Yaxshilikova – magistrant, Guliston davlat universiteti

01

TAQVIM

ALISHER NAVOIYNING ORIFIY, IRFONIY VA GUMANISTIK QARASHLARI

Mo'min Hoshimxonov – f.f va p.f.d.,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada she'riyat mulkining sultoni, davlat tilining asoschisi, tilimizning boyligi uchun jasoratli kurashchi, mutafakkir, daho, she'riyat yalovdori Alisher Navoiyning orifona, irfoniy va ijtimoiy gumanistik, falsafiy qarashlari tahlil qilingan.*

Аннотация: *В этой научной статье анализируются аристократические, ирфанистические и социально-гуманистические, философские взгляды Алишера Навои, султана поэтического сословия, основоположника государственного языка, отважного борца за богатство нашего языка, мыслителя, гения заменосеца поэзии.*

Abstract: *In this scientific article, the aristocratic, irfanic, and socio-humanistic, philosophical views of Alisher Navoi, the sultan of the poetic class, the founder of the state language, the courageous fighter for the wealth of our language, the thinker, the genius, the beggar of poetry, are analyzed.*

Kalit so'zlar: *orif, irfon, axloqiy, tavhid, yuksalish, Xudo, ruh, ma'rifat, maqom, martaba, hurriyat, tasavvuf, komillik, Amir Husrav, Navoiy, Xisrav Dehlaviy, Bahovuddin Naqshband, shayx, so'fiy, islom, zohiriy, botiniy, Qur'on, Iloh, tafriqa, idrok, Haq, dunyoviy ilm, arsh, hikmat, shoh, amir, gumanist, tafakkur, botiniy, samo, oyat, Xoja Ahror, Koshifiy, murshid.*

Ключевые слова: *ариф, ирфан, мораль, Таухид, возвышение, Бог, Дух, просвещение, статус, карьера, хуррит, мистицизм, совершенство, Амир Хусрав, Навои, Хисрав Дехлави, баховуддин Накшбанд, Шейх, суфий, ислам, Захири, Ботани, Коран, Аллах, тафрика, восприятие, истина, светская наука, Арш, мудрость, Шах, Амир, гуманист, созерцание, ботини, само, аят, Ходжа АХР, кошифи, Муршид.*

Keywords: *orif, irfan, moral, Tawhid, ascension, God, Spirit, enlightenment, status, rank, hurriyat, Sufism, perfection, Amir Husrav, Navoi, Khisrav Dehlaviy, Bahawuddin Naqshband, Sheikh, Sufi, Islam, zahiriy, botiniy, Quran, Divine, tafriqa, perception, Haq, secular science, arsh, hikmat, Shah, amir, humanist, tafakkur, botini, samo, Ayat, Khoja Ahror, koshifiy, Murshid.*

Orif, irfon va ma'rifatning o'zaro aloqadorligi masalasi Abu Ali ibn Sinoning "Ishorot va tanbehot" (Ishoralar va tanbehlar) asariga tayangan holda tahlil qilingan. Orif tushunchasining ma'naviy-axloqiy va irfoniy ma'nolarni ifoda etishi, orifning tavhid haqidagi qarashlari oddiy kishilarning tavhidga munosabati bilan farqlanishi, orif uchun "tavhid" mukammallikning yuqori cho'qqisi ekani, shuningdek, orifning tavhidi falsafiy nazar bilan mos kelmasligini, mavhumlikdan aniqlikka yuksalish usulida ko'rib chiqqan: orif nazarida haqiqiy borliq Alloh qolgan barcha ashyo Xudoning yaratig'idir. Orifning maqsadi "Al-Hak al-Avval (Alloh)"ga intilish va irfon haqidagi ilmdan boshqa hech narsani afzal ko'rmaslik. Orifning ikki holati uning kamolotidan darak beradi, biri uning ruhi bilan bog'lik mukammallik bo'lsa, ikkinchisi uning ruhi va tanasiga tegishli bo'lib, bo'ysunish (taslim) sifatida tavsiflanadi. Hadis ilmi peshvosi Muhammad Termiziy fikricha: Orif, irfon va ma'rifat tushunchalari o'zaro umumlashtirilsa, "Allohning sifatlari bilan sifatining" hadisiga amal qilgan orif nafaqat irfonga erishgan, balki ma'rifatning yuqori darajasini egallagan maqom va martabasi oliy insondir, degan ta'rif kelib chiqadi. Hakim Termiziy ma'rifat ahlining uch holatda bo'lishini eslatgan: ubudiyat, hurriyat va rububiyat[1].

Ma'rifatning faqat orifning o'zi uchun emas,

1 Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali Muhammad Termiziy. Ma'rifat ul asror. (Sirlar ma'rifati)/ Tarjimon Abdulhamid Muhammad Tursun. Mas'ul muharrir Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent. Movarounnahr. 2018. – B. 46.

omma uchun ham kerakligi, hosil qilingan ilm-ma'rifat xalqqa yetkazilishi, kishilarni ezgu ishlarga chorlashi hamda millatning axloqiy-ma'naviy kamoloti uchun xizmat qilishi lozimligi, bu mas'uliyat tasavvufning nafaqat orif, balki butun jamiyat hayotida ulkan ahamiyatga ega ekanligi, shu jihatdan, "orif komillikning yetuk namunasi" deb obyektiv baholangan[2].

Ma'lum bo'ladiki, so'fiylik martabasi va ta'rifida har ikki shoirning qarashlari o'xshash. So'fiy Amir Xisravda ham, Navoiyda ham vali, karomatli inson, favqulodda xislatlarga ega ezgu qalbli kishi. So'fiylar ta'rifida keltirilgan sifat va ta'riflar Xisrav Dehlaviy asaridagi Nizomiddin Avliyo va Alisher Navoiy asaridagi Bahouddin Naqshbandga bag'ishlangan boblardagi tavsif – ta'riflar, fikr-u mulohazalardan deyarli farq qilmaydi. Bu tushunarli, zero shayx Nizomiddin Avliyo bilan Xoja Bahouddin Naqshband ulug' martabaga erishgan komil inson, so'fiy edilar. So'fiylikning oliy kamoloti ham ana shu rahnamo shayxlar martabasiga erishish hisoblangan. Demak, so'fiylik – soflik, zohiriy va botiniy bilimlar sohibi bo'lgan oriflik, g'ayb siridan boxabarlik hamda ilohiy muhabbat ishqida yonish ekan[3].

Birinchidan, so'fiylar islom ma'rifatini, Qur'on ilmini chuqur egallagan va buni el orasiga yoyishga jiddu jahd qilib kelgan kishilar edilar. Faqat so'zlari, suhbatlari, da'vatlari bilangina emas, balki xulq-atvori, faoliyat va ishlari bilan ham atrofdagilarga ta'sir etar, namuna va ibrat ko'rsatardilar. Ulug' shayxlar dunyoviy bilimlar va shariat ilmini puxta egallaganliklari bilan ajralib turardilar. Chunki tasavvufda dunyo ilmini bilmay turib, Iloh ilm-u ma'rifatini bilish mumkin emas, degan qarash hukmron. Ayniqsa, orif so'fiylar donishmandlik, fazilat va botiniy ilmlar sohibi sifatida shuhrat qozonganlar. Aslida orif – ilohiy ilmlar sohibi demak. Oddiy so'fiydan u donish ahliga yaqinligi bilan faxrlanib turadi. Orifning ko'ngli ilohiy nur ilmi, ya'ni, hikmat xazinasi deganlar.

Bu ilm Parvardigor sifatlarini tanish, anglash bilan to'lishib boradi, chunki sifatlarni tanimay, Zotni tanish mumkin emas. Sifatlar esa tafriqa (turli-tumanlik)ni anglatadi.

Tafriqa moddiy dunyoga xos xususiyat. Demak, dunyoning sir-u asrori, ilm-u hikmati, xislat va xususiyati, qonuniyatlari – Alloh sifatlarining in'ikosi. Ushbu sifatlarning har birini tanib, bilib olgan odam jam' martabasida Alloh zotini tanishi mumkin. Sifatlardagi alohida-alohida xususiyat (juz') jamlanib, kull (umumiy) xususiyatga ko'tariladi va Tavhid (Yagonalik) yuz beradi. Orif ana shuni butun vujudi, hissi, aqli, shuuri va idroki bilan qamrab olib ruhida mujassamlantiradi[4].

Shunday qilib orif odam dunyoviy bilimlarni egallash barobarida botiniy quvvat bilan g'ayb ilmini ham egallay olgan komil insondir. Ilohiy ma'rifat uning qalbida buloqday qaynab turadi. Demak, Haqqa yetishish ham ilmdir.

Junayd deydiki, oriflikning boshi barcha ilmlarni Allohdan deb bilishdir, kishi "o'zi egallagan ilmlarni ham Haq kamolining ifodasi, odam ilmini esa nisbiy, nuqsonli va Alloh ilmiga nisbatan to'lishib boradigan" deya hisoblashdan boshlanadi. Ilohiy ilm sifatini o'z ma'rifati suratida idrok etishi kerak. Shayx Abu Bakr Tohir Abxariy ham shu aqidani tasdiqlagan. Undan "haqiqat nadur" deb so'raganlarida, "haqiqat barcha ilmdur" deb javob bergan. "Ilm nadur?" deb so'raganlarida esa, "barcha haqiqatdur" deb aytgan ekan ("Nasoyim ul – muhabbat").

Haqiqat Haqning o'zi, uning zoti va sifatlari. Uni ilmsiz tanish va bilish mumkin emas.

2 Isaqova Zamiraxon. Irfon va uning Sharq falsafiy tafakkuri rivojidagi o'rni (X-XIIIasrlar). Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand. 2022. – B. 22-23.

3 Muhiddinov M. "Xamsa"larning birinchi dostonlarida komil inson tasviri. Samarqand davlat universiteti. 2001. –B. 80.

4 Komilov Najmiddin. Ma'naviy kamolot ilmi. Ilmiy – tahliliy axborot. 2003/2. – B. 4.

Navoiy asaridan yana bir iqtibos keltirish bilan cheklanamiz. Muhyiddin ibn Arabiy shogirdi Shayx Sadriddin Kunyaviydan so‘radilar: “Qayerdan “qayoqqa borasiz va o‘rtada nima hosil bo‘ladi?”.

U javob berib, dediki: “Ilmdan Asl manbaga boramiz, o‘rtada hosil bo‘lgani dunyoviylik va ilohiylik hukmi bilan zohir bo‘lgan ikki tarafni birlashtiruvchi nisbatni yangilashdir” (“Nasoyim ul – muhabbat”, 397- bet.).

Bu fikrda bir necha jihatlar bor. Birinchisi shuki, “Ilmdan Asl manbaga boramiz”, deganda Sadriddin Kunyaviy so‘fiy dunyoviy ilmlar (jumladan, shariat ilmi)ni egallash vositasida Asl manba – Alloh tomon boradi va Uni taniydi, dunyoviy bilimlarsiz Iloh ilmini anglash va egallashi mumkin emas, degan qarashni bayon etgan. Ikkinchidan, orif-so‘fiy, shu tariqa, dunyoviylik va ilohiylikni birlashtiradi, bu ikki tarafning birini inkor etgan kishi orif yoki komil emas, demoqchi. Uchinchidan, ilohiylik va dunyoviylik nisbati har bir yangi orif shaxsida yangi kuch bilan namoyon bo‘lishi kerak, degan g‘oyani bayon etadi. Ya’ni, inson – moddiylik va ruhoniylik, dunyo va oxirat chegarasida turadigan xilqat, har ikki taraf unda o‘zaro muvozanatda aks etishi lozim, bu nisbat o‘zgarsa, odamning sifati, axloqi ham o‘zgaradi. Ilohiylik tarafi dunyoviylik tarafini boshqarib, maqsadga muvofiqlashtirib borgani ma’qul. Dunyoviylik tarafi bosib ketsa, nafsi ammora qudrat topadi, ilohiylik baland kelsa, u Arshga qarab intila boshlaydi, yuksaladi[5].

Demak, irfon ham hikmatdir. Vajdiy yo‘l bilan qozonilgan Alloh ilmi, kalom ham, tasavvuf ham, hikmat ham bunday olganda inson tafakkuri, shuuri, aqliy izlanishlarining mahsuli. Ular ziddiyatga kirishsa, ilm yutqazadi, o‘zaro yaqinlashsa, ilm boyiydi, insonlarga naf ko‘payadi.

Riyokorlarda ikkiyuzlamachilik, tilda bir gapni aytib, amalda boshqa ishni qilish, zohirda boshqa-yu, botinda boshqa bo‘lib ko‘rinish xususiyati rivojlangan bo‘ladi. Bu holni ular insonning qusuri ekanini tan olmay- dilar, turlicha tovlanib, xalqni aldashdan huzurlanib yuradilar. Achinarlisi shuki, bunday odamlar so‘fiy shayxlar orasida ham ko‘p bo‘lgan. O‘zlarini “shayxi zamon” qilib ko‘rsatib, xonaqolarda dag‘dag‘a-yu dabdabalar bilan zikr majlislarini uyushtirar, “va’z-u nasihat”da so‘zamollik ko‘rsatar, odamlarga g‘ur-u qiyomatdan gapirib, o‘zlari xilvatda g‘ayri shar’iy ishlar bilan shug‘ullanardilar. Barcha zohiriy amallardan muddaolari shoh va amirlar, boy-badavlat kishilarning diqqatini o‘zlariga qaratish va shu bilan boylik to‘plash, tekin maishat payida bo‘lish edi. Bunday riyokor shayx-u so‘fiylar ulug‘ gumanist shoirlarimiz tomonidan qattiq qoralangan.

Chunonchi, hazrat Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonidagi to‘rtinchi maqolotida “riyoi hirqapo‘shlar”ning shaytonni ham yo‘lda qoldiruvchi nayranglarini fosh qilsa, “Mahbub ul-qulub” asarining o‘ttiz sakkizinchi faslida ham “riyoi shayxlar zikri”ga maxsus to‘xtalib o‘tadi. Ulug‘ adib riyokor shayxni bunday ta’riflaydi: “Shayxi riyoi – ra’noliq jilva-namoyi. Misedur oltun bila ro‘kash, tashi xushnamo va ichi noxush. Surati darveshvash va ma’nosi sarosar g‘ash. Orastaliqi barcha qayd va karomati tamom shayd. Ammomasi rayosat yuki, boshida bir fosid xayol har tuki”[6].

Ya’ni, riyoi shayxning tashqi ko‘rinishi orasta, benuqson, salobatli, ammo ichki olami kir, xayoli buzuq, xuddi oltin qoplangan mis buyumday. Uning karomatlari hammasi nayrang-u firibdir. Navoiy nazdida bunday odamlar o‘ta xavflidir, chunki ular odamlarning chin oriflar, haqiqiy so‘fiylarga bo‘lgan ixlosini susaytiradilar. Xudoga bo‘lgan ixlosni yemiradilar, jamiki muqaddaslik, e’tiqodni bozorga olib chiqadilar, ma’naviyatni

5 Komilov Najmiddin. Ma’naviy kamolot ilmi. Ilmiy – tahliliy axborot. 2003/2. – B. 6.

6 Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 14- jild. – B. 44.

xarob etadilar. Odamlar ularga ergashib aldanadi va Haq yo'ldan adashadi. Zero, oddiy insonlar qalloblik, soxtakorlikni tezda anglab yetmaydi, chin va yolg'onni ajratolmaydi[7].

Irfon tasavvufdagi bilish ilmidir. Irfon ilmining mazmuni aks etgan adabiyotlarda irfonga berilgan ikkita bir xil ta'rif uchramasa ham. umumiy shaklda mazmunan va mohiyatan identifik tushuntirilgan.

Irfon musulmon Sharqi falsafiy tafakkuri bilan bevosita bog'lik bo'lib, nomusulmon Sharq falsafasida irfon yo'q.

Sharq mutafakkirlarining falsafiy-tasavvufiy qarashlarini zamonaviy fikrlar asosida tadqiq etish orqali tasavvuf Movarounnahrning ijtimoiy-madaniy, ma'naviy-ma'rifiy yuksalishida muhim komponent bo'lgani anglashildi . Shu sababga ko'ra, asosiy e'tibor irfonning Sharq falsafiy tafakkuri rivojidagi o'rni masalasiga qaratildi[8].

Irfon, bir tarafdan, diniy bilimlarni mujassam etsa, ikkinchi tarafdan, dinning mohiyatini ifodalaydi. Tafakkur bilan anglab bo'lmaydigan (irratsional), qalb, uchinchi ko'z, botiniy hol orqali hosil bo'ladigan bilimlar ilohiy voqelik (Alloh) bilan bevosita aloqada bo'lish, Allohni Uning ilmi bilan bilish va Uning ma'rifati bilan anglashning ifodasi bo'lib, ruhiy-ma'naviy poklikni talab etadigan jarayondir. Abdulqodir Giyloniy irfonning mohiyatini Qur'on oyatlari bilan hamohang ta'vil qilgan: "Irfon ... ma'rifat tuyg'usi, bu tuyg'u sening botiniy olamingni qurshagan samodirki, undan chiqajak bir emas, bir necha quyosh bor. Yo'l yorug' bo'lishi uchun ma'rifat samosida quyosh tug'ilishi lozim. Buning uchun esa holingni kamolga yetkazishing darkor. "... Bugun sizlarga diningizni komil qildim" oyati karimasi ila tasbit etilgandir".

Irfon diniy-falsafiy tushuncha sifatida orifning zavq-u shavq, shuhud (Haqni qalb ko'zi bilan ko'rish, Haqni Haq bilan ko'rish) vositasida Alloh va Uning mohiyatini his etishidir. Irfon orifning "ilohiy vasl Haq" bo'lgan ishtiyoqi, Alloh bilan vositasiz bog'lanish usulidirki, A.Bergson bunday bog'lanishning introvertligi. O'z-o'zini integratsiyalashi, dialektikasi, yangilanishini, ya'ni dinamik harakatini e'tirof etgan[9].

Hazrati Xoja Ahror Valining jamiyat hayotida qanchalik nufuzga ega ekani XV asrda bayon etilgan. Bu jihatdan Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, mavlono Abdulavval, mavlono Muhammad Qozi, Husayn Voiz Koshifiy kabi mumtoz ijodkorlar asarlarini eslash kifoya. Masalan, Alisher Navoiy hazrati Xoja Ahror Vali hayotligida, ya'ni 1483-yilda yozgan "Hayrat ul-abror" dostonida bu ulug' zotga alohida hurmat bildirib, ul zotni "murshidi ofoq", "olam elig'a rahnamo", "jahon mulki nigohboni", "barcha salotin uza sulton", "jahon mazraini dehqoni" kabi ta'riflar bilan tilga olgan edi. Ta'kidlash joizki, bu sifatlarning barchasi Xoja Ahror Valining ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotga tutgan o'rni va ahamiyatiga munosib edi.

Ma'lumki, Xoja Ubaydulloh hazratlari naqshbandiya tariqatining piri komili sifatida e'tirof etilgan. Ya'ni, Xoja Ahror tutgan yo'l shayx, mullo va zohidlar turmush tarzi va faoliyatidan tubdan farq qilgan. Alisher Navoiy masalaning bu jihatiga alohida urg'u berib, quyidagi satrlarni yozganlar: Hazrat faoliyatining asosiy xususiyati jamiyat turmushi bilan chambarchas bog'langanida edi. Binobarin, "go'shai xilvat" qilmoq ul zotga xos bo'lmagan. Xoja Ahror faoliyatining o'sha davrdagi temuriyzodalar hamda mashhur alloma-yu mutafakkirlar tomonidan e'tirof etilgan o'ziga xos jihati shundan iborat ediki, bu ulug' siymo naqshbandiya tariqatining "Dil – ba yor-u dast –

7 Komilov Najmiddin. Ma'naviy kamolot ilmi. Ilmiy – tahliliy axborot. 2003/2. – B. 10.

8 Шодиев Р. Бахриева Д. Суфизм в духовной жизни народов Мавераннахра (X-XII вв) – Самарканд. 2018. – С. 3.

9 Isaqova Zamiraxon. Irfon va uning Sharq falsafiy tafakkuri rivojidagi o'rni (X-XIII asrlar). Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand. 2022. – B. 15-16.

ba kor" shiorini ham ma'naviy, ham moddiy hayot manfaatlarini ifoda etadigan dasturilamalga aylantirdi. Boshqacha aytganda, bu tariqat sohibi Alloh taoloni doimo esda tutgan holda, el-yurt obodligi, tinchligi, farovonligi, hamjihatligi, muhtojlarga mehr-u muruvvat ko'rsatish, fuqarolarning og'irini yengil qilish, adolatning ustuvor bo'lishiga asosiy e'tiborni qaratdi.

Allomaning Alisher Navoiyga yozgan maktublarida ham bu masalalar asosiy o'rin tutadi. Hazrati Xoja Ahror Vali bir xatida, jumladan, bunday yozadilar: "Turli voqealar sizni ranjitgani sababli sizda ba'zan ul hazrat (podshoh Husayn Boyqaro) xizmatidan bezish kayfiyati sezilar ekan, deb eshitamiz. Iltimosimiz shulki, musulmonlarga madad yetkazishni o'ylab, ul hazratdan uzoqlashish fikrini xotiringizga keltirmasangiz, toki sizning ko'magingizda bir faqirning xotiri qayg'udan najot topib, uning ko'nglida xursandchilik paydo bo'lar, degan umiddamiz. Shuning bilan birga, notinch zamonda uning ko'ngli ochilgay va kayfiyati ko'tarilib, shu munosabat bilan Alloh taologa bo'lgan e'tiqodi ham ortadi... musulmonlar manfaatini ko'zlash eng olijanob faoliyatdir. Vassalom. Al – faqir Ubaydulloh"[10].

Hazratning yuksak nufuzi va e'tiborini ko'ra olmaganlar, u kishini obro'sizlantirishga, hatto joniga suiqasd uyushtirishga intilganlar ham bo'lgan. "Silsilat ul-orifin"da nomi Samarqand Shayxul islomi sifatida qayd qilingan shaxsni bunga misol tarzida keltirish mumkin. Ammo qizig'i shundaki, oxir-oqibatda bunday g'arazli kishilarning o'zlari sharmanda-yu sharmisor, xor-u zor bo'lib, qilgan ishlariga ming pushaymon bo'lib olamdan o'tgan. Hazratning obro'-e'tibori esa yanada ortib boravergan.

Bu buyuk siymo ijtimoiy, iqtisodiy, tasavvufiy va axloqiy mavzudagi asarlarni yozib qoldirgan. Ulardan "Fikrat ul-orifin" (Oriflar hikmatlaridan namunalar), "Volidiya", "Xavroiya" kabi risolalar, turli shaxslarga yozilgan maktublar bizgacha yetib kelgan. Hazrati Xojaning turli masalalarga oid qarashlarini ifoda etuvchi ayrim parchalar, hikmatlar mavlono Muhammad Qozining "Silsilat ul-orifin", Ali Safiyning "Rashahot", mavlono Abdulavvalning esdaliklaridan ham o'rin olgan. Piri komilning asarlari o'z zamonasida nihoyatda keng tarqalgan va behad qadrlangan. Masalan, XVI asrda Hindistonda faoliyat ko'rsatgan Abul Fazl Allomiy "Volidiya"ga "ma'rifat dengizining durdonasi" deb yuksak baho bergan edi. Shuning uchun mazkur nasriy risolani Zahiriddin Muhammad Bobur she'riy tarzda o'zbek tiliga tarjima qilgan. Xoja Ahror Valining turli tarixiy shaxslarga yozgan maktublarining ijtimoiy, falsafiy va axloqiy ahamiyatini e'tiborga olib, amerikalik olima Jon Anna Gross va Asomiddin O'rinboyevlar to'plagan. Bu to'plam 2002-yilda inglizcha tarjimasi bilan Garvard universiteti (AQSh) nashriyotida chop etildi[11].

Tasavvuf adabiyotini dunyoga mashhur qilgan omillardan biri va eng muhimi – bu adabiyotda yaralgan bosh qahramonlardir. Ilmda qayd etilishicha, G'arbda XII asrdan keyin "Hur tushuncha" degan tasavvufiy harakat tashkil etilib, u so'fiyona va orifona fikr-u tuyg'ularni o'zlashtirish hamda targ'ib etishda katta natijalarga erishgan ekan. Yanada aniqroq qilib aytiladigan bo'lsa, inglizlarda 1585-yildan e'tiboran "darvesh", 1609-yildan "faqir" va "orif", 1653-yildan "so'fiy" atamasi keng tatbiq qilingan. Tasavvuf tadqiqotchilarining umumiy e'tiroflariga ko'ra, "Orifning qalbi Arsh va kursidan ham keng bo'lmog'i muhaqqaqdir. Zero, Arsh va kursi, bularning ichidagilar olami jismoniydur. Qalbi solimning ruhi insoniydurki, u amri Rabboniy erur... Orif biror bir qavm yoxud millatning emas, jahonning sultonidur". Orif – Allohni tanigan, bilgan va Haq ma'rifatini mukammal egallagan zot, ya'ni ilohiy fayz odami.

10 Валихўжаев Ботирхон. Тариқат аҳлининг пири комили. Тафаккур 2004/3. – Б. 80.

11 Ўша манба, – Б. 81.

Ahmad Yassaviyning: "Haqni bilgan beg-u xon-u xalqni bilmas", – degan so'zlari orifga berilgan eng muxtasar va aniq xarakteristikadir. Alisher Navoiy she'riyatida ham orifga xos fazilat, xususiyat va orifona ma'nolar tasviri keng o'rin ishg'ol etgan. Bu to'g'rida navoiyshunoslikda ayrim umumiy fikrlar aytilgan bo'lsa-da, bu masala maxsus o'rganilmagan. Holbuki, orif obrazi bilan qiziqish va orifona ma'nolarga e'tibor ancha uzoq va izchil tarixga ega.

Orif oxirat zavqi va mukofot uchun emas. "valiligi ishoratlarini anglamoq uchun" Allohga yuz burgandir. Oriflar nazdidagi ma'naviy-ruhiy harakat uch bosqichdan iborat. Birinchisi – iroda holi, ikkinchisi – riyozat va uchinchisi, diqqati taqsif uchun o'zni hilmlashtirmoq. Tasavvufda "irfon" samimiy va davomli bir ilohiy suhbat ma'nosini ham bildiradi. Shu sababdan Sulaymon Boqirg'oniy:

Suhbatlik oriflarga jonim berib,

Suhbatsiz nodonlardan qochgim kelur,

degan. Orifning ibrati, eng avvalo, tarki da'vo, tarki takalluf, tarki dubbi mosivo (g'ayrni sevmak) va tarki tasalluf (tilyog'lamalik va yaltoqlanish) ga erishishidadir. Borliqqa foniy bo'lib, Haqning borlig'ida tirilmoq ideali bilan yashaganligi uchun ham orifning holatlarida shoshqinlik, besaranjomlik, shikoyat va tangdillik mutlaqo ko'zga tashlanmaydi. Orif mushohadaga berilarkan, yolg'iz Allohning hayot, ilm, iroda, qudrat, kalom singari sifatlarini bilish bilan cheklanmaydi, balki butun borliq – koinot va insoniylik sirlaridan ham ogohlikka erishadi. Bu ham bejiz emas. Tasavvufda tariqat ahllari uchun turli maqom va vazifalar belgilangan. Eng oxirgi maqom oriflar maqomi – siyom (parhez), qiyom (qoyim turish) va muroqaba bo'lib, ularning ustozi Muhammad alayhissalomdir. Bu yerda muroqaba haqida alohida to'xtalishning imkoni yo'q. Lekin orifning muroqabasi xoliqqa davomli nazar-u boshqasini ko'rmoqni unutish ekanligini eslatib o'tish kerak, albatta.

"Oriflar samovi majmaisida ko'ngillar tarvihi (rohat va sokinligi) uchun uch nimaga muhtojdurlar, – deydi Alisher Navoiy – ravoyihi tayyiba (tavba latofati va xushbo'yligi), vajhi sabih (sabab yoki yo'l go'zalligi), surati malih (hol va kayfiyat chiroyi)"[12].

Kamolot yo'liga kirgan kishi solik, murid, so'fiy, tolib, rind, darvesh kabi nomlar, talab ahli, xarobot ahli, faqir ahli, suluk ahli, dayr ahli singari sifatlar bilan yuritiladi. Bu yo'lni pirsiz bosib o'tish mumkin emasligi sababidan u o'ziga dastlab bir murshidi komil tanlaydi. Pir, murshid, piri mayxona, piri maykada, piri dayr, piri mug'on, piri xammor, piri xarobot, piri ishq, soqiy, komil kabi nomlar bilan esa so'fiyni kamolot sari boshlaydigan ikki dunyo siridan ogoh sohibdil inson ulug'lanadi. Tariqat yo'liga kirgan solik avvalo faqirni shior qilib olib, o'zlikka qarshi kurash boshlaydi. Bu jarayonda u nafs, dunyo va jism talablarini yengib, o'zini fano maqomiga yetkazadi, foniy bo'ladi. Foniylik, fanodan keyin esa baqo keladi. Baqoga yetgan solik komil inson hisoblanadi. U Haq va xalq orasida vosita bo'ladi. Uning qalbi oinai jahonnamo, Jamshid jomiday bo'lib, butun dunyo sir- asrori unda aks etib turadi. Demak, ko'zgu, Jamshid jomi, oinai jahonnamo so'zlari ham komil inson bilan bog'liq bo'lib, uning ilohiy fayz shu'lasidan charaqlab turgan shaffof qalbini bildiradi. Riyozat bosqichlarini bosib o'tib, komillik maqomini egallagan, Haqqa muqarrab (yaqin) bo'lgan bunday solik insonlarni so'fiy, orif, oshiq, komil, sidq ahli, faqir ahli, fano ahli, vasl (visol) ahli, ahli dil, ahli taqiq, ahli ishq, ahli dard, ahli nazar, ahli niyoz, piri ishq, murshidi ishq, ishq arbobi, ma'no ahli, safo ahli, vafo ahli, ahli roz, rizo ahli, ahli ma'rifat, ahli haqiqat, ahli irfon, ahli karam, ahli tab', ahli dayr, himmat ahli, shavq ahli, ahli saloh, sohibasror, sohibkamol, sohibnazar, sohibkaram kabi nom

12 Иброҳим Ҳаққул. Навоий шеъриятида ориф образи ва орифона маънолар. "Ўзбек тили ва адабиёти" журнали, 1994. № 3. – Б. 7-8.

va sifatlar bilan ulug‘laganlar[13].

- Bu nasoeh ahli hikmatlar bila,

Yuz tuman pand-u nasihatlar bila,

Mone o‘lg‘aylar alarg‘a har zamon,

To zamon ul fitnadin topqay amon[14].

Navoiyning bu uqtiruvlari buyuk shoir lirikasining g‘oyaviy-tematik mohiyatini tushunishda g‘oyat qimmatlidir. Navoiy bu bilan o‘z davrining buyuk shoiri va mutafakkiri sifatida adabiyotning, she’riyatning ijtimoiy-siyosiy hayotga, inson va uning moddiy-ma’naviy ehtiyojlariga yaqin turishi kerak, – degan g‘oyani ilgari surdi va o‘zi shu g‘oyaga izchil amal qildi. Bu esa uning ijodida ishqiy va rindona g‘azallar yozish bilan cheklanmasdan, ko‘plab orifona g‘azallar yaratishga, shu yo‘nalishni faol rivojlantirishga ham olib keldi.

Orifona g‘azallar yoki baytlar deganda biz Navoiyning qanday g‘azal va baytlarni tushunishimiz kerak? Navoiyning o‘z uqtirishlaridan, “orifona” terminining mazmunidan va nihoyat, shoir she’rlarini bir-biriga mavzu bo‘yicha qiyoslashdan kelib chiqib, uning devonlaridagi falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va nasihatomuz g‘azal va baytlarni shu ma’noda deyish mumkin. Bu xil g‘azal va baytlar an’anaviy mavzu va obrazlar bilan kam bog‘langan yoki bog‘lanmagan bo‘lib, shoir yashab ijod qilgan davr haqida, o‘sha davrning dolzarb hayotiy masalalari haqida bizda to‘g‘ri tasavvur paydo qiladi. Shuning uchun ham bu doiraga mansub g‘azal va baytlarni sinchiklab o‘rganish navoiyshunoslikda alohida ahamiyatga ega. Navoiy bu xil g‘azal va baytlari orqali kitobxonni hayot haqidagi yangi fikr va bilimlar bilan boyitadi, turmush haqida chuqur mulohaza yuritishga o‘rgatadi. “Navodir ush-shabob”dagi bir g‘azal shunday baytlar bilan boshlanadi:

Do‘stlar, olam eliga yoru hamdam bo‘lmangiz,

Yor ila hamdam demaykim, oshno ham bo‘lmangiz.

Oshnolig‘ aylabon o‘z joningizga har zamon,

Boisi yuz ming balo-yu mehnat-u g‘am bo‘lmangiz[15] ...

She’rda Navoiy o‘z hayotidan xulosa chiqarib, boshqalarni yomonlardan, turli nopokliklardan ogohlantirmoqchi. Bu g‘azalda ishqiy baytlar ham bor. Lekin shoirning bu g‘azalni yozishdan asosiy maqsadi hayot haqida mulohaza yuritish, odamlarga bu sohada o‘git berishdir. Shuning uchun bu xil g‘azallarni orifona deb atash to‘g‘ri bo‘ladi. Navoiyning bu g‘azaliga o‘z zamonidagi mehrsizlik, g‘ayriinsoniy munosabatlardan bezib yozgan quyidagi g‘azali ham har tomonlama hamohangdir:

Do‘stlar, ahli zamondin mehr umidi tutmangiz,

Mehri gardun bo‘lsalar, ko‘z nuridin yorutmangiz.

Gar shah o‘lsun, gar gadokim, solmangiz yuziga ko‘z,

Yodini balkim ko‘ngulga har taraf yovutmangiz.

Zulm ila yuz chok qilg‘on tang‘a gar marham yoqib,

Butkarurbiz desalar, ul zaxmlarni butmangiz.

El jafosining maloli qilsa har ham qasdi jon,

Ko‘nglungizni g‘ayri bekaslik bilan ovutmangiz[16] ...

Bu satrlarda qanchadan-qancha g‘am, alam, o‘pka-gina va norozilik yashirinib yotibdi! Bu xil she’rlarni o‘qib shoirning hayoti turli dramatizmlar bilan to‘la bo‘lganiga ishonch hosil qilasiz[17].

13 Очилов Эргаш. Навоий ғазалларида комил инсон тимсоллари. “Ўзбек тили ва адабиёти” жирнали. 2001. №1. – Б.14.

14 Алишер Навоий. Асарлар. Ўн беш томлик. 4- том. – Б. 466.

15 Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 4- том. – Б. 155-156.

16 Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 4- том. – Б. 155.

17 Ҳайитметов Абдуқодир. Навоийхонлик суҳбатлари. – Тошкент: Ўқитивчи, 1993. – Б.139.

Ahmad Aflokiyning "Manoqib ul – orifin" asarida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Qolaversa, Navoiy ayni shu masaladan bahs etganligi uchun ham sal keyinroq "Shart bu- kim, onglag'on sharh etmagay. To tildin boshqa ofat yetmagay", degan ta'kid so'zlarini bitgan. Bundan tashqari, baytdagi ma'ni ham biz o'ylagan "mazmun" yoki "fikr"ga aynan to'g'ri kelmaydi. Orifning murodi davriy emas, tadrijiy jazba natijasida hosil bo'ladi. "Shu jazba, – deydi Muhammad Fuzuliy, – insonni suratdan ma'niga yetkazib, uning nazaridagi xayoliy shakllar va mavhum naqshlarni oradan surib, uni haqiqiy maqomga yuksaltiradi". Tasavvuf bizda uzoq yillik tanaffusdan so'ng endi erkin va kengroq o'rganilayotgan soha. Shuning uchun ayrim xatoliklar, munozarali fikrlar sodir bo'lishi mumkin. Lekin bunda she'riy matn mohiyatini to'g'ri hamda teran tushunmasdan nazariy fikr aytish, katta umumlashmalar chiqarishdan nihoyatda ehtiyot bo'lishimiz shartdir[18].

Ma'lumki, hamma zamonlarda tasavvufni dinga, dinni tasavvufga qaram qilish yoki qarama-qarshi qo'yishga urinishlar bo'lgan. Orifning maslagi ayni shunday bir- yoqlamalik va mahdudlikdan ozoddir. Orif uchun tasavvuf din bo'lmaganidek, dinsizlik ham emas, balki dindorni ham, dinsizni ham Alloh ishqi va ilohiy go'zallikka vosil etadigan bir jabhadir. Dunyodagi barcha dinlarning o'z muqaddas kitoblari mavjud, ular o'z masjidlari, cherkovlari, butxona va ibodatxonalariga ega. Tasavvufda dini, irqi, mazhabi, millatidan qat'i nazar, olam xalqini birlashtiradigan yagona ibodatgoh bor. Bu – tasavvufiy hayotning bosh manbai – dil va ko'ngil atalmish Alloh taxtidir. Tasavvufda Zaburga ham, Tavrotga ham, Injil va Qur'oni karimga ham Tavhid maqomlarini anglatuvchi ramziy ma'nolar bag'ishlangan. Chunonchi: Injil ismlar tavhidi, Zabur fe'llar, Quron zot tavhidiga timsol erur. Qur'on zot olamidan tajalli topgan kitob bo'lganligidan uning qadri bag'oyat baland. Mavlono Rumiy bir ruboiysida: "Etmish ikki millat sirini bizdan tinglang. Biz ikki yuz mazhab ahli ila bir pardada so'zlashadigan nayga o'xshaymiz", – desa, Yunus Emro: "Etmish ikki millatni bir ko'z ila ko'rmagan, Shar'ning avliyosi esa-da, haqiqatda osiydir", – deydi. Navoiyning orifona she'rlaridagi mazmun ana shu umuminsoniy tushunchalarga hamohangdir. Shoir lirik qahramonining "Shayx San'on kibi din" tarkin etib:

But-u tarso qoshida sajda qilib,

Kuydurub mus'hafu bog'lab zunnor,

Yana mug' dayrig'a kirdim sarmast,

May tut, ey mug'bachai bodaparast, –

deya so'zlashi oddiy e'tirof emasdi[19].

Insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatgan ta'limotlardan bittasi, hech shubhasiz, Suqrot yaratgan qalb konsepsiyasi hisoblanadi. Bu ta'limotdan Suqrot insonning aqidaparastligi, o'z-o'zidan qanoatlanishi va mag'rurlikka qarshi to'xtovsiz kurashida foydalangan edi. Sharqda bunday vazifani o'z zimmasiga olgan va o'z-o'zidan mamnunlik, mag'rurlik hamda xudparastlikka doimo botiniy qarshilikda yashagan va goho ochiq kurashgan kishilar darveshlar va oriflar bo'lgan. Ularning tushunchasida, kibr – insonning o'z joni va imoniga zulm o'tkazishi, zulmning har qanaqa xili esa Haq qahriga uchramoqdir. Shu o'rinda bir haqiqatni alohida ta'kidlash joiz ko'rinadi. Jahondagi barcha dinlar va dindorlar u yoki bu darajada hokimiyat, siyosat va sultonlarga xizmat qilganlar. Din va siyosat o'rtasidagi yaqinlik ba'zan yaxshi natijalar bergan bo'lsa, ba'zan juda salbiy ishga aylangan. Fashizm tarixi bilan qiziqqan kishilarga ayonki, ikkinchi jahon

18 Иброҳим Ҳаққул. Тақдир ва тафаккур. Тошкент, "Шарқ" нашриёт – матбаа аксиядорлик компанияси Бош таҳририяти. 2007. – Б. 151.

19 Иброҳим Ҳаққул. Тақдир ва тафаккур. – Тошкент: "Шарқ" нашриёт – матбаа аксиядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2007. – Б.: 152.

urushida Benito Mussolinining g‘alabasi uchun Rim papasi Allohga tilovatlar uyushtirgan. Gitler davlat tepasiga chiqib bosqinchilik janglarini avj oldirgach, Olmoniyadagi cherkovlarda uning zavolini tilashganmi? Yo‘q, bu odamxo‘r jallodning butun dunyoga hokim bo‘lishini Tangri taolodan qo‘llab-quvvatlashni so‘rashgan. Afsuski, shunga yaqin qayg‘ulik hodisalar Sharqda ham sodir bo‘lgan. Ammo Sharqdagi hech qaysi orif yoki darvesh biror bir zolim shohni sharaflamagan, zulmni quvvatlab, mustabid hokimlarning qo‘g‘irchog‘i bo‘lmagan. Mana shu uchun ham adolatli shohlar millatning ma’naviy – ruhiy tayanchi va peshvolari deb bilishgan, ularga katta ehtirom ko‘rsatilgan[20].

Navoiy bu she’rida podshohlarning dunyoparastligi, ochko‘zligini qoralab, bo‘yradan kiyim kiygan, boshiga toshni yostiq qilgan gado va darveshlarni ularga qarama-qarshi qo‘ymoqda va ikkinchilariga husn-rag‘bat bildirmoqda. Navoiyning bu xil satrlarida uning javonmardlik, saxiylik qarashlariga yaqinligi ham sezilib turadi. Navoiy darveshning qimmatini, olijanobligini podshohning har qanday shon-shavkatidan yuqori qo‘ymoqda.

20 Иброҳим Ҳаққул. Навоий шеъриятида ориф образи ва орифона маънолар. “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали. 1994-йил. № 3. – Б.:11.

"BOBURNOMA"DA SIFAT YASOVCHI FORSCHA FE'L VA SIFATDOSHLAR

Abdulhamid Abdumo'minovich Abduvaliyev – katta o'qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Ziyoda Norqo'ziyevna Abduvaliyeva – katta o'qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Zahiriddin Muhammad Bobur o'z davrining zabardast yozuvchisi va shoiridir. U "Boburnoma" asarida mustaqil so'z turkumlariga alohida e'tibor berib sifat yasovchilar va sifatdoshni g'azallarda o'rinli qo'llaydi. Mustaqil so'zlarning eski o'zbek tili va yozuvida qo'llanilishiga alohida to'xtaladi. "Boburnoma" asarida sifat turkumiga doir forscha fe'llar, sifat ayrim hollarda ot vazifasida qo'llanganligini tahlil qiladi.*

Аннотация: *Захириддин Мухаммад Бабур – великий писатель и поэт своего времени. В произведении "Бобурнома" он уделяет особое внимание самостоятельным частям речи слов и уместно употребляет прилагательные и причастия в газелях. Особое внимание уделено употреблению самостоятельных слов в староузбекском языке и письменности. В работе "Бобурнома" он анализирует персидские глаголы, связанные с качеством прилагательных и тем, что прилагательные в некоторых случаях употребляются как существительные.*

Abstract: *Zahiriddin Muhammad Babur is a great writer and poet of his time. In the work "Boburnoma" he pays special attention to independent word groups and uses adjectives and adjectives appropriately in ghazals. Special attention is paid to the use of independent words in the old Uzbek language and script. In the work "Boburnoma" he analyzes the Persian verbs related to the quality of adjectives and the fact that adjectives are used as nouns in some cases.*

Kalit so'zlar: *adabiyotshunos, tilshunos, tarixshunos, yakpora, sufanamo, tarosh, yo'nmoq, tekislamoq, poklamoq, sadafkor, takband, gulband, nomdor, xabardor, mulkdor, muhrdor.*

Ключевые слова: *литературовед, лингвист, историк, якпора, суфанамо, тарош, бритье, уровень, очищение, щедрый, гордый, цветистый, знаменитый, информированный, хозяин, тюлень.*

Keywords: *literary scholar, linguist, historian, yakpora, sufanamo, tarosh, shave, level, purify, generous, proud, flowery, famous, informed, owner, sealer.*

Bizga ma'lumki, bugungi kunda adabiy va tarixiy merosimizni, qadimgi yodgorliklar, eski o'zbek tili va yozuvida yozilgan asarlarni asrash, uni iloji boricha qo'riqlash va o'rganishga harakat qilinishi kerak. Shu bilan bir qatorda mumtoz adabiyotimizda va hozirgi o'zbek tilida qo'llanib kelayotgan, arab va fors tilidan o'zlashgan so'zlashning ma'nolarini tushunish va o'quvchilarga tushuntirishdan iborat. Istiqlolga erishganimizdan so'ng, ilmning va eski o'zbek tilida ham katta o'zgarishlar yuzaga keldi. Ayniqsa, mumtoz adabiyotimizga o'z hissasini qo'shgan forscha shoir, yozuvchi va tarixshunos olimlarimizning hissasi kattadir.

Ushbu ilmiy maqolamizda buyuk sarkarda, tarixshunos, adabiyotshunos, tilshunos, tabiatshunos olim Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida sifat so'z turkumiga doir forscha fe'llar haqida ma'lumot berishga harakat qilamiz[1].

Asarda qo'llangan forscha fe'llar sifat va ayrim hollarda ot vazifasida ham kelishi mumkin. Masalan: – Yakpora toshdin sufanamo tarosh qilg'aylar[2] yoki:

1 Shamsiyev P. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1989. – B.27-28.
2 R. Jumaniyozov. Eski o'zbek yozuvi. – Toshkent, 2013. – B.13-14.

Bu imoratlar tamom sangi taroshindandur[3].

Ushbu misralarda 3 ta forscha fe'llarga tegishli hozirgi zamon fe'l asoslari ishtirok etgan sufanamo so'zi, tarash qilg'aylar, yoki fors izofasi yordamida yasalgan sangi taroshida birikmasi qo'llangan. Namo-so'zi namudan – ko'rinmoq, ko'rsatmoq-o'xshamoq, taroshida so'zi esa, tarashdan-tozalamoq, yo'nmoq, tekislamoq, poklamoq, tarashlamoq kabi sinonim ma'noli so'larning barchasi sifat ma'nosida qo'llangan. Sufanamo - supaga o'xshash, supadek, tarosh qo'lg'aylar-qo'shma fe'l tarkibida sifatga doir savollarga javob beradi.

Asarda qo'llangan tarosh so'zining o'zbek tiliga xos muqobili ham ishlatilgan. Bu kabi jumlalarda ikki tilda, forscha va o'zbek tilida ham bir ma'noni anglatib kelgan, masalan – yakpora toshdin imorat taroshlasa bo'lg'ay, – xub imorat tarosh qilg'aylar – ushbu gaplarda tarosh so'zi fors tiliga doir bo'lsa, tarosh – o'zbek tiliga tegishli so'z sifatida ishtirok etgan.

"Boburnoma"da forscha andoxtan – otmoq, tashlamoq, uloqtirmoq, solmoq kabi ma'nolarda qo'llanuvchi sinonim ma'noli so'zlarning hozirgi zamon asosi "andoz" – sol, ot, tashla, uloqtir ma'nolarida qo'shma fe'llar tarkibida qo'llangan.

-Sulton Muhammad baxshining uyiga bordim, poyandoz solib... (322-b).

-Arzga yettikim, cherik eli Bahra eliga besarliq va dastandozliqlar qildilar (206-b)

-Shayboq piyoda bila darvish Ali piyodakim, holo tufarandozdir. (209-b)

-Ando tirandozlik qildilar (146-bet).

-Xisravshoh bu voqeani oldin yashirib xazinag'a dastandozliq qildi. (206-b).

Andoz so'zi orqali yasalgan ayrim so'zlar o'zbekcha lug'atlarda ko'rsatilgan. Forscha lug'atlarda asarda qo'llangan ma'noda berilgan. Masalan, dastandoz so'zi forscha lug'atlarda o'g'irlamoq va talamoq (Farhang Z.T.I-tom 346-bet) ma'nosida.

Ushbu jumlalarda poyandoz solib (322-b), dastandozliq qildilar, tufakandozdur (209-b), tiyrandozlik qildilar (146-b) kabi so'zlardan forscha + forscha, forscha+o'zbekcha variantlarida qo'llanib poyandoz – oyoqning tagiga sol, tafahandoz, tiyr + andoz kabi so'zlarda andoz – ot, dastandozliq so'zida ham sol, xazinaga qo'l solish, og'irlik qilish ma'nolarida ishlatilgan. Shuning uchun ham fors tilida "andoz" so'zi omonim ma'nolarda qo'llangan bo'lsa, o'zbek tilida yuqoridagi sinonim ma'nolarda qo'llanganligini ko'ramiz.

Asarda bir necha o'zbek tilida sinonim ma'nolarda ishlatilgan "o'tirmoq" fe'lining, forscha "nishastan" varianti hozirgi zamon asosi ham, qo'shma fe'llar tarkibida ishtirok etgan. Masalan, – Samarqandda atrok va aymoq sahronishindur (228-b).

Har ikki poytaxt bir podshoh nishin bo'ldi. (248-b).

Rajab oyining oltisig'a Alvorkim, Mevot hokimnishinidur, borildi. (352-b)

Bir uydirkim hujraning mobayni to'rt shahnishin yosunluq bo'libdur(170-b).

Yuqoridagi jumlalarda qo'llangan "nishin" so'zi asosan qo'shma so'zlar tarkibida, o'zbekcha to'liqsiz fe'llar va qo'shma fe'llar tarkibida kelib o'tirmoq so'zining hozirgi zamon asosi ma'nosini yo'qotmagan, o'tir, o'tirish, o'tiradigan ma'nolarda qo'llaniladi. Ayrim jumlalarda yordamchi "nishin" so'zini gapning o'rtasida ishlatgan holatlarini ham ko'rishimiz mumkin.

Yor yayloqning dorug'a nishin ul qo'rg'ondur, keldim (52-b).

Shovdor tumaning dorug'a nishini uldur, olilg'ay (56-b).

3 Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985. – B.36-37.

Yuqoridagi jumlalarda "nishin" – o'tir so'zi qo'shma fe'llar tarkibida qo'llangan bo'lsa, ayrim gaplarda "nishin" so'zi joy ma'nosini anglatuvchi so'z sifatida alohida holda qo'llangan.

O'zi Nishin olangida o'lturib edi. (54-b)

O'zbekcha lug'atlarda "nishin" so'zining qisqa berilgan varianti "shin" so'zi ham qo'llangan. Bu so'z "Boburnoma"da qo'llanmagan va forscha lug'atlarda ham ishlatilmagan. Masalan: shinam – kishining bahridili ochiladigan, ko'rkam, shinam xona – o'tiradigan xona, ma'nolarida ayrim lug'atlarda (O'T.I.L) ham berilgan.

Oxirgi bekatda shinamgina choyxona ham bor ekan. (o'zbek tili izohli lug'at 2-tom).

Shunday qilib shuni ta'kidlash lozimki, forscha nishin – o'tir so'zi o'zbek tilidagi qo'shma so'zlar tarkibida kelib, o'zbekcha to'liq fe'lning ma'nosini anglatib kelishi mumkin. Bu hollarni ikki tillilik fors-tojik va eski o'zbek adabiy tillarning o'zaro ta'siri va hamkorligida ham namoyon bo'ladi. "shinam" "shinak" so'zi o'zbek tili so'zlashuv nutqida ishlatilgan. Forscha lug'atlarda bu so'zlar ko'rsatilmagan, chunki bu so'zlar fors-tojik tilining so'zlashuv nutqida "nishin" emas balki" "shin" so'zi o'tir ma'nosida qo'llangan[4].

Zahiriddin Muhammad Boburning asarida "guzashtan" o'tmoq fe'lining hozirgi zamon negizi guzar – ot ma'nosida qo'shma fe'llar tarkibida qo'llangan.

-Qolg'an el guzar bilan o'tdilar (206-b).

-O'ng qo'l tarafidin Qosimbek o'pchini bu suv bila guzar topdilar (144-b)

-Bu jumlalarda guzar "o't" so'zi, o'zbekcha fe'llarga qo'shilib o'tib bo'ladi, o'tgan edi, o'tsa bo'ladi degan ma'nolarda qo'llangan. Asardagi forscha jumlalarda ham qo'llanib "guzar" o't ma'nosida ishlatilgan.

-Agar ba xayr-u salomat go'zar zi sind kunam (255-b)

-Tarjima: agar sind tomonda sog'-salomat o'tsam.

-Teran hukm bo'ldi, quyiroq ko'rilgan guzar bila o'tgay (310-b).

-Dushanba kuni oyning yigirma sakkizida Kanor guzarida tushildi (305-b).

Bu jumlalarda guzar toptilar (266-b). Otadigan joy toptilar, guzar zi Sind kunam – Sindga o'tsam, guzar bila otgay (310-b) o'tadigan yo'lakda o'tay, Kanor guzarida tushildi (305-b) kabi birikmalarda o'zbekcha fe'llardan oldin o'zining hozirgi zamon mazmunini bir oz o'zgartirgan sifatida qo'llangan.

Asarda guzar – o't, yani guzashtan "o'tmoq" fe'li ma'nosida, guzar – guzarband (309-b). Guzargoh (330-b), guzar ko'rarga, ohar guzariga (275-b), rahguzar (255-b), quyiroq guzar (274-b) guzar topdi, el guzar bilan kabi so'z birikmalari bilan ham joy nomi, mahalla, suvdan o'tadigan joy, yo'lovchi o't, o'tib, o'tgan ma'nolarda ham ishlatilgan. Asarda guzar so'zining hozirgi zamon negizida + O unlisi qo'shilib guzaro – o'tadigan, o'tuvchi ma'nolarini anglatib juda ko'p jumlalarda qo'llangan.

Majlis ahli guzaro mastlar bo'lib o'tdilar (225-b),

Aybi bu edikim guzaro bosiq mug'lim edi. (173-b)

Xulqi bir nima guzaroroq voqe bo'lib edi (147-b)

Bu jumlalarda ahli guzaro (225-b) – o'tadigan el guzaro bosiq (173-b), guzaro nozuk (164-b), guzaroroq voqe bo'lib (147-b) kabi birikmalar ham ishlatilgan. Bu birikmalarda forscha hozirgi zamon sifatdoshi ma'nosida qo'shma fe'l yoki alohida so'z sifatida qo'llanganligini ko'ramiz[5].

4 Abdusamatov M. Fors tili. – Toshkent: O'qituvchi, 2007. – B. 36-37.

5 Xalilov I .Fors tili. – Toshkent: O'qituvchi, 2007. – B. 102-103.

Qo‘shma fe’llar tarkibida forscha bastan – bog‘lamoq so‘zining hozirgi zamon asosi band (vand), bog‘la so‘zi ham sermahsul qo‘llangan. Masalan, - mahallani ko‘chaband qilib berkittar (243-b)

Tongning sharqiy tarafig‘a guzarbandlig‘ xayoli bilan o‘lturibdur (243-b).

Tog‘ning orasida band solibdurlar (306-b)

Sanga farzand-u, manga dilbande (320-b)

Sadafkorlik sandali va kuygan nimcha va takband yuborildi (326-b)

Vale bu masnaviyning mazmuni va ustuxonbandligi bisyor kovak va xarobdur (163-b)

Ushbu jumlalarda ko‘chaband qilib berkituk (243-b), – band so‘libturlar (306-b), guzarbandlig xayoli bilan o‘lturibturlar, manga dilbande (320-b), ustuxonbandlig‘i bisyor kovak va xarobdur (163-b) kabi birikmalarda “Band” so‘zi o‘zbekcha fe’llar tarkibida, qo‘shma fe’llar tarkibida qo‘llangan.

Asarda bir necha joylarda takband (98-b) gulband (123-b), band (124-b), bandi buzug‘lar (126-b), bandi suxandur (126-b) va boshqalar alohida holda bog‘la ma’nosida va qo‘shma fe’llar, yoki ot kesimli so‘zlar tarkibida ishlatilganini ko‘ramiz[6].

Yuqoridagi fe’llarda doir so‘zlardan tashqari asarda doshtan (ega bo‘lmoq, bor bo‘lmoq) fe’lining hozirgi zamon negizi - dor, muhrdor (39-b), shoxdor (40-b), xabardor (38-b), qal’ador (18-b), nomdor (7-b), mamlakatdor (63-b), mulkdor, kitobdor, mehmondor va boshqalar juda ko‘p qo‘shma fe’llar tarkibida qo‘llangan.

Bunday so‘zlarni har tomonlama forscha va o‘zbekcha ma’nolarda mustaqil so‘z, yoki qo‘shma fe’llar tarkibida qo‘llangan. Yuqoridagi hozirgi zamon forscha fe’l negizlarida boshqa juda ko‘p forscha fe’llar, qo‘shma fe’llar tarkibida qo‘llangan. Ma’lumki o‘zbek + fors – tojik tillari bilan o‘zaro aloqasidan ba’zi o‘ziga xos tomonlari mavjud, lekin ayrim xususiyatlari jihatidan farq qiladi. Shunga qaramasdan har ikki tilda qo‘llangan forscha va o‘zbekcha so‘zlarning ma’nolarini har tomonlama harakat qilishimiz kerak.

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z davrining buyuk yozuvchisi hisoblangan. U o‘z asarida turkiy so‘zlar bilan bir qatorda forscha so‘zlarni ham sinonim, omonim ma’nolarda qo‘llagan. Shuning uchun ham asardagi forscha so‘zlar ma’nolarini ham to‘liq tushunishga harakat qilishga to‘g‘ri keladi[7].

6 Kollektiv Farhangi zaboni tojiki. I tom. – Moskva: Искуство, 1969. – B. 201-202.

7 Begmatov E.A., Madvaliyev A.P. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2013. – B. 101-102.

02

PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA INNOVATSION TA‘LIM

TA'LIM TIZIMIDA TALABALAR INNOVATSION TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Davron Abdurakibovich Alibekov – f.f.b.f.d., dotsent,
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ta'lim jarayonida talabalar innovatsion tafakkurini rivojlantirishning ahamiyati, innovatsion tafakkurni rivojlantirishdagi yondashuvlar, uning maqsadi va vazifalari, innovatsion tafakkurni rivojlantirishda metodlarini qo'llashning zaruriyati, innovatsion tafakkurni rivojlantirish texnologiyalari yoritilgan.*

Аннотация: *В данной статье описывается значение развития инновационного мышления студентов в образовательном процессе, подходы к развитию инновационного мышления, его цели и задачи, необходимость использования методов развития инновационного мышления, технологий развития инновационного мышления.*

Abstract: *This article discusses the importance of developing students' innovative thinking in the educational process, approaches to developing innovative thinking, its goals and objectives, the need to use methods to develop innovative thinking, and technologies for developing innovative thinking.*

Kalit so'zlar: *jamiyat, ta'lim, tarbiya, innovatsion, tafakkur, dunyoqarash, texnologiya, rivojlantirish, yondashuv, tamoyil, maqsad, vazifa, metod, natija, mezon.*

Ключевые слова: *общество, образование, воспитание, инновационное, мышление, мировоззрение, технология, развитие, подход, принцип, цель, задача, метод, результат, критерий.*

Keywords: *society, education, upbringing, innovative, thinking, worldview, technology, development, approach, principle, goal, task, method, result, criterion.*

Bugungi kunda jamiyatning turli sohalaridagi islohotlarning amalga oshirilayotganligi kelajak avlod oldiga muhim vazifalar qo'yadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'limga tegishli farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining ta'limga oid qator qarorlaridan ko'zlangan maqsad bilimli, ijodkor, izlanuvchan, dunyoqarashi keng, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan yoshlarni jamiyatga tayyorlashdan iboratdir. Bunday vazifalarni to'laqonli amalga oshirish uchun ta'lim sifatiga e'tibor qaratish lozim.

Mamlakatimizda ta'lim tizimidagi jarayonlar sifatini tubdan oshirish, sohani innovatsion rivojlantirish, unda ilmiy va texnologik faoliyatni qo'llab-quvvatlash borasida muhim chora-tadbirlar olib borilmoqda. Xususan, ilmiy soha va ta'lim tizimi innovatsion faoliyatning asosiy poydevori sifatida rivojlantirilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirishda ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish"[1] ko'zda tutilgan.

Ta'lim tizimi va uning infratuzilmalarini rivojlantirish, zamonaviy innovatsion dunyoqarashga ega bo'lgan ilmiy va pedagogik kadrlarni tayyorlash bilan bog'liq jarayonlarda namoyon bo'lmoqda. Prezidentimizning ta'kidlashicha, "Biz O'zbekistonni rivojlangan

1 Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда)

mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik"[2].

Ta'lim sohasi o'zining butun jarayonlari davrida texnologik va uslubiy ishlarning yanada mukammalroq va yanada samaraliroq tizimini izlash bilan rivojlanib boradi. Yillar davomida rivojlanib va murakkablashib borayotgan ta'lim jarayonlari uni tashkil etishning yanada samarali bo'ladigan usullarni izlab topishni asosiy vazifa qilib qo'yadi. Muammoli jarayonlarni o'rganishni birinchi o'ringa chiqarish, uning bosqichli asoslarini shakllantirish borasida muayyan tizim hosil qilish uslubiy ishlar va texnologiyalarning rivojlanishiga olib keladi.

Talabalar innovatsion tafakkurini rivojlantirish ta'lim jarayonlari va ijtimoiy hayot o'rtasida o'zaro aloqadorlikka asoslangan bo'lib, bu jihatlar inson borlig'ining mavjudlik va har doim taraqqiyotga moyillik xususiyatlarini belgilab beradi. Mazkur xususiyatlarni dinamik va barqaror rivojlanishini ta'minlash ta'lim tizimida olib borilayotgan jarayonlarini innovatsion asosda tashkil yetish darajasi bilan bog'liqdir. Ta'lim tizimini ijtimoiy mushohada qilish ta'limni innovatsion rivojlantirish xususiyatlarini va qonuniyatlarini belgilab beradi.

Innovatsion tafakkur atamasi odatda insonlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlar doirasidagi vazifalarni bajaradigan hamda uning yordamida boshqariladigan tizimlar, zamonaviy tahlillar va katta ma'lumotlarga ega dasturlarni o'z ichiga oladi. Innovatsion tafakkur tizimlari ushbu bilimlar zaxirasidan kognitiv funksiyalarga yaqin qarorlar qabul qilish va chora-tadbirlar belgilashda, shu jumladan, sohalarni o'rganish va muammolarni hal qilishda foydalaniladi.

Ta'lim tizimida talabalar innovatsion tafakkurni rivojlantirishda funksional, me'yoriy, institutsional, tanqidiy kabi yondashuvlarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin.

1. Funksional yondashuv ta'lim tizimidagi innovatsion tafakkurni rivojlantirish jarayonlarini o'rganishda ular o'rtasidagi bog'liqliklarni faqat dalillar va tajriba asosida tekshirishni afzal ko'radi. Masalan, ta'lim va tarbiya, ta'lim va fan o'rtasidagi, soha moliyaviy ta'minoti va xodimlar ijtimoiy ahvoli o'rtasidagi bog'liqliklarni tajriba asosida o'rganishni talab etadi.

2. Me'yoriy yondashuv ta'lim tizimida innovatsion tafakkurni rivojlantirish jarayonlarining jamiyat va shaxs uchun ahamiyatini aniqlash, ularni inson va jamiyat umumiy farovonligi, iqtisodiy o'sish, ijtimoiy taraqqiyot, ma'naviy va ma'rifiy rivojlanish kabi qadriyatlar nuqtayi nazaridan baholashni taqozo etadi.

3. Institutsional yondashuv ta'lim tizimining boshqaruvi tuzilmalari, oliy o'quv yurtlari, malaka oshirish tizimlari, ta'lim va tarbiyaga oid turli tashkilotlar va uyushmalar hamda ta'lim faoliyatni amalga oshiruvchi boshqa institutlarni o'rganadi.

4. Tanqidiy yondashuv esa ta'lim tizimida innovatsion tafakkurni rivojlantirish jarayonlarini tanqidiy tahlil asosida o'rganib, undagi ichki muammolar, salbiy ko'rinishlarni o'rganadi. Bu usul ta'lim tizimi va o'quv hamda tarbiya jarayonlarida bo'ladigan o'zgarishlarni umumiy aloqadorlik va o'zaro ta'sir natijalariga asoslangan holda tahlil qiladi[3].

2 Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи газетаси 2020 йил 25 январь №19 (7521).

3 Алибеков Д. "Таълим тизимини инновацион ривожлантиришнинг ижтимоий-фалсафий хусусиятлари". Фалсафа доктори

Ta'lim jarayonida innovatsion tafakkurni rivojlantirish borasida vazifalar ham borki, ular pedagogik jarayonlar, ularning elementlari o'rtasidagi munosabatlarni ta'minlaydi. Ta'lim tizimida innovatsion tafakkurni rivojlantirish jarayonlarining tahlilida quyidagi vazifalar va mantiqiy jarayonlarga tayaniladi:

ta'lim tizimida innovatsion tafakkurni rivojlantirish vazifalarni aniqlash;

ta'lim tizimida innovatsion tafakkurni rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash;

ta'lim tizimida innovatsion tafakkurni rivojlantirish maqsadlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

ta'lim tizimida innovatsion tafakkurni rivojlantiruvchi modelni tanlash;

ta'lim tizimida innovatsion tafakkurni rivojlantiruvchi vositalardan foydalanish;

ta'lim tizimida innovatsion tafakkurni rivojlantirish muammolarni hal qilish optimal variantlarni qo'llash.

o'zimizga xos va mos jihatlarni o'zimiz uchun, kelgusi avlodlar uchun aniqlab olish kerak bo'ladi.

Shunday qilib ta'lim tizimida talabalar innovatsion tafakkurini rivojlantirishda muammoni hal qilish uchun uni tushunish va bunga erishish vositalarini bilish kifoya qilmaydi. Muammoni hal qilish uchun uning yechimiga xizmat qiladigan vositalarni amalda qo'llash, ya'ni muayyan metodlardan foydalanish talab qilinadi. Shu tufayli metodlar yordamida ta'lim yangicha mazmun-mohiyat kasb etadi. Metodlar ta'lim va tarbiya munosabatlariga boshqacha yondashishni talab qiladi, ularni hal qilish (nazorat qilish) bo'yicha maxsus faoliyat yuritish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Metodlar jarayonning mazmun-mohiyati muammoni hal qilish uchun qo'llanilayotgan vositalarga uzviy bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Ta'lim tizimida innovatsion tafakkurni rivojlantirish metodlarining qo'llash zaruriyati quyidagicha:

ta'lim va tarbiyani amalga oshirish jarayonida mutasaddilar tomonidan maqsadlarga erishishning oqilona, qulay va samarali usullarni qo'llash zaruriyati;

ta'lim jarayonlarini boshqarishning foydali va tejamkor usullarini qo'llash zaruriyati;

ta'limda u yoki bu jarayonning og'ir va keskin "nuqtalari"ni, bosqichlarini aniq belgilash imkoniyatining mavjudligi;

ta'limni boshqarish hamda muammoning yechimiga xizmat qiladigan samarali va foydali harakatlarni amalga oshirish imkoniyatining paydo bo'lishi;

ta'lim jarayonlari subyektlarining o'zaro munosabatlarini barqarorlashtirish zarurati, bunda tomonlar o'z xatti-harakatlarning ilg'or usullarini tez orada o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladilar.

Ta'lim tizimini innovatsion rivojlantirishda turli metodlarni qo'llashdan asosiy maqsad – ta'limda samaradorlikka erishish, istiqbolli dasturlarini ishlab chiqish, ta'lim subyektlari manfaatlarni uyg'unlashtirishga xizmat qilishi mumkin. Belgilangan maqsadlarga erishish va kutilgan natijani olish – olib borilgan ishlar samaraliligini baholashning oliy mezonidir. Shu bilan birga ta'lim jarayoni samaradorligini baholash nihoyatda murakkab ekanligini ta'kidlash joiz. Chunki, ta'limda makon va zamon nuqtayi nazari bilan berilayotgan amaliy takliflarni hayotga joriy etish uchun subyektlarning mavjud resurslari va imkoniyatlari chegaralangan bo'lishi mumkin. Lekin mavjud shart-sharoitlardan foydalanib bu vazifalarni amalga oshirish ma'lum soha, qolaversa ta'limni rivojlanishiga xizmat qiladi.

диссертацияси. Самарқанд 2021. –Б. 94.

Ta'lim tizimida innovatsion tafakkurni rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etish metodologik ahamiyatga ega bo'lib, har xil vositalari va usullaridan, yangi texnik, texnologik, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy va huquqiy bilimni innovatsion tashkil etish va tizimlashtirish shakllaridan, ta'lim amaliyotida yig'ilgan umumiy bilimlar va tajribalar doirasida talqin qilish va baholash prinsiplaridan, ilmiy-ijtimoiy tafakkur hamda ta'lim muammolarni o'z vaqtida o'rganish va tahlil qilish usullaridan foydalanishda namoyon bo'ladi.

Ta'lim tizimida innovatsion tafakkurni rivojlantirishda uslub va texnologiyalarni qo'llash ta'lim va tarbiya maqsadlariga erishish yo'llarini belgilashda ustuvorlik qiladi. Mazkur usullar maqsadlarni va ularga erishish yo'llarini belgilashda oldindan ko'ra bilish, tajribaga asoslanish imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Ta'lim jarayoni ishtirokchisi uslublarni tanlashda ko'proq uning aniq-ravshanligi, tushunarliligi va pirovard natijaga olib borish imkoniyati bilan bog'liq bog'liqligi kabi tamoyillari hal etuvchi rol o'ynaydi. Umuman olganda, ta'lim tizimida talabalar innovatsion tafakkurini rivojlantirishda qo'llaniladigan uslub va texnologiyalar ilm va fanni rivojlanishiga qaratilgan nazariyalar yaratish yoki bilimlarni ko'paytirish bilan birgalikda ta'lim jarayonidagi amaliy vazifalarni hal qilishda mavjud ilmiy-nazariy salohiyatdan foydalanish, uni hayotga tatbiq etishga yo'naltirilgan. A.Jamolovning fikricha, "ta'limni samarali tashkil etishda innovatsion pedagogik muhitni yaratish, o'qitishning yangi paradigmalarini ishlab chiqish hamda nazariya va amaliyot integratsiyasini rivojlantirish, ta'limda innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va vizuallashtirilgan didaktik vositalarning integrativ imkoniyatlaridan samarali foydalanish usullarini tadqiq etish"[4] samarali faoliyat hisoblanadi.

Bunda nazariy qarashlar bilan bir qatorda ta'limda to'plagan tajriba, vazifalarni hal qilishda inson malakasi va ko'nikmasi, uning oldindan ko'ra bilish va sezish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqacha qilib aytganda, uslublardan foydalanishda chuqur nazariy umumlashtirishlardan foydalanibgina qolmay, shakllangan amaliy tajriba asosida ham ish yuritish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadbiqiy bilimlarning amaliyotga yo'naltirilganligini inobatga oladigan bo'lsak, aytish mumkinki, aynan amaliy uslublar va texnologiyalar ta'lim-jamiyat davlat tizimini barqarorlashtiradi.

Ta'lim tizimida talabalar innovatsion tafakkurini rivojlantirish uslublari va texnologiyalari haqidagi bilimlar holati izlanishlarning turli yo'llari va rejalarini yuzaga keltiradi. Ushbu jarayonda ta'lim uslublarini tanlash bilan bir qatorda ushbu bosqichning ajralmas tarkibiy qismi – qoidalar va tadbirlarni belgilash, turli texnologiyalar va bilish usullarini qo'llashni tartibga keltiruvchi harakatlar ketma-ketligini aniqlashtirish bilan bog'liq. Bunday qoidalar ta'lim jarayonida innovatsion tafakkurni rivojlantirishda olingan bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga xizmat qiladi[5].

Ta'lim tizimida talabalar innovatsion tafakkurini rivojlantirish uslublarni qo'llashdan aniq natijalarini olish uchun uchun quyidagi maqsad va talablarga javob berishi kerak:

- asosiy faoliyat yo'nalishini aniqlab olish;
- masalalarni hal qilish bosqichlarini aniqlash;
- maqsad sari yo'nalishni belgilab olish;
- maqsadni aniqlashga yo'naltiruvchi omillarni izlab topish;

4 Жамолов А. Тиббиёт коллежларида ўрта тиббий ходимлар тайёрлаш методикасини инновацион технологиялардан фойдаланиб такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2019. –Б. 5.

5 Алибеков Д. "Таълим тизимини инновацион ривожлантиришнинг ижтимоий-фалсафий хусусиятлари". Фалсафа доктори диссертацияси. Самарқанд 2021. –Б 98.

- o'z vaqtida real maqsadlarni belgilash;
- muammoni asoslash va o'z vaqtida va o'rnida qo'ya bilish;
- natijaga erisha oladigan bo'lishi;
- mavjud texnologik, ilmiy-texnik ishlanmalar, aniq faktlar bilan bog'liq resurslarga tayanish zarurligi.

Zamonaviy sharoitda oliy ta'lim tizimida fanlar kesimida talabalar innovatsion tafakkurini shakllantirish dolzarbligi namoyon bo'lmoqda. Tizimda o'tiladigan fanlar ichida falsafa predmetining bilish falsafasi mavzusida inson tafakkur tarzini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Shu jihatdan olib qaraganda axborot va texnologiyalar asrida talabalar innovatsion tafakkurini shakllantirishga ehtiyoj tug'iladi. Yangiliklarga moyillik, novatorlik xususiyatlarini yuzaga chiqarish, tafakkur tarzini axborotlashgan jamiyat tamoyillari, xususiyatlari va mezonlariga moslashtirish hamda adaptiv salohiyatini shakllantirishga urg'u beriladi.

Ta'lim tizimida talabalar innovatsion tafakkurini rivojlantirishda texnologiyalarini qo'llash orqali olinadigan asosiy natijalarning mohiyati:

- o'quv jarayonlarini qiyoslash imkoniyatini beradi;
- o'quv samarasini qiyosiy ko'rish va haqiqatni anglashga yordam beradi;
- o'quv faoliyatini maqsadli yo'naltirishga xizmat qiladi;
- o'quv jarayonlaridagi ijobiy va salbiy voqelikni farqlashga xizmat qiladi;
- globallashuv sharoitida madaniy-axloqiy qadriyatlarni qayta baholashga erishiladi;
- o'zaro ta'sir va raqobat muhitida o'zini o'zi boshqarish, o'zini o'zi tashkil etishga, o'zini o'zi tartibga solishga yordam beradi.

Ta'lim tizimida talabalar innovatsion tafakkurini rivojlantirish jarayonlarida uslubiy va texnologik ta'minlash ishlarini takomillashtirishda quyidagi mezonlar muhim hisoblanadi:

- O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni doimiy o'rganib borish, uslubiy jarayoniga tatbiq etish hamda shu me'yoriy xujjalar asosida ta'lim jarayonlarining rejasi va mazmunini tashkil etish;
- uslubiy jarayonni yuqori saviyada tashkil etish, sifat ko'rsatkichlarni yuqori darajaga ko'tarish, uning davomiyligini ta'minlash;
- uslubiy jarayonni mazmunan sifatli tashkil etish uchun olimlar, jamoatchilik va mutaxassislarining salohiyatidan maqsadli ravishda keng foydalanish;
- ta'lim jarayonini uslubiy ta'minlashda jamoat tashkilotlari, mahalla, ota-onalar hamkorligi ko'lamini oshirish;
- jamiyatimizda ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlarda erishilayotgan yutuq va muvaffaqiyatlarni, xalqaro maydonida ro'y berayotgan voqealar rivojini talabalarga yetkazish.

Jamiyatda ta'limga bo'lgan ehtiyojlarning yangilanib hamda ortib borishi o'z navbatida ularning qisqa muddatda va sifatli qondirilishini ta'min etuvchi faoliyatni yo'lga qo'yilishini taqozo etadi. Ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy aloqadorlik kasb etuvchi, unga yangicha mazmun baxsh etishi mumkin bo'lgan ta'lim faoliyati bugungi kunning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Tabiiy ravishda uni olib borish uchun pedagogik fanlar yutuqlaridan samarali va unumli foydalanish vazifasi ta'lim jarayonida innovatsion tafakkurni mukammal darajada rivojlantirishni taqozo etadi.

Ta'lim tizimida talabalar innovatsion tafakkurini rivojlantirish jarayonlarining takomillashishi ta'lim bilan bog'liq ishlarni

loyihalashga yangicha yondashuvlarni talab etadi. Ta’limga innovatsion yondashuv mazkur jarayonlarni aniq vositalar yordamida samarali boshqarish va qo‘yilgan maqsadlarga muvaffaqiyatli erishish natijalarini kafolatlaydi. Ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuv ta’limning sohalarini konseptual va loyihali tahlil etish, ta’lim va tarbiya bilan bog‘liq muammolarni yechishda yangi imkoniyatlarni yaratadi.

INTELLEKTUAL TIZIMLAR VOSITASIDA TALABALARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA PEDAGOGIK TAMOYILLAR

Botir Baxtiyor o'g'li Abdullayev –p.f.b.f.d., dotsent,
Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali

Annotatsiya: *Ushbu maqolada intellektual tizimlar vositasida talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda qo'llaniladigan pedagogik tamoyillar o'rganilgan. Pedagogik tamoyillar, ta'lim jarayonida talabalarni yuqori malakali mutaxassislar sifatida tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish va mustahkamlashga yordam beradi. Maqolada intellektual tizimlarning o'rni, ular yordamida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini o'rganish, shuningdek, bu tizimlarning talabalarning o'qish va kasbiy faoliyatiga qo'shgan hissasi ko'rsatilgan. Intellektual tizimlar orqali kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishda ilg'or pedagogik yondashuvlar, metodikalar va zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish muhimligi haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются педагогические принципы, используемые в совершенствовании профессиональной подготовки студентов посредством интеллектуальных систем. Педагогические принципы помогают подготовить студентов как высококвалифицированных специалистов в образовательном процессе, развить и укрепить их интеллектуальные способности. В статье показана роль интеллектуальных систем, изучение процесса формирования профессиональных компетенций с их помощью, а также вклад этих систем в учебу и профессиональную деятельность студентов. Подробная информация представлена о важности применения передовых педагогических подходов, методик и современных технологий в совершенствовании профессиональной подготовки посредством интеллектуальных систем.*

Abstract: *This article studies the pedagogical principles used in improving students' professional training through intellectual systems. Pedagogical principles help to prepare students as highly qualified specialists in the educational process, develop and strengthen their intellectual abilities. The article shows the role of intellectual systems, the study of the process of forming professional competencies with their help, as well as the contribution of these systems to students' studies and professional activities. Detailed information is provided on the importance of applying advanced pedagogical approaches, methodologies and modern technologies in improving professional training through intellectual systems.*

Kalit so'zlar: *intellektual tizimlar, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik tamoyillar, kasbiy kompetensiya, talaba, ta'lim jarayoni, o'qish metodikasi, texnologiyalar, pedagogika, rivojlanish.*

Ключевые слова: *интеллектуальные системы, профессиональная подготовка, педагогические принципы, профессиональная компетентность, студент, образовательный процесс, методика обучения, технологии, педагогика, развитие.*

Keywords: *intellectual systems, professional training, pedagogical principles, professional competence, student, educational process, teaching methodology, technologies, pedagogy, development.*

Zamonaviy ta'lim tizimi o'zgarishlarni doimiy ravishda amalga oshirayotgan bir davrda, ta'lim jarayonining sifatini oshirish va talabalarning kasbiy tayyorgarligini yaxshilash masalasi dolzarb ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Xususan, kasbiy tayyorgarlik talabaning professional faoliyatiga muvaffaqiyatli kirishishi uchun muhim asos yaratadi. Buning uchun ta'limda innovatsion texnologiyalar, xususan, intellektual tizimlardan foydalanish juda muhimdir. Intellektual tizimlar yordamida talabalarga individual yondashuvni ta'minlash, ularning bilim darajalarini o'zlashtirish va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun zamonaviy imkoniyatlar yaratiladi. Ushbu mavzu o'qituvchilar, ilmiy xodimlar, ta'lim sohasida ishlayotgan mutaxassislar va siyosatchilar uchun katta ahamiyatga ega.

Jahon miqyosida intellektual tizimlar yordamida ta'lim va kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. XXI asrda texnologiyalarning tez sur'atlar bilan rivojlanishi, global raqobatning kuchayishi va yangi kasblarning paydo bo'lishi ta'lim tizimlarida muhim o'zgarishlarni talab qilmoqda. Shu bois, intellektual tizimlar orqali ta'lim jarayonini optimallashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va talabalarga yuqori malakali mutaxassis sifatida tayyorlash jahonning rivojlangan davlatlarida ustuvor yo'nalishlardan biriga aylangan.

Keng tarqalgan ta'lim tizimlarida, xususan AQSh, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari va Osiyo davlatlarida intellektual tizimlarning ta'lim jarayoniga tatbiqi kengayib bormoqda. Bu mamlakatlarda ta'limga innovatsion texnologiyalarni qo'llashning asosiy maqsadi talabalarning o'z-o'zini o'rganish jarayonini tashkil etish, bilimlarni individual ravishda rivojlantirish va ularning kasbiy tayyorgarlikni zamonaviy texnologiyalar asosida oshirishdir. Misol uchun, AQSh va Germaniyada "adaptive learning" (moslashuvchan ta'lim) tizimlari keng tarqalgan bo'lib, bu tizimlar talabalarni o'quv jarayonida o'zining individual ehtiyojlariga qarab yo'naltiradi va ularga moslashtirilgan materiallar taklif etadi[1]. Bu orqali talabalar nafaqat bilimlarni o'rganadi, balki o'z kasbiy faoliyatlariga tayyorlanishda samarali yondashuvlarni rivojlantiradilar.

Yaponiya va Singapur kabi mamlakatlarda ham intellektual tizimlar yordamida ta'limga innovatsion yondashuvlar joriy etilmoqda. Bu davlatlar o'z ta'lim tizimlarida ilg'or texnologiyalarni qo'llashni yanada kengaytirib, kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqdilar. Singapurda, masalan, ta'lim va kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirishda sun'iy intellekt (AI) va o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlovchi tizimlar yordamida talabalarni kasbiy tayyorgarlik jarayonida yuqori darajada muvaffaqiyatga erishishga yordam berishmoqda.

MDH mamlakatlari, jumladan, Rossiya, Belarus va Qozog'iston kabi davlatlar ham ta'lim tizimlarida intellektual tizimlar va innovatsion texnologiyalarni joriy etishga katta e'tibor qaratishmoqda. Rossiyada pedagogik jarayonni avtomatlashtirish va intellektual tizimlardan foydalanish sohasida yangi dasturlar ishlab chiqilmoqda. Rossiyada ta'lim tizimi modernizatsiyasiga oid davlat dasturlari doirasida pedagogik texnologiyalarni takomillashtirishga katta ahamiyat berilmoqda[2]. Intellektual tizimlar yordamida talabalarning o'rganish jarayonlarini boshqarish, ularning bilim va ko'nikmalarini baholash, shuningdek, yangi kasblarni o'rgatishda samarali yondashuvlar ishlab chiqilmoqda.

Qozog'istonda ham intellektual tizimlar va raqamli texnologiyalarni ta'limga tatbiq etish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda. Qozog'iston hukumati ta'lim tizimida raqamli transformatsiyani amalga oshirishga alohida e'tibor qaratib, o'quvchilarni va o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlashga intilmoqda. Ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali talabalarni kasbiy tayyorgarlik jarayonida samarali yondashuvlarni joriy etish, shuningdek, raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish maqsad qilinmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim tizimida intellektual tizimlarni qo'llash va kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Mamlakatimiz hukumati tomonidan ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni kengaytirish, intellektual tizimlar orqali o'quv jarayonlarini yanada samarali tashkil etish bo'yicha turli loyihalar amalga oshirilmoqda. "Raqamli

1 Anderson, J. R. (2014). Cognitive psychology and its implications. Worth Publishers.

2 Aliyev, A. (2021). Pedagogical technologies in higher education: Innovations and modern trends. Tashkent: National University of Uzbekistan Press.

O'zbekiston" dasturi doirasida ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llash va ularni ta'lim tizimiga tatbiq etish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Shu bilan birga, yurtimizda intellektual tizimlar yordamida ta'limni takomillashtirishga qaratilgan tadbirlar davom etmoqda. Mamlakatda kasbiy tayyorgarlikning samaradorligini oshirish uchun ta'lim tizimini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirish, ta'lim jarayonida intellektual tizimlarni qo'llash orqali talabalarga individual yondashuvni ta'minlash masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Mamlakatimiz Prezidentining 2017-yil 6-sentyabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarining ta'lim sifatini oshirishga doir chora-tadbirlar" to'g'risidagi farmoniga asosan, ta'limda innovatsion yondashuvlarni joriy etish va ilg'or tajribalarni qo'llash maqsadida qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida intellektual tizimlarning qo'llanilishi orqali talabalarni nafaqat umumiy bilimlarga ega bo'lish, balki ularning kasbiy ko'nikmalarini ham rivojlantirishga imkoniyat yaratiladi. Bu, ayniqsa, yangi kasblarning rivojlanishi va jahon bozoriga mos mutaxassislarni tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Shu sababli, intellektual tizimlar yordamida kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish Mamlakatimiz ta'lim tizimida dolzarb masala sifatida e'tirof etilmoqda.

Ta'lim tizimida intellektual tizimlar yordamida kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish, jahon, MDH va mamlakatimiz miqyosida katta dolzarblikka ega. Zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, talabalarga individual yondashuvni ta'minlash, ularning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish va o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi[3]. Ushbu jarayon, shuningdek, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda yangi imkoniyatlar yaratadi, bu esa global va mahalliy bozorlar uchun yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim va kasbiy tayyorgarlikning sifatini oshirish, ayniqsa intellektual tizimlar yordamida kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishning ilmiy va amaliy ahamiyati juda katta. Bu jarayon nafaqat talabalarning bilim darajasini oshirish, balki ularning kasbiy faoliyatlariga tayyorlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy va amaliy ahamiyatni quyidagi asosiy jihatlar orqali tahlil qilish mumkin.

Intellektual tizimlarning ta'lim jarayonida qo'llanilishi pedagogik ilmiy-tadqiqot sohasiga yangilik kiritadi[4]. Bu tizimlar yordamida o'quv jarayoni samarali boshqarilishi, bilimlarni mustahkamlash va talabalarni individual ehtiyojlariga mos ravishda o'qitish imkoniyatlari yaratiladi. Ta'limda texnologiyalarni qo'llashning ilmiy asoslari, o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish va o'rganish faoliyatlarini rivojlantirishning samaradorligini oshirishi ilmiy tadqiqotlar natijasida tasdiqlanmoqda. Shu orqali pedagogik tizimlar o'zgaradi, yangi metod va texnikalar ishlab chiqiladi.

Intellektual tizimlar yordamida kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishning ilmiy ahamiyati talabalarning kasbiy kompetensiyalarini o'rganishga asoslangan. O'quv jarayonini ilmiy tahlil qilish orqali talabaning kasbiy kompetensiyasini, uni rivojlantirishda texnologiyalarni qo'llashning ahamiyatini aniqlash mumkin. Bu o'z navbatida ta'limning yangilanishi, yangi pedagogik yondashuvlarning qo'llanilishi va kasbiy tayyorgarlikni zamonaviy talablar asosida tashkil etishni ilmiy nuqtayi nazardan izohlash imkonini beradi. Shuningdek, intellektual tizimlar kasbiy tayyorgarlikda murakkab muammolarni yechishga qaratilgan ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

3 Novikov, D. A., & Karpov, A. D. (2015). The role of artificial intelligence in modern education. Moscow: Higher School of Economics Press

4 Kagan M. V. (2017). Intelligent systems in education: Theory and practice. Saint Petersburg: Peter Publishing

Intellektual tizimlar yordamida ta'lim jarayonida yangi pedagogik metodlar, o'quv vositalari va texnologiyalarni tatbiq etish ilmiy jamoa tomonidan tadqiq qilinmoqda. Bunday tizimlarning ilmiy tadqiqotlarga ta'siri, yangi pedagogik yondashuvlarning ishlab chiqilishi va samarali texnologiyalarning qo'llanilishi natijasida o'quvchilarni zamonaviy kasblarga tayyorlashda innovatsion yondashuvlar rivojlanadi. O'qituvchilar va ilmiy xodimlar tomonidan intellektual tizimlar yordamida pedagogik samaradorlikni o'lchash, talabalarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Intellektual tizimlar yordamida kasbiy tayyorgarlik jarayoni amaliy ahamiyatga ega bo'lib, talabalarning o'z kasbiy faoliyatlariga tayyorlanishiga yordam beradi. O'quvchilarni individual ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim olishlari va o'zlarining zaif tomonlarini aniqlashlari mumkin. Amaliyot asosida ishlash orqali talabalarning kasbiy kompetensiyasi oshadi. Ular amaliy topshiriqlar, vazifalar va simulyatsiyalar orqali bilimlarini mustahkamlashlari mumkin. Shuningdek, bu tizimlar talabalarning kasbiy faoliyatda samarali ishlashiga, yangi texnologiyalarni qo'llashga tayyorlanishga yordam beradi.

Intellektual tizimlar yordamida ta'lim jarayonining optimallashtirilishi amaliy jihatdan talabalarga individual yondashuvni ta'minlash imkoniyatini beradi. Shuningdek, o'quv jarayonida talabalar o'zlarining bilim darajasini tezda baholash, kerakli o'zgartirishlar kiritish va o'zlarini takomillashtirishlari mumkin. Intellektual tizimlar yordamida ta'limni boshqarish jarayoni ancha yengillashadi, va bu talabalarning samarali va tez o'rganishlariga yordam beradi. Masalan, talabalar o'z bilimlarini real vaqt rejimida baholashlari, o'quv materiallari va topshiriqlarni moslashtirishlari mumkin.

Amaliy yondashuvlardan biri talabalarni kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan. Intellektual tizimlar yordamida talabalar amaliy masalalarni hal qilish, yangi g'oyalar yaratish va innovatsion echimlarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunday tizimlar talabalarga real dunyo masalalariga yechimlar topishga yordam beradi. Bu jarayon talabalarni kasbiy faoliyatga yanada samarali tayyorlaydi, chunki ularning ijodkorlik va kreativlik qobiliyatlari rivojlanadi.

Intellektual tizimlar yordamida talabalar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. O'qituvchilar va talabalar o'rtasida muloqot va hamkorlik, shu jumladan, talabalarning bir-birlarini o'rganishlari va o'z bilimlarini birgalikda baholashlari hamda fikr almashishlari uchun zarur bo'lgan vositalar taqdim etiladi. Bu hamkorlik va jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantiradi, bu esa kelajakdagi kasbiy faoliyatda talabalar uchun juda muhim ahamiyatga ega.

Intellektual tizimlar yordamida talabalarni yangi va zamonaviy kasblarga tayyorlash jarayoni amaliy ahamiyatga ega. Global ish bozori tezda o'zgarib borayotgan bir paytda, talabalar yangi kasblarga tayyorlanishlari zarur. Intellektual tizimlar bu jarayonni osonlashtiradi, chunki ular o'quvchilarga kasbiy bilim va ko'nikmalarni o'rganish va amaliyotda qo'llash imkoniyatini taqdim etadi. Shuningdek, bunday tizimlar orqali talabalar o'zlarining o'rganish yondashuvlarini moslashtirishlari va yangi kasblarga tayyorlanishlari mumkin.

Intellektual tizimlar yordamida kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishning ilmiy va amaliy ahamiyati ta'lim jarayonining sifatini oshirish, talabalarga individual yondashuvni ta'minlash va ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga asoslangan[5]. Ilmiy jihatdan, intellektual tizimlar pedagogik jarayonni

5 Churakov V.I. (2016). Adaptive learning systems: New opportunities in teaching. Moscow: Висшая Школа Publishing.

optimallashtirish va yangi pedagogik metodlarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi. Amaliy jihatdan esa, ular talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, kreativ fikrlashni rivojlantirish va hamkorlik koʻnikmalarini oshirishga yordam beradi. Bularning barchasi ta'limni yanada samarali va zamonaviy talablar asosida tashkil etishni ta'minlaydi.

Ta'lim tizimi oʻzgarishlar va yangilanishlarni boshdan kechirmoqda. Ushbu oʻzgarishlarning asosiy maqsadi ta'lim sifatini oshirish, talabalarni yuqori malakali mutaxassislar sifatida tayyorlash va ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdir. Ta'lim jarayonida intellektual tizimlar vositasidan foydalanish, talabalarni oʻqishdan tashqari, kasbiy faoliyatga tayyorlashda ham samarali vosita boʻlib xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, intellektual tizimlar orqali kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishda pedagogik tamoyillarning oʻrni muhimdir. Maqolada intellektual tizimlar yordamida talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda qoʻllaniladigan pedagogik tamoyillarni tahlil qilish va bu tizimlarning ta'lim jarayonidagi rolini yoritish maqsad qilingan.

Pedagogik tamoyillar ta'lim jarayonida talabalar bilan ishlashning asosiy yoʻnalishlarini belgilaydi. Bu tamoyillar yordamida talabalar kasbiy bilimlar va koʻnikmalarni oʻzlashtiradi, oʻzlarining intellektual va kasbiy rivojlanishlariga e'tibor qaratiladi. Intellektual tizimlar esa, oʻz navbatida, ta'lim jarayonini yuqori darajada optimallashtirish va individual yondashuvni ta'minlashda yordam beradi. Oʻquvchilarni kasbiy tayyorgarlikda qoʻllaniladigan pedagogik tamoyillar orasida faollik, individual yondashuv, kreativlikni rivojlantirish, oʻz-oʻzini baholash, hamda tajribaga asoslangan oʻrganish kabi asosiy tamoyillar ajralib turadi.

Intellektual tizimlar yordamida ta'limni takomillashtirishda birinchi tamoyil – bu individual yondashuvdir. Har bir talaba oʻzining bilim darajasi, ehtiyojlari va qiziqishlariga qarab oʻqitilishi kerak. Intellektual tizimlar yordamida talabalarning individual xususiyatlari, oʻrganish tezligi va bilim darajasi hisobga olinadi, va shunga mos ravishda oʻquv materiallari va topshiriqlar taqdim etiladi. Bunday yondashuv talabalarni maksimal darajada rivojlantirishga yordam beradi, chunki ular oʻzlarining zaif tomonlarini koʻrishlari va rivojlantirishlari uchun imkoniyatga ega boʻladilar. Shu bilan birga, talaba oʻzining kuchli tomonlarini yanada mustahkamlash imkoniyatiga ega boʻladi.

Ikkinchi tamoyil faoliyat asosida oʻrganishdir. Bu tamoyilga koʻra, talabalar faqat nazariy bilimlarni oʻzlashtirish bilan cheklanmasdan, ularni amaliyotda qoʻllashni ham oʻrganadilar. Ta'lim jarayonida faoliyat asosida oʻrganish talabalarni oʻzlarining kasbiy koʻnikmalarini rivojlantirishga, real muammolarni hal qilishga va natijada oʻz kasbiy faoliyatlariga tayyorlanishga yordam beradi[6]6. Intellektual tizimlar yordamida talabalar turli xil simulyatsiyalar va topshiriqlar orqali oʻz bilimlarini sinab koʻrishlari, amaliy tajriba orttirishlari mumkin. Bu oʻquv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi.

Uchinchi tamoyil oʻz-oʻzini baholashdir. Oʻz-oʻzini baholash talabaga oʻz bilimlari va koʻnikmalarini tahlil qilish va oʻzgartirish imkonini beradi. Intellektual tizimlar yordamida talaba oʻz bilim darajasini tekshirish, natijalarni baholash va oʻzining zaif tomonlarini aniqlash imkoniyatiga ega boʻladi. Bu esa talabaning oʻzini takomillashtirishga va oʻrganish jarayonini boshqarishga yordam beradi. Oʻz-oʻzini baholash orqali talabalar oʻzlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashlari, kerakli oʻzgartirishlar kiritishlari va oʻzlarini yanada rivojlantirishlari mumkin.

Toʻrtinchi tamoyil yuqori motivatsiyadir. Ta'lim jarayonida talabalar oʻz maqsadlariga

6 Petrushin I.V. (2020). Information technology and artificial intelligence in education. Moscow: Education Publishing.

erishish uchun rag'batlantirilishi kerak. Intellektual tizimlar yordamida talabalar uchun motivatsiya yaratish, o'quv materiallarini qiziqarli va interaktiv tarzda taqdim etish mumkin. Shu bilan birga, intellektual tizimlar talabalar o'rtasida sog'lom raqobatni rivojlantirish, turli xil o'yinlar va simulyatsiyalar orqali talabalarni o'rganishga rag'batlantirish imkoniyatini yaratadi. Bu esa o'quvchilarni o'rganishga yanada jalb qiladi va ularning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Beshinchi tamoyil interaktivlikdir. Ta'lim jarayonida talabalar o'rtasida interaktiv aloqalarni o'rnatish, ularning fikrlarini erkin ifodalash, bir-birlarini baholash va hamkorlik qilish muhimdir. Intellektual tizimlar talabalar o'rtasida muloqotni rivojlantirish, fikr almashish va ko'nikmalarni o'zaro baholash imkoniyatlarini yaratadi. Bu tamoyil, shuningdek, talabalarning kasbiy faoliyatlarida o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Kasbiy muammolarni hal qilishda samarali jamoaviy ishni amalga oshirish uchun talabalar orasida muloqot va hamkorlik zarur.

Intellektual tizimlar orqali kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishda zamonaviy texnologiyalarning roli katta. Texnologiyalar yordamida talabalar o'z bilimlarini o'rganish, yangilash va amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Intellektual tizimlar yordamida talabalar interaktiv o'quv materiallari bilan ishlash, simulyatsiyalar va o'yinlar orqali amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini topadilar. Bu tizimlar o'quv jarayonini avtomatlashtirish, ma'lumotlarni tahlil qilish va baholash jarayonini tezlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, intellektual tizimlar talabalarning o'z bilimlarini real vaqt rejimida tahlil qilish va ularga tezkor tavsiyalar berish imkoniyatini yaratadi.

Pedagogik tamoyillarning intellektual tizimlar yordamida amalga oshirilishi, o'quvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Bu tamoyillar talabalarni yuqori malakali mutaxassislar sifatida tayyorlash, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, shuningdek, ularga o'z-o'zini baholash, kreativ fikrlash va yangi texnologiyalarni qo'llash kabi qobiliyatlarni oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, intellektual tizimlar ta'lim jarayonini samarali boshqarish, o'quvchilarga individual yondashuvni ta'minlash, ularning bilimlarini doimiy ravishda yangilash va takomillashtirish imkoniyatini yaratadi.

Xulosa sifatida aytib o'tish mumkinki, intellektual tizimlar yordamida kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishda pedagogik tamoyillar muhim ahamiyatga ega. Bu tamoyillar yordamida talabalar nafaqat kasbiy bilimlarni o'zlashtirish, balki ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish, ijodiy fikrlashni oshirish va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash kabi ko'nikmalarni ham o'rganadilar. Intellektual tizimlar yordamida ta'lim jarayoni yanada samarali, qiziqarli va interaktiv bo'ladi, bu esa talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qiladi.

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABA QIZLARNI RAHBARLIK LAVOZIMLARIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Refide Izmerovna Ablyakimova – katta o'qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Maqolada talaba qizlarni rahbarlik lavozimlariga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari OTM ma'muriyati, professor-o'qituvchilar va talaba qizlar o'rtasida ma'muriy, ijtimoiy hamda metodologik yondashuv asosidagi murakkab munosabatlar keltirilgan. Ushbu munosabatlar talaba qizlarda rahbar uchun zarur bo'lgan amaliy, yumshoq, qattiq hamda kasb ko'nikmalarini shakllantirishni maqsad qilgan holda kerakli metodik hamda texnologik vositalarni ishga solishni taqozo etishi masalalari yoritilgan.*

Аннотация: *В статье описывается педагогические механизмы подготовки студенток к руководящим должностям, которые состоят из сложных отношений между администрацией ВУЗА, профессорско-преподавательским составом, основанных на административном, социальном и методическом подходе. Эти отношения требуют использования необходимых методических и технологических инструментарий с целью формирования у студенток практических, мягких, жестких и профессиональных навыков, необходимых лидеру.*

Abstract: *The article describes the pedagogical mechanisms of preparing female students for leadership positions, which consist of complex relationships between the university administration, faculty, based on administrative, social and methodological approaches. These relationships require the use of the necessary methodological and technological tools in order to develop practical, soft, hard and professional skills in female students, necessary for a leader.*

Kalit so'zlar: *boshqaruv-tashkiliy soha, ijtimoiy-psixologik soha, davlat, jamiyat, boshqaruv, xotin-qizlar, gender tengligi, barkamol avlod, rahbar, sivilizatsiya, takomillashtirish.*

Ключевые слова: *управленческо-организационная сфера, социально-психологическая сфера, государство, общество, менеджмент, женщины, гендерное равенство, лидер, цивилизация, совершенствование.*

Keywords: *management and organizational sphere, socio-psychological sphere, state, society, management, women, gender equality, leader, civilization, improvement.*


Rivojlanayotgan mamlakatlarda ayollarning jamiyatda o'z o'rnini topishi, jumladan, ularni davlat va jamiyatni boshqarish faoliyatiga jalb etish muhim masalalardan biri bo'lib kelmoqda. BMTga ko'ra oliy ta'lim muassasalari gender tengligini ta'minlashning asosiy drayverlari hisoblanadi[1]. Shubhasiz, oliy ta'lim muassasalari nizomlarida mavjud qonunchilikka ko'ra ayollar huquqlari ta'minlanishi bevosita yoki bilvosita belgilangan. Biroq aytib o'tish lozimki, oliy ta'lim muassasasi avvalambor o'quv-pedagogik jarayonlar amalga oshiriladigan dargoh.

Binobarin, ayollarni rahbarlik lavozimlariga tayyorlashning ma'muriy-huquqiy aspektlari bilan birga pedagogik mexanizmlariga ham ehtiyoj mavjudligiga dalolat qilishi mumkin. Gender tengligining ma'muriy huquqiy asoslari yaratilganiga qaramay, ushbu muammo hanuz kun tartibidagi pedagogik mexanizmlar takomillashtirilmaganligiga ishora qilmoqda. Oliy ta'lim muassasasida o'quv jarayonlari muassasa ma'muriyati, professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi ko'p tomonlama o'zaro munosabatlar majmuasidan iboratdir. Oliy ta'lim muassasasi ma'muriyati talabalar faoliyatiga tashkiliy-boshqaruv nuqtayi nazaridan ta'sir ko'rsatsa, professor-o'qituvchilar

1 Global Lens on Gender Equality in Universities: Reviewing their Performance | United Nations

talabalarning kasbiy hamda ijtimoiy psixologik kamolotida muhim o'rin tutadi. Shunday qilib, OTM ma'muriyati, professor o'qituvchilar hamda talabalar o'rtasidagi munosabatlar talabalarning kasbiy, boshqaruv hamda ijtimoiy kompetensiyasi shakllanishida muhim o'rin tutadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar kontekstida talaba qizlarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlashni takomillashtirish aynan gender tengligiga doir ma'muriy-huquqiy mexanizmlarning pedagogik jarayonlarda aks etishiga bog'liq. Oliy ta'lim muassasalarida talaba qizlarni rahbarlik lavozimlari tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari ijtimoiy psixologik, metodik hamda tashkiliy boshqaruv sohasini takomillashtirishni taqozo etadi.

Talaba qizlarni rahbarlik lavozimlariga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari sxemasi.



Oliy ta'lim muassasalarida talaba qizlarni rahbarlik lavozimlariga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari OTM ma'muriyati tomonidan boshqaruv-tashkiliy sohadagi tashabbuskorlikni taqozo etadi. Bunga quyidagilarni sanab o'tishimiz mumkin:

1. Gender tengligini ta'minlashning vositalaridan biri resurslar taqsimotida tenglikni ta'minlash hisoblanadi. Binobarin oliy ta'lim muassasasi ma'muriyati talaba qizlarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda ular uchun treninglar, qo'shimcha kurslar tashkil etishi talaba qizlarda rahbarlik kompetensiyalarini shakllantirishga ulkan hissa qo'shishi mumkin.

1.2. Lider qizlar klubi darsdan tashqari tashkil etilib, talaba qizlarning kasbiy faoliyatida jiddiy muvaffaqiyatga erishgan ayol rahbarlar, tadqiqotchilar, o'z sohasining liderlari bilan uchrashuv hamda davriy asosda tashkil etiluvchi davra suhbatlarini o'z ichiga oladi. Bunday klublar talaba qizlarda yumshoq ko'nikmalar shakllanishi, o'ziga ishonch hissi oshishi, ularda kelajakdagi faoliyati borasida asosiy tushunchalar shakllanishida samarador hisoblanadi. L.Oklif o'z doktorlik dissertatsiyasida qizlar klubi xotin-qizlarda o'zini anglash hamda mustaqil shaxs sifatida jamoatchilik faoliyatida ishtirok etishida yordam berishini aniqlagan.

1.3. BMT modellari (Model United Nations) global muammolarga yechim topishda talabalarning ovozi bo'lib xizmat qiladi. Bunday modellar BMT sessiyalarining simulyatsiyasidan iborat bo'lib, unda har bir talaba bitta a'zo davlat vakili sifatida ishtirok etadi. Ushbu model talabalarda tanqidiy fikrlash, o'ziga ishonch hamda muzokara ko'nikmalarini rivojlantirib, ijtimoiy ko'nikmalar shakllanishiga yordam beradi. BMT modellari talaba ayollarning boshqaruv kompetensiyasini oshirish mexanizmi ularning delegat sifatida sessiyalarda ishtirok etishi, o'z ovoziga egaligini his etishida yotadi. Qolaversa, talabalar sessiyaga tayyorgarlik uchun mustaqil izlanadilar hamda o'z vaqtini o'zlari samarali idora etishni o'rganadilar. Natijada talabalarda rahbarlik uchun zarur vaqtni boshqarish hamda mustaqil o'rganish ko'nikmalari shakllanadi. BMT modellarining yana bir muhim jihati – talabalarda madaniy ta'sirchanlikning oshishi, o'zini global jarayonlarning bir qismi deya his qilishning shakllanishi hisoblanadi. Delegat sifatida ishtirok etish – talabalarda turli mintaqa, madaniyat hamda mamlakatlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'zlashtirib boradilar hamda bugungi kunda jahon hamjamiyati oldida turgan dolzarb muammolardan xabardor bo'lgan holda o'z yechimlarini taklif etishni o'rganadilar. Natijada, BMT modellarida o'zlashtiriladigan vaqtni idora qilish, muammolarga yechim topish kabi ko'nikmalar, global muammolar hamda turli madaniyatlar haqida orttiriladigan bilimlar talaba qizlarda boshqaruv kompetensiyalari shakllanishida poydevor bo'lishi mumkin.

1.4. Turli xil to'garaklar. Talaba qizlarning kasbiy hamda shaxsiy rivojlanishidagi o'ziga xoslikni inkor etish qiyin. Shuni inobatga olgan holda ularda tadqiqot kompetensiyasini shakllantiruvchi to'garaklar, kasb-hunarga yo'naltirilgan to'garak va qo'shimcha kurslar talaba qizlarda kasbiy va boshqa kompetensiyalarning rivojlanishida alohida o'rin tutadi.

2. OTM xotin qizlarni rahbarlik lavozimiga tayinlashda gender diskriminatsiya holatlariga yo'l qo'ymasligi, jumladan gender tengligiga doir amaldagi qonunchilik har qanday gender stereotiplaridan ustun bo'lishini ta'minlashi lozim.

Bu borada oliy ta'lim muassasalaridagi ijtimoiy psixologik muhitni alohida qayd etish lozim. Tadqiqotlarga ko'ra talaba qizlarga o'qituvchilar o'quv jarayonlarida kam e'tibor

berishi – ularning muvaffaqiyati yo'lidagi to'siqlardan biri bo'lib kelgan[2]. Xususan, pedagogika bo'yicha falsafa doktori darajasini olganlarning 69 foizi ayollardan iborat, biroq ta'lim sohasida rahbarlik lavozimini egallaganlar orasida ayollar kamchilikni tashkil etadi[3]. OTM ma'muriyati hamda professor-o'qituvchilar talabalar bilan bevosita hamda bilvosita ijtimoiy psixologik munosabatga kiruvchi oliy ta'limdagi muhim ishtirokchilar hisoblanadi. Talaba qizlarni rahbarlik lavozimlariga tayyorlash uchun OTM ma'muriyati hamda professor-o'qituvchilar quyidagilarni amalga oshirishi mumkin:

1. Rivojlanayotgan mamlakatlar ayollarni rahbar lavozimlariga tayyorlash yo'lidagi g'oyalardan biri – gender stereotiplar hisoblanadi. OTM ma'muriyati hamda professor-o'qituvchilar ushbu stereotiplarni dars va darsdan tashqari rasmiy hamda norasmiy munosabatlarda yo'qotishi jumladan, gender tengligi tushunchasini rasmiy maqomdan ijtimoiy maqomga aylantirishga harakat qilishi lozim.

Shu bilan birga OTMda talaba qizlarning ijtimoiy-psixologik muammolarini o'rganishning ahamiyatini ta'kidlash o'rinli. Bu borada oliy ta'lim muassasalari talaba qizlar uchun tashkil etilgan turli vositalardan foydalanishi mumkin.

1.1. Psixologik konsaltinglar – psixolog suhbati mana shunday vositalardan biri hisoblanadi. Psixolog suhbati shaxsning ruhiy portretini chizish, uning muammolarini maqsadli bartaraf etish vazifalarini bajaradi.

1.2. Mentorlar hamda professor-o'qituvchilar bilan individual suhbatlar – talaba qizlarda o'ziga ishonch hissini oshirish, ularda netvorkingni shakllantirish vazifasini bajaradi.

Talaba qizlarning professor-o'qituvchilar bilan munosabatlari faqat ijtimoiy-psixologik vositalar bilan chegaralanib qolmagan. Talaba hamda professor-o'qituvchilarning o'zaro munosabatlarida bilim hamda ko'nikmalarni taqdim etish markaziy o'rinni egallaydi. Bu borada professor-o'qituvchilarning metodik yondashuvlarini qayd etish alohida ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talaba yigitlar va talaba qizlarning tanlov fanlarini tanlash jarayoni farq qiladi. O'g'il bolalar aniq fanlarga asoslanuvchi, amaliy ko'nikmalarni rivojlantiruvchi fanlarni, qizlar esa adabiyot kabi yumshoq ko'nikmalarga asoslangan fanlarni tanlashga moyil[4].

1. Kasbiy rivojlanish, karyeradagi muvaffaqiyatlar esa asosan amaliy ko'nikmalarga bog'langan. Shuni inobatga olgan holda professor-o'qituvchilar talaba qizlarga amaliy ko'nikmalarni singdirishga alohida e'tibor qaratishi talaba qizlarni kasbiy faoliyatida muvaffaqiyat qozonishiga etaklashini faraz qilish qiyin emas. Misol uchun chet tili fanida kontentga asoslangan metodlar – sohaga doir terminlarni chet tilida o'rganishga urg'u bergan holda qattiq ko'nikmalarni rivojlantirishi mumkin. Aralash metodlar esa (Blended learning) talabalarning akademik natijalarini yaxshilashi isbotlangan. Loyihaga asoslangan metodlar esa talabalarning kognitiv faolligini 35 foizga oshirishi aniqlangan[5]. Shuningdek, metodlar sirasiga keys stadilar (case study), kompyuter simulyatsiyalari kabilarni ham sanab o'tish mumkin.

2. Tadqiqotlarga ko'ra o'qituvchilar talaba qizlarga yigitlardan ko'ra 10-30 foiz kamroq e'tibor qaratadilar[6]. Bu talaba qizlarda kasbiy kompetensiya shakllanishini murakkablashtirib, ularning karyerasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

2 EJ1232297.pdf (ed.gov)

3 POWER — Providing Opportunities for Women in Education Research (POWER) (womeninedresearch.com)

4 Gender differences in the classroom | Educational Psychology (lumenlearning.com)

5 Dai Z., Yang Y., ChenZ. et al. The role of project-based learning with activity theory in teaching effectiveness: Evidence from the internet of things course. Educ Inf Technol (2024). https://doi.org/10.1007/s10639-024-12965-9

6 Gender differences in the classroom | Educational Psychology (lumenlearning.com)

Professor-o'qituvchi hamda talaba qizlar o'rtasida mustahkam rishtalarni o'rnatish vositalaridan biri sifatida ustoz-shogird an'anasini keltirib o'tishimiz mumkin.

Xulosa sifatida aytib o'tish mumkinki, oliy ta'limda talaba qizlarni rahbarlik lavozimiga tayyorlash – talaba qizlar, professor-o'qituvchi hamda oliy ta'lim muassasasining o'zaro boshqaruv-tashkiliy, ijtimoiy psixologik hamda metodik kesimdagi munosabatlari sinergiyasidan tashkil topgan murakkab jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonga har tomonlama, tizimli yondashish talaba qizlarni rahbarlikka tayyorlash faoliyatini rivojlantiradi. Bunda gender stereotiplariga barham berish, resurslar taqsimotida tenglikni joriy etish, talaba qizlarni ijtimoiy psixologik hamda metodik qo'llab quvvatlash – muhim ahamiyatga ega.

PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI MAXSUS FAN O'QITUVCHILARINING MEDIAKOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Akmal Rustamovich Hafizov – o'quv ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, Buxoro neft va gaz sanoati kolleji

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'zbekistonda kasbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining media kompetentligini rivojlantirish usullari tahlil qilingan. Media savodxonlik va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, shuningdek, kompetentlikka asoslangan yondashuv, loyihaga asoslangan o'qitish hamda raqamli vositalarni integratsiya qilish kabi usullarning samaradorligi yoritilgan. Maqola doirasida mazkur usullarni amaliyotda qo'llash misollari keltirilgan va ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyati qayd etilgan.*

Аннотация: *В статье рассматриваются методы развития медиакомпетентности преподавателей профессиональных образовательных учреждений в Узбекистане. Освещена эффективность таких методов, как медиаграмотность, использование цифровых технологий, компетентностный подход, проектное обучение и интеграция цифровых инструментов. Приведены примеры применения данных методов на практике и их значимость в образовательном процессе.*

Abstract: *This article examines the methods for developing media competency among educators in professional educational institutions in Uzbekistan. The effectiveness of approaches such as media literacy, the use of digital technologies, competency-based approaches, project-based learning, and the integration of digital tools is discussed. Examples of practical application and the significance of these methods in the educational process are highlighted.*

Kalit so'zlar: *media kompetentlik, raqamli texnologiyalar, kompetentlikka asoslangan yondashuv, loyihaga asoslangan o'qitish, media savodxonlik, o'qituvchilar tayyorgarligi.*

Ключевые слова: *медиакомпетентность, цифровые технологии, компетентностный подход, проектное обучение, медиаграмотность, подготовка преподавателей.*

Keywords: *media competency, digital technologies, competency-based approach, project-based learning, media literacy, teacher training.*

O'zbekistonda raqamli transformatsiya jarayoni shiddat bilan rivojlanib, barcha sohalarda innovatsion yondashuvlar joriy etilmoqda. Bu jarayonda kasbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining media kompetentligini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Zero, raqamli texnologiyalar va media vositalar bilan ishlash ko'nikmalari har bir o'qituvchining kasbiy tayyorgarligida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi ""Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079- Farmonida "mediasavodxonlik va raqamli ko'nikmalarni oshirish"ga qaratilgan bir qator islohotlarni o'z ichiga oladi[1]. Bu islohotlar nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchilarning ham raqamli muhitga moslashuvchanlik qobiliyatini rivojlantirishni talab qiladi.

Ayniqsa, kasbiy ta'lim muassasalari maxsus fan o'qituvchilarining media kompetentligini oshirish ularning dars jarayonlarida zamonaviy vositalardan samarali foydalanishini, talabalarga

1 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги "Рақамли Ўзбекистон-2030" стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-6079- Фармони,. http://lex.uz//docs/5030957

tanqidiy fikrlash va raqamli savodxonlik ko'nikmalarini shakllantirish imkonini yaratadi. Bu jarayonda kompetentlikka asoslangan yondashuv, loyihaga asoslangan o'qitish va raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish kabi innovatsion usullar muhim ahamiyat kasb etadi.

Media kompetentligini rivojlantirish kasbiy ta'limda muhim ahamiyatga ega, ayniqsa media va raqamli texnologiyalar bilan bog'liq sohalarda. Media kompetentlik turli ko'nikmalarni o'z ichiga oladi, jumladan, media xabarlarni tushunish, media qurilmalardan foydalanish va media vositalarini kasbiy vazifalarda samarali qo'llash. Taqdim etilgan tadqiqot ishlarida media kompetentligini rivojlantirishning turli usullari va yondashuvlari o'rganilgan. Bu usullar qatoriga kompetentlikka asoslangan yondashuvlar, loyihaga asoslangan o'qitish va raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish kiradi. Quyida tadqiqotlarda qayd etilgan media kompetentligini rivojlantirishning asosiy usullari keltirilgan.

Kompetentlikka asoslangan yondashuv Bolon jarayonining markaziy g'oyalaridan biri bo'lib, ta'lim standartlarini rivojlantirish uchun ishlatiladi. U kompetentliklarning mohiyati va tuzilishini tushunish hamda ularni shakllantirish va o'z-o'zini rivojlantirish uchun samarali usullarni topishga qaratilgan[2].

Media-dizayn ta'limida kompetentliklarni modellash va professional tayyorgarlik jarayoniga kompetentlikka asoslangan yondashuvni integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv talabalarga dizayn, ijodiy, texnologik va kommunikativ ko'nikmalar tizimini o'zlashtirishni ta'minlaydi[3].

Toshkentdagi kasb-hunar kollejida "Media dizayn" fanini o'qitish jarayonida talabalarga dizaynning asosiy prinsiplari bo'yicha nazariy bilimlar beriladi va ularga amaliyotdagi voqealarga oid topshiriqlar taklif etiladi. Masalan, talabalar o'zlari yaratadigan virtual reklama loyihasini real biznes yoki ijtimoiy muammoga moslashtirib ishlaydilar. Bu ularga dizayn, texnologiya va kommunikatsiya ko'nikmalarini kompetentlikka asoslangan yondashuvda rivojlantirishga yordam beradi.

Loyihaga asoslangan o'qitish universitet talabalarida axborot kompetentligini rivojlantirish usuli sifatida e'tirof etilgan. Bu yondashuv shaxsiy rivojlanish va axborot savodxonligini raqamli manbalar orqali oshirishga qaratilgan media-o'quv loyihalarini o'z ichiga oladi. Media ta'lim loyihalari talabalarning kasbiy kompetentligini oshirish uchun qo'llaniladi, jumladan, raqamli vositalardan foydalanish va ijodkorlikni namoyon qilish qobiliyatini rivojlantirish[4].

Samarqanddagi pedagogika universitetida talabalarga "Media ta'lim" loyihasini amalga oshirish topshirig'i berildi. Ular raqamli ta'lim platformasini ishlab chiqib, o'qituvchilar uchun qo'llanmalar yaratdilar. Loyihada ishtirok etish jarayonida talabalar raqamli texnologiyalardan foydalanish, axborot savodxonligi va ijodiy yondashuvlarni rivojlantirdilar.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish professional ta'lim o'qituvchilarining media kompetentligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Bu kasbiy rivojlanish kurslarini takomillashtirish uchun ta'limdan keyingi faoliyatni monitoring qilish va diagnostika usullarini joriy etishni o'z ichiga oladi[5].

2 Kozlov D. (2019). Media competence as a factor in the development of the innovative culture of the future manager of the educational institution. 23, 118–121. https://doi.org/10.33989/2075-146X.2019.23.18321

3 Derev'yanko, N. (2020). Competence approach in designing a professional educational program mediadesign. 3, 79–88. https://doi.org/10.51706/2707-3076-2020-3-8

4 Tabachuk N. P. (2022). Information Competency Of University Students In Media Education Projects. https://doi.org/10.15405/epsbs.2022.06.104

5 Muslimov N. A., & Begimqulov H. S. o'g'li. (2022). Methods of improving the media competence of professional education teachers in the system of professional development through digital technologies. Current Research Journal of Pedagogics, 03(07), 10–14. https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-07-03

Teleko'rsatuvlar va yetakchilik sohasida ijtimoiy media ko'nikmalari va shaxsiy brend yaratishni integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv mutaxassislarga raqamli media muhitiga moslashishga yordam beradi[6].

Bir maktabda media kompetentligini oshirish maqsadida o'qituvchilar uchun maxsus kurs tashkil etildi. Kurs doirasida ularga interaktiv taqdimotlar yaratish, videolar tahrirlash, ijtimoiy tarmoqlarda ta'limiy kontent tarqatish kabi ko'nikmalar o'rgatildi. Masalan, bir o'qituvchi "Tarix va ijtimoiy fanlar" darslarini rang-barang media materiallar bilan boyitdi va bu talabalarning qiziqishini oshirdi.

Media savodxonlik media kontentni tanqidiy tushunish va baholash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bu ko'nikma haqiqiy va soxta axborotni ajratish uchun zarur bo'lib, media ta'limida muhim o'rin tutadi[7].

Media savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan professional faoliyatda samarali foydalanish qobiliyati bilan bog'liqdir[8].

Buxorodagi universitet talabalariga "Media savodxonlik" seminari o'tkazildi. Unda talabalarga soxta xabarlarni haqiqiylaridan ajratish usullari o'rgatildi. Masalan, bir mashq jarayonida ular turli manbalardan olingan maqolalarni tahlil qilib, axborotni tanqidiy baholash orqali media savodxonliklarini oshirishdi.

Media kompetentligini maxsus ta'lim dasturlari va innovatsion o'qitish usullari orqali rivojlantirishga urg'u berish bilan bir qatorda, uning jamiyatdagi kengroq ijtimoiy ahamiyatini ham inobatga olish muhim. Media kompetentlik nafaqat kasbiy muvaffaqiyat uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantiradi, balki media kontentni tanqidiy qabul qilish va axloqiy ongni tarbiyalashga yordam beradi. Mazkur yondashuvning kasbiy va shaxsiy rivojlanishga birdek ahamiyat qaratishi media kompetentlikning bugungi axborotga boy muhitdagi ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Mazkur usullar media kompetentlikni rivojlantirishning amaliyotdagi afzalliklarini namoyon qiladi. Bunday misollarni ko'proq keltirish nazariy g'oyalarning hayotiy ahamiyatini oshiradi va o'quv jarayonini yanada boyitadi.

Media kompetentligini rivojlantirishda qo'llaniladigan kompetentlikka asoslangan yondashuv, loyihaga asoslangan o'qitish va raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish usullari o'rtasidagi farqlar va ustuvorliklarni tahlil qilish muhim. Quyida ushbu yondashuvlarning samaradorligi va ularning turli jihatlari taqqoslangan.

6 Chen, L. (2024). Development of Professional Competence in Broadcasting and Hosting in the Social Media Environment. 1(3), 48–56. https://doi.org/10.62517/jnme.202410310

7 Grin, N. (2022). Media education and media competence. Современные Технологии и Научно-Технический Прогресс, 2022(1), 295–296. https://doi.org/10.36629/2686-9896-2022-1-295-296

8 Bashmanivska L.A., Bashmanivskyi V. I., & Shevtsova, L. S. (2020). Формирование информационно-коммуникацинной компетентности как компонент подготовки будуших журналистов. Information Technologies and Learning Tools, 76(2), 30–42. https://doi.org/10.33407/ITLT.V76I2.2539

1-jadval

Yondashuv	Afzalliklari	Kamchiliklari
Kompetentlikka asoslangan	1. Keng qamrovli ko'nikmalar tizimini rivojlantiradi. 2. Amaliyotga asoslangan o'quv jarayonini ta'minlaydi.	1. Juda yuqori nazariy tayyorgarlik talab etadi. 2. Barcha sohalarga universal emas.
Loyihaga asoslangan o'qitish	1. Talabalarda ijodkorlik va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. 2. Axborot savodxonligini oshiradi.	1. Katta vaqt va resurs talab qiladi. 2. Loyihalar samaradorligi o'qituvchining tajribasiga bog'liq.
Raqamli texnologiyalar	1. Zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishni o'rgatadi. 2. Raqamli yosh talabalari uchun qiziqarli.	1. Qurilmalar va dasturiy ta'minotga bog'liqlik. 2. Barcha o'qituvchilarda raqamli ko'nikmalar yetarli emas.

Ushbu yondashuvlar bir-birini to'ldirib, o'quv jarayonini boyitish imkoniyatini beradi. Kompetentlikka asoslangan yondashuv ko'proq tuzilgan va standartlashtirilgan bilimlarni shakllantirsa, loyihaga asoslangan o'qitish ijodiy va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish esa zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ishlashga bo'lgan ehtiyojni qondiradi. Shu sababli, media kompetentligini rivojlantirishda ushbu usullarning barchasini uyg'unlashtirish eng samarali yondashuv bo'lib hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, media kompetentlik nafaqat o'qituvchilarning kasbiy faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, balki o'quv jarayoni samaradorligini ham oshiradi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga kirib borishi va innovatsion yondashuvlarning amaliy qo'llanilishi talabalarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va axborot bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Maqolada keltirilgan usullarni amaliyotga tatbiq etish orqali kasbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilari raqamli transformatsiya sharoitida o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha yetuk malakali mutaxassislarga aylanishlari mumkin. Bunda ushbu yondashuvlarni uyg'unlashtirib qo'llash, amaliy keyslarni ko'paytirish va o'quv jarayonida individual yondashuvni ta'minlash eng samarali natijalarga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, media kompetentlikni rivojlantirish, ayniqsa, raqamli texnologiyalar davrida ta'lim sifatini oshirish va talabalarning ijtimoiy, kasbiy rivojlanishiga kuchli turtki bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun, mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar va amaliyotlarni yanada chuqurlashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KREATIV FIKRLASHNI OSHIRISH

Abdurasul Mirzaakbarovich Mirzaakbarov – o'qituvchi,
Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta'lim va texnikum talabalarining kreativ fikrlashini oshirish, mustaqil va keng ko'lamli fikr yuritish qobiliyatlarini shakllantirishga oid ma'lumotlar keltirilgan. Kreativ fikrlash orqali muammoli vaziyatlarni oson usullar orqali va tezroq yechish qobiliyatlarini rivojlantirish atroflicha muhokama qilingan. Kreativ fikrlashning mohiyati, usullari va bo'lajak o'qituvchilar uchun kreativ fikrlashning ahamiyati juda ham muhimligi keltirilgan.*

Аннотация: *В данной статье содержится информация о повышении творческого мышления студентов ВУЗов и техникумов, формировании навыков самостоятельного и широкого мышления. Подробно обсуждается развитие способностей решать проблемные ситуации простыми и быстрыми способами посредством творческого мышления. Представлены сущность, методы творческого мышления и значение творческого мышления для будущих учителей.*

Abstract: *This article contains information on increasing the creative thinking of students of higher education and technical schools, forming independent and broad-based thinking skills. Developing abilities to solve problem situations in easy ways and faster through creative thinking is discussed in detail. The essence, methods of creative thinking and the importance of creative thinking for future teachers are presented.*

Kalit so'zlar: *kreativlik, didaktik o'yinlar, interfaol o'qitish metodlari, muammolarni hal qilish, kreativ fikrlash.*

Ключевые слова: *творчество, дидактические игры, интерактивные методы обучения, решение задач, творческое мышление.*

Keywords: *creativity, didactic games, interactive teaching methods, problem solving, creative thinking.*

Mamlakatimizda matematika fanini rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. "Matematika hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi", – degan Prezident Sh.M.Mirziyoyev[1]. Bugungi kunda ta'lim tizimida zamonaviy, kreativ fikrlashning ahamiyati ortib bormoqda. Bo'lajak o'qituvchilarni kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, ularning hozirgi kundagi va kelajakdagi pedagogik faoliyatida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Kreativ fikrlashning rivojlanishi, uning mohiyati usullari va o'rganuvchilar uchun ahamiyati haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Tadqiqot ishining maqsadi sifatida biz bo'lajak o'qituvchilar va texnikum talabalarini kreativ fikrlashini mohiyatini, uni rivojlantirish usullarini va ahamiyatini aniqlashga doir masalalar va ma'lumotlar berilgan. Bu masalalar va ma'lumotlar, o'rganuvchilarga o'zlarining fikrlash qobiliyatlarini aniqlash, xato kamchiliklarini topib, ularni to'g'irlash, yangi yechimlar qidirish uchun yordam berish maqsadida ishlatiladi.

Tadqiqot ishida quyidagi ma'lumotlar va masalalar bo'lajak o'qituvchilarga kreativ fikrlashda yordam bera oladigan bir qancha mavzularni o'z ichiga oladi:

Kreativ fikrlashning asosi bo'lgan mantiqiy fikrlash haqida olimlarning fikrlarini ko'raylik. Qadimgi Gretsiyada birinchi bor mantiq tizimini Demokrit (mil. oldingi. 460-370) yaratishga harakat qiladi. Uning mantiq ilmiga bag'ishlangan "Mantiq to'g'risida" yoki "Qonun" deb nomlanuvchi uch kitobdan iborat asarining ma'lum bir qismlarigina bizgacha yetib

1 Shavkat Mirziyoyev olimlar, yosh tadqiqotchilar, ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari va ishlab chiqarish sektori vakillari bilan uchrashuvidagi nutqidan. 31.01.2020

kelgan. Mantiq ilmining rivojlanishida yana bir yunon mutafakkiri Suqrot (mil. old.469-399y.) ham o'ziga xos o'ringa ega. Suqrotning ijodida birinchi o'ringa uslub masalasi chiqadi. Mazkur usul haqiqiy bilimlarga umumiy tushunchalar orqali erishish mumkinligini isbotlovchi g'oyaga asoslanadi. Suqrot haqiqiy bilimni erishilishi lozim bo'lgan vazifa deb biladi. Shuning uchun ham Suqrot falsafani haqiqatga aylangan bilim emas, balki donishmandlikni sevishi, haqiqatni izlash yo'lida unga erishishga intilish, deb izohlaydi[2].

Hozirgi kunda ba'zi bo'lajak o'qituvchilarni dunyoqarashlarini torayib qolgani sababli metodikani ko'p hollarda pedagogik texnologiyadan ajrata olmayaptilar. Shu boisdan kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga ehtiyoj seziladi. Metodika o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar majmuasidan iborat. Pedagogik texnologiyalar esa o'qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan muolajalar yig'indisidir[3].

Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlashni oshirish uchun bir nechta samarali usullarni qo'llash mumkin:

1. G'oyalar almashish: O'qituvchilar o'z g'oyalarini bir-biri bilan baham ko'rishlari uchun muntazam ravishda seminarlar va treninglar o'tkazishi lozim. Bu usul orqali fikrlar charxlanadi, xato joylari to'g'irlanadi va yangi fikrlar yaralishiga asos bo'ladi. Jamoaviy muammolarni hal qilish uchun kichik guruhlarga bo'lish va jamoadagilarda fikr mulohazalar almashinuvi hisobiga yangi kreativ va mantiqiy fikrlarni dunyoga kelishiga imkon berish, bu kreativ fikrlashni rag'batlantiradi.

2. Ijodiy mashqlar: O'quvchilarga ijodiy vazifalar berish usuli orqali, hikoyalarni kreativ fikrlab bir-biri bilan bog'lab yozish, yangi metodlar orqali dars rejasini ishlab chiqish kabi qobiliyatlar shakllanib qolmay rivojlanishiga ham turtki bo'ladi.

3. O'rganish va tajriba: Bo'lajak o'qituvchilarni rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalari asosida zamonaviy pedagogik usullar va texnologiyalar bilan tanishtirish, ularni sinovdan o'tkazish ularning fikrlashlarini yanada kengayishiga va oldilarida turgan muammolarni oson va zamonaviy yechimlarini topishlariga xizmat qiladi. Bu tajriba va o'rganishlarni rivojlangan davlatlarga borib o'rganish katta samara beradi, ammo imkoni bo'lmasa onlayn guruhlar va platformalarda fikr almashish imkoniyatlarini yaratish orqali bu tajribalarni o'rganish mumkin.

4. O'z-o'zini tahlil qilish: Bo'lajak o'qituvchilarni o'z fikrlari va uslublarini tahlil qilishga undash, bu orqali o'zlaridagi xato va kamchiliklarni topib, ular ustida ishlash, shu fikrlarini to'ldirish orqali kreativ fikrlashlarini rivojlantirishga yordam beradi.

5. Tadqiqotlar: Bo'lajak o'qituvchilarga pedagogika sohasida yangi tadqiqotlar va usullarni o'rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borish insonni yangi bilim malakalarini oshirish orqali ularni fikrlash qobiliyatlarini oshirish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Kreativ fikrlashni rivojlantirishga quyidagi masalalar ko'mak bo'ladi:

1-masala: Har yili bahorda qishloqdagi ko'lning yuzasini "Nilufar" gullari qoplaydi. Bu gullarning har biri kuniga 2 barobardan ko'payadi. Qishloqdagi ko'l yuzasini "Nilufar" gullari to'liq egallashi uchun 30 kun vaqt kerak bo'ladi, shu ko'lning yuzasining yarmini "Nilufar" gullari egallashi uchun necha kun kerak bo'ladi?

Yechish: "Nilufar" gullari har kuniga 2

2 Xudoynazarov E.M., Xudayberganov G'.Q. Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy fikrni rivojlantirish. 60110500-"Boshlang'ich ta'lim" bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun darslik. – Toshkent: Bookmany print, 2023. –B. 24.

3 Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi. 5111700 -Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik. – Toshkent, Turon matbaa, 2016. – B. 400.

barobardan oshib borsa va 30 kunda ko'lning yuzasini to'liq qoplasa, bu ko'l yuzasining yarmini egallashi uchun 29 kun kerak, chunki 10-kuniga 2 barobar ko'paygani uchun kerak bo'ladi[4].



2-masala: Mos xonalarini aniqlash (Set Intersection): Berilgan ikki yoki undan ko'p moslikni aniqlash. Masalan, A={1, 2, 3} va B={3, 4, 5} uchun A va B o'rtasidagi moslikni toping.

Javob: A ∩ B = {3}[5]5

3-masala: Anvarning dadasi uni kreativ fikrlashini tekshirish maqsadida unga quyidagicha masala berdi:

Dadasi Anvarga 8ta tanga berdi, shu tangalardan biri soxta va qolgan tangalarga qaraganda og'irroq ekanini aytdi. Pallali, toshsiz tarozi yordamida, atigi 2 marta tortish orqali soxta tangani aniqlashini aytdi. Anvar yaxshilab fikrlab quyidagicha javobini aytdi:

Javob: Tangalarni oldin 3 3 2 shaklda guruhlab olib, 2 ta holda uni ko'rib chiqdi.



Avval 1-holni ko'raylik:

Tarozining ikki pallasiga 3tadan tangani qo'yamiz,



ular teng kelsa demak soxta tanga qolgan ikki tangani biri bo'ladi va uni ikkinchi tortishda aniqlasa bo'ladi.

2-holni ko'raylik:

Tarozining ikki pallasiga 3tadan tangani qo'yamiz, pallani ixtiyoriy bir tomoni og'ir kelsa, soxta tanga shu tomonda bo'ladi. Og'ir tomondagi 3ta tangani ham bittadan qilib uchta guruhga qaratamiz va ikkita tangani tortish orqali berilgan soxta tangani topish mumkin.

Yuqoridagi masalalarni yechish natijasida o'quvchilarni kreativ fikrlash va muhokama qilish qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Nafaqat matematika yo'nalishi balki, boshlang'ich sinflarda mantiqiy masalalarni yechishda kreativ fikrlash orqali to'g'ri yechishni mustahkamlash, maktab va oliy ta'lim darslarida ham foydalanish mumkin.

Xulosa qilib, mazkur tadqiqot ishida ishlab chiqilgan masalalar o'quvchilarning mantiqiy masalalardagi kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Tavsiyadan foydalanish natijasida talabalarda va texnikum talabalarida muammo va masalalarni yechishda kreativlikni va sinchkovliklarini rivojlantirish uchun qat'iy kerak bo'lgan bir qator mantiqiy jarayonlarni o'rganishlariga imkon beradi.

4 Mirzaakbarov A. M. (2023). Talabalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatishda interfaol usullardan foydalanish yo'llari. Educational Research in Universal Sciences, 2(13 SPECIAL), 570–574. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/4330

5 Mirzaakbarov A.M., & Qirg'izov M.U o'g'li. (2024). O'quvchilarni moslikni aniqlashga doir mashqlarni yechishga o'rgatish. Educational Research in Universal Sciences, 3(4 SPECIAL), 166–169. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/6066

DECODING TERMINOLOGY: FROM BASICS TO ADVANCED TERMS

Iroda Jumanovna Mamarasulova – teacher,
Jizzakh State Pedagogical University

Abstract: *This paper explores about decoding terminology from basics to advanced terms. This field explores the significance of terminology across various academic disciplines and its essential role in effective communication, comprehension, and knowledge construction. This paper provides a structured approach to understanding terminology, beginning with basic concepts and progressively advancing to more complex terms. Through a comprehensive analysis of key terms, the study highlights the evolution of language within specific fields and examines how the precision of terms shapes discourse and facilitates expertise. The paper also addresses the challenges faced by learners and professionals in mastering specialized vocabulary, offering strategies for overcoming common barriers to understanding.*

Annotatsiya: *Ushbu maqola terminologiyani asoslardan ilg'or atamalargacha dekodlashni o'rganadi. Ushbu soha turli o'quv fanlari bo'yicha terminologiyaning ahamiyatini va uning samarali muloqot qilish, tushunish va bilimlarni qurishdagi muhim rolini o'rganadi. Ushbu maqola terminologiyani tushunish uchun tizimli yondashuvni taqdim etadi, asosiy tushunchalardan boshlab va asta-sekin murakkabroq atamalarga o'tadi. Asosiy atamalarni har tomonlama tahlil qilish orqali tadqiqot muayyan sohalarda tilning evolyutsiyasini ta'kidlaydi va atamalarning aniqligi nutqni qanday shakllantirishi va tajribani osonlashtirishini o'rganadi. Maqolada, shuningdek, o'quvchilar va mutaxassislarning ixtisoslashgan lug'atni o'zlashtirishda duch keladigan qiyinchiliklari ko'rib chiqiladi, tushunish uchun umumiy to'siqlarni bartaraf etish strategiyalari taklif etiladi.*

Аннотация: *В этой статье рассматривается расшифровка терминологии от основ до продвинутых терминов. В этой области изучается значение терминологии в различных академических дисциплинах и ее существенная роль в эффективной коммуникации, понимании и построении знаний. В этой статье представлен структурированный подход к пониманию терминологии, начиная с базовых понятий и постепенно продвигаясь к более сложным терминам. Благодаря всестороннему анализу ключевых терминов исследование подчеркивает эволюцию языка в определенных областях и изучает, как точность терминов формирует дискурс и способствует экспертизе. В статье также рассматриваются проблемы, с которыми сталкиваются учащиеся и специалисты при освоении специализированной лексики, и предлагаются стратегии преодоления распространенных барьеров к пониманию.*

Keywords: *terminology, language acquisition, specialized vocabulary, disciplinary jargon, conceptual clarity, lexical precision, knowledge construction, Field-Specific Terms, cognitive processing, academic communication.*

Kalit so'zlar: *terminologiya, tilni o'zlashtirish, maxsus lug'at, intizomiy jargon, konseptual ravshanlik, leksik aniqlik, bilim qurilishi, sohaga oid atamalar, kognitiv qayta ishlash, akademik muloqot.*

Ключевые слова: *терминологияб усвоение языка, специализированный словарный запас, дисциплинарный жаргон, концептуальная ясность, лексическая точность, построение знаний, термины, специфичные для определенной области, когнитивная обработка, академическая коммуникация.*

The study and understanding of terminology are central to both academic learning and professional expertise. In every field, from the humanities to the sciences, specialized vocabulary allows individuals to communicate complex ideas with precision and clarity. However, mastering the terminology of any discipline involves more than simply memorizing words; it requires a deep comprehension of their meanings, applications, and the contexts in which they are used. This paper, "Decoding Terminology: From Basics to Advanced Terms", aims to explore the role of terminology in knowledge creation and communication, tracing its evolution from basic, everyday terms to advanced, field-specific concepts[1].

1 Swales, J.M., & Feak, C.B. (2012). Academic Writing for Graduate Students: Essential Tasks and Skills (3rd ed.). University of Michigan Press.

Understanding terminology is a critical skill for both newcomers and experienced professionals. For students, a solid grasp of foundational terms is essential for navigating their chosen discipline. For experts, advanced terminology facilitates the articulation of complex ideas, fostering both innovation and collaboration. However, terminology often poses challenges, especially as it becomes increasingly specialized. In this paper, we will examine the complexities of terminology, highlighting the cognitive and linguistic processes involved in learning and applying specialized language. Furthermore, we will investigate how precise and accurate terminology serves as a tool for advancing knowledge, enhancing academic discourse, and ensuring effective communication across disciplines.

Ultimately, this study seeks to underscore the importance of terminology in the intellectual and practical development of any field, offering insights into how it shapes understanding, facilitates learning, and bridges gaps between disciplines.

Terminology serves as the backbone of knowledge in every academic and professional domain. Whether in the sciences, social sciences, arts, or humanities, the precise use of terms allows individuals to convey complex ideas, make nuanced distinctions, and engage in sophisticated analysis. However, the path to mastery of terminology is not always straightforward. For students and professionals alike, it requires a deep understanding of both the foundational concepts and the specialized language that defines their field of study. "Decoding Terminology: From Basics to Advanced Terms" delves into the processes of acquiring, understanding, and utilizing terminology, shedding light on the evolution from basic, universally understood terms to the highly specialized vocabulary found in advanced academic and professional contexts.

At its core, terminology is more than just a collection of words. It is a tool for thinking, a means of structuring knowledge, and a way of facilitating communication within and across disciplines. For newcomers to a field, mastering the basics of terminology is an essential first step in navigating the complexities of that discipline. Yet, as individuals progress in their studies or careers, they must also grapple with advanced terms that may have specific, contextual meanings that are critical for deeper understanding and effective communication. This progression – from simple to complex terminology – reflects a broader intellectual journey: one that involves not just learning new words, but understanding how they shape thought, practice, and discourse.

This paper aims to explore the multifaceted nature of terminology, tracing its role in both the acquisition and transmission of knowledge. Through a systematic analysis of how terms are defined, refined, and utilized, we seek to provide insight into the cognitive and linguistic processes that underpin the mastery of specialized vocabulary. We will also consider how different fields use terminology to create clarity, foster innovation, and overcome barriers to communication. Additionally, this work will highlight the challenges individuals face as they encounter new terms, particularly in advanced contexts where language becomes increasingly precise and abstract[2].

By examining the relationship between basic and advanced terms, this paper aims to enhance our understanding of how terminology functions as a tool for knowledge building and communication. In doing so, it seeks to offer practical strategies for learners and professionals to effectively engage with complex terms, fostering both academic and professional growth. Ultimately, understanding terminology is not simply an intellectual exercise, but an essential skill for anyone seeking to contribute meaningfully

2 Bhatia V.K. (2004). Worlds of Written Discourse: A Genre-based View. Continuum.

to their field and engage in interdisciplinary dialogue. Through this exploration, we aim to underscore the vital role terminology plays in shaping thought, advancing scholarship, and bridging the gaps between different areas of knowledge.

Terminology is the foundation upon which academic knowledge is built. Whether in the sciences, humanities, or any other discipline, specific terms and their meanings are critical for effective communication and understanding. However, the journey from basic vocabulary to advanced, field-specific terminology is complex and challenging. For both students and professionals, mastering terminology involves understanding the meaning of terms, their contextual usage, and how they contribute to specialized knowledge. "Decoding Terminology: From Basics to Advanced Terms" explores this evolution, shedding light on how terminology is acquired, refined, and used to facilitate more nuanced and precise communication[3].

In this paper, we will trace the development of terminology across different levels of proficiency. Starting with basic, universally understood terms, we will examine how terms become more specialized and complex as individuals advance in their studies or professional careers. Along the way, we will discuss the cognitive and linguistic processes involved in learning these terms and the challenges that arise in mastering specialized vocabulary. Understanding these processes is key to developing both comprehension and fluency in any given field.

Educational institutions can use data analytics to monitor the effectiveness of digital technologies. Learning management systems (LMS) and other platforms often provide data on student engagement, performance, and participation. This data can inform instructional decisions, identify areas where students struggle, and guide improvements to the curriculum.

Creating Collaborative Opportunities:

Collaboration enhances learning outcomes by fostering critical thinking, communication, and teamwork skills. Digital platforms such as Google Workspace, Microsoft Teams, and other project management tools enable students to work together on assignments, share resources, and provide peer feedback.

Fostering a Supportive Learning Environment:

A supportive environment encourages students to embrace digital tools confidently. Educators can provide guidance through regular check-ins, offer technical support, and create a culture of openness to experimentation with technology.

Ensuring Relevance and Engagement:

Digital tools should be engaging and relevant to students' interests and future career paths. Incorporating real-world applications, such as virtual internships, case studies, or simulations, can make learning more meaningful.

In recent years, higher education institutions have become Centers for the creation of new technologies of pedagogical activity based on the use of digital educational resources, as well as the dissemination of knowledge on the design of Educational Institutions ' activities in the context of information and communication technologies and an effective educational environment. Digital educational resources developed in the process of educational, methodological and scientific and methodological work have become an indicator of the successful activity of the teacher. Currently, the e-learning system (e-learning) is widely used in the most developed countries of the world. All conditions are created for the widespread use of information technology even in the educational process of higher educational institutions of the Republic. Training laboratories are equipped with modern equipment (computer auditoriums connected to the Internet, interactive whiteboards, portable video projectors, etc.). Seminars are held for teachers on the introduction of information and communication technologies into the educational process. Digital educational resources are widely used as a source of information that includes graphics, text, Digital, Speech, Music, video, photos and other information aimed at realizing the goals and objectives of modern education, educational institutions have begun to actively use electronic shells such as Moodle (modular, objectively oriented dynamic learning environment), HEMIS (national electronic platform aimed at managing higher education processes), which has[1].

It should be noted that digitization should be given an auxiliary and instrumental role, which will make it possible to maximize the intellectual potential of students. Smirnov A.Study V notes the general absence of "personal management"in most students, the ability to rationally plan their day, and the low personal importance of individual time planning. This situation is a sign that the problem of developing the ability of students to self-control in educational activities remains open.

Thus, the quality of self-development, which promotes professional development, self-development, self-improvement and self-education, becomes one of the most demanded qualities of future professionals and professionals. The concept of "self-development" has entered pedagogy from related disciplines such as philosophy, Natural Science, synergetics and psychology. From the point of view of philosophy and Natural Sciences, self-development is the most important factor in the emergence of qualitatively new properties of substances, the process of the emergence and deepening of order in systems that develop without open equilibrium when interacting with an environment outside systems under the influence of an imbalance or internal causality[2].

In pedagogy, there are several generally accepted approaches to determining the essence of the concept of "self-development":

1. The personal approach considers self-organization as personality-specific characteristics.

1 Anderson, T. (2008). The Theory and Practice of Online Learning. Edmonton: AU Press.

2 Prensky, M. (2001). Digital Natives, Digital Immigrants. On the Horizon, 9(5), 1–6.

2. The active approach considers the self-organization of students in the educational process as a process consisting of certain stages. An active approach studies the structure of self-development, the existing connections of its components, as well as the importance of their influence on the effectiveness of independent organization of activities.

3. The individual-activity approach considers self-development to be the integration of process components and personality traits of an individual.

4. The technical approach was formed with the emergence of a technological approach to general education. It is often carried out within the framework of personal, active and personal-active approaches. The technological approach is aimed at improving the effectiveness of the organization of the student's own activities in the concept (methods and techniques for the scientific organization of mental labor,self-management, time management are studied and developed[3].

The authors, who conducted research on the issues of student self-organization in educational activities, described in different ways the concept of self-development:

- it is a process of organized, conscious organization of educational work of students, arising and directed from the goals and values of professional development in the educational process . In this definition, it is observed that there is an axiological component of self-development;

-is a complex of personal structures of consciousness that develop the ability to self – analysis, self-control, self-regulation, foresight, goal orientation, self-criticism and self-discipline. It is the optimal distribution of one's time in reading, work and personal life, that is, the use of one's own capabilities to the maximum, the conscious management of one's own life (self-determination) and the consistent and purposeful application of proven working methods in everyday practice to overcome external circumstances. This definition of the author emphasizes the existence of a personal component of self-development and predictive competence.

- it is an orderly and dynamic structure of an individual, characterized by an integrative unit of complexes of skills with a targeted algorithm for organizing activities manifested through an individual trajectory of self-regulation. With this, the author sought to distinguish such qualities as orderliness inherent in self-development, dynamism, integration of components, manifestation in the unity of all components of self-organization along a certain trajectory towards the formed goal. - it is the student's activity that is derived and directed from the goals of self-management and self-regulation in professionally significant educational work, which is carried out through a system of intellectual operations aimed at solving the problems of independent rational organization of his educational work (in this, the formation of self-development competencies is viewed by the teacher as a transition from This definition indicates that self-development is characterized by motivational management of a particular activity. - this is a regulatory universal educational skill, the essence of which is determined by the implementation of a set of regulatory universal educational actions aimed at the reflex Organization of its educational activities[4].

Therefore, self-development is equated in definition to learning skills.

- it is the ability of an individual to manifest in the skill of conscious and purposeful use and

3 Moodle Docs (2023). Using Moodle: A Comprehensive Guide to the World's Most Popular Learning Management System.

4 Воронов, В.В., & Шустов, А.Ю. (2020). Цифровые образовательные платформы: возможности и вызовы. Москва: Юрайт.

improvement of important components of the personality structure in his activities aimed at solving problems of educational, professional and personal importance . The author's definition states that self-development leads to self-development.

- it is the ability of the subjects under study to formulate a goal and determine ways to achieve it based on the formation of the following groups of skills: planning professional activities; modeling; rational organization of professional activities; its gradual implementation; Organization of control and self-control; correction of the course and results of professional activities. The author of the definition equates self-organization with the ability to set a goal for oneself, which consists of a set of skills[5].

- This is the ability of each age to independently solve their problems, adapt to changing socio-economic conditions, acquire the skills of independent living and acquire a set of skills and abilities to participate in self-management. Here, self-development is understood as the ability to acquire abilities and skills, that is, development; it is a complex process of determining the individual path of future development and obtaining the necessary knowledge, which is carried out under the influence of individual motives, goals and values of students. The author defines self-organization as a process of development that is carried out with the help of motives and values inherent in students[6].

Thus, in accordance with the established task aimed at revealing the structural and substantive features of the concept of "self – development" - based on the analysis of national and Foreign Studies, this paragraph highlights the structural stages of student self-organization in educational activities: 1) motivation; 2) self-and situational analysis; 3) goal setting; 4) Planning and plan implementation; 5) reflection and assessment; 6) correction; 7) forward movement, such as

While digital technologies offer significant benefits, challenges such as digital fatigue, security concerns, and the potential for distraction must be addressed. Ethical considerations, including data privacy and equitable access, should also guide the integration of digital tools in education.

Digital technologies hold immense pedagogical potential for fostering self-development by providing personalized, interactive, and accessible learning opportunities. However, their successful application requires thoughtful integration, adequate training, and a focus on inclusivity. By addressing these factors, educators can harness digital tools to empower learners in their self-development journeys and prepare them for the demands of a rapidly evolving world.

The experimental testing on improving the methodology of using pedagogical software tools in the independent self-development of students in an information-based educational environment yielded the following important results:

1. The use of the pedagogical software tools developed during the experiment significantly increased students' skills in independent learning and self-development. These tools not only simplified the learning process but also ensured its interactivity.

2. The use of electronic resources in the educational process had a positive effect on increasing student motivation. Their interest in mastering the educational material grew, which resulted in an improvement in the level of knowledge acquisition.

5 Куденов Т.М. (2024). Ахборотлашган таълим муҳитида мустақил билим олиш кўникмасини ривожлантириш функциялари. Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 4(3), 216-221.

6 Chen, B., & Bryer, T. (2012). Investigating Instructional Strategies for Using Social Media in Formal and Informal Learning. The International Review of Research in Open and Distributed Learning, 13(1).

3. The developed software allowed for the consideration of students' individual abilities. This facilitated the implementation of a differentiated approach, making it easier to organize the educational process according to the needs of each student.

4. The experimental work showed the importance of information technologies in improving the quality of interactive communication between teachers and students. At the same time, it created an opportunity to improve the methodological approach for teachers.

5. Based on the results of the testing, it was determined that the use of pedagogical software tools can be widely applied not only in specific subject areas but also at various stages of the general educational process.

STEAM FANINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI RIVOJLANTIRISH

Sitora Muzaffar qizi Jamolova – tayanch doktorant,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada, STEAM (Fan, Texnologiya, Muhandislik, San'at va Matematika) fanlarini raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirishning ahamiyati va istiqbollari tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar, jumladan sun'iy intellekt, 3D modelleme, dasturlash va virtual haqiqat kabi innovatsion vositalar STEAM fanlarini o'rgatish metodlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ushbu maqolada, STEAM ta'limining samaradorligini oshirishda raqamli platformalar, onlayn resurslar va interaktiv dasturlar qanday rol o'ynashi, shuningdek, o'quvchilar va talabalarda ijodkorlik, muammolarni hal qilish va tizimli fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda qanday yordam berishi ko'rib chiqiladi. Maqola, raqamli texnologiyalar asosida STEAM fanlari orqali zamonaviy ta'limning sifatini yaxshilash va yoshlarni innovatsion fikrlashga yo'naltirish yo'llarini o'rganadi.*

Аннотация: *В данной статье анализируется значение и перспективы развития дисциплин STEAM (Наука, Технологии, Инженерия, Искусство и Математика) с использованием цифровых технологий. Цифровые технологии, такие как искусственный интеллект, 3D-моделирование, программирование и виртуальная реальность, выводят методы преподавания дисциплин STEAM на новый уровень. В статье рассматривается роль цифровых платформ, онлайн-ресурсов и интерактивных программ в повышении эффективности образования в области STEAM, а также то, как они способствуют развитию творческих способностей, навыков решения проблем и системного мышления у учащихся. Работа исследует пути повышения качества современного образования и направленности молодых людей на инновационное мышление с использованием цифровых технологий в рамках дисциплин STEAM.*

Abstract: *This article analyzes the significance and prospects of developing STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, and Mathematics) disciplines through the use of digital technologies. Digital technologies such as artificial intelligence, 3D modeling, programming, and virtual reality are advancing the methods of teaching STEAM subjects to a new level. The article examines the role of digital platforms, online resources, and interactive programs in enhancing the effectiveness of STEAM education, as well as how they contribute to the development of creativity, problem-solving skills, and systemic thinking in students. The paper explores ways to improve the quality of modern education and guide young people towards innovative thinking through the use of digital technologies within the framework of STEAM disciplines.*

Kalit so'zlari: *STEAM ta'limi, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, 3D modelleme, virtual haqiqat, dasturlash, ijodkorlik, tizimli fikrlash, onlayn resurslar, interaktiv dasturlar, gamifikatsiya, innovatsion ta'lim, muammolarni hal qilish, algoritmik fikrlash, STEAM fanlari.*

Ключевые слова: *STEAM образование, цифровые технологии, искусственный интеллект, 3D моделирование, виртуальная реальность, программирование, креативность, системное мышление, онлайн-ресурсы, интерактивные программы, геймификация, инновационное образование, решение проблем, алгоритмическое мышление, дисциплины STEAM.*

Keywords: *STEAM education, digital technologies, artificial intelligence, 3D modeling, virtual reality, programming, creativity, systemic thinking, online resources, interactive programs, gamification, innovative education, problem-solving,algorithmic thinking, STEAM disciplines.*

Mazkur maqolada STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) fanlarini raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirishning turli yo'nalishlari muhokama qilinadi. Raqamli texnologiyalar bugungi kunda ta'lim sohasida muhim o'rin tutib, STEAM fanlarining o'qitilishi va o'rganilishini samarali qilishga xizmat qilmoqda. Maqolada virtual va augmented reality (VR/AR) texnologiyalari, onlayn ta'lim platformalari, 3D modellashtirish va 3D printerlar, kodlash va robototexnika, sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili, shuningdek, gamifikatsiya kabi raqamli vositalar yordamida STEAM fanlarini rivojlantirishga doir misollar va amaliy yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Ushbu texnologiyalar o'quvchilarga yanada

interaktiv va qiziqarli ta'lim olish imkonini yaratib, ularning ilmiy va texnik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Maqola STEAM ta'limining kelajakdagi rivojlanishiga katta turtki berishi mumkin bo'lgan raqamli inqilobni yoritadi STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) fanlarini raqamli texnologiyalar orqali rivojlantirish juda muhim bo'lib, zamonaviy ta'limning samarali rivojlanishiga turtki bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda ta'lim sohasida raqamli texnologiyalar tezkor rivojlanib, STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) fanlarini o'qitishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. STEAM ta'limi – ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikaning o'zaro bog'liq tarzda o'rgatish konsepsiyasidir. Raqamli texnologiyalar esa bu sohalarning rivojlanishini tezlashtirib, talabalarga yanada chuqurroq va interaktiv bilim olish imkonini beradi. Ushbu maqolada, STEAM fanlarini raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va amaliy yondashuvlar ko'rib chiqiladi.

1. Virtual va Augmented Reality (VR/AR) texnologiyalari.

Virtual va augmented reality[1] (VR/AR) texnologiyalari STEAM fanlarining har birida o'quvchilarga bilimlarni o'zlashtirishda yangi ufqlarni ochadi. Masalan, virtual laboratoriyalar orqali o'quvchilar ilmiy tajribalarni o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu texnologiyalar yordamida o'quvchilar fizikaviy yoki kimyoviy tajribalarni o'tkazish uchun maxsus jihozlar va xavf-xatarsiz sharoitlar yaratib, haqiqiy dunyodagi tajribalar bilan tanishadilar. AR texnologiyalari esa san'at va muhandislik sohalarida 3D modellarni yaratish, ularni ko'rish va o'rganish uchun ideal vosita bo'lib xizmat qiladi.

2. Onlayn kurslar va interaktiv ta'lim platformalari.

Raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim sohasida onlayn kurslar va interaktiv platformalar rivojlanmoqda. Misol uchun, "Coursera, edX, Khan Academy kabi global platformalar"[2] STEAM fanlaridan kengaytirilgan kurslar taqdim etadi. Bu platformalarda o'quvchilar nafaqat darslarni tomosha qilishlari, balki muammolarni yechishda interaktiv usullarni qo'llashlari, jamiyatdagi bilim bilan ulashishlari mumkin. O'qituvchilar uchun esa onlayn resurslar yordamida yangi metodologiyalarni o'rganish va o'z darslarini yanada samarali tashkil etish imkoniyatlari mavjud.

3. 3D Modellashtirish va 3D Printerlar

Muhandislik va dizayn sohasida 3D modellashtirish va 3D printerlardan foydalanish ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. O'quvchilar o'z dizaynlarini yaratish, ularni raqamli formatda tasvirlash va keyin ularni 3D printer orqali chiqarish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu jarayon orqali ular muhandislik, dizayn va matematika sohalarida amaliy ko'nikmalarni egallashadi. Masalan, talabalar o'zlarining robototexnika modellarini yoki texnik dizaynlarni yaratish, ularni tahlil qilish va yaxshilash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

4. Kodlash va Robototexnika

STEAM ta'limining yana bir muhim jihati – bu kodlashni o'rganishdir. Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilar kompyuter dasturlash tillarini o'rganish va dasturlashga asoslangan muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Kodlash va robototexnika sohasida dasturlashni o'rganish nafaqat ilmiy va texnik ko'nikmalarni shakllantiradi, balki o'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantiradi. Bu yo'nalishda, "LEGO

1 Anderson, T. (2008). The Theory and Practice of Online Learning. Edmonton: AU Press.

2 Muslimov N., Usmonboyeva M., Sayfurov D., To'rayev A. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari.- T.: 2015.-122 bet

Mindstorms yoki Arduino kabi vositalar"[3] yordamida o'quvchilar robotlar qurish, ularni dasturlash va test qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

5. Sun'iy Intellekt va Ma'lumotlar Tahlili

Sun'iy intellekt (AI) va ma'lumotlar tahlili sohalari STEAM fanlarida katta o'rin egallaydi. O'quvchilar sun'iy intellektni, mashina o'rganishini, va katta ma'lumotlarni (Big Data) tahlil qilishni o'rganishlari mumkin. Bu sohalar ilmiy, texnologik va muhandislik masalalarini hal qilishda eng yangi yondashuvlarni taqdim etadi. Sun'iy intellektni o'rgatish o'quvchilarga murakkab tizimlar, dasturlar va ilg'or texnologiyalarni tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga, AI va ma'lumotlar tahlili yordamida o'quvchilar real hayotdagi masalalarni echishda innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishlari mumkin.

6. Gamifikatsiya va interaktiv ta'lim

"Gamifikatsiya (o'yinlashtirish) texnologiyalarini"[4] STEAM fanlarini o'rganishda qo'llash o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va o'rganishni yanada qiziqarli qiladi. O'yinlar yordamida o'quvchilar matematik masalalarni hal qilish, ilmiy tajribalarni o'tkazish yoki san'atga oid yaratish jarayonlarini bajarishlari mumkin. Masalan, interaktiv ta'lim platformalarida o'quvchilar o'z bilimlarini o'yinlar orqali sinab ko'rishlari va yangi g'oyalar ishlab chiqishlari mumkin.

Xulosa. Raqamli texnologiyalar STEAM fanlarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Virtual laboratoriyalar, 3D modellashtirish, kodlash va robototexnika, sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlili kabi vositalar o'quvchilarga chuqurroq bilim olish va yangi ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi. Bu texnologiyalar orqali STEAM fanlaridagi o'quv jarayonlari yanada interaktiv, qiziqarli va samarali bo'lishi mumkin. Kelajakda raqamli texnologiyalar STEAM ta'limining yangi bosqichini shakllantirishi va talabalarning kreativ fikrlashini hamda innovatsion yondashuvlarini rivojlantirishga yordam beradi.

3 Евдокимова Й.С. Технология проэктирования в ДОУ ЙЕ.С.Евдокимова. — М.: ТС Сфера, 2006. — 64 с.

4 Ciprian Vlad. Gamification –an innovative teaching method. Galati university press. 2021

03

AMALIY FANLAR

O'QUVCHILARDA MILLIY-IFTIXOR TUYG'USINI RIVOJLANTIRISHDA KURASH SPORTIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Furkat Quldashevich Axmedov – p.f.n., professor,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Joxon Quldashovich Axmedov – dotsent, Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali
Ja'sur Ulug'bek o'g'li Uluqmurotov - magistr,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Maqolada o'quvchilarda milliy-iftixor tuyg'usini shakllantirishda kurash sporti bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlarning imkoniyatlaridan foydalanish o'rganilgan. Shuningdek, kurash musobaqalari barkamol avlodni tarbiyalashda asosiy omillardan biri sifatida ko'rib chiqilgan.*

Аннотация: *В статье рассматривается использование возможностей спортивных соревнований по борьбе в формировании чувства национальной гордости у студентов. Также соревнования по борьбе рассматриваются как один из главных факторов воспитания всесторонне развитого поколения.*

Abstract: *The article examines the use of wrestling sports competition opportunities in developing students' sense of national pride. Also, wrestling competitions are considered as one of the main factors in the upbringing of a comprehensively developed generation.*

Kalit so'zlar: *kurash, jismoniy tarbiya va sport, barkamol avlod, milliy-iftixor tuyg'usi, g'urur, mehnatsevarlik, salomatlik, tashabbuskorlik, faollik, shakllanish, rivojlanish, tarbiya.*

Ключевые слова: *борьба, физическое воспитание и спорт, зрелое поколение, чувство национальной гордости, гордость, трудолюбие, здоровье, инициатива, активность, формирование, развитие, воспитание.*

Keywords: *struggle, physical education and sports, mature generation, sense of national pride, pride, hard work, health, initiative, activity, formation, development, education.*

Qadimiy qadriyatlarimiz, xususan, mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, gumanizm g'oyalarini o'zida mujassam etgan milliy sportimiz bo'lgan kurashni ommalashtirish, rivojlantirish va dunyoga tanitish hamda ushbu qadriyatimizni umumjahon durdonasiga aylantirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Davlatimizning bevosita ko'llab-quvvatlashi natijasida kurash xalqaro sport turi sifatida keng e'tirof etildi, "kurash", "halol", "ta'zim", "to'xta" va "yonbosh" kabi atamalar esa xalqaro sport lug'ati tarkibidan mustahkam o'rin egalladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrda "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-450-son qarori qabul qilindi[1].

Shu bilan birga, kurashning tobora ommalashib borayotganligi nufuzli xalqaro musobaqalarni tashkil qilishga, mavjud infratuzilma va moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilishga, sport inventarlari va kiyimlari ta'minotini yaxshilashga, bu borada ishlab chiqarishni kengaytirishga, shuningdek, soha uchun malakali

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrda "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-450-son qarori qabul qilindi.

kadrlar, trenerlar va hakamlar tayyorlashga bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytirishni talab etmoqda.

Buyuk ajdodlarimizdan meros qolgan kurash sportining boy an’analari va qadriyatlarini kelajak avlodlarga yetkazish, o‘zbek sporti brendi nomi bilan kurashning jahon arenasidagi rolini oshirish, yoshlarning milliy sportga bo‘lgan qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish orqali ularda vatanparvarlik tuyg‘usini yanada mustahkamlash, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning, shuningdek, jahon xalqlarining mazkur sport turi bilan shug‘ullanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish,hozirgi vaqtda kurashni yanada ommalashtirish va tizimli rivojlantirish, Yevropa, Afrika va Panamerika qit’aviy o‘yinlari qatoriga rasman kiritish va xalqaro “GAISF – Global Association of International Sports Federations” tashkilotining e’tirofiga sazovor bo‘lish, Xalqaro olimpiya o‘yinlari dasturiga kiritish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrdagi “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4881-son qarori qabul qilindi. Kurash milliy sport turini 2025-yilgacha yangi bosqichga olib chiqish Konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda – Konsepsiya) ishlab chiqildi.

Konsepsiyada “Kurashchilar uchun badantarbiya”, “Bolalar uchun kurash”, “Kattalar uchun kurash”, “Kurash malikasi”, “Kurash milliy g‘ururimiz”, “Kurash- millat faxri” va boshqa nomlardagi maxsus roliklar tayyorlash hamda efir vaqtida, jumladan, tomoshabop vaqtlarda har kun namoyish etish, “Kurash yulduzi”, “Kurash faxriysi”, “Kurash tarixi”, “Kurash xalq sayli” nomli teleko‘rsatuvlar tayyorlash, radio eshittirishlar tashkil etish, yoshlar o‘rtasida kurashni keng targ‘ib etish, ularda vatanparvarlik hissini uyg‘otish, ularni sog‘lom turmush tarziga amal qilishga undashga qaratilgan ko‘rsatuvlar namoyish etish orqali ommalashtirish bo‘yicha media-reja ishlab chiqish va amalga oshirish, kurash orqali sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish, umumxalq harakati sifatida turli kurash sayillarini, bayram va tadbirlarda kurash bo‘yicha ko‘ngilochar tadbirlarni tashkil etish belgilab qo‘yilgan[2].

Konsepsiya O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlarda kurashni tizimli rivojlantirishning maqsadi, vazifalari, ustuvor yo‘nalishlari, istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda kurashni rivojlantirish dasturlari va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

1998-yil 6-sentabrda dunyoning beshta qit’asidagi 129 ta milliy federatsiyalarni birlashtirgan Kurash xalqaro assotsiatsiyasi ta’sis etildi.

2010-yilda Kurash xalqaro assotsiatsiyasi Olimpiya o‘yinlari dasturiga kiritish uchun buyurtma berishda muhim talab hisoblangan Jahon dopingga qarshi agentligining e’tirofiga sazovor bo‘ldi.

Kurash bo‘yicha xalqaro sport tadbirlarida sportchilarimiz sovrinli o‘rinlarni egallab, mamlakatimiz nufuzini munosib himoya qilib kelmoqdalar.

Bugungi kunga qadar dunyoning ko‘plab mamlakatlarida kurash bo‘yicha 500 dan ortiq xalqaro turnirlar, 12 marotaba jahon chempionati o‘tkazildi (kattalar o‘rtasida), ko‘plab davlatlarda kurash milliy federatsiyalari tashkil etildi. Yurtdoshlarimiz orasidan 300 nafardan ko‘proq sportchilar kurash bo‘yicha jahon, Osiyo chempionatlari va xalqaro turnirlarning g‘olib va sovrindorlari bo‘lgan.

Kurash bo‘yicha I jahon birinchiligi 1999-yili Toshkent (O‘zbekiston), II jahon birinchiligi 2000-

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrdagi “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4881-son qarori.

yili Antaliya (Turkiya), III jahon birinchiligi 2001-yili Budapesht (Vengriya), IV jahon birinchiligi 2002-yili Yerevan (Armaniston), V jahon birinchiligi 2005-yili Toshkent (O‘zbekiston), VI jahon birinchiligi 2007-yili Ulan-Bator (Mo‘g‘uliston), VII jahon birinchiligi 2009-yili Alushta (Ukraina), VIII jahon birinchiligi 2011-yili Termiz (O‘zbekiston), IX jahon birinchiligi 2013-yili Istanbul (Turkiya), X jahon birinchiligini 2015-yili Xurramobod (Eron), XI jahon birinchiligi 2017-yil Istanbul (Turkiya) XII jahon birinchiligi 2019-yil (Koreya) shahrida bo‘lib o‘tgani kurashning jahon bo‘ylab yanada qanot yoyayotgani isbotidir.

Kurash endilikda Islom birdamligi sport o‘yinlari dasturiga kiritiladigan bo‘ldi.

Kurash bo‘yicha Osiyo o‘yinlari, Osiyo va jahon chempionatlari, shuningdek, O‘zbekiston birinchiligi g‘oliblarini oliy ta’lim muassasalariga imtiyozli qabul qilish tartibi joriy etilmoqda[3].

Jamoatchilik, ayniqsa, yoshlarni ushbu sport turiga keng jalb etish maqsadida O‘zbekiston kurash federatsiyasi huzurida “Kurash” milliy sport turi markazi nodavlat notijorat tashkilotini tashkil qilish nazarda tutildi.

Bugungi kunda kurash an’anasi rivojlanib ommalashib boryapti. Har bir milliy bayram kurashsiz o‘tmayapti. Eng qizig‘i shundaki, barcha sport musobaqalarida davraga chiqqan polvonni tanishtirishda birinchi uning “Ona yurti” aytiladi, demak bu polvon ona yurti sha’nini ham himoya qilib, unda yutuq va g‘alabalari tufayli ularda Vatanini sevish, ardoqlash, insonlarga g‘amxo‘rlik qilish kabi oliyjanob xislatlari tarbiyalanib boradi. Kurash vatanimiz qudratini oshirish, yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, umrni uzaytirish, salomatlikni mustahkamlash vositalaridan biridir. Shuning uchun kurashni davr talabi darajasida rivojlantirish istiqboliy ahamiyat kasb etadi.

Nufuzli musobaqalardan biri 2011-yil 19-23-oktabr kunlari Termiz shahrida VIII jahon birinchiligi va o‘ninchi bor Al Hakim at-Termiziy xotirasiga bag‘ishlangan kurash bo‘yicha Prezident sovrini uchun o‘tkazilgan an’anaviy xalqaro turniri hisoblanadi. Chet ellik hakamlar o‘zbekning faxri, qadriyati hisoblangan kurash atamalarini sof o‘zbekona, jarangdor ovozda “to‘xta”, “halol”, “tanbeh”, “dakki” kabi buyruqlari bilan boshqarib borishdi. Koreya, Yaponiya, Eron, Afg‘oniston, JAR, Rossiya, Kipr, Angliya, Gretsiya, Turkmaniston kabi xorijlik hakamlar kurash qoidalarini chuqur o‘zlashtirib olganliklari musobaqada yaqqol ko‘rinib turdi.

2011-yilning 19-21-oktabr kunlari VIII jahon chempionati va Al Hakim at-Termiziy xotira turniriga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo‘lib o‘tdi. Ushbu anjumanda xalqaro Kurash Assotsiatsiyasi prezidenti Komiljon Yusupov, shuningdek, Afrika Kurash konfederatsiyasi prezidenti janob Tomas Dunker, Hindiston, Eron kabi bir qator davlatlardan shu sohaning yetuk olimlari o‘zlarining ma’ruzalari bilan ishtirok etishdi.

Komiljon Yusupov o‘z ma’ruzasida, milliy g‘urur va qadriyatimiz timsoli bo‘lgan o‘zbek kurashini dunyo miqyosiga olib chiqilganligi va eng quvonarlisi Kurash 2013-yilda Janubiy Koreyaning Incheon shahrida yopiq inshootlarda jangovar yakka kurashlar bo‘yicha o‘tkaziladigan IV Osiyo o‘yinlari dasturidan o‘rin olganligini aytib o‘tdi. Bu kurashni Olimpiya o‘yinlari dasturiga kirish uchun qo‘yilgan yana bir dadil qadam ekanligini ta’kidladi.

Afrika kurash konfederatsiyasi prezidenti janob Tomas Dunker o‘z ma’ruzasida Kurash dunyo sport olamida jadal suratlarda o‘sayotganini qayd etib o‘tdi. Shuningdek, qator Afrika davlatlarida tatami (gilam) yetishmasligi tufayli bolalar qumli maydonda ya’ni kurash

3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrdagi “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4881-son qarori.

maydoni qum, tuz aralashmasidan (gilam) qilib shug'ullanayotganligi haqida ma'lumot berdi. Afrika mamlakatlarining deyarli yarmi allaqachon o'zbek kurashi bilan tanishgan va muntazam shug'ullanib kelayotganligi hech kimga sir emasligini bildirib o'tdi. Janob Tomas Dunkerning ma'lumotlaridan kelib chiqib o'zbek kurashi allaqachon dunyo sporti turlari qatoridan munosib o'rin olganligining guvohi bo'lamiz. Kurash bilan Afrika mamlakatlari bolalari va yoshlari sevib shug'ullanmoqda. Ya'ni kurash endilikda umuminsoniy qadriyatlarni rivojlanib borishi tamoyillariga ko'ra milliylikdan-mintaqaviylikka undan umuminsoniylikka o'tadi. Kurash endi nafaqat milliy qadriyat, balki u butun dunyo xalqlariga xizmat qiluvchi umuminsoniy qadriyat darajasiga yetdi, zero kurashni umuminsoniy qadriyat ekanligi uning tarixi falsafasi va g'oyalarida o'z aksini topgan[4].

Kurashni milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida o'rganishda taniqli va faxriy polvonlar, murabbiylarning fikrlari o'rganildi. Faxriy polvon xizmat ko'rsatgan sport murabbiysi Xudoyberdi polvon Mahmudov kurash haqida shunday fikrlarni bildirgan: "Bir polvonni tayyorlash va natija ko'rsatish uchun ko'p yillik tinimsiz mehnat kerak. Yillar mobaynida polvon bilan muntazam mashg'ulotlar olib borish, albatta, zarur. Ammo faqat mashg'ulotni o'zi buning uchun yetarli emas. Vaholanki, polvonlarni doimo nazoratda tarbiyalab borish zarur. Bu o'rinda faxriy polvon Xudoyberdi Mahmudov quyidagilarni nazarda tutadi:

– polvonning ruhi toza va tetik bo'lishi lozim;

– polvon doimo jismini toza tutishi, vaqtida dam olishi va yetarlicha ovqatlanishi lozim;

– polvon e'tiqodli va oriyatli bo'lmog'i kerak. Buni, albatta, murabbiy nazoratga olishi lozim.

Surxon elining faxriy polvonlaridan biri Quronboy polvon kurash haqida shunday fikrlarni bildirgan: "Kurashchimisan, mard bo'l, raqibingga kuching yetmadimi, davradan chiq, kuching yetsa, halol yiqit. O'zingni ham, raqibni ham, tomoshabinlarni ham ovora qilma! Kurash halollikni, mardlikni talab etadi. Kuchlini tan olish ham polvonga xos". Fikrida davom etarkan, kurash tushgan davrlarini bugungi mustaqillik kunlari bilan solishtirib zamonaviy qad ko'targan inshootlar, sport zallari, kurash gilamlarining borligi haqida quvonib gapirdi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovga va kurashning jonkuyarlariga minnatdorchiligini quvonch bilan tilga olgan.

Kurash bo'yicha Jahon chempioni Maxtumquli Mahmudov shunday deydi: kurash tushish men uchun bobomeros, otamerosdir. Ukalarimning barchasi meni ortimdan ketdilar. Hammalari kurash tushishning hadisini o'zlashtirgan. Bizga kurash tushish usullarini o'rgatishda otamiz: bolalarim, unutmang, maydon mardniki,- deb tarbiyalagan.

Dzyudo bo'yicha 2 karra Jahon chempioni, Olimpiada o'yinlari sovrindori, mashhur Buxorolik Rishod polvon Sobirov sportning dzyudo kurashi bo'yicha dunyo chempioni bo'lishiga, uni elga, jahonga tanilishiga o'zbek kurashi orqali erishganligini ta'kidlaydi. Polvon o'z xotiralarini esga olarkan : "Agar men bolaligimdan qishloq sharoitida to'ylarda, bayramlarda kurash tushmaganimda, mag'lubiyat alami hamda g'oliblik nashidasini his qilmaganimda bugungi kundagi natijalarga erishmagan bo'lar edim. Sportchi nafaqat jismoniy yetuk, balki ma'naviy boy, bilimli va madaniyatli bo'lishi, o'z millati urf-odatlari va qadriyatlarini e'zozlashi ham zarur deb bilaman"- qabilidagi fikrlarini bildirgan.

Taniqli polvonlar, Jahon chempionlari Toshtemir Muhammadiyev, Bahrom Avazov, xalqaro toifadagi hakamlar Olimjon Xayitov, Ibrohim Karimov, Bahodir Berdiqulov,yetuk olimlarimiz Juma Toshpo'latov, O'roqboy

4 Axmedov F., A.Abdulaxatov, O.Xayitov. Kurash Sport-qadriyat-ma'naviyat va tarbiya vositasi.Toshkent. 2020y.

Ibragimov, Hamroqul Rofiyev, Furqat Ahmedov va boshqalarning fikriga ko‘ra:

– kurash mardlik, jasurlik va halollikni talab etadigan sport turi;

– kurash sportchidan jismoniy jihatdan o‘ta darajada yetuklikni talab etadi;

– kurash polvonlardan ma’naviy barkamollikni talab etadi;

– kurash urash qoidalari va falsafasi insonparvarlik g‘oyalariga asoslangan;

– kurash odamlarni, xalqlarni bir-biriga yanada yaqinlashtiradi;

– kurash eng samarali va namunali tarbiya vositasidir;

– bir so‘z bilan aytganda kurash umuminsoniy qadriyatdir[5].

Kurashning milliy qadriyat va an’analaridan kelib chiqqan holda, ochiq maydonlarda “Kurash” milliy sport turi bo‘yicha musobaqalarni muntazam tashkil etish. “Kurash” milliy sport turi bo‘yicha mamlakatimizning buyuk davlat va jamiyat arboblari xotirasiga bag‘ishlangan turnirlarni o‘tkazish kalendar rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash belgilangan. Bugungi kunda kurash an’anasi rivojlanib ommalashib boryapti. Har bir milliy bayram kurashsiz o‘tmayapti. Eng qizig‘i shundaki,barcha sport musobaqalarida davraga chiqqan polvonni tanishtirishda birinchi uning “Ona yurti” aytiladi, demak, bu polvon ona yurti sha’nini ham himoya qilib, unda yutuq va g‘alabalari tufayli ular Vatanini sevish, ardoqlash, insonlarga g‘amxo‘rlik qilish, milliy g‘urur kabi oliyjanob xislatlar tarbiyalanib boradi.

Shaxs g‘ururi bu faxrdir. Har bir shaxs o‘zining yutuqlaridan mamnuniyat hissini tuyadi. Ota-ona qobil farzandlaridan, ustoz iste’dodli shogirdidan, yozuvchi yaxshi asaridan, bog‘bon so‘lim bog‘idan, millat o‘z merosi, iste’dodli farzandlari bilan faxrlanadi va hokazo.

Milliy g‘urur bu milliy iftixordir. Milliy iftixor millat o‘zini yaxlit ijtimoiy birlik ekanligini ongli ravishda his qilishidir. Bu shunday bir kuchli ruhiy holatki, u tufayli tarixiy birlik, qon-qarindoshlik, til, madaniyat, ma’naviyat, iqtisodiy hayot va kelajak birligi millat vakillarining qalbidan chuqur o‘rin oladi.

Milliy g‘urur, avvalambor, har bir millat vakilining o‘z xalqi tarixini, ma’naviy, axloqiy qadriyatlari, istiqbolini bilishi va qadrlashi, shu bilan birgalikda, boshqa xalqlar va millatlarning ham milliy qadr-qimmatini, udumlari, tarixi, adabiyoti, san’ati va madaniyatini adolatli ravishda himoya qilish, chuqur his etish va o‘rganish, hurmat qilish bilan bog‘liq faxrlanish tuyg‘usi bo‘lgan millatning insoniy fazilatidir.

Milliy g‘urur yoshlarni o‘z kuchi, qobiliyati va iste’dodini milliy va umuminsoniy manfaatlar yo‘lida safarbar qilishga chaqiradi. O‘zbek xalqining yuksak milliy qadr-qimmati, or-nomusi va shon-sharafi uning o‘ta mehribonligi va sof vijdonligiga asoslangandir.

Milliy iftixor, eng avvalo, o‘zligini anglash, milliy ravnaqni ta’minlash yo‘lidagi xatti-harakat, o‘z millati istiqboli oldida mas’ullikning beqiyos namunasidir. Milliy o‘tmishini yaxshi bilgan, uni qadrlay oladigan va ayni paytda, uni yangicha sharoitlar va holatlarda boyitib boradigan komil insondir.

Milliy g‘urur yoshlarni o‘z kuchi, qobiliyati va iste’dodini milliy va umuminsoniy manfaatlar yo‘lida safarbar qilishga chaqiradi. O‘zbek xalqining yuksak milliy qadr-qimmati, or-nomusi va shon-sharafi uning o‘ta mehribonligi va sof vijdonligiga asoslangandir.

Milliy iftixor, eng avvalo, o‘zligini anglash, milliy ravnaqni ta’minlash yo‘lidagi xatti-

5 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrda “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-450-son qarori qabul qilindi.

harakat, o‘z millati istiqboli oldida mas’ullikning beqiyos namunasidir. Milliy o‘tmishini yaxshi bilgan, uni qadrlay oladigan va ayni paytda, uni yangicha sharoitlar va holatlarda boyitib boradigan komil insondir.Aks holda, milliy iftixor hissi shunchaki maqtanchoqlik vositasiga aylanib qolishi mumkin. Dunyoda 200 dan ortiq millatlar bo‘lsa, har bir millat o‘ziga xos fe’l-atvoriga egadir. Shuning uchun ham turli mintaqada yashayotgan xalqlar turlicha yashash tarziga, bir-biriga o‘xshamagan urf-odatlarga ega bo‘lishadi. Jumladan, o‘zbeklar diyonat, or-nomus, sharm-hayoni ijtimoiy hayot-ning hamma jabhalarida muhim fazilat deb qabul qilishgan. Shunday xislatlarga egalarki, ba’zan bu faqat “o‘zbekona fazilat” deb yuritiladi[6].

Milliy iftixor tuyg‘usining yana bir jihati shundaki, u yoshlarning, eng avvalo, qaysidir millatga mansubligi, uning keng imkoniyatlaridan quvona olish fazilatigina emas, balki yashab turgan zaminga, fuqaroligiga daxldor bo‘lgan mamlakatga munosabat belgisi hamdir. Milliy iftixori kuchli bo‘lgan yoshlar o‘z mamlakati bilan faxrlana oladi va uning taqdiriga befarq qaray olmaydi. Demak, bunday xalq o‘z istiqbolini chuqurroq anglaydi va unga sidqidildan xizmat qiladi.

Milliy g‘urur, milliy o‘z-o‘zini anglash mazmun va mohiyat jihatidan o‘zaro aloqadorlikda bo‘lib, bir-birini boyitadi, to‘ldiradi, biri ikkinchisisiz mavjud bo‘lmaydi.

O‘tmishini bilmagan va e’zozlamagan xalqning kelajagi yo‘q. O‘tmish bizlar uchun ham, boshqa xalqlar uchun ham allaqachon qaytmas bo‘lib ketgan, ko‘z o‘ngimizdan olislashgan, tarix mulkiga aylangan davrdangina iborat emas, balki ahamiyati hech qachon yo‘qolmaydigan tag zamin, o‘q ildizimizdir.

Inson o‘z kuchiga ishongan va bu bilan faxrlana olgan taqdiridagina biror narsaga erisha oladi. O‘z qadr-qimmatini anglash aqlli odamni yanada kamtarin, yanada sabotli qiladi. Kishi uchun o‘z qobiliyatidan ortiq darajada g‘ururlanishi ham, o‘z-o‘zini yerga urishi ham yaramaydi. O‘z-o‘zligicha qola bilgan odamning g‘ururi bus-butundir[7].

Kurash sporti vositasida o‘quvchilarni har tomonlama tarbiyalash imkoniyatlariga sport murabbiylarining qarashlarini o‘rganish maqsadida, jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali tinglovchilari (trenerlar) bilan ochiq savolnoma o‘tkazildi. Savolnomada 85ta respondent ishtirok etdi. O‘tkazilgan savolnomada quyidagicha javoblar olindi:

Vatanni sevish, ardoqlash, insonlarga g‘amxo‘rlik qilish kabi oliyjanob xislatlar tarbiyalanib boradi. 10 ta

Sport musobaqa qoidalariga qat’iy amal qilish orqali o‘quvchilarda tartib intizom shakllanadi. 8 ta

Sport musobaqalarda raqibga, jamoadagi o‘rtog‘iga, hakamlarga maxsus munosabatlar shakllanib boradi. 9 ta

Milliy qadriyatlar, an’anaviy bayramlar, turli marosimlar xalq milliy o‘yinlaridan xabardor bo‘ladi. 11 ta

Sport musobaqasida yangi do‘stlar orttiradi, ular bilan muloqot qilish jarayonida muomala madaniyati shakllanadi. 7 ta

Sport musobaqasi g‘oliblarini ko‘rganda ularga nisbatan havas uyg‘onadi, natijada g‘alabaga bo‘lgan intilish orqali mehnatsevarlik shakllanadi. 12 ta

Sport musobaqasida g‘olib bo‘lganda

6 Yoshlarda milliy g‘urur, milliy or-nomus va milliy iftixor fazilatlarini shakllantirish. https://uz.denemetr.com/docs/810/index-13975-1.html.

7 KURASH. Xalqaro jurnal. 1999, 1-2.

g‘ururlanadi. Ona yurti e’tirof etiladi, yurt sha’nini ham himoya qilib, yutuq va g‘alabalari tufayli ularda g‘urur iftixor tuyg‘ulari shakllanib boradi. 13 ta

Jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlanib boradi. 15 ta

Sport murabbiylarining bergan javoblaridan ko‘rinib turibdiki, kurash sporti o‘quvchilarda har tomonlama ijobiy xislatlarni tarbiyalaydi. Asosiysi murabbiylar kurashning tarbiyaviy xususiyatlarini ijobiy baholaydilar. Boshqa sport turlaridan farqli ravishda o‘quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat va milliy iftixor tuyg‘usining shakllanishi va rivojlanishida samarali ta’sir etadi.

Kurash bo‘yicha o‘tkaziladigan sport musobaqalari va barcha turdagi tadbirlar milliy qadriyatlarimizni targ‘ib etish, Vatanimiz qudratini oshirish, yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash, aholi salomatligini mustahkamlash vositalaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

"ARXITEKTURAVIY QALAMTASVIR, RANGTASVIR VA HAYKALTAROSHLIK" FANIDAN TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH

Nurmon Ochilovich Berdiyev – dotsent,
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Annotatsiya: *Maqolada bo'lajak arxitektorlar faoliyatidagi "Arxitekturaviy qalamtasvir, rangtasvir va haykaltaroshlik" fanining o'rni va ahamiyati, shuningdek, bu borada talabalarning mustaqil ishlarini tashkil qilishning dolzarb vazifalardan biri ekanligi, uning nazariy asoslari haqida so'z boradi. Muallif o'z tajribalaridan kelib chiqib hamda ilmiy adabiyotlarga suyangan holda, ushbu fan doirasida talabalar tomonidan bajariladigan mustaqil ishlarni tashkil qilishning samarali yo'llarini tavsiya qiladi, bu ishlarni amalga oshirishning shakl va metodlari haqida oz fikr-mulohazalarini bildiradi.*

Аннотация: *В статье рассматривается роль и значение дисциплины "Архитектурный рисунок, живопись и скульптура" в деятельности будущих архитекторов, а также подчеркивается, что организация самостоятельной работы студентов в этой области является одной из актуальных задач, и обсуждаются ее теоретические основы. Автор, основываясь на собственном опыте и опираясь на научную литературу, рекомендует эффективные способы организации самостоятельной работы студентов в рамках данной дисциплины.*

Abstract: *This article explores the role and importance of the discipline "Architectural Drawing, Painting, and Sculpture" in the professional development of future architects. It emphasizes that organizing students' independent work in this field is one of the current challenges, and discusses its theoretical foundations. Drawing from personal experience and scientific literature, the author recommends effective methods for structuring students' independent work within this discipline.*

Kalit so'zlar: *modernizatsiyalash, konsepsiya, arxitektura, arxitekturaviy qalamtasvir, rangtasvir va haykaltaroshlik, mustaqil ishlar, tendensiyalar, shakl va metodlar, kompyuter texnologiyalari, kompetensiya, abstrakt san'at, eskiz, kompozitsiya.*

Ключевые слова: *модернизация, концепция, архитектура, архитектурный рисунок, живопись и скульптура, самостоятельные работы, тенденции, формы и методы, компьютерные технологии, компетенция, абстрактное искусство, эскиз, композиция*

Keywords: *modernization, concept, architecture, architectural drawing, painting and sculpture, independent work, trends, forms and methods, computer technologies, competence, abstract art, sketch, composition*

Talabalarning mustaqil ishlari mazmunini modernizatsiyalash vositasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish masalasi mamlakatimizda oliy ta'limni rivojlantirishga bag'ishlangan ko'plab qaror va farmonlarda o'z aksini topgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da "mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish"[1] vazifasi belgilangan.

Shu ma'noda arxitektura ta'limida amaldagi ta'lim mazmuni tarkibiga kiruvchi mustaqil

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019-yildagi PF-5847-son. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. 1-ilova, 3-bob.

ishlar mazmunini belgilashda yangicha yondashuvlar bo‘lajak arxitektorlar tayyorlash tizimini takomillashtirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish, didaktik imkoniyatlarini aniqlashga oid maxsus tadqiqotlar o‘tkazish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Davlat ta’lim standartlari hamda o‘quv dasturi talablari asosida bo‘lajak arxitektorlarda tasviriy savodxonlik kompetensiyalarini shakllantirish, ularning arxitekturaviy loyihalarning badiiy-tasviriy yechimlarini tasviriy vositalarda mustaqil hal etish malakalarini tarkib toptirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimini takomillashtirish o‘zining ilmiy-metodik yechimini kutayotgan dolzarb muammolar sirasiga kiradi.

Bugungi kunda universitet talabalarining mustaqil ishi nafaqat oliy ta’limning dolzarb muammosi, balki butun jamiyatning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifasi bo‘lgan bo‘lajak mutaxassisning ijodiy shaxsini shakllantirish asosi sifatida ko‘rib chiqiladi. Bu muammoning yechimi, eng avvalo, ta’limning barcha bosqichlarida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning intellektual salohiyati, faolligi va mustaqilligini oshirishdadir. “Ushbu fan doirasida bajariladigan talabalarning mustaqil ishlari ham ta’limiy jarayonning uzviy va ajralmas qismi bo‘lib, unga ham alohida e’tibor qaratiladi”[2].

Zamonaviy o‘quv jarayonidagi mustaqil ish-bu zarur ma’lumotlarni mustaqil izlashni, auditoriya darslarida o‘quv materialini ijodiy idrok etish va tushunishni, talabalarning kognitiv faoliyatining turli shakllarini ta’minlashga qodir bo‘lgan ta’limni tashkil etish shakli sifatida qaraladi. Ta’limda talabalarning axborot olish, ularni tahliliy-sentsiz qilish qobiliyatlarni o‘stirish, o‘quv vaqtini nazorat qilish va rejalashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘quv ishlarini oqilona tashkil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga keng e’tibor berilishi muhim jarayondir.

Bugungi kunda xorijiy davlatlar oliy o‘quv yurtlarida ham talabalarning mustaqil ta’limiga bo‘lgan e’tibor kuchaytirilib, uning ta’limdagi o‘rni oshib borayotganligini ko‘rish mumkin. Shu ma’noda bu ishga kompetent yondashuv orqali o‘tish, ya’ni talabalarda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini, mustaqil faoliyat yuritish madaniyatini shakllantirishga qaratilgan izlanishlar olib borilmoqda, ilmiy adabiyotlar yaratilmoqda. Jumladan, T.I.Grechuxina, A.V.Merenkov tahriri ostida “Самостоятельная работа студентов” o‘quv qo‘llanmasi. Yekaterinburg, Ural universiteti nashriyoti 2016-y., M.S.Bostanov, R.M.Dereva. “Организация самостоятельной работы студентов по рисованию в высших учебных заведениях”. “Ta’lim fanlari” ixtisosligi bo‘yicha ilmiy maqola matni. Pedagogika. Nazariya va amaliyotga oid savollar. 2021-yil. 6-jild. 6-son., O.G.Razubayeva. “Методические указания по организации самостоятельной работы вне аудитории. На курсе живописи” Tolyatti, 2014-yil., va boshqalar bunga misol bo‘la oladi.

O‘zbekiston misolida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil qilish mavzusiga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlar, shuningdek, ilmiy maqolalar chop etilgan. Jumladan, N.O.Berdiyev., Z.R.Bobomuradov “Qalamtasvir va rangtasvir fanlaridan talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish” o‘quv qo‘llanmasi. Toshkent, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti bosmaxonasi, 2020-yil, O.Alimnazarov. “Elektron ta’lim muhitida mustaqil ta’limni tashkil etish metodikasini takomillashtirish vositalari”, “Ta’lim, fan va innovatsiya” jurnali. 5-7-betlar. 2022-yil, 5-son va boshqalarda Oliy ta’limda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish metodlari xususida ilmiy izlanishlar olib borilgan va bu borada fikr-mulohazalar yuritilgan. Bundan tashqari, tadqiqotning turli yo‘nalishlarini

2 N.O. Berdiyev, Z.R.Bobomurodov. Qalamtasvir va rangtasvir fanlaridan talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish. O‘quv qo‘llanma. 4-bet. -Toshkent, 2019.

qamrab oluvchi ko‘p tarmoqli "European Scholar Journal" (ESJ)ida nashr etilgan B.R.Muqimov., A.Sh.Xudayberdiyevalarning "Talabalarning mustaqil ishini tashkil etishi" nomli maqolasi ham ushbu mavzuga bag‘ishlangan bo‘lib, unda o‘quv jarayonini faollashtirishga imkon beruvchi mustaqil ishlarni auditoriyada va undan tashqarida ham tashkil etish va o‘tkazish shakllari ko‘rib chiqiladi.

"Arxitekturaviy qalamtasvir, rangtasvir va haykaltaroshlik" fani 5340100 – Arxitektura (bino inshootlari), 5341000 – Qishloq hududlarini arxitektura – loyihaviy tashkil etish yo‘nalishlarida ta'lim oluvchi talabalarning fazoviy tasavvurlarini o‘stirishda, ularning turli xil hajmli shakllar va ulardagi ranglarni his qilish hamda bunday narsa buyum ko‘rinishlarini tekis yuzada tasvirlay olish ko‘nikmalarini o‘stirishda, shuningdek, haykaltaroshlikning realistik va dekorativ usullarida ishlay olish qobiliyatlarini rivojlantirishda, ularning tasviriy san'at va arxitektura sohalarining uzviy bog‘liqlik tomonlarini chuqurroq tushunishlarida muhim ahamiyatga ega.

Arxitektura ta'limida tasviriy san'at, jumladan, qalamtasvir, rangtasvir hamda haykaltaroshlik san'ati va ularning hayotda va me'morchilik san'atidagi tutgan o‘rni, tarixiy an'analari, usul va uslublari, bu sohada ishlatiladigan asbob-uskunalar, dastgohlar, materiallar va ularning vazifalari bilan talabalarni tanishtirish ularning bu borada mustaqil ravishda olib boradigan ilmiy-ijodiy faoliyatlarini to‘g‘ri tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. Talabalarning ushbu fanlar yuzasidan bajariladigan mustaqil ishlarining maqsad va vazifalarini tushunib olishlari uchun qulay muhit yaratish, metodik yordam berish asnosida, aniq natijalarga erishish mumkin. Bundan tashqari, mustaqil bajariladigan amaliy ishlar mavzulari va ana shu mavzularni o‘rganish uchun didaktik materiallar, har bir mavzu yuzasidan amaliy ishlanmalar namunalari, metodik tavsiyalarning pedagoglar tomonidan berib borilishi talabalarning mustaqil ishlari samaradorligini oshiradi.

Talabalarning "Arxitekturaviy qalamtasvir, rangtasvir va haykaltaroshlik" fanidan mustaqil ishlarini samarali tashkil etish uchun oliy o‘quv yurti tomonidan zarur shart-sharoitlar yaratilishi kerak bo‘lib, ular asosan quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- moddiy-texnik baza yaratilishi (mavjud bo‘lishi);

Bular talabalarning mustaqil ishlari tarkibiga kiruvchi aniq topshiriq va vazifalarni bajarishlari uchun muayyan talablarga javob beruvchi o‘quv xonalari (o‘quv ustaxonalari) mavjud bo‘lishidir. Ya'ni, fan xususiyatlaridan kelib chiqib, alohida shart-sharoitlar, asbob-uskunalarga ega bo‘lgan o‘quv auditoriyalari va ustaxonalarini tashkil etish. Jumladan, qalamtasvir va rangtasvir fanlarini o‘qitish bo‘yicha maxsus jihozlangan xonalar, shuningdek, haykaltaroshlik ustaxonasi keng va yorug‘, fanga tegishli ko‘rgazmali qurollar bilan jihozlangan holda bo‘lishi lozim. Bularga o‘quv va mustaqil ishlash jarayonlarida foydalanish uchun mo‘ljallangan va etalon sifatida qabul qilingan tasviriy san'atga oid namunalar, qalamtasvir, rangtasvir ishlash metodikasiga tegishli eng yaxshi ko‘rgazmali namunalaridir. Haykaltaroshlik ustaxonasida esa, faniga tegishli o‘quv-amaliy ishlardan namunalar qo‘yiladigan maxsus stellajlar, haykaltaroshlik stanoklari, loy yoki plastilin bilan ishlash uchun mo‘ljallangan yog‘och tagliklar, haykaltaroshlik loylari saqlanadigan idishlar (ular turli xil ko‘rinishda bo‘lishi mumkin), qo‘l yuvish uchun umivalniklar va boshqalar.

- talabalarning auditoriyada va auditoriyadan tashqari mustaqil ishlashlarida foydalanishlari mumkin bo‘lgan kerakli ma'lumotlar fondining mavjud bo‘lishi;

Bular – fanga tegishli turli xildagi illyustrativ materiallar, filmlar, video va audio materiallari, o‘quv adabiyotlari, jurnallar va boshqalar.

- mustaqil ishlar mavzularining ushbu fan doirasidagi o‘quv dasturlariga mos, o‘zaro aloqadorlikda bo‘lishi va ularda bu vazifalarni bajarish uchun belgilangan vaqt ajratilgan bo‘lishi;

Buning uchun o‘quv yili boshlanishdan avval mustaqil ishlar mavzulari professor-o‘qituvchilar tomonidan kelishilgan holda ishlab chiqiladi va ular tasdiqlangan ishchi dasturlarda aks ettiriladi. Albatta, mavzular tanlanishida ularning mazmun jihatidan turdosh fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi ta’minlanishi va bu vazifalarni bajarish uchun belgilangan vaqt ajratilgan bo‘lishi lozim.

- mustaqil ishlar tarkibiga kiruvchi vazifalarning asosli, talabalarning bo‘lajak kasbiy faoliyatlariga mos bo‘lishi;

Mustaqil ishlar tarkibiga kiruvchi vazifalar talabalarning xohish-istaklari, qiziqishlarini hisobga olgan va umumlashtirilgan holda tuzilishi, bo‘lajak arxitektorlarning kasbiy faoliyatlariga mos bo‘lishi talab etiladi. Qalamtasvir, rangtasvir va haykaltaroshlik fanlariga doir vazifalar bugungi kunda arxitektura va dizayn sohasida olib borilayotgan ishlar, yangiliklar, hayotda qo‘llanayotgan tendensiyalar, bu boradagi xorijiy tajribalar va ulardan kelib chiqib berilishi lozim.

- professor-o‘qituvchilar tomonidan kerakli o‘quv materiallarining ishlab chiqilishi;

Pedagoglar tomonidan ishlab chiqiladigan va tayyorlanadigan o‘quv materiallari quyidagi mazmunlarni qamrab olishi maqsadga muvofiq: bular – fanga tegishli o‘quv adabiyotlari, o‘quv-metodik qo‘llanmalar, ko‘rsatmalar, shuningdek, har bir mavzu doirasidagi amaliy ishlar namunalari, ushbu mavzular bo‘yicha amaliy ishlar ishlanmalari, metodik tavsiyalar va boshqalar.

- professor-o‘qituvchilar tomonidan talabalarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini, ularning har tomonlama o‘quv kompetensiyalarini rivojlantirilishi;

Bu masalalarga professor-o‘qituvchilar tomonidan talabalarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi barcha omillar va shart-sharoitlarning yaratilishi, ularni to‘g‘ri yo‘naltirish, xatoliklarini ko‘rsatib o‘tish, amaliy maslahatlar berish, ijodiy ishlashga yo‘naltirish va rag‘batlantirish kabi turli pedagogik metodlarni kiritish mumkin. Shu tariqa, talabalarning har tomonlama o‘quv kompetensiyalarini rivojlantirilishiga erishish mumkin. Faqat bu jarayon pedagog va talabadan faol harakat va zalvorli mehnat, tinimsiz izlanishni talab etadi.

Bundan tashqari, – professor-o‘qituvchi tomonidan talabalarning mustaqil ishlashlarini tashkil etish, bunda bajariladigan ishlarning boshlanishi, joriy va yakuniy bosqichlari hamda erishilgan natijalargacha bo‘lgan barcha jarayonlarda ularni kuzatib va nazorat qilib borilishi lozim. Ko‘rinib turibdiki, mustaqil ishlarni bajarish pedagog va talaba oldiga muayyan muammolarni hal qilish vazifasini ham qo‘yadi hamda bu ishga katta mas’uliyat bilan yondashishni talab qiladi. Shunday ekan, bunda talaba va pedagogning o‘zaro hamkorlik faoliyati yaxshi natija berishi mumkin. Bunda pedagogning vazifasi – fan yuzasidan talaba uchun muhim bo‘lgan mustaqil topshiriqlar jamlanmasini, ya’ni didaktik materiallarni ishlab chiqish, unga yetkazish, tavsiyalar berish, to‘g‘ri yo‘nalish berish bo‘lsa, talabaning vazifasi – o‘zining bo‘lajak faoliyatida aynan ana shu fan yuzasidan oladigan bilim va malakalarning qay darajada muhimligini, o‘rni va ahamiyatini anglab yetishi, o‘z vaqti va imkoniyatlaridan samarali foydalana bilishi, ishni tartibli tashkil qilishi va o‘z bilim va malakalarini mustaqil boyitib borish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

“Arxitekturaviy qalamtasvir, rangtasvir va haykaltaroshlik” fanidan mustaqil ta’limni tashkil etishning shakl va metodlari.

Talaba mustaqil ishini tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan xolda

quyidagi shakllardan foydalanishi tavsiya etiladi:

Qalamtasvir, rangtasvir hamda haykaltaroshlikka oid darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish;

Maxsus adabiyotlar bo‘yicha fanlar bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash;

Qalamtasvir, rangtasvir va haykaltaroshlikda ishlatiladigan turli xil materiallar va asbob-uskunalar va ular bilan ishlashni chuqurroq o‘rganish;

O‘quv ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fanlar bo‘limlari va mavzularini chuqurroq o‘rganish;

Berilgan topshiriqlar bo‘yicha amaliy ishlar bajarish;

Ishda noan’anaviy metodlarni qo‘llash, turli xil, zamonaviy va yangicha materiallardan foydalanish va ularni tatbiq etishni o‘rganish;

Amaliy ishlashda ijodiy yondashuvni shakllantirish va rivojlantirish;

Tasviriy san’at kompozitsiyalarini zamonaviy me’morchilikda qo‘llash tendensiyalarini o‘rganish.

Ushbu mazmundagi mustaqil ishlarni samarali tashkil etish uchun professor-o‘qituvchi tomonidan ko‘plab didaktik materiallarni tayyorlash, ulardan tegishli tartibda foydalanish tartibini ishlab chiqish va ularni talabalarga yetkazish talab etiladi. Bular quyidagilar:

- tasviriy san’at, jumladan haykaltaroshlikning bo‘lajak kasbiy faoliyatdagi ahamiyatini anglab yetishga ko‘maklashuvchi ma’ruza matnlari;
- va uni o‘rganish uchun mo‘ljallangan ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar, ularning elektron variantlari, elektron darsliklar, multimedia va media materiallari (jumladan, internet materiallar va teledasturlar);
- fan bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlashga mo‘ljallangan topshiriqlar jamlanmasi – savollar, o‘rganishda muammoli vaziyatlar va ularning yechimini topish, testlar;
- amaliy ishlash uchun topshiriqlar;
- muayyan mavzuni o‘rganish uchun ilmiy-tadqiqot olib borishni ta’minlovchi va yo‘naltiruvchi xarakterdagi tavsiyalar, ish rejalari (bajarilish vaqti, ko‘rib chiqish tartibi);

Bundan tashqari, talabaning shaxsiy qiziqishlari va istaklari asosida sohaga tegishli bilim va malakalarni egallashga yo‘naltiruvchi tavsiyalar ham bu borada ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, talaba lanshaft uchun abstrakt haykaltaroshlik namunasini ishlashga qiziqadi va ushbu yo‘nalishda amaliy ish qilmoqchi. Bu holatda unga quyidagi tavsiya va yo‘naltirishlarni berish mumkin:

1. Tayyorgarlik ishlari: abstrakt san’at haqida ma’lumotlar to‘plash va tushunchalar hosil qilish.

2. Abstrakt haykaltaroshlik san’ati haqida ma’lumotlar to‘plash va tushunchalar hosil qilish.

3. Ushbu haykaltaroshlik namunasi uchun mo‘ljallangan joy va uning lanshafti ko‘rinishlarini (joy va lanshaftning o‘ziga xos xususiyatlari, tanlanadigan joyning hayotdagi amaliy ahamiyati – bolalar maydonchasi, turur joy maskani, dam olish zonasi, ishlab chiqarish yoki ilmiy – texnikaviy markaz va hakazo) aniqlash;

4. Eskizlar ustida ishlash (dastlab qog‘ozda, keyin hajmli ko‘rinishda).

5. Ushbu holatda (abstrakt haykaltaroshlik kompozitsiyasini ishlashda) qanday materiallar foydalanish mumkinligini aniqlash. Nima uchun aynan shu materiallardan foydalanish kerakligini asoslash va boshqalar.

Amaliyot ko‘rsatmoqdaki, o‘zlari bajarishlari kerak bo‘lgan mustaqil ishlar va unga qo‘yilgan talablarni amalga oshira olish darajasiga ko‘ra

talabalarni ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga kiruvchilar – ular ma'lum bir fan bo'yicha oldilariga qo'yilgan mustaqil ishlarni bajarishga intiluvchi va o'quv kompetensiyalariga ega bo'lgan, izlanuvchan, ijodkor talabalar. Ularda berilgan vazifalarni tushunish, ma'lumotlarni eslab qolish, mantiqiy fikrlash, materiallarni yozma bayon qila olish, o'lchash va qiyoslash, loyihalash kabi qobiliyatlar rivojlangan bo'ladi. Ikkinchi guruhga kiruvchi talabalarda esa berilgan vazifalarni mustaqil bajarishga intilish, o'quv materiallarini doimiy ravishda o'zlashtirib borish xislatlari barqaror bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, ularda universal tarzdagi o'quv kompetensiyalari va ko'nikmalarning rivojlanish darajasi past bo'lib, bu vazifalarni bajarishga va tashkil qilishga qiynalishadi, bu borada o'zi mustaqil ravishda harakat qila olmaydi. Shuning uchun ham bu boradagi ishlarni tashkil qilish, oldinga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish har tomonlama va kompleks yondashuvlarni talab etadi.

Jamiyatimizda kechayotgan o'zgarishlar, taraqqiyot jarayonlarida shaharsozlikning o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda va bu omil, birinchi navbatda, yuqori kasbiy kompetensiyaga ega bo'lgan arxitektorlarni tayyorlashni talab qiladi. Shu ma'noda ularda tasviriy vositalardan optimal tarzda foydalanish natijasida zamonaviy talablarga javob beradigan arxitekturaviy loyihalarning tasviriy talqinlarini yaratish kompetensiyalarini tarkib toptirish, bu jarayonda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim omillaridan biri – mustaqil ishlar mazmunini modernizatsiyalash, uning metodik ta'minotini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Oliy ta'limni isloh qilishning zamonaviy sharoitida butun ta'lim jarayonini tashkil etishga yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish talab etiladi. Jumladan, arxitektura yo'nalishlarida tahsil oluvchi talabalarga badiiy ta'lim sohasidagi fanlarni o'qitish, bu borada ularning mustaqil faoliyat yuritishlari uchun barcha shart-sharoitlarni talab darajasida tashkil etish davr talabidir. Chunki, yangi ta'lim paradigmasida talaba bilimlarning passiv iste'molchisi emas, balki muammoni to'g'ri shakllantira oladigan, uni hal qilishning mumkin bo'lgan yo'llarini tahlil qila oladigan, ijodiy fikrlay oladigan, optimal natijani topish va uning to'g'riligini isbotlay oladigan faol subyektga aylanishi kerak. Bunday rakursda talabalarning mustaqil ishi nafaqat o'quv jarayonining muhim shakliga aylanadi, balki uning mustahkam asosiga ham aylanadi.

CHIZMATASVIR DARSLARIDA BO'LAJAK ARXITEKTOR-DIZAYNERLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH

Sherzod Choriyevich Bekmirov – katta o'qituvchi,
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mashhur tasviriy san'at ustalarining badiiy tushunchalari, uslublari va ijodiy usullari tarixiy taraqqiyot kontekstida ko'rib chiqiladi. "Chizmatasvir" tushunchasining mohiyati aniqlanadi. Rassom-dizayner va dizayner stilistning kasbiy faoliyatiga texnik tayyorgarlik sifatida rasm chizishning roli ochib berilgan. Dizaynerning kognitiv qobiliyatlarini shakllantirishda grafik tasvirlash fanlarining ahamiyati aniqlanadi. Chizmatasvir talabalarning badiiy tasavvurlarini o'stiradi, ularning o'z g'oyalarini yaratishlari va amalga oshirishlari uchun xizmat qiladi, har tomonlama yetuk loyihalar ustida ishlashlariga zamin hozirlaydi.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются художественные концепции, технические приёмы и творческие методы известных мастеров изобразительного искусства в контексте исторического развития. Определяется сущность понятия "рисунок". Раскрывается роль рисунка как технической подготовки к профессиональной деятельности художника-дизайнера и дизайнера-стилиста. Подчёркивается значимость дисциплин графического дизайна в формировании когнитивных способностей дизайнера. Рисование развивает художественное воображение учащихся, помогает им создавать и реализовывать собственные идеи, готовит их к работе над комплексно зрелыми проектами.*

Abstract: *This article examines the artistic concepts, techniques and creative methods of famous masters of fine art in the context of historical development. The essence of the concept of "drawing" is defined. The role of drawing as technical preparation for the professional activity of an artist-designer and designer-stylist is revealed. The importance of graphic design disciplines in the formation of the cognitive abilities of a designer is emphasized. Drawing develops the artistic imagination of students, helps them create and implement their own ideas, prepares them for work on complex mature projects.*

Kalit so'zlar: *tasviriy san'at, grafik, chizmatasvir, hajm, texnika, konteks, tarix, ijodkorlik, badiiy, dizayn.*

Ключевые слова: *изобразительное искусство, графика, рисунок, форма, технические приёмы, контекст, история, творчество, художественный, дизайн.*

Keywords: *art, graphic arts, drawing, form, technique, context, story, creation, art, design.*

Hozirgi vaqtda yurtimizda boshqa sohalar qatorida arxitektura va dizayn yo'nalishlari rivojlanishiga katta e'tibor berilyapti. Chunki, shaharsozlik muttasil o'smoqda, shunga muvofiq ravishda interyer va landshaft dizayni ham zamonaviy tendensiyalar asosida rivojlanmoqda. Bularning barchasi bugun Oliy ta'limning arxitektura yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarning kelgusida malakali kadrlar bo'lib yetishishlarini ta'minlash vazifasini qo'yadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019-yildagi PF-5847-son farmoni, 1-ilovasida "...kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish"[1] alohida belgilab qo'yilgan.

Dizayn – bu san'atning boshqa sohalaridan olingan badiiy texnikalar bilan boyitilgan estetik ekspressiv obyekt-fazoviy muhitni shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan maxsus faoliyat sohasi. Dizaynda chizish juda muhim ahamiyatga ega, lekin hozirgi vaqtda texnologik kompyuterlashtirish jarayonni tufayli ko'pincha e'tibordan chetda qolyapti. Bilim va ko'nikmalarning butun qatlamini rivojlantirish,

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 08.10.2019-yildagi PF-5847-son. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2023-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. 1-ilova.

chizmatasvir darslari dizaynerning kasbiy faoliyatida ajralmas bo‘lib, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, badiiy did va badiiy ehtiyojlarni shakllantirish uchun cheksiz imkoniyatlarga ega. Chizmatasvir akademik tasviriy san’at va dizaynni shakl, plastika va yangi g‘oyalar kabi toifalar bilan bog‘laydi. Ijodkorlik, shaklni malakali o‘zlashtirish, fazoviy makon qonunlarini tushunish va vizual ifoda vositalaridan professional foydalanish, kompozitsiyani yaratish tamoyillari, har qanday dizayn turini o‘ylangan va izchil yondashish bilan bog‘lash, chizmatasvirni shakllanishi va rivojlanishining tarixiy jihatini bilish. “Binobarin, chizmatasvirning rivojlanishi va shakllanishining tarixiy jihatini tahlil qilish va uni dizaynerlik faoliyatida qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash zarurati tug‘iladi”[2].

Chizmatasvir – bu grafik vositalar yordamida chizilgan tasvir – nuqta, shtrix, chiziq, to‘g‘ri chiziq v.h.k. Chizmatasvir san’ati paleolit davriga borib taqaladi, hayvonlarning toshlarga, suyaklarga o‘yilgan va g‘orlarga chizilgan ilk tasvirlari. Bizga tarixdan ma’lumki, chizmatasvir ibtidoiy odamlar o‘rtasida muloqot vositasi sifatida yozishdan ancha oldin paydo bo‘lgan, keyinchalik uning asosida rasm ko‘rinishdagi yozlar rivojlangan. “Qadimgi sivilizatsiyalar san’atidan tortib to bizning davrimizgacha tasviriy san’atni o‘rganish doimo rasm chizishdan boshlanadi. Chizmatasvir nafaqat grafikaning, balki tasviriy san’atning boshqa turlarining ham asosidir”[3].

Chizmatasvir qoidalarini nazariy asoslashning boshlanishi tasviriy san’atda ma’lum qonunlarni o‘rnatgan qadimgi misrliklarga tegishli. Qadimgi Misrda rasm chizish texnikasini o‘rgatish ikki yo‘nalishda olib borilgan. Bir tomondan, o‘quvchi asosiy kontur chiziqlarini cho‘tka yoki papirus yuzasiga osongina qo‘llashi uchun erkin qo‘l harakati ishlab chiqilgan. Boshqa tomondan, devorga yoki toshga freska, barelyef, kompozitsiyasini tasvirlash uchun chizgi konturini ishonchli tarzda chizish uchun ustaning kuchli va barqaror qo‘li bo‘lishi kerak edi.

Qadimgi yunon rassomlari o‘zlarining kanonlarini ishlab chiqishda inson tanasini o‘rganishgan. Ular go‘zallikning mohiyati uyg‘un tartib, simmetriya, qismlar va shaklning butunligida uyg‘unligida yotadi, deb ta’kidladilar. “Yunon rassomlari real dunyoni iloji boricha aniq tasvirlashga harakat qilganlar, shuning uchun tasviriy san’atni o‘rgatish usuli hayotdan rasm chizishga asoslangan”[4]. Rim imperiyasi davrida tasviriy san’atning o‘zi, demak, chizmatasvir amaliy tus oldi. Shuning uchun, nusxalash va chizishni o‘rganishda qadimgi yunonlarning ishlash usullarini takrorlashni ustun ko‘rishgan.

O‘rta asr tasviriy san’ati diniy mavzuga mos kelmasa, realistik yo‘nalishlarni rad etdi. Chizma asarlar tabiatni to‘g‘ri yetkazishga emas, balki uning hissiy, ruhiy holatiga qaratilgan edi. Bizning zamonamizgacha yetib kelgan chizmatasvir texnikasining barcha turlari asosan Italiyada Uyg‘onish davrida rivojlangan. O‘sha davrlarda ham chizmatasvirda qo‘rg‘oshin, kumush va boshqa metallar qo‘rg‘oshinlar grafit, italyan qalami, sanguine, ko‘mir, bo‘r, pastel, shuningdek, akvarel va oq rang ishlatilgan. Ular g‘oz va qamish patlari yordamida oq qog‘ozga va turli rangdagi bo‘yalgan qog‘ozlar yuzasiga cho‘tkalar bilan ishlab asarlar yaratganlar. Bularning barchasi badiiy yangidan yangi texnikalarning boyishiga olib keldi.

Uyg‘onish davrida yaratilgan chizmatasvir texnikasi rassomlarning keyingi avlodlariga kuchli ta’sir ko‘rsatdi va bir xil materiallar bilan ishlashning o‘ziga xos texnik va badiiy usullarini ishlab chiqqan ko‘plab san’at maktablari uchun

2 Воронов Н.В. Суть дизайна. – М., 2002. – С. 25.
3 Ли Н.Г. Основы учебного академического рисунка. – М.: Эксмопресс, 2014. – 284 с.
4 Ростовцев Н.Н. Академический рисунок. Москва: Книга по требованию, 2012. – 80 с.

asos bo'ldi. Chizishning qat'iy, chiziqli uslubi Florensiya va Rim maktablariga mansub Uyg'onish davri rassomlari tomonidan ishlab chiqilgan: A.Matenyi, Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo.

Uyg'onish davrida perspektiva qonunlari kashf qilindi va texnik ma'lumotlarni yangi grafik usullarda aks ettirish uchun amaliy asoslar yaratildi. Buyuk Leonardo da Vinchi o'z avlodlariga meros sifatida uchishga qodir texnika va otish ya'ni uloqtirish mashinalarining grafik tasvirlarini qoldirgan. Ular o'ziga xos tarzda ijro etilgan, uni zamondoshlari "konusli perspektiva" deb atashgan. Ushbu usul bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Hozirgi vaqtda u "chiziqli perspektiva" deb ataladi va arxitektura, chizmatasvir, va dizaynda qo'llaniladi. Venetsiyalik rassomlar, aksincha, erkin tarzda ijod qilishgan, masalan, Titian, Paolo Veronese, Jacopo Tintoretto yengil shtrixlardan va nuqtadan foydalanishni afzal ko'rishgan. Kumush shtiftlar bilan chizilgan chizmatasvirlarning buyuk ustalari Yan van Eyk, Albrext Dyurer, Rafael va boshqalar edi. XIX asrning birinchi yarmida grafit qalam bo'yicha eng zo'r rassom fransuz rassomi Jan Auguste Dominik Ingres edi.

XVIII-XIX asrlarda rus maktabi ham rasm chizish texnikasiga juda ko'p yangi texnika usullarni kiritdi. O.Kiprenskiy, K.Bryullov va boshqa bir qator Badiiy akademiya talabalari chizmatasvir ustalari edilar. Ular ko'pincha biroz sarg'aygan yoki ko'k tusli qog'ozlardan foydalangan holda ishladilar, bular yordamida qog'oz yuzasiga bajarilgan chizgini shu tuslar yordamida yumshoq yengil ko'rinishiga erishilgan.

Ushbu rassomlarning o'quv davri chizgilari bugungi kunda yirik tasviriy san'at muzeylarini kolleksiyalarida saqlanadi. Rossiyalik ustalar A.Losenko, A.Ivanov, I.Repin va boshqalar rasm chizgilarda turli xil materialdan va usullardan keng foydalanganlar. I.Repin grafit qalam bilan o'tkir psixologik chizmalarni bajarishda soyadan foydalanishni yaxshi ko'rardi.

Matoda (holst) ko'mir yordamida ishlangan chizgi rasmlari orasida "Eleanora Dyusning portreti" qiziqarli bajarilgan. Rassom unda turli xil texnik usullardan foydalangan: chiziqlar ko'mir qalam yordamida tekis yotqizilib chizilgan, ayniqsa kiyim va fon tasvirlanganda va yengil ishqalangan yoki chizgidagi shtrixlar, erkin keng amalga oshirilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmidagi rus rassomlari akvarel kabi suv bilan suyultirilgan quruq va ho'l sous texnikasini ishlab chiqdilar va o'z san'atlarida keng qo'lladilar. V.Serov, B.Kustodiyev, V.Borisov-Musatov, M.Vrubellarning chizmalari turli xil chizma materiallar va texnikalarni bir format, ya'ni qog'ozda mohirona bajarishgani misoldir. V.Serov, "O.K.Orlovaning" portretini, bajarish chog'ida ko'mir, sanguine va rangli qalamlardan foydalangan. U murakkab ijro texnikasiga qaramay, soddalik va ohangning umumiy uyg'unligiga erisha oldi. Yuqori mahorat, virtuoz texnika va nozik didga ega bo'lgan Serov ko'plab ajoyib rasmlarni yaratdi. M.Vrubelning chiziq va mohirona shtrixlarni qo'llash usulini boshqa rassomning usullari bilan aralashtirib bo'lmaydi. U qaysi asar chizgisini tasvirlashidan qat'i nazar – stakandagi atirgul, manzara, yoki beshikdagi bola – Vrubelning o'ziga xos, burchakli, kesishgan shtrix chiziqlarini shubhasiz tanib bo'ladi.

Pero yordamida chizmatasvir bajarishda barcha davrlarning buyuk usta rassomlari: Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Titian, Dyurer, Rembrandt, Dore, I.Repin, V.Serov, M.Vrubel va boshqalar tomonidan bemalol foydalanilgan. Ular bizga noyob va betakror cheksiz rang-barang qalam, peroda bajarilgan chizgilarini qoldirdilar. Odatda ular silliq, qalin oq yoki tuslangan qog'ozga, siyoh yoki sepiya (jigarrang bo'yoq)

bilan chizishgan[5]. Ular koʻpincha pero va choʻtka texnikasini birlashtirib uygʻunlashtirdilar. Chizmatasvir texnikasi xilma-xil boʻlib, ular Gʻarbiy Yevropa va Rossiya san'atining taniqli ustalari tomonidan yaratilgan. Pero yordamida chizish rassomdan aniqlik va ishonchni talab qiladi, chunki tuzatish kiritish deyarli mumkin emas.

Shunday qilib, har bir davr va har bir rassom oʻzining badiiy dunyoqarashiga eng mos keladigan rasm chizish uchun oʻzining sevimli asbobi va materialiga ega edi. Kech gotika va erta Uygʻonish davri sof chiziqli asboblar bilan ajralib turadi: metall grifel va pero. Yuqori Uygʻonish davrida pero juda muhim rol oʻynashda davom etgan, lekin konturini chizish uchun emas, balki shaklni soyalarini shtrix chiziqlar orqali koʻrsatish uchun. Shu bilan birga, rassomlar italyan qalam va sanginaga (ya'ni soya yorugʻiga) murojaat qilishdi va XVI asrning ikkinchi yarmida pero va choʻtka (lavis) uygʻunligiga boʻlgan qiziqishni asta sekinlik bilan chizmadagi shakl, tuslarga oʻz oʻrnini boʻshata boshlaydi.

XVII asr chizmatasvir ustalarining sevimli texnikasi yoʻqdek tuyulishi mumkin – ular barchasini bir xil iroda va mukammallik bilan oʻzlashtirgan.

Ammo diqqat bilan qarasangiz, ular xuddi choʻtka bilan chizayotgandek barcha chizish texnikasini oʻzlashtirgani ayon boʻladi. Nihoyat, XVIII asrda koʻp rangli texnika aniq ustunlik qildi va koʻpincha "uch qalam" da.

Shunday qilib chiziqdan nuqta va tuslargacha aniq koʻrsatilgan. Bu chizmalarda barcha bitmas-tuganmas stilistik va tematik imkoniyatlar mavjudligidan dalolat beradi. Chizish, bir tomondan, rassom, haykaltarosh, dizayner uchun yordamchi vosita boʻlsa, ikkinchi tomondan, u chuqur gʻoyalarni va his-tuygʻularning eng nozik nuanslarini oʻzida mujassamlashtira oladigan mutlaqo mustaqil ifoda vositasidir. Tez chizish texnikasi rassom qoʻli va uning tasavvurining organik hamkorligini ochib beradi. Hech bir badiiy texnik ixtironing yangiligi va shiddatini yoki taassurotlarning oʻtkinchiligini chizmatasvir kabi toʻgʻridan-toʻgʻri gavdalantirishga qodir emas.

Dunyo va rus maktablarining chizish texnikasini oʻrganish uchun boy materiallari eng yirik san'at muzeylarida joylashgan. Hozirgi vaqtda "dizayner" sohasi kasbi ilmiy, muhandislik va texnik bilimlarni vaziyatlarni badiiy talqin qilish qobiliyati bilan birlashtiradi. Bu san'at va muhandislik bilimlarining uygʻunlashuvining bir turi.

"Bugungi kun mehnat bozoriga nafaqat interyer dizaynerlari yoki grafik dizaynerlar, balki, birinchi navbatda, raqobatbardosh, ijtimoiy va professional mobil, loyiha asosida fikr yuritishga, axborot oqimini boshqarishga, konseptual muammolarni hal qilishga, ongli maqsadlar va qadriyatlarga ega boʻlishga tayyor va qobiliyatli shaxslar kerak".

Dizaynerni faoliyatida chizmatasvirning roli va ahamiyatini hisobga olgan holda shuni ta'kidlash kerakki, dizayner uchun chizma qoralamalar gʻoyani ifodalashning asosiy vositasi, loyiha yoki yangi bir narsa yaratishning birinchi va boshlangʻich bosqichidir. Rasm va eskiz chizish jarayoni dizaynerning professional madaniyatining generatoridir. Oʻylangan gʻoyalarni ochib berish va amalga oshirish usulidir. Grafik fanlarni oʻzlashtirish dizaynerning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoniga ijobiy ta'sir koʻrsatadi, qoʻllaniladigan aqliy vositalar va aqliy operatsiyalar doirasini kengaytiradi, bu esa, oʻz navbatida, boʻlajak mutaxassisning moslashuvchan kasbiy imkoniyatlarini oshiradi". Shuning uchun boʻlajak arxitektor va dizaynerlarning fazoviy tasavvurlarini oʻstirishga , ularning kompozitsion qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor

5 Серов А.М. Рисунок: учебное пособие для педагогических институтов. Москва: ЭКСМО – Пресс, 2002.

beriladi"[6].

Shunday qilib rasm chizish badiiy kasbdagi mutaxassis uchun ijodiy ijod uchun texnik tayyorgarlik bo'lib xizmat qiladi. Badiiy ixtisosliklar uchun chizmatasvirga o'rgatish tabiiy motivning obrazli tasavvurini, strukturaviy asosni obyektlarning shaklini, idrok etish va tasvirlash qobiliyatini, ijodkorni badiiy saviyasini mustahkamlaydi va rivojlantiradi. Talabalar tabiiy motivning hajmli-fazoviy tasavvuriga ega bo'lishi, har qanday modelning tuzilishini ajralmas va xilma-xil shakl sifatida tushunishi, xarakterli, ta'sirchan, estetik jihatdan mukammal hodisani qog'oz yuzasida chiziqlar, shtrixlar, tuslar bilan idrok etish qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak.

Chizmatasvir asoslarini o'zlashtirish natijasida talabalar o'quv ustaxonada analitik usullarini va qisqacha eskiz, qoralamalar chizish texnikasini umumiydan aniqliklarni aniqlashgacha, detallarni o'rganish orqali rivojlantirishgacha o'zlashtiradilar. Badiiy mahorat bilan tugatilgan chizmatasvirlarni yaratishadi. Badiiy texnikani muntazam ravishda o'zlashtirish, atrofimizdagi dunyoga obrazli qarashni takomillashtirish jarayonida, o'z hissiy taassurotlari va fikrlarini qog'oz yuzasi tekisligida gavdalantirish bilan bog'liq qiyinchiliklarni yengish jarayonida rassom-dizaynerlar va dizayner-stilist shakllanishadi.

6 Berdiyev N.O. Tasviriy san'at. Ixtisoslashgan akademik litseylar uchun darslik. 3-bet. Toshkent, nashriyoti.-2022-y.

O'QUVCHI-YOSHLARDA MUSIQIY TAFAKKUR VA UNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Ahmadjon Qodirovich Jumayev – katta o'qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'quvchi-yoshlarda musiqiy tafakkur va uni rivojlantirishni amalga oshirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari va uni tarkib toptirishning uslub, shakl, vositalari keng yoritilgan.*

Аннотация: *В статье подробно рассматриваются особенности процесса развития и реализации музыкального мышления у младших школьников, а также методы, формы и средства его формирования.*

Abstract: *This article extensively covers the specific features of the process of developing musical thinking in young students and the methods, forms, and means of its formation.*

Kalit so'zlar: *musiqiy tafakkur, musiqiy tasavvur, musiqiy fikr, ko'rgazmali-obrazli tafakkur, ko'rgazmali-amaliy tafakkur, abstrakt-mantiqiy tafakkur, davr uslubi, "badiiy obraz" fenomeni, kayfiyat, assotsiatsiya.*

Ключевые слова: *музыкальное мышление, музыкальное воображение, музыкальная мысль, выразительно-образное мышление, выразительно-практическое мышление, абстрактно-логическое мышление, стиль эпохи, феномен "художественного образа", настроение, ассоциация.*

Keywords: *musical thinking, musical imagination, musical thought, expressive-figurative thinking, expressive-practical thinking, abstract-logical thinking, period style, the phenomenon of "artistic image", mood, association.*

O'quvchi-yoshlarda musiqiy tafakkur va uni rivojlantirish muammosi bu psixologik jarayon bo'lib, uni tarkib toptirish dolzarb vazifa bo'lib, o'quvchi-yoshlarni musiqiy tafakkurini rivojlantirishda musiqa o'qituvchisi oldiga muhim vazifani qo'yadiki, uni bajarishda keng qamrovli ishlarni bajarish talab etiladi. Umumiy psixologiya fanida tafakkur bilish jarayoniga turlicha ta'riflar berilgan. Jumladan, P.I.Ivanov darsligida: "Tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq (to'g'ri), to'liq, chuqur va umumlashtirib aks ettirishga (bilishga), insonning tag'in ham oqilona amaliy faoliyat bilan shug'ullanishiga imkon beradi", – deb ta'riflanadi[1]. M.V.Gamezo esa tafakkurni voqelikning umumlashgan holda va so'z hamda o'tmish tajriba vositalarida aks ettirilishi ekanligini bayon qiladi.

A.V.Petrovskiy tahriri ostidagi darslikda tafakkurga ushbu shaklda ta'rif berilgan, tafakkur ijtimoiy-sababiy, nutq bilan chambarchas bog'liq muhim bir yangilik qidirish va ochishdan iborat psixik jarayondir. V.V.Bogoslovskiy tahriridagi darslikda ham tafakkurga berilgan ta'rif uning umumlashgan va bilvosita aks ettirish xususiyatlari yoritilgan, xolos. Xuddi shunga o'xshash tafakkur xususiyatlari F.N.Gonobolin va K.K.Platonov tadqiqotlarida ham uchraydi.

Professor E.G'.G'oziyev fikricha, tafakkur predmetini belgilash uchun to'laroq ta'rif O.K.Tixomirov darsligida berilgan. Tafakkur predmetiga kiruvchi tarkibiy qismlar mana bunday ifodalanadi: Tafakkur bu o'z mahsuloti bilan voqelikni umumlashtirib, bevosita aks ettirishni xarakterlaydigan, umumlashtirish darajasi va foydalanadigan vositalariga hamda o'sha umumlashmalar yangiligiga bog'liq ravishda turlarga ajratishdan iborat jarayon, bilish faoliyatidir.

S.L.Rubinshteyn nazariyasiga binoan,

1 G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. — B. 376.

tafakkurni psixologik jihatdan o‘rganishning asosiy predmeti jarayon, faoliyat tariqasida namoyon bo‘lishdir. Muallif tafakkur operatsiyalari, shakllarini asoslashda jarayon, muammoli vaziyatni hal qilishda esa fikr yuritish faoliyati sifatida vujudga kelishini chuqur tahlil qilib beradi. S.L.Rubinshteyn tafakkur to‘g‘risidagi g‘oyani rivojlantirib, uni subyekt faolligining paydo bo‘lishi, deb atadi.

A.N.Leontev tafakkurni turli ko‘rinishlarga ajratadi, fikr yuritish faoliyati ekanligini tan oladi, lekin uni predmetli-amaliy faoliyat deb nomlaydi. Shuning bilan birga tafakkurning tuzilishi, fikr yuritish motivatsiyasi to‘g‘risida nazariy-metodologik muammolarni o‘rtaga tashlaydi.

P.Y.Galperin fikriga ko‘ra, tafakkur bu mo‘ljallash-tadqiqot faoliyati, mo‘ljallash jarayonidir. Muallif intellektual masalalarni yechishda subyektning tafakkurga mo‘ljal qilishi, jarayonni o‘rganishidan iborat, deb tushuntiradi. P.Y.Galperin tafakkurning boshqa jihatlarini o‘zining aqliy harakatlarni bosqichli shakllantirish nazariyasidan kelib chiqqan holda yoritishga intiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, tafakkur bu – fikrlash faoliyati, predmetli-amaliy faoliyatdir. U miya tomonidan atrof-olamni aks ettirishning oliy shakli bo‘lib, murakkab bilish jarayonidir. Tafakkur psixik aks ettirishning ancha umumlashgan, bilvosita shakli bo‘lib, anglanayotgan obyektlar o‘rtasida munosabat va bog‘lanishlarni amalga oshiradi. Zero, tafakkur insonga bevosita idrok etmayotganlarini “bilish” uchun imkon yaratadi.

Musiqiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchilar uchun tafakkurning vazifasi tinglangan musiqa asarlari o‘rtasidagi munosabatlar, aloqalarni aniqlaydi va tasodifiy o‘xshashliklardan ularni ajratadi. Tinglanayotgan yoki ijro etilayotgan musiqaning badiiy mazmunini idrok etish, anglash, uni tinglovchiga badiiy-estetik mazmuni va jozibasi bilan yetkazish vazifasini ko‘zda tutadi. Inson musiqiy tafakkuri rivojlanishi bosqichma-bosqich amalga oshadi.

Har bir shaxs bosqichma-bosqich tarzda ushbu tafakkur rivojlanishi pog‘onalarini bosib o‘tadi. Bola musiqa tinglab, ijro etib badiiy-ijtimoiy tajribani o‘zlashtiradi, ijodiy muloqotga kirishadi. Ko‘rgazmali-harakat tafakkuri ikki yoshli bolalarda hali nutq yaxshi o‘zlashtirilmagan paytdan boshlab kuzatiladi. Bu aynan bola musiqa tinglash, tinglangan musiqani tanlash hamda ularni bir-biridan farqlashga o‘tgan paytida, musiqiy tafakkurida elementar oddiy umumlashtirishda ishtirok etadi. Bu umumlashmalar musiqaning ovoz tembridagi o‘ziga xoslik asosida, bolani emotsional jalb etgan holda amalga oshiriladi[2]. Masalan, u aynan fortepianoda ijro etilgan lirik xarakterdagi bolalar asarlarini tez tanib olishi mumkin.

Tafakkurning 3 ta asosiy shakllari mavjud:

–tushuncha;

–fikrlash;

–xulosaga kelish.

Tushuncha – tafakkur shakli bo‘lib, unda tinglangan musiqaning umumiy va muhim xossalari aks etadi. Bir qarorga kelish – tafakkur shakli bo‘lib, unda tanlash so‘ralgan paytda ma’lum musiqada to‘xtash, uning alohida jihatlarini ta’kidlash yoki rad etish nazarda tutiladi[3]. Bir qarorga kelishning umumiy, xususiy yoki alohida holdagi shakllari mavjud.

Xulosaga kelish – musiqiy tafakkurning shakli bo‘lib, ushbu jarayonda kishi ma’lum musiqa borasida o‘z qarorini taqqoslab, tahlil qilib o‘zining yangi xulosasiga kelishi tushuniladi.

Tafakkur ma’lum motivlar ta’sirida paydo

2 G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. – B. 366.

3 Omonov X.S. Vokal va zamonaviy musiqa. – T.: 2020 y

bo‘ladi. Bu motivlar ikki tipga bo‘linadi:

– maxsus bilish motivlari;

– o‘ziga xos bo‘lmagan motivlar.

Maxsus bilish motivlari yangi nimanidir bilish istagi paydo bo‘lganda, masalan qiziquvchan kishilarda paydo bo‘ladi. O‘ziga xos bo‘lmagan motivlar tashqi omillar ta’sirida, masalan, o‘quvchiga tinglangan musiqa haqida gapirib berish vazifasi qo‘yilganda paydo bo‘ladi. Lekin, har qanday sharoitda tafakkur masalani qo‘yish orqali paydo bo‘ladi. Bu masala ushbu kishi yoki boshqa kishi tomonidan qo‘yilishi mumkin.

Fikrlash faoliyati, kishilarning boshqa psixik jarayonlari singari individual farqlar bilan ajralib turadi. Masalan, tinglangan musiqaning hissiy ta’sir quvvati borasida so‘ralganda, har insonda turlicha bo‘lishi aniq. Insonning individual tafakkuri xususiyatlari – bu avvalo o‘qitish jarayonida va hayot davomida uni ijodiy va aqliy rivojlantirish, borliqni anglashdan iboratdir.

Fikrlash faoliyatidagi farqlar aql-zakovat sifati orqali namoyon bo‘ladi. Tafakkur (aql-zakovat) ning bu ko‘rsatkichlari shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari sifatida namoyon bo‘ladi, ya’ni ma’lum cholg‘u yoki vokal musiqa borasida fikr-mulohaza bildirish turlicha bo‘ladi, albatta.

Musiqiy tafakkurning mustaqilligi deganda, kishining ma’lum musiqiy asar, janr, shakl, yoki uning ritmi, tembri va boshqa ifoda vositalari borasida mustaqil sur’atda fikrlashi tushuniladi. Musiqiy tafakkurning kengligi insonning musiqiy bilish faoliyatida, keng musiqiy dunyoqarashda, har tomonlama qiziquvchanlikda namoyon bo‘ladi.

Musiqiy tafakkurning chuqurligi musiqiy jarayonlar borasida murakkab savollar mohiyatiga dadil kirib borishda, boshqa kishilarda savollar mavjud bo‘lmagan hollarda muammoni ko‘ra olishda namoyon bo‘ladi. Musiqiy tafakkurning chuqurligi musiqa borasidagi voqea va hodisalarning paydo bo‘lish sabablarini tushunishga yordam beradi.

Musiqiy tafakkurning tezligi – bu tinglangan musiqada ifodalangan badiiy voqelikni tez ilg‘ab olish, uning mazmuni va mohiyati borasida ma’lum qarorlar qabul qilishda namoyon bo‘ladi. Biroq musiqiy tafakkurning tezligidan shoshmashosharlikni ajrata olish lozim. Bunday tafakkurga ega kishi davomli musiqa tinglash, musiqa ijrosi bilan shug‘ullanish kabi faoliyatlarga chidamsizlik odati bilan namoyon bo‘lishi mumkin.

Musiqiy tafakkurning tanqidiyligi – bu ma’lum musiqa asari yoki janri borasida o‘zi va boshqalar fikrini ob’yektiv baholay olish malakasiga egaligi, barcha ilgari surilayotgan fikr va mulohazalarni har tomonlama va chuqur tekshirib bilishi orqali ko‘rinadi. Tanqidiy musiqiy tafakkurga ega kishi hech qachon o‘z fikrini mutlaq to‘g‘ri, deb baholamaydi.

Musiqiy tafakkur tuzilmasi ijtimoiy muhitda insonlarning bir-biri bilan muloqoti jarayonida shakllanadi. Har bir milliy madaniyat musiqiy ifoda usullari, o‘ziga xos musiqiy tafakkur xususiyatlari bilan farq qiladi. Shuning uchun turli xalqlarda uning turli qonuniyatlari mavjudligini kuzatish mumkin. Bu ayniqsa, Sharq va g‘arbiy yevropa musiqasini qiyoslashda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Sharq musiqasida ko‘pgina lad og‘ishmalari mavjudligi, ritmik tuzilishining rang-barangligi, temperatsiya qilinmagan tovushlarning o‘zaro munosabatlarini kuzatish mumkin. Bu holat milliy musiqamizda ham kuzatiladi.

Yevropa musiqasida gomofon-garmonik shakl tuzilishi mavjud bo‘lib, kuylarda musiqiy fikrni rivojlantirish garmonik izchil harakat orqali ifodalansa, sharq musiqa an’analarida monodiya shaklida, kuyni bir ovoz imkoniyatlari orqali ifodalash an’analari rivojlangan.

Musiqachi kasbini egallamoqchi bo‘lgan kishi albatta ushbu ijtimoiy makon uchun xarakterli

bo‘lgan “musiqa tili”ni o‘zlashtirishi, musiqiy faoliyat malakalarini egallab olishi lozim. Musiqiy idrok jarayonida tinglovchi tovushlar, intonatsiyalar, garmoniyalar haqida tasavvur hosil qiladi, ular o‘z navbatida turli hislar, xotiralar, obrazlarni uyg‘otadi. Bularning barchasi ko‘rgazmali-obrazli tafakkurga misol bo‘la oladi.

Ijrochi musiqiy tovushlarni xususiy amaliy faoliyati jarayonida anglab oladi va nota matnini eng qulay usullar bilan ijro etishga harakat qiladi. Bu ko‘rgazmali-amaliy tafakkurdir.

Kompozitor o‘z hayotiy taassurotlarini musiqiy tovushlarda ifodalash uchun garmoniya va musiqa shakli orqali namoyon bo‘ladigan musiqiy mantiq qonuniyatlaridan foydalanadi va fikrlaydi. Bu abstrakt – mantiqiy tafakkurdir.

Musiqiy tafakkurning ushbu barcha turlari ijtimoiy-tarixiy xarakterga ega, ya’ni ma’lum tarixiy davrga mansub va shu davrning ijtimoiy tajribasiga asoslanadi. Shu bois, bir davrda faoliyat ko‘rsatgan kompozitorlarning asarlari ko‘p jihatdan bir-biriga o‘xshash bo‘ladi. Bu esa davr uslubi shakllanishiga zamin yaratadi, ya’ni, hayotiy voqelikni aks ettirish uchun qo‘llaniladigan usul va vositalarning tipik birligi, majmuasi hosil bo‘ladi[4]. Bunga misol qilib o‘tgan asrda faoliyat ko‘rsatgan taniqli hofizlar Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Domla Halim Ibodov, Levi Boboxonov, Mixail Tolmasov, rus kompozitorlaridan A.Borodin, R.Korsakov, shuningdek, vena klassiklari, romantizm yoki impressionizm davri uslublarini eslab, ushbu musiqiy yo‘nalishlarning har biri uchun o‘ziga xos bo‘lgan musiqiy tafakkur xususiyatlari borasida gapirishimiz mumkin. Bir uslub doirasida badiiy ifoda vositalaridan turlicha foydalanadigan bir necha yo‘nalish bo‘lishi mumkin. Turli yo‘nalishlarning farqli xususiyatlari musiqiy tafakkur usullarining o‘ziga xosligi bilan belgilanadi va shu orqali ular bir-biridan farqlanadi.

Musiqiy tafakkurniig individualligini u yoki bu ijodkor – kompozitor, rassom, aktyor faoliyatida kuzatish mumkin. Har bir yetuk ijodkor hatto jamiyat tomonidan belgilangan uslubiy yo‘nalishlar doirasida faoliyat ko‘rsatsada, u betakror shaxsdir. Masalan, Y.Rajabiy, O.Xo‘jayev, R.Hamroyev, R.Choriyev, I.S.Bax, P.I.Chaykovskiy, L.V.Betxoven, A.Abdullayev, Ch.Ahmarovdek buyuk kompozitor, rassom, aktyorlar betakrordir.

Har bir ijodkor kitobxon, tomoshabin, tinglovchi tomonidan darhol tanib olinadigan obrazlar olamiga ega. Shuning uchun Bedilni Firdavsiydan, Pushkinni Nekrasovdan, E.Vohidovni A.Oripovdan darhol farqlaymiz. Xuddi shuningdek, M.Ashrafiy musiqasini M.Burhonov musiqasidan, M.Bafoyev musiqasini D.Omonullayeva musiqasidan, P.Chaykovskiy musiqasini F.Shopen musiqasidan, R.Shubert musiqasini I.Brams musiqasidan (hatto ushbu juftliklar bir davr farzandlari bo‘lishsada) farqlaymiz. Biz ularning musiqasini garmonik ifoda uslubi, shakl va tembrni namoyon etishidagi o‘ziga xoslik orqali farqlaymiz.

Musiqa asarining badiiy obrazi moddiylik, ma’naviylik va mantiqiylik birligi asosida o‘rganiladi. Tovush sifatida sadolanayotgan materiyaning akustik xususiyati – musiqa asarining moddiy asosi bo‘lib hisoblanadi va u kuy, garmoniya, metr-ritm, dinamika, tembr, registr, faktura singari parametrlar orqali belgilanadi[5].

Biroq asarning ushbu barcha tashqi xususiyatlari o‘zicha badiiy obraz fenomenini yarata olmaydi. Bunday obraz faqatgina ijrochi va tinglovchi ongida, ya’ni ular (tinglovchi; ijrochi) musiqaga o‘z irodasini, hissiyotlari, kayfiyatini baxshida etsagina paydo bo‘lishi mumkin. Aytish mumkinki, nota matni va musiqaning akustik parametrlari – uning moddiy asosini tashkil etadi.

4 Mamarasulzoda Z.A. Из исторни сбора и записи образтсов узбекской народной музйки. Вестник интегративной психолиии // Журнал для психолов. Vyp. 21MAPN, 2020.-215-217c.

5 Теплов Б.М. Психология музыкальных способностей. — М., 1947. – С.245.

Kayfiyatlar, xotira assosiatsiyalari, turli o‘ziga xos tasavvurlar musiqiy obrazning ma’naviy tomonini tashkil etadi. Musiqa asarini garmonik tuzilish, qismlar izchilligi orqali tasavvur qilish esa musiqiy obrazning mantiqiy tarkibini hosil qiladi.

Musiqiy obrazning ushbu barcha xususiyatlari kompozitor, ijrochi va tinglovchi ongida aks etsagina, biz tom ma’nodagi musiqiy tafakkur mavjudligi haqida gapirishimiz mumkin. Bunday tafakkur fantaziya, eshitish sezgisi va idroki asosida rivojlanadi. Shunday holatlar uchraydiki, musiqachi asar mazmunini his qiladi, lekin ijro paytida turli sabablar (tayyorgarlikning yetishmasligi, hayajonlanish va boshqalar) natijasida real ijroni badiiy yetuk darajada amalga oshira olmaydi. Bu paytda qiyinchiliklarni yengishga imkon yaratadigan irodaviy jarayonlar, rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bois musiqiy tafakkur asosan faoliyatning quyidagi jihatlariga qaratilishi zarur:

– assotsiatsiyalar, kayfiyatlar va ular natijasida hosil bo‘luvchi fikrlar orqali asarning obrazi tuzilishini tasavvur qilish;

– kuy, ritm, faktura, dinamika, agogika va shakl tuzilishi xususiyatlari orqali asarning moddiy jihatini aniqlash;

– cholg‘u sozi yoki nota matnida fikr va hissiyotlarni aks ettirishning usul va vositalarini, qulay yo‘llarini topish.

Ko‘pgina musiqa murabbiylarining fikricha, zamonaviy musiqa pedagogikasida o‘quvchilarning ijroviy-kasbiy qobiliyatlarini o‘stirishga keng e’tibor beriladi, bunda umumlashtiruvchi va nazariy xarakterga ega bo‘lgan bilimlarni egallashiga asosiy e’tibor qaratiladi[6]. Yil davomida bir necha asarni tayyorlashga asosiy e’tibor qaratilishi eshitib ijro etish, transpozitsiya qilish, notadan ijro etish, ansamblda ijro etish singari musiqachi uchun zarur bo‘lgan faoliyatlarning ma’lum darajada nazardan chetda qolishiga olib keladi. Bu esa musiqachilarning tor doiradagi mutaxassis sifatida shakllanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Kuy, garmoniya, metroritm, dinamika, faktura singari musiqiy ifodaning asosiy vositalari musiqiy intonatsiyaning umumlashtirilishi, ularni birlashtirish usullari bo‘lib, fikrni ifodalashning asosiy tashuvchilari bo‘lib hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, musiqiy tafakkur bu musiqiy badiiy obrazning mohiyatini qalban his etish, tovushlar majmuasini joylashtirish tamoyillarini anglash, ijod etish yoki uni ijro etishda, ya’ni, ijodning irodaviy jarayonlarida amalga oshirishdan iboratdir.

Musiqiy tafakkurni rivojlantirish – bu:

- musiqiy fikrning rivojlanish mantig‘i umumiy shaklda – dastlabki impuls, harakat va yakunlanishdan iborat;
- musiqiy fikrni rivojlantirishning yana bir usuli bu variatsiyalash va almashtirib turish tamoyilidir.

Shuningdek, “tempni oshirish”, “kompensatsiya” singari tamoyillar amaliyotda qo‘llaniladi. Ushbu barcha musiqiy fikrni rivojlantirish tamoyillari nafaqat musiqa san’atida, balki san’atning boshqa turlarida ham qo‘llaniladi. Masalan, folklorda qiyoslash tamoyili qo‘llaniladi. Bahodir va dev, real va fantastik dunyo, ezgulik va yovuzlik singarilar shular jumlasidandir.

Tafakkur jarayonlarini ishga solish uchun muammoli vaziyat turtki vazifasini bajaradi. O‘quvchi egallashi lozim bo‘lgan bilim hali noma’lum bo‘lgan bilim sanaladi. O‘quv faoliyatida muammoli vaziyat ziddiyat sifatida namoyon bo‘ladi va u mavjud bilimlar zahirasi hamda yangi talablarning muvofiq kelmaganligida aks etadi. Qator o‘quv harakatlari va amallarini

6 G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. — T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. – B.366.

bajarib o‘quvchi mustaqil fikrlash jarayonida zarur bilimlarni egallashi mumkin.

Tasavvurlar orqali inson faqatgina uning mohiyatini anglab qolmasdan, balki muallifning asarda aks ettirgan ijtimoiy tajribasini ongdagi turli assosiativ bog‘lanishlar natijasida o‘z shaxsiy tajribasi bilan birlashtiradi. Ayniqsa, tinglash orqali estetik kechinmalar namoyon bo‘lishida inson shaxsi, uning ijtimoiy kelib chiqishi, milliy va individual xususiyatlari ifodalanadi.

Musiqiy tasavvurlar shakllanishi ayrim ijtimoiy-psixologik omillarga, jumladan:

- kichik maktab yoshidagi bolalar va o‘smirlarning xalq musiqasiga nisbatan shakllangan munosabatlariga;
- xalq musiqasining targ‘ibotiga;
- ijtimoiy muhitda xalq musiqasiga nisbatan mavjud munosabatlarning xususiyatlariga;
- ma’naviy tarbiyaning mazmuni va saviyasiga;
- oilaning ijtimoiy nufuzi va xalq musiqasiga nisbatan munosabatlarining me’yoriga ma’lum darajada bog‘liqdir.

TALABALARNING JISMONIY TARBIYA BO'YICHA SHAXSIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Furkat Quldashevich Axmedov – p.f.n., professor,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Eldor Ziyat o'g'li Nurmatov – o'qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Sardor Furqat o'g'li Quldashev – o'qituvchi,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarini jismoniy tarbiya va sportga jalb qilishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning metodologiyasi ko'rib chiqilgan. Fan-texnika jadallik bilan rivojlanayotgan hozirgi sharoitda talabalarga sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish masalasi dolzarbligini yanada oshirib yubordi. Talabalarni faol jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari bilan mustaqil shug'ullanishga undaydigan motivlarni shakllantirishning shart-sharoitlari ilmiy tahlil qilinadi.*

Аннотация: *В статье рассматривается методика использования инновационных технологий для привлечения студентов высших учебных заведений к занятиям физической культурой и спортом. В современных условиях бурного развития науки и техники проблема формирования здорового образа жизни среди студентов становится еще более актуальной. Научно проанализированы условия формирования мотивов, побуждающих студентов к самостоятельному занятию активной физкультурной и спортивной деятельностью.*

Abstract: *This article examines the methodology for using innovative technologies to attract students of higher educational institutions to physical education and sports. In the current conditions of rapid development of science and technology, the issue of promoting a healthy lifestyle among students has become even more urgent. The conditions for the formation of motivations that encourage students to independently engage in active physical education and sports are scientifically analyzed.*

Kalit so'zlar: *jismoniy tarbiya, sport, ommaviy sport, jismoniy madaniyat, innovatsiya, sog'lom turmush tarzi, fitnes texnologiyalar.*

Ключевые слова: *физическое воспитание, спорт, массовый спорт, физическая культура, инновации, здоровый образ жизни, фитнес-технологии.*

Keywords: *physical education, sports, mass sports, physical culture, innovation, healthy lifestyle, fitness technologies.*

Jahonning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlarida (Bonndagi Federal sport fanlari instituti, Nyulenddagi Janubiy Afrika sport fanlari instituti, Louboro universitetidagi markaz) talabalar jismoniy tarbiyasini rivojlantirishning samarali metod va vositalarini aniqlash borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu nuqtayi nazardan ham horijda insoniyatni sog'lomlashtirish, sog'lom turmush tarzi orqali kelajakni yaratish maqsadida bu faoliyatga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda yoshlarning jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan qiziqishini oshirish muammosi sog'lom avlodni tarbiyalashning ijtimoiy ehtiyoji tufayli eng dolzarb hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-apreldagi "Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-201- son qarorida mahallalarda yoshlar o'rtasida ommaviy sport musobaqalarini tizimli tashkil etish orqali sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish, ularni ommaviy sportga jalb etishni yangi bosqichga olib chiqish masalalarga alohida to'xtalib o'tilgan[1].

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-apreldagi "Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-201- son qarori. Manba: https://lex.uz/docs/-5950242

Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy madaniyatni rivojlantirish muammolariga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar talabalarning yuqori darajadagi sog'lig'iga ega bo'lish istagini shakllantirishga yordam beradigan yangi texnologiyalarni izlash zarurligini ko'rsatadi. Bu shaxsiy motivatsiya, maxsus bilim va xulq-atvorning rivojlanishiga bog'liq, shuningdek, o'qituvchi va talabaning birgalikdagi faoliyati natijasidir. Talabalarni sog'lomlashtirish muhim ahamiyatga ega, chunki bo'lajak bitiruvchi tegishli darajadagi jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lgan oliy ma'lumotli mutaxassis bo'lishi kerak.

Bugungi kunda insonning intellektual va moslashuvchan qobiliyatlariga bo'lgan talablar ham ortmoqda. Biroq talabalarni jismoniy mashqlar, sport va faol jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari bilan mustaqil shug'ullanishga undaydigan motivlarning shakllanishiga shaxs ahamiyati, qoniqish, ma'naviy boyitish kabi sub'ektiv omillarning ta'siri kamayib bormoqda[2].

Shaxsning jismoniy chiniqish va sog'lom turmush tarzi sohasidagi ma'lum bilimlari hayotga bo'lgan munosabati, motivatsiyasi, jismoniy va ruhiy salomatligi uning davlat va jamiyatga munosib xizmat qila olishiga tayyorligini anglatadi. S.N.Chernyakovaning ta'kidlashicha, yoshlarning jismoniy chiniqishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar, sog'lig'iga zararli va jismoniy rivojlanishini sekinlashtirib qo'yadigan muammolar ilmiy jihatdan o'rganilishi, ta'lim muassasalarida tashkil etilgan o'qish faoliyati ko'pincha ta'lim oluvchilarning jismoniy chiniqishi, sog'lig'i hamda jismoniy barqarorlik ko'nikmalarining shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatishi zarur[3]. Buning uchun yoshlarning ta'lim muassasasida dastlabki yilda moslashish, turmush tarzini o'zgartirishi hamda bir qator og'irlashtiruvchi omillar sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin: yoshlarni OTMda ta'limga olib kirish bosqichlarining psixologik adabtatsiya (moslashuvchanlik) omillariga asoslanmaganligi; ta'lim muassasalarida yuzaga keluvchi o'zlashtirish bilan bog'liq ta'lim va ta'lim muassasaga nisbatan antipatiya; jismoniy chiniqish va sog'lom turmush tarzini rag'batlantirish, targ'ib qilish va odatga aylantirish masalasida ta'lim muassasalarda tizimli ishlarning yo'lga qo'yilmaganligi.

Dunyoning eng kuchli sportchilariga ega davlatlarida sport, shuningdek, soha iqtidorlarini aniqlash va tarbiyalash uchun ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga katta moliyaviy va inson resurslarini sarflamoqda. Ushbu mamlakatlarning barchasida qo'llaniladigan dasturlarning asosiy tarkibiy qismi sportga tayyorlash nazariyasi va amaliyotining barcha jihatlari o'rganiladigan milliy sport institutlari va sport o'quv markazlarini shakllantirish, shuningdek, yuqori malakali sportchilar uchun mashg'ulotlarni ilmiy-metodik ta'minlashdan iborat. Mazkur markazlarda sportchilar muntazam ravishda zamonaviy pedagogik, biomexanik, fiziologik test va tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, yangi ilmiy bilimlar olish, o'quv dasturlarini o'z vaqtida tuzatish va takomillashtirish imkonini bermoqda[4].

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan metodikaning nazariy va uslubiy asosi pedagogika oliy ta'lim muassasasining ta'lim tizimida talabalarning jismoniy madaniyatini shakllantirish jarayonining mohiyatini ifodalovchi modeldir. Model talabalarni jismoniy tarbiya va sportga qamrab olishning tashkiliy jarayonini o'ziga xos tashkil etish tizimini aks ettiradi, uning markaziy bo'g'ini tamoyillari, uslubiy yondashuvlari va mualliflik

2 Koshelev V.F., Malozyomov O.Y., Berdnikova Y.G., Minaev A.V., Filimonova S.I. Texnik universitet talabalarining jismoniy tarbiyasi: Darslik / Ed. O.Y. Malozemova. – Yekaterinburg: UGFLTU; AMB nashriyoti, 2015. –464 b.

3 Chernyakova, S.N. Universitetning axborot-ta'lim muhitida bakalavrlarning jismoniy tarbiya kompetensiyasini shakllantirish: dissertatsiya avtoreferati. dis. ...kand. ped. Fanlar / S.N.Chernyakova. - Tyumen, 2016-yil.

4 Ozolin E.S., Shustin B.N. Xorijiy mamlakatlardagi tadqiqot muassasalari va sportchilar markazlari. Elita sportlari nazariyasi va metodologiyasi. "Sog'liqni saqlash fanlari" ixtisosligi bo'yicha ilmiy maqola matni. Jurnal: Sport fanlari xabarnomasi. 2022-yil.

metodologiyasi bo‘lib, ularning jismoniy madaniyatini bosqichma-bosqich past darajadan yuqori darajaga qadar shakllantirishni ta’minlaydi.

Modelning maqsadli komponenti innovatsion texnologiyalar asosida talabaning jismoniy madaniyatini shakllantirish va sportga jalb etishdan iborat. Modelning metodologik komponentlariga jismoniy madaniyatning nazariy jihatlari tizimini aniqlash orqali jismoniy madaniyatni shakllantirish jarayoni; tibbiy-biologik, psixologik, pedagogik, falsafiy, sotsiologik, kasbiy-integrativ tamoyillar; tadqiqotning uslubiy yondashuvlarini amalga oshirishning madaniy, tizimli-faollik, innovatsion-texnologik, kompetentsiyaga asoslangan va shaxsga yo‘naltirilgan usullari; shaxsning ichki qarama-qarshiliklarini hal qilish asosida talabalarning o‘zini-o‘zi shakllantirishi, jismoniy tarbiya faoliyatini individuallashtirish, integratsiyaviy mazmun, ijodkorlikni rivojlantirish, jismoniy tarbiya kompetensiyasi, mobil qurilmalardan foydalangan holda intensiv o‘zini takomillashtirish; talabalarning jismoniy madaniyatini samarali shakllantirish uchun o‘zaro bog‘liq tashkiliy, pedagogik, uslubiy, texnologik va individual o‘ziga xos sharoitlar tizimidan iborat pedagogik ta’sirlar majmuasi. Modelning tarkibiy komponenti sifatida “Jismoniy tarbiya va sportga jalb etish”, “Xronobiologik jarayonlarni tahlil qilish” kabi mashg‘ulotlarning mazmunini integratsiyalash orqali kasbiy tayyorgarlik asoslari beldilangan. Talaba jismoniy madaniyatining shakllanganlik ko‘rsatkichlari motivatsion, faoliyatli, kognitiv mezonlari asosida past, o‘rta, yuqori darajalarda ifodalandi.

Jismoniy madaniyat darajasi yuqori bo‘lgan bitiruvchi kadrni tayyorlashning ijtimoiy buyurtmasi – metodologiyaning talabalarning jismoniy madaniyatini shakllantirish jarayonini uslubiy ta’minlashni belgilaydi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan veb kontent ma’lumotlarini taqdim qiluvchi maxsus sayt Jizzax davlat pedagogika universitetining www.main.jdpu.uz platformasi bilan integratsiya qilingan bo‘lib, 7/24 – “Klub va to‘garaklar” bo‘limida “Jismoniy tarbiya va ommaviy sport” nomli online sport klub sahifasida taqdim etiladi. Bunda “Post” kontenti yordamida talabalarning jismoniy madaniyatini shakllantirish metodikasi internet va mobil qurilmalar orqali o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar algoritmini ifodalovchi mobil ta’lim g‘oyalari asosida amalga oshiriladi, shuningdek, trening mazmunining milliy-mintaqaviy komponentini, turli sog‘liqni saqlash dasturlari va jismoniy mashqlarning noan'anaviy tizimlarini joriy etadi. “Jismoniy tarbiya va sog‘lom turmush tarzi” web kontenti nazariy-uslubiy va amaliy bosqich bloklaridan tashkil topgan bo‘lib, u talabalarning jinslariga moslab ishlab chiqilgan mashg‘ulot va mediama’lumotlardan iborat.

Amaliy bosqich blokida bo‘lg‘usi o‘qituvchilarning kasbiy faoliyat tarzi inobatga olingan holda Kouching metodi yordamida jismoniy mashqlar bajarish ko‘nikmasi shakllantirildi. Tadqiqotda mobil texnologiyalarni kognitiv faoliyatda qo‘llashning birinchi bosqichida talaba mobil kontentdan foydalanishni o‘rganadi va o‘zi uchun individual shug‘ullanish yo‘lini tanlaydi. Ikkinchi bosqichda talaba jismoniy madaniyatni rivojlantirish jarayonida mobil texnologiyalardan foydalanish zaruriyati va rolini tushunadi. Ushbu maqsadlar uchun tarkib o‘z-o‘zini tekshirish uchun savollarni o‘z ichiga oladi, ularning maqsadi talabaning mustaqil o‘rganilgan materialni idrok etish va o‘zlashtirish darajasini tekshirishdir. Ushbu monitoring natijasi mobil kontentdan foydalanish darajasidir. Uchinchi bosqichda mobil kontent bilan ishlash bo‘yicha tegishli ko‘nikmalarni shakllantirish undan foydalanishda nafaqat individual, balki guruh faoliyatini ham amalga oshirishni talab qiladi. To‘rtinchi bosqichda monitoring va sinov jarayoni amalga oshiriladi, bu esa mobil kontentga bo‘lgan talab va uning mazmuni haqida tezkor

ma'lumot olish imkonini beradi. Ushbu davrning natijasi kontentning samaradorligi to'g'risida xulosalar ishlab chiqishdir.

Shunday qilib, yuqorida aniqlangan eksperimental dasturlar pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalarining jismoniy madaniyatini shakllantirish bo'yicha mualliflik metodologiyasining mazmunini tashkil etadi, deb xulosa qilish mumkin. Bosqichlarni aniqlash, ularning maqsadli qo'yilishi va natijasini aniqlash asosida talabalarning jismoniy madaniyatini shakllantirish metodologiyasining mazmuni ishlab chiqilgan.

Tadqiqot davomida jismoniy tarbiya va sportga xos yondashuvni amalga oshirish texnologiyasi quyidagi ketma-ket bosqichlardan iborat bo'ldi:

1-bosqich (jismoniy tarbiya va sport madaniyatini shakllantirishning birinchi bosqichi) - sentyabr-dekabr (1-semestr), bunda talabaning jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishiga bo'lgan ehtiyojini, fiziologik va psixologik jihatlarini aniqlash;

2-bosqich (umumlashtiruvchi bosqich) - fevral-may (2-semestr) talabalar jismoniy tarbiya va sport madaniyatini oldindan shakllantirish asosida amalga oshiriladigan muayyan maqsad hamda vazifalarni umumlashtirish, ya'ni tanlagan sport turi bilan shug'ullanish orqali sog'lig'ini mustahkamlash;

3-bosqich (mustaqillik bosqichi) – oliy o'quv muassasasida o'qishning ikkinchi yilida talabalarda mustaqil ravishda o'z-o'zidan jismoniy tarbiya va sport madaniyatini rivojlantirish, muntazam sport bilan shug'ullanish.

Talabalarda motivatsion komponentni shakllantirish darajasini aniqlash quyidagi diagnostika usullaridan foydalangan holda amalga oshirildi:

Google forms so'rovnomalari orqali jismoniy madaniyatga oid dunyoqarashini aniqlash uchun muallifning metodologiyasi;

jismoniy tarbiya va sport uchun motivatsiyalar guruhini tanlashning mualliflik metodologiyasi;

emossional-hissiy holatni baholash metodikasi.

SFK (Sog'lomlik, faollik, kayfiyat) sinovi.

K.Izard metodi bo'yicha his-tuyg'ularning differentsial o'lchovi.

Tajriba uchun talabalar jinsidan qat'i nazar ikki guruhga bo'lindi: tajriba guruh (80 talaba) va nazorat guruhi (81 talaba). Ikkala guruhdagi respondentlarning har biriga yuqorida tavsiflangan usullardan foydalangan holda tashxis qo'yilgan, operativ va refleksiv-baholash ko'rsatkichlari bo'yicha monitoring bundan mustasno.

Eksperimental tadqiqotni tashkil qilish uchun tajriba ma'lumotlarini miqdoriy tahlilda foydalanilgan matematik statistika usuli qo'llanildi. Pedagogik tadqiqotlar natijalarini matematik va statistik qayta ishlash kontekstida tajriba (TG) va nazorat (NG) guruhlaridagi sub'ektlarning taqsimlanishini solishtirish uchun biz X^2 (Xi kvadrat) dan foydalandik. Jismoniy madaniyatni shakllantirish diagnostikasi natijasida olingan ballarni tarkibiy qismlar va ko'rsatkichlar bo'yicha darajalarga (yuqori, o'rta, past) o'tkazishga, ushbu darajadagi talabalar sonini aniqlash uchun ballarni taqsimlash jadvallarini tuzishga imkon beradi, shuningdek, darajalardan birida talabalar soni haqiqatan ham ko'proq yoki kamroq ekanligini isbotlash imkonini beradi.

Xi-kvadrat qiymati quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqilgan:

$$X^2 = \frac{1}{n_t * n_n} \sum_{i=1}^{c} \frac{(n_t * T_i - n_n * T_i)}{T_i + N_i}$$

Pedagogika OTMlarda tajribadan oldin (dastlabki qism) va tajribadan so‘ng (nazorat bo‘limi) mashg‘ulotlar davomida talabalarning motivatsion (jismoniy madaniyatga yo‘naltirilgan dunyoqarash, jismoniy madaniyatga motivatsion-qiymatli munosabat, hissiy ko‘rsatkich); faoliyat (aqliy, jismoniy va salomatlik); kognitiv (operativ, aks ettiruvchi-baholash va xulq-atvor) kabi jismoniy madaniyatini shakllantirish komponentlari hamda ko‘rsatkichlarining shakllanish darajalari (yuqori, o‘rta, past) aniqlandi.

2023-2024 va 2024-2025 - o‘quv yillarida pedagogika oliy ta’lim muassasalarda jismoniy tayyorgarlik jarayonida tajriba guruh respondentlari talabalarning jismoniy madaniyatini shakllantirish metodologiyasini va tadqiqotda aniqlangan pedagogik shartlarni amalga oshirdilar. Nazorat guruhidagi talabalar uchun belgilangan vaqt oralig‘ida o‘quv jarayoni an'anaviy kasbiy tayyorgarlik bo‘yicha olib borildi.

Dastlabki va nazorat bo‘limlarida talabalar jismoniy madaniyatining tarkibiy qismlari va ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha tajriba (TG) va nazorat (NG) guruhlari uchun quyidagi ma’lumotlar aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Jismoniy madaniyatning tarkibiy qismlari va ko‘rsatkichlari bo‘yicha respondentlarning tajribadan oldingi va keyingi natijalari


Jismoniy madaniyatning tarkibiy qismlari	Jismoniy madaniyatning ko‘rsatkichlari	Tahlil turi	Respondentlar soni						Matematik-statistik tahlil	
			Yuqori daraja		O‘rta daraja		Quyi daraja			
			TG	NG	TG	NG	TG	NG	X^2	P
Motivatsion	Dunyoqarash	Oldin	4	5	54	57	22	19	3,79	> 0,05
		Keyin	31	19	39	32	10	30	157,9	< 0,05
	Motivatsion	Oldin	2	2	61	60	17	19	2	> 0,05
		Keyin	14	7	60	56	5	18	86,4	< 0,05
	Emossional-hissiyotli	Oldin	10	9	43	43	28	29	3,83	> 0,05
		Keyin	17	11	50	49	13	21	19,73	< 0,05
Faoliyatli	Ruhiy	Oldin	10	13	41	40	29	28	2,84	> 0,05
		Keyin	19	14	42	41	19	26	16,01	< 0,05
	Jismoniy	Oldin	6	5	35	41	39	36	3,69	> 0,05
		Keyin	11	6	47	43	22	32	35,7	< 0,05
	Salomatlik	Oldin	2	2	37	36	41	43	2,3	> 0,05
		Keyin	7	4	50	47	23	30	13,96	< 0,05
Kognitiv	Jarayonli	Oldin	9	9	25	37	46	35	2,78	> 0,05
		Keyin	21	12	55	47	4	22	16,85	< 0,05
	Reflektiv-baholovchi	Oldin	3	2	12	28	65	51	3,99	> 0,05
		Keyin	9	4	38	22	33	55	11,62	< 0,05
	Xatti-harakat	Oldin	11	9	42	48	26	24	1,41	> 0,05
		Keyin	33	17	41	49	7	15	41,6	< 0,05

Motivatsion, faollik va kognitiv komponentlarning turli ko‘rsatkichlari bo‘yicha jismoniy madaniyatning shakllanish dinamikasining dastlabki va nazorat ma’lumotlarini tahlil qilish asosida eksperimental guruhlarda nazorat guruhlariga nisbatan barcha ko‘rsatkichlar yaxshilanganligi aniqlandi. Tajriba tugagandan so‘ng jismoniy tarbiyaning yuqori va o‘rtacha darajasida tajriba guruhidagi talabalar sonining nazorat guruhiga nisbatan ko‘payishi qayd etildi. Nazorat guruhiga nisbatan eksperimental guruhdagi talabalar sonining kamayishi jismoniy tarbiyaning past darajasida aniqlandi. Yuqorida belgilangan qoidalarni aniq belgilash uchun barcha shakllanish ko‘rsatkichlari uchun dastlabki va nazorat bo‘limlarining X^2 bo‘yicha tadqiqot natijalarini matematik va statistik qayta ishlashning qiyosiy natijalarini ko‘rsatadigan logarifmik diagramma tuzildi. (1-diagramma)

Olib borilgan tadqiqot ishlari natijalari bo‘yicha xulosa qilganda samaradorlik mavjud ekanligi isbotlandi. Ko‘rsatkich 1,14 barobarga, ya’ni 14 % ga yuqori ekanligi tajriba sinov ishlarining samaradorligini bildiradi. Shuni ta’kidlash kerakki, qiyosiy natijalarni olishning ishonchliligi uchun respondentlarning tanlanishi jismoniy madaniyatni shakllantirishning barcha ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘tkazildi, ammo ishonchlilik tahlili barcha respondentlarning ma’lumotlari va tanlanma ma’lumotlari o‘rtasida sezilarli farqlarni aniqladi.

Logarifmik diagramma (1-diagramma) tahlili asosida shuni ko‘rsatish mumkinki, tadqiqot metodologiyasi asosida talabalarning jismoniy madaniyatini rivojlantirish metodikasi va aniqlangan pedagogik shartlar ularning jismoniy madaniyatga yo‘naltirilgan dunyoqarashiga eng muhim ta’sir ko‘rsatdi (157,9+/-3,79 birlik), yoshlarning jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishga motivatsion-qiymatli munosabati (86,4+/-2 birlik) va ularning xulq-atvor ko‘rsatkichi (41,6+/-1,41). Bu zamonaviy innovatsiyalarni tatbiq etish orqali yoshlarning talab va manfaatlariga javob berishi bilan izohlanadi.

1-Diagramma. X2 bo‘yicha dastlabki va nazorat bo‘limlarining turli ko‘rsatkichlari bo‘yicha talabalarning jismoniy madaniyatini shakllantirishning qiyosiy natijalari



Eksperimental metodika yuqoridagi mezonlarga nisbatan aqliy ko‘rsatkichga (35,7+/-3,69 birlik), hissiy ko‘rsatkichga (19,73+/-3,83 birlik) va operatsion (jarayonli) ko‘rsatkichga (16,85+/-2,78 birlik) nisbatan kamroq ijobiy ta’sir ko‘rsatdi, jismoniy ko‘rsatkich (16,01+/-2,84 birlik).

Tadqiqotda aniqlangan talabalar jismoniy madaniyatini shakllantirishning barcha ko‘rsatkichlari ichida eksperimental metodologiyani joriy etish sog‘lomlashtirish (13,96+/- 2,3 birlik) va refleksiv (11,62+/- 3,99 birlik) ko‘rsatkichlariga eng kam ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu sog‘liqni saqlash komponenti kontekstida talabalarning jismoniy madaniyatini shakllantirish ko‘p jihatdan oliy ta’lim muassasasining sog‘liqni saqlash infratuzilmasi va har bir talabaning individual xususiyatlari va yashash sharoitlariga bog‘liqligi bilan izohlanadi.

Talabalarni jismoniy tarbiya va sportga qamrab olishning innovatsion mexanizmlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijasida xulosa qilsak, talabalarning jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishi, sog‘lom turmush tarziga munosabatlarini rivojlantirish, har tomonlama mukammal shaxs bo‘lib ulg‘ayishlarida, salomatlikni islox qilishda yangicha yondashuv asosida ta’lim berish zarur. Ta’lim amaliyotiga jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish va sportga jalb qilish tizimini ishlab chiqishda talabalarni innovatsion faoliyatga moslashtirish metodikasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarning jismoniy madaniyatini shakllantirishda mutaxassislik va kasbiy faoliyatlarini inobatga olish, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishini rivojlantirish uchun ularni psixologik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maqsadli chora-tadbirlar, kelajakdagi kasbiy faoliyatiga psixofizik tayyorgarligi va salomatlik darajasining diagnostikasi natijalariga ko‘ra individual tavsiyalar ishlab chiqish lozim.

MALAKALI VOLEYBOLCHI QIZLARNING TO'PNI O'YINGA KIRITISH TEXNIKASI ANIQLIGINI NAZARIY TAHLILI

Ilhom Xaydarov – o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada malakali voleybolchi qizlarning to'pni o'yinga kiritish aniqligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi texnik, taktik va psixologik omillarning nazariy tahlili keltirilgan. To'pni o'yinga kiritish aniqligi jamoaning umumiy samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri, uni rivojlantirish sportchilarning texnikasi, taktikasi va ruhiy holatini yaxshilash orqali ta'minlanishi mumkin. Ushbu nazariy tahlil mashg'ulot jarayonlarini samarali tashkil etish va aniq to'pni o'yinga kiritish texnikasi ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.*

Аннотация: *В этой статье приводится теоретический анализ технических, тактических и психологических факторов, влияющих на развитие у квалифицированных волейболисток точности ввода мяча в игру. Точность включения в игру является одним из основных факторов, влияющих на общую эффективность команды, развитие которой может быть обеспечено путем улучшения техники, тактики и психического состояния спортсменов. Этот теоретический анализ имеет важное значение для эффективной организации учебных процессов и развития навыков, необходимых для внедрения конкретного мяча.*

Abstract: *This article presents a theoretical analysis of the technical, tactical and psychological factors that influence the development of the accuracy of putting the ball into play among skilled volleyball girls. The accuracy of putting the ball into the game is one of the main factors affecting the overall efficiency of the team, its development can be ensured by improving the technique, tactics and mental state of the athletes. This theoretical analysis is important for the effective organization of training processes and the development of skills in the technique of putting the ball into play.*

Kalit so'zlar: *voleybol, to'pni o'yinga kiritish aniqligi, to'pni o'yinga kiritish texnikasi, taktik omillar, psixologik omillar, sport tayyorgarligi, ruhiy barqarorlik, start pozitsiyasi, harakat muvofiqligi, mashg'ulot jarayoni.*

Ключевые слова: *волейбол, точность ввода мяча в игру, техника ввода мяча в игру, тактические факторы, психологические факторы, спортивная подготовка, психическая стабильность, стартовая позиция, координация действий, тренировочный процесс.*

Keywords: *volleyball, accuracy of ball entry, technique in the game, tactical factors, psychological factors, sports training, mental stability, starting position, practical coordination, training process*

Respublikamizda ta'lim tizimi sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda ularning asosiy kasbiy faoliyati turlari tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish vazifalari ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilab berilgan. "Sport ta'limi muassasalarida trener va mutaxassislarning sifat tarkibini, xususan oliy ma'lumotli xodimlar sonini bosqichma-bosqich oshirish" dolzarb vazifa hisoblanmoqda[1]. Ushbu vazifalarning amalga oshirilishi pedagogika oliy ta'lim muassasalarida kasbiy tayyorlash jarayonini takomillashtirish, bo'lajak mutaxassislarida sport ixtisosligi vositalari orqali kasbiy tayyorgarlikni samarali shakllantirishning ilmiy asoslangan yo'llarini izlab topishni talab qiladi. Voleybol o'yinida to'pni o'yinga kiritish nafaqat ochkolarni to'plash, balki raqib jamoasining hujumini murakkablashtirish va himoyasini zaiflashtirishda katta ahamiyatga ega. Hozirgi zamonaviy sportda to'pni o'yinga kiritish aniqligi bo'yicha keng tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, ayollar voleybolida bu yo'nalish yetarlicha o'rganilmagan. Shunday sharoitda malakali sportchilarning to'pni o'yinga kiritish aniqligini ta'minlash uchun texnik, taktik va

1 Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги. ПФ – 5924-сон Фармони, 24.01.2020 й.http://lex.uz

psixologik omillarni nazariy jihatdan tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda voleybol o'yini nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki texnik va taktik ko'nikmalarni ham talab etadi. To'pni o'yinga kiritish o'yinning muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning aniqligi jamoaning umumiy samaradorligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. To'g'ri yo'naltirilgan to'p kiritish nafaqat ochko olib keladi, balki raqib hujumining murakkabligini pasaytiradi. Voleybolchi qizlarning to'pni o'yinga kiritish texnikasini va uning aniqligini rivojlantirish nazariy asoslarni talab etadi, bu esa mashg'ulot jarayonini samarali tashkil etish uchun muhim hisoblanadi[2].

Voleybol o'yinida to'pni o'yinga kiritish aniqligi nafaqat ochkolarni to'plash, balki raqibning himoyasini buzishda ham muhim ahamiyatga ega. Hozirgi zamonaviy sportda to'pni o'yinga kiritish aniqligi bo'yicha yetarlicha nazariy bilimlar mavjud bo'lsa-da, ayollar voleybolida bu yo'nalishdagi tadqiqotlarni juda kam. Shunga ko'ra, to'pni o'yinga kiritish aniqligini oshirish bo'yicha nazariy tahlil qilish sportchilar tayyorgarligini yanada samarali tashkil etish uchun muhim hisoblanadi[3]. To'pni o'yinga kiritish jarayonining asosiy xususiyatlari texnik, taktik va psixologik omillar bilan belgilanadi.

To'pni o'yinga kiritish aniqligi sportchining texnikasiga bog'liq bo'lib, bu jarayonda qator asosiy texnik omillar muhim o'rin tutadi. Jumladan:

Start joyi va og'irlik markazini to'g'ri taqsimlash; To'pni o'yinga kiritish aniqligini ta'minlash uchun sportchi avvalo to'g'ri start joyini egallashi lozim. Og'irlik markazini to'g'ri taqsimlash orqali harakat muvozanati saqlanadi va kuchli hamda aniq zarba uchun qulay sharoit yaratiladi.

To'pni o'yinga kiritish texnikasi; To'pga zarba berishda qo'l, biroq va yelka mushaklarining harakatlari bir-biriga muvofiq ishlashi zarur. Qo'l harakatlari yo'nalishi va tezligi to'p trayektoriyasini aniq belgilab beradi.

To'pning trayektoriyasini nazorat qilish; to'pni o'yinga kiritish vaqtida to'p uchishi kerak bo'lgan yo'nalish va balandlik oldindan aniqlanishi lozim. Sportchi maydondagi zaif zonalarni tanlab, to'pni aynan o'sha yo'nalishga yo'naltirishi kerak.

Harakatlarning muvofiqligi va ritmikasi; Barcha harakatlar, jumladan, start pozitsiyadan zarba berishgacha bo'lgan jarayon, qo'l va oyoqlarning ritmik muvofiqligida bajarilishi lozim. Bunda sportchi harakatlarining ravonligi va uyg'unligi katta ahamiyatga ega.

Zarba kuchi va aniqligi o'rtasidagi muvozanat; Zarba kuchini juda oshirib yuborish to'pning trayektoriyasini buzishi mumkin. Shu sababli, zarba kuchi va yo'nalishni aniq belgilash orqali to'pni zarur bo'lgan nuqtaga yetkazish kafolatlanadi.

To'pni qabul qilish nuqtasi va vaqtni to'g'ri tanlash; To'pni zarbaga tayyorlayotganda uning yuqori nuqtasi to'g'ri aniqlanishi va zarba aniq bir vaqtda berish lozim. Bu nafaqat aniqlikni oshiradi, balki raqib himoyasini zaiflashtiradi.

Voleybolchilarning to'pni uzatish texnikasi ham voleybol o'yinining asosiy texnik malakasi hisoblanadi. Jamoa agar bu texnik malakani mukammal darajada ijro etmasa, jamoa boshqa texnik malakalarni ham amalga oshira olmaydi. Maydon bo'ylab harakatlanish tezligi qanchalik yuqori bo'lsa, to'pni qabul qilish, to'pni uzatish, to'pga zarba berish aniqligi shunchalik yuksak bo'ladi. Zarba berish samaradorligi ham shunchalik katta koeffitsiyent bilan ifodalanishiga imkon yaratiladi. Zamonaviy voleybolga xos texnik-taktik harakatlarni o'ta

2 Fadil, Asmaa. (2022). Design and application of a test to measure the accuracy of receiving in volleyball using the forearm pass for female students. SPORT TK-Revista EuroAmericana de Ciencias del Deporte. 59. 10.6018/sportk.536591.

3 Николаева И.В., Карева Ю.Ю., Губа В.П. Эффективность теоретической подготовки квалифицированных волейболистов при совершенствовании технико-тактических действий в защите // Известия ТулГУ. Физическая культура. Спорт. 2019. №4.

keskin o'zgaruvchan vaziyatlar talablariga mos ravishda tezkor va aniq ijro etish qobiliyati hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Ayrim mutaxassislar fikriga ko'ra, voleybolchilarning to'p uzatish aniqligini oshirishda, ularning texnikasiga,

taktikasiga, so'ng tezligi, shundan keyingina shu harakat aniqligiga e'tibor qaratish lozim ekan[4].

Voleybol o'yinida to'pni o'yinga kiritish aniqligini oshirish uchun nafaqat texnik, balki taktik omillarni to'g'ri qo'llash ham katta ahamiyatga ega. Taktik yondashuv raqibni hayron qoldirish, ularning himoyasini buzish va jamoaning ustunligini oshirishga yordam beradi[5]. Quyida to'pni o'yinga kiritish aniqligini ta'minlovchi asosiy taktik omillar keltiramiz:

Maydonning zaif zonalarini aniqlash; To'pni o'yinga kiritish aniqligida maydondagi himoyasiz yoki zaif himoyalangan joylarni topish muhim. Raqib jamoasining o'yinchilari o'rtasidagi himoya sohalariga (masalan, 2 va 4 zonalar) to'p uzatish raqibni qiyin holatga tushirishi mumkin.

Raqibning joylashuviga qarab strategiya tanlash; Raqib jamoasining pozitsiyalari va himoya tizimi tahlil qilinadi. Masalan, hujumchi o'yinchi yoki almashtiruvga chiqayotgan o'yinchi himoyada bo'lganda, ularning zaif nuqtalaridan foydalanish kerak.

To'pni o'yinga kiritishning yo'nalishini va kuchini o'zgartirish; To'pni har doim bir xil yo'nalishga uzatish raqib uchun rejalashtirishni osonlashtiradi. Shuning uchun to'p yo'nalishini o'zgartirish va kerakli paytda kuchli yoki yumshoq to'pni o'yinga kiritish raqibning rejasini buzadi.

Raqib o'yinchilarini harakatdan chiqarish; To'pni aniq bir hududga kiritish, raqib hujumini boshqaruvchi o'yinchiga to'sqinlik qilish mumkin. Masalan, asosiy o'yinchini to'p qabul qilishga majbur qilish, ularning hujum tashkil etish qobiliyatini susaytiradi.

Qarshiliklarga moslashuvchanlik; Raqib jamoasi o'yin jarayonida o'z himoya tizimini o'zgartirib borishi mumkin. Bu holatda voleybolchi taktik jihatdan moslashuvchan bo'lib, o'z to'pni o'yinga kiritish strategiyasini tezda qayta ko'rib chiqishi kerak.

Raqibning psixologik holatidan foydalanish; Raqibning o'yin vaqtidagi psixologik holatini baholash muhim. Ulardagi ustunlik yoki zaiflik holatlarini aniqlab, to'pni o'yinga kiritish strategiyasini shunga moslashtirish mumkin. Masalan, raqibning xato qilgan o'yinchisiga bosim o'tkazish uchun qaratilgan to'p kiritish amalga oshiriladi.

Taktik noaniqlik yaratish; Raqibni chalg'itish uchun kutilmagan va noaniq taktikalardan foydalanish mumkin. Masalan, to'p kiritish kutilmagan yumshoq to'g'ri turib yuqoridan to'p kiritish yoki juda past trayektoriyali to'g'ri turib yuqoridan to'pni o'yinga kiritish ularning himoyasini muvaffaqiyatsiz qiladi.

Yuqoridagi taktik omillarning muvofiq qo'llanilishi voleybol o'yinida to'pni o'yinga kiritish aniqligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu nafaqat ochkolarni ko'paytiradi, balki raqib jamoasining o'yin tizimini buzishga ham yordam beradi.

Mutaxassislar tomonidan voleybolchilarni tayyorlov bosqichida yuklamalarning ta'siriga qarab, kuch (sakrab to'pni o'yinga kiritish) va rejalashtirish aylanma mashqlarning samaradorligini oshirish uslubiyatini o'rganish bo'yicha tadqiqot materiallari ko'rib chiqilgan. O'yin davomida to'pni o'yinga kiritish aniqligini oshirish uchun tanlangan mashqdan foydalanish

4 Умматов А.А., Абдулхаева З.А.– Малакали волейболчи қизларда тўп узатиш аниқлигини вазиятли машқлар ёрдамида ошириш. «FAN – SPORTGA» 2024.(3). 104 б.

5 Florence, Lindsay & Fellingham, Gilbert & Vehrs, P. & Mortensen, Nina. (2008). Skill Evaluation in Women's Volleyball. Journal of Quantitative Analysis in Sports. 4. 14-14. 10.2202/1559-0410.1105.

samaradorligi aniqlangan. Turli malakali voleybolchilarni tayyorlashda ishlab chiqilgan kompleks mashqlardan foydalanilgan[6].

O‘yin davomida aylanma harakatlar yuklamalari chayqalish holatini yuzaga keltirib, muvozanat saqlash turg‘unligini tushirib yuborishi, natijada to‘p kiritish aniqligi susayib ketishi mumkin ekan. Shiddatli yugurish yuklamalari ta’sirida esa yurakning qisqarish soni va nafas olish ritmining keskin ortishi tana va qo‘lning tebranish chastotasini (tremor) oshirib, to‘p kiritish aniqligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi kuzatilgan. Bunday holatlarga asosan ehtimol qilinadiki, o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar davomida aylanma harakat va nafas – gipoksik mashqlarni muntazam qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘lishi tavsiya qilingan[7].

Voleybolda to‘pni o‘yinga kiritish aniqligi nafaqat texnik va taktik jihatlarga, balki sportchining psixologik tayyorgarligiga ham bog‘liq. Psixologik omillar sportchining o‘yindagi ishonchini shakllantirish, bosimga bardosh berish va qaror qabul qilish jarayonlarini mustahkamlashga yordam beradi. Quyida to‘p kiritish aniqligiga ta’sir etuvchi asosiy psixologik omillar keltiramiz:

Ishonch va motivatsiya; Sportchining o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchi to‘pni o‘yinga kiritishning aniq va muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlaydi. Ishonchsizlik holatida harakatlar noto‘g‘ri bajarilishi mumkin. Shuning uchun har bir to‘pni o‘yinga kiritish muvaffaqiyatli natijaga qaratilgan motivatsiya bilan bajarilishi kerak.

Diqqatni jamlash; To‘pni o‘yinga kiritish aniqligi sportchining diqqatini bir nuqtaga to‘liq yo‘naltirishiga bog‘liq. Bunda asosiy e’tibor to‘pning trayektoriyasiga, maydonning zaif zonalariga va o‘z harakatlarining uyg‘unligiga qaratilgan bo‘lishi lozim. Chalg‘uvchi omillarni e’tiborga olmaslik uchun sportchini diqqatni jamlashga o‘rgatish muhim.

Bosimga chidamlilik; Musobaqa davomida sportchining stress holatida to‘pni o‘yinga kiritishga majbur bo‘lishi tabiiy. Tomoshabinlar, raqibning kuchli

himoyasi yoki jamoaning natija kutishi sportchiga psixologik bosim o‘tkazishi mumkin. Bunday vaziyatlarda chidamlilikni oshirish uchun simulyatsiyalar, stressga qarshi mashqlar va turli o‘yin modellaridan foydalanish zarur.

Emotsional barqarorlik; Emotsional holatning barqarorligi sportchining aniq qarorlar qabul qilishiga yordam beradi. Quvonch yoki tushkunlik kabi keskin o‘zgaruvchi holatlar harakatlarning aniqligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Sportchining tayyorgarligida psixologik muvozanatni saqlashga qaratilgan mashqlar muhim ahamiyatga ega.

Tasavvur va fikriy modellashtirish; To‘pni o‘yinga kiritishdan avval sportchi o‘z harakatlarini tasavvur qilishi va fikriy ravishda o‘yinni modellashtirishi kerak. Masalan, to‘pning yo‘nalishini, maydondagi maqsadli nuqta va raqibning harakatlarini oldindan “ko‘zdan kechirish” orqali to‘pni o‘yinga kiritish aniqligi oshishi mumkin.

Qaror qabul qilish qobiliyati; Sportchi qisqa vaqt ichida to‘g‘ri taktik qaror qabul qilishi lozim. Qaror qabul qilish jarayonida sportchi maydonning holatini tez tahlil qilib, eng samarali to‘pni o‘yinga kiritish usulini tanlaydi. Bunday qobiliyatni rivojlantirish uchun sportchiga tezkor o‘yin simulyatsiyalari o‘tkaziladi.

Musobaqa tajribasi orqali ruhiy mustahkamlikni oshirish; Ko‘proq musobaqalarda qatnashgan sportchida ruhiy barqarorlik shakllanadi. Chunki ko‘nikmalar orqali stressni

6 Ашуркова С.Ф., Умматов А.А.– Методика повышения эффективности силовой и планирующих подач в процессе соревновательных игр в волейболе. “FAN – SPORTGA” 2023. (2). 6 б.

7 Пулатов А.А., Пулатов. Ш.А., Пулатов Ф.А.– Устойчивость сохранения динамического равновесия как ключевой фактор обеспечения точности стандартных действий в игровых видах спорта (на примере подачи в волейболе). «FAN – SPORTGA» 2023. (4). 59 б.

nazorat qilish va murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilish qobiliyati rivojlanadi.

Psixologik omillar to‘pni o‘yinga kiritish aniqligini ta’minlashda texnik va taktik jihatlar kabi muhim ahamiyatga ega. Sportchida ishonch, diqqatni jamlash va stressga chidamlilik kabi sifatlarni rivojlantirish orqali to‘pni o‘yinga kiritish natijadorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Mashg‘ulotlarda psixologik tayyorgarlik mashqlarini joriy etish jamoaning umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Voleybolda to‘pni o‘yinga kiritish nafaqat ochko olish, balki raqib jamoasining himoya tizimini buzish va hujumga tayyorgarligini qiyinlashtirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Texnik jihatdan start zonasining to‘g‘riligi, og‘irlik markazining muvozanati, to‘pning yo‘nalishini nazorat qilish, harakatlar uyg‘unligi va zarba kuchi kabi omillar to‘p kiritish aniqligini ta’minlaydi. Harakatlar va ritmik muvofiqlik sportchining texnikasi mustahkam bo‘lishi uchun asosiy shart hisoblanadi.

Taktik jihatda raqib maydonidagi zaif zonalarni aniqlash, to‘pni o‘yinga kiritish yo‘nalishini o‘zgartirish, raqib o‘yinchilarini harakatdan chiqarish, hamda raqibning o‘yin davomidagi o‘zgaruvchi strategiyalariga moslashuvchanlik muhim ahamiyatga ega. Bunda voleybolchilardan tezkor tahlil va to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyati talab qilinadi.

Psixologik omillar esa sportchining ichki holatini boshqarish va musobaqa davomidagi bosimga chidamli bo‘lishini ta’minlaydi. Ishonch va motivatsiya, diqqatni jamlash, stressga chidamlilik, emotsional barqarorlik va tasavvur qilish ko‘nikmalari to‘pni o‘yinga kiritish aniqligini oshirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Ayniqsa, psixologik tayyorgarlik ruhiy barqarorlikni shakllantirish orqali musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etish imkonini beradi.

Shu asosda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

To‘pni o‘yinga kiritish aniqligi sportchining texnika, taktika va psixologik holati o‘rtasidagi muvozanatga bog‘liq. Barcha jarayonlar bir-birini to‘ldiruvchi tizim sifatida qaralishi lozim.

Mashg‘ulotlarda texnik va taktik mashg‘ulotlar bilan bir qatorda psixologik tayyorgarlikni kuchaytirish zarur.

Psixologik tayyorgarlik mashg‘ulotlari stressga chidamlilikni oshiradi, bu esa musobaqalarda katta bosimga qaramay aniq va samarali harakat qilishga yordam beradi.

Taktik yondashuvlarning o‘zgartirilishi raqibni hayron qoldirib, ularning himoya tizimini zaiflashtiradi va jamoaning umumiy samaradorligini oshiradi.

Sportchilarning jismoniy, texnik va psixologik jihatdan yaxshi rivojlanishi to‘pni o‘yinga kiritish aniqligini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Ushbu tahlillar asosida mashg‘ulot jarayonini to‘g‘ri tashkil qilish, har bir sportchining individual xususiyatlariga mos yondashuv qo‘llash va musobaqaga yaqin sharoitlarni modellashtirish to‘pni o‘yinga kiritish aniqligini oshirishda samarali natijalarga olib keladi. Voleybolchi qizlar uchun ushbu yo‘nalishdagi yechimlar nafaqat individual tayyorgarlikni, balki jamoaviy ko‘rsatkichlarni ham yuqori darajaga olib chiqishi mumkin.

04

IJTIMOIY FANLAR

JIZZAX VOHASI IBTIDOIY DAVR TARIXINING O'RGANILISHI HAQIDA

Furqat Eshboyevich Toshboyev – professor,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Nozima Bahodir qizi Eshmamatova – magistrant,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Mualliflar ushbu maqolada Yangiqishloq, Azimbuloq, Go'rdar, Chashmai-Doston manzilgohlarida o'rganilgan tosh davri topilmalarining Toshkent vohasi va Sug'd hududida o'rganilgan materiallar bilan o'xshashligiga asoslanib, ibtidoiy odamlar vohani paleolit davridan o'zlashtirib boshlaganligini ta'kidlaydi. Keyingi davrga oid Chordara shahar yodgorligi va Ko'ksutepadan topilgan mezolit davri ashyolari, Tuzkon, Qolgansir va Qizilcha sovxozidagi Xon-Chorboq atroflarida o'rganilgan neolit davriga oid tosh qurollar va qoyatosh rasmlari asosida esa vohaning mezolit va neolit davrida faol o'zlashtirilganligi hamda xo'jalik madaniy-tiplarning shakllanishi kabi masalalarni asoslagan.*

Аннотация: *В статье авторы на основании сходства находок каменного века, изученных на поселениях Янгикишлок, Азимбулок, Гордар и Чашмаи-Достон, с материалами, изученными в Ташкентском и Зеравшанскому оазисе, утверждают, что первобытные люди начали осваивать региона еще в эпоху палеолита. На основе мезолитических артефактов, обнаруженных на городище Чордара и Коксутепе, а также неолитических каменных орудий найденных в окрестностях Хан-Чорбака в совхозах Тузкан, Калкансыр и Кызылча, и наскальных рисунков, обосновано активное освоение оазиса в эпоху мезолита-неолита и формирование хозяйственно-культурных типов.*

Abstract: *In the article, the authors, based on the similarity of the Stone Age finds studied in the settlements of Yangikishlok, Azimbulok, Gordar and Chashmai-Doston, with the materials studied in the Tashkent and Zeravshan oases, argue that primitive people began to develop the region in the Paleolithic era. Based on the Mesolithic artifacts discovered at the Chordar and Koksutepe settlements, as well as Neolithic stone tools found in the vicinity of Khan-Chorbak in the Tuzkan, Kalkansyr and Kyzylcha state farms, and rock paintings, the active development of the oasis in the Mesolithic-Neolithic era and the formation of economic and cultural types are substantiated.*

Kalit so'zlar: *paleolit, Ustrushona, Yangiqishloq, Azimbuloq, Qo'tirbuloq, urug'-jamoalar, Ko'ksutepa, Sazag'on madaniyati, Tuzkon, Qolgansir, Takatosh, chorvachilik, Suzmoyilota, Yuqorisoy, Uchma, Sig'omsoy.*

Ключевые слова: *палеолит, Уструшана, Янгикишлак, Азимбулак, Котырбулак, роды, Коксутепа, культура Сазаган, Тузкон, Калгансыр, Такатош, скотоводство, Сузмойлота, Юкорисой, Учма, Сигомсай.*

Keywords: *paleolithic, Ustrushana, Yangikishlak, Azimbulak, Kotyrbul-lak, clans, Koksutepa, culture of Sazagan, Tuzkon, Kalgansyr, Takatosh, livestock farming, Suzmoilota, Yukorisoy, Uchma, Sigomsai.*

Ibtidoiy davrda yashagan odamlarning turmush tarzi, xo'jaligi, moddiy va ma'naviy madaniyati shakllanishiga hududlarning tabiiy geografik xususiyatlari ta'sir qilgan. Tosh davridagi ibtidoiy to'da bir guruh odamlardan iborat bo'lib, birlashib ov va termachilik qilishgan. Bu bosqichda hali mehnat qurollari ancha sodda bo'lganligi tufayli ishlab chiqarish kuchlari juda zaif edi. Paleolitning ilk davrlaridan ibtidoiy jamoalar tomonidan tabiiy oziq-ovqat mahsulotlari, suv manbalari, ovchilik va termachilik xo'jaligiga qulay hayvonot va o'simlik olamiga boy hududlarni egallash jarayoni boshlangan. Bunday mintaqalar qatoriga Qadimgi Ustrushona tarixiy-madaniy o'lkasining katta hududini egallagan Jizzax vohasini ham kiritish mumkin.

Jizzax viloyati hududida eng qadimgi odamlar faoliyatiga oid materiallar Forish tumanining " Chimqo'rg'on " sovxozi hududi va Yangiqishloq, Azimbuloq, Go'rdar, Chashmai-Doston

manzilgohlarida tadqiq qilingan[1]1. Bu topilmalar Samarqand va Qo‘tirbuloq manzilgohlari materiallari hamda Toshkent vohasining bir qator o‘rta va so‘nggi paleolit davriga oid yodgorliklari ashyoviy manbalariga o‘xshaydi[2]. Bu esa paleolit davri jamoalarining butun mintaqa bo‘ylab qo‘shni hududlarga jumladan, Jizzax vohasiga ham kirib kelganligini ko‘rsatadi. Ta’kidlash lozimki, ibtidoiy odamlar xo‘jaligining taraqqiy eta borishi bilan o‘zlashtirilgan hududlar va ibtidoiy aholi guruhlari orasidagi aloqalar kuchayib, ularning hududiy joylashuvi o‘rtasidagi masofalar qisqaradi. Biroq hududlarni o‘zlashtirish va iqtisodiy aloqalar tog‘ tizmalari, keng daryolar, cho‘llardan iborat tabiiy to‘siqlar mavjudligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan.

Arxeologik topilma materiallarga qaraganda, so‘nggi paleolit davriga kelib Zarafshon vohasi urug‘-jamoalar tomonidan to‘la o‘zlashtirilgan. Ibtidoiy davrdagi urug‘ jamoalarning joylashuvida qarindosh-urug‘ a’zolarining birgalikda yashash tamoyillari ustunlik qilgan[3]. Bu holat tabiiy resurslarga ega hududning katta-kichikligi, boshqa jamoalar tomonidan ular yashayotgan yerdagi tabiiy mahsulotlarni o‘zlashtirish darajasi va shu atrofni qo‘shni jamoalardan himoya qilish imkoniyatlari bilan belgilangan[4]4. Bundan insoniyat tarixida qon-qarindoshlik tuyg‘usi bilan birgalikda, hududiy birlik tushunchasi ham juda erta shakllanganligi ma’lum bo‘ladi.

I.A.Anboyev Jizzax viloyatining shimoliy qismida (Sirdaryoning shimoli-sharqidagi Abay hududida joylashgan Chordara shahar yodgorligi atrofida) disksimon ko‘rinishdagi nukleus, yorqin qizg‘ish-sariq chaqmoqtoshdan yasalgan yuqori paleolit tipiga o‘xshash nukleissimon tosh qurollar bo‘lgan[5]. Shuningdek, Chordaraning quyi qismida joylashgan Ko‘ksutepadan 6 ta yupqa, oq kulrang, yarim yaltiroq chaqmoqtoshdan mikrolitsimon qilib yasalgan kichik o‘lchamdagi pichoqsimon plastinkalar ham o‘rganilgan. Muallif, ushbu topilmalarga tayanib, aholi bu hududlarni pleystotsenning oxiri va golotsen (mezolit) ning boshlarida o‘zlashtirilib boshlangan degan xulosani beradi.

Mintaqada olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida qo‘lga kiritilgan ma’lumotlar o‘zlashtiruvchi xo‘jalikning kompleks tarzda rivojlanishidan darak beradi. Mirzacho‘lga tutash Nurota tog‘larining shimoliy yonbag‘irlarida mezolit davri aholisining xo‘jalik-madaniy shakli baliq ovi, hayvonlar va qushlarni ovlash hamda termachilikdan iborat bo‘lgan. Mezolit davrida iliq va nam iqlimning vujudga kelishi Turkiston tog‘ining shimoliy sarhadlaridagi ko‘p sonli kichik suv havzalari, dashtlardagi sho‘rlanmagan serunum tuproq, boy o‘simlik va hayvonot dunyosi paydo bo‘lishiga zamin yaratgan[6]. Bunday sharoitda o‘zlashtiruvchi tabiiy ozuqa mahsulotlarning serobligi odamlar ehtiyojlarini qondirgan. Shu bois ushbu mintaqada ham ovchilik va termachilik katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Bu davrda O‘rta Osiyoning boshqa mintaqalarida bo‘lgani kabi Jizzax vohasida ham hududiy jihatdan va tabiiy geografik sharoitga mos ikkita xo‘jalik-madaniy tip shakllangan. Birinchisi – tekisliklar va daryo vohalarida ovchilik, baliqchilik va termachilik, ikkinchisi – tog‘li o‘lkalardagi ovchilik va mumkin qadar

1 Сайфуллаев Б.Қ., Эргашев О.Т., Рахимов К.А., Ражабов А.Ю., Аллаёров Ў., Пардаев Ш.М. Жиззах воҳасининг палеолит даври \\ Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар. – Самарқанд, 2014. – Б. 16.

2 Джуракулова Д.М. Каменные изделия из Джизакского оазиса \\ Формирования историко-культурных областей в Центральной Азии и проблемы этнической географии. – Ташкент, 2018. – С.55-57.

3 Тошкенбоев Н. Самарқанд вилоятининг юқори палеолит ёдгорликларини ўрганиш муаммолари // Ўзбекистон моддий маданияти. 30-сон. – Самарқанд, 1999. – Б. 15-18.

4 Берзина М.Я. Этнические территории, этнические границы и проблемы их картографирования // Проблемы этнической географии и картографии. – М.: Наука, 1978. – С. 49-50.

5 Анбоев И.А. Древности Голодной степи // ИМКУ. Вып. 4. – Ташкент, 1963. – С. 51-55.

6 Виноградов А.В., Мамедов Э.Д. Ландшафтно-климатические условия среднеазиатских пустынь в голоцене // ИМКУ. Вып. 11. – Ташкент, 1974.– С. 32-44.

termachilik xo'jalik shakllariga asoslangan. O'zlashtiruvchi xo'jaliklar ovchilik-termachilik sharoitida jamoa guruhlari bir joydan ikkinchisiga ko'chib yurib, xuddi shunday ko'chmanchi guruhlarga duch kelganlar. Shu tarzda ularning o'rtasida turli xil shakldagi aloqalar muntazam ravishda rivoj topib borgan.

Neolit davri, mil.avv. VI ming yillikning boshlarida turli tabiiy sharoit va geografik hududlarda joylashgan qabilalarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida tub o'zgarishlar yuz berdi. O'rta Osiyoning janubida, Kopetdog' shimoliy yonbag'irlaridagi kichik soylar atroflarida yashovchi aholi guruhlari ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar – dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullana boshlaganlar[7]. Shu sababli mintaqa miqyosida qabilalar orasida notekis xo'jalik-madaniy rivojlanish vujudga kelgan. O'rta Osiyoning janubi ilg'or xo'jalik shakllari – o'troq hayot, loy guvalaklardan uy-joylar qurish va ishlab chiqaruvchi kuchlarning taraqqiyoti oqibatida yangi xo'jalik va texnik yutuqlar yoyilishida tranzit hudud sifatida katta ahamiyatga ega bo'la boshlaydi[8].

The chief inspector of the country developed a regulation on the duties of 3 inspectors (inspectors of Muslim educational institutions). On March 10, 1894, with the decision No. 10, the Regional Education Department issued a decision to the military governors on the regulation and management of the foundation properties, and in order to regulate the educational process in the madrasa, it[64] was an important step in the administration of the field to clearly define the academic period from October 1 to May 1.

It can be said that madrasahs were officially independent in the period under study, but in practice they began to lose this right. Every job (even the trivial ones) was done by special permission. A list of all the servants in the madrasa was strictly requested. The main reason for this was to clearly know the recipients of waqf properties and to control them. The policy of the Russian Empire regarding the management of madrasahs was evaluated as "neglect" in the early days. In fact, it is a historical fact that the Russian administration has a policy of "neglect" (or "ignorance") towards Muslim madrassas. Through this, they carried out the policy of "Russification", which was their original goal. The government of the Russian Empire developed a number of legal norms and legal frameworks in the field of education management in Turkestan, which were implemented after a thorough study of the conditions in the region. This is reflected in the regulations on the administration of the Turkestan region, the instructions on the activities of the inspectors of educational institutions in Turkestan, the instructions of the inspectors of Muslim educational institutions, and several documents on the supervision of the activities of Waqf properties.

In short, madrasahs had their own internal management method formed over the centuries. Although the new government tried to reform them with several changes, these reforms were actually carried out for political purposes. The imperial government sought to recruit madrasah officials from among their sympathizers, and in this way to train the graduates of these institutions to become citizens who would serve the government. The intervention of the government in the internal management of madrasahs was not for the development of the main link of local education, but on the contrary, it weakened its activities and led to a decrease in the quality of education.

63 UzR MDA, fund I 47, list 1, case 396, sheet 2.

64 UzR MDA, fund I 47, list 1, case 328, sheets 79-80.

IBN XALDUNNING "MUQADDIMA"SIDA TARIX FALSAFASI

Baxti Muradovna Ochilova – f.f.d., professor,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Iskandar Amanov – talaba, Jizzax davlat pedagogika universiteti

***Annotatsiya**: Ushbu maqolada Ibn Xaldunning tarix falsafasi "Muqaddima" asari asosida ko'rib chiqilgan, tarixning asosiy tamoyillari va metodologiyasi o'rganilgan. Tarix falsafasi – insoniyat taraqqiyoti, uning sabablari va qonuniyatlarini aniqlashga qaratilgan ilmiy-nazariy yo'nalish bo'lib, Ibn Xaldun bu sohada mutlaqo yangi yondashuvni shakllantirgan ulkan mutafakkirlardan biridir. Uning "Muqaddima" asari tarixga nafaqat hodisalar va shaxslar majmuasi sifatida, balki chuqur falsafiy qonuniyatlar asosida rivojlanadigan dinamik jarayon sifatida qarashni taklif qiladi. Ibn Xaldunning tarixiy jarayonlarga falsafiy yondashuvi deterministik bo'lib, u jamiyatlarning rivojlanishi va inqirozini sabab-oqibat tamoyili asosida tushuntiradi. Uning nazarida tarixiy o'zgarishlar tasodifiy hodisalar natijasi emas, balki ichki ijtimoiy-madaniy mexanizmlarning uzviy evolyutsiyasi natijasidir.*

***Аннотация**: В данной статье рассматривается философия истории Ибн Халдуна на основе его труда "Мукаддима", изучаются основные принципы и методология истории. Философия истории – это научно-теоретическое направление, направленное на выявление закономерностей и причин прогресса человечества. Ибн Халдун является одним из выдающихся мыслителей, который сформировал совершенно новый подход в этой области. В своем труде "Мукаддима" он рассматривает историю не просто как совокупность событий и личностей, а как динамический процесс, развивающийся по глубоким философским законам. Его философский подход к историческим процессам носит детерминистский характер, объясняя развитие и упадок обществ через принцип причинно-следственной связи. Согласно Ибн Халдуну, исторические изменения не являются случайными событиями, а представляют собой естественную эволюцию внутренних социально-культурных механизмов. Таким образом, его концепция истории основана на анализе объективных законов, управляющих развитием цивилизаций.*

***Abstract**: This article examines Ibn Khaldun's philosophy of history based on his work Muqaddimah, analyzing the fundamental principles and methodology of history. The philosophy of history is a scientific-theoretical field aimed at identifying the causes and patterns of human progress. Ibn Khaldun is one of the greatest thinkers who developed a completely new approach in this area. In Muqaddimah, he views history not merely as a collection of events and individuals but as a dynamic process governed by deep philosophical principles. His philosophical approach to historical processes is deterministic, explaining the development and decline of societies through the cause-and-effect principle. According to Ibn Khaldun, historical changes are not random events but the natural evolution of internal socio-cultural mechanisms. Thus, his concept of history is based on analyzing the objective laws that govern the rise and fall of civilizations.*

***Kalit so'zlar**: tarix, tarix falsafasi, tarixiy manba, "Muqaddima", Ibn Xaldun, ijtimoiy birdamlik, sivilizatsiya, iqtisodiy asos, boshqaruv, davlat.*

***Ключевые слова**: история, философия истории, исторический источник, "Мукаддима", Ибн Хальдун, социальная солидарность, цивилизация, экономическая основа, управление, государство.*

***Keywords**: history, philosophy of history, historical source, "Introduction", Ibn Khaldun, social solidarity, civilization, economic, basis, management, state.*

Ibn Xaldunning tarix falsafasi bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Globalizatsiya, sivilizatsiyalarning o'zaro ta'siri va zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar davrida uning siklik tarixiy rivojlanish modeli jamiyatlar barqarorligi va inqiroz sabablarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi dunyoda davlatlarning paydo bo'lishi, gullab-yashnashi va tanazzuli bilan bog'liq jarayonlar aynan Ibn Xaldun nazariyalari orqali izohlanishi mumkin. Ayniqsa, u ilgari surgan asabiyya (ijtimoiy birdamlik) tushunchasi hozirgi zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy barqarorlikni saqlash va siyosiy beqarorlik sabablarini tushunishda asosiy tamoyillardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Shuningdek, uning tarixni ilmiy yondashuv bilan tahlil qilish metodologiyasi bugungi tarixshunoslik va sotsiologik tadqiqotlar uchun asosiy nazariy yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Shu bois, mazkur maqola Ibn Xaldunning tarix falsafasi va uning zamonaviy jamiyatlarga ta'sirini tadqiq qilish jihatidan muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Tarix falsafasi tarixiy jarayonlarning mohiyati, maqsadi va tuzilishini tadqiq qiluvchi alohida sohadir. An'anaga ko'ra, u ikki tarmoqqa bo'linadi: tarixiy voqealarning umumiy qonuniyatlari, yo'nalishi va ma'nosini aniqlashga intiladigan tarixning spekulyativ falsafasi va tarixiy tadqiqot metodologiyasiga va tarixiy talqinning epistemologik muammolariga e'tibor qaratadigan tanqidiy tarix falsafasi. Ushbu intellektual an'analar doirasida o'rta asr islom dunyosining yirik tarixchisi va faylasufi Ibn Xaldunning "Muqaddima" (1377) asari eng muhim ilmiy meroslardan biri hisoblanadi. Roje Garode so'zlariga ko'ra: "Ibn Xaldun bir vaqtning o'zida ham olim, ham rassom, ham harbiy, ham huquqshunos, ham faylasuf qirralarini o'zida jalb etgan XIV asr dahosidir"[1].

Abdurahmon ibn Muhammad ibn Muhammad Abu Zayd ibn Xaldun hijriy 732-808-yillarda yashagan. "Ibn Xaldun 1332 (milodiy) yilda Tunisda tug'ilgan. Uning ajdodlari ummaviylar sulolasi davrida saroyda yuqori lavozimlarda ish yuritishgan. Ular Andaluziyada markaziy hokimiyat boy berilgach ham, o'z mavqelarini saqlab qolishgan. Ibn Xaldunning bobokalonlari al-Murabitunlar (1095-1149) va al-Muvahidunlar (1149-1248) davrida ham o'z nufuzlariga ega bo'lganlar. Al-Muvahidunlar davlatining tanazzulidan so'ng Ibn Xaldunning ajdodlari o'z homiylari bilan Tunisga keldilar"[2].

Ibn Xaldunning 7 jildli "Al-Ibar" asari mashhur bo'lgan. Bu asarning boshi "Muqaddima" bo'lib, jamiyatshunoslik, ya'ni sotsiologiyaning asosi sanaladi. Ushbu asarga "Yevropaning Yevropa bo'lishiga sababchi bo'lgan kitob"[3] deya ta'rif berilgan. Mutafakkir o'z asari orqali tarixiy jarayonlar, ijtimoiy o'zgarishlar va sivilizatsiyalarni shakllantiruvchi tarkibiy kuchlarni tizimli tahlil qilishni ilgari surib, tarix falsafasida katta tahliliy meros qoldirdi. Tarixiy rivojlanishlarni metafizik yoki teologik determinizmga bog'laydigan spekulyativ yondashuvlardan farqli o'laroq, Ibn Xaldun tarixning borishini shakllantirishda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy omillarning o'zaro ta'sirini ta'kidlab, oqilona va empirik usulni kiritdi. Ibn Xaldunning qayd etishiga ko'ra "Tarixni o'rganmoqchi bo'lgan kishi davlatlarning vujudga kelishidagi boshlanish nuqtalarni va turli sulolalar tomonidan qo'llangan tartibotlarni (prinsiplarni) o'zi qidirishi kerak bo'ladi. Uning o'zi qaysi sulolalar bir-biriga ta'sir ko'rsatganini va nega bir-birining o'rniga kelganini o'rganishi kerak. U sulolalar o'rtasidagi ajralish yoki aloqani ta'minlaydigan omillarni ishonchli tushuntirish uchun izlanishi kerak. Bularning barchasi ushbu asarning "Muqaddima" qismida muhokama qilinadi"[4].

Ibn Xaldun o'zining tarix falsafasi va metodologiyasini tizimli ravishda taqdim etish uchun "Muqaddima" asarini uch qismga ajratgan. Har bir bo'lim tarixiy jarayonlar va sivilizatsiya asoslarini tushuntirishda alohida maqsadga xizmat qiladi.

Tarix fani va uning metodologiyasi.

Sivilizatsiyalarning yuksalishi va qulashi.

Arab va islom olamining tarixiy ma'lumoti.

Nima uchun bu tuzilma ishlab chiqilgan. Fikrimizcha mustahkam metodologik asos

1 Григорян С. Н. Средневековая философия народов Ближнего и Среднего Востока. М.,1966.- С. 311.
2 Uludağ Süleyman. İbn Haldun. Hayatı. Eserleri. Fikirleri. Ankara. Harf Eğitim Yayıncılığı. 2022. – B. 13.
3 Ибн Халдун. Муқаддима (Сўз боши). Тошкент., "Trust and support" нашриёти, 2024.-Б.8.
4 Ибн Халдун. Тошкент., "Trust and support" нашриёти, 2024.-13-14 бетлар.

(1-qism), umumjahon sivilizatsiya nazariyasi (2-qism), uning g'oyalarini tarixiy voqealarga amaliy tatbiq etish (3-qism) yondashuvi asarning ham nazariy, ham amaliy jihatdan ishonchli bo'lishiga zamin yaratgan. Bu xususda Ibn Xaldun "Men asarni muqaddima va yana uchta kitobga bo'ldim: Kirish qismida tarixshunoslikning buyuk ahamiyati, uning turli usullari haqida tushuncha beriladi va tarixchilarning xatolari qayd etiladi. Birinchi kitobda sivilizatsiya va uning asosiy xususiyatlari – podshohlik, boshqaruv, kasb-hunar, tirikchilik manbalari, ishlab chiqarish tartiboti, ilm-fan hamda ularning sabablari va asoslari haqida so'z yuritiladi. Ikkinchi kitobda arablarning yaratilishidan to hozirgi kungacha bo'lgan tarixi, irqlari va sulolalari bayon qilinadi. Shuningdek, ularning zamondoshlari yuo'lmish nabotiylar, suryoniylar, forslar, yahudiylar, qibtiylar, yunonlar, vizantiyaliklar hamda turklar (yevropaliklar ham) kabi mashhur xalqlar va sulolalar haqida ma'lumotlar ham keltirilgan. Uchinchi kitobda barbarlar va ularning tarkibidagi zanata xalqining tarixi, ularning kelib chiqishi va irqlari, ayniqsa, Mag'ribdagi hukmdorlar oilalari va sulolalari haqida ma'lumotlar berilgan"[5].

Birinchi qismda Ibn Xaldun tarixni fan sifatida asoslaydi. U avvalgi tarixiy yozuvlarni tanqid qiladi va o'tmishni o'rganishda tanqidiy metodologiya muhimligini ta'kidlaydi: "Ayrim mufassirlar, tarixchilar va naql imomlarining hikoya va voqealarida ko'plab xatolarga yo'l qo'yilgan. Ular ma'lumotlarni shunchaki qabul qilishgan, ammo tarixiy vaziyatlarning asosiy qonuniyatlarini tekshirishmagan, o'xshash ma'lumotlarni taqqoslashmagan, tarixni tushunish uchun hikmat mezoniga (falsafaga), shuningdek, borliqning o'ziga xos tabiatiga hamda falsafiy va teran mulohazalarga murojaat qilishmagan. Shuning uchun ular haqiqatdan uzoqlashib, asossiz taxmin va xatolar sahrosida adashib qolishgan"[6]. Bu tarixiy metodologiyaning tanqidiy mulohazasi bo'lib, tarixiy tahlilda tanqidiy fikrlash, tekshirish va falsafiy mulohazalar zarurligini ta'kidlaydi. Ibn Xaldun tarixga voqealar yig'indisi sifatida emas, balki tizimli tahlil qilishni talab qiluvchi fan sifatida qara, tarixshunoslikka ilmiy yondashishni taklif qildi, bu asosda:

Manba tanqidi – tarixiy hisobotlarning ishonchliligini tekshirish.

Qiyosiy tahlil – hodisalarning turli hisoblarini o'zaro tekshirish.

Sabablilik va oqilona tadqiqot – tarixiy o'zgarishlarning asosiy iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sabablarini tushunish.

Bu yondashuv uni zamonaviy tarixshunoslik va sotsiologiyaga asos solgan, keyinchalik Avgust Kont, Maks Veber va Arnold Toynbi kabi olimlarga ta'sir qilgan. Ibn Xaldun tarixiy falsafasining zamirida sivilizatsiyalarning yuksalishi va qulashi ortidagi harakatlantiruvchi kuch deb hisoblagan "Asabiya" (ijtimoiy birdamlik) tushunchasi yotadi (asarning 2-qismida). Ibn Xaldun "Asabiya"ni kuchli va muvaffaqiyatli sivilizatsiyalar poydevori deb hisoblagan. Uning ta'kidlashicha, "Asabiyatning zaiflashishi jamiyatning o'zaro birdamligiga darz yetkazadi. Chunki bir-birini himoya qilishga sabab qolmaydi. Qachonki jamiyat hayotidan jasorat, birdamlik sifatlari ko'tarilarkan, boshqa xalqlar ularning ustidan hukmronlik o'rnatishiga zamin yaralgan bo'ladi"[7]. Avvaliga kuchli "Asabiya"ga ega qabila jamoalari yangi davlatlar tuzadilar, hokimiyatga erishadilar va sivilizatsiyalar quradilar. Biroq vaqt o'tishi bilan urbanizatsiya va hashamatga intilish "Asabiyya"ni zaiflashtiradi, bu esa tanazzulga va oxir-oqibat halokatga olib keladi. Bu sikl takrorlanadi, eski jamiyatlar tanazzulga uchragan sari yangi jamiyatlar paydo bo'ladi.

5 Ибн Халдун. Тошкент., "Trust and support" нашриёти, 2024.-39-40 бетлар.
6 Ибн Халдун. Тошкент., "Trust and support" нашриёти, 2024.-Б.46.
7 Ибн Халдун. Тошкент., "Trust and support" нашриёти, 2024.-Б. 29

Bugungi kunda jamiyatlar siyosiy beqarorlik, iqtisodiy inqirozlar va ijtimoiy tarqoqlik bilan kurashayotgan bir paytda Ibn Xaldunning fikrlari har qachongidan ham dolzarbligicha qolmoqda.

Asarning uchinchi qismida nazariy g‘oyalari real hayot misollarida qanday ildiz otganini ko‘rsatadi va siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’sirini ta’kidlaydi. Ibn Xaldun sivilizatsiyalar taqdirini shakllantirishda madaniyat, din va yetakchilik rolini ham muhokama qiladi, turli sulolalarning, jumladan, Umaviylar, Abbosiylar, Mamluklarning yuksalishi va tanazzulini ko‘rib chiqadi va bu imperiyalarning shakllanishi va parchalanishida “Asabiyya” qanday rol o‘ynaganini ko‘rsatadi. Abbosiylar xalifaligining qulashini “Asabiyya”ning tanazzulga uchrashi bilan bog‘lash mumkin. Ilk abbosiy hukmdorlari arab va fors askarlarining birligi va harbiy qudratiga tayangan bo‘lsa, keyingi hukmdorlar saroydagi dabdabalarga berilib, saljuqiylar va mo‘g‘ullarga hukmronlik qilishlariga imkon yaratdilar.

Ibn Xaldun ko‘pgina o‘rta asr tarixchilaridan farqli o‘laroq, sivilizatsiyalarning iqtisodiy asoslarini alohida ta’kidlagan. Uning fikricha, mehnat, ishlab chiqarish va savdo jamiyatning kuchini belgilaydi. U, shuningdek, soliq siyosatiga to‘xtalib, haddan tashqari soliqqa tortish iqtisodiy tanazzulga va isyonga olib kelishini ta’kidladi, bu tushuncha zamonaviy iqtisodiy nazariyalarni oldindan belgilab beradi. Ibn Xaldun sivilizatsiyaning tanazzuliga olib keladigan bir qancha omillarni aniqladi:

Ma’naviy va siyosiy korrupsiya – rahbarlar boshqaruvdan ko‘ra shaxsiy hashamat bilan mashg‘ul bo‘lishadi.

Asabiyani yo‘qotish – jamiyat parchalanib, ijtimoiy tartibsizliklarga olib keladi.

Iqtisodiy noto‘g‘ri boshqaruv – yuqori soliq va o‘ylamasdan sarf-xarajatlar davlat hokimiyatini zaiflashtiradi.

Tashqi kuchlarga qaramlik – xorijiy yollanma askarlarni yollash va tashqi savdo tarmoqlariga tayanish beqarorlikka olib keladi.

Bu tushunchalar Rim, Abbosiylar va Usmonlilar kabi buyuk imperiyalarning tanazzulini tushuntirishga yordam beradi.

Xulosa qilganda, tarixiy sabablarni ijtimoiy-siyosiy dinamika bilan birlashtirib, Ibn Xaldun davlat shakllanishi, iqtisodiy tarix va ijtimoiy o‘zgarishlar falsafasi bo‘yicha zamonaviy munozaralarni davom ettiruvchi tahliliy asosni taqdim etdi. Uning fikrlari nafaqat islom intellektual an’analari doirasidagi an’anaviy tarixshunoslikka qarshi chiqdi, balki musulmon dunyosi va G‘arbdagi keyingi tarixchilarga ham ta’sir ko‘rsatdi.

ALISHER NAVOIY TAFAKKURIDA ORIFLIK VA IRFON ILMI RIVOJINING MUHIM GUMANISTIK JIHATLARI TALQINI

Mo'min Hoshimxonov – f.f va p.f.d.,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada o'zbek shoiri va mutafakkiri, she'riyat mulkining sultoni, daho, turkiy tillar asoschisi Alisher Navoiy tafakkurida oriflik va irfon ilmi rivojining muhim gumanistik jihatlari talqini falsafiy tahlil qilingan.*

Аннотация: *В данной научной статье философски анализируется интерпретация важных гуманистических аспектов развития арифизма и мистицизма в творчестве узбекского поэта и мыслителя, султана поэзии, гения и основоположника тюркских языков Алишера Навои.*

Abstract: *In this scientific article, the aristocratic, irfanic, and socio-humanistic, philosophical views of Alisher Navoi, the sultan of the poetic class, the founder of the state language, the courageous fighter for the wealth of our language, the thinker, the genius, the beggar of poetry, are analyzed.*

Kalit so'zlar: *g'azal, meros, oriflik, rindona, qit'a, ma'rifiy, javhar, tasavvuf, mushohada, ma'rifat, anglash, ilohiy, quyosh, komillik, vasl, Xoja Ahror, Jomiy, Navoiy, Bobur, koshifiy, nigohbon, alloma, tariqat, faqir, najot, bayt.*

Ключевые слова: *газель, наследие, арифизм, риндана, стихотворение, образовательный, драгоценный камень, суфизм, наблюдение, просветление, понимание, божественный, солнце, совершенство, связь, Ходжа Ахрар, Джами, Навои, Бабур, Кашифи, назибан, ученый, секта, бедный, спасение, стих.*

Keywords: *ghazal, heritage, science, rindona, poem, educational, valuable, sufism, idea, enlightenment, understanding, divine, sun, perfection, qualification, Khoja Ahror, Jami, Navoi, Babur, Koshifi, nigohban, scientist, sect, poverty, salvation, verse.*

Alisher Navoiy she'riy merosida g'azallar doimo birinchi o'rinda turgan, Shoir o'z g'azallarini g'oyaviy – mavzu jihatdan shartli ravishda uch qismga bo'lgan: 1. Oshiqona g'azallar. 2. Rindona g'azallar. 3. Orifona g'azallar.

Navoiy Amir Xisrav Dehlaviyni oshiqona g'azallarning, hofiz Sheroziyni rindona g'azallarning, Abdurahmon Jomiyni esa orifona g'azallarning buyuk ustalari deb hisoblagan va ularni o'ziga ustoz deb bilgan. Navoiy "G'azalda uch kishi" deb boshlangan qit'asida Amir Xisrav Dehlaviyni "Sohiri hind" deb atab, uning she'rlarn "ishq ahlini o'rtar" desa, Hofizni "Iso nafasli rind", ya'ni nafasi o'liklarni ham tiriltira oladigan rind-shoir deb, Jomiyni esa ("Qudsi asarlik") "orifi Jom" pok ta'sirli deb ta'riflaydi. Demak, g'azalchilikni bu xil mavzu doirasida bo'lish, g'azal yozishda shu xil mavzuda yo'nalishlarga rioya qilish Navoiyda an'anaviy rasmga ega bo'lgan[1].

Alisher Navoiy she'riyati – ma'rifiy she'riyat. Shoir she'riyatining yuksakligini belgilovchi g'oya aynan uning ma'rifatidir. Aytish mumkinki, ma'rifat ulug' shoir she'riyatining javhari. Bu javhar mohiyati esa lirik qahramon – orif mushohadalari orqali o'quvchiga etkaziladi. Orif arabcha so'z bo'lib, "irfon sohibi" demak. Tasavvufga oid lug'atlarda izohlanishicha, "orif bilguvchi, voqif, oshno, taniguvchi, anglaydigan, tushunchalarini ifodalovchi mukammal irfon sohibi. Alloh taoloning zotini, sifatlarini, ismlarini mushohada ettirgan kishi orifdir. Olimga o'xshab bilguvchi ma'noda kelsa- da, orif olimdan farq qiladi. Olim ilmiy tahsil va intilish bilan maqsadga etsa, orif ma'rifatni ilhom va hol orqali qo'lga kiritadi. Allohni hol va mushohada yo'li bilan anglash orifning xos xususiyatdir". Alisher Navoiyning g'azallaridagi lirik qahramon

1 Ҳайитметов Абдуқодир. Навоийхонлик суҳбатлари. – Тошкент. Ўқитувчи. 1993. – Б.135-136.

– orif aynan ishq qudrati, xalq taslimiyati, ruh himmati, sir sukunatidan saboq beruvchi, o‘z va o‘zlik xususida mushohada yurituvchi komil shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Buni Alisher Navoiyning “Badoe ul-bidoya” devonidan o‘rin olgan bir g‘azal sharhi misolida ko‘rib o‘tamiz:

Boda bu maqbulluq zotimda mavjud ayladi,

Ki meni zuhd-u riyo ahlig‘a mardud ayladi[2].

Irfon tasavvufdagi bilish ilmidir. Irfon ilmining mazmuni aks etgan adabiyotlarda irfonga berilgan ikkita bir xil ta’rif uchramasa ham. umumiy shaklda mazmunan va mohiyatan identifik tushuntirilgan.

Irfon musulmon Sharqi falsafiy tafakkuri bilan bevosita bog‘lik bo‘lib, nomusulmon Sharq falsafasida irfon yo‘q.

Sharq mutafakkirlarining falsafiy-tasavvufiy qarashlarini zamonaviy fikrlar asosida tadqiq etish orqali tasavvuf Movarounnahrning ijtimoiy-madaniy, ma’naviy-ma’rifiy yuksalishida muhim komponent bo‘lgani anglashildi. Shu sababga ko‘ra, asosiy e’tibor irfonning Sharq falsafiy tafakkuri rivojidagi o‘rni masalasiga qaratildi[3].

Irfon, bir tarafdan, diniy bilimlarni mujassam etsa, ikkinchi tarafdan, dinning mohiyatini ifodalaydi. Tafakkur bilan anglab bo‘lmaydigan (irratsional), qalb, uchinchi ko‘z, botiniy hol orqali hosil bo‘ladigan bilimlar ilohiy voqelik (Alloh) bilan bevosita aloqada bo‘lish, Allohni Uning ilmi bilan bilish va Uning ma’rifati bilan anglashning ifodasi bo‘lib, ruhiy-ma’naviy poklikni talab etadigan jarayondir. Abdulqodir Giyloniy irfonning mohiyatini Qur’on oyatlari bilan hamohang ta’vil qilgan: “Irfon ... ma’rifat tuyg‘usi, bu tuyg‘u sening botiniy olamingni qurshagan samodirki, undan chiqajak bir emas, bir necha quyosh bor. Yo‘l yorug‘ bo‘lishi uchun ma’rifat samosida quyosh tug‘ilishi lozim. Buning uchun esa holingni kamolga yetkazishing darkor. “... Bugun sizlarga diningizni komil qildim” oyati karimasi ila tasbit etilgandir”.

Irfon diniy-falsafiy tushuncha sifatida orifning zavq-u shavq, shuhud (Haqni qalb ko‘zi bilan ko‘rish, Haqni Haq bilan ko‘rish) vositasida Alloh va Uning mohiyatini his etishidir. Irfon orifning “ilohiy vasl Haq” bo‘lgan ishtiyoqi, Alloh bilan vositasiz bog‘lanish usulidirki, A.Bergson bunday bog‘lanishning introvertligi. O‘z-o‘zini integratsiyalashi, dialektikasi, yangilanishini, ya’ni dinamik harakatini e’tirof etgan[4].

Hazrati Xoja Ahror Valining jamiyat hayotida qanchalik nufuzga ega ekani XV asrda bayon etilgan. Bu jihatdan Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, mavlono Abdulavval, mavlono Muhammad Qozi, Husayn Voiz Koshifiy kabi mumtoz ijodkorlar asarlarini eslash kifoya. Masalan, Alisher Navoiy hazrati Xoja Ahror Vali hayotligida, ya’ni 1483-yilda yozgan “Hayrat ul-abror” dostonida bu ulug‘ zotga alohida hurmat bildirib, ul zotni “murshidi ofoq”, “olam elig‘a rahnamo”, “jahon mulki nigohboni”, “barcha salotin uza sulton”, “jahon mazraini dehqoni” kabi ta’riflar bilan tilga olgan edi. Ta’kidlash joizki, bu sifatlarning barchasi Xoja Ahror Valining ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotga tutgan o‘rni va ahamiyatiga munosib edi.

Ma’lumki, Xoja Ubaydulloh hazratlari naqshbandiya tariqatining piri komili sifatida e’tirof etilgan. Ya’ni, Xoja Ahror tutgan yo‘l shayx, mullo va zohidlar turmush tarzi va faoliyatidan tubdan farq qilgan. Alisher Navoiy masalaning bu jihatiga alohida urg‘u berib, quyidagi satrlarni yozganlar: Hazrat faoliyatining asosiy xususiyati jamiyat turmushi bilan chambarchas bog‘langanida edi. Binobarin,

2 Бозорова Насиба. Орифона ғазалларда лирик қаҳрамон. Алишер Навоий ва XXIаср. Республика илмий – назарий анжумани. Тошкент, 2018 йил, 8 февраль. – Б. 303.

3 Шодиев Р. Баҳриева Д Суфизм в духовной жизни народов Мавераннахра (X-XII вв). – Самарканд. 2018. – С.3.

4 Исақова Замирахон. Ирфон ва унинг Шарқ фалсафий тафаккури ривожидаги ўрни (X-XIIIасрлар). Фалсафа фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Самарқанд. 2022. – Б. 15-16.

"go'shai xilvat" qilmoq ul zotga xos bo'lmagan. Xoja Ahror faoliyatining o'sha davrdagi temuriyzodalar hamda mashhur alloma-yu mutafakkirlar tomonidan e'tirof etilgan o'ziga xos jihati shundan iborat ediki, bu ulug' siymo naqshbandiya tariqatining "Dil – ba yoru dast – ba kor" shiorini ham ma'naviy, ham moddiy hayot manfaatlarini ifoda etadigan dasturilamalga aylantirdi. Boshqacha aytganda, bu tariqat sohibi Alloh taoloni doimo esda tutgan holda, el-yurt obodligi, tinchligi, farovonligi, hamjihatligi, muhtojlarga mehr-u muruvvat ko'rsatish, fuqarolarning og'irini yengil qilish, adolatning ustuvor bo'lishiga asosiy e'tiborni qaratdi.

Allomaning Alisher Navoiyga yozgan maktublarida ham bu masalalar asosiy o'rin tutadi. Hazrati Xoja Ahror Vali bir xatida, jumladan, bunday yozadilar: "Turli voqealar sizni ranjitgani sababli sizda ba'zan ul hazrat (podshoh Husayn Boyqaro) xizmatidan bezish kayfiyati sezilar ekan, deb eshitamiz. Iltimosimiz shulki, musulmonlarga madad etkazishni o'ylab, ul hazratdan uzoqlashish fikrini xotiringizga keltirmasangiz, toki sizning ko'magingizda bir faqirning xotiri qayg'udan najot topib, uning ko'nglida xursandchilik paydo bo'lar, degan umiddamiz. Shuning bilan birga, notinch zamonda uning ko'ngli ochilgay va kayfiyati ko'tarilib, shu munosabat bilan Alloh taologa bo'lgan e'tiqodi ham ortadi... musulmonlar manfaatini ko'zlash eng olijanob faoliyatdir. Vassalom. Al – faqir Ubaydulloh"[5].

Orifona g'azallar yoki baytlar deganda biz Navoiyning qanday g'azal va baytlarni tushunishimiz kerak? Navoiyning o'z uqtirishlaridan, «orifona» terminining mazmunidan va nihoyat, shoir she'rlarini bir-biriga mavzu bo'yicha qiyoslashdan kelib chiqib, uning devonlaridagi falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va nasihatomuz g'azal va baytlarni shu ma'noda deyish mumkin. Bu xil g'azal va baytlar an'anaviy mavzu va obrazlar bilan kam bog'langan yoki bog'lanmagan bo'lib, shoir yashab ijod qilgan davr haqida, o'sha davrning dolzarb hayotiy masalalari haqida bizda to'g'ri tasavvur paydo qiladi. Shuning uchun ham bu doiraga mansub g'azal va baytlarni sinchiklab o'rganish navoiyshunoslikda alohida ahamiyatga ega. Navoiy bu xil g'azal va baytlari orqali kitobxonni hayot haqidagi yangi fikr va bilimlar bilan boyitadi, turmush haqida chuqur mulohaza yuritishga o'rgatadi. "Navodir ush-shabob"dagi bir g'azal shunday baytlar bilan boshlanadi:

Do'stlar, olam eliga yoru hamdam bo'lmangiz,

Yor ila hamdam demakim, oshno ham bo'lmangiz.

Oshnolig' aylabon o'z joningizga har zamon,

Boisi yuz ming balo-yu mehnat-u g'am bo'lmangiz[6]...

She'rda Navoiy o'z hayotidan xulosa chiqarib, boshqalarni yomonlardan, turli nopokliklardan ogohlantirmoqchi. Bu g'azalda ishqiy baytlar ham bor. Lekin shoirning bu g'azalni yozishdan asosiy maqsadi hayot haqida mulohaza yuritish, odamlarga bu sohada o'git berishdir. Shuning uchun bu xil g'azallarni orifona deb atash to'g'ri bo'ladi. Navoiyning bu g'azaliga o'z zamonidagi mehrsizlik, g'ayriinsoniy munosabatlardan bezib yozgan quyidagi g'azali ham har tomonlama hamohangdir:

Do'stlar, ahli zamondin mehr umidi tutmangiz,

Mehri gardun bo'lsalar, ko'z nuridin yorutmangiz.

Gar shah o'lsun, gar gadokim, solmangiz yuziga ko'z,

Yodini balkim ko'ngulga har taraf yovutmangiz.

Zulm ila yuz chok qilg'on tang'a gar marham

5 Валихўжаев Б. Тариқат аҳлининг пири комили. Тафаккур 2004/3. – Б. 80.

6 Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 4- том. – Б. 155-156.

yoqib,

Butkarurbiz desalar, ul zaxmlarni butmangiz.

El jafosining maloli qilsa har ham qasdi jon,

Ko‘nglungizni g‘ayri bekaslik bilan ovutmangiz[7].

Bu satrlarda qanchadan-qancha g‘am, alam, o‘pka-gina va norozilik yashirinib yotibdi! Bu xil she’rlarni o‘qib shoirning hayoti turli dramatizmlar bilan to‘la bo‘lganiga ishonch hosil qilasiz[8].

Navoiyning fikricha, shohning hech qachon g‘amgin, ahvoli parishon kishilar bilan ishi bo‘lmagan. Aytgani aytgan, degani degan boylar ham hech va baxtsizlik girdobida qiynalib yotganlar bilan ulfatchilik qilmaydi. Qilichidan qon tomgan amaldorlar bir tomonda, bag‘ridan qon tomgan bechoralar bir tomonda, ular hech qachon bir-birlariga hamjins bo‘la olmaydilar. Chunki visol qadahidan sharbat ichganlar ayriliq jomidan zahar totayotganlarning g‘amini ermidi? Zamonaning zulmi tufayli bosh yalang erda yiqilib yotganlardan boshini osmonga etgan deb his etuvchi tojdorlar xabar olarmidilar? Hayqirig‘i ko‘kka chirmashgan arslon ham oyog‘i ostida ezilib o‘lgan chumoli ahvolidan voqif emas. Bu o‘rinda ulug‘ shoirning butun husni rag‘bati o‘z davridagi ezilganlar va xo‘rlanganlar tomonida ekani har baytdan ravshan ko‘rinib turibdi.

Navoiyning hayot haqidagi fikr va mulohazalari uning turmush tajribalari, bilimlari ortgan sari quyuqlasha borgan va bu hol uning orifona g‘azallarining g‘oyaviy-badiiy yuksak cho‘qqilarga ko‘tarilishiga olib kelgan. Shoirning diqqat markazida esa doim hayotning nosozligi, insonlarning nokomilligi masalasi turgan. Bu to‘g‘rida u o‘ylashdan, fikrlashdan, yozishdan tolmagan. Uning orifona g‘azallari son jihatidan oshiqona g‘azallaridan keyinda tursa ham, ahamiyati tomonidan birinchi o‘rinni egallaydi. Ularning har biri adabiyotimizning faxri bo‘lib, biz ularni atroflicha o‘rganish va tekshirishda davom etishimiz kerak[9].

Nuh payg‘ambar 950 yil da’vat qilganida qavmidan bor-yo‘g‘i sakson kishi musulmon bo‘ldi, iymon keltirdi – yarmi er, yarmi ayol. Boshqa hech kishi musulmon bo‘lmadi. Hatto xotini ham kofir edi. Kun sayin mashaqqati ziyoda bo‘ldi...

Dunyo suvga g‘arq bo‘lishidan oldin kema tayyor bo‘ldi. Nuh payg‘ambar yasagan kemasi tarixda Nuh kemasi nomi bilan mashhur. Bu kema insoniyatni suv to‘fonidan qutqargan. Sharq mumtoz she’riyatida tashbeh, talmeh, mubolag‘a, tamsil, laff va nashr, tazod, istiora, iyhom, ishtiqoq kabi san’atlar vositasida Nuh va to‘fon voqeasiga ko‘p murojaat qilinadi. Alisher Navoiy ham o‘z badiiy maqsadini go‘zal va ta’sirchan amalga oshirish maqsadida ko‘p o‘rinlarda bu voqeaga ishora qilgan. Chunonchi, “Navodir ush-shabob”dagi “aro” radifli g‘azalda ham ayni fikr ifodalanadi:

Har necha to‘foni isyonim chekar gardung‘a mavj,

Kimsaga Nuh o‘lsa kishtibon ne g‘am to‘fon aro.

“Isyonim to‘foni har qancha falakka yuksalsa-da, kishiga bu hayot to‘foni aro Nuhning o‘zi darga bo‘lsa, g‘am yo‘q”.

Farqi shundaki, bu erda isyon to‘foni chog‘ida Alloh payg‘ambarining qo‘llashidan umidvorlik haqida so‘z boradi va keyingi baytda ayni fikr davom ettiriladi:

Ul habibingni shafe’im qilki, bo‘lg‘ay yuz tuman

Nuh muhtoji aning bu bahri bepoyon aro.

7 Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 4- том. – Б. 155.
8 Ҳайитметов Абдуқодир. Навоийхонлик суҳбатлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – Б.139.
9 Ҳайитметов Абдуқодир. Навоийхонлик суҳбатлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – Б.140-141.

"Ey Xudo, habibing – do'sting Muhammadni mening shafoatxohim qilki, bu bepoyon hayot otlig' ummonda yuz minglab Nuh ham uning muhtoji bo'ladi". Ma'lumki, Muhammad alayhissalom mahshar kuni Alloh taolodan o'z ummatlarining gunohini so'rab oladilar. Boyazid Bistomiydek oriflar sultoni darajasidagi ulug' piri komillar, qanchadan-qancha taqvodor so'fiylar ham iymon butligidan xavfsiragani ma'lum. Shunday ekan, barcha ham shafoat qilinuvchi ummat ahdidan bo'lishni istaydi. Jumladan, Navoiy ham Alloh taologa iltijo qilib, sevikli payg'ambarini o'zining shafoatxohi bo'lishini so'rayapti.

Ma'lum bo'ladiki, Nuh alayhissalom olamni tark etgan buyuk to'fon balosidan bani basharni saqlab qolgan. Shuning uchun uni ikkinchi Odam ham deyishadi, ya'ni Odam Ato – odamzodning otasi, yer yuzida inson avlodi undan tarqalgan bo'lsa, Nuh – insoniyatni halokatdan asrab, unga ikkinchi hayot baxsh etgan. Shuning uchun Navoiy, men agar ikkinchi Odam bo'lmasam, nega ko'z yoshim boshdan-oyoq jahonni tutdi, deydi:

Navoiyo, agar ikkinchi Odam ermasmen,

Nedin jahon yuzini tutti sarbasar yoshim[10].

Irfon ilmining Sharq falsafiy tafakkuri rivojidagi o'rni quyidagi omillarda teran aks etgan: birinchidan, irfon dunyoviy va ilohiy ilm, shariat, tariqat ilmi bilan birga, din va falsafa, kalom va hadis, hikmat va tavhidga oid ilmlarni birlashtirgan. Ikkinchidan, irfon ma'rifatni axloqiy poklanish, riyozat bilan bog'lagan. Irfon ratsional va irratsional bilish usullarini qo'shib, aql va qalbning dialektik aloqadorligini ko'rsatgan. Inson zohiran va botinan poklanib, axloqiy yuksalgan, ezgu fazilat egasi bo'lib, ilm-ma'rifat va ruhiy-ma'naviy kamolotga erishgan. Bu jihat Abu Nasr Forobiyning "Axloqiy fazilat egasi bo'lmay turib, ma'rifat va bilim egasi bo'lish mumkin emas" degan qarashlari bilan hamohangdir. Uchinchidan, irfon Sharq xalqlarining tafakkur Allohni va insonni anglash bo'lib, insonning yashashdan maqsadi o'zligini anglash va Yaratuvchisini tanishda mujassamdir[11].

Ayni paytda Navoiyning komil inson konsepsiyasi bir qadar o'ziga xosliklarga ham ega.

Navoiyning komil inson to'g'risidagi ta'limotining asosiy aspektlari quyidagilar: avvalo, komillik, Navoiy fikricha, insonning insonlik tabiati, imkoniyati va ma'naviyati chegaralaridagi komillik bo'lib, buning oliy bosqichi Alloh taolo mohiyati o'z vujudida mavjud bo'lganligi uchun Alloh taolo mukammalligi, jilosi, ziyosini yaraqlagan oynadek aks ettira olishi, uni tuyishi va buni tan olishidir.

Biroq Navoiy fikricha inson zotidan faqat juda nodirlarigina ana shu Alloh taolo nurini yaraqlatib aks ettirishga dosh bera oladi, chiday oladi. Ko'pincha insonlar bu darajaga erishgach yo o'zlarini yo'qotib, mahv bo'ladilar, yo bo'lmasa kibrlanish, behad da'volarga o'tadilar. (Mansur Halloj kabi oriflar ana shunday da'voga yo'l qo'yganlar).

Holbuki, dengiz tomchisi suvlar yig'indisi bo'lsa ham, tomchi hech vaqt dengiz bo'la olmaydi. Yaraqlagan oyna in'ikos bo'luvchini aniq, aynan o'zidek qilibaks ettirmasin, uning aslidek bo'la olmaganidek inson ham o'zini ilohiylashtirishi mumkin emas. Demak, insoniy kamolot inson borligi, zoti chegaralaridadir.

Ayni paytda insonning o'zi tabiiy mavjudligi doirasida o'z nafsi, ruhiyati, o'zligini bila borsagina – o'zligini bilish orqali Xudoni "bilish", "vasliga" muyassar bo'lishga etadi, go'yo sadaf sof gavharga (substan-siya-ilohiy vujudga) aylanadi. Bu so'zning ma'nosini Navoiyning quyidagi misralaridan ko'rish mumkin:

10 Ҳаққул Иброҳим. Очилов Эргаш. Ишқ ва ҳайрат олами. (мақолалар тўплами). – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – Б. 213-214-215.

11 Исақова Замирахон. Ирфон ва унинг Шарқ фалсафий тафаккури ривожидаги ўрни (X-XIIIасрлар). Фалсафа фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Самарқанд. 2022. – Б.27-28.

"Munda zohir bo'ldi sirri "min araf",

Kim, ko'rubtur gavhar o'lmog'lig sadaf"[12].

Nafsni, o'zlikni bilish yo'li ramziy imolar yo'li bo'lib, butun koinot, tabiat, mavjudot, insonni o'rab turgan borliq, ana shu ramz-ishoralardan iborat. Ana shu ramz, imo-ishoralar, qanchalik qiyin, mashaqqatli, tushunish qiyin bo'lmasin, riyozat chekish bilan ravshanlashadi[13].

Navoiy ishq tushunchasiga ilohiyotchi olimlarga xos yondashgan. Uning fikrlari buyuk xristian ilohiyotchisi Avgustin, yunon faylasuflaridan Plotin tomonidan aytilgan falsafiy mulohazalarga o'xshab ketadi. Tasavvuf nazariyasida ham shunday. Tasavvufda borliq, undagi moddiy va ruhoniy olam ishq orqali bir-biriga bog'lanadi. Orif, Ishq, Parvardigor uchburchagi. Orif – dono, ko'p narsani biluvchi, Navoiy ta'biri bilan aytganda, Ishq mohiyatini anglab etgan inson. Oshiq deysizmi, mahjur deysizmi, majnunmi yo mashrab deysizmi, yana o'nlab shunday ta'rifi orifga to'g'ri keladigan atamalarni sanab o'tish mumkin. Uchburchakning qaysi tarafidan qaramang, Parvardigor va orif o'rtasida Ishq turadi. Inson – ham oshiq ham ma'shuq. Parvardigorda oshiq ham ma'shuq bo'lishi mumkin. Zero, Parvardigor ham insonni sevadi. Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonida yozadi:

Yaqin anglasam, g'ayr bordur adam,

O'zing oshiqu ishqu ma'shuq ham.

Barcha go'zalliklarning, insoniy barkamollikning mazmunini Parvardigor belgilab bergan. Inson ruhi Haq tajalliysining bir zarrasi ekan, u hamma vaqt o'zining mabdasi (asl makoniga) qarab intiladi, ya'ni barkamol bo'lishga harakat qiladi. Orif Parvardigorga intilar ekan, moddiy olamning go'zalliklariga, ularning qanchalik komil qilib yaratilganiga loqayd qaray olmaydi. Ishq faqatgina go'zallik bilan oshno. Go'zallik- deydi Ibn al-Arabiy o'zining "Futuhot al Makkiya" asarida, – barcha narsalarda mujassam, shu sababli dunyo go'zal. Parvardigorning o'zi haqiqatda go'zal va go'zallikni sevadi, kimki go'zallikni sevsa, go'zalni (Allohni) kam sevadi, kimki go'zalni sevsa, dunyoni ham sevadi[14].

Alisher Navoiy tafakkurida oriflik va irfon ilmi rivojining muhiti gumanistik jihatlari talqini xususida xulosa qilinganda shuni ta'kidlash joizki, oriflik, dunyoni tanish, bilish, anglash va irfoniy fikrlash, jamiki ilmlarni egallash Navoiy falsafasining o'zagini tashkil etadi. Chunki mutafakkir shoir she'riyati xalqchil, orifona va irfoniy fikrlarga ega she'riyatdir.

12 Алишер Навоий. Лисон – ут – тайр. (Танқидий матн). – Т.: Фан, 1965. – Б. 188.

13 Юсупов Э.Ю. таҳрири остида. Фалсафа. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 118.

14 Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий ақидалари. (биринчи суҳбат) "Navoiy universiteti" нашриёт – матбаа уйи. 2018. – Б. 20-21.

NANOTEXNOLOGIYALAR SOHASIDAGI AXLOQIY VA ESTETIK MUAMMOLAR

Hayot Xaitovich Ashirmatov – f.f.b.f.d., dotsent,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bugungi kunda jamiyat hayotida tobora rivojlanib borishi kuzatilayotgan nanotexnologiya sohada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan axloqiy va estetik muammolar, ularni bartaraf etishning ijtimoiy-madaniy yo'llari haqida bahs yuritilgan.*

Аннотация: *В данной статъе рассматриваются этические и эстетические проблемы, которые могут возникнут в сфере нанотехнологий, и те которые сегодня все болше развиваются в жизни общества и социокулътурные пути их устранения.*

Abstract: This article discusses the ethical and aesthetic problems that may arise in the field of nanotechnology, which is increasingly developing in society today, and socio-cultural ways to overcome them.

Kalit so'zlar: nanotexnologiya, atom, molekulyar, postindustrial jamiyat, axborot texnologiyalari, superkompyuter, axloqiy va estetik muammolar.

Ключевые слова: нанотехнологии, атомное, молекулярное, постиндустриалъное общество, информационные технологии, суперкомпютер, этико-эстетические проблемы.

Keywords: nanotechnology, atomic, molecular, post-industrial society, information technology, supercomputer, ethical and aesthetic problems.

Insoniyat XXI asrda texnogen sivilizatsiya davrida yashayotgan ekan, insonning hayotini ko'rkamlashtirish, qulaylashtirish va go'zallashtirish uchun keng imkoniyatlar eshiklari ochildi. Bu esa har bir insondan o'zligini anglashni va unga murakkablikning mohiyatini to'g'ri anglatuvchi sinergetik tafakkur bergan imkoniyatlardan keng foydalanishni talab etadi.

Bu esa o'z navbatida nanotexnologiyalar sohasining rivojlanishi bilan yuzaga keladigan axloqiy va estetik muammolarning ham yetarli darajada ko'payishi kabi holatlarni yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda nanotexnologiya amaliyotda qo'llash uchun katta imkoniyatlarga ega bo'lgan eng tez rivojlanayotgan va istiqbolli innovatsion texnologiya hisoblanadi. "Mamlakatimiz va jamiyatimizning zamon talablari darajasida rivojlanishini ilm-fansiz tasavvur qilish qiyin. Ilm-fan taraqqiyotida fundamental tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan ular orqali yangi bilimlar o'zlashtiriladi va nazariyalar shakllantiriladi, kelgusi amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalar uchun mustahkam asos yaratiladi"[1]. Biroq har qanday yangi texnologiyalar singari, ular axloqiy masalalarni yuzaga keltiradi va ularning potensial foydalari va xavf-xatarlari, shuningdek, inson ekologiyasi uchun oqibatlari tobora ko'proq ilmiy va jamoatchilik muhokamasiga sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, turli mutaxassisliklar va ijtimoiy guruhlar vakillari nanotexnologiyalardan foydalanishning iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy oqibatlarini turlicha baholaydilar va ularni amalga oshirish bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun turli yondashuv va vositalarni taklif qiladilar. Rivojlanayotgan mamlakatlarda nanotexnologiya

1 Mirziyoyev Sh.M. Ilm-fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omili. 2016-yil 30-dekabr kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi akademik va professorlari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvdagi ma'ruzasi. –T.: 2016.

odamlar hayotini yaxshilashga va ko‘plab muammolarni hal qilishga katta hissa qo‘shishi mumkin bo‘lsa-da, nanotexnologiyalardan amaliy foydalanish shakllarini aniqlashtirish va nanotexnologiya maqsadlarini belgilashda qat’iy axloqiy yondashuv talab qilinishi aniq[2].

Nanotexnologiyalar sohasining rivojlanishi natijasida jamiyatning estetik va axloqiy jihatlariga ta’siri tahlili o‘tkaziladi. Buning natijasida nanotexnologik jamiyatning asosiy ilmiy muammolari, jumladan axloqiy va estetik muammolari ko‘rsatib o‘tiladi. “Ta’lim va ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, ta’limning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohasidagi ishlar ahvoli tanqidiy tahlil qilib berilgan edi”[3].

Insoniyat tarixi davomida olimlar inson va uning madaniyatining moddiy farovonlik darajasini oshirish, ya’ni mohiyatan ijtimoiy borliqni rivojlangan, uyg‘un, mukammal va yanada chiroyliroq bo‘lishini ta’minlashga yordam berish uchun tabiat, jamiyat va inson sirlarini tushunishga intilishgan. Bu esa ilmiy va ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning estetik texnologiyasidir.

XX asrning ikkinchi yarmi yangi ilmiy va texnologik yutuq – insoniyat uchun katta istiqbolli imkoniyatlarni yuzaga chiqarishga qodir bo‘lgan nanotexnologiyalar sohasining rivojlanishi bilan ajralib turadi.

Nanotexnologiyalarning mohiyati noorganik asosda molekulyar mashinalarning paydo bo‘lishidan iborat bo‘lib, bu bizning moddiy ne’matlarni ishlab chiqarish usulini ilgari ko‘rilmagan va tarixan misli ko‘rilmagan miqyosda inqilobiy hodisalarni vujudga keltiradi.

“Nanotexnologiya” atamasi yapon professori Norio Taniguchi tomonidan 1974-yilda Tokioda bo‘lib o‘tgan nozik muhandislik bo‘yicha xalqaro konferensiyada “Nanotexnologiyaning asosiy tamoyillari” ma’ruzasida kiritilgan. Hozirgi vaqtda nanotexnologiya texnologik jarayonlar va bir necha nanometrli shkalada o‘ta aniq operatsiyalarni bajarishga qodir bo‘lgan mashina va mexanizmlar tizimi sifatida qaraladi.

Insonning nano-qobiliyatlari insonni ko‘plab moddiy qadriyatlarni qayta ko‘rib chiqishga olib keladi va insonning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ko‘pgina tadqiqotchilarning prognozlariga ko‘ra, “nanotexnologiyaning rivojlanishi XX asrning shaklini belgilaydi, xuddi atom energiyasining kashfiyoti, lazer va tranzistorning ixtirosi XX asr shaklini belgilab bergani kabi”[4].

Atomlar va molekulalarning xatti-harakatlarini tasvirlaydigan kvant mexanikasi qonunlarining dunyoga kirib borishi inson ongining mavjudligi bilan mutanosib ravishda makrodunyoga kirib, muhim texnologik yutuqqa aylanadi. Nanotexnologiyaning paydo bo‘lishi uning inson faoliyati va ijtimoiy-madaniy voqelikning barcha sohalariga kirib borish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Nanotexnologiya tirik va jonsiz chegarada joylashgan bo‘lib, u barcha ijtimoiy-madaniy tizimlarning asosiy asosi sifatida inson hayotining yakuniy usuli – o‘limga yangi munosabatni belgilaydi. Nanosuperkompyuterlarni yaratish va idrok etilayotgan voqelikning tabiiy komponentini qayta tiklash imkoniyati inson ongi va texnologik

2 Нанотехнологии и этика. Политика и направления деятельности. – Париж, Отдел науки и технологии, Сектор социальных и гуманитарных наук ЮНЕСКО, 2008. – 16 с.

3 Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017-yil 14-yanvar. — Toshkent: O‘zbekiston, 2017. — 44 b.

4 Алферов Ж.И., Копьев П.С., Сурис Р.А., Асеев А.Л., Панов В.И., Полторацкий Э.А., Сибельдин Н.Н. Наноматериалы и нанотехнологии // Нано- и микросистемная техника: от исследований к разработке: сб. статей / Под ред. д-ра тех. наук, проф. П.П. Мальцева. – М., 2005. – С. 19.

jihatdan qurilgan hissiy mavjudlik o'rtasida yangi munosabatlarni o'rnatadi.

Nanotexnologiyalarni joriy etishning madaniy va ijtimoiy-estetik jihatlari axloqiy muammolar va odamlarning turmush tarzini o'zgartirishning mumkin bo'lgan oqibatlari bilan bog'liq. Zamonaviy insonning dunyoqarashi o'zgartiradi. Ijtimoiy-madaniy muhitning o'zi esa yangicha shakllangan texnik xususiyatga ega bo'ladi.

Nanotexnologiyalar rivojlanishining ijtimoiy oqibatlarini tahlil qilish ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan sohalardagi o'zgarishlarni ko'rsatadi, bu esa kelajak jamiyatining konturlarini va postindustrial jamiyatda inson mavjudligi muammolari bilan bog'liqligini aniqlash imkonini beradi. Texnologiyalar zamonaviy insonning dunyoqarashiga ta'sir qiladi, chunki ular tufayli materiya, energiya va materiyaning mavjudligi shakllari haqidagi amaliy g'oyalarimiz to'ldiriladi.

Nanotexnologik jamiyatning estetik jihatlari quyidagi ilmiy muammolardan iborat: ijtimoiy hayot qanchalik uyg'un bo'ladi, sinfiy tabaqalanish saqlanib qoladimi, qashshoqlik, madaniyatsizlik va ma'naviyatsizlik saqlanib qoladimi? Ma'lumki, hech bir texnik ixtiro o'z-o'zidan ijtimoiy adolatsizlikni, odamlarning qonunlarga rioya qilish muammosini, terrorizm va urushlar muammosini bartaraf eta olmaydi. Bu masalalarning barchasi faqat xalqlarning insonparvarlik irodasi bilan hal etiladi.

Bugun sanoat va qishloq xo'jaligida, ishlab chiqarishda xom-ashyoning me'yordan ortiq ishlatilishi ishlab chiqarish jarayonidan hosil bo'layotgan chiqindi, tutun, gazdan ifloslanish tabiatga ta'sir etayotgani barchaga ma'lum. Dehqonchilikda kimyoviy moddalarning ko'p miqdorda ishlatilishi, oqar suvlardan nooqilona foydalanish, erosti boyliklarining intensiv ravishda qazib olinishi va boshqa hududlarga olib ketilishi, sanoatda eski texnologiyaning saqlanib qolayotgani hamda tarnsport vositalarining atrof-muhitga yetkazayotgan zarari, tabiatga texnikaviy ta'sirning ortib borayotgani global ekologik inqirozlarni keltirib chiqarayotgani asosiy sabablardir.

Bugun tabiatga texnikaning ta'siri shu qadar oshib ketganki, u Yer yuzida sodir bo'layotgan geologik kuchlarga tenglashtirilmoqda. Agar olti ming yil avval inson tabiatga toshbolta, tayoq, yog'och omoch kabi sodda uskunalar bilan yondashgan bo'lsa, bugun u juda qudratli ishlab chiqarish qurollari – murakkab mashinalar o'n ikki plugli traktor, birvarakayiga besh-o'n besh tonna tog' jinslarini oluvchi kovshga ega ekskavatorlar, bir necha ming ot kuchiga ega buldozer va shunga o'xshagan qudratli texnika bilan ta'sir etmoqda. Mazkur vositalar inson mehnatini engillashtirmoqda, samaradorligini oshirmoqda, ammo Yer yuzida bir qator muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

Ayniqsa, biosferaning zaiflashayotgani, bir qator o'simlik va jonivorlarning yo'q bo'lib ketishi, atmosfera, suv havzalari va tuproqning buzilayotgani, zaminimiz qiyofasining o'zgarayotgani ziddiyatlar, to'qnashuvlar, ma'naviy inqirozlarda namoyon bo'lmoqda.

Ayrim G'arb mamlakatlarida nanomateriallarning atrof-muhit, inson salomatligiga zarari xususida turli fikrlar, qarashlar paydo bo'la boshladi. Hatto ayrim manbalarda nanotexnologiya XXI asrda insoniyatni kutilmagan vaziyatlarga duchor etishi mumkinligi ta'kidlanmoqda. Gap shundaki, keng foydalanishga kirishilgan nanomateriallarning, mittigina nanoqismlari hali etarlicha o'rganilmagani insoniyatni og'ir ahvolga solib qo'yishi ham mumkin. Bir vaqtlar tinchlik o'rnatish niqobi ostida inson aqlu-zakovatining yuksak mahsuli bo'lgan atom yaratilgan edi. Bugun esa u Yer yuzini nina ustiga o'tqazib qo'yishga qodir eng xavfli qurolga aylandi. Biz hammamiz yaxshi ko'radigan avtomobillar ommaviy harakat vositasiga aylanib, inson og'irini engil qildi-yu, lekin atrof-muhitni

ifloslantirib, unga global miqyosda ekologik xavf sola boshladi.

Ilmiy-texnika taraqqiyotining yana bir ijtimoiy-estetik muammosi – davlat mexanizmining takomillashganlik darajasi, ya'ni jamiyat fuqarolarning hammasi bo'lmasa ham, hech bo'lmaganda ko'pchilikning manfaatlarini qay darajada e'tiborga olishi masalasidir. Nanotexnologik rivojlanishning ijtimoiy-estetik jihati esa nanotexnologik jamiyat qanchalik ajoyib bo'lishi, boshqacha aytganda, bunday jamiyatda har bir inson qanchalik qulay, intellektual, axloqiy va estetik yashashi muammosidir.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan, juda muhim savol ham bor. Nanotexnologiyalar dunyodagi ekologik vaziyatni ham yaxshilashi mumkin. Inson faoliyatining atrof-muhitga zararli ta'sirini to'liq bartaraf etish: birinchidan, ekosferani inson chiqindilarini xom ashyoga aylantiradigan molekulyar robot hamshiralar bilan to'ldirish, ikkinchidan, sanoat va qishloq xo'jaligini chiqindisiz nanotexnologik usullarga o'tkazish. Ammo nanotexnologik ishlab chiqarish radioaktiv moddalar kabi o'nlab, yuzlab, ming yillar davomida yo'q bo'lib ketmaydigan shunday kimyoviy elementlar va kimyoviy moddalarning paydo bo'lishiga olib kelmaydimi? Va bu litosfera, gidrosfera va atmosferaning ifloslanishi va zaharlanishiga olib keladi. Nanotexnologiya atom darajasida va ehtimol, kelajakda subatomik darajada nafaqat Mendeleyev elementlarning davriy jadvalida hali kashf etilmagan kimyoviy elementlarni qurishga imkon beradi., shuningdek, biz hali ham tasavvurga ega bo'lmagan xususiyatlar, fazilatlar va qobiliyatlar yuzaga chiqishiga imkon berishi mumkin. Bu nima degani? Boshqa kimyoviy elementlar va materiallar bilan birgalikda ishlab chiqarishda oson va uzoq muddat foydalanilganda kuchli zaharli bo'lib, atrof-muhitni uzoq vaqt zaharlashi mumkin bo'lgan zararli moddalar hosil bo'ladimi? Kimyoviy-bakteriologik ommaviy qirg'in qurollari yaratiladimi?

Yer yuzidagi hayot tizimi, shu jumladan, inson ham, barcha-barcha tirik organizmlar (hayvonlar, o'simliklar va barcha mikroorganizmlar irsiyati (genofondi va genomi) uzoq evolyutsiya jarayonida, tabiiy tiklanish bilan million yillar mobaynida toza havo, tiniq suv, tabiiy sof ozuqa, yam-yashil olam, yorug'lik, mo'tadil haroratga moslashib, rivojlanib kelgan. Biroq achinarli jihati shundaki, ko'pgina sabablarga ko'ra, bunday hayotiy muhim va zarur bo'lgan tabiiy omillardan ko'p hollarda mahrum bo'lib qolyapmiz.

"Hozirgi vaqtda jahon fan-texnika taraqqiyoti jadal rivojlanishi munosabati bilan tabiiy zaxiralardan xo'jalik maqsadlarida tobora ko'proq foydalanilmoqda. Buning ustiga, dunyo aholisi yildan-yilga o'sib borib, ko'proq miqdorda oziq-ovqat, yoqilg'i, kiyim-kechak va boshqa narsalarni ishlab chiqarish talab qilinmoqda. Bu esa o'rmonlar egallab turgan maydonlarning jadal sur'atlarda qisqarishiga, cho'l-sahrolarning bostirib kelishiga, tuproqning buzilishiga, atmosferaning yuqorida joylashgan ozon to'sig'i kamayib ketishiga, er havosining o'rtacha harorati ortib borishiga va boshqa holatlarga sabab bo'lmoqda"[5].

"Har yili okeanlarga 12-15 mln. tonnaga yaqin neft va neft mahsulotlari to'kilmoqda, shaharlarning kengayishi, sanoat korxonalarini qurish uchun ming-minglab gektar er maydonlari ajratib berilmoqda, o'rmonlar kesilib, yashil erlar kamaymoqda. Bu tendensiya, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda xavfli tus olmoqda. Dunyoda har yili 0,8% tropik o'rmonlar kesilib, qayta tiklanmay qolmoqda. Hozirgi paytda yiliga 8,3 mln. gektar yoki minutiga 16 gektar o'rmon yo'qotilmoqda. Tabiiy muvozanatning dunyo miqyosida tez o'zgarishining oqibati hozirning o'zidayoq insonning yashashi va faoliyati uchun o'ta zarur bo'lgan mo'tadil

5 Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. –Т.: Ўзбекистон, 1998. -506 б.

muhitning buzilishiga olib kelmoqda"[6].

Bular ham ilmiy jamoalar uchun xalqaro axloqiy muammo bo'lib, u ko'plab omillarni hisobga olishi kerak, masalan, nanotexnologiya ommaviy qirg'in yoki qirg'inning "genetik qurollarini" ishlab chiqaradimi? Bu masalalarni bugungi kunda olimlar, faylasuflar, siyosatchilarning birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan hal etish zarur.

Mutaxassislar esa bugun nanotexnologiyalarning ulkan yutuqlaridan harbiy sohada foydalanishga intilishning kuchayib borayotganidan xavotirga tushmoqdalar.

"Hozirgi kunda insoniyat qo'lidagi qirg'in keltiruvchi qurollar Yer shari aholisini bir necha bor qirib tashlashga, Yer o'qini izdan chiqarishga, Yer sharining o'zini parchalab tashlashga ham etarlidir. Olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra hozirgi zamondagi insoniyat qo'lida mavjud barcha portlovchi moddalarni dinamit ekvivalentligidagi g'ishtchalarga aylantirsak va ularni temir-yo'l vagonlariga yuklasak, dinamitlar ortilgan bunday eshalonning uzunligi Yer sharini ekvator bo'ylab 200 marta aylantirib chiqishga etar ekan. Bu qurollar g'ayriinsoniy kuchlar qo'liga o'tib ketsa bormi, ular o'zining bugungi kundagi o'tkinchi manfaatlari yo'lida butun Yer yuzi sivilizatsiyasi taraqqiyotiga nuqta qo'yishi mumkin. Ana shu omilning o'zi hozir ham xavf ostida turgan yadrosiz dunyo orzusi qachon ushaladi, degan savolni yana bir bor jahon hamjamiyati oldiga ko'ndalang qilib qo'yayotgan bo'lsa, ajab emas. Shunday ekan sivilizatsiyamizning kelajagini saqlab qolish har qanday vazifadan dolzarbroqdir"[7].

Odamzod nasli XX asrning ikkinchi yarmida shunday muammolar domiga tortildiki, endilikda ularning iskanjasidan qutulib ketish yoki ketmaslik bugungi kunning eng dolzarb masalasiga aylandi. "Agar XX asrning birinchi yarmi oxirlarida insoniyat qarshisida asosan bitta umumbashariy muammo – yadro halokatining oldini olish ko'ndalang bo'lib turgan bo'lsa, endi aholi tabiiy o'sishining yuqori darajada saqlanib qolishi, fan-texnika yutuqlaridan tor manfaatlar yo'lida foydalanishga ruju qilinishi va bir qator mintaqalarda murakkab ekologik vaziyatning vujudga kelishi masalani chigallashtirib yubordi"[8].

Biz bu muammolarni insonparvarlik asosining estetik va axloqiy pozitsiyalaridan ko'tardik, shuning uchun inson hayotining nafaqat texnologik, balki ma'naviy va madaniy muammolarini ham samarali hal qilish uchun bu muammolarning barchasini hozir ko'tarish kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tabiatning o'zaro mutanosibligini saqlash, ya'ni har bir narsaning tabiiyligini ta'minlash va undan o'z holicha foydalanish tabiat bilan inson o'rtasidagi munosabatni ta'minlashga yordam beradi. Nanotexnologiyalarning istiqbolda yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan tabiiy, ijtimoiy, axloqiy, estetik va ekologik muammolarini o'rganish, tahlil etish, oldini olish va bartaraf etish eng avvalo insoniyatning axloqiy irodasi, innovatsion tafakkur usullari va oqilona qarorlariga bog'liq bo'lib qolmoqda.

6 Назаров Қ. Фалсафа асослари. -Т.: Ўзбекистон, 2005. -343 б.

7 Тўраев Б.О. Инсон, унинг эътиқоди, жамият, коинот: тараққиёти муаммолари ва ҳозирги замон. // "Инсон, унинг эътиқоди, жамият, коинот: тараққиёти муаммолари ва ҳозирги замон" мавзусидаги илмий семинар материаллари. –Т.: ИБХМ нашриёти, 2015. –Б.22.

8 Назаров Қ. Фалсафа асослари. -Т.: Ўзбекистон, 2005. -337 б.

OILA TUZILMALARINING O'ZGARISHI VA ULARNING ZAMONAVIY JAMIYATDAGI IJTIMOIY XULQ-ATVORGA TA'SIRI

Nazira Abdusattorovna Muxtorova – deputat,
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekistonda rivojlanayotgan oilalar tuzilishi va uning zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy xulq-atvorga ta'siri ko'rib chiqiladi. An'anaga ko'ra, o'zbek oilalari avlodlar o'rtasidagi mustahkam aloqalar va madaniy davomiylikni ta'minlovchi ko'p xonadonlar sifatida tuzilgan. Biroq urbanizatsiya, iqtisodiy migratsiya, ijtimoiy qadriyatlarning o'zgarishi yadro oilalarining paydo bo'lishiga yordam berdi, oila dinamikasi va raqamli aloqa oilaviy o'zaro hamda ijtimoiy o'zaro munosabatlarni o'zgartirdi. Ajralishlar darajasining o'sishi, kechikkan nikohlar va ayollarning mehnatga jalb etilishi an'anaviy oilaviy rollarni yanada o'zgartirdi. Maqolada O'zbekistonning boy ijtimoiy va madaniy merosini saqlab qolgan holda oilalarni ushbu o'zgarishlarga moslashishda qo'llab-quvvatlash uchun mutanosib siyosat va jamoatchilik tashabbuslari zarurligi ta'kidlangan.*

Аннотация: *В статье рассматривается развивающаяся структура семьи в Узбекистане и ее влияние на социальное поведение в современном обществе. Традиционно узбекские семьи состоят из нескольких домохозяйств, что обеспечивает прочные связи между поколениями и культурную преемственность. Однако урбанизация, экономическая миграция и изменение социальных ценностей способствовали появлению нуклеарных семей, в то время как динамика семьи и цифровая коммуникация трансформировали семейные и социальные взаимодействия. Рост числа разводов, поздние браки и выход женщин на рынок труда еще больше изменили традиционные семейные роли. В статье подчеркивается необходимость соразмерной политики и общественных инициатив, направленных на поддержку семей в адаптации к этим изменениям и сохранение богатого социального и культурного наследия Узбекистана.*

Abstract: *This article examines the evolving family structure in Uzbekistan and its impact on social behavior in modern society. Traditionally, Uzbek families have been structured as multi-households, providing strong intergenerational ties and cultural continuity. However, urbanization, economic migration, and changing social values have contributed to the emergence of nuclear families, while family dynamics and digital communication have transformed family and social interactions. Rising divorce rates, delayed marriages, and the involvement of women in the workforce have further altered traditional family roles. The article highlights the need for proportionate policy and public initiatives to support families in adapting to these changes while preserving Uzbekistan's rich social and cultural heritage.*

Kalit so'zlar: *oila tuzilmalari, ijtimoiy xulq-atvor, O'zbekiston, yadroli oilalar, katta oilalar, avlodlar o'rtasidagi aloqalar, ajralishlar darajasi, gender rollari, raqamli aloqa, modernizatsiya, madaniy meros.*

Ключевые слова: *семейные структуры, социальное поведение, Узбекистан, нуклеарные семьи, расширенные семьи, межпоколенческие связи, уровень разводов, гендерные роли, цифровая коммуникация, модернизация, культурное наследие.*

Keywords: *family structures, social behavior, Uzbekistan, nuclear families, extended families, intergenerational ties, divorce rates, gender roles, digital communication, modernization, cultural heritage.*

O'zbekistonda oila tuzilmalarini rivojlantirish, ayniqsa, zamonaviy ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida eng muhim mavzudir, chunki oila tuzilmalari jamiyatning asosiy jihati bo'lib, ularning o'zgarishi kengroq ijtimoiy o'zgarishlarni aks ettiradi. So'nggi o'n yilliklar davomida O'zbekiston o'zining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotida chuqur o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Urbanizatsiya, globallashuv va oila qonunchiligidagi o'zgarishlar kabi omillar oila dinamikasida sezilarli o'zgarishlarga olib keldi. Oiladagi an'anaviy gender rollari, ayniqsa modernizatsiya qilinayotgan jamiyatlarda qayta belgilandi. Ayollarning mehnatga jalb etilishining ortishi, otaning farzand tarbiyasidagi ishtirokining o'zgarishi va umumiy uy mas'uliyatiga e'tiborning kuchayishi oiladagi rollarga nisbatan ijtimoiy yondashuvlarning o'zgarishidan dalolat beradi. Bu o'zgarishlar, o'z navbatida, ijtimoiy xulq-atvorga, o'zbek

jamiyatidagi qadriyatlar, me'yorlar va ijtimoiy dinamikani qayta shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatdi.

Jahonning yetakchi faylasuf olimlari P.L.Berj, Dj.Garbarino, R.Skinner, Dj.Kliiz, L.A.Tilli va Dj.U.Skot kabilar[1]. jamiyatning o'zgarib borishida oila, oiladagi farzandlar va ularning kamoloti, er va xotinlik vazifalarini bajara olmasligi, oila hayotining ma'naviy qiyofasi, oilaviy munosabatlar madaniyatining o'zgarishi kabi masalalarni ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-biologik jihatlarini "inson va oila", "oila va jamoa", "jamiyat va davlat" kabi munosabatlar kontekstida submadaniyatlarning amal qilish nuqtayi nazari asosida tadqiq etganlar. Bugungi kunda ham oila xorijiy tadqiqotchilar tomonidan turli kontekstda o'rganib kelinmoqda. Jumladan, J.TL.Djonson[2] yoshlar xulq atvorida zo'ravonlikning ifodalanishida oila instituti va uning etnomadaniy muhiti hamda ularning diniy mansubligi masalasiga to'xtalib, e'tiqodli yoshlarda zo'ravonlik kam ifodalanishini ko'rsatib o'tgan.

MDHda oilaning paydo bo'lish tarixi, diniy, etnik, tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlar doirasida shakllanishi, falsafiy mohiyati va ijtimoiy ahamiyati bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borgan A.B.Jvinklene, A.S.Kurbatova, E.I.Katovskaya, A.L.Lixacheva, K.D.Basayeva, S.S.Anisina, O.A.Morozova, A.Akosta[3], S.A.Alekseyeva, B.F.Abolfazl[4], M.M.Dexchenari, S.Z.Nishanbayeva[5] larning fundamental-amaliy g'oyalari muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, N.X.Orlova Yevropa madaniyatida oilaviy munosabatlarning kelib chiqishi, evolyutsiyasi hamda zamonaviy o'zgarishlari bo'yicha fundamental fikrlarni bildirsa, M.E.Yurdanova[6] Rossiyadagi zamonaviy oila munosabatlari kontekstida ma'naviy, axloqiy, diniy paradigmalarni tahlil qiladi.

O'zbekistonda oilaviy munosabatlar xususida bir qancha tadqiqotchilar ilmiy ishlar bilan shug'ullanishmoqda. Jumladan, jadid allomamiz A.Fitrat oilani boshqarish borasida milliy va diniy qadriyatlarimizni o'z asarida umumlashtirgan. Etnografiya sohasida H.Ismoilov, I.M.Jabborov, A.Ashirov, A.E.Qurbonov, Z.A.Rasulova, G.S.Tosheva, B.R.Tursunov, N.M.Matkarimova[7], B.K.Bekjanovalar O'zbekiston hududlarida nikohning shakllanish va rivojlanish xususiyatlari, marosimlardagi umumiylik hamda farqli tomonlari bo'yicha samarali izlanishlar olib borishgan. N.J.Yusupova[8], E.X.Egamberdiyevlar dunyoviy huquqiy asoslarini tahlil qilganlar. Sh.Sh.Jo'rayeva, Z.A.Rasulova[9], R.S.Razakovalar yoshlarni oilaga tayyorlash motivlarini ko'rsatganlar. Falsafa sohasida o'zbek oilaviy munosabatlar bo'yicha tadqiqot olib borgan U.Qoraboyev, F.A.Primova, M.A.Nurmatova, O.J.Nishonova[10],

1 Mirziyoyev Sh.M. Ilm-fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omili. 2016-yil 30-dekabr kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi akademik va professorlari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvdagi ma'ruzasi. –T.: 2016.

2 Johnston J. Capital Distress: Productive Citizenship and Mental Health in Adolescent Literature. / For the Doctor of Philosophy degree. – Canada: 2021. – 233 p.

3 Акоста А. Влияние межэтнического брака на этнокультурную идентичность подростка: Дис. ...канд. психо. наук. – Тамбов, 2012. -152 с.

4 Аболфазл Б.Ф. Проблемы семьи и брака в философско-религиозной традиции Ирана: Дис. ...канд. филос. наук. – Душунбе, 2015. -145 с.

5 Нишанбаева С.З. Педагогикалық жоғары оқу орындары студенттерінің отбасыадамгершілік құндылықтарын қалыптастыру: Дис. ...канд. пед. наук. – Алматы, 2019. -160 с.

6 Юрданова М.Э. Парадигма философии пола и семьи В.В. Розанова в контексте современных духовно-нравственных и религиозных отношений России: Дис. ...канд. филос. наук. — Калуга, 2011. -142 с.

7 Маткаримова Н.М. Хоразм воҳаси ўзбекларининг никоҳ тўйи маросимлари (XX аср ва мустақиллик даври): Тар. фан. бўй. фалс. док. (PhD)... дисс. –Нукус: УрДУ, 2020. -145 б.

8 Юсупова Н.Ж. Ислом оила ҳуқуқи: пайдо бўлиши, ривожланиши, манбалари ва институтлари: Юридик. фан. док. (DSc)... дисс. –Тошкент: ИИАУ, 2019. -225 б.

9 Расулова З.А. Ўзбекларда оила-никоҳ анъаналарининг ижтимоий ва этник психологияси: Пси. фан. док. (DSc)... дисс. –Тошкент: ТДПУ, 2018. -263 б.

10 Нишонова О.Ж. Ўзбек этномаданиятининг эстетик моҳияти ва функциялари: Фалс. фан. док. ... дисс. –Тошкент: ЎзМУ, 2016.

N.B.Abdullayeva, S.S.Abdukarimova, S.M.Ro'zimurodov, M.T.Zohirov, M.R.Dehqonov[11], Sh.Q.Amirxo'jayev[12], R.Sh.Bozorovalar sog'lom turmush tarzi, zamonaviy o'zbek oilasida milliy, diniy, umuminsoniy qadriyatlarning ahamiyati va madaniy transformatsiyalar bo'yicha ilmiy izlanishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ammo yuqorida sanab o'tilgan ishlarda oila tuzilmalarining o'zgarishi va ularning zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy xulq-atvorga ta'siri alohida tadqiqot obyekti sifatida ko'tarib chiqilmagan.

Oila tuzilmalarini o'rganish bir qancha masalalarni o'zi ichiga oladi:

– O'zbekistonda oilaviy o'zgarishlarni shakllantirgan asosiy ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy va siyosiy omillarni aniqlash;

– oila tuzilmalaridagi o'zgarishlar ijtimoiy xulq-atvorga, xususan, nikoh, bolalarni tarbiyalash, gender rollari va oilaviy mas'uliyatni taqsimlash kabi muhim sohalarda qanday ta'sir qilganini tahlil qilish;

– zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy tendensiyalarning, jumladan, migratsiya, ta'lim va ish bilan ta'minlanishning oila dinamikasiga ta'sirini va ijtimoiy xulq-atvor va qadriyatlardagi o'zgarishlarni o'rganish;

– madaniy va diniy an'analarning oila tuzilmalariga ta'sirini o'rganish, bu chuqur ildiz otgan amaliyotlar zamonaviy O'zbekistonda oilaviy hayot va xulq-atvorni qanday shakllantirishda davom etishini ko'rib chiqish;

– davlat siyosati va ijtimoiy islohotlarning oila tuzilmalariga ta'sir etishdagi rolini baholash va ularning ijtimoiy hamjihatlik, farovonlik va O'zbekiston jamiyatida rivojlanayotgan me'yorlarga kengroq ta'sirini baholash.

Ijtimoiy xulq-atvor shaxslarning jamiyatdagi boshqalar bilan o'zaro munosabatini anglatadi. U muloqot, hamkorlik, raqobat, ijtimoiy normalar va qadriyatlarga rioya qilishni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy xulq-atvor turli omillar, jumladan, madaniyat, ta'lim, iqtisodiyot va eng muhimi – oilaviy tuzilmalar bilan shakllanadi. Oila ijtimoiylashuvning asosiy manbai bo'lib, oila tarkibidagi o'zgarishlar shaxsning oila ichida ham, undan tashqarida ham sog'lom munosabatlar o'rnatish va saqlab qolish qobiliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sabab ham oilaning tuzilishi va funksiyasi azaldan falsafiy va ijtimoiy nutqda markaziy o'rinni egallagan.

Suqrot davridan boshlab oilaning shaxsiy va jamiyat qadriyatlarini shakllantirishdagi axloqiy roli tadqiqot mavzusi bo'lib kelgan. Suqrot oilaviy hayotning axloqiy xulq-atvorga ta'sirini e'tirof etib, chinakam baxt axloqdadir, bu esa o'z navbatida insonni ezgulikka, ilohiy haqiqatga yaqinlashtiradi, deb ta'kidlagan. Sofistlar, epikurchilar va boshqa falsafiy oqimlarning moddiy zavq va indulgensiyani birinchi o'ringa qo'ygan gedonistik qarashlaridan farqli o'laroq, Suqrot oilaviy baxtni ma'naviy javobgarlikdan ajralmas ekanligini ta'kidlagan. U "mastlik illatlarni tug'dirmaydi, ularni izlaydi"[13], deb ta'kidlab, tartibli, ezgu hayot chinakam farovonlikning asosi ekanligini nazarda tutgan. Uning nuqtayi nazari eudaimoniyani – baxt haqidagi klassik tushunchani – zavq bilan emas, balki axloqiy tamoyillar bilan bog'liq holda qayta ta'riflashga harakat qildi.

Epikur baxtga intilish tarafdori bo'lar ekan, uni inson tabiatining qulaylik va farovonlikka moyilligi bilan uyg'unlashtirgan. Biroq uning

-202 б.

11 Деҳқонов М.Р. Исломда оила ва никоҳ муносабатлари маданиятининг диний-фалсафий моҳияти: Фалс. фан. бўй. фалс. док. (PhD)... дисс. –Тошкент: ЎзМУ, 2021. -135 б.

12 Амирхўжаев Ш.Қ. Ўзбек оилаларида ижтимоий-маданий жараёнлар трансформацияси (XX аср охири – XXI асрнинг боши): Фалс. фан. бўй. фалс. док. (PhD)... дисс. –Тошкент: АДУ, 2022. -155 б.

13 Энциклопедия афоризмов. Античность. Древняя Индия. Древний Китай. Библия. – Минск, Современная литература, 1999. – С.95.

baxtni insonning asosiy omili sifatida talqin qilish, shuningdek, shaxsiy hayotga va oilaviy hayotga nisbatan rivojlanayotgan jamiyat munosabatlarini aks ettirdi. "Baxtga intilish, – deb ta'kidlaydi Epikur, – odam uchun tabiiy narsa, uning o'zi ham rohatlanish, huzur-halovat istagidan kelib chiqadi"[14]. Vaqt o'tishi bilan baxt va axloq haqidagi bu falsafiy munozaralar jamiyatning oila birligini – axloqiy o'sishni rag'batlantiruvchi tuzilma yoki shaxsiy qoniqish vositasi sifatida qabul qilish uslubiga ta'sir qildi.

XX asrda Turkiston jadidchilik harakatining asosiy namoyandasi Abdurauf Fitrat oilaning ijtimoiy hayotdagi rolini yanada chuqurroq o'rgandi. Uning "Oila yoki oilani boshqarish tartiblari" asari oilaning shakllanishi, uning a'zolarining o'zaro mas'uliyati, ota-onalar va bolalarning axloqiy majburiyatlarini har tomonlama o'rganib chiqadi. Fitrat oila shunchaki ijtimoiy institut emas, balki shaxslarning xulq-atvorini va shu bilan birga keng jamiyatni shakllantiradigan axloqiy asos ekanligini ta'kidladi. Uning g'oyalari[15] oila tuzilmalaridagi o'zgarishlarning ijtimoiy xulq-atvorga qanday ta'sir qilishini tahlil qilishda dolzarb bo'lib qolmoqda, ayniqsa zamonaviy davrda, o'zgaruvchan gender rollari, iqtisodiy bosimlar va texnologik taraqqiyot an'anaviy oila dinamikasini qayta belgilashda davom etmoqda.

Har bir ijtimoiy institut, jumladan, oila ham tarixiy, madaniy va ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar natijasida shakllangan o'zgarishlar jarayonini boshidan kechiradi. Zamonaviy jamiyatda oila tuzilmalari evolyutsiyasi milliy va global qadriyatlardagi kengroq o'zgarishlarni aks ettiradi, Yangi O'zbekistonning davom etayotgan islohotchilik qarashlarini aks ettiradi. "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati va Uchinchi Uyg'onish davri asoslarini ifodalaganidek, oila tuzilmalarining o'zgarishi ham zamonaviy voqelikka javoban an'anaviy rol va mas'uliyatni qayta belgilash ramzidir. "Shu tariqa uzoq o'tmishdan hozirgi davrgacha milliy tafakkurimiz negizida shakllanib kelgan, turli g'oya va amaliy harakatlarda o'z ifodasini topgan el-yurtimizning orzu-umidlari bugungi kunda Yangi O'zbekiston tushunchasida jamuljam bo'ldi"[16]. "Yangi O'zbekiston" doirasida milliy o'zlik va qadriyatlarga e'tibor ijtimoiy hamjihatlikning tamal toshi bo'lib qolayotgan oilaga ham tegishli. Kengroq jamiyatda bo'lgani kabi, an'anaviy qadriyatlarni saqlash va taraqqiyot va inklyuzivlikni qo'llab-quvvatlovchi umuminsoniy tamoyillarni birlashtirish o'rtasida nozik muvozanat mavjud. O'zbekistonning strategik maqsadi – yuksak ma'naviyatli avlodni tarbiyalash – oilaning ham madaniy merosni uzatuvchi, ham ijobiy ijtimoiy o'zgarishlar katalizatori sifatidagi rolini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Bu maqsad oilalar birligiga tahdid soluvchi salbiy, buzg'unchi tendensiyalarni bartaraf etishga, uy xo'jaliklarida ma'naviy, axloqiy va intellektual o'sishni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Tez globallashuv, raqamli aloqa va rivojlanayotgan ijtimoiy me'yorlar davrida mustahkam oila asoslarini saqlash jamiyat barqarorligi va ma'naviy mustahkamlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi O'zbekiston xalqning jamoaviy orzu-umidlari va ambitsiyalarini o'zida mujassam etgani kabi, zamonaviy oila tuzilmalari ham an'ana va innovatsiya o'rtasidagi dinamik o'zaro ta'sirni aks ettiradi. Muammo shaxs va jamoalarning o'zgaruvchan ehtiyojlariga moslashgan holda milliy qadriyatlarga mos keladigan oila modelini tarbiyalashdan iborat. Mustahkam, axloqiy asosga ega oilalarni tarbiyalash orqali jamiyat barqaror rivojlanish, ijtimoiy totuvlik va farovon kelajakni amalga oshirish uchun zamin yaratishi mumkin.

14 Фалсафа: Қомусий луғат. – Тошкент, "Шарқ", 2004. – Б.46.
15 Абдурауф Фитрат. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. – Тошкент, "Маънавият", 1998. –Б.8.
16 Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент, "Ўзбекистон", 2021. Б- 17.

Tarixan O‘zbekiston bir tom ostida bir necha avlodlar birga yashagan katta oila tuzilmalarining keng tarqalganligi bilan ajralib turadi. Bu kelishuv avlodlar o‘rtasidagi mustahkam rishtalarni mustahkamladi, iqtisodiy barqarorlikni ta’minladi va madaniy an’analarning uzatilishini osonlashtirdi. Qishloq joylarda bunday oila modellari yetakchi bo‘lib qolmoqda, chunki oqsoqollar uy xo‘jaligi qarorlarini qabul qilishda va bolalarni tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Biroq Toshkent, Samarqand va Buxoro kabi shahar markazlarida iqtisodiy migratsiya va turmush tarzining o‘zgarishi tufayli yadro oilalari tobora kengayib bormoqda. Ushbu o‘tish yosh er-xotinlarga ko‘proq mustaqillik berdi, lekin avlodlararo aloqalarni ham zaiflashtirdi. Kundalik hayotda bobo va buvilarning roli kamayishi bolalar tarbiyasiga ta’sir qildi, ular endi ijtimoiylashuv uchun ko‘proq ta’lim muassasalari va raqamli ommaviy axborot vositalariga tayanadilar.

Nikoh o‘zbek jamiyatida asosiy institut bo‘lib qolmoqda, ammo, so‘nggi yillarda ajralishlar ko‘paydi, bu to‘liqsiz oilalarining ko‘payishiga olib keldi. Iqtisodiy tazyiqlar, gender rollarining o‘zgarishi va nikoh kutishlaridagi avlodlar farqi bu hodisaga yordam berdi. Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda so‘nggi o‘n yil ichida ajralishlar darajasi taxminan 10% ga oshgan, xususan, ayollar moliyaviy jihatdan mustaqilroq bo‘lgan va katta oila tarmoqlariga kamroq tayanadigan shaharlarda. Bunday holda yolg‘iz onalar iqtisodiy va ijtimoiy muammolarga duch kelmoqdalar, chunki an’anaviy ijtimoiy me’yorlar ikki ota-onadan iborat bo‘lgan uy xo‘jaliklarining muhimligini ta’kidlashda davom etmoqda. Bundan tashqari, ajrashgan oilalarning farzandlari ko‘pincha ruhiy iztirobni boshdan kechiradilar, bu esa jamiyatni qo‘llab-quvvatlashning mustahkam tizimlarini va maqsadli ta’lim tadbirlarini talab qiladi.

O‘tgan o‘n yilliklarda erta turmush qurish O‘zbekistonda, xususan, ayollar orasida keng tarqalgan amaliyot edi. Biroq oliy ta’lim va kasbiy imkoniyatlarning kengayishi tufayli ko‘plab yoshlar nikohni kechiktirmoqda. Bu tendensiya shaharlarda turmush qurishning o‘rtacha yoshining oshishiga olib keldi, bu erda ko‘plab yosh mutaxassislar oila qurishdan oldin moliyaviy barqarorlik va ijtimoiy mavqeni birinchi o‘ringa qo‘yadilar. Bundan tashqari, tug‘ilish darajasi oldingi avlodlarga nisbatan bir oz pasayib ketdi, bu oilani rejalashtirishga bo‘lgan munosabatning o‘zgarishini aks ettiradi. Kechiktirilgan nikoh odamlarga shaxsiy va kasbiy rivojlanishga e’tibor qaratish imkonini bersa-da, an’anaviy oila tuzilmalariga ta’sir ko‘rsatadi. Tarixan farzandlarining yoshroq turmushga chiqishini kutgan ko‘plab ota-onalar bu o‘zgaruvchan me’yorlarni uyg‘unlashtirish uchun kurash olib boradi, bu esa avlodlar o‘rtasidagi ziddiyatlarga olib keladi.

O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarning jadal kengayishi oilaviy muloqot modellarini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Ijtimoiy media platformalari, xabar almashish ilovalari va onlayn o‘yin-kulgilar endi oila a’zolarining o‘zaro munosabati va vaqtlarini qanday taqsimlashini shakllantiradi. Ko‘pgina o‘zbek oilalari oilaviy aloqalarni saqlab qolish uchun, ayniqsa qarindoshlari xorijda ishlayotgan hollarda, video qo‘ng‘iroqlar va Telegram kabi xabar almashish ilovalariga tayanadi. Biroq smartfondan ortiqcha foydalanish uy xo‘jaliklari ichida to‘g‘ridan-to‘g‘ri, yuzma-yuz muloqotning pasayishiga olib keldi. Raqamli aloqa uzoq masofali oilaviy aloqalarni mustahkamlagan bo‘lsa-da, u bir vaqtning o‘zida an’anaviy yig‘ilishlar chastotasini kamaytirdi, bu yerda hikoyalar, umumiy ovqatlanish va madaniy munozaralar bir paytlar oila a’zolarining uyg‘unligida ajralmas rol o‘ynagan. Bundan tashqari, yosh avlodlar global raqamli tendensiyalarning tobora ko‘proq ta’siri ostida bo‘lib, vaqti-vaqti bilan an’anaviy qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlaydigan keksa oila a’zolari bilan nizolarga olib keladi.

O‘zbek jamiyati asta-sekin moslashuvchan gender rollarini o‘zlashtirmoqda, ayollar oliy ta’lim, tadbirkorlik va siyosatda ko‘proq ishtirok etishni o‘z zimmalariga olishmoqda. Biroq kasbiy va oilaviy mas’uliyatni muvozanatlash hali ham jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda. Ayollarning iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan hukumat tashabbuslari ayollar tadbirkorligi va moliyaviy mustaqilligini rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynadi. Ushbu yutuqlarga qaramay, ayollarning uy vazifalariga oid an’anaviy umidlar saqlanib qolmoqda va bu ko‘pincha ishlaydigan onalar uchun ikki tomonlama yukni keltirib chiqaradi. Xotin-qizlarning mehnatga jalb etilishi ba’zi oilalarda uy vazifalarining yanada adolatli taqsimlanishiga yordam bergan bo‘lsa, boshqalarida gender rollari to‘g‘risidagi mustahkam tasavvurlar tufayli keskinlikni keltirib chiqardi. Ushbu ijtimoiy siljish, shuningdek, yosh avlodning gender tengligi va kasbiy intilishlari haqidagi tushunchalariga ta’sir ko‘rsatmoqda, ijtimoiy normalarni asta-sekin qayta shakllantirmoqda.

Ijtimoiy xulq-atvor turli xil ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy omillar ta’sirida shakllanadigan dinamik va ko‘p qirrali jarayondir. Uning komponentlarini tushunish insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish, muloqotni kuchaytirish va ijtimoiy hamjihatlikni qo‘llab-quvvatlash uchun juda muhimdir.

Oila tuzilmalarining o‘zgarishi bilan ijtimoiy xulq-atvor ham rivojlanadi. Ba’zi o‘zgarishlar mustaqillik va moslashuvchanlikni rivojlantirsa, boshqalari hissiy aloqalarning zaiflashishiga va ijtimoiy qadriyatlarning o‘zgarishiga olib kelishi mumkin. Ushbu dinamikani tushunish zamonaviy jamiyatda mustahkam oila va jamoa aloqalarini saqlab qolish uchun zarurdir.

Oila tuzilmalarining o‘zgarishi ijtimoiy xulq-atvorga qanday ta’sir qilishda ijtimoiy-iqtisodiy omillar muhim rol o‘ynaydi.

Madaniy me’yorlar va qadriyatlar turli xil oila shakllarini qabul qilish va moslashtirishga ta’sir qiladi.

Oila ichidagi munosabatlarning sifati (o‘zaro hurmat, qo‘llab-quvvatlash, hamdardlik, hissiy intellekt) uning tuzilishidan ko‘ra ko‘proq ahamiyatga ega.

NEOKONSERVATIV "AQL MARKAZLARI"NING AQSH TASHQI SIYOSATIGA TA'SIRI (XXI ASR BOSHLARI)

Abrar Saloxiddinovich Turayev – s.f.b.f.d., dotsent,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada davlatlarning ichki va tashqi siyosatiga ta'sir ko'rsatuvchi nodavlat tahliliy tuzilmalarning o'rni ortib borishi tendensiyasi AQSh misolida ko'rsatib berilgan bo'lib, yangi asrning dastlabki yillaridagi AQSh tashqi siyosati mohiyati va tashqi siyosiy qarorlar qabul qilishda neokonservativ doiralarning ta'siri ochib berilgan.*

Аннотация: *В данной статье на примере США показана возрастающая роль неправительственных аналитических структур, влияющих на внутреннюю и внешнюю политику государств, раскрыта сущность внешней политики США в первые годы нового века и влияние неоконсервативных кругов на принятие внешнеполитических решений.*

Abstract: *In this article, the tendency of increasing the role of non-governmental analytical structures influencing the domestic and foreign policy of states is shown in the example of the USA, the essence of the US foreign policy in the early years of the new century and the influence of neoconservative circles in foreign political decision-making. the secret is revealed.*

Kalit so'zlar: *tashqi siyosat, AQSh, "aql markaz",tahlil, Yaqin Sharq-Iroq, siyosiy qaror, Yangi Amerika Asri loyihasi (PNAC).*

Ключевые слова: *внешняя политика, США, аналитические центры, анализ, Ближний Восток-Ирак, политическое решение, Проект нового американского века (PNAC).*

Keywords: *foreign policy, USA, think tanks, analysis, Middle East-Iraq, political decision, Project for New American Century (PNAC).*

"Sovuq urush"dan keyingi davrdagi xalqaro tizimning shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari turli ko'rinishdagi muammo va vaziyatlarni tahlil qilishga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirdi. Mamlakatlar qudrati, milliy manfaatlar ko'lami va jahon siyosatida yetakchilik uchun intilishlar ortib borayotgani sari davlat boshqaruvida sifatli tahlil va prognoz ahamiyatini ham oshirmoqda. Malakali tahlilga bo'lgan ehtiyojni oshiruvchi muhim omillardan biri - bu jahon siyosati va mintaqaviy darajadagi vaziyatning murakkablashuvidir. Shu jihatdan, birinchi navbatda, dunyoda yetakchilikka intilayotgan davlatlar, xususan, AQShda "aql markazlar" tizimining shakllanishi tashqi siyosiy manfaatlar va ambitsiyalarning o'sishi bilan ham bog'liqdir.

Tahlil bilan shug'ullanuvchi "aql markazlar" ichki va xalqaro muammolar bo'yicha amaliy siyosatga yo'naltirilgan tadqiqotlar, tahlillar va maslahatlar ishlab chiqaradi va shu bilan siyosatchilar hamda jamoatchilikka davlat siyosati bo'yicha ongli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

"Aql markazlar" – bu xususiy manbalar yoki davlat tashkilotlari tomonidan moliyalashtiriladigan, amaliyotga yo'naltirilgan ekspertlik-tahliliy institutlar va markazlar bo'lib, ularning asosiy vazifalari tadqiqot, dalillarga asoslangan sharhlar, muayyan ijtimoiy va siyosiy ahamiyatga molik mavzular hamda loyihalar bo'yicha tavsiyalar va tahlillar tayyorlashdir. Ushbu tuzilmalar ko'pincha ilmiy hamjamiyat va siyosatchilar, davlatlar va fuqarolik jamiyati o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradi hamda amaliy va fundamental tadqiqotlarni tushunarli talqin qiluvchi mustaqil ovoz sifatida jamoatchilik manfaatlariga xizmat qiladi[1]1.

1 Think Tanks and Policy Advice in the US, Routledge 2007 and in The Fifth Estate: Think Tanks, Public Policy, and Governance, Brookings Institution Press 2016// Global Go to Think Tank Report 2020// University of Pennsylvania //C:/Users/User/Downloads/2020_Global_Go_To_Index_03.17_FINAL.pdf. MARCH 17, 2021

"Aql markazlar" ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va davlatning siyosiy tuzilmalariga bevosita ta'sir ko'rsatishidan kelib chiqib, ekspert va tahlil markazlari sohasidagi yetakchi ekspert Jeyms Makgan ularni qonunchilik, ijro etuvchi, sud hokimiyati va OAVdan keyingi siyosiy qarorlarni qabul qilishga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan "beshinchi hokimiyat"ga tenglashtiradi[2].

"Forbes" jurnali ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha tahlil markazlarining 90,5 foizi 1951-yildan keyingi davrda tashkil etilgan. Ularning qariyb 55 foizi Shimoliy Amerika va Yevropada joylashgan. Raqamlarga nazar tashlasak, tadqiqot markazlari soni bo'yicha AQSh yetakchi o'rinda: ushbu mamlakatda 1872 ta muassasa faoliyat yuritib kelmoqda. Birgina poytaxt Vashington shahrida 397 ta markaz mavjud. Reytingning keyingi o'rinlarini Xitoy (512 ta markaz), Buyuk Britaniya (444), Hindiston (293), Germaniya (225) egallagan.

Davlat boshqaruvi sohasiga pragmatik liderlarning kelishi "aqliy markaz"larga bo'lgan ehtiyojni yanada orttirdi. Sababi, davlat boshqaruvi sohasida davlatning strategik rejasini ishlab chiqish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtimoliy yoki real xavf va tahdidlarni aniqlash, ularni prognozlash bo'yicha tahliliy ma'lumotlarga ehtiyoj ortmoqda[3]. Shu nuqtayi nazardan, bu kabi tahlil markazlariga ehtiyoj doim yuqori hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Bugun hayot yangicha fikrlash va ishlash, milliy "aql markazlari"mizni shakllantirishni talab etmoqda. Afsuski, atrofimizdagi barcha siyosiy-ijtimoiy jarayonlarni chuqur tushunib, ta'sirchan tilda yetkazib beradigan tahlilchi va ekspertlarimiz juda kam. Bunday vaziyatda jamiyatimizni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish borasidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarni tubdan qayta ko'rib chiqish zarur. Shu ma'noda, Ma'naviyat va ma'rifat, "Taraqqiyot strategiyasi", Islom sivilizatsiyasi markazlari, ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi tadqiqot institutlari haqiqiy "aql markazlari"ga aylanishi kerak"ligini ta'kidlaydi[4].

Bugungi Yangi O'zbekiston poydevori qad rostlayotgan, milliy yuksalish g'oyasi asosida amalga oshirilayotgan islohatlarning samaradorligi ko'p jihatdan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tahlili va prognozi bilan shug'ullanuvchi yangi avlod tahlil markazlarini tashki qilish va faol qo'llab-quvvatlashga ham bog'liq. Ayni shu zaruratdan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-martdagi "2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6181-son Farmoni bilan "2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" tasdiqlangan bo'lib, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning huquqiy asoslarini izchil takomillashtirish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalardan biri sifatida fuqarolik jamiyatini ilmiy-nazariy o'rganuvchi, uning rivojlanishini doimiy tahlil qilib boruvchi tahliliy, ilmiy-o'quv laboratoriyalarni (aql markazlarini) tashkil etish masalasi ham kun tartibiga qo'yilgan. Bundan tashqari, fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning shaffof va sog'lom raqobat tamoyiliga asoslangan tizimini, shuningdek, ijtimoiy foydali dasturlar samaradorligini oshirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan 2024-yil 26-avgustdagi "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida "gi PF-124-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonining qabul

2 "Tanklar" nima haqida o'ylaydi?// https://www.gazeta.uz/oz/2021/02/12/think-tank/. – 12 fevral. – 2021.

3 Бўтаев У., Ғаниев О. "Ақлий марказлар" – давлат ва жамият бошқарувини ривожлантирувчи асос// Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Humanitarian Studies. – Андижон. – 2021. – №1(53). – Б.5-13.

4 Мирзиёев Ш. Жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавиятдир//https://president.uz/uz/lists/view/4089. – 19.01.2021

qilinishi ham muhim choralardan biri bo‘ldi deyish mumkin.

Tahlil markazlarining intellektual mahsulotlariga amaliy siyosiy ekspertiza, tadqiqotlar, tahliliy sharhlar, shuningdek, hukumat, siyosiy va jamoat arboblari tomonidan dalillarga asoslangan qarorlarni qabul qilishga yordam beradigan fundamental nazariy ishlar kiradi. Bunday o‘ziga xos "mahsulot" hukumat va siyosatchilarga muayyan qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Shu jihatdan tahlil markazlarining intellektual mahsulotlari akademik tadqiqotlardan farq qiladi.

Eskpertlik tahlil bilan shug‘ullanuvchi markazlar va ularning faoliyat yo‘nalishlari borasida turlicha qarashlar ilgari suriladi. Shu bilan birga, bu kabi tashkilotlar ba’zan "aql markazlar", "fikr fabrikalari" va "butik markazlari", ba’zan esa "tahlil markazlar" va boshqa nomlarda namoyon bo‘ladi.

AQShda "aql markaz" atamasi siyosat, iqtisodiyot, harbiy-siyosiy muammolar, sanoat va texnologik rivojlanish strategiyalari va zamonaviy siyosiy masalalar haqida munozaralar olib boradigan tashkilotlarga nisbatan qo‘llanila boshlandi[5].

Xalqaro munosabatlar va siyosiy iqtisodiyot bo‘yicha mutaxassis, falsafa doktori B.Rajabovning e’tirof etishicha, tahlil va tadqiqqa ixtisoslashgan "aql markazlari" (ingliz tilida "think tanks") mutaraqqiy dunyoda katta nufuz hamda ta’sirga ega. Ular ichki va tashqi siyosatga daxldor dolzarb masalalarda izlanish olib borib, davlat boshqaruvi idoralariga yo‘riq, tavsiya va maslahatlar beradi.

Tahlil muassasalari davlat idoralari, siyosiy tashkilotlar hamda ishbilarmon doiralar qoshida yoki nodavlat tashkilotlar sifatida faoliyat yuritadi. Shunga ko‘ra ularning maqsad-mo‘ljali farqlanishi mumkin. Qayd etish joizki, aksar "aql markazlar" nodavlat muassasa bo‘lib, ular AQSh va Kanadada soliqlardan ozod etilgan[6].

XX asrning 90-yillarida birgina Vashingtonda yuzga yaqin tahliliy markazlar mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2000-yildan so‘ng umuman dunyoda tahliliy faoliyatga ehtiyoj o‘sishi kuzatildi, ya’ni ularning umumiy soni 4,5 mingga yetganini, 2009-yilning oxirlariga kelib esa 5,5 mingtani tashkil etganini qayd etish lozim. Ular faoliyatining ko‘lami, moliya manbalari, vazifalari bir-biridan farqlanadi. Ayrimlari ham ichki, ham tashqi siyosatning muayyan sohalariga, boshqalari esa ma’lum bir mintaqa muammolarini o‘rganishga ixtisoslashdi[7].

"Aql markazlar"ning faoliyati har yili Pensilvaniya universitetida Jeyms Makgan rahbarligida ko‘rib chiqiladi va tahlil qilinib boriladi. So‘nggi tahlil hisoboti ma’lumotlarga ko‘ra, Amerika Qo‘shma Shtatlarining o‘zida ularning soni 2203 tani tashkil qilmoqda, dunyo bo‘yicha ilmiy tadqiqot markazlarining soni esa 11175 taga yetdi[8]. "Aql markazlar"ning ortib borishi, ularning nafaqat son jihatdan, balki ishlash uslubi hamda malakaviy mahoratining rivojlanish tendensiyasining ortib borayotganligi, hozirgi siyosiy vaziyatlarning keng talqin va tahlil qilinish jarayonida ham ko‘rishimiz mumkin.

AQShda ilmiy markazlar kabi tashkilotlarning paydo bo‘lishi amaliy siyosat muammolarini hal qilish uchun ilmiy va professional tajribani jalb qilishning mantiqiy davomidir[9]. AQShda XX asrda

5 Abdullayeva R. AQSh "aqliy markazlari"ning davlat boshqaruvidagi o‘rni// Eurasian journal of law, finance and applied sciences. –Volume 1. – Issue 01. – September 2021. –B.43-46.

6 Qarang: Rajabov B. G‘oya – taraqqiyotga doya // "Tafakkur" jurnali. – 2020. – №3.

7 Ушкалов И.Г. Процесс трудовой эмиграции: состояние и перспективы// Российский экономический журнал. – 1993. –№2. – С.4.

8 McGann, James G. 2020 Global Go To Think Tank Index Report, 2021. TTCSP Global Go To Think Tank. Index Reports. https://www.bruegel.org/wpcontent/uploads/2021/03/2020-Global-Go-To-ThinkTank-Index-Report-Bruegel.pdf

9 Кочетков Г.Б., Супян В.Б. // "Мозговые центры" в США. Наука как инструмент реальной политики// Проблемы прогнозирования. – 2010. – С.53.

"aql markazlar"ning paydo bo'lishi Amerika ilmiy hayotida "jadallashgan davr" deb nom olgan[10]. Ushbu davr Amerika davlat boshqaruvi hamda ijtimoiy-siyosiy hayotini yanada rivojlantirishga qaratilgan edi. "Aql markazlar"ning mafkuraviy mahsulotlari – amaliy-siyosiy ekspertiza, analitik maqolalar, fundamental nazariy ishlar hisoblanadi. Ushbu tuzilmalarning asosiy maqsadi muayyan dolzarb muammolarni chuqur o'rganish (davlat buyurtmasi doirasida tegishli grant yoki o'z tashabbusi bilan) va amaliy yechimlarni ishlab chiqish, AQSh harbiy-siyosiy rahbariyati tomonidan ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan tavsiyalar ishlab chiqishdir[11].

Yuqorida ta'kidlanganidek, "aql markazlari"ning shakllanishi va rivojlanishida AQSh siyosiy muhiti muhim ahamiyat kasb etgan. Rivojlanib borgan sari davlat siyosatiga ta'siri ham ortib borgan.

XX asrning boshlari va ayniqsa Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda AQSh davlati qudratining ortishi va bevosita shunga bog'liq ravishda uning jahon siyosatidagi ishtirokining kengayishi hamda milliy davlat mafkurasiga muvofiq global jarayonlarni boshqarish imkoniyatlarining ortishi AQShda "aql markazalar"ning paydo bo'lishi va ular sonining tez suratlarda ko'payib borishiga hamda tashqi siyosiy tadqiqotlar ko'lamining ortishiga asosiy turtki bo'ldi.

Ochiq axborot manbalari sifatida eng nufuzli "aql markazlar" nashrlari tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning ko'plab g'oyalari, baholashlari, xulosalari va prognozlari AQSh tashqi siyosiy hujjatlarida, milliy xavfsizlik strategiyalarida aks etadi hamda Prezident va hukumat a'zolari, kongressmenlar, jurnalistlar bayonotlarida yangraydi. Muayyan masala bo'yicha aniq qarorlar qabul qilish nafaqat diplomatik va razvedka kanallari orqali olingan operativ ma'lumotlarga, balki yetakchi tashqi siyosat mutaxassislarining maslahat va mulohazasiga ham asoslanadi. Muammo shundaki, u yoki bu ma'muriyatda qaysi mutaxassislar tinglanadi va ular ma'lum bir vaziyatning rivojlanishi uchun qanchalik to'g'ri baho va prognozlar bera oladilar.

AQSh davlatchiligi mavjudligining turli bosqichlarida, uning kuchi va global tartibga soluvchi, tanlangan, messian millat g'oyalarini amalga oshirish imkoniyatlari oshgani sayin, davlat siyosatining mafkuraviy tarkibiy qismi kuchayib bordi. Buni AQSh siyosatini amalga oshirishning u yoki bu bosqichi ehtiyojlarini hisobga olishga va qondirishga intilgan siyosatchilar va ekspertlar yaxshi tushunishdi. Bu borada "Sovuq urush" tahlil markazlari faoliyatida mafkuraviy tarkibiy qismning kuchayishiga yordam berdi va asosiy raqib sobiq Sovet Ittifoqi va uning 1985-yildan keyin boshlangan ikki qutbli qarama-qarshilikka barham berish siyosatining bosqichma-bosqich zaiflashishi ayrim tahlil markazlari ekspertlik faoliyatining mafkuralashtirishi tendensiyasini yanada kuchaytirdi. Muayyan g'oyalarni ilgari surishda ustuvorlik uchun alohida markazlar o'rtasida raqobat boshlandi. Respublikachilar hukmronligi yillarida aynan konservativ markazlar ulkan moliyaviy resurslarga ega bo'lib, kuchli ta'sirga ega bo'lishdi. Ular mazkur turtkini g'oyalar raqobatbardoshligi uchun kurashda hozir ham saqlab qolishgan.

Umumiy olganda, ushbu markazlar quyidagi xususiyatlarga ega: ularning vazifasi g'oyaviy, axloqiy yoki partiyaviy tamoyillar va qarashlar bilan belgilanadi; ular u yoki bu nuqtayi nazarni juda qat'iyat bilan ilgari suradilar; ularning tahlili aniq partiyaviy yo'nalishga ega; ularning ishi, birinchi navbatda, g'oyalarni targ'ib qilish uchun

10 Теленьга М.П. Эволюция "мозговых центров" в рамках внешней политики США (XX в.). Краснодар: Историческая и социальнообразовательная мысль. – 2016. – Том 8. –№ 4. Часть 1.

11 Чеснаков С. Роль негосударственных "мозговых центров" в процессе принятия решений военнополитическим руководством США в области обороны и безопасности //http://www.pentagonus.ru/publ/19-1-0-1 .

tashkil etilgan; tadqiqotda akademik yondashuv rad etiladi; xodimlarni yollashda akademik yutuqlarga emas, balki mafkuraviy qarashlarga va partiyaga mansublikka ustunlik beriladi; natija saylovchilarga (manfaatlar guruhiga) qanday ta'sir qilishi yoki u yoki bu falsafaning tarqalishiga xizmat qilishi bilan baholanadi.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib "aql markazlar" faoliyatida mafkuraviy komponentning kuchayishi tendensiyasini neokonservativ doiralar faoliyatida ham kuzatish mumkin. Neokonservatizm mafkurasi AQSh siyosiy elitasi siyosiy qarashlarining nazariy-g'oyaviy asoslari shakllanishida ta'sir ko'rsatishi ortdi.

AQSh prezidentlari va tahlil markazlari o'rtasidagi yaqin hamkorlik R.Reygan davrida boshlangan. Uning prezidentlik kampaniyasida "Me'ros fondi" mutaxassislari ishtirok etdi. Ushbu markazning ko'plab mutaxassislari keyinchalik "o'tish guruhi" tarkibiga kirdilar, ularning asosiy vazifasi bir prezident ma'muriyatidan boshqasiga vakolatlarni o'tkazishda yordam berish edi. Xuddi R.Reygan kabi kichik J.Bush ham markazlar mutaxassislari maslahatidan foydalangan. Prezidentlikka tayyor emasligi sababli, kichik Jorj Bush hokimiyat tuzilmalari ishi sohasida juda kam siyosiy tajriba va bilimga ega edi. Bu bo'shliq "Guver instituti" va "Amerika tadbirkorlik instituti" kabi tahlil markazlari bilan maslahatlashuv va hamkorlik orqali to'ldirildi. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, aynan kichik Jorj Bushdan so'ng federal hukumat va ayniqsa jahon siyosatida kam tajribaga ega bo'lgan nomzodlar uchun markazlar bilan hamkorlik qilish odatiy holga aylandi[12].

AQSh "aql markazlari"ning neokonservativ yo'nalishdagilariga asosan "RAND korporatsiyasi" va "Amerika tadbirkorlik instituti" kiritiladi. Prezident kichik Bush ilmiy markazlarning maslahatiga binoan "Yangi Amerika asri loyihasi"ni (PNAC) qo'llab, faol global tinchlikni va barqarorlikni saqlash uchun Amerika gegemonligi g'oyasini afzal ko'rdi. Ushbu misol AQSh "aql markazlari"ning siyosiy hokimiyatda qay darajada ta'sir kuchiga ega ekanligini namoyon bo'ladi.

AQShda neokonservativ doiralar ta'siri ortgan kichik J.Bush prezidentligi davridagi tashqi siyosiy qarorlarga ta'sirini "Yangi Amerika asri loyihasi" (PNAC) tahlil markazi misolida ko'rib chiqar ekanmiz, neokonservativ g'oyalar rivojida 1997-yilda tashkil qilingan ushbu lobbistik tashkilot muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi markaz "Amerika tadbirkorlik instituti" hududidan joy oldi. "Yangi Amerika asri loyihasi" (PNAC) tahlil markazi neokonservativ harakatning tayanchi va AQShning 43-prezidenti kichik Jorj Bush ma'muriyatiga mafkuraviy ta'sir ko'rsatgan eng mashhur tashkilotlardan biri hisoblanadi. Tashabbuskorlari D.Cheyni, P.Vulfovis, J.Bush va L.Libbilar hisoblanadi. Rasman 1997-yilda publitsistlar V.Kristol va R.Kagan tomonidan tuzilgan va Amerika neokonservativ elitasi qarashlarini o'zida mujassam qiladi. Bu tashkilot xalqaro munosabatlar, AQShning jahon maydonida tutgan o'rni va harbiy kuch vositalaridan foydalanish kabi masalalarga doir tahliliy materiallar tayyorlash bilan shug'ullangan.

"Loyiha" ishtirokchilari orasida D.Cheyni, D.Ramsfeld, P.Vulfovits singari AQSh davlat boshqaruvida muhim o'rin tutgan mulozimlar bor edi.

Tadqiqotchi A.D.Tratyakov 2000-yillarning birinchi yarmida Vashington tomonidan amalga oshirilgan tashqi siyosiy tashabbuslarning aksariyati, xususan, Afg'onistonga intervensiya, Iroqdagi rejim o'zgarishi kabilar "Loyiha" doirasida shakllantirildi, degan xulosaga keladi[13].

12 Medvetz T. Think Tanks as an Emergent Field. – N.Y.: Social science Research Council, 2008. – P.127-145.

13 Третьяков А.Д. Деятельность аналитического центра "Проект за новый американский век" в контексте внешней политики США (1997-2006) // Исторический журнал: научные исследования. – 2023. – № 1. – С.37-49.

"Yangi Amerika asri loyihasi" AQShning "global majburiyatlarini amalga oshirish" uchun harbiy xarajatlarni ko'paytirish, AQSh qadriyatlariga tahdid soluvchi tuzumlarga qarshi kurashishda ittifoqchi davlatlar bilan munosabatlarni mustahkamlash hamda AQSh boshchiligi va nazoratidagi xalqaro tartibotni o'rnatish kabi maqsadlar ko'zlangan edi. Bu tashkilot o'zining sakkiz yillik faoliyati (1997-2005) davomida 1,3 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi mablag'larni qo'lga kiritdi.

Bundan tashqari, Isroilning "Likud" partiyasini qo'llab-quvvatlovchi, AQSh konservativ tahliliy markazlari va Isroil lobbistik guruhlari o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatuvchi bo'g'in hisoblangan "Milliy xavfsizlik masalalari bo'yicha yahudiy instituti" ham AQSh neokonservatizm mafkurasi g'oyalari rivojida muhim o'rin tutib kelmoqda.

1990-yillarning oxirida bo'lajak tashkilotning rejimni o'zgartirish zarurati va AQShning Yaqin Sharqdagi hukmronligi haqidagi asosiy tashqi siyosat g'oyalari allaqachon "Vulfovits doktrinasi", "Davlatni himoya qilishning yangi strategiyasi"[14] da berilgan edi. Ulardagi g'oyalar 1990-yillarda amalga oshirilmadi, lekin neokonservativ publitsistlar tomonidan faol qo'llab-quvvatlandi.

1997-yilda V.Kristol va R.Kaganning "Neoreygan tashqi siyosati sari" nomli muhim maqolasi e'lon qilinib, neokonservatizmning ikkinchi avlod tamoyillarini belgilab berdi. Maqolada "Yangi Amerika asri loyihasi"ning asosiy konsepsiyasiga aylangan Amerikaning global hukmronligi g'oyasi aniq ifodalangan[15]. Neokonservatizm tadqiqotchisi M.Rayanning fikricha, "Yangi Amerika asri loyihasi" 1997-yilning bahorida shakllana boshlagan va nisbatan kichik tashkilot bo'lgan, ammo Kagan va Kristolning ta'sirli aloqa kanallariga ega ekanligi AQSh tashqi siyosatining nufuzli vakillarini o'ziga jalb etishga imkon bergan.

Amerikalik siyosatshunos S.Elden, "Yangi Amerika asri loyihasi"ning shakllanishi davrida asosiy manba "neokonservativ tarmoq" (Amerikaning turli siyosiy institutlarida ta'sirga ega bo'lgan hamfikrlar doirasi) bo'lganligini ta'kidlaydi. Loyiha besh yo'nalishda amalga oshirildi: AQSh Milliy xavfsizligi, Yevropada NATO, Iroq va Yaqin Sharq, Sharqiy Osiyo va Bolqon siyosati. Yangi tashkilotga V.Kristol raislik qildi, R.Kagan hammuassisi etib tayinlandi. 1997-yil 3-iyunda yangi tashkilotning birinchi hujjati – "Yangi Amerika asrida loyiha tamoyillari deklaratsiyasi" e'lon qilindi. Kristol va Kagan maqolalarining tezislarini ko'p takrorlagan holda, deklaratsiyada quyidagi asosiy tamoyillar ilgari surilgan: mudofaa xarajatlarini oshirish, AQSh ittifoqchilari bilan aloqalarni mustahkamlash, nodemokratik rejimlarga qarshi turish, AQSh xavfsizligini ta'minlaydigan xalqaro tartibni kengaytirish. Deklaratsiyani imzolagan 25 davlat arboblari orasida D.Cheyni, D.Ramsfeld, P.Vulfovits, G.Bauyer, D.Bushlarni, mudofaa sanoati va yirik biznes vakillaridan S.Forbes va V.Veberni ko'rish mumkin. Shu bilan birga, bu tarkibda F.Fukuyama, Z.Xalilzod, N.Podgorets, F.Gafni singari taniqli neokonservativ nazariyotchi va publisistlar ham o'rib olgan.

Tahlil markazi sifatida "Yangi Amerika asri loyihasi" tomonidan asosan qisqa memorandumlar va kun tartibidagi asosiy masalalar bo'yicha neokonservatorlarning pozitsiyalarini namoyish etuvchi ochiq xatlar e'lon qilindi. 1998-yil 26-yanvarda nashr etilgan bunday shakldagi dastlabki hujjat Iroq muammosiga bag'ishlangan "Prezident Klintonga ochiq xat" hisoblanadi. Maktubda BMT tekshiruvlari orqali Saddam Husayn rejimining ommaviy qirg'in qurollarini ishlab chiqarishini cheklashning imkoni yo'qligi kun tartibiga qo'yiladi. Maktub mualliflari Klinton

14 A Clean Break: A New Strategy for Securing the Realm // http://dougfeith.com/docs/Clean_Break.pdf).

15 Kagan R. Kristol W. Toward a Neo-Reaganite Foreign Policy // Foreign Affairs. – 1996. – July/August. – C.18-32.

ma'muriyatini BMT Xavfsizlik Kengashi tasdig'ini kutmasdan diplomatik va harbiy yo'l bilan javob berishga chaqirdi. Xatga taniqli neokonservatorlar R.Perl va J.Boltonlar qo'shilishdi.

1998-yil 29-mayda Senatdagi ko'pchilik yetakchisi T.Lott va Vakillar palatasi spikeri N.Gingrich nomiga yangi ochiq xat e'lon qilindi. Klinton ma'muriyati cheklov siyosatidan voz kechganini e'lon qilib, imzo chekkanlar Kongress rahbarlarini AQSh tashqi siyosatiga ta'sir ko'rsatishga, Iroqda amerikaparast muvaqqat hukumatni yaratish va qo'llab-quvvatlashga hamda harbiy kuch ishlatishga tayyor bo'lishga chaqirdi. 1998-yil 31-oktabrda B.Klinton Kongress bosimi ostida "Iroqni ozod qilish to'g'risida"gi qonunni imzoladi, unda mamlakatdagi siyosiy rejimni o'zgartirish va Saddam Husaynga qarshi muxolifatni qo'llab-quvvatlash zarurligi e'lon qilindi. 16-dekabr kuni prezident Iroq nishonlariga qarshi to'rt kunlik yirik bombardimon kampaniyasini, ya'ni "Cho'l tulkisi" operatsiyasiga ruxsat berdi. Binday amaliy qarorlarga qaramasdan 1999-yil 7-yanvarda "Yangi Amerika asri loyihasi" "Cho'l tulkisi" operatsiyasi tanqidiga qaratilgan memorandum chiqardi.

2001-yil 8-martda PNAC xodimi va Markaziy razvedka boshqarmasining Yaqin Sharq bo'yicha sobiq mutaxassisi R.M.Gerext "Afg'onistonda tomonlarni tanlash" nomli eslatmani chiqardi va unda bu mamlakatni bosib olishga va Usama Bin Lodinni yo'q qilishga chaqirdi. 6-iyul kuni prezident Jorj Bush va D.Ramsfeldni o'z dasturidan chetga chiqmaslik va Iroqda quruqlikdagi operatsiyani amalga oshirishga chaqiruvchi memorandum e'lon qilinadi. 2001-yil 11-sentabr voqealaridan so'ng "Loyiha" "Prezident Jorj Bushga ochiq xat, 2001-yil 20-sentabr"ni chop etdi, unda shunday deyilgan: "Dalillar Iroqni hujum bilan bevosita bog'lamasa ham, har qanday strategiyani terrorizm va uning homiylarini yo'q qilish, Iroqda Saddam Husaynni hokimiyatdan chetlatish uchun qat'iy sa'y-harakatlarni o'z ichiga olishi kerak. Bunday sa'y-harakatlarni amalga oshirmaslik xalqaro terrorizmga qarshi urushda tez va to'liq taslim bo'lishni anglatadi".

2003-yil 23-yanvardagi ochiq maktubda yangi "Milliy xavfsizlik strategiyasi"ning qabul qilinishi bilan bog'liq holda, PNAC xodimlari yaqinlashib kelayotgan "Iroq kampaniyasi"ni hisobga olgan holda harbiy byudjetni sezilarli darajada oshirishni taklif qildilar: "Amerika kuchi – yangi dunyoni qurishning kalitidir. Afg'onistonda Tolibon ustidan g'alaba qozonish bu tartibsiz mamlakatni barqarorlashtirish va Al-Qoida terror tarmog'ini yo'q qilish yo'lidagi muhim qadam bo'ladi. Xalqaro hamjamiyat va mutlaq harbiy koalitsiya hozirda Iroqdagi Saddam Husayn rejimi tahdidiga barham berishga tayyor"[16].

2003-yil 20-martda "Iroq Ozodligi operatsiyasi"ning boshlanishi PNACning Bush ma'muriyatiga ta'sir ko'rsatgan asosiy tahlil markazi sifatida tanilishiga sabab bo'ldi. Iroq erkinligi prototipiga aylangan ushbu operatsiya "Yangi Amerika asri loyihasi" Jorj Bushning keyingi butun tashqi siyosatiga ta'sir qildi. PNAC AQSh Mudofaa vaziri tomonidan Iroqqa yuborilgan qo'shinlar sonini yetarli emasligini ta'kidladi va AQSh ma'muriyatini mamlakatning urushdan keyingi tuzilishi uchun turli strategiyalarni tanlashga chaqirdi. 2004-2006-yillarda "Yangi Amerika asri" loyihasi o'z faoliyatini ancha kichikroq miqyosda davom ettirdi. So'nggi muhim hujjatlardan biri 2005-yil 28-yanvarda e'lon qilingan "Quruqlikdagi kuchlarni ko'paytirish to'g'risida"gi Kongressga maktubdir. Biroq bu davrda loyiha tashabbuslari Jorj Bush ma'muriyatida qo'llab-quvvatlanmadi, bu esa keyingi oraliq saylovlarda ehtimoliy mag'lubiyat va "Iroq kampaniyasi"ning salbiy xulosalari ortidan jamoatchilik tomonidan tanqid

16 Open letter to the President George W.Bush //https://web.archive.org/web/20030629225317 /http://newamericancentury.org/Bushletter-012303.htm

xavotirini yuzaga keltirdi. Oxir-oqibat 2006-yilga kelib "Yangi Amerika asri loyihasi" tarqatib yuborildi. Bu vaziyatni izohlar ekan, PNACning sobiq xodimi G.Shmitt "Loyiha" boshlanganda uning abadiy davom etishi ko'zda tutilmaganligi va u allaqachon o'z ishini bajarib, AQSh uchun "Reygan siyosatini tiriltirgan"ligini[17] ta'kidlaydi.

2009-2016-yillarda neokonservatorlar faoliyati ko'proq publitsistik, ya'ni OAVdagi faolligi bilan tavsiflanadi. 2009-yildan boshlab, ularning asosiy "aql markazi" sifatida "Tashqi siyosiy tashabbus" loyihasi shakllandi. "Yangi Amerika asri loyihasi" faoliyati tamoyillariga tayangan holda faol tahliliy maqolalar nashr qilish, hukumat va prezidentga xatlar tayyorlash bilan shug'ullandi. Ammo ta'kidlash kerakki, bu tashkilot kuchli ta'sirga ega bo'la olmadi. U o'z faoliyatini 2017-yilgacha davom ettirdi. Shunday bo'lsa-da, yirik kuchlar tomonidan doimiy qo'llab-quvvatlashga erishdi. Xususan, asosiy homiy sifatida "Elliot boshqaruv korporatsiyasi" (Elliott Management Corporation) sarmoyaviy fon egasi bo'lgan Pol Singer e'tirof etiladi.

Ushbu ma'lumotlardan ham ko'rinib turibdiki, AQSh davlat boshqaruvida "aql markazlar"ning ishtiroki sezilarli darajada yuqori bo'lib, ularning faolligi asosan "Sovuq urush" yakunlari va AQShning global o'rni va ta'siri imkoniyatlarini baholash, milliy manfaatlardan kelib chiqib, xavfsizlik konsepsiyalarini shakllantirish hamda siyosiy elita ta'sirchanligini oshiruvchi g'oyalarni ishlab chiqish va amaliy siyosiy qarorlar loyihalarini tayyorlashda namoyon bo'ladi.

17 Reynolds P. End of the Neo-Con Dream // http://news.bbc.co.uk/2/hi/middle_east/6189793.stm

XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA SAMARQAND VOHASINING SUV XO'JALIGI TARIXIDAN

Rustam Sharipovich Xoliqulov – t.f.n., dotsent,
Samarqand davlat universiteti
Bobur Mirzaboyevich Bobodustov – assistent,
Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya: *Mavzuga oid arxiv hujjatlari va adabiyotlar asosida tuzilgan ushbu maqolada Samarqand vohasining 80 dan ortiq katta-kichik magistral kanallari va ulardan mingga yaqin tarmoqlaridan iborat irrigatsiya tizimining 1970-1990-yillardagi holati tahlil qilingan.*

Аннотация: *В статье на основе архивных документов и литературы по теме анализируется состояние ирригационной системы Самаркандского оазиса, состоящей из более чем 80 крупных и мелких магистральных каналов и около тысячи их ответвлений, в 1970-1990-е годы.*

Abstract: *The article, based on archival documents and literature on the topic, analyzes the state of the irrigation system of the Samarkand oasis, consisting of more than 80 large and small main canals and about a thousand of their branches, in the 1970-1990s.*

Kalit so'zlar: *Zarafshon vohasi, Siyob, to'g'on boshi, irmoq, soylar, ariq.*

Ключевые слова: *Зарафшанский оазис, Сиаб, плотина, ручей, ручьи, канава.*

Keywords: *Zarafshan oasis, Siab, dam, stream, streams, ditch.*

Bizga ma'lumki, Samarqand vohasining asosiy qismi Zarafshon daryosi suvi bilan ta'minlanadi. Bu daryoning asosiy suv manbai, Zarafshon havzasidagi muzliklardan iborat bo'lib, daryo suvining oqish miqdori ana shu muzliklarning erishiga bog'liqdir. Bundan tashqari, qish va bahor mavsumlaridagi yog'ingarchiliklar ham daryo suvining miqdoriga ta'sir etadi.Yana, Samarqand vohasini sug'orishda Turkiston va Zarafshon tog' tizmalaridan oqib tushadigan mavsumiy soylarning suvlari ma'lum darajada ro'l o'ynaydi.

Samarqand vohasining asosiy suv resurslari ustida to'xtab o'tilar ekan, ularning katta – kichikligiga va suv tekisligining miqdoriga qarab ikki turga bo'lish mumkin. Ulardan birinchisi va asosiysi bu Zarafshon daryosidir. Bu daryo Mastchox davonining janubiy g'arbiy tomonida joylashgan Zarafshon muzligidan boshlanadi. Bu muzlik vodiyning baland tog' qismida joylashgan bo'lib, 424 ta alohida muzliklardan iboratdir. Ularning umumiy hajmi 557 km2 ni tashkil etadi[1]. Zarafshon daryosining yuqori oqimi ya'ni Fandaryoning qo'shilish joyigacha Mastchohdaryo deb yuritiladi. Mastchoh daryoning chap tomoniga Fandaryo kelib qo'shiladi. Bu ikkala daryoning qo'shilishidan boshlab oqim Zarafshon nomini oladi va Samarqand vohasi bo'ylab oqadi. Zarafshon daryosi Riamut qishlog'idan boshlab baland va tik tushgan dara orasida bitta irmoq bo'lib oqadi. So'ngra unga Qishtut va Mogiyondaryo kelib qo'shiladi.

Bulardan tashqari, Zarafshon muzligidan to Panjakent shahriga kelguncha Zarafshon daryosiga ko'pgina soylar kelib qo'shiladi. Birgina Mastchoh va Fandaryoning qo'shilish joyida Mog'iyondaryoning qo'shilishiga qadar oraliqda Zarafshon daryosiga o'ngdan: Hushnat, Iskandarsoy, Langarsoy, Vinkentsoy, Qishtutdak, Vashitsoy, Xinnisoy, Qizlonsoy, Kattasoy,

1 Shuls V.L, Mashrapov R. O'rta Osiyo gidrografiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1969. – B.134..

Ostonsoy, Uchko'lsoy, Oybodom, Shinloya soylaro; chapdan: Zirofatsoy, Madisoy, Vashansoy, Rovotsoy va Monursoylar oqib keladi[2]. Bu soylarning ba'zi birlari Zarafshon daryosiga kelib yetmasdan qurib qoladi. Mastchoh daryosining uzunligi 200 km, havza maydoni 4650 km kvadrat bo'lib, Turkiston Zarafshon va Oltoy tog' tizmalarining qo'shilish joyi bo'lgan. Ko'ksuv tog' tugunini o'rtasiga joylashgan yirik Zarafshon muzligidan, 2775 m balandlikdan boshlanadi. Mastchohdaryoning o'rtacha ko'pyillik suv sarfi 80 m kub/sek yoki yillik miqdori 2520 million m kubni tashkil etadi[3]. Bu esa Zarafshon daryosining unga Mog'iyondaryo kelib qo'shilgandan keyingi yillik oqimining 40 foizini tashkil etadi. Mastchoh daryosining o'rtacha oqim moduli 17,2 litr sekund km kvadratga teng. Mastchoh daryoning eng katta yuqori suv sarfi sekundiga 479 m kubga teng bo'lib, eng kichik o'rtacha oyiga suv sarflari 12 m kub/sek, sutkalik suv sarflari esa 11 metr kub/sekundga tushishi mumkin.

Zarafshonning yirik irmoqlaridan biri bu Fandaryo bo'lib u Yang'obdaryo hamda Iskandar daryoning qo'shilishidan hosil bo'ladi. U Hisor tog' tizmasi va Zarafshon tizmasi bilan qo'shilgan yerda 3650m balandlikda joylashgan bo'lib kichkina muzlikdan boshlanadi va Zarafshon bilan Hisor tizmalari oralig'ida Mastchohdaryoga deyarli parallel tomon oqadi. Daryoning uzunligi 120 km bo'lib,, havza maydoni 1650 km kvadratni tashkil etadi. Daryoning boshlang'ich joyi, ya'ni Iskandarko'lining uzunligi 3,26 km, eng keng joyi 2,9 km, yuzasi 3,4 km kvadrat, o'rtacha chuqurligi 50 metrdan ortiqroq bo'lib, uning jami suv sig'imi 172 million metr kubdan iboratdir. Fandaryoga faqat bittagina yirik irmoq Pasruddaryo kelib quyiladi. Bu daryo Zarafshon tizmasidagi Qaznoq muzligidan boshlanadi, havzasining maydoni 379 km kvadratdan iboratdir[4].

Fandaryoning umumiy uzunligi 24,5 km bo'lib, unung suv havzasi esa 3230 km kvadratga teng. Zarafshonning eng yirik chap irmoqlaridan yana biri bu Qishtutdaryodir. U Hisor tog' tizmasining shimoliy va qisman Zarafshon tog' tizmasining janubiy yon bag'irlaridan suv oladigan Vorux va Artuch daryolarining qo'shilishidan hosil bo'ladi. Havza maydoning kattaligi va suvning miqdori jihatidan Vorux Artuchga nisbatan ancha yirikdir. Vorux va Artuch daryolarining qo'shilish joyidan boshlab, 11,6 km masofa davomida darasimon vodiy bo'ylab oqib borgach, Qishtut daryo nomi bilan Zarafshon daryosiga qo'shiladi. Qishtutdaryo havzasining umumiy maydoni 843 km kvadratdan iborat bo'lib, u dengiz sathidan ortacha 2904 metr balandlikda joylashgan. Daryoning o'rtacha ko'p yillik suv sarfi Qishtut qishlog'i yonida 7,26 metr kub/sek bo'lib, o'rtacha oqim moduli esa 9,17 litr sek km kvadratga tengdir[5].

Zarafshon daryosining oxirgi irmog'i Mog'iyondaryo bo'lib, u Hisor tog' tizmasining shimoliy yon bag'ridan oqib tushadigan bir qancha tog' jilg'achalarining birlashuvidan hosil bo'ladi. Bulardan eng uzuni Darai – Kalon nomi bilan Hisor tizmasidagi kichikroq muzliklardan boshlanadi. Mog'iyondaryoning eng katta irmoqlaridan biri, bu Shinkdaryo bo'lib, uning irmog'i ham Hisor tog' tizmasidagi kichik- kichik muzliklardan boshlanadi. Shinkdaryo qo'shilgach Mog'iyondaryo Zarafshon tizmasining ko'ndalangiga kesib o'tib, Panjakent shahridan 9 km yuqorida Zarafshon daryosiga quyiladi. Uning suv yig'ilish maydoni 1100 km kvadrat bo'lib, uning o'rtacha dengiz sathidan balandligi 2620 metrni tashkil etadi. Mo'g'iyondaryoning o'rtacha ko'p yillik suv sarfi 8,62 metr kub sekund bo'lib, o'rtacha oqim moduli esa 7,84 litr sek km kvadratga tengdir[6].

2 Shuls V.L, Mashrapov R. O'rta Osiyo gidrografiyasi, Toshkent, "O'qituvchi" nashriyoti, 1969. 135 – bet.
3 Shuls V.L, Mashrapov R. O'sha asar, 135 bet.
4 Shuls V.L, Mashrapov R. O'sha asar, 135-140 bet
5 Shuls V.L, Mashrapov R. O'sha asar, 151 bet
6 Shuls V.L, Mashrapov R. O'sha asar, 153 bet

Zarafshon daryosi suv havzasining hajmi Dupul suv o'lchash hududigacha 10200 kv/km ni va Mog'iyondaryo kelib quyilgandan so'ng esa 11782 kv/km ni tashkil etadi.

Panjakent shahridan quyida Zarafshon daryosi hech qanday irmoq qabul qilmaydi, balki sun'iy sug'orish kanallari bo'ylab, o'z suvlarini sarflashga kirishadi. Panjakentdan 15 km g'arbda u keng tekislikka chiqadi. Bu Zarafshon daryosining allyuvial yotqiziqlari tufayli vujudga kelgan vodiydir. Vodiyning shimoliy chegarasi Nurota tizmalarining janubiy etaklarida joylashgan baland va past qirlar bilan, janubiy chegarasi esa, Zarafshon tizmasining adirlari bilan tutashadi. Bu vodiy kengligi 35- 40 km ga boradi va ba'zi joylarda undan ham oshadi. Tekislikka chiqishi bilan Zarafshon daryosi kengayadi. U orollar hosil qilib, bir qancha o'zanlar bo'ylab oqadi. Bu hududda daryo o'zanining kengligi 1-1,5 km ga yetadi. Zarafshonning har ikki sohillarining kesib chiqarilgan katta-kichik sug'orish arteriyalari huddi shu joyda boshlanadi. Bu sug'orish arteriyalarining ko'pchiligi tarixiy manbalarda[7] "Varqsar" ya'ni "To'g'on boshi" nomi bilan tilga olingan Ravotxo'ja yaqinidan boshlangan[8]. Chunki Samarqand va uning atrofini suv bilan ta'minlovchi Darg'om kanalining bosh inshoati qadimdan shu joyga o'rnatilgan. Bu joyda Zarafshonning har ikki qirg'og'idan chiqarilgan bir qancha magistral kanallarning bosh gidrotexnika inshoati – "Birinchi may to'g'oni" joylashgan. U 1926 – 1929-yillarda qurilib, ishga tushirilgan.

Samarqand shahridan 7 km shimoli – sharqda Cho'ponota balandligi yaqinida Zarafshonning shimoliy o'zani – Oqdaryo va janubiy o'zani Qoradaryoga ajralib, Miyonqol orolini hosil qiladi. Miyonqol orolining uzunligi 100 km, eni 12-15 km bo'lib, o'zining qulay geografik sharoiti tufayli Miyonqol qadim zamonlardayoq o'zlashtirilib, vodiyning eng obod qismiga aylangan. Vodiyning Miyonqol hududi Oqdaryodan 22 va Qoradaryodan 12 kanal bosh oladi. Miyonqolning sharqiy qismida vodiyning kengligi 30 – 35 km bo'lib, g'arbga tomon torayib boradi. Kattaqo'rg'on tumani yaqinida u 10 – 12 km dan oshmaydi. Vohaning o'rta qismida Nurota tizmasining janubiy yon bag'ridan ko'plab soylar oqib chiqadi va Zarafshonga kelib quyiladi. Ularning tashqi suvlari bahorda mazkur daryoga kelib quyiladi, yozda vegitasiya davrida ular sug'orish tarmoqlari bo'ylab tortilib ketadi. Ayrimlari esa butunlay qurib qoladi. Oqdaryo va Qoradaryo tutashgan qismida vodiy yana biro z kengayib, uning eni 18-20 km ga yetadi. U shimol va janub tomonlardan tog'oldi past va baland adirlarni yorib o'tadi va g'arbga tomon torayib boradi. So'ng daryo Boxoro vohasiga oqib kiradi, u yerda uning oqimi dehqonchilik uchun tamoman sarflanib bo'ladi va daryo Amudaryoga etmay quriydi.

Samarqand vohasini suv bilan ta'minlashda ikkinchi qo'shimcha manba bu-er osti suvlardan ta'minlanuvchi qorasuvlaridir. Vohada yer osti suv zahirasi ko'p ekanligi haqida gidrogeologik ma'lumotlar xabar beradi. Ma'lumotlarga qaraganda Samarqand vohasi havzasida yiliga 1828 million metr kub yer osti suvlari paydo bo'lib, shundan 1241 million metr kub sug'orish mavsumiga to'g'ri keladi[9]. Samarqand vohasi suv ho'jaligini o'rgangan olim, N.M.Reshenkinaning (N.M.Reshenkina - tadqiqotchi, asosan geografiya va gidrologiya sohalarida faoliyat yuritgan mutaxassis) aniqlashicha bu suv zahirasi bilan Miyonqol orolini yer osti suvi bilan to'la sug'orish mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatganki, Miyonqol orolidagi yer osti suvlarining miqdori sekundiga 300 – 400 kub ni tashkil etadi[10]. Qorasuvlar asosan daryo va soy suvlarining yerga

7 Dastavval o'rta asr arab geograflarining asarlarida tasvirlanadi.

8 Muhammadjonov A.R., Quyi Zarafshon vodiysining sog'orilish tarixi. T., 1972; 24 - bet

9 Решенкина Н.М. Перспективб использования грунтовых вод долина Зеравшана, Материаль научно – производственной конференции по развитию сельского хозяйства Заравшанского бассейна, Ташкент, 1955, стр 43

10 O'sha asar, 44 – bet.

to‘yinishi natijasida ko‘payadi. Bu suvlardan ko‘tarma yo‘llar bilan sug‘orishda foydalaniladi. Yer osti suvlari ta’minlanadigan eng yirik qorasuvlardan biri bu Samarqand shahrining shimolida sharqdan g‘arbga qarab oqadigan Siyob daryochasidir. Siyob buloq suvlaridan hosil bo‘lgani uchun uni Siyoxob[11], ya’ni “Qorasuv” deb nomlashgan. Unga Obimashat, Novodon, Jarariq va Siyobcha nomli irmoqlar qo‘shiladiva Samarqand shahrining shimolida joylashgan Galaosiyo qishlog‘idan boshlab u Siyob nomi bilan 7 km g‘arbga tomon Qoradaryoga parallel oqadi.

Bu oralig‘da Siyobdan faqatgina Obiraxmat arig‘i suv oladi. Mergan tepa yaqinidan boshlab u “Yuqori Siyob” nomi bilan yuritiladi. Ana shu to‘on suv ayirg‘ich yordamida suv taqsimlanadi. Vegitasiya davrida Siyobning asosiy suvi yuqori Siyob orqali dehqonchilikda sarflanadi[12]. Uning ortiqcha suvlari Siyob orqali Qoradaryoga tashlab yuboriladi. Siyobning umumiy suv miqdori 983 million metr kub bo‘lib uning asosiy qismi vegitasiya davriga to‘g‘ri keladi. Shundan 390 million mert kub suv yuqori Siyob orqali sarflanadi. Yuqori Siyob arig‘i 16 km g‘arbga oqib[13], o‘zidan 102 ta[14] katta va kichik sug‘orish irmoqlariga taraladi. Ular orasida eng katta arig‘lardan Navbag‘ arig‘i, Zaxlik arig‘i hamda Dovul arig‘lari kabi birmuncha yirik sug‘orish shaxobchalari bo‘lib, ular orqali 200 ga yer maydoni sug‘oriladi. Samarqand vohasining chap qirg‘oq qismi, ayniqsa uning tog‘ oldi tumanlarini sug‘orishda Zarafshon tizmasining shimoliy yon bag‘ridan oqib chiqadigan o‘ttizga yaqin soylar[15] ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu soylarning o‘rtacha suv sarfi turlicha bo‘lib, ulardan eng yirigining suv sarfi sekundiga 500 – 700 metrga boradi, eng kichiginiki esa sekundiga 5 - 10 metrdan oshmaydi. Masalan, Urgutsoyning o‘rtacha sarfi 700 litr sek, Omanqo‘ton soyi 632 litr sek, Oqtepa 744 litr sek, Darin / O‘rta Tursun / soyi 497 litr sek, Begashtisoy 50 litr sek bo‘lib, eng kichiklari Sevasoy 5 litr sek, Terakli 10 litr sek dan iboratdir.

Bu soylar haqida birmuncha aniqroq tushunchaga ega hosil bo‘lishi uchun ushbu maqolada ularning ayrimlarini ta’riflab o‘tish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Masalan, Oxaliksoy Qoratepa tog‘ tizmasining shimoliy tomonida joylashgan bo‘lib, u Santepa devoniga yaqin joydan boshlanadi. Ohaliksoy 13 km masofada tik qiyalikdan oqib o‘tib, Ohalik qishlog‘iga, so‘ngra dashti Darg‘omni kesib o‘tib, Darg‘om kanaliga kelib quyiladi. Soyning umumiy uzunligi 60 kmga tengdir.

Omonqo‘ton soyi Qoratepa tizmasidan oqib chiqadigan quyidagi soylar: Oqbo‘ra, Yalangsoy, Qorabuloq, Sevas, Tersak soylarining quyilishidan hosil bo‘ladi. Omonqo‘ton soyi ham Oxalik soyi kabi dashti Darg‘om orqali Darg‘om kanaliga kelib quyiladi. Vohaning suv ta’minoti masalasiga kelganda, bu soylar vodiyning tog‘ oldi qishloqlari atrofini sug‘orishda muhim ro‘l o‘ynaydi.

Zarafshon daryosidan tashqari Samarqand vohasining sug‘orishda Turkiston, Zarafshon hamda Nurota tog‘ tizmalaridan oqib chiqadigan ko‘pdan - ko‘p soylar ham muhim ro‘l o‘ynaydi, ular Zarafshon daryosi suv oqimiga ma’lum darajada ta’sir etadi.

Bizga ma’lumki, XIX asrning 70-yillarida Samarqand vohasi podsho Rossiyasi tomonidan bosib olinib, bu yerda Zarafshon okrugi tashkil etiladi. Ma’muriy jihatdan Zarafshon okrugi uch qismga: Samarqand, Kattaqo‘rg‘on bo‘limlari va Tog‘li hududlarga, o‘z navbatida bu uch bo‘lim esa hammasi bo‘lib 13 ta tumanga: Panjakent, Urgut, Shavdor, Angor, Shiroz, Sug‘ut, Chelak, To‘rko‘l,

11 Ba’zi etnografik malu’motlarga ko‘ra Siyob o‘ttiz suv yig‘indisi degan ma’noni anglatadi.
12 SamVDA, 50-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 35-yig‘ma jild, 8-varaq.
13 O‘sha arxiv, 8-varaq.
14 O‘sha arxiv, 8-varaq
15 Тимофеев Е.М. и Трегуб Г.Н. Горние саи как источник орошения / бассейн Р.Зеравшана/, Самарканд, 1938

Ofarinkent, Yangiqo'rg'on, Mitan, Kattaqo'rg'on va Payshanba tumanlariga bo'lingan.

L.N.Sobolevning (rus piyoda qo'shinlari generali L.N.Sobolov - XIX asrning 70-yillarida Zarafshon vahosi haqida geografik va statistik ma'lumotlar to'plagan) ma'lumotiga ko'ra XIX asrning 70-yillari boshida Samarqand vohasi obikor yerlarining umumiy maydoni 9893,8 qo'sh[16] yoki 128820 desyatina[17]ga teng bo'lgan shu jumladan, Samarqand bo'limida 7410,25 qo'sh yoki 96484,5 desyatina va Kattaqo'rg'on bo'limida 2483,5 qo'sh yoki 32,331 desyatina yer maydoni sug'orilgan[18]. Bu tumanlardagi obikor yerlarining asosiy qismi Zarafshon daryosidan chiqarilgan ellikdan ortiq sug'orish tarmoqlari orqali suv bilan ta'min etilgan. Masalan obikor yerlarning maydoni Panjakent bo'limida 533 qo'sh yoki 6940 desyatina, Urgut tumanida 1021,5 qo'sh yoki 13,300 desyatina, Shovdor tumanida 754 qo'sh yoki 9,817 desyatina, Angor tumanida 491,3 qo'sh yoki 5,397 desyatina, Sheroz tumanida 1022 qo'sh yoki 13,306 desyatina, Sug'ut tumanida 1,283 qo'sh yoki 17,708 desyatina, Chelak tumanida 448 qo'sh yoki 58,33 desyatina, To'rtko'l tumanida 170 qo'sh yoki 2213 desyatina, Ofarinkent tumanida 12027qo'sh yoki 15,660 desyatina, Yangiqo'rg'on tumanida 483,5 qo'sh yoki 6,295 desyatina, Mitan tumanida 220 qo'sh yoki 2864 desyatina, Kattaqo'rg'on va Payshanba tumanlarida esa, hammasi bo'lib 2263 qo'sh yoki 29465 desyatinaga teng obikor erlar bo'lgan[19]. Shunday qilib, XIX asrning 70-yillarida Zarafshon okrugida faqat Zarafshon daryosidan hammasi bo'lib, 128,806 desyatina, shu jumladan, Samarqand bo'limida 76,234 desyatina, Kattaqo'rg'on tumanida 32,331 desyatina, Panjakent bo'limlarida esa 20,240 desyatina yer maydoni sug'orilgan. L.N Sobolevning ma'lumotiga ko'ra, shu davrda Samarqand vohasida Zarafshon daryosidan chiqarilgan 56ta yirik magistral kanallar bo'lib, ulardan 42 tasi Panjakent va Samarqand bo'limlarini, 14 tasi esa Kattaqo'rg'on bo'limini sug'orar edi.

1888-yilda Samarqand harbiy gubernatorining Rossiya harbiy vazirligiga yoborgan hisobatida keltirilishicha, Samarqand vohasining obikor yerlarini Zarafshon daryosidan hammasi bo'lib 99 ta katta va kichik magistral kanallar hamda ulardan bosh olgan 985 ta shoxariqlar orqali sug'orilishi aytib o'tilgan[20].

Samarqand vohasi sug'orish tizimlari o'zining hajmi, uzunligi, suv sarfi sug'orish maydoni jihatdan turlicha bo'lib, ularning eng kichigi 2-3 chaqirimdan iborat, yirigi esa 100 chaqirimgacha bo'lgan. Panjakent tumani bo'ylab, Zarafshon daryosining chap qirg'og'idan bosh olgan kanallardan Damariq, Juyi Kalon, Juy Sarazm va daryoning o'ng qirg'og'idan chaqirilgan Juyi Xurmo kanallarining umumiy uzunligi 2-4 chaqirim bo'lib va ularning chuqurligi 1-2 arshindan oshmagan Bulung'ur hamda Tuyatortar kanallari Zarafshon daryosining o'ng qirg'og'idan bosh olgan bo'lib ular Sheroz, Sugut, Chelak hamda To'rtko'l tumanlarini suv bilan ta'minlagan. Kanalning bir shahobi G'oribak qishlog'i yaqinidan boshlanib, Churash arig'i va Poyariqga borib tugagan. Shoxob kanali esa Mirzaariq bilan qo'shilib, O'tob qishlog'i yaqinidagi Oqdaryoga kelib qo'shilgan.

Bulung'ir kanalining uzunligi, to Churosh qishlog'iga qadar 112 chaqirimni tashkil etgan.

16 Xonliklar davrida yer maydonini o'lchashda ishlatilgan mahalliy o'lchov birligi. Bir qo'sh odatda 4 desyatinaga teng deb qabul qilingan, ya'ni taxminan 4,36 gektarga teng https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/qiziqarli-malumotlar/sharq-manbalarida-o-lchov-birliklari .

17 Bir desyatina taxminan 1,09 gektar (10 900 kvadrat metr) ga teng. https://uz.wikipedia.org/wiki/Desyatina

18 Соболев Л.Н. Записки о долине реки Зарафшан и ее ирригационная система, СПб 1872, стр. 19: yana qarang: Соболев Л.Н. об орошении Заравшанской долина, ИИРГО, Т.IX, СПб.1873, стр. 238, yana qarang, Соболев Л.Ню, долине реки Зарафшан и ее ирригационная система, Туркистанские ведомости, СПб. 1874, № 15, yana qarang: Соболев Л.Н., географические и статистические сведения о Зарафшанском округе, СПб. 1874. стр. 231 и 249

19 Соболев Л.Н. географические и статистические сведения о Зарафшанском округе,СПб, 1874. стр. 228 - 231

20 O'zMA, I-7-jamg'arma, 1-ro'yxat, 74-yig'ma jild, 17-varaq.

Chuy tepa qishlog‘idan boshlangan Tuyatortar kanali Parmonko‘r qishlog‘i yaqinida kelib tugagan. Bu kanal Sheroz tumanini, o‘rta asrlarda esa Yangiqo‘rg‘on, Jizzax hamda Mirzacho‘lning bir qismini suv bilan ta’minlagan. Bu davrda Tuyatortarning uzunligi 19 chaqirimga teng bo‘lgan[21]. Sheroz tumanini suv bilan ta’minlashda, Zarafshon daryosining o‘ng qirg‘og‘idan bosh olgan Yangiariq, Qoraariq va Toshariqlar Sheroz tumanining sug‘orib, ortiqcha suvini Mirzaariqqa, Mirzaariq esa Oqdaryoga quygan. Bu kanallarning uzunligi 10 – 35 chaqirimlarni tashkil etgan[22].

Ravotxo‘ja yaqinida Zarafshon daryosining so‘l qirg‘og‘idan Qozonariq, Yangiariq va Darg‘om kanallari bosh olgan. Qozonariq va Yangiariqlarning uzunligi 30 – 40 chaqirim bo‘lgan. Darg‘om kanali Zarafshon daryosining o‘ng qirg‘og‘i sug‘orish tarmoqlari ichida eng yirigi hisoblanib, uning uzunligi 70 chaqirimdan oshiqroq bo‘lgan. Bu kanal Darg‘om hamda Shondor tumanlarining yerlarini sug‘organ. Drag‘om kanali Kuchamalak qishlog‘i yaqinida Qoradaryoga quyilgan[23].

Oqdaryoning chap qirg‘og‘idan boshlangan Shaxob, Chalpakchi, Qiyot, Norqisgai yoki Qo‘shqo‘rg‘on, Chavka va Oqdaryoning o‘ng qirg‘og‘idan bosh olgan Chorjo‘y, Qo‘yidevona, Nag‘mol-chaqmoq, Olloberdi, Xonariq, Ozorbug‘a, Otamxo‘ja kanallari Ofarinkent tumanini suv bilan ta’minlagan, ularning uzunligi 4 – 16 chaqirimgacha bo‘lgan. Samarqand bo‘limining g‘arbiy qismida joylashgan Yangiqo‘rg‘on tumani Zarafshon daryosining o‘ng qirg‘og‘idan suv olgan. O‘rtabo‘z kanali ham Zarafshon daryosining chap qirg‘oqdan boshlangan bo‘lib, u. Yangiqo‘rg‘on va Kattaqo‘rg‘on kanallari orqali suv bilan ta’minlangan, bu uchala kanallarni umumiy uzunligi 8 – 12 chaqirim bo‘lib, O‘rtabo‘z kanalining chuqurligi 3 arshin va qolgan ikkita kanalning chuqurligi 2 arshindan oshmagan[24].

Zarafshon okrugining Panjakent va Samarqand bo‘limlaridagi obikor yerlar Zarafshon daryosining o‘ng va so‘l qirg‘oqlaridan bosh olgan 42 ta magistral kanal orqali sug‘orilib, ulardan 19 tasi Cho‘ponota yaqinida daryo ikkiga ajralgunga qadar, 12 tasi esa Oqdaryodan va qolgan 11 tasi Qoradaryodan chiqarilgan kanallar orqali sug‘orilgan.

Zarafshon okrugining Kattaqo‘rg‘on bo‘limi bu davrda Oq va Qoradaryodan boshlangan 14 ta sug‘orish tarmoqlari orqali suv bilan ta’min etilib, ulardan 4 tasi Oqdaryodan va 10 tasi Qoradaryodan chiqarilgan edi. Yuqoridagi jadvalda ushbu kanallarning nomi suv olgan daryosi hamda sug‘oriladigan yer maydoni keltirilgan.

Shunday qilib, Oq va Qoradaryodan chiqarilgan 14 ta kanal faqat Zarafshon suvi bilan Kattaqo‘rg‘on bo‘limida 28162 desyatina yer maydonini, shu jumladan Oqdaryodan chiqarilgan kanallar 4314 desyatina va Qoradaryodan bosh olganlari esa 23849 desyatina yer maydoni sug‘orilgan. Demak, Kattaqo‘rg‘on bo‘limidagi obikor yerlarning 85 foizi Qoradaryodan va qolgan 15 foiz yer maydoni esa, Oqdaryo suvi bilan ta’minlangan.

Samarqand vohasida Zarafshon daryosidan chiqarilgan sug‘orish tarmoqlarining suv sarfi va sug‘orish maydoni jihatidan turlicha bo‘lgan. Ular orasida eng maydoni sug‘orish tizimlarining suv o‘tkazish qobiliyati o‘rtacha hisobda, sekundiga chorak kub metr va undan ham oz bo‘lib, eng yiriklarining suv sarfi esa sekundiga 70 kubometrga teng bo‘lgan. Masalan, M.M.Virskiyning (M.M.Virskiy – o‘sha davrda Samarqand viloyati statistik qo‘mitasining kotibi) 1888-yilgi bergan ma’lumotiga qaraganda, Samarqand vohasida Zarafshon daryosidan chiqarilgan 83 ta katta–kichik kanallar bo‘lib,

21 Соболев Л.Н. Географические и статистические сведения о Зарафшанском округе, СПб, 1874 стр. 234 - 235
22 Соболев Л.Н. O‘sha asar, 236-238 betlar
23 O‘zMA, I-18-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 9284-yig‘ma jild, 20-varaq.
24 O‘zMA, I-18-jamg‘arma, 1- ro‘yxat, 9284- yig‘ma jild, 25-varaq

ulardan eng kichigi: Mug'lon sekundiga 0,028 kub sarjin[25] (0,27 metr kub), Sujina – 0,013 kub sarjin (0,32 metr kub) suv sarfga ega bo'lgan, ulardan eng yiriklaridan Tuyatortar sekundiga 3,168 kub sarjin (30,6 metr kub), Mirzaariq – 2,958 kub sarjin (286 metr kub, Yangiariq – 2638 kub sarjin (25 metr kub), Darg'om – 7,854 kub sarjin (76 metr kub) miqdorda suv sarflagan[26].

Keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda XIX asrning 90-yillarida Zarafshon vohasining Samarqand qismida daryodan chiqarigan 83 ta katta-kichik kanallarning (ularning 15 tasi Zarafshon daryosining o'ng tamonidan Dupul stansiyasidan Cho'ponotagacha bo'lgan kanallar, 14 tasi Zarafshon daryosining chap tomonidan Dupul stansiyasidan Cho'ponotagacha bo'lgan yerlardagi kanallar, 11 tasi Miyonqoldagi, 18 tasi Qoradaryodan, 13 tasi Oqdaryoning o'ngidan, 12 tasi Qoradaryoning chap qirg'og'idan chiqarilgan kanallardir) umumiy uzunligi 1047 chaqirimga teng bo'lib, ular sekundiga 55,104 kub sarjin yoki 532,5 metr kub suv sarflangan.

Bu kanallardan hammasi bo'lib, 985 ta shoxariqlar ajralib chiqib, ularning umumiy sug'orish maydoni 251,7 ming desyatinaga teng bo'lgan. Shu jumladan, Dupuldan to Cho'ponota yaqinida Zarafshonning ikkiga ajralgan joyigacha, uning o'ng qirg'og'idan bosh olgan 15 ta kanalning suv sarfi sekundiga 12365 kub sarjin (119,5 metr kub) bo'lib, ularning sug'orish maydoni 76,556 desyatinaga: chap qirg'og'idan chiqarilgan 14 ta kanalning suv sarfi – 14,430 kub sarjinni (139,4 metr kub) tashkil etib ularning sug'orish maydoni 75,791 desyatinaga: Oq va Qoradaryo oralig'ida joylashgan Miyonqol tumanini sug'oruvchi kanallarning suv sarfi 3,111 kub sarjinni, (30 metr kub) sug'orish maydoni esa 16,400 desyatinaga, Qoradaryoning har ikkala qirg'og'idan 30 kanalning suvi sarfi 21,025 kub sarjinni (203,2 metr kub) va sug'orish maydoni 67888 desyatinaga, hamda Oqdaryoning o'ng qirg'og'idan bosh olgan 13 ta kanalning suv sarfi sekundiga 4,174 kub sarjinni (40,3 metr kub) va sug'orish maydoni 15,579 desyatinaga teng bo'lgan.

Xulosa qilganda, XIX asrning 70-90-yillarida Samarqand vohasining irigasiyasi 80 dan ortiq katta – kichik magistral kanallar va ulardan chiqarilgan minga yaqin shaxobchalardan iborat bo'lib, anchagina murakkab sug'orish tizimiga bo'lgan bo'lsa-da, biroq ularga kerakli miqdorda suvi daryodan bog'lab olish nihoyatda mushkul edi.

Masalan, Samarqand vohasida XIX asrning 90-yillarida Zarafshon daryosidan bosh olgan 83 magistral kanallarning bosh qismidan suv o'tkazish maqsadida birgina 1888-yilning o'zida 8166 ish kuni sarflangan. Shundan daryoning o'ng qirg'og'idan bosh olgan 15 ta kanalda 1515 ish kuni, chap qirg'oqdagi 14 kanalda 1583 ish kuni, Miyonqoldagi 21 kanalda 1009 ish kuni, Qoradaryoning chap qirg'og'ida 18 kanalda 1253 ish kuni, Oqdaryoning o'ng qirg'og'idan 13 kanal boshida 1028 ish kuni, Qoradaryoning chap qirg'og'idan 12 kanalda 778 ish kuni sarflangan bo'lib, bu faqatgina magistral kanallarning bosh qismidagi mashaqqatli mehnatni ko'rsatar edi. Chunki, yuqorida tasvirlangan magistral kanallarning bosh qismida, ulardan chiqarilgan shaxobchalarda bironta ham injenering tipdagi suv inshoati bo'lmay, ular shox-shabbalardan ishlangan oddiy, vaqtinchalik to'g'onlar bilan boshqarilgan. Bu inshoatlarni har yili tiklash yoki butunlay qayta qurish uchun katta mablag' va kuch sarf bo'lar edi. Chunki daryoning bahorgi va yozgi toshqinlari davrida bu to'g'onlarni suv bir necha bor tagi-tubi bilan olib ketar edi. Natijada, dehqonchilik uchun suv zarur bo'lgan, yozning issiq kunlarida sug'orish tarmoqlari suvsiz qolib to'g'onlarni tiklash uchun, dehqonlar qayta – qayta xashar qilishga majbur bo'lar edi.

25 1 sarjin = 0,028 kub metr (28 litr). sarjin yuk hayvonlarining (otlar yoki tuyalar) tashish qobiliyati asosida aniqlangan va biror bir mahsulotni (bug'doy, arpa yoki paxta) o'lchash uchun ishlatilgan. https://uz.wikipedia.org/wiki/Sarjin

26 Вирский М.М. Ирригационние арики систем реки Заравшана Самаркандской области, Спровочная книжка Самаркандской области, ввп. У Самарканд, 1897, стр. 357

ZARAFSHON VOHASIDA VILOYAT GAZETALARI FAOLIYATI TARIXI (1991-2021-YILLAR)

Abdug'affor Abdurahmonov – t.f.b.f.d.,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Zarafshon vohasi viloyatlarining 1991-2021-yillardagi vaqtli matbuoti tarixi bayon etilgan.*

Аннотация: *В данной статье описана история временной печати регионов Заравшанского оазиса в 1991-2021 гг.*

Abstract: *This article describes the history of the time press of the Zarafshan oasis regions in 1991-2021.*

Kalit so'zlar: *davriy nashrlar, gazeta muassisi, ta'lim-tarbiya, ilm-ma'rifat, gazeta ruknlari, shakl va mazmun, publitsistika.*

Ключевые слова: *периодические издания, газетное учреждение, образование, знания, газетные колонки, форма и содержание, журналистика.*

Keywords: *periodicals, newspaper establishment, education, knowledge, newspaper columns, form and content, journalism*

Mustaqillikning dastlabki yillaridan mamlakatimizdagi barcha nashrlar singari Zarafshon vohasidagi gazetalar sovet mafkurasidan voz kechib, mustaqillik g'oyalarini targ'ib eta boshladi. Birinchi navbatda nashrlarning nomlari o'zgartirildi. Xususan, 1991-yilning sentabr oyidan "Lenin yo'li" gazetasi "Zarafshon" nomi bilan chop etildi. Bu o'zgarishlarni tuman gazetalarida ham ko'rish mumkin.

"Lenin yo'li" gazetasining nomi o'zgartirilishini o'sha vaqtdagi gazetaning bosh muharriri quyidagicha izohlaydi: "Yetmish yildan uzoqroq davrda umid bog'lagan kommunistik g'oyalar asossiz va istiqbolsiz bo'lib qoldi. Mamlakat iqtisodiy inqirozga mahkum bo'lgan, milliy qadriyatlar oyoq osti qilingan turli el va elatlar bir birlariga dushmanlik qilichini qayray boshlagan davr Lenin va leninizm ta'limoti bilan ham bog'liqdir. Buning ustiga gazeta endi kommunistik partiya organi emas. Ana shu va boshqa sabablar "Lenin yo'li" nomini o'zgartirish fikrini taqozo etdi".

Gazetaning nomi o'zgarishi bo'yicha mushtariylardan xatlar va og'zaki maslahatlar olingan. Oxirgi to'xtam "Zarafshon" nomiga borib qadalgan. 1922-yilning may oyidan G'ozi Yunus rahbarligida jo'shqin hamda faol ish ko'rgan o'sha "Zarafshon"ning davomchilari bo'lish maqsad qilinadi[1]. 1992-yilda gazetaning bosh muharriri Mardi Nuriddinov bo'lib, gazeta haftada 5 marta, A-2 formatda, 33 ming 680 nusxada chop etilgan. Bahosi 10 tiyin (obunachilar uchun 5 tiyin) bo'lgan. Gazeta Xalq deputatlari viloyat soveti ijroiya komiteti matbuot boshqarmasining M.B.Morozov nomidagi matbaa birlashmasida chop etilgan.

1992-yil 5-maydan gazetaga Samarqand viloyat hokimining qarori bilan Habib Temirov bosh muharrir bo'ldi[2]. 1990-yillarning boshlaridan gazetaning tiraji pasayib bordi. 1992-yil 25 ming nusxada chop etilgan gazeta 1998-yilga kelib 3 ming 600 nusxagacha tushdi. 1992-yil 18-iyunda "Zarafshon"ga homiy bo'ling" sarlavhali tahririyat murojaatida moliyaviy qiyinchiliklar, qimmatchilik, qog'oz narxining oshib ketgani munosabati bilan haftasiga 5 marta emas 3 marta chop etilishi ma'lum qilindi. Obunachilarga arzon

1 Nuriddinov M. Zarrin nurlaringni sochaver Zarafshon // Zarafshon, 1991-yil, 24-sentabr.

2 Zarafshon gazetasi tahririyatiga bosh muharrir tayinlash to'g'risida Samarqand viloyati hokimi qarori // Zarafshon, 1992-yil, 5-may.

narxda yetkazib berilayotgan gazetalar uchun tahririyat bir kunda 30 ming so‘mgacha zarar ko‘rayotgani ma’lum qilindi[3]. Murojaatnomada barcha tashkilot va korxona, xususiy mulk egalari, birjalar va gazeta mushtariylaridan obuna tashkil etishda homiylik qilish, tashabbus ko‘rsatish so‘raldi.

1991-2021-yillarda “Zarafshon” gazetasi tirajining Samarqand viloyati aholisi bilan taqqosi[4]

Yil	Viloyat aholisi	Gazeta tiraji
1991	2 200,9 ming kishi	33 ming 680 nusxa
2001	2 710,0 ming kishi	3 ming 409 nusxa
2011	3 270,8 ming kishi	7 ming 500 nusxa
2021	3 982,4 ming kishi	17 ming 071 nusxa

Qog‘oz narxining oshib borishi bilan gazetalarning sotuvdagi narxi ham oshib borgan. “Zarafshon” 1992-yilda sotuvda 2 so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 1994-yildan 50 so‘mga chiqdi. 1994-yildan gazetaning sarlavhasi o‘ng tomonida e’lon qilib borilayotgan sotuvdagi narxi olib tashlandi. 1993-yil o‘zbek alifbosida lotin alifbosini joriy etish jarayonlarida tahririyat soha mutaxassislarining fikr-munosabatlarini muntazam chop etib bordi. R.Qo‘ng‘urov, J.Eltazarov qalamiga mansub “Yozuvimiz-yozg‘uvimiz yoki yangi alifbo muammolari haqida” sarlavhali maqolada sotsial so‘rovlar o‘tkazish orqali aholi fikrini bilish va shu orqali yangi alifboga o‘tish lozimligi ta’kidlandi.

Bu vaqtda tahririyat ishida ayollar ham faol ishtirok etishgan. Zabarjad Mahmudova, Matlab Ermuhammedova, Dilbar Saidova, Jamila Xusainova, Nasiba Tursunova, Faya Sa’diyeva, Sara Mavashyeva singari soha fidoyilari Mahbuba Sharapova, Sanoat Najmiddinova, Mastura Bobojonova, Feruza Muhammadiyeva kabi xotin-qizlarga gazetalarning bexato chiqishi uchun tajribalarini o‘rgatishdi[5].

1996-yilda “Zarafshon” gazetasi ilk bor kompyuterda terilib, sahifalandi. 1997-yildan gazetaning ilova sonlari chiqa boshladi. 1997-1998-yillarda “Zarafshon”ga Xolmuhammad Nurullayev rahbarlik qildi. Yangilikka intiluvchan, ijod hissi bilan nafas oladigan bosh muharrir tahririyatda ijodiy erkinlik muhitini yaratdi[6]7. Gazetaning sarlavhasini tepa qismiga “Oila – Muqaddas Vatan” shiori qo‘yildi. 1998-yildan gazetaning formati A-3 ga o‘zgartirildi.

Tahririyat mualliflar bilan ishlashda doim yangicha yondashuvlarni qo‘llab keldi. Bu esa gazetaga keladigan xatlarning sonini oshishiga sabab bo‘lgan. 1999-yil 11-mart hisobiga yil boshidan buyon gazetaga 329 ta xat kelib tushgan. 1998-yilning mart oyi bilan solishtirganda xatlarning soni 2 barobarga oshganini bilish mumkin[7]. Maktublarning mazmun-mundarijasiga e’tibor qaratganda, 285 tasi viloyat xabarlari, yangiliklar, voqea-hodisalarga munosabatlar, 46 tasi badiiy ijod namunalari, 25 tasi ariza va shikoyatlarni tashkil etadi. Shikoyat xatlarida tabiiy gazdagi notekis ta’minot, toza ichimlik suvi borasidagi kamchiliklar, dehqon xo‘jaliklarida yo‘l qo‘yilayotgan nohaqliklar xususida so‘z yuritiladi.

1998-yilning 24-aprelidan 9-dekabriga qadar gazetaga Muzaffar Muqimov rahbarlik qildi. Shu yil 9-dekabrdan viloyat hokimi E.Ro‘ziyevning qarori bilan Farmon Toshev “Zarafshon”ga bosh muharrir etib tayinlandi[8]. Farmon Toshev gazetaga rahbarlik qilish davrida yangi publitsistik ruknlar tashkil etildi. “Bu

3 Tahririyat. Zarafshonga homiy bo‘ling // Zarafshon. 1992-yil, 18-may.
4 Tadqiqotchining izlanishlari asosida tayyorlandi.
5 Tangiyorova A. Tahririyatda ishlayotgan ayollar // Zarafshon, 1994-yil, 24-iyun.
6 Zarafshon 100. (Zarvaraq). Mas’ul muh: I.Po‘latov. — T.: Tafakkur bo‘stoni, 2013. – B. 49.
7 Xatlar va ijtimoy tadqiqotlar tahririyati. Xat-xabarlar nimalardan ogoh etadi? // Zarafshon, 1999-yil, 11-mart.
8 Samarqand mustaqillik yillarida [matn]: xronologik ko‘rsatgich. -T.: SAHHOF, 2021. – B. 41..

bo‘ston sahnida...” (adabiy-badiiy mavzularda), “Tadbirkor” (ishbilarmonlik va tadbirkorlik mavzularida), “Yog‘du” (yoshlar hayotiga bag‘ishlangan mavzularda) kabi nomlar bilan gazeta ilovalari chop etildi. 1999-yil 15-mayda viloyat xotin-qizlar qo‘mitasining gazetasi – “Bibixonim” bilan qo‘shma sahifa nashrdan chiqdi. Shuningdek, F.Toshev tashabbusi bilan viloyatda “Registon” ijtimoiy-siyosiy, “Adolat sari” huquqiy tarmoq gazetalari tashkil etilgan.

1997-yil “Zarafshon” gazetasining 80 yilligi hamda 1999-yil may oyida gazetaning 20 mingchi soni nashr etilganligi munosabati bilan gazeta tarixi va bugungi faoliyati haqida turkum maqolalar chop etildi. Tahririyatda faoliyat yuritgan faxriy jurnalistlarning holidan xabar olindi. Yangi asr boshlarida M.Ibodullayev, O‘.Qurbonov, U.Qodir, U.Ro‘ziyev, S.Husainov, G‘.Yaxshiyev, O‘.Normatov, A.Qarshiyev, I.Do‘stmurodov, A.Qodirov, H.Jo‘rayevlar tomonidan yozilgan turli mavzulardagi ijod namunalari viloyat hamda respublika aholisi tomonidan sevib o‘qildi. Fotomuxbir Jo‘raqul Ergashov olgan suratlar “jonli” chiqishi bilan gazeta sahifalarini bezadi[9].

2000-yilda “Zarafshon” gazetasining shiori “Fidoyilik – vatanga xizmat demak!”, – deb o‘zgartirildi. 2001-yildan sahifalarda lotin alifbosidan foydalanila boshlandi. Shu yilda gazeta azaliy tajribasi – mushtariylar hamda tahririyat o‘rtasidagi muloqotni yaxshilashga qaratilgan “Qo‘lni bering, gazetxon” loyihasini ishga tushirdi. “Savollarga javoblar” ruknida berilgan ushbu loyihada mushtariylariga gazetaning mazmun-mundarijasini yaxshilash, keyingi sonlarda qanday mavzularda maqolalar chop etish, nashrning xato va kamchiliklari haqida o‘z fikrini bildirish bilan bog‘liq savollar berildi. Bu bilan tahririyat mushtariylarni nimalar qiziqtirishi hamda shu orqali auditoriyaga qanday axborotlarni yetkazib berishi xususida ma’lumotlar to‘plagan. Shu bilan birga tahririyatda uchraydigan muammolarni hal etib borgan. Misol uchun savollarga javob bergan obunachilardan biri gazetadagi muammolar haqida to‘xtalib, o‘zbek millatiga mansub kishilarning ism-sharflari rusichalashtirilmagan holda chop etish zarurligi, gazeta o‘quvchilarga kechikib borishi, yoshlar hayotiga oid maqolalar kamligi, nashr tirajining ozligi haqida fikr bildiradi[10].

2006-yildan “Zarafshon” gazetasi huzurida “Jurnalistik mahorat markazi” faoliyat ko‘rsatishni boshladi. Mahorat maktabi o‘quvchilariga jurnalistika janrlari va janrlar tasnifi, maqola yozish uslubi va jurnalist psixologiyasi o‘rgatilgan. Darslarni Ubaydulla Sirojev, Mannob Ibodullayevlar olib borishadi[11]. 2007-yildan gazetaning internetdagi sayti www.zarnews.uz ishga tushdi. Buning natijasida gazetada chop etilgan va asosiy ma’lumotlar ushbu sayt orqali jahonga uzatiladigan bo‘ldi.

2008-yilda O‘zbekiston Mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi moddiy ko‘magida qariyb yuz yillik tarixga ega bo‘lgan “Zarafshon” gazetasining ensiklopediyasi yaratildi. 2009-yil 27-iyun – “Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni” munosabati bilan gazeta A-2 formatda sahifalanib, rangli chop etildi. 2011-yil 30-dekabrda “Zarafshon” va “Самаркандский вестник” gazetalari birlashgan tahririyati tashkil etilib unga Farmon Toshev bosh muharrir bo‘ldi.

Mustaqillik yillarida samarqandlik jurnalistlarning 7 nafari “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist” unvoniga sazovor bo‘lgan. Samarqandlik ijodkorlar “Oltin qalam” Milliy mukofotining turli nominatsiyalari bo‘yicha 11

9 Jo‘rayev H. Haqiqatni suratga oladigan muxbir // Zarafshon, 2000-yil, 24-iyun.
10 Tahririyat. Qo‘lni bering, gazetxon! // Zarafshon, 2001-yil, 27-iyun.
11 Sirojev U, Ibodullayev M. Zehn va iqtidor // Zarafshon, 2011-yil, 25-iyun.

marta mukofotlandi[12].

1992-yilda Navoiy viloyati qayta tashkil etilgach, viloyat gazetasi "Do'stlik bayrog'i" yana o'z faoliyatini boshladi. Gazetaga Hamdam Eshonqulov rahbarlik qildi. Dastlabki yillarda gazeta haftasiga 2 marta nashr etilgan bo'lsa, keyinchalik 4-5 martagacha oshirilgan. Gazetada 12-15 nafar xodimlar ish yuritgan. Tiraji 9-10 ming oralig'ida, A-2 formatda chop etilgan[13]. Gazetaning dastlabki shiori "Quchoq ochib, xalq ichiga boraylik!" edi. Keyinchalik bu "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir!", "Bu muqaddas Vatanda azizdir inson", "Buyuk kelajagimiz bugundan boshlanadi" nomlari bilan o'zgartirilgan. "Do'stlik hayoti" gazetasiga obuna tahririyat xodimlari tomonidan tashkilot va hokimliklar bilan hamkorlik orqali tashkil etilgan. 1996-yilda gazetaning yarim yillik bahosi 260 so'm, 5 oyligi 215 so'm edi[14].

1990-yillarning boshlarida yangi tashkil etilgan viloyatda jurnalistlarga yashash uchun shart-sharoitlarini yaratish ancha muammoli bo'lgan. Shu sababli gazeta ishini tashkil etish va chop etishda bir qator noqulayliklar yuzaga keladi. Gazeta muassisining bosmaxonasi mavjud emasligi va buning natijasida "Navoiyazot" ishlab chiqarish birlashmasi bosmaxonasida chop etilishi ishlarning yanada og'ir kechishiga sabab bo'lgan. Viloyatdagi mavjud vaziyat inobatga olinib, hokimlik tomonidan 1996-yilda 22 million AQSh dollarlik bosmaxona qurish loyihasi ishlab chiqildi[15].

Shunday bo'lsa-da, bu yillarda Navoiy viloyatining shahar va tumanlarida jami 7 ta bosmaxona ishlar va ularda 110 kishi mehnat qilardi. Ushbu matbaachilarning bor-yo'g'i 3 nafari oliy ma'lumotli kishilar bo'lgan. Bosmaxonalarda mavjud bo'lgan 86 ta mashina asbob uskunalarning 65 tasi mehnatga yaroqli bo'lib, bosmaxona ishlarida Zarafshon, Tomdi, Navoiy va Qiziltepa tumanlari faollik ko'rsatishgan. Viloyatda 1995-yilning 5 oyida 502 ming so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa, 1996-yilning 5 oyida bir million 126 ming so'mlik gazeta-jurnal va kitoblar chop etilgan[16].

"Do'stlik bayrog'i" gazetasiga keyingi yillarda G'affor Hotamov, Mahmud Mardiyev, Ibrohim Jumayev, Ulash Nurmanovlar muharrirlik qilishdi. Bu yillar gazeta tajribasi ancha oshdi. O'ziga xos jurnalist kadrlarni tayyorlash maktabi yaratildi. Gazeta sahifalarida mustaqillik mafkurasi kuchaytirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilab berilgan vazifalar, qarorlar va hukumat siyosatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maqola va xabarlar soni oshib bordi.

1997-yilda Navoiy viloyatida matbuot nashrlari 3 tilda, o'zbek, rus, qozoq tillarida chop etilardi. Viloyat matbuot boshqarmasi tizimida 19 ta gazeta mavjud bo'lib, ularning 2 tasi – "Do'stlik bayrog'i", "Знамя дружбы" viloyat gazetasi, 1 ta shahar, 8 ta tuman, "Qizilqum", "Qonun kuchi", "Oltin diyor", "Soqchi", "Salomatlik", "Navoiydan gapiramiz va ko'rsatamiz", "Ziyokor", "Чудо дерево" kabi tarmoq va jamoat tashkilotlari gazetalari edi[17].

1999-yildan "Do'stlik bayrog'i" viloyat matbuot boshqarmasining kompyuter markazida terilib sahifalangan. Shundan so'ng Qiziltepa tuman bosmaxonasida chop etilgan. Kompyuter texnik xizmati boshida sahifalovchilardan Sh.Berdiyev, M.Avg'onova, musahhih J.Xushnud, mas'ul kotib I.Xoliboevlar faoliyat ko'rsatishgan. Shuningdek, gazetachilik zahmatini birga kechgan qiziltepalik matbaa xodimlaridan Ravshan Umedov, Azimjon

12 O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi Samarqand viloyati bo'limining 2020-yil ish rejasi asosida yil davomida amalga oshirilgan ishlari haqida MA'LUMOT. 2020-y. 12.31.

13 Eshonqulov H. Intervyu. 2022.04.16. Jizzax-Navoiy.

14 Tahririyat. Siz sevib o'qiydigan gazeta // Do'stlik bayrog'i, 1996-yil, 28-may.

15 Qambarov O. Gazeta, gazetxon, matbaachi //Do'stlik bayrog'i, 1996-yil, 25-iyun.

16 O'sha joyda.

17 Qambarov O. Ma'naviy hayot ko'zgusi // Do'stlik bayrog'i, 1997-yil, 27-iyun.

Mahmudov, Abdumalik Shodiyev, Ozoda Rajabovalarning nomini alohida eslab o'tish kerak[18].

"Do'stlik bayrog'i" 2000-yildan ofest usulida bosila boshladi. 2003-yildan tahririyat to'liq kompyuterlashtirildi. Jurnalist kadrlarning faoliyati uchun sharoitlar yaratildi. Moddiy-texnik bazasi yaxshilandi[19]. "Shu zamin dilbandlari", "Oramizdagi odamlar", "Aks-sado", "Ming bir maslahat", "Turfa olam", "Hikmat durdonalari", "Bir xat izidan", "Bizni o'ylantirgan muammolar", "Ochiq, ammo achchiq gaplar", "Muxbir bong uradi" kabi ruknlar bilan qiziqarli, hayotiy maqolalar chop etildi[20].

Tahririyat xodimlarining "Maktabning yozgi tashvishlari"[21], "Imkoniyatdan imkoniyat izlang, rais"[22], "Urug'chilikka e'tibor qani? Yoxud unutilayotgan soha"[23], "Arzimizni kimga aytaylik?"[24], "Qishga hozirlik yaxshiday, biroq"[25], "Qayerdasiz, Otabek, Kumush?"[26] sarlavhali tanqidiy-tahliliy maqolalari bugungi kunda ham dolzarbligi, mazmun-mohiyati jihatdan ahamiyatliligi bilan ajralib turadi.

2003-yilda "Do'stlik bayrog'i"ning tashkil topganiga 20 yil to'lgani munosabati bilan yozuvchi-shoirlar, davlat va jamoat arboblari tahririyatga tabriknomalar yuboradi. Taniqli ijodkorlardan G'aybullah as-Salom, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf, Shavkat Rahmon, Xurshid Do'stmuhammad, Azim Suyun, Dushan Fayziy, Jahongir Ismoilovlar gazetaning doimiy muxlislar bo'lishgan va ijodiy ishlari bilan qatnashib turgan.

2003-yilda Navoiy viloyatida 200 dan ziyod jurnalistlar-xodimlar faoliyat ko'rsatgan[27]. Navoiy viloyati jurnalistikasining rivojlanishiga Hamdam Eshonqulov, Suyunduq Mustafoyev, Yorqul Umarov, Rahim Maqsudov, Odilqul Hotamov, Salima Umarova, Rahim Qodirov, Abubakr Shektibayev kabi ustoz jurnalistlar[28] va Ruslan Soburov, Isroil Xolboyev, Zulfiya Boboyeva, Zebo Kutliyeva, Xolbibi Safarova, Hilola Istamova, Ozod Mustafoyev, Xolida Fayziyeva kabi yosh jurnalistlar o'z hissalarini qo'shishdi[29].

"Do'stlik bayrog'i" gazetasiga 2010-2021-yillar davomida Boboqand Umarov, Olga Pavlovna, Dilshod Islomov, Abdumajid Jo'rayev, Bektemir Pirnafasovlar bosh muharrir vazifasida ishladi. Ushbu vaqt oralig'ida gazeta A-3 formatdan A-2 formatda, rangli nusxada chop etila boshladi. 2010-yilda gazeta 26 366 nusxa, 2021-yilda esa 4 ming nusxa chop etildi. Gazeta tirajining pasayib borishiga majburiy obuna tizimining bekor qilinishi va pandemiya o'z ta'sirini o'tkazgan.

"Buxoro haqiqati" gazetasi 1990-yilda A-2 formatda, 50 ming 500 nusxada chop etilgan. O'sha vaqtda gazetaninng bahosi 3 tiyin, shiori "Butun dunyo proletarlari birlashing" bo'lib, tahririyatga 1986-yildan buyon Ahmadjon Niyozmurodov[30] rahbarlik qilib kelayotgan edi.

18 Habib Sh. Yorug' kunlar sog'inchi // Do'stlik bayrog'i, 1999-yil, 26-iyun.
19 Navoiy gulshani (Do'stlik bayrog'i gazetasining 25 yilligiga). Nashrga tayyorlovchi: S.Umarova. —T.:San'at jurnali. -2008. – B. 5.
20 Matbuot – tarix, xotira // Do'stlik bayrog'i, 2003-yil, 26-iyun.
21 Ochilova O. Maktabning yozgi tashvishlari // Do'stlik bayrog'i, 1996-yil, 11-iyun.
22 Mardiyev M. Imkoniyatdan imkoniyat izlang, rais! // Do'stlik bayrog'i, 1996-yil, 13-may.
23 Tursunov M. Urug'chilikka e'tibor qani? Yoxud unutilayotgan soha// Do'stlik bayrog'i, 1996-yil, 26-aprel.
24 Mirzayev J. Arzimizni kimga aytaylik? // Do'stlik bayrog'i, 2004-yil, 24-iyun.
25 Ismatova X. Qishga hozirlik yaxshiday, biroq // Do'stlik bayrog'i, 2008-yil, 20-noyabr.
26 Safarova X. Qayerdasiz, Otabek, Kumush? // Do'stlik bayrog'i, 2011-yil, 15-fevral.
27 Umarov Y. Ijodkorlar uyushadigan tashkilot // Do'stlik bayrog'i, 2004-yil, 24-iyun.
28 Jo'rayev A. Izchil islohotlar va taraqqiyot // Do'stlik bayrog'i. 2012-yil, 26-iyun.
29 Oltin sahifalar shukuhi / to'plam. Tahrir hay'ati hammuallifligida. – Navoiy.: 2013. - B. 36.
30 Ahmadjon Niyozmurodov tajribali jurnalist va matbaachi, o'z davrining benazir mas'ul kotibi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist edi. Uning muharrirligi yillarida jamoada sog'lom va ishchan muhit yaratildi. Tahririyatga iqtidorli yoshlarni jalb eta oldi. Ahmedov S. Asrlarga teng yillar // Buxoronoma, 2010-yil, 31-avgust.

1990-yilda "Buxoro haqiqati"ning 18 minginchi soni chop etildi. Bu yillar davomida tahririyat maktabidan taniqli shoir va yozuvchilardan Jamol Kamol, Ne'mat Aminov, Omon Muxtor, Olim Jo'rayev, Tilak Jo'ra, Aminjon Shukurov, Nusrat Raimovlar yetishib chiqdi[31].

Gazetaning shanba kunlari A-3 formatda ilova sonlari nashr etilgan. Mustaqillik arafasida tahririyatga mustaqillik g'oyalariga qarshi bo'lgan materiallar berish bo'yicha bosim o'tkazilgan[32]. Biroq tahririyat Mustaqil O'zbekiston Respublikasi siyosatini qo'llab-quvvatlash yo'lidan boradi. Buni tahririyat xodimlari B. Jumayevning "Istiqbolga ishonch", E.Bobomurodovning "Erk qushini uchirib yubormaylik", B.Rajabning "Qadriyat – ruh qanoti", M.Bo'ronovning "Tayanch nuqta bormi?", M.Hamidovaning "Xalq farzandi", I.Subhonning "Turon daraxti" M.Sharipovning "Istiqloling muborak, O'zbekistonim" sarlavhali maqolalaridan bilish mumkin[33].

"Buxoro haqiqati" gazetasi qo'shni respublikalar hamda viloyatlar bilan ijtimoiy-ma'naviy hamkorlikni yo'lga qo'ygan edi. Buni Samarqand, Xorazm, Surxondaryo, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlari, Rossiyaning "Челябинский рабочий", Turkmanistonning Lebab viloyati, Tojikistonning Dushanbe shahri gazetalari bilan qo'shma sonlar chop etganidan bilish mumkin[34]. Tahririyat gazeta mazmun mundarijasini yaxshilab borish yuzasidan o'quvchilari bilan turli uslublarda muloqot qilib kelgan. Yil yakunlanishida "Gazetamizning kelgusi sonlari qanday bo'lishini istaysiz?" ruknida tashkilot va korxona rahbarlari, hokimiyat vakillarining maqolalari chop etilgan. Bu birinchidan ushbu tashkilotlarda obuna uyushtirish uchun yaxshi imkoniyat yaratib bersa, ikkinchidan mushtariylarning xohish va istaklarini eshitish orqali tahririyatning ish tajribasini oshirishga xizmat qilgan.

Boshqa nashrlar singari "Buxoro haqiqati"ning 1992-yildan tiraji pasayib bordi. Ushbu yilda 26 ming nusxada chiqqan nashr, 1997-yilda 7 mingta, 2002-yilda 2 ming nusxada chop etildi. Gazeta sahifalarida tojik tilida materiallar berilgan bo'lsa, 1994-yildan bu amaliyot to'xtatilgan. Gazeta o'z o'quvchilariga keyingi soni haftaning qaysi kuni va sanasida chop etilishini oldindan xabar qilib borgan. Misol uchun 1993-yilning 5-yanvar sanasida chop etilgan gazetaning 4-sahifasining pastki qismida "Gazetamizning keyingi soni 1993-yil 7-yanvarda chop etiladi", – degan so'zlar yoziladi. Ammo bu amaliyot ham vaqt o'tishi bilan bekor bo'lib borgan.

1990-yillarning boshlarida gazeta sahifalarida ijtimoiy-siyosiy jihatdan ahamiyatga ega maqolalarni ko'p uchratish mumkin. Xususan, 1992-yil 22-oktabr sonida A.A'zamxo'jayev "Yoshlarni qaysi yo'lga boshlamoqdasiz, janoblar!"[35] sarlavhali maqolada O'zbekistonda "Birlik" xalq harakati tomonidan mamlakatda notinchlik keltirib chiqarishga qaratilgan urinishlar tanqid ostiga olindi. Shuningdek, "Aybsiz aybdorlar"[36], "Ma'murchilik sari yaqin yo'l"[37], "Otam bosmachi emasdi"[38], "Bahona emas, mahsulot kerak"[39], "Kutubxonalarimizni kim nazorat qiladi?"[40] sarlavhali maqolalarda

31 Tahririyat. Qutulishdan – Buxoro haqiqatigacha // Buxoro haqiqati, 1990-yil, 28-iyun.
32 Ahmedov S. Asrlarga teng yillar // Buxoronoma, 2010-yil, 31-avgust.
33 Tarixga muhrlangan 90 yil [Matn]/ to'plamni nashrga tayyorlangan mas'ul muharrirlar: J.Ismoilov, A.Xalilov. – Buxoro: Buxoro nashr. foto, portr. 2010 y. –B. 29.
34 Niyozmurodov A. Buxoro hayotining ko'zgusi. Buxoro nashriyoti — 2009-yil. - B. 141.
35 A'zamxo'jayev A. Yoshlarni qaysi yo'lga boshlamoqdasiz, janoblar! // Buxoro haqiqati, 1992-yil, 22-oktabr.
36 Ismoilov J. Aybsiz aybdorlar // Buxoro haqiqati, 1990-yil, 29-mart.
37 Bo'ronov M. Ma'murchilik sari yaqin yo'l bormi? // Buxoro haqiqati, 1993-yil, 1-yanvar.
38 Qilichev R. Otam bosmachi emasdi // Buxoro haqiqati. 1993-yil, 13-fevral.
39 Qodirov S. Bahona emas, mahsulot kerak // Buxoro haqiqati. 1993-yil, 19-iyun.
40 Aliyev S. Kutubxonalarimizni kim nazorat qiladi? // Buxoro haqiqati, 1994-yil, 2-iyul.

ushbu davr nafasi, insonlar o'y-hayollari, ijtimoiy turmush tarzi tahlil etiladi.

1993-yildan "Buxoro haqiqati"ga Toshpo'lat Ahmad bosh muharrir etib tayinlandi. Bu yillar Respublika bo'ylab qog'oz taqchilligi yuzaga kelgandi. Shuning uchun ham gazetaning ilova sonlari chiqmay qo'yadi. Gazetaning sotuvdagi bahosi 300 so'mgacha ko'tariladi. O'tgan yillar bilan solishtirganda gazeta bahosi 1992-yilda 1 so'm, 1993-yilda 3 so'm bo'lgan edi. 1996-yildan "Buxoro haqiqati" gazetasining nomini o'zgartirish kun tartibidagi masalalardan biriga aylandi. Ushbu holat "haqiqat" so'zi sovet davridan meros bo'lib kelayotgani bilan izohlangan[41]. Shu yilda gazetaning shiori "Vatan – sajdagoh kabi muqaddas" nomiga o'zgartirildi. Bir qancha muhokamalardan so'ng 1999-yil 22-dekabr 102-sonidan boshlab "Buxoro haqiqati" gazetasi "Buxoronoma" nomi bilan chop etildi.

1998-yildan gazetaga Nusratulla Naimov rahbarlik qildi. Gazeta A-3 formatda, 8 sahifada chop etila boshlandi. Nashrning bayram sonlari karikatura rasmlar bilan boyitib borildi. Karikaturalarda asosan davlat idoralari va korxona-tashkilot rahbarlarining suratlari aks ettirilgan.

1999-2002-yillarda ham gazeta tiraji tushib bordi. Bu tahririyatni yangi xodimlarni ishga jalb etish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlab borish uchun to'sqinlik qilib kelgan. Shu sababli ham bu vaqtda O'zbekiston axborot agentligi tomonidan tayyorlangan xabarlar, Prezident Farmonlari va Qarorlari gazeta sahifalarida me'yordan oshib ketgan. Shunday bo'lsa-da, nashrda jurnalistik surishtiruvlari, tarixiy mavzular, tanqidiy va tahliliy maqolalar chop etib turildi. Xususan, N. Ramazonovning "Saboqlar nimadan saboq beradi?"[42] sarlavhali maqolasida jurnalist muammoni boricha o'rtaga olib chiqqanini o'qish mumkin.

Gazeta chop etishdagi qiyinchiliklarga qaramasdan viloyatda nashrlarning soni ortib bordi. 1991-yilda Buxoroda 12 ta ijtimoiy-siyosiy gazeta va 5 ta tarmoq gazetasi mavjud bo'lgan bo'lsa, 2001-yilga kelib, umumiy nusxasi 98 ming bo'lgan 35 ta gazeta va 2 ta ilmiy jurnallar chop etilgan[43].

2002-yildan "Buxoronoma" gazetasiga taniqli jurnalist Jahongir Ismoilov rahbarlik qildi. Gazetaning shanba – ilova sonlarini "Buxoro yangiliklari" nomi bilan nashr etish yo'lga qo'yildi. Gazeta ofest usulida tahririyatda tayyorlanib, viloyat bosmaxonasida chop etildi. Tahririyat internet tarmog'iga ulandi. Natijada, sahifalarning mazmun-mundarijasi turli mazmundagi xabarlar bilan boyitildi. 2003 -yil gazetaning elektron pochtasi ochildi. Bu jamoatchi muxbirlar bilan masofadan turib ishlashni yanada qulaylashtirdi. 2006-yildan boshlab lotin grafikasidagi maqolalar gazeta sonlaridan o'rin ola boshladi. 2007-yildan boshlab "Rassom xandasi" ruknida jamiyatdagi mavjud muammolar kulgi ostiga olinib nashr etilishi yo'lga qo'yildi. Jahongir Ismoilov muharrirligi yillarida gazetaning mazmun-mundarijasi boyidi. "Dunyo xabarlari", "Munajjimlar bashorati", televideniyening haftalik dasturlari nafaqat ziyoli gazetxonni, balki aholining turli qatlam vakillarini ehtiyojlarini qondirishga xizmat qildi. Shunday bo'lsa-da, "Buxoronoma"ning tiraji 4-9 ming oralig'ida edi.

2009-2015-yillar Zuhra Qurbonova, Istam Ibrohimov, Erkin Yodgorov, Abdujalil Xalilov, Sergey Poletov, Mohigul Nazarova, Botir Jumayevlar tomonidan yozilgan xabar va maqolalar viloyat aholisining e'tiborida bo'ldi. "Buxoronoma"ning yosh ijodkorlari Dilorov Xalilova, Mizrob Bo'ronov, Baxtiyor Asadov,

41 S. Aliyevning "Buxoro haqiqati" gazetasining 1996-yil, 26-iyun sonidagi "Buxoro axbori bo'lsin" sarlavhali maqolasida sovet davrida gazetalarning barchasi "Правда" gazetasiga ishqibozlik qilib o'zlariga ham ushbu nomni olgani izohlangan.

42 Ramazonov N. Saboqlar nimadan saboq beradi? // Buxoro haqiqati, 1998-yil, 28-fevral.

43 Inoyatov Sh. Jur'atli va izchil bo'laylik // Buxoronoma, 2001-yil, 27-iyun.

Isroil Subhonov, Gulnora Samiyeva, Muzaffar Sharipov, Muhiba Hamidova kabi tajribali ustozlar Baxshulla Saidov, Ahmadjon Niyozmurodov, Ato Akramov, Yahyo Vahobov, Ismoil Yoqubov, Ahror Bahramovlardan saboq olib o‘z qalamlarini charxladi[44].

2011-yildan "Buxoronoma" gazetasining birinchi sahifasi tepa qismida "Sotuvda erkin narxda" so‘zi olib tashlanadi. Tahririyatga davlat idoralari, tashkilot va korxonalarda ishlovchi kasb egalarning bayram munosabati bilan chop ettirgan tabriknomalari, e'lonlar va bildiruvlardan pul mablag‘lari tushib turgan. 2015-yildan gazeta A-2 formatda, rangli bo‘lib chiqa boshladi. Shu yili bir muddat Abdujalil Xalilov gazetaga rahbarlik qildi. Keyin Zarif Komilov bosh muharrir vazifasiga o‘tdi. 2017-yildan tahririyat jamoasini Sulaymon Shodmon boshqarib kelmoqda.

"Ovozi Samarqand" gazetasi tojik tilida, haftada ikki marta chop etiladi[45]. "Ovozi Samarqand" – xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashi va viloyat hokimligining gazetasi bo‘lib, u 1990-yil 1-yanvardan tojik tilida nashr etib kelinadi. Shu yildan gazetaga jurnalist va yozuvchi Nor Ostonzoda bosh muharrirlik qilgan. U yetti yillik rahbarlik faoliyati davomida gazetaning mazmunan boyishi va ijodiy adabiy muhitning shakllanishiga hissa qo‘shdi. Gazetani viloyatdagi ommaviy axborot vositalari o‘rtasida o‘z o‘rnini topishida Nor Ostonzoda, G‘afurjon Mahmudov, Xursand Jumayev, Hazrat Sabohiy, Adash Istad, Shavkat Bahromov, Toshqul Azimov, Zohir Hasanzoda, Baxtiyor Jumayev, Gulchehra Halimova singari jurnalistlarning mehnatlari alohida tilga olinadi. 1997-yilning oktabr oyidan gazetaga filologiya fanlari nomzodi G‘afurjon Mahmudov bosh muharrir etib tayinlandi. Uning tadbirkorlik va ishbilarmonlik xislatlari gazetaning yanada jonlanishiga, mushtariylari sonining ko‘payishiga xizmat qildi. Gazeta 2010-yildan A-2 formatda sahifalanib, rangli chop etilmoqda. 2015-yildan haftada ikki martadan chiqa boshlagan.

2011-yil 1-martdan 2016-yil iyuliga qadar Ozodjon Xidirov (Hamidzoda) gazetaga muharrirlik qildi. 2018-yildan bugungi kunga qadar falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Bahodir Rahmonov gazeta bosh muharriri sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. 2021-yil hisobiga "Ovozi Samarqand" gazetasi tahririyatida 16 nafar ijodiy va texnik xodimlar mehnat qilmoqda. T. Azimzoda, B. Jumayev, Q.To‘rayev, S.Narziyeva, J.Obidov, F.Shukurov, N.Boboaxmedov, S.Rajabov, L.Rahimova, D.Nurov, F.Yuldoshev, U.Hazratqulov, M.Sharipova, Sh.Kenjayev, H.Sodiqovlar shular jumlasidandir. Ishchi-xodimlarning asosiy qismini yoshlar (10 nafar) tashkil etib, qarib hammasi oliy ma'lumot (12 nafar) egasidir.

Gazeta sahifalarida "Munosabat", "Xalq qabulxonasi", "Do‘stlik bayozi" ruknlari ostida mamlakatdagi o‘zgarishlar, xalq tashabbus va takliflari, millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik g‘oyalariga asoslangan turkum materiallar chop etiladi. Shuningdek, "Qabulxonai xalq", "Shukrona", "Omo‘zgor", "Zango‘la", "Madadi Sino", "Husnoro", "Gulbog‘i adab", "Chavononi O‘zbekistoni nav" "Hidoyat", "Farog‘at" kabi maxsus sahifalar o‘quvchilarga ma'qul kelmoqda. Barcha xodimlar kompyuter jihozlari bilan ta'minlangan. 2 fotoapparat, 2 rangli printer mavjud. Bitta konditsioner bor. Xodimlarning ish sharoitini yaxshilash, tahririyat faoliyatini yanada tezkor bo‘lishi uchun 2019-yil viloyat hokimligi tomonidan xizmat mashinasi va tahririyat texnik bazasini mustahkamlash uchun 180 million so‘m mablag‘ berilgan.

Gazetaning 30 yilligi munosabati bilan samarqandlik ijodkorlarning ijod namunalaridan iborat "30 guftor az 30 tor" va 30 yil davomida gazetada chop etilgan eng yaxshi maqolalar

44 Tarixga muhrlangan 90 yil [Matn]/ to‘plamni nashrga tayyorlangan mas'ul muharrirlar: J.Ismoilov, A.Xalilov. – Buxoro: Buxoro nashr. foto, portr. 2010 y. –B. 192.

45 O‘zbekiston Jurnalistlar ijodiy uyushmasi Samarqand viloyat bo‘limidan ma'lumotnoma. 04.12. 2021.

to‘plami – “30 nomayi ro‘znoma” kitoblari chop etildi. Gazeta muxbirlari T.Azimov, B.Jumayev, B.Rahmonov, D.Nasimova, F.Yuldoshyevlar “Yilning eng faol jurnalisti” diplom va faxriy yorliqlari bilan taqdirlanishgan. 2018-yilda “Ovozi Samarqand” gazetasi jurnalistika sohasida “Oltin qalam” XIII Milliy mukofoti uchun o‘tkazilgan xalqaro tanlovda qatnashib, viloyatda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoni, millatlararo do‘stlik va totuvlik targ‘ibotiga qo‘shayotgan hissasi uchun matbuot yo‘nalishida uchinchi o‘rinni egallagan.

2001-yil “Zarafshon” gazetasi tahririyati “Navro‘z – boqiy bayram” Respublika tanlovida turkum maqola va bezakli sahifalar uchun “Eng yaxshi tahririyat” nominatsiyasi bo‘yicha rag‘batlantiruvchi sovringa munosib, deb topildi[46]. 2005-yil tahririyati jamoasi “Eng ulug‘, eng aziz!” Respublika ko‘rik-tanlovining g‘olibi bo‘ldi. 2012-yil YuNISEF bilan O‘zbekiston hukumati o‘rtasida 2010-2015-yillar uchun mo‘ljallangan hamkorlik dasturi loyihasining viloyatdagi koordinatori etib tasdiqlandi[47]. 2013-yil “Zarafshon” va “Самаркандский вестник” gazetalari birlashgan tahririyati jurnalistika sohasida “Oltin qalam” milliy mukofoti uchun sakkizinchi xalqaro tanlovda ikkinchi o‘ringa sazovor bo‘ldi[48]. Shu yilda tahririyat qoshidagi “Jurnalistik mahorat markazi” “Jurnalistika – ijodiy fan” tanlovida ikkinchi darajali diplom bilan taqdirlandi. Shuningdek, “NNT faoliyatini yoritgan eng yaxshi tahririyat va jurnalist” tanlovida ikkinchi o‘ringa sazovor bo‘ldi.

2013-yil “Zarafshon” hamda “Самаркандский вестник” gazetalari tahririyati O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi va nodavlat notijorat tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan o‘tkazilgan “NNT faoliyatini yoritgan eng yaxshi tahririyat va jurnalist” tanlovida ikkinchi o‘ringa sazovor bo‘ldi[49].

Gazetada faoliyat ko‘rsatgan Mahbuba Sharopova 1999-yil “Shuhrat” medali, 2000-yil Sulaymon Husainov “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist” faxriy unvoni, 2003-yil gazeta bosh muharriri Farmon Toshev “Mehnat shuhrati” ordeni, 2006-yilda gazeta mas’ul kotibi Adham Hayitov “Shuhrat” medali, 2009-yil Gulruh Mo‘minova jurnalistika sohasida “Oltin qalam” to‘rtinchi milliy mukofoti uchun tanlovning rag‘batlantiruvchi mukofoti, Akram Haydarov “Yilning eng faol jurnalisti” Respublika tanlovi sovrindori bo‘lgan. 2010-yil G‘olib Hasanov “Yilning eng faol jurnalisti”, 2013-yilda Anvar Mustafoqulov “Yilning eng faol yosh jurnalisti” Respublika tanlovi g‘olibi bo‘lishdi. 2014-yil Tog‘aymurod Shomurodov “Do‘stlik” ordeni, 2016-yil Farmon Toshev, G‘olib Hasanov va Anastasiya Pavlenko “O‘zbekiston mustaqilligiga 25 yil” esdalik nishoni bilan mukofotlandi. 2018-yil G‘olib Hasanov “Shuhrat” medali bilan taqdirlandi. Shuningdek, 2021-yil Prezident Farmoniga ko‘ra, “Zarafshon” gazetasining 8 nafar xodimlari “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi” esdalik nishoni bilan mukofotlandi.

“Zarafshon” 2020-yil noyabr oyidan 2021-yil noyabr oyigacha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash Jamoat fondi tomonidan e’lon qilingan tanlovda 40 million so‘m grant yutadi. Reklamadan oyiga tahririyat hisob raqamiga o‘rtacha 30 million so‘m mablag‘ tushadi.

“Do‘stlik bayrog‘i” gazetasi qoshida “Nihol” ijodiy to‘garagi, “Знамя дружбы”

46 47 Zarafshon gazetasi joriy arxivi.

47 48 O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi Samarqand viloyat bo‘limi tomonidan 2014-yil davomida amalga oshirilgan ishlari to‘g‘risida ma’lumot. Samarqand-2014 y.

48 49 Zarafshon, 2013-yil, 27-iyun.

49 50 O‘zbekiston Jurnalistlar ijodiy uyushmasi Samarqand viloyat bo‘limidan ma’lumotnoma. 04.12. 2021.

gazetasi qoshida "Yosh jurnalistlar maktabi" faoliyat ko'rsatgan[50]. Gazetaga jamoatchi muxbirlardan H.Sanginov, B.Mirzayev mulohazali, yoshlar tarbiyasiga doir mavzuda, S.Rahmatova, Sh.Jo'raqulova, ta'lim-tarbiya, qatra, hikoya, ma'naviyat mavzularida, F.Xoliqulova, Sh.Sulaymonova, T.Ravshanov, E.Tursunnazarovalar esa viloyatdagi muhim xabarlarni yozib turishgan[51].

Navoiy viloyati jurnalistlaridan 15 nafariga yaqini O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, 5 nafari deputat, 2 nafari viloyat, 3 nafari tuman va shahar kengashi deputatlari hisoblanadi. 30 dan ortiq jurnalistlar Jurnalistlar uyushmasi a'zosi[52]. 2017-yilda Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash Jamoat fondi tomonidan viloyatdagi 13 ta ommaviy axborot vositalariga 321 million so'm grant mablag'lari ajratildi. Pul tushumlari gazetalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga xizmat qilgan.

2019-yilda "Buxoronoma" gazetasi bosh muharriri o'rinbosari Abdujalil Xalilov "Mehnat shuhrati" ordeni bilan taqdirlandi[53]. 2020-yilda O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi tomonidan o'tkazilgan "Yilning eng faol jurnalisti – 2020" respublika tanlovida fotomuxbir Sergey Poletayev gazeta sahifalarida e'lon qilingan, viloyat ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotiga oid turkum fotoreportajlari uchun g'oliblikni qo'lga kiritdi[54]. 2019-yilda viloyat hokimligi tomonidan "Buxoronoma" va "Бухарский вестник" gazetalari tahririyati kompyuter jamlanmalari topshirildi[55].

Xulosa qilib aytganda, mustaqillikning dastlabki yillarida bosma nashrlar istiqlol qo'riqchilari sifatida rivojlandi. Mamlakatning kelgusi rejalari va taraqqiyotini belgilashda faol ishtirok etdi. Shunday bo'lsa-da, ayrim tahririyatlarning moddiy-texnik bazasi rivojlantirilmadi. Jurnalistlarining oylik maoshi kamligicha qoldi. Sohaga yosh kadrlar jalb etilmadi. 2017-2019-yillarda majburiy obuna tizimining bekor qilishga qaratilgan harakatlar hamda koronavirus infeksiyasining mamlakat bo'ylab tarqalishi bosma nashrlarni og'ir iqtisodiy qiyinchiliklarga olib keldi. Natijada ko'plab gazetalar yopildi. Ayrimlarining tiraji keskin tushib ketdi.

50 Bobobekova Z. Umidli yosh qalamkashlar // Do'stlik bayrog'i, 2015-yil, 26-iyun.
51 Tinib-tinchimas jamoatchi muxbirlar // Do'stlik bayrog'i, 2010-yil, 24-iyun.
52 O'zbekiston Jurnalistlar ijodiy uyushmasi Navoiy viloyati bo'limidan ma'lumot. 12.07.2022-yil.
53 Mukofot muborak aziz hamkasblar // Buxoronoma, 2019-yil, 28-iyun.
54 Tahririyat. Hamkasblarimizning navbatdagi ijodiy yutug'i // Buxoronoma, 2020-yil, 27-iyun.
55 Yodgorov E. Buxoroda jurnalistlar kasb bayrami // Buxoronoma, 2019-yil, 28-iyun.

THE SCIENTIFIC LEGACY OF SHARIFJAN MAKHDUM SADRI ZIYA AND HIS PRIVATE LIBRARY

Dilnavoz Narzikulovna Tagoyeva – teacher, Doctor of Philosophy,
Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract: *The following article provides information about the scientific heritage and personal library of Sadri Zia, the socio-political, cultural environment, social activities, spiritual heritage of the emirate of Bukhara.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Sadri Ziyaning ilmiy merosi va shaxsiy kutubxonasi, Buxoro amirligining ijtimoiy-siyosiy, madaniy muhiti, ijtimoiy faoliyati, ma'naviy merosi haqida ma'lumot berilgan.*

Аннотация: *В данной статье представлена информация о научном наследии и личной библиотеке Садри Зии, общественно-политической, культурной среде, общественной деятельности, духовном наследии Бухарского эмирата.*

Keywords: *"Fehrist" (Catalogue), "Diaries," "Tazkirat-ush-shuara," "Tazkari ash'ar," "Rooznoma," "Tazkirat-ul-hattatin," "Ta'rikhcha," "Navadiri ziyaia".*

Kalit so'zlar: *"Fehrist" (katalog), "sut mahsulotlari," "Tazkirat-ush-shuara," "Tazkari ash'ar," "Rooznoma," "Tazkirat-ul-xattatin," "ta'rifcha," "Navodiri ziyaia".*

Ключевые слова: *"Ферист" (каталог), "Молочные заводы," "Тазкират-уш-шуара," "Тазкари ашар," "Роознома," "Тазкират-уль-хаттатин," "Тарихча," "Навадири зияйя".*

The role of Sharifjan Sadri Zia in the socio-political, cultural environment of the emirate of Bukhara is one of the current issues in the study of social activities and spiritual heritage. Because the study of human life, which left a name in history as an intellectual person who, during the era of the former authoritarian regime, left a rich spiritual legacy of his own due to his unrestrained love for the motherland, patronized the enlighteners of his time, copied books in his library, is relevant even for today.

During the reign of the last three rulers of the Mangit dynasty were Emir Muzaffar (1834-Reign. 1860-1885), Emir Abdulahad (1859- Reign. 1885-1910.) and Emir Alimkhan (1880, Karmana – 1944, Kabul) (Reign- 1910-1920.), new views began to emerge in the minds of the intelligentsia of Bukhara.

Between 1866 and 1868, the immense territories of the Emirate of Bukhara up to Zirabulak were invaded by Russian troops. The Government of Bukhara, deprived from the part of fertile lands, had to recognized that it was forcibly occupied by Russia and, deprived of the right to independently determine the foreign policy of Emirate, became a puppet of the Russian Tsar. Emir Muzaffar, feeling that too many problems would arise before the successor who would come to the throne after him, declared his son Abdulahad heir to the throne in 1882, while still in his lifetime. Emir Abdulahad and Alimkhan were forced to pursue politics as subordinates of the Russian Empire[1]. Sharifjan Sadri Ziya described the era of Emir Abdulahad as follows: "in the days of this emir's rule (years of Reign), friendship between the Russian empire and the Bukhara state developed, telegram and train (appeared), iron bridges to rivers were (built). The city of Chahorjooy (esa) was individually renovated in the Order of the cities of Europe....In his time, ulamo-yu fuzalo was finally well respected (with esteem), Shu'aro-yu udabo Mukarram, Umaro the just, Citizen Cain, (all places were still at peace)

1 Mirza Alim Makhdoom Haji. Tarikhi Turkestan. –Tashkent: Yangi asr avlodi, 2008. –P.189-190.

illo, (but twenty-six years after his) dynasty (1910) there was a intrigues, conspiracy and fightings appeared between Sunnis and Shias in the territory of Bukhara".

After the "Kolesov incident" of 1918, excessive tyranny raged in Bukhara. Fayzulla Khojayev noted that after the Kolesov incident, the emir had executed as many as 1,500 people accused as jadids in the country[2]. At this time Sadri Ziya was a qadi in front of him. 450 people from women and men, Muslims and non-Muslims were executed overnight at the gate of the Qarshi", he wrote in his diary[3]. Soon Sadri Ziya himself was accused of sympathizing with the revolutionaries with all his family members in immediate relatives, arrested and their property confiscated.

On top of this, the manuscripts he restored, series of works by him were burned to the ground. Three days later it was announced that Sadri Ziya had also received an execution sentence. Ahror qulibek inoq, the governor of Qarshi, re-sent the verdict to Bukhara with the view that the emir would confirm it. After a while, a decree comes to the governor of Qarshi. Sadri Ziya recalls this in his diary: "you and your brother were taken into the patronage of His eminence the Emir and he forgave them and replied, "only on this condition that your life is for 2 million Russian rubles, and the life of your brother in exchange of 1 million Russian rubles were to be released. Sadri Ziya was released on 8 June 1918 after 70 days of detention and took up a leadership Islamic court in Shahrisabz.

Sadri Ziya's "Diaries" are an important source among the works of local historians, where the Bukharan revolution was clarified as not a mass social revolution, but a looting invasion of the alien army. Because there is not a impartial information on the history of revolution presented in the books dedicated to the history of revolution by Sadriddin Ayni, Fayzulla Khojayev.

The end of the 19th - beginning of the 20th centuries is considered the period when extremely complex, various socio-political, economic and cultural processes took place in the emirate of Bukhara. First of all, all the economic life of the Russian Empire was subordinated to the interests of the empire, without losing its political independence as a result of the invasion policy. And after the October coup, operating in a semi-colonial state, the coming emirate of Bukhara left the stage of history as a complete state.

Muhammad Sharifjan Makhdum Sadri Ziya Ibn Abdushukur Ibn Abdurasul (Sharifjan Sadri Ziya – researcher) was born on 24 February 1865 in the Ziyauddin district under the emirate of Bukhara, where his father was Islamic qadi. Considering that he was born in this district, his father gave him the nickname Muhammad Sharif, referring to the name Ziyauddin and the fact that his birth took place in the blessed month of Ramadan, exactly on Friday. Regarding this, Sadri Ziya says: "High esteemed secretary Sadri Ziya was born on Friday morning, 27 of blessed Ramadan 1283 of Hegira", Ziyauddin gained fame under the pseudonym Sadri Ziya.

Sadri Ziya worked in responsible positions in the offices of Soviet power in the years after the Bukhara revolution (September 2, 1920), including working in the Directorate of the BPSR for Waqf Affairs, Deputy Chairman of the Directorate for Sharia Affairs, also serving as the bookkeeper of the library named after Abu Ali ibn Sina.

The contribution to the development of Oriental Studies of the scientific heritage and personal library of Sadri Ziya, an enlightened scholar, owner of a rich library, who contributed to the coverage of the history and literary environment of the emirate of Bukhara, is unparalleled.

2 Khojayev F. Materials to the history of the revolution of Bukhara.–P.133.

3 Sadri Ziya. Rooznoma, №2277 Inventory- P. 228

Sharifjan Sadri Ziya, a mature historian of his time, created a number of works, treatises creating a prolific work, despite the fact that he has been occupied with state affairs for many years. In his "Tazkirat-ush-shuaro", Ne'matulla Moohtaram cited poetic excerpts from Sadri Ziya's oeuvre[4], in addition to his "Tazkari ash'or", he noted the presence of "Rooznoma", "Tazkirat-ul-hattatin", "Ta'rikhcha" and "Nawadiri Ziyaiya". But Sadri Ziya did not give perfect information about his scientific and literary heritage in any of his works.

In "Namunai adabiyoti tochik Sadriddin Ayniy[5] lists Sadri Ziya's "Ruznoma", "Tazkirat-ul-khattotin", "Tazkirat-ush-shuara", " History" and "Navodiri Ziyaiya". In addition assesses Sadri Ziya's writing skills as follows: "Sharifjan Mahdum, one of the famous essayists of his time, was a fan of Ahmad Kalla and Sami, writing essays, letters and memorabilia in a simpler, more popular way".

Rasul Hadizada in his work "The sources of Tajik literature of the second half of the 19th – early 20th centuries" gave the name of 16 of his works on the basis of data from tazkiras of the beginning of the 20th century and on the basis of Sadri Ziya's two collections " Majmuai asarho" (Collection of Works), kept in the manuscript treasury of the Institute of Oriental Studies named after FA Abu Rayhon Beruniy of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan under №2193, 1304[6].

In Central Asia, it was the custom of wealthy library owners to compose the catalogue of their books and introduce them to the people of science. But not everyone was able to cope with this hard work. Sharifjan Mahdum Sadri Ziya did this difficult but valuable scientific work in comparison with his time. The author, as early as the introduction to his book, told the purpose of its composition: "Due to the slowness of the times, the uniqueness of the secretaries and the absence of calligraphy, the name of the famous secretaries of the last century, late times in our days has completely disappeared, and their names have been forgotten. No one is found who knows a secretary or knows his writing, who values their sympathy. Such indifference and indifference increase day by day, and on the contrary, it is observed that this situation is even more acute. It was in the hope of reviving the name of those distinguished secretaries and expressing the name of the great deputies to others that the books were chosen to be included in this denomination nominally".

Part of the manuscripts was bequeathed to Sadri Ziya by his father kazikalan Abdushukur. Some of the books were copied at the order and request of Sadri Ziya. The author recognized in his work the times when he received extremely rare and invaluable books for material assistance or in return for his debt. For example, was copied by Hafeez Sherazi, who provided information about the purchase of Amir Khusrav Dehlavi's "Khamsa"in Chorjooy ("Fehrist"). In exchange for this book, he adopted the three children of a stranger woman who was the owner of the book. In this way, his personal library collected manuscripts copied with golden plated pencils of famous poets, scholars, and copying art calligraphers.

The number of works recorded in Sadri Ziya's "Fehristi" is 278 pieces (volumes, notebooks), of which 273 are manuscripts and 5 are lithography books. They were written in Arabic (169), Persian (94) and Turkic-Chagatai (1). The ontologies in certain volumes consist of several works.

4 Muhtaram Nematullah. Tazkirat-ush-shuara / Fund of the manuscripts of the Institute of Oriental studies of the Academy of sciences of the Republic of Uzbekistam . №2252/No. II. –P.89.

5 Ayni S. Namunai adabiyoti tojik. –Dushanbe: Adeeb, 2010. –P.274

6 Hadizade R. Sources on the study f the Tajik Literature middle of the 19th century and beginning of the 20th century. –Stalinabad, 1956. –P.64-69.

After Sadri Ziya died in the jail of the Soviet government, in April 1932 his collection of books (more than 350 volumes) was given to the Bukhara Regional Library named after Ibn Sina. In 1936, this collection was transferred to Tashkent, and at the moment these manuscripts are kept in the funds of the Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhon Beruniy.

Of these, 32 are works attributed to Sadri Ziya. Many works were copied by Sadri Ziya, Ahmad Danish and other representatives of the Bukhara calligraphy school.

It is known that the enlightenment and progressive movement, initiated by leaders such as Ahmad Danish, was continued by many followers even in the 20th century. The propaganda and dialogues of the ideas of the enlightenment occupy an important place in the formation of the scientific and literary environment in Bukhara. After Ahmad Danish, Sadri Ziya and Muhammad Siddiq Hashmat became leaders, patrons, spiritual chiefs of intellectuals who were opposed to the official administration of the emir of Bukhara's scientific and literary environment. Their houses were located at the center of Bukhara's scientific and literary environment, where literary evenings were held.

The scientific literary environment of each era, biographies of representatives of the same environment, literary heritage were reflected in the tazkiras. Muhammad Sharifjan's skill in the field of compiling tazkiras is notable. Sadri Ziya's tazkiras were among the historical-modern and modern tazkiras. "Tazkirat ush-shuaroi mutaqaddimin vassalage of modern and buzurgoni mutavarrin" (About poets, Sultans of the past and present), "Fuzaloi mutaakhirin and shuaroi muasirin" (Scholars and contemporary poets of the latter period), "Tazkar ul-ash'ar" (Memory of poetry), "Tazkiratul-khattatin" (Mention of calligraphy), "Tazkirat-ul-vuzara" (Mention of Ministers), "Tazkirat al-tazkiras such as khumaqah" (dhikr of ignorant), "Tazkirat-Al-hukama" (dhikr of rulers) were created.

Of the 49 poets listed in the "Tazkari ash'ar", 20 were considered active enlighteners. It is known that a group of enlighteners operating in a cultural environment were persecuted, captured and executed.

Ahmad Donish, Shamsiddin Shaeehin, Abdulqodirkhoja Savda, Isa-Makhdum Isa, Abdulmajid Muztarib, Mufti Ikromcha (domullo Ikromi Akram), Sadriddin Ayniy, Ahmadjan Hamdi, Mirzo Hayit Sahba, Abdurauf Fitrat, Saidjan Mahdum Nazmiy, Abdulmajid Ofarin Duzakhi, Mirza Abdulazim Sami, Mirza Abdulvahid Munzim themselves and their works were subjected to insults and criticism in different ways and means by courtiers and rulers, representatives of the ruling class[7].

In his work, however, Sadri Ziya praised the work of these enlighteners and supported their activities. For example, in the chapter "Zikri fozili neknomi baland maqom Haji Mulla Ikrom" (remembering of Haji Mulla Ikram, a high-ranking scholar), Mufti Ikrom is described as a devout enlightener and truthful scientist. Whoever makes inappropriate reproaches about his book, he claims not to be of the people of science.

Sadri Ziya had more information about the famous people of his time. On his initiative, the manuscripts of Ahmad Donish's "Navodirul-vaqoe", Qari Rahmatullah Vazeh's "Toohfat ul-ahbab", Shamsiddin Shahin's "Badae -us-Sanae", and other similar poets' works of the second half of the 19th century were brought to the book State. At the beginning of the 20th century, the works of these enlighteners became more popular among progressives, they were introduced.

Sadri Ziya in his work "Ruznama" (Diary) in

7 Sadri Ziya. Navadiri Ziyaiya.– Tashkent: Bayoz, 2017. –P. 97-132.

Bukhara in the late 19th – early 20th centuries Akhund Mulla Imamiddin, Muftihaji domullo Ikrom sudur, Abdusamadkhoja sudur Rais, Mufti Askar Orifhaja sudur, Mufti Ismailkhoja Uraq, Mufti Yusuf Makhdum Uraq, Mufti Mulloshah Uraq, Mufti Muzaffarkhoja Uraq, Mufti Mulla Kholmurod Uraq, Mufti Shafqfti Shafqatullahkhoja Uraq, Mufti Najmiddin Makhdum Uraq, Mufti Mulla Qutbiddin Uraq, Ibadullohkhoja, Burhankhan have recorded that many scholars and religious scientists lived there.

During the lifetime and work of Sharifjan Sadri Ziya, many changes took place on the political map of the emirate of Bukhara. The political changes of the time were reflected in the works of local historiographers such as Ahmad Danish, Mirza Abdulazim Somi, Mirza Salimbek, Sadri Ziya, Muhammad Ali Baljuvani, Hamid Ibn Baqokhoja, Mir Siddiq Hashmat. Among these muarrichs, the historical works of Sharifjan Sadri Ziya are distinguished by the detail of their information. His works such as "History", "Rooznoma" (Diary), "zikri saltanati podshohoni manghit dar Movarounnahr" ("mention of the Manghit rulers who ruled in Movarounnahr"), "Fehrist" are rich in information and have a wide range of possibilities. His works are an important source on the history, geography and cultural life of not only Bukhara and Central Asia, but also neighboring countries from the Middle Ages to the early 20th century.

The "History", unlike Ahmad Danish and Mirza Sami, describes the events after the conquest of the Emirate of Bukhara, providing valuable information about the penetration of foreign capital into Bukhara in the second half of the 19th century, the modernization of Bukhara, Kagan, Chorjooy, the opening of large shops and large banks, the construction of railways, telegraph, an iron bridge through Amudarya, modern buildings.

In the study of important information covering the political and social situation, economic and cultural life of the emirate of Bukhara in the second half of the 19th – early 20th centuries, Sadri Ziya's work "Rooznoma" is considered a unique resource. In the pages of the Diary, we are given information about the irrigation (irrigation) system in the districts of Khutfar (Peshko), Komot (Vobkent) and Somjin (Romitan), the bridge built by Russian engineers over Amudarya in 1900-1911, the Facing of Sunnis and Shias in Bukhara in 1910, the political events of 1917-1918-the Bukharan revolution, as well as resistance movements in the first years of people's power in the emirate. In this work, the author has many memories of the cultural and economic life of the peoples of Central Asia, Iran, Afghanistan, Russia. Sadri Ziya, like every intellectual person, was very interested in the events of the world and expressed his attitude towards them. Sadri Ziyo argued that the conquest of the emirate of Bukhara by the Russian Empire was caused by inexperience (kamtajribagi), lack of armor (beasbobi) and lack of cohesion of the population (beittifoqii population) caused the defeat of the Islamic army.

The section of the "Rooznoma" covering the events of 1917-1920 is of particular historical importance. Sadri Ziya summarized the socio-political changes in the Russian state-the internal and foreign policy of the government, especially the population of the country, dissatisfied with its participation in World War I, revolted in February 1917 and overthrew the Tsarist government before recounting the events in the emirate during this period.

Another collection of Sadri Ziya, "Navadiri Ziyaiya" ("The rarities of Ziya") consists of 5 parts, was again restored from memory in 1923-25. The collection tells about the period of rule of the last rulers of Bukhara, Emir Muzaffar, Abdulahad and Alimkhan: "with the help of these rulers, ignorant people achieved high positions, intelligent and well - versed in public administration, no one consulted with sages, and therefore the state of Bukhara was in crisis", he informed about the events of the destruction of the country and its

occupation by Russians[8].

Since Sadri Ziya wrote the history of the Manghit emirs based on Ahmad Danish's "Treatise or a brief history of the kingdom of the House of Manghits", Mirza Abdulazim Sami's "History of the rulers of Manghit" and other sources can be viewed as a historical works.

Sharifjan Sadri Ziya lived during the late 19th–early decades of the 20th century, during the rule of the Russian Empire in Bukhara as well as the government of the PSRB. He stood on the side of progressive care and engaged in science during a period of extremely complex and contradictory processes in the Turkestan region, in which there was political instability, was able to stand a fixed step in his ideals and views.

Sharifjan Sadri Ziya's tangled and arduous life path was inextricably linked with the socio-political life of the emirate of Bukhara at the beginning of the 20th century, gaining fame among the people as a righteous official. During the period 1893-1920, Sharifjan Sadri Ziya was appointed to the qadi 22 times and worked in districts and stations such as Khairabad, Peshko, Vardonze, Gijduvan, Yangikurgan, Chorjooy, Qarshi, Shahrisabz. He gained a great reputation among the people as a truthful man of his time, a man who did not deviate from his faith and the path of justice in any circumstances. As a progressive intellectual, Sharifjan Sadri Ziya Bukhara has always supported the progressive ideas and activities of the jadids. He lived and operated in this direction, with the goal of achieving high progress on the basis of the independent development of the Bukhara emirate and modern management procedures.

Being one of the progressive intellectuals of his time, Sharifjan Sadri Ziya, as one of the individuals who left a deep mark on the socio-political life, scientific and cultural environment of the emirate of Bukhara, was the founder of the largest library founded by the qadi in the emirate, in whose library, which is a collection of rare manuscript works, contains samples of rich calligraphy. In the House of Sharifjan Sadri Ziya, who also found fame in the field of calligraphy, progressive intellectuals of the time gathered from time to time and organized literary evenings and gatherings. Sources confirm that most of the young poets Shahin – Shamsiddin Muhammad, Mirza Abdulvahid – Munzim, Nazim, Sadriddin Ayni, Hayrat, young calligraphers, and many of the book publishers work were financially supported by this person.

As well as being a major scholar in the field of literature and history of his time, Sharifjan Sadri Ziya was a skilled calligrapher and tazkira writer of his time. According to the data presented in the "Fehrist" Okhund Inoyatullo shaykh's "Okhund Shaikh bar Tahzeeb", Najmiddin Umar Ali Qazvini's "Khaniya", Kamoliddin Khujandi's "Devan" were skillfully and masterly copied by Sadri Ziya. Sadri Ziyo is considered one of the major tazkira writers of his time. It has tazkiras- antpologies such as "Tazkirat-ush-Shuarai mutaqaddimiyn and salatini muasirin and buzurgoni mutavarrain, "Shuarai mutaakhkhirin", "Fuzaloi mutaakhkhirin" and "Shuarai muasirini raqimi adim al-Sadr az-Ziya", "Tazkari ash'ar. The tazkiras he created are important in exploring the literary environment and cultural life of the emirate of Bukhara.

In conclusion, it can be noted that despite the complex economic-political situation and issued of the end of the 19th -the beginning of the 20th century, the scientific, literary environment in the emirate of Bukhara was progressive. During this period, prominent scholars and enlighteners such as Qori Rahmatullah Vozeh, Ahmad Danish, Shamsiddin Shahin, Abduqadirkhoja Savda, Mirzo Abdulazim Sami, Mirza Hayit Sahba, Sharifjan Sadri Ziyo lived and created masterpieces of history, philosophy and arts.

8 O'sha manba.

"HARAKATLAR STRATEGIYASIDAN – TARAQQIYOT STRATEGIYASI SARI" IJTIMOIY G'OYASI YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY G'OYALAR TRANSFORMATSIYASINING METODOLOGIK MANBAI SIFATIDA

Mansur Jamxur o'g'li Nabiyev – katta o'qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi" va "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" yangi O'zbekistonda ijtimoiy g'oyalar transformatsiyasining metodologik manbalari ekanligi analitik, mantiqiy, kritik metodlar yordamida tahlil etilgan.*

Аннотация: *В данной статье анализируются "Стратегия действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан" и "Стратегия развития нового Узбекистана" с использованием аналитических, логических и критических методов как методологических источников трансформации социальных идей в новом Узбекистане.*

Abstract: *This article analyzes the "Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan" and the "Development Strategy of New Uzbekistan" as methodological sources for the transformation of social ideas in new Uzbekistan using analytical, logical, and critical methods.*

Kalit so'zlar: *harakatlar strategiyasi, Yangi O'zbekiston, taraqqiyot strategiyasi, ijtimoiy g'oyalar, davlat dasturi, ustuvor yo'nalishlar, strategik maqsadlar.*

Ключевые слова: *стратегия действий, Новый Узбекистан, стратегия развития, социальные идеи, государственная программа, приоритеты, стратегические цели.*

Keywords: *action strategy, New Uzbekistan, development strategy, social ideas, state program, priority areas, strategic goals.*

Ijtimoiy g'oyalar jamiyatning turli sohalarida odamlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, adolatli tizimni yo'lga qo'yish va inson hayotini yuqori darajaga olib chiqishga qaratilgan fikrlar va konsepsiyalar yig'indisidir. Ular ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab oladi. Ijtimoiy g'oyalar jamiyatning siyosat, iqtisodiyot, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa shu kabi ijtimoiy sohalarni qamrab oladi. Dunyoning demokratik boshqaruvga asoslangan davlatlarini tajribasiga qaraydigan bo'lsak davlat tomonidan qabul qilingan strategik taraqqiyot dasturlari ijtimoiy g'oyalarning metodologik manbai hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral kuni 2017 – 2021-yillarda "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni e'lon qilinadi. Ushbu farmon orqali davlatimizni 2017-yildan 2021-yilgacha bo'lgan vaqt oralig'ida rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilinadi. Mazkur Harakatlar strategiyasi beshta ustuvor yo'nalishni o'z ichiga oladi. Farmonda belgilangan ustuvor yo'nalishlar quyidagilar.

"Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish.

Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini isloh qilish.

Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish.

Ijtimoiy sohani rivojlantirish.

Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va tashqi

siyosatni rivojlantirish"[1].

Beshta ustuvor yo'nalishlar asosida davlat va jamiyatni rivojlantirish bo'yicha strategik jihatdan muhim bo'lgan ijtimoiy g'oyalar ilgari surilgan.

Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish yo'nalishi bo'yicha ilgari surilgan ijtimoiy g'oyalar. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish. Davlat boshqaruvida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash. Jamiyatda oshkoralik, adolat va tenglik tamoyillarini kuchaytirish. Mahalliy boshqaruv organlari samaradorligini oshirish.

Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini isloh qilish yo'nalishi bo'yicha ifodalangan ijtimoiy g'oyalar, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishni kafolatlash. Sud tizimida adolat, shaffoflik va ishonchni ta'minlash. Huquqiy madaniyatni yuksaltirish orqali fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish. Korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashni kuchaytirish.

Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish yo'nalishiga xizmat qiladigan ijtimoiy g'oyalar, aholining turmush darajasini yaxshilash. Bandlikni ta'minlash va kambag'allikni kamaytirish. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish. Ishlab chiqarishdagi innovatsion va zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash.

Ijtimoiy sohani rivojlantirish yo'nalishidagi ijtimoiy g'oyalar quyidagilar ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish. Yoshlar va ayollarni qo'llab-quvvatlash. Nogironligi bo'lgan shaxslar, qariyalar va boshqa ehtiyojmand guruhlar uchun teng imkoniyatlar yaratish. Madaniyat, sport va san'at sohalarini rivojlantirish orqali ijtimoiy uyg'unlikka erishish. Aholining hayot sifatini yaxshilash, ichki ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlash.

Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va tashqi siyosatni amalga oshirish yo'nalishini rivojiga xizmat qiladigan ijtimoiy g'oyalar O'zbekistonni xavfsiz va barqaror davlat sifatida mustahkamlash. Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni saqlash. Aholi orasida tinchlik va birdamlikni ta'minlash. Mintaqaviy va global hamkorlik orqali xalqaro munosabatlarni rivojlantirish.

Umumiy olib qaraganda Harakatlar strategiyasida ifodalangan ijtimoiy g'oyalar O'zbekiston fuqarolarining hayot sifatini oshirish, ijtimoiy adolatni ta'minlash, inson huquqlarini himoya qilish va barqaror jamiyat qurishga qaratilgan. Ushbu g'oyalar mamlakatni rivojlantirishda ijtimoiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi va jamiyatda barqarorlik hamda taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qildi deb aytsak o'rinli bo'ladi.

Jamiyatimizda bir an'ana bor har bir yilga nom berish, bu nom berish shunchalik rasmiyatchilik uchun amalga oshiradigan jarayon emas. Yilni nomlash orqali jamiyatimizda ma'lum bir sohada hal qilinishi kerak bo'lgan dolzarb vazifalar hal qilinadi. Xususan Harakatlar strategiyasi doirasida belgilangan ijtimoiy g'oyaga asoslangan muhim vazifalar hal qilinadi.

2017-yil "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"

2018-yil "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"

2019-yil "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"

2020-yil "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"

2021-yil "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral kuni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni // https://lex.uz/docs/-3107036

aholi salomatligini mustahkamlash yili". Bunday yillarga nom berish orqali jamiyatimizda ijtimoiy g'oyalarni transformatsiyasini ham ko'ramiz.

"Yangi O'zbekiston" tushunchasi nimani anglatadi?, "Taraqqiyotning yangi bosqichi qanday xususiyatlarga ega?", "Jamiyatning yangi bosqichi qanday xususiyatlarga ega?", "Jamiyatning yangi qiyofasi" deganda nimalar nazarda tutilmoqda?"[2] savollarga javobni O'zbekistonni rivojlantirish uchun qabul qilingan dasturlarda javoblarini topamiz.

Harakatlar strategiyasida ifodalangan ijtimoiy g'oyalarning mantiqiy davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar kuni 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni e'lon qilinadi. Ushbu farmon orqali yangi bir darajadagi ijtimoiy g'oyalar tizimi taqdim etildi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi quyidagi 7 asosiy ustuvor yo'nalishdan iborat.

"Inson qadrini Yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish.

Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish.

Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash.

Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish.

Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish.

Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashishiga olib chiqish.

Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish"[3].

Taraqqiyot strategiyasining ushbu yettita yo'nalishda quyidagi ijtimoiy g'oyalar ilgari suriladi. Inson qadrini ulug'lash va ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun zarur bo'ladigan ijtimoiy g'oyalar. Har bir fuqaroning qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini himoya qilish. Ijtimoiy adolatni jamiyatning barcha sohalarida mustahkamlash. Aholining barcha qatlamlari uchun teng imkoniyatlar yaratish. Ayollar va yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish.

Ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadigan ijtimoiy g'oyalar. Zamonaviy va sifatli ta'lim tizimini joriy qilish. Yoshlarni har tomonlama rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratish. Sog'liqni saqlash sohasida xizmatlarning sifatini oshirish va ularning ko'lami kengaytirilishini ta'minlash. Qishloq joylarida ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlariga keng imkoniyatlarni yaratish.

Aholining turmush farovonligini oshirish uchun zarur bo'ladigan ijtimoiy g'oyalar. Iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish orqali kambag'allikni qisqartirish. Bandlik darajasini oshirish va yangi ish o'rinlari yaratish. Uy-joy sharoitlarini yaxshilash va ehtiyojmand oilalarni qo'llab-quvvatlash. Xizmat ko'rsatish sohasining kengayishi va sifatli xizmatlardan foydalanishni ta'minlash.

Jamiyatda ekologik ongni shakllantirishga xizmat qiladigan ijtimoiy g'oyalar. Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik barqarorlikni ta'minlash. Qishloq va shahar aholisining ekologik xavfsizligini yaxshilash. Yoshlar va keng jamoatchilik o'rtasida ekologik ongni oshirishga qaratilgan targ'ibot ishlari.

2 Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2022.-B. 7.

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar kuni 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni // https://lex.uz/uz/docs/-5841063#-5842914.

Mamlakatimizda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni mustahkamlashga xizmat qiladigan ijtimoiy g‘oyalar, jamiyatda tinchlik va totuvlikni ta’minlash.Turli millat va elatlar o‘rtasida do‘stlik va birdamlik muhitini mustahkamlash. Diniy bag‘rikenglikni targ‘ib qilish va ekstremizmga qarshi kurashni davom ettirish.

Madaniyat va sportni rivojlantirish uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy g‘oyalar,

milliy madaniyatni asrash va targ‘ib qilish. Yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish. Sport inshootlarini kengaytirish va sportga ommaviy qiziqishni oshirish.

Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasidagi ijtimoiy g‘oyalar inson qadrini ulug‘lash, ijtimoiy adolatni ta’minlash va aholining turmush darajasini oshirishni asosiy vazifa qilib belgilanadi. Ushbu strategiya jamiyatni har tomonlama rivojlantirishga, aholining ijtimoiy barqarorligini ta’minlashga va yangi avlodning barkamol shakllanishiga xizmat qiladi.

“Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” degan tamoyil asosiy mezon sifatida belgilandi”[4]. Ushbu mezon Ijtimoiy g‘oyalar transformatsiyasida asosiy o‘rin egallaydi.

Ijtimoiy g‘oyalarda ijtimoiy manfaatlar yotadi. Jamiyat rivoji uchun ijtimoiy g‘oyalarning hissasi nihoyatda yuksak ekanligini ko‘ramiz. Insonlarning ijtimoiy faoliyat olib borishlari uchun ijtimoiy g‘oyalarga ehtiyoj sezadi. Fuqarolarning ijtimoiy g‘oyalarga asoslangan ijtimoiy ehtiyojlari qondirilmas ekan jamiyatda birlik, rivojlanish taraqqiyot bo‘lmaydi. Ushbu qabul qilingan ikki dasturni o‘zaro solishtirib chiqsak ijtimoiy g‘oyalarni rivojlanish jarayonini ko‘ramiz.

1-ilova

T/R	Ijtimoiy sohadagi g‘oyalar	
1.	**Harakatlar strategiyasi**	**Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi**
1.1.	Aholining turmush darajasini oshirish va sifatli ta’lim hamda tibbiy xizmatlardan foydalanishni yaxshilash.	Inson qadrini ustuvor tamoyil sifatida ko‘rsatib, fuqarolarning haq-huquqlari va erkinliklarini kafolatlashni ta’minlash.
1.2.	Yoshlar siyosatini kuchaytirish: ularning ijodiy va intellektual rivojlanishiga ko‘maklashish.	Ayollar va yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratish, gender tenglikni rivojlantirish.
1.3.	Ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash.	Kambag‘allikni qisqartirish va barqaror bandlikni ta’minlash.
2.	**Ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi g‘oyalar**	
2.1.	Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishga e’tibor qaratilgan.	Innovatsion iqtisodiyotga o‘tish, fan va texnologiyaga asoslangan loyihalarni rag‘batlantirish.
2.2.	Elektron hukumat tizimini takomillashtirish orqali davlat xizmatlarining sifati oshirilgan.	Yashil texnologiyalarni joriy qilish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish.
3.	**Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish borasidagi ijtimoiy g‘oyalar.**	
3.1.	Xalqaro maydonda O‘zbekistonning ijobiy imijini mustahkamlash.	O‘zbekistonning global iqtisodiy hamjamiyatdagi rolini oshirish.
3.2.	Mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish, jumladan, Markaziy Osiyoda integratsiyani rivojlantirish.	Tashqi savdo va investitsiyalar uchun qulay muhit yaratish.

4 Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2022.-B.10.

"O'zbekiston tarixida sifat va mazmun jihatdan yangi taraqqiyot davri boshlanganiga alohida e'tibor qaratiladi. Bu yangi davrning eng muhim va ustuvor xususiyatlari, avvalo, mamlakatimizda davlat va boshqaruv organlari, barcha rahbarlar bundan buyon o'z faoliyatini "Inson – jamiyat- davlat va inson qadri uchun" degan ezgu tamoyillar asosida olib borishida aks etadi"[5]. O'zbekistonni rivojlantirish uchun qabul qilingan dasturlar ijtimoiy g'oyalarning mazmun va sifat jihatdan boyishiga benihoya hissa bo'ldi deb aytsak o'rinli bo'ladi.

Dasturlarda belgilangan ijtimoiy g'oyalar davlat va jamiyatni quyidagi sohalarga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ifodalangan ijtimoiy g'oyalar, Davlat boshqaruvi bo'yicha davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish uchun poydevor yaratadi. Ijtimoiy sohadagi ijtimoiy g'oyalar ijtimoiy barqarorlik va aholining asosiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshiradi. Huquqiy tizimni isloh qilish borasidagi ijtimoiy g'oyalar esa qonun ustuvorligi va sud-huquq tizimining mustaqilligini ta'minlab, adolatli jamiyat uchun asos yaratadi. Iqtisodiyotni rivojlantirishga oid bo'lgan ijtimoiy g'oyalar bozor iqtisodiyotiga o'tishni tezlashtirish orqali iqtisodiy mustaqillikni kuchaytiradi. Xavfsizlik va tashqi siyosat sohasidagi ijtimoiy g'oyalar ichki va tashqi xavfsizlikni ta'minlash orqali barqaror rivojlanishga zamin yaratadi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasidagi ilgari surilgan ijtimoiy g'oyalar jamiyatimizga quyidagicha naf keltiradi. Inson qadrini ulug'lash bo'yicha olib borayotgan siyosatimizda, ijtimoiy adolatni asosiy g'oya sifatida qo'llash orqali jamiyatdagi ijtimoiy farovonlikni oshiradi.

Jamiyatni barqaror rivojlanish uchun, ekologik muammolarni hal qilish va yashil texnologiyalarni joriy qilish orqali uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlaydi.

Ijtimoiy adolatni ta'minlash sohasidagi islohotlar orqali, aholini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash orqali tenglik va birdamlikni kuchaytiradi.

Innovatsiyalarni jamiyat hayotiga joriy etish bo'yicha innovatsion iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar orqali iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Xalqaro integratsiyalarni rivojlantirish borasida ijtimoiy g'oyalarni xizmati xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va eksport salohiyatini oshirish orqali global raqobatbardoshlikni kuchaytiradi.

"Bashariyat o'zining azaliy orzusi – inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklari ustuvor bo'lgan, farovonlik va taraqqiyot, imkoniyatlar va ezgu niyatlarning ro'yobga chiqishi uchun zarur sharoitlar yaratilgan, adolat, hamkorlik, tenglik va qonun ustuvorligi kabi demokratik tamoyillar mustahkam qaror topgan, tinchlik-totuvlik va osoyishtalik hukmron bo'lgan, barqaror rivojlanayotgan dunyo sari intilmoqda"[6]. Ushbu intilishlarning asosiy bashariyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy g'oyalar hisoblanadi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan ijtimoiy vazifalarni yillarga nom berish orqali amalga oshirish an'anasi davom etganligini ko'ramiz.

2022-yil "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"

2023-yil "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"

2024-yil "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"

2025-yil "Atrof-muhitni asrash va yashil

5 O'sha manba.

6 Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2024.-B. 5.

iqtisodiyot yili"

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi" va "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" yangi O'zbekistonda ijtimoiy g'oyalar transformatsiyasining metodologik manbalari hisoblanadi. Jamiyatga xizmat qiladigan ijtimoiy g'oyalarning o'zgarishini tabiiy ijtimoiy jarayon deb qabul qilishimiz kerak. Jamiyatda insonlarga aloqador har bir voqelik o'zgarishda, rivojlanishda bo'ladi.

Har ikki strategiya ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan va aholi farovonligini ta'minlashni ustuvor maqsad qilib belgilaganini ko'ramiz.

Strategiyalarni solishtirib qaraydigan bo'lsak Harakatlar strategiyasi asosan islohotlarni boshlash va asos yaratishga qaratilgan ijtimoiy g'oyalar bo'lsa, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi bu islohotlarni chuqurlashtirish va sifatli rivojlanishga qaratilgan ijtimoiy g'oyalar mavjud. Yana muhim jihatlariga e'tibor beradigan bo'lsak Harakatlar strategiyasi tizimni modernizatsiya qilishga urg'u bersa, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi inson qadrini markaziy o'ringa qo'yadi. Ekologik va yashil rivojlanish faqat Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida alohida ustuvor yo'nalish sifatida ajratilganligini ko'ramiz. Ijtimoiy g'oyalar insonlarni birlashtiradi, ularni farovon yashashi uchun xizmat qiladi.

Ijtimoiy manfaatlarni ifoda etmaydigan ijtimoiy g'oyalarni hech qachon jamiyat qabul qilmaydi.

QUSHAYRIY, SUHRAVARDIY VA IBN ARABIY QARASHLARIDA HOL VA MAQOM TUSHUNCHASI

Davronbek Hoshimovich Qodirov - PhD, Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tasavvufdagi hol va maqom tushunchalarining falsafiy tahlili amalga oshiriladi. Hol va maqom so'fiylar tomonidan qanday tushunilgani va ularning farqlari turli tasavvuf maktablari nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi. Junayd Bag'dodiy, Horis al-Muhosibiy, Qushayriy, Suhravardiy va Ibn Arabiy kabi mutasavvuflarning qarashlari asosida hol va maqomning tabiati tadqiq etiladi.*

Аннотация: *В данной статье проводится философский анализ понятий "хал" и "макам" в суфизме. Рассматривается, как суфии понимали эти термины и различали их в различных школах суфизма. На основе взглядов таких мыслителей, как Джунайд Багдади, Харис ал-Мухасиби, Кушайри, Сухраварди и Ибн Араби, исследуется природа состояний и степеней духовного пути.*

Abstract: *This article presents a philosophical analysis of the concepts of "ḥāl" and "maqām" in Sufism. It examines how Sufis understood and distinguished these terms across different Sufi schools. Based on the views of thinkers such as Junayd Baghdadi, Harith al-Muhasibi, Qushayri, Suhrawardi, and Ibn Arabi, the nature of states and spiritual stations is explored.*

Kalit so'zlar: *hol, maqom, tasavvuf, so'fiylar, Junayd Bag'dodiy, Qushayriy, Ibn Arabiy.*

Ключевые слова: *хал, макам, суфизм, суфии, Джунайд Багдади, Кушайри, Ибн Араби.*

Keywords: *hal, maqam, Sufism, Sufis, Junayd Baghdadi, Qushayri, Ibn Arabi.*

Tasavvufda hol va maqom masalasi qadimdan bahs mavzusi bo'lib kelgan. Bu tushunchalar so'fiylar tomonidan o'zlarining ruhiy va ma'naviy taraqqiyot bosqichlarini ifoda etish uchun ishlatilgan. Hol muvaqqat holat sifatida qabul qilingan bo'lsa, maqom solikning bosib o'tadigan barqaror ruhiy martabasi hisoblanadi.

Tasavvufning eng muhim masalalaridan biri hol va maqomlarning to'liq tahlil etilmaganligi hisoblanadi. Hol va maqomlarni umumiy holda bir o'rinda ko'rish ushbu tushunchalarning ma'nosi bilan chambarchas bog'liqdir. So'fiylar hol va maqomni o'z fe'l-atvori va yashagan davriga ko'ra belgilaganlar, shu sabab ham bir xil tushuncha ba'zan bir so'fiyda boshqasiga nisbatan farq qiladi. Maqom yoki hol solikdan solikka qarab farqlanishi mumkin bo'lsa-da, bu muammoni hal qilishda minimal doirada olib, shunga mos ravishda cheklanilmasa, bu muammo echimi topilmay qoladi. Shu o'rinda hol va maqomni tahlil qilishda tasavvufona nazariyalarni hamda so'fiylarning hol va maqomlar tahiliga oid fikr-mulohazalarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Umuman olganda, ushbu masala jiddiy mustaqil tadqiqotni talab qiladi.

Tasavvuf tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu muammo asosan, o'z davrining eng ko'zga ko'ringan so'fiylaridan bo'lgan Junayd Bag'dodiy va Horis al-Muhosibiy tomonidan hollarning davomiyligi borasida ilgari surilgan ikki qarama-qarshi yondashuvdan kelib chiqadi. Har ikkala so'fiy ham tasavvufning eng yuqori pog'onasida bo'lgan shaxslar bo'lganligi va boshqa so'fiylarga kuchli ta'siri tufayli ularning hol hamda maqom haqidagi farqli qarashlari bu atamalarni ajratib, o'rganishda qiyinchilik tug'diradi.

So'fiylardan asosan Junayd Bag'dodiyning: "Hol ma'lum bir paytda bandaga nozil bo'ladigan vahiydir. Hol uning ichida bo'lgan holat va vaqtda paydo bo'lib, g'oyib bo'ladi"[1] deydi. Junayd Bag'dodiyning bu fikri ko'pchilik tomonidan

1 ابو نصر السراج. اللمع في التصوف. القاهرة، دار الكتب الحديثة، 1960. 411 ص.

qabul qilingan bo‘lsa-da, Muhosibiyning holning davomiyligini ilgari surishi va o‘z davrning mashhur so‘fiylaridan biri Abu Usmon Hiriyning ushbu fikrni qo‘llab-quvvatlash niyatida rizo holining davomiyligini aytishi so‘fiylar orasida bu istilohlarning o‘rnashib qolishini qiyinlashtirdi. Ayni paytda Xuroson va Iroq mutasavviflari orasida rizo tushunchasining hol yoki maqom ekanligi xususidagi bir-biriga qarama-qarshi fikrlari ushbu muammo yechimini yanada chigallashtirdi. Ayrim so‘fiylar ushbu asosiy tushunchalar bilan bir qatorda holni ixlosli amallarning natijasi sifatida ko‘rishi va hollarni maqomga yaqinlashtirishi ikkinchi darajali sabab sifatida namoyon bo‘ladi.

Bu ikki bir-biriga zid fikrni uyg‘unlashtirish maqsadida ba’zi bir so‘fiylar o‘z tajribalaridan kelib chiqib, yuqoridagi chalkashlikka chek qo‘yish maqsadida ularni tahlil qilishga urindilar. Shu o‘rinda, so‘fiylar orasida tasavvuf tarixidagi hol va maqomlarni tahlil qilish natijasida uchta yirik nazariya shakllanganini ko‘rishimiz mumkin. Hol va maqomlarni tahlil qilish borasida birinchi urinish Qushayriy, ikkinchisi Suhravardiy va uchinchisi esa Ibn Arabiy tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu uch nazariya hol va maqom so‘zlarining ildiziga asoslanadi.

Maqom va hol tushunchasini ta’riflagan so‘fiylar o‘z tajribalariga tayangan bo‘lsalar-da, aslida uning boshlang‘ich nuqtasini ushbu atamalarning konseptual kelib chiqishi tashkil qilgan. Maqom va hol haqida gapirgan so‘fiylar o‘z tajribalari asosida baho berish bilan birga, bu atamalarning lug‘aviy ma’nolarini parallel ravishda tushuntirishga harakat qilganlar.

Qushayriy maqomni bandaning qayta va qayta takrorlash natijasida fazilat holiga keltirgan odob va axloqi deb ta’riflaydi. Bu odob va axloq mehnat hamda sa’y-harakat natijasida erishiladi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, arab tadqiqotchisi Amin Yusuf maqomning uchta xususiyatini ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, maqomning birinchi sifati: maqom solik uchun o‘ziga xos ruhiy va jismoniy mujohada hamda riyozat vositasida erishiladi. Bu istivo (tenglik) va i’tidol (me’yoriylik) tushunchalari ma’nosida mavjuddir. Chunki ma’lum bir harakat va vaqtdan keyingina ishlar muvozanatli holga keladi.

Ikkinchi sifat esa davomiylikdir. “Bir narsani iqoma etdi (biror narsani ushlab turdi) degani “unga davomiy bo‘lishni ato etdi” degan ma’noni anglatadi. Maqomga faqat solik bilan bir vaqtda uning baqosini davom ettirish orqali erishiladi.

So‘fiylar hol tushunchasini ta’riflar ekanlar, uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalamagan bo‘lsalar ham, o‘zlari ta’kidlagan fikrga ko‘ra “hala, yahulu”, “holla”, “havola”, “hulul” kabi tushunchalar asosida izohlashga harakat qilganlar. Ko‘rinib turibdiki, Junayd Bag‘dodiy tomonidan ilgari surilgan holning beqarorligi to‘g‘risidagi qarashi, “hala” moziy fe’lining bir joydan boshqa joyga ko‘chish ma’nosida ishlatilishiga asoslangan. Biroq Muhosibiyning ayrim hollarning davomiyligi haqidagi qarashlarida xuddi shu holning uzluksiz takrorlanishi kerakligi haqidagi fikr borligi sababli, bu yondashuvdagi hol atamasining izohlari “hulul” masdariga asoslanganligi aytiladi. Ya’ni, birinchisida (moziy fe’lida) “vaqtinchalik” bo‘lsa, ikkinchisida (hulul masdarida) “o‘rnashish, sobit qolish, davom etish” ma’nolari bor[2].

Maqom va holning bir-biriga aylanishi haqidagi ilk nazariyaning yaratuvchisi Qushayriy Junayd Bag‘dodiyning “holda sabot yo‘qdir” degan g‘oyasiga asoslansa-da, Muhosibiyning qarashini hisobga olishga majbur bo‘lgan. Muhosibiyning fikricha, qabz, bast, shavq va muhabbat kabi tushunchalar hol hisoblanadi. U muhibning muhabbati davom etmasa, muhibning muhib bo‘lolmasligi va shavq kesilganda shavq ahlining shavqlarini yo‘qotishini ta’kidlaydi. Bu ikki tamsilchining hollarning davom etishi va

2 أمين يوسف عودة. تجليات الشعر الصوفي. قراءة في الأحوال والمقامات. بيروت، دار الفارس، 2001. 26 ص.

etmasligi haqidagi qarashlari iroqlik va xurosonlik so'fiylar o'rtasidagi eng asosiy farqlardan birini tashkil qiladi. Qushayriy Muhosibiyning yuqorida tilga olgan tushunchalaridan biri bo'lgan rizo tushunchasiga urg'u berib, ushbu ikki zid fikrni uyg'unlashtirishga harakat qilgan. Qushayriy "Risola"sida hol va maqomni tahlil qilar ekan, Iroq va Xuroson so'fiylarining rizo tushunchasi haqidagi fikrlarini hisobga olgan holda boshlagan. Xuroson so'fiylari rizoni maqom deb bilgan bo'lsalar, Iroq so'fiylari uni hol sifatida qabul qilib, bir-birlari bilan ixtilofga borganlar. Qushayriy bu ikki zid fikrni bir nuqtada birlashtirgan. U rizoni bidoyatda maqom va nihoyatda hol deb ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, rizo bidoyatda solikning mehnati bilan erishiladi; nihoyatda esa u g'ayrat va sa'y-harakat bilan erishib bo'lmaydigan narsa bo'lgani uchun hol sifatida tasniflanadi. Qushayriy bunday baho berishi orqali hol va maqom tahlilini boshlab bergan.

Qushayriy rizoning avval maqom yoki hol ekanligini baholashda avval uning maqom, so'ngra hol bo'lishi mumkin degan fikrni ilgari surar ekan, solikning rizosi ham hol, ham maqom bo'lishi mumkinligi haqidagi qarashi uning sulukda bidoyatda yoki nihoyatda ekanligi bilan bog'ladi. Boshqacha qilib aytganda, agar solikning sa'y-harakatlari natijasida rizoga erishsa, u rizo maqomiga aylanadi, o'zi rizo maqomida ekan Haq undan rozi bo'lib, rizo holini in'om etishi esa, rizoga hol xususiyatini beradi. Bu ayni paytda xurosonliklarning "hollar solih amallar natijasida erishiladigan narsalardir"[3] degan qarashlariga mos keladi. Chunki solih amallar insonning o'z sa'y-harakati va mehnati bilan bajaradigan ibodatlari hisorblanadi. Hol buning natijasidir deyish "avval maqomga erishiladi, so'ngra bu maqomning samarasi o'laroq hollar zuhur etadi" degan ma'noni anglatadi.

Qushayriyning rizoni avval maqom, so'ng esa hol deb ataganligi maqomning holga aylanishi barovarida keltiriladi. Mutafakkirdan ikki asr keyin kelgan Suhravardiy bu fikrning mutlaqo aksini himoya qiladi. Garchi ularning harakati tahlil qilishga urinish bo'lsa-da, natijada ularning amalga oshirgan tahlillari bir-biriga mutlaqo zid edi. Chunki Suhravardiy holni maqomga aylantirish tarafdori edi. U umumiy iboralarni ishlatgan bo'lsa-da, ismini keltirmasdan, shayxlarning hol va maqom haqidagi so'zlarining juda farqli ekanligini va bu ikki tushuncha bir-birining o'rnida qo'llanganligini aytish bilan birga, holning davomiy yoki davomiy bo'lmasligi masalasida tasavvuf ahlining ikki buyuk olimi bo'lgan Junayd Bag'dodiy va Horis Muhosibiylarning bir-biriga zid qarashlarini tahlil qilishga kirishgan. Qushayriy bunday tahlili orqali hol va maqomni o'z o'rniga qo'yishga harakat qilgan.

Suhravardiy ushbu fikrning isboti uchun "muhosaba" tushunchasini misol qilib oladi. Uning fikriga ko'ra, muhosaba bandaning qalbida birdan paydo bo'lib, bir muddatdan so'ng nafsoniy istaklar ta'sirida yo'qoladi. Bu hol Haqning yordami kelguncha bir paydo bo'lib, bir yo'qoladi. So'ng Haqning yordami bilan muhosaba holi solik ustidan g'olib bo'lib, nafsning engilishiga olib keladi. Shunday qilib, muhosaba solikni to'liq qamrab, uni o'z ta'siriga oladi va uning nafsida tom ma'noda joylashib, maqomga aylanadi. Muhosaba maqomga aylanganda, "muroqaba" hol sifatida solikda namoyon bo'la boshlaydi. U ham vaqti-vaqti bilan o'zini ko'rsatib, yo'qoladi va oxirida muroqaba ham maqomga aylanadi. Muroqaba maqomi bilan birga mushohada hol sifatida namoyon bo'ladi. Bu hol fano filloh, baqo billoh va haqq al-yaqiynga qadar davom etadi[4].

Suhravardiy "maqomlar kasbiy, hollar vahbiydir" degan qarashga ham oydinlik kiritishga harakat qilgan. Unga ko'ra, mavhiba (hadya) bo'lganlari kasb bilan o'ralgani kabi kasbiy bo'lganlari ham mavhibalar bilan o'ralgan.

3 السهروردي. كتاب عوارف المعارف. بيروت، دار الكتاب العربي، 1983. 471 ص.

4 السهروردي. كتاب عوارف المعارف. بيروت، دار الكتاب العربي، 1983. 469-470 ص.

Ya'ni, maqomda kasb va g'ayrat paydo bo'lganda, mavhiba jihati yashirin bo'ladi, holda esa mavhiba tomoni paydo bo'lsa, g'ayrat va harakat yashirin bo'ladi.

Suhravardiy o'z o'rnida maqom va holni zohir hamda botin kabi ma'naviy va samimiy ko'radi. Biroq Qushayriy aytgani kabi, biror bir maqomning o'ziga xos holi bo'lmay, balki quyi maqomda yuqori maqom hol sifatida namoyon bo'ladi. So'ngra bu hol insonning nafsida qaror topgach, maqomga aylanadi. Qushayriyda rizo bidoyatda maqom bo'lsa-da, keyin hol sifatida namoyon bo'ladi. Suhravardiyning holni maqomga aylantirishi vahdut ul-vujudni anglashda zot-sifat-ism munosabatlarida bo'lganidek zohir va botin aloqasi kabi holat mavjud. Ya'ni, muhosaba maqomida yuksak maqom bo'lgan muroqaba hol sifatida namoyon bo'lsa, muroqaba maqomida ham mushohada hol sifatida zuhur etadi.

Suhravardiy xurosonlik so'fiylarning "hol solih amallar natijasida erishilgan narsadir" degan qarashini etkazsa-da, unga hech qanday izoh bermaydi. Biroq "Hol chaqmoq kabidir, u porlaydi va darhol g'oyib bo'ladi. Agar u davomiy bo'lsa, bu hol emas, balki nafsning aldashi va vasvasasidir (hadisi nafs)" degan iborani shunday izohlaydi: "Bu gap hamma hollar uchun emas, ammo avval paydo bo'ladigan, so'ngra esa nafs tomonidan yo'q etiladigan hollar uchun to'g'ri keladi. Suv yog' bilan qo'shilmaganidek, hollar ham aslo nafsga qo'shilib ketmaydi"[5].

Suhravardiyning yondashuviga ko'ra, hol tushunchasini ikki turga bo'lish mumkin. Arab tadqiqotchisi Amin Yusuf bunday turga bo'lishni shunday tushuntiradi: Birinchisi, vaqtinchalik, tez yo'qoluvchi hol, ikkinchisi, uzoq davom etuvchi hol bo'lib, bu hol yaxshi o'rnashgandan so'ng maqomga aylanadigan hol turidir. Bunda "Xo'sh, har qanday hol maqomga aylanishi mumkinmi?" degan savol kelib chiqishi mumkin. Masalan, qabz, bast, haybat, uns kabi hollar maqomga aylana oladimi, degan savolga Suhravardiyda "ha" degan javobni topishning iloji yo'q"[6]. Suhravardiy har qancha uzoq muddatli va qisqa muddatli hollarni farqlamasa-da, bu farqlarni Qushayriyda ko'rishimiz mumkin. Qushayriy ushbu masalani shunday izohlaydi: Xudo inson uchun ba'zi hollarni rizq qilib beradi. Haq o'sha hol ichidagi kishiga uni to'siq va yopiq qiladi, bu holat undan oldinga chiqgunga qadar o'sha odam uchun bu hol vatan va maqomga aylanadi. Uning bu maqomdan uzoqlashishi ko'p vaqt talab qilmagani kabi uning bu holga qaytishi tez sodir bo'ladi.

Hol va maqom masalasi yechimidagi uchinchi nazariya Ibn Arabiyning yondashuvi hisoblanadi. U Junayd Bag'dodiy kabi oldingi so'fiylarning qarashlarini, avvalo, holni vaqtinchalik va vahbiy sifatida qabul qilishdan boshlaydi. Shayx ul-akbar holning davomli bo'lish va bo'lmasligini ko'rib chiqib, o'zidan oldingilarning ixtiloflarini tahlil etadi va yangi qarashlarni ilgari suradi. U buni amalga oshirar ekan, o'zining tajalliy tushunchasi va atamalarning etimologik tuzilishidan foydalangan holda yondashadi. Uning so'zlariga ko'ra, holdagi asosiy shart – bu zavol bo'lmaslik, ya'ni sobit bo'lmaslik va davomsizlik hisoblanadi. Shu bilan birga, ba'zi so'fiylarning o'z boshlaridan kechirgan hollarni tahlil qila olmaganliklari uchun hol borasida ixtilof yo'q, degan masala buzilgan. Bunga sabab, ba'zi so'fiylarning birin-ketin keluvchi o'xshash hollar izchilligini idrok eta olmaganliklaridan, aynan shu hol davom etayapdi deb taxmin qilishlaridan kelib chiqqan edi. Uning fikriga ko'ra, bu holat yagona holning davomiyligi bilan bog'liq emas; u zanjirli halqalari kabi bir-birini kuzatib boruvchi bir qator o'xshash hollardan iborat. Avval birinchisi paydo bo'ladi, o'rtaga chiqadi va so'ngra yo'qoladi. Shundan so'ng ikkinchi hol vujudga kelib, keyin u ham

5 السهروردي. كتاب عوارف المعارف. بيروت، دار الكتب العربي، 1983. 473 ص.

6 أمين يوسف عودة. تجليات الشعر الصوفي. قراءة في الأحوال والمقامات. بيروت، دار الفارس، 2001. 27 ص.

yo‘qoladi, bu holat shu tartibda davom etadi[7].

Ibn Arabiy ham xuddi Junayd Bag‘dodiy kabi holni inson qalbiga qattiq mehnat qilmasdan keladigan narsa o‘laroq biladi. Unga ko‘ra, yo‘q bo‘lish holning shartlaridan biridir. Toki poklanish sodir bo‘lgunga qadar bunday o‘xshash hollar bir-birini kuzatib boradi. Ba’zan shunga o‘xshash hol oldingi holning ortidan kelmasligi mumkin. U so‘fiylar o‘rtasida holning davom etish yoki etmasligi borasidagi ixtilof shu masalada paydo bo‘lganini aytadi. Biroq u holning davomiyligini qabul qilgan so‘fiylar ba’zan o‘xshash hollar bir-biriga ergashayotganini ko‘rib, o‘sha hollarning o‘xshashligini anglamagandiklari uchun o‘zlari yashayotgan holning davomiyligi haqida hukm chiqarganlar, deb uqtiradi. Ular hol kalimasini o‘z hollarini hisobga olib, “hulul” masdaridan yasaganlar. Biroq yo‘q bo‘lgan holning ortidan keyin shunga o‘xshash hol keladi deb o‘ylamaganlar, holning davomiy bo‘lishiga hukm qilganlar va “hol” kalimasini “yo‘q bo‘lish, g‘oyib bo‘lish” ma’nosidagi “hala-yahulu” so‘zidan olganlar[8].

Ibn Arabiyning bu yondashuvi o‘zidan oldingilarning ixtilofiga ham yo‘naltirilgan. Ya’ni, holning davomiy emasligini da’vo qiluvchilar bilan holning davomiyligini himoya qiluvchilarning qarashlarini birlashtirgan ko‘rinadi. Zero, holning davom etmasligini iddao etgan Junayd Bag‘dodiy kabi so‘fiylar haq bo‘lsalar-da, holning doimiy ekanligini ta’kidlagan so‘fiylar ham avvalgi hollar o‘zgarishsiz davom etadi deb xatoga yo‘l qo‘yadilar, chunki shunga o‘xshash hol har bir yangi tajalliy bilan birga paydo bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Horis Muhosibiyning muhabbat va shavqning davomiyligi haqidagi qarashlari ham oydinlashadi. Chunki muhabbat va shavq xuddi shunday muhabbat va shavq bilan nihoyatga qadar solikdan ajralmasligi mumkin. Ya’ni, solik yuksak maqomga ko‘tarilsa, o‘sha maqom talablariga mos ravishda muhabbat holi va shavq paydo bo‘ladi, ammo solik bu muhabbat va shavq oldingi muhabbat va shavq holi bilan bir xil, deb o‘ylaydi. Biroq ular o‘rtasida shiddat va kuchiga qarab ko‘p jihatdan farqi bo‘lishini idrok eta olmaydi.

Tasavvufda hol va maqom tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning farqi haqida turli nazariyalar mavjud. Qushayriy hol va maqomni uyg‘unlashtirishga harakat qilgan bo‘lsa, Suhravardiy holni maqomga aylanuvchi bosqich sifatida ko‘radi. Ibn Arabiy esa har bir hol yangi tajalliyning natijasi ekanligini ta’kidlaydi. Demak, tasavvuf ta’limotidagi hol va maqom tushunchasi har bir so‘fiyning o‘z tasavvufiy tajribasi hamda falsafiy qarashidan kelib chiqqan holda tavsiflanadi. Shuning uchun, ushbu tushunchalar haqida so‘z yuritganda, qaysi tasavvuf namoyandasi va maktabi vakili tavsifiga muvofiq kelishini inobatga olish muhim deb hisoblaymiz.

7 1992. 384 ص. ابن العربي. الفتوحات المكية. عثمان يحيي، القاهرة

8 1992. 365 ص. ابن العربي. الفتوحات المكية. عثمان يحيي، القاهرة

AMORALIZM VA IMMORALIZMNI OLDINI OLISHDA ISLOM DINI QOIDALARINING AHAMIYATI

Odil Nodirovich Toshpulatov – bo‘lim boshlig‘i,
Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Annotatsiya: *Insoniyat diniy dunyoqarashi jamiyatdagi tartibsizliklarning oldini olish, fazilat egalarini kamol toptirish, mazmunli va uzoq umr ko‘rish va boshqa maqsadlar asosida shakllangan. Barcha dinlar mohiyatida gumanizm ulug‘lanib, amoralizm qoralanadi. Insoniyat tarixida turli-tuman dinlar mavjud bo‘lsada, ularning negizi bitta – odamlarni ezgulikka chorlash. Diniy dunyoqarash tarixan takomillashib, transformatsiyaga uchrab kelgan bo‘lsada, hanuzgacha ayrim jamiyatlar munosabatlarini tartibga solib kelmoqda.*

Аннотация: *Религиозное мировоззрение человечества формировалось на основе предотвращения социальных беспорядков, совершенствования добродетельных людей, ведения осмысленной и долгой жизни и других целей. В основе всех религий лежит прославление гуманизма и порицание безнравственности. Хотя на протяжении всей истории человечества существовало множество религий, их основная цель одна и та же — призывать людей к добру. Хотя религиозные мировоззрения исторически развивались и трансформировались, они по-прежнему регулируют отношения в некоторых обществах.*

Abstract: *The religious worldview of mankind has been formed on the basis of preventing social unrest, cultivating virtuous people, leading a meaningful and long life, and other goals. At the core of all religions is the glorification of humanism and the condemnation of immorality. Although there have been many religions throughout human history, their basic goal is the same - to call people to goodness. Although religious worldviews have historically developed and transformed, they still regulate relations in some societies.*

Kalit so‘zlar: *din, axloq, Islom, tasavvuf, Qur’on, hadis, nafs, qadriyat, vijdon.*

Ключевые слова: *религия, мораль, ислам, суфизм, Коран, хадисы, душа, ценность, совесть.*

Keywords: *religion, morality, Islam, Sufism, Quran, hadith, soul, value, conscience.*

Islom dini jamiyat axloqiy muhitini ijobiylik jihatdan tartiblashtirib turadi. Ushbu dinga e’tiqod qiluvchilar oilaviy-maishiy munosabatdan tortib, ijtimoiy muloqotgacha aniq tartib asosida yashaydilar. Islom dini amoralizm va jinoyatchilik avj olgan xalqlar orasiga ezgulik amallarini joriy qildi. Insoniyatning shu kungacha bir-birlarini qirib-bitirmasdan yetib kelishlariga boshqa dinlar kabi Islom dinining ham alohida o‘rni bor. Qur’oni Karimda: “Kimki o‘z nafsi baxilligidan saqlana olsa, bas, ana o‘shalar iqbollidirlar”, – deb yozilgan. Ya’ni kimki g‘ayriaxloqiy harakatlardan tiyilsa, o‘zganing haqqidan qo‘rqsa ma’naviy yuksaklikka erishadi. Din insonni axloqiy madaniyati va kamoloti tarbiyasida muhim o‘rin tutadi.

Din har qanday g‘ayriaxloqiy faoliyatga qarshi turadi. Axloq diniy qoidalardan oziqlanadi. Dinning mohiyatini to‘liq anglab olib borilgan ijtimoiy targ‘ibot amoralizmni kamaytiradi. Inson axloqiy madaniyatini rivojlantirish har bir jamiyat va davlat hayotida ko‘ngilsizliklarni yo‘qotadi. Chunki insoniyat hayotidagi muvaffaqiyat, farovonlik bir-birlari bilan kelishib, g‘ayriijtimoiy odatlardan qutulishlari asnosida paydo bo‘ladi. Fundamentalizmga berilmagan holda sekulyar davlatga mos islom dini ta’limotlarini targ‘ib etish bugun dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ajdodlari madaniyatiga mos yoshlar buning uchun tinimsiz, o‘zini ayamasdan xalqiga, ota-onasi va o‘zidan katta barchaga birday xizmat qilishi hamda alturistik fazilatni shakllantirishga intilishi zarur.

Islom dini mohiyatida musulmonlar ma’naviy

kamoloti va sog‘lom-farovon kelajagi haqida qayg‘urish asosiy masalalaridan hisoblanadi. Ayniqsa, buni islom tasavvuf ta’limotida ham yaqqol sezamiz.

Tasavvufiy tariqatlar ikkita katta turga ajraladi:

1) sun’iy tariqatlar;

2) nosun’iy (falsafiy deb ham yuritiladigan) tariqatlarga bo‘linadi.

Shariat ahkomlari va dastlabki diniy qoidalarni o‘zgartirmay, ularga qat’iy amal qiladigan sun’iy tariqat yo‘nalishlari – Islom me’yorlarini mantiqiy tahlil qilishga yo‘l qo‘ymaydilar, fatvo hamda tashqi g‘oyalar ta’siriga berilmaydilar. Nosun’iy tariqatlar esa ahli sunna val jamoa e’tiqodiga qarshi borib, shariat normalaridan o‘z fikriy qarashlarini, mantiqiy xulosalarini ustun qo‘yadilar.

Tasavvuf tarixida turli-tuman tariqatlar bo‘lsada, inson ma’naviy-axloqiy tarbiyasi, illatlardan xalos bo‘lish hamda amoralistik harakatlardan tiyilish masalasi hech qachon tariqat ahli diqqat-e’tiboridan chetda qolgan emas. Xususan, inson mohiyatidagi ichki dialektik ziddiyat, vijdon (komillik) va nafs o‘rtasidagi kurash tasavvuf ahli diqqat markazida bo‘lgan. Moddiylikka ruju qo‘yish, nafsning quli bo‘lish, kibr va jismiy lazzatlarga berishi orqali inson shayton izmida bo‘ladilar. Agarki, insonlar illatlardan forig‘lanib, diniy ko‘rsatmalar asosida yashasalar rahmoniy fazilatlar sohibiga aylanadilar. Illatlardan qaytarishlar, taqiqlar g‘ayriijtimoiy harakatlarni oldini oladi. Chunki ijtimoiy hayotda yuz beradigan aksariyat amoralistik va immoralistik harakatlar insonlarning tugamaydigan xohish-istaklari oqibatida yuz beradi. Islom dini ta’limotida esa ochko‘zlik va dunyo moliga havas qattiq qoralanadi. Insondagi amoralizmni yo‘qotishni, uning tabiatidagi salbiy, hayvoniy kuchlarni mahv etishdan boshlash kerak, deb tushuntiradi. Tasavvuf ta’limoticha insonda amoralistik harakatlarni sodir qilishga undaydigan kuch – bu uning hayvoniy nafsi. Qur’oni Karimda yozilganki, “Nafsimni oqlamayman. Zero, nafs-agar Rabbim rahm aylamasa faqat yomonlikka qistovchidir. Albatta, Rabbim kechirimli va rahmlidir”[1]. Inson doimo o‘z nafsini jilovlay olishi, uning yo‘lida atrofdagilarga zarar yetkazmasligi, o‘zgalar haqqidan uyalishi va qo‘rqishi lozim.

XXI asrga kelib iqtisodiy manfaatdorlik kayfiyati, pulni orqasidan quvish kuchaydi. Insoniyatning yaxshi yashashga intilishi, qulay shart-sharoitlarni yaratishga harakati ham amoralizmning kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Bu hodisa dunyoning rivojlangan davlatlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Moddiy farovonlikni yuksaltirishga behad intilish insoniyatning qalb ko‘zini ko‘r qilib, xudbinlashishiga ham olib kelmoqda. “(Yana boshqa) sabablari — ularning ustama (foiz) olishlari va odamlarning mol-mulklarini nohaq yeganlaridir. Ulardan kofirlariga alamli azobni tayyorlab qo‘yganmiz”, – deb yozilgan Qur’oni Karimda[2].

Mavlono Rumiyning fikricha, nafs bu insondagi hayvoniy jihat hisoblanadi. Shuning uchun inson hech qachon nafsning quli bo‘lishi kerak emas, ya’ni o‘zidagi hayvoniy jihatning ustun kelishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Aks holda u dahshatli hayvoniy kuch tuzog‘iga tushib qoladi. Ochko‘zlik, xasislik, tamagirlik va boshqa turli illatlar nafsga berilganlikdan kelib chiqadi. Nafs balosidan qutulgan kishi Xudoga yaqin turadi. insonning eng katta dushmani — bu nafsdir. Inson doimo o‘z nafsi bilan kurashib, uni asir etib, qamab qo‘yishi lozim. Nafs ozod ekan, inson hech qachon ozod bo‘lmaydi. Nafsga qarshi kurash insonning o‘z ozodligi uchun kurashdan iborat.

Insonning dunyoviy istaklari hech qachon o‘z

1 Алоуддин Мансур “Қурони Карим” маъноларининг таржима ва тафсири. -Тошкент: 2007. –Б. 150.
2 Алоуддин Мансур “Қурони Карим” маъноларининг таржима ва тафсири. -Тошкент: 2007. –Б. 150.

yakuniga yetmaydi. U doimo o‘z so‘raganidan ko‘prog‘iga egalik qilishni xohlaydi. Bu istaklar ham turli tuman. Bashariyat avlodining orzulari umrining oxirigacha yakuniga yetmaydi. Buning uchun u tinimsiz mehnat qiladi. Insoniyatning kasb-kori va faoliyat turi xilma-xildir. Samarali mehnat ma’lum bir sohada muvaffaqiyatga yetaklaydi. Ammo ayrimlar hamma yo‘nalishda birinchi bo‘lishga, barcha moddiyliklar uniki bo‘lishi uchun halovatidan kechadi. “Zavq va orzular zinapoyaga o‘xshaydi. Zinapoyalar o‘tirib dam olishga moslashmagan, aksincha ustiga bosib o‘tiladi, xolos. Umrni shu zinalarda behuda o‘tkazmaslik uchun g‘ofillikdan tez uyg‘ongan va ahvolining mohiyatini anglab yetgan zot qanday baxtli”[3]. Har bir inson mohiyatida boshqalardan ustun bo‘lish, xohlagan har bir ne’matiga erishish ishtiyoqi juda kuchli bo‘ladi. Bu insonning yoshligidan shakllana boshlaydi. Xohish-istaklari qonmagan shaxs, ya’ni xotirjam bo‘lmagan inson turli illatlar girdobiga berilib, ijtimoiy xavfli qilmishlarni sodir qiladi. Shu bois shukur qilish, qoniqish, halovat bilan yashagan inson baxt hissini anglab yetadi.

Tasavvuf allomalarining ta’limotlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, nafs (amoralizm) insonlarni xudbin qilib qo‘yadi. Korrupsiyani avj oldirib, faqat o‘z, shaxsiy manfaatini o‘ylaydiganlar to‘dasini shakllantiradi. Nafs domiga tushgandan keyin hech narsadan tap tortmaydi kishi, harom-harishdan xazar qilmay, boshqalar hisobiga bo‘lsa ham yaxshi yashashni o‘ylaydi. Diniy qadriyatlarni unutib, moddiy qadriyatlarni ideal hisoblagan bunday kimsalar riyokor hisoblanadi.

Boylikka intilish inson halovati va halolligini yo‘qotadi. Fazilat sohiblari moddiylik ortidan quvmaydi. Ularning xayrli amallari o‘z samarasini beradi. Boylikka intilish manmanlik belgisidir. Atrofdagilardan o‘zini ustun qo‘yish, birovlarning haqqiga egalik qilish hosilasida paydo bo‘ladi. Bular qalban tubanlardir. Tasavvufda nafs faqat qorin g‘ami emas. Nafs kibrning boshlang‘ich nuqtasi. Inson o‘z nafsini tiyolmasa bu tushuncha kengayib, chuqurlashib, boylik, mulk, toj-taxt masalalariga bog‘lanib ketadi. Tasavvufning dunyoga, hayotga munosabati, erk, uzlat kabi ijtimoiy hodisalarga qarshi ham shu tushuncha asosida ayonlashadi.

Mir Alisher Navoiy “Mahbub ul qulub” asarida yuksak insoniy axloqning yaxlit konsepsiyasini bayon etgan. Navoiy yoshlar tarbiyasida bilim egallash va estetik tarbiyaga alohida e’tibor qaratish lozimligini uqtiradi. Ustozlar nasihatlariga xushtavozelik bilan quloq solib, axloqiy fazilatlarni egallash lozim. Kibrga berilish va manmanlik inson fazilatlarini yo‘qotadi. Kimgaki yaxshilik qilingan bo‘lsa u, albatta, bu saxovatni boshqalar bilan bo‘lishishi lozim. Chunonchi, “Alloh senga qanday yaxshilik qilsa, sen ham boshqalarga shunday yaxshilik qil”, degan hadisni keltirib, bunday yozadi: “Insoniyat bog‘ining dilpisandroq shajari ehsondur va odamiylik konining arjumandroq gavhari ham ehsondir. Chunki islomda keng targ‘ib qilingan ehson tushunchasi ezgulik bilan ma’nodoshdir. Ezgulikka oshiq qalb egasi bo‘lish ulug‘ baxt. Navoiy: Ehson sifati saodati abad bil, fitna va ofat ya’juji daf’ig‘a sadd bil. Buning ma’nosi quyidagicha: Ehsonni abadiy saodat sifati deb bil, uni fitna va ofatlar ya’juji (olamni kemirishga tayyor ochofat maxluqlar timsoli) yo‘lida devor deb hisobla”[4]. Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida keltirilishicha, kun chiqar tomonda butun vujudi nafsdan iborat bo‘lgan, uchragan jonzotlarni kemirib, yurtlarni vayron qiladigan maxluqsifat insonlar yasharkan, Iskandar tog‘ darasini devor bilan mustahkamlab, aholini shu balodan xalos etadi. Karam, futuvvat, qanoat, rostgo‘ylik, adolat haqida ulug‘ Navoiy va boshqa mutafakkirlarimiz bayon etgan fikrlar bugungi ma’naviy tarbiya uchun qimmatli manbadir.

3 Румий Ж. Ичингдаги ичингдадур. «Меҳнат» нашриёти. Т -2001, 65-бет.

4 Muhammadiyev A. “Mahbub ul-qulub” da insoniy fazilatlar tarannumi. “Alisher Navoiy va XXI asr” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjumani materiallari. -Toshkent: 2019-yil.

Xullas, amoralistik illatlardan yiroq musulmon kishisi qanday qiyofada o‘zini ifodalashi kerak:

1. Yopiq avrat. Islomdagi avrat deganda, tananing musulmonlarga berkitiladigan qismlariga ishora qilinadi. Bundan tashqari, islomda avrat erkaklar va ayollar uchun farq qiladi. O‘zining vahiysida yaratuvchi bizni ogohlantirmoqda (Ey, Muhammad!) mo‘minlarga ayting, ko‘zlarini (nomahram ayollardan) quyi tutsinlar va avratlarini (zinodan) saqlasinlar! Mana shu ular uchun eng toza (yo‘l)dir. Albatta, Alloh ular qilayotgan (sir) sinoatlaridan xabardordir.

2. Toza va ozoda kiyimlar. Musulmonlar jinsidan qat’i nazar, toza va ozoda kiyim kiyishlari kerak. Rasulullоh sallallohu alayhi vasallamning hadislaridan birida “Poklik bu imonning yarmidir” (Muslim). Boshqasi aytadi: “Kiyimingizni tozalang va ozoda bo‘ling ...” (Abu Dovud).

3. Qarama-qarshi jinsga o‘xshamang. Bir hadisda shunday deyilgan: “Alloh Taoloning elchisi ayollarga va erkaklarga o‘xshash ayollarni la’natlagan” (Buxoriy, Termiziy va Abu Dovud rivoyat qilgan).

4. Siz plastik jarrohlik amaliyotlari, tatuirovkalar va boshqalar orqali tashqi ko‘rinishingizni o‘zgartirmasligingiz kerak.

Afsuski, hozirgi kunda ba’zi qizlar o‘zlarini o‘ta zamonaviy hisoblashib, tashqi ko‘rinishiga o‘zgartirish kiritib, go‘zal bo‘lishga harakat qilishmoqda. Xususan, lablar, qoshlar, yonoqlar, kipriklarga ishlov berish va yuzlarini plastik operatsiya qilish kabi o‘zgartirish turlariga murojaat qilishadi.

05

FILOLOGIYA FANLARI

ИСТОРИЧЕСКИЕ И КУЛЬТУРНЫЕ ФАКТОРЫ, СПОСОБСТВУЮЩИЕ ЗАИМСТВОВАНИЮ

Абдукарим Сулайманович Мусаев – д.ф.ф.н, и.о профессор,
Джизакский государственный педагогический университет
Мухлиса Кучкор кизи Абдухалилова – магистрант,
Джизакский государственный педагогический университет

Аннотация: *Статья посвящена анализу исторических и культурных факторов, способствующих заимствованию языковых элементов между культурами и народами. Основное внимание уделяется тому, как торговые, политические и социальные контакты, миграционные процессы, а также культурный обмен через религию, литературу и искусство способствовали переносу слов и выражений между языками. Заимствования играют важную роль в обогащении лексики и фразеологии, что позволяет языкам адаптироваться к изменениям в социально-политической и культурной жизни общества. Заимствования рассматриваются как важный механизм, способствующий развитию и обновлению языка, его гибкости и возможности выражать новые идеи.*

Annotatsiya: *Maqola madaniyatlar va xalqlar o'rtasidagi til elementlarini o'zlashtirishga yordam beradigan tarixiy va madaniy omillarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Asosiy e'tibor savdo, siyosiy va ijtimoiy aloqalar, migratsiya jarayonlari va din, adabiyot va san'at orqali madaniy almashinuv tillar o'rtasidagi so'z va iboralarning ko'chishiga qanday hissa qo'shganiga qaratilgan. O'zlashma so'zlar lug'at va frazeologiyani boyitishda muhim rol o'ynaydi, bu tillarga jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotidagi o'zgarishlarga moslashish imkonini beradi. Maqolada turli tarixiy davrlar va hayot sohalari, jumladan, texnologiya va ommaviy madaniyat ta'siridan olingan aloqalar misollari ko'rib chiqiladi. O'zlashma so'zlar tilning rivojlanishi va yangilanishiga, uning moslashuvchanligi va yangi g'oyalarni ifodalash qobiliyatiga hissa qo'shadigan muhim mexanizm sifatida qaraladi.*

Abstract: *The article is devoted to the analysis of historical and cultural factors that contribute to the borrowing of linguistic elements between cultures and peoples. The main attention is paid to how trade, political and social contacts, migration processes, as well as cultural exchange through religion, literature and art contributed to the transfer of words and expressions between languages. Borrowings play an important role in enriching vocabulary and phraseology, which allows languages to adapt to changes in the socio-political and cultural life of society. The article considers examples of borrowings from different historical eras and areas of life, including the influence of technology and popular culture. Borrowings are considered as an important mechanism contributing to the development and renewal of language, its flexibility and ability to express new ideas.*

Ключевые слова: *заимствование, исторические факторы, культурные факторы, языковой обмен, фразеология, лексика, торговые связи, миграция, политическое влияние, культурный обмен, религия, литература, искусство, технологии, массовая культура, глобализация.*

Kalit so'zlar: *o'zlashma so'zlar, tarixiy omillar, madaniy omillar, til almashinuvi, frazeologiya, lug'at, savdo aloqalari, migratsiya, siyosiy ta'sir, madaniy almashinuv, din, adabiyot, san'at, texnologiya, ommaviy madaniyat, globallashuv.*

Keywords: *borrowing, historical factors, cultural factors, language exchange, phraseology, vocabulary, trade relations, migration, political influence, cultural exchange, religion, literature, art, technology, popular culture, globalization*

Дешериев Ю. Д. отмечает: "Язык является социальным явлением. Его функционирование и развитие тесно связаны с жизнью общества. Каждое общество живёт в определённых социальных, психологических и лингвистических условиях, что непосредственно влияет на язык. Одним из ведущих социальных условий, влияющих на язык, является совместное проживание носителей двух или более языков на одной территории"[1].

А.Э.Худайкулов в своей статье излагает данный факт, что, "слово может заимствоваться только тогда, когда его

1 Дешериев Ю.Д. Социальная лингвистика / Ю.Д.Дешериев. - М., 1977. – 383 с.

значение понятно заимствующему языку"[2]. Заимствование представляет собой процесс, при котором элементы языка, включая слова, фразы и даже грамматические структуры, переносятся из одного языка в другой. Этот процесс не происходит случайно; он обусловлен множеством исторических и культурных обстоятельств. Языковое заимствование часто отражает изменения в социально-политической ситуации, культурные обмены, а также экономическую и технологическую динамику в разных странах и народах. В данной статье мы проанализируем ключевые исторические и культурные аспекты, способствующие заимствованию, а также их влияние на развитие языков и фразеологии. "В разные периоды истории в исконный русский язык проникали слова из других языков. Это было обусловлено тем, что русский народ вступал в экономические, культурные, политические связи с другими народами, отражал военные нападения, заключал военные союзы и т. д. Однако в целом, по мнению исследователей, языковые заимствования в русской лексике составляют сравнительно небольшой процент (не более 10 – 20%)"[3].

Процесс заимствования между русским и узбекским языками имеет глубокие исторические корни и развивался на протяжении веков, особенно начиная с XVIII века, когда усилились политические, торговые и культурные связи между Россией и Узбекистаном. Культурные взаимодействия между народами, говорящими на разных языках, также способствуют заимствованию слов и выражений из одного языка в другой.

Как отмечает П.Я. Булаховский, "ряд названий предметов и понятий уже в древние времена обнаруживал тенденцию перехода от народа к народу, заимствуясь из одного языка в другой. Подавляющее большинство таких слов обозначает культурные понятия, предметы и понятия относительно высокой цивилизации, и распространение их отражает старые пути отношений азиатско-европейских народов в историческом порядке их выступления на арене мировой культуры"[4].

Торговые и дипломатические связи. Одним из ключевых факторов культурного обмена были торговые пути, включая Великий шелковый путь. Русские купцы, а также представители других народов, отправлявшиеся в Центральную Азию, не только обменивались товарами, но и вступали в контакт с местными народами. Эти взаимодействия способствовали заимствованию слов и фразеологических выражений. Русский язык приобрел новые термины, связанные с восточной культурой и образом жизни. Политическая и административная интеграция. С присоединением Центральной Азии к Российской империи в XIX веке усилившееся влияние русской власти в регионе способствовало дальнейшему культурному взаимодействию. В этот период в узбекский язык проникали многие русские слова, включая фразеологизмы, связанные с административными и социальными структурами, правом и военным делом. Миграционные процессы. Перемещение людей также оказывало значительное влияние на обмен фразеологизмами.

Миграция рабочих и представителей интеллигенции между Россией и Узбекистаном, особенно в XX веке, способствовала взаимному заимствованию

2 Худайкулов А.Э. Семантическая адаптация некоторых английских заимствованных слов в русских письменных памятниках XVII-XIX веков //Вестник Челябинского государственного университета. – 2011. – №. 28.

3 Современный русский словарь иностранных слов: ок. 20000 сл. – 3-е изд., стер. – М.: Рус. яз., 2000. – 742 с.

4 Булаховский П.А. Введение в языкознание. – М.: Учпедгиз,1953.-178 с.

лексики и фразеологии. Культурные обмены между русским и узбекским народами происходили не только через язык, но и через литературу, искусство, религию и повседневную жизнь. Это взаимодействие определяло проникновение фразеологических выражений, отражающих обычаи, традиции и мировоззрение народов. Религиозные и философские аспекты. Влияние русской православной церкви и культуры на Узбекистан, особенно в XIX и начале XX века, привело к заимствованию церковных и религиозных выражений. В свою очередь, исламская культура Узбекистана также оказывала влияние на русскоязычных жителей региона, что отразилось на заимствованиях в их фразеологии.

Литературный обмен между Россией и Узбекистаном в XIX и XX веках стал значимым элементом культурных связей между двумя народами. Этот процесс был обусловлен множеством факторов, включая изменения в социально-политической сфере, развитие образования и общие тенденции в культурной жизни обеих стран. Важную роль в обмене сыграли взаимные влияния, а также связи в области литературы, языка и искусства, которые отражали общие интересы и стремления русской и узбекской культур.

В XIX веке, когда Узбекистан стал частью Российской империи, литературы обеих стран начали активно взаимодействовать. Это происходило на фоне научных исследований и интеграции местных культур в более широкий культурный контекст империи. Одним из первых шагов в литературном обмене стало знакомство с узбекской и таджикской литературой через переводы на русский язык. Произведения таких авторов, как Алишер Навои, чье влияние на таджикскую и узбекскую литературу было колоссальным, начали восприниматься русскими читателями. Навои, философ и поэт XV века, в своих произведениях глубоко затрагивал темы любви, морали и духовности, что вполне совпадало с ценностями русской литературы того времени. Через его творчество русская аудитория познакомилась с идеями Востока, что также повлияло на развитие русской литературной традиции и укрепило культурные связи между двумя народами.

Обогащение обеих литератур друг другом происходило не только через переводы, но и через участие русских и узбекских писателей и поэтов в культурных событиях и обсуждениях, что способствовало укреплению взаимопонимания и расширению горизонтов для творческого сотрудничества.

Влияние русской литературы на узбекскую. Русская классическая литература, в свою очередь, оказала значительное влияние на узбекских писателей. Произведения Пушкина, Лермонтова, Толстого, Тургенева и других авторов привлекали внимание узбекских литераторов, знакомых с русским языком. Русская литература стала важным источником для вдохновения и познания западных литературных традиций и жанров, таких как роман, повесть, рассказ.

Особое внимание следует уделить участию русских ученых и литераторов в изучении узбекской литературы. Преподавание русской литературы в узбекских учебных заведениях сыграло ключевую роль в формировании нового поколения писателей, критиков и искусствоведов.

В то же время, узбекская литература, представленная такими фигурами, как Абдулла Каххар и Чингиз Айтматов, оставила свой след в русской культуре. Взаимное проникновение произведений литературы также вело к заимствованию фразеологизмов, выражающих национальную специфику.

Социальные изменения. Советская эпоха

стала временем значительных изменений для обеих культур, что обусловило массовую миграцию, развитие промышленности и образования, а также проведение реформ в социальной и культурной жизни. Эти изменения способствовали заимствованию фразеологических выражений, отражающих новое общественное устройство, политику и идеологию.

Процесс заимствования в истории человечества является важным инструментом культурного обмена, формирования новых идентичностей и развития цивилизаций. Он всегда был неотъемлемой частью человеческой истории, способствуя взаимопониманию и трансформации культурных и языковых ландшафтов. Миграции народов, войны, торговля, колонизация, религиозные миссии и глобализация – все эти исторические и культурные факторы способствовали не только распространению материальных и идеологических элементов, но и созданию условий для дальнейшего взаимодействия культур.

Заимствования никогда не происходят в вакууме, и они редко бывают односторонними. Каждое заимствование также сопровождается адаптацией, превращая привнесенные элементы в органическую часть местной культуры. Важнейшим аспектом процесса заимствования является его двусторонний характер – не только более сильная культура заимствует элементы от более слабой, но и наоборот. Это ведет к взаимному обогащению и расширению горизонтов как для отдельных обществ, так и для всего человечества.

SLENG BIRLIKLARI HOSIL BO'LISHNING MORFOLOGIK USULI

Abduvali Musayev – dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sleng birliklarining kelib chiqishi, ularning adabiy til bilan munosabati va o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada sleng so'zlarining yasalishi va ularning zamonaviy tilshunoslikda tutgan o'rni ko'rsatib berilgan.*

Аннотация: *В данной статье анализируется происхождение жаргонных единиц, их связь с литературным языком, их характеристики. Также в статье показано образование жаргонных слов и их роль в современном языкознании.*

Abstract: *This article analyzes the origin of slang units, their connection with the literary language, their characteristics. The article also shows the formation of slang words and their role in modern linguistics.*

Kalit so'zlar: *sleng, morfologik usul, dialekt, so'z yasalishi, affiksatsiya usuli, sleng so'z va iboralar.*

Ключевые слова: *сленг, морфологический метод, диалект, словообразование, способ аффиксации, жаргонные слова и словосочетания.*

Keywords: *slang, morphological method, dialect, word formation, method of affixation, jargon words and phrases.*

Sleng birliklari zamonaviy tilning dinamik va ijodiy qismi bo'lib, ularning shakllanishi va ishlatilishi tilning boyishida muhim rol o'ynaydi. Ular nafaqat kommunikativ vosita sifatida, balki ijtimoiy madaniyatning aksini ko'rsatadigan o'ziga xos fenomen sifatida ham ahamiyatlidir. Sleng tizimining o'ziga xos xususiyatlari va so'z yasalish qonuniyatlarini o'rganish nafaqat lingvistik tadqiqotlar, balki madaniyat va jamiyatni chuqurroq anglash uchun ham dolzarbdir.

Sleng birliklar o'z-o'zidan paydo bo'lmagan, zamonaviy filologiyaning e'tiborini tobora ko'proq jalb qila boshlagan tizimdir. Ko'pchilik nostandart leksikaga taalluqli so'zlar kelib chiqishidan boshlab o'z ma'nosigacha adabiy til bilan mutanosib holda ishlatiladi. Sleng tizimining so'z yasalishi ham o'ziga xos xususiyatga ega.

Bugungi davr o'zbek tilshunosligida so'z yasalishi doirasida quyidagi muammolarni tadqiq etish dolzarbdir: 1) o'zbek tilida yasama so'zlar hosil bo'lishining kognitiv mexanizmlari; 2) o'zbek tilida yasama so'zlarning hosil bo'lishida voqelikni qayta nomlash muammosi; 3) o'zbek tilida so'z yasalishida milliy-madaniylik omili; 4) o'zbek shevalarida so'z yasalishining o'ziga xos jihatlari; 5) sotsial dialektlarda so'z yasalishining o'ziga xos jihatlari. Ayniqsa, shu kunga qadar adabiy tilimizni boyituvchi ichki manbalardan biri hisoblangan o'zbek dialektlarida so'z yasalishi tizimini o'rganishga bag'ishlangan fundamental tadqiqotlarning kamligi ayanchli hol. Zero, taniqli tilshunos A.G'ulomov aytganidek, "So'z yasalishi muammosining tadqiqi dialektlarni o'rganish bilan uzviy bog'liq. O'zbek so'zlashuv nutqi materiallari o'zbek tili so'z yasalishida hali aniq bo'lmagan ayrim masalalarning yechimi uchun foydali ma'lumotlar bera oladi"[1].

Tilshunos M.Irisqulov affikslar yordamida, ya'ni so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida so'z yasash ko'pchilik tillar uchun asosiy vosita hisoblanib, affikslar so'z o'zagiga nisbatan joylashishi nuqtayi nazaridan prefiks (so'zdan oldin), postfiks (so'zdan keyin) va infikslar (yordamida so'z yasash)ga ajraladi deb ta'kidlaydi[2].

1 A. G'ulomovning ilmiy merosi. 1-kitob. – Toshkent, 2005. – B. 24.
2 Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2009. –B.46.

Ma'lumki, o'zbek tili sotsial dialektlarida adabiy tilda, shuningdek, qadimgi yozma manbalarda o'z aksini topmagan o'ziga xos yasama so'zlar mavjud. Ular xalqimizning boy tarixi, milliy-madaniy qarashlari, voqelikni idrok etish darajasi, tasavvurlari va nihoyat, til qurilishi haqida ko'plab ma'lumotlar bera oladi. Sotsial dialektlarida so'z yasalishi muammosini hozirgi o'zbek adabiy tili hamda boshqa turkiy tillar, zarur o'rinlarda qadimgi manbalar bilan qiyosiy-tarixiy aspektda o'rganish ham ilmiy, ham amaliy ahamiyatga ega. Xorijiy tillardan boshqa til vositachiligida emas, balki to'g'ridan to'g'ri va me'yorga amal qilgan holda so'zlar o'zlashtirilmoqda.

O'zbek tili lug'at boyligi tarkibi doirasida globallashuv jarayonida kechayotgan faollashgan hodisalarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Affiksatsiya usulida hosil bo'lgan sleng birliklari. Sleng so'z va iboralar so'z yasalishi jihatidan bir-biriga o'xshamaydi. Bunda umumxalq leksikasining ma'no jihatdan o'zgarishi muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida o'zbek tilining sleng birliklari orqali nostandart leksikaning bir qator misollarini ko'rib chiqishimiz mumkin: affiksatsiya ("affixation" – inglizcha "so'z yasovchi qo'shimchalar") – zamonaviy o'zbek tilidagi yangi so'z yasovchi eng ko'p tarqalgan usullardan biridir va bunda o'zak va so'z yasovchi qo'shimcha yangi ma'no anglatuvchi so'z yasaydi. Affiksatsiya o'z ichiga prefikslar ("prefix" – inglizcha "so'z oldiga qo'shilib yangi so'z yasovchi qo'shimcha"), suffikslar ("suffix" – inglizcha "so'z oxiriga qo'shilib yangi so'z yasovchi qo'shimchalar") va infikslarni ("infix" – inglizcha "so'z o'zagiga qo'shilib yangi so'z yasovchi qo'shimchalar") oladi. Nostandart leksika va sleng so'zlarini yasashda standart so'zlar yasash uchun qo'llanadigan so'z yasovchi affikslardan foydalaniladi.

2. Muayyan so'z yasovchi qo'shimchaning bevosita faollashuvi yorqin bir tarzda deyarli kuzatilmasa-da, ayrim, masalan, -ling/-ing, -ant /-yent, -izm, -al/-yel, -iv, -ik, -siya kabi yasovchilarning nisbatan ko'proq yangi yasalmalardagi ishtirokini qayd etish mumkin. Masalan, -yer: trillioner, menejer, broker, diler, insayder (moliya va iqtisodga oid sleng); xaker, drayver (kompyuter va internetga oid sleng); spiker (siyosiy sleng); triller, blokbaster, transformer, klipmeyker, prodyuser (san'atga oid sleng); -or: auditor, distribyutor / distribyutor, investor (moliya va iqtisodga oid sleng); sponsor, tyutor, mentor, imfakt-faktor (ilmga oid sleng); -men: biznesmen, biznesvumen (moliya va iqtisodga oid sleng); -siya: kontraktatsiya (moliya va iqtisodga oid sleng), deprotatsiya (siyosiy sleng); innovatsiya, attestatsiya (ta'limga oid sleng); -izm: parlamentarizm (siyosiy sleng); -ing: bouling, sheyping, doping (sport slengi); kasting (san'atga oid sleng); -iv: kreativ, adaptiv, inklyuziv (ta'limga oid sleng); -tura: magistratura, doktorantura. Masalan, "Tanlovda.... innovatsion g'oyalarni, fermer, yilning eng yaxshi huquq tartibot xodimlari bir qator nominatsiyalar bo'yicha taqdirlandi" (telegram kanal: zarnews. 6.11.2021) Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik" (Biznes innovatsiyalar va tadbirkorlik) magistratura mutaxassisligiga 2021-2022 o'quv yili uchun qabul e'lon qiladi (kun.uz saytining rasmiy Telegram kanali, 16.11.2021).

3. Sleng birliklarini yasalishida prefiksatsiya usuli ham sermahsul sanaladi: giper-, super-, multi-, mega-, ultra-, inter-, mini-, makro-, mikro-, avto- , yevro-, bio-, mini-, mikro-, nano-, top-, kiber-. giperinflyatsiya, cupermarket (moliya va iqtisodga oid sleng); gipermedia, gipertekst, super o'yin, kiber do'st, kiberjinoyat, kiber xujum, (kompyuter va internetga oid sleng); superjins, super-shou, top shou, top-model, super-star, superqahramon, top o'ntalik (san'atga oid sleng).

Masalan, Novinka #xit, Sifati super ("MOXIShOP" magazinining telegramm kanali, 21.10.2021). Coozin xaloskorlar jamoasining SUPER qahramonlari uy bekalarini oshxona qamalidan qutqarishga tayyor (kun.uz saytining rasmiy Telegram kanali, 16.11.2021). Ayni damda Davron Muhiddinov jahonning TOP-300 universitetlari ro'yxatiga kirgan oliy ta'lim muassasasining magistratura yo'nalishida tahsil olmoqda (Telegram: https://t.me/uzedu/ Xalq ta'limi vazirligi. 21.10.2021). "Ishni to'g'ri tashkil qilsangiz, eski davrdagidek "tanka"ning keragi yo'q" – Ostex Group top-menejeri (kun.uz saytining rasmiy Telegram kanali, 2.10.2021). O'yinning mana shu epizodi o'zbekistonlik haker ishtirok etgan kiberjinoyatchilar tomonidan "stavka"ni yutish uchun atayin uyushtirilganiga ishonasizmi? (kun.uz saytining rasmiy Telegram kanali, 2.10.2021). Aksilmonopol qo'mita benzin narxi oshishida "manipulyatsiya holatlari" aniqlanganini ma'lum qildi (kun.uz saytining rasmiy Telegram kanali, 16.10.2021).

Turkiy tillarda prefikslarning so'z yasashdagi ishtiroki to'g'risida fikrlar ham yo'q emas. Masalan, taniqli turkolog T.M.Garipov bu fikrlarga qarshi chiqib, shunday deydi: "... mashhur turkman tilshunos olimi P.Azimov doktorlik dissertatsiyasida so'z yasash usullarining yettitasini sanab o'tadi, ular qatoriga internatsionalizmlarni, hatto turkiy tillarda mavjud bo'lmagan "prefiksatsiya"ni ham kiritadi"[3]. Qoraqalpoq tilida prefikslarning o'zi yo'q deb ayta olmaymiz, lekin bularning barchasi o'zlashtirilgan prefikslar. Shu bilan birga, ular boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlar bilan birga qo'llanadi. Masalan: antifashist, antiterror, polimer, polietilen, poligrafiya va hokazo so'zlar o'zga tillar nuqtayi nazaridan qaralsa, prefiks orqali yasalgan yasama so'z ekanligi munozarasiz, lekin qoraqalpoq tili nuqtayi nazaridan ular prefiks yordamida yasalgan yasama so'z emas, asos sifatida qabul qilinishi lozim. Chunki bu so'zlarning ma'noli qismlari qoraqalpoq tiliga yakka tarzda kirib kelmagan va ular qoraqalpoq tilining ichki qonuniyatlariga asoslanib yangi so'z yasamayapti. Shunday bo'lsa-da, qoraqalpoq tilining so'z yasash qonuniyatlari asosida yasalgan so'zlar ham uchraydi. Masalan: antifashist-lik, ultra-dao'ыs va boshqalar[4]. O'zbek tili sleng tizimida ham superqahramon, kiberjinoyatchi, super o'yin, kiber do'st, kiberjinoyat, kiber hujum, superjins kabi so'zlar mavjudki, ular o'zbek tilining so'z yasash qonuniyatlari asosida yasalgan.

Nano boteks jonli effekti ("MOXIShOP" magazinining telegramm kanali, 11.02.2021). O'zbekistonda ilk bor koinotga nano SPUTNIK uchirilmoqda (kun.uz saytining rasmiy Telegram kanali, 17.09.2021). Nano balzam bilan davolanmoqda ("MOXIShOP" magazinining telegramm kanali, 21.10.2021). O'zbekiston zamonaviy KAMAZ 5490-024-87 NEO o'rindiqli tyagachini foydali shartlarda taklif etadi! Yevro-5 standartida, quvvati 401 o.k. dvigatel bilan jihozlangan (daryo.uz saytining rasmiy Telegram kanali, 9.08.2021). Yevro-2020 yakunlari. Kim tezroq, chidamliroq va aniqroq? (kun.uz saytining rasmiy Telegram kanali, 13.07.2021).

Bugungi kunda Internet va kompyuter texnologiyalarida cyber-, ye- kabi qisqartmalar ham keng qo'llanilmoqda. Masalan, ye-: e-mail (elektron pochtasi), ebook – elektron kitob, e-cash – elektron pullar, e-form – elektron forma va boshqalar.

Ayrim adabiyotlarda e- qisqartma deb berilsa[5],

3 Гарипов Т.М. Башкирское именное словообразование. Уфа, 1959, С.221..35 стр; Najimov P.A. Qoraqalpoq tilining so'z yasalish tizimi: Filol. fan.dokt. (DSc) disser. – Nukus, 2020. – B.19.

4 Najimov P.A. Qoraqalpoq tilining so'z yasalish tizimi: Filol. fan.dokt. (DSc) disser. – Nukus, 2020. – B.19.

5 Isakova N.A. Mustaqillik yillarida o'zbek tiliga kirib kelgan xorijiy so'zlarning tarkibiy-mazmuniy tahlili: Filol.fan.bo'yicha falsafa dokt. (PhD) disser. – Samarqand, 2021. -B.81.

ayrimlarida prefiks, ayrimlar qisman morfologik substitutsiya[6] sifatida qaralmoqda.

Xulosa qilib aytganda, sleng birliklarini hosil qilishning morfologik usuli tilning ijodiy imkoniyatlarini namoyon etadi. Bunda qo‘shimchalar qo‘shish, so‘zlarni qisqartirish, birikma va yangi shakllar yaratish orqali nostandart leksika shakllanadi. Ushbu jarayon tilning o‘zgaruvchanligi va yangilanishini aks ettiradi. Sleng birliklarining morfologik yasalishi zamonaviy lingvistika uchun muhim o‘rganish obyekti bo‘lib, bu tilning rivojlanishi va ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarni tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

6 Давлятова Э.М. Заимствование западноевропейской лексики в аспекте межкультурной коммуникации: Докт. философ. по филол. (PhD) наук. – Термез, 2020. – Б.121.

OZIQ-OVQAT KONSEPTI: J.R.R.TOLKINNING FENTEZI DUNYOSIDAGI TAOMLAR TASVIRLARI

Nargiza Qo'chqarovna Bo'riyeva – dotsent, PhD,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqola J.R.R.Tolkinning "Uzuklar hukmdori" trilogiyasidagi oziq-ovqat tasvirlariga bag'ishlangan bo'lib, asardagi taomlar va ovqatlanish jarayonlarini lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil qiladi. Maqolada, Tolkinning fantastik dunyosida oziq-ovqat tasvirlari qanday qilib xarakterlarni rivojlantirish va hikoyani yanada chuqurroq tushunishga xizmat qilishi haqida so'z boradi. Ayniqsa, Hobbitlarning oziq-ovqatga bo'lgan ishtiyoqi va bu ularning madaniyatini qanday aks ettirishi ko'rib chiqilgan. Oziq-ovqat, "Hobbit" va "Uzuklar hukmdori" asarlarida asosiy ijtimoiy va madaniy konseptlardan biri sifatida taqdim etiladi, bu esa o'z navbatida Tolkinning ingliz madaniyati bilan aloqasini va o'rta asr madaniyatiga bo'lgan qiziqishini yoritadi. Maqolada, shuningdek, "ovqat" konseptining lingvistik tahlili, uning ingliz va o'zbek tillaridagi ifodalanishi hamda Tolkinning fantastik dunyosidagi o'rni haqida ham batafsil ma'lumot berilgan.*

Аннотация: *Эта статья посвящена описаниям пищи в трилогии Д.Р.Р.Толкина "Властелин колец" и анализирует их с лингвокультурологической точки зрения. В статье рассматривается, как описания пищи в фантастическом мире Толкина служат для развития персонажей и более глубокого понимания сюжета. Особое внимание уделяется страсти хоббитов к пище и тому, как это отражает их культуру. Пища в произведениях "Хоббит" и "Властелин колец" представляется как одна из основных социальных и культурных концепций, что, в свою очередь, освещает связь Толкина с английской культурой и его интерес к средневековой культуре. Также в статье подробно рассматривается лингвистический анализ концепта "пища", его выражение в английском и узбекском языках, а также его роль в фантастическом мире.*

Abstract: *This article is dedicated to the descriptions of food in J.R.R.Tolkien's "The Lord of the Rings" trilogy and analyzes them from a linguistic and cultural perspective. The article examines how food descriptions in Tolkien's fantasy world serve to develop characters and provide a deeper understanding of the plot. Special attention is given to the hobbits' passion for food and how this reflects their culture. Food in the works "The Hobbit" and "The Lord of the Rings" is presented as one of the key social and cultural concepts, which, in turn, sheds light on Tolkien's connection with English culture and his interest in medieval culture. The article also provides a detailed linguistic analysis of the concept of "food", its expression in English and Uzbek languages, as well as its role in Tolkien's fantasy world.*

Kalit so'zlar: *oziq-ovqat, taom, konsept, lingvomadaniy, hobbitlar, O'rta yer, Gollum, elflar, trollar va goblinlar, Tolkin kosmologiyasi, so'z-lexemalar semantikasi, konseptosfera.*

Ключевые слова: *еда, пища, концепт, лингвокультура, хоббиты, Средиземье, Голлум, эльфы, тролли и гоблины, космология Толкина, семантика слов-лексем, концептосфера.*

Keywords: *food, meal, concept, linguistic culture, hobbits, Middle-earth, Gollum, elves, trolls and goblins, Tolkien's cosmology, semantics of words-lexemes, conceptosphere.*

J.R.R.Tolkin, XX asrning eng mashhur fentezi asarlarining muallifi bo'lib, o'rta asr filologiyasi va adabiyoti bo'yicha buyuk olim edi[1]. Aniqki, shimoliy o'rta asrlarning madaniyati, so'z boyligi va so'z shakllari "Hobbit" va unga aloqador asarlarda chuqur ta'sir ko'rsatgan va shuning uchun Tolkinning tasavvuri orqali o'rta asr adabiyotiga qiziqish uyg'otish uchun urinishlar amalga oshirilgan[2]. Biroq o'rta asr oshxonasi Tolkinning buyuk asarida, ya'ni "Uzuklar

1 Tolkinning asarlari va ularning davom etayotgan mashhurligi haqida eng foydali umumiy tadqiqotlar quyidagilardir: White, Michael. Tolkien: A Biography. London: Penguin, 2001; Shippey, Tom. J.R.R.Tolkien: Author of the Century. New York: Houghton Mifflin, 2000; Rosebury, Brian. Tolkien: A Cultural Phenomenon. New York: Palgrave Macmillan, 2003; Curry, Patrick. Defending Middleearth: Tolkien, Myth and Modernity. Edinburgh: Floris Books, 1997.

2 Lee, Stuart D.; Solopova, Elizabeth. The Keys of Middle-earth: Discovering Medieval Literature through the Fiction of J.R.R.Tolkien. New York: Palgrave Macmillan, 2005.

hukmdori"da, muhit yaratishda hech qanday rol o'ynamaydi. Tolkinning asarlarida murakkab taomlar tayyorlashning yo'qligi, uning shaxsiy didini ham aks ettiradi. U bir vaqtlar o'zi haqida shunday yozgan edi: "Men aslida Hobbit'man (faqat bo'yni hisobga olmaganda). Men bog'lar, daraxtlar va mexanizatsiyalashmagan qishloq xo'jaligini yoqtiraman; tamakini trubkada chekishni yaxshi ko'raman va oddiy, yaxshi taomlarni (muzlatilmagan) afzal ko'raman, lekin fransuz taomidan nafratlanaman..."[3] Asarda ziyofatlar, shoir qo'shiqchilar ijrosi va turli o'rta asr marosimlari mavjud, ammo bu katta ziyofatlarning gastronomik tarkibi ko'rinmaydi, chunki ular elflar va O'rta Yerning eng yuqori tabaqalari tomonidan tashkil etiladi, ularning jismoniy zavqlarga nisbatan e'tibori minimal. Aslida, "Uzuklar hukmdori"da juda ko'p oziq-ovqat yo'q. Taklif qilingan narsalar nisbatan oddiy mahsulotlardir, masalan, non, pishloq, bekon va mevalar, va faqat Shirga xos bo'lgan bir guruh odamlar – hobbitlar – dasturxondagi lazzatlarni qadrlashadi.

Albatta, "Hobbit"da bir nechta tantanalar tasvirlangan, lekin bu tadbirlarda taqdim etilgan taomlarga juda kam e'tibor qaratilgan. Buning bir qismi, Tolkinning haddan tashqari yoki ortiqcha tafsilotlarsiz yorqin sahnalarni tasvirlashdagi mahoratiga bog'liq. Yaratilgan dunyolarning sehriga hayotning oddiy jihatlari, masalan, doimiy oziq-ovqat ehtiyoji, batafsil tasvirlanishni talab qilmaydi. "Hobbit"da, "Uzuklar hukmdori"dan oldingi asarida, mo'jizalar nisbatan oddiy hobbitar va gnomlar bilan ro'y beradi, hobbitar doimiy va mazali taomlarga juda tanqidiy yondashadi, ulug'vorroq epikaga qaraganda ularning taomlar (yoki taomlarning yo'qligi bilan bog'liq baxtsizliklar) haqida aytadiganlari ko'proq. Birinchi safarga (dunyoni saqlash uchun emas, balki boylik uchun) chiqqan shaxslar tez-tez och qoladilar. "Hobbit"da, yovuz va sehrli personajlar (elflar, trollar, hatto sehrgar Gandalf) oddiy taomlar iste'mol qilayotgan tarzda tasvirlanadi. Ammo "Uzuklar hukmdori"ning uch kitobida esa taomlar kam uchraydi, va taomlar haqida deyarli hech qanday so'z yuritilmaydi, chunki xavfli safar Shirdan ancha uzoqqa ketadi.

Agar oziq-ovqatga bo'lgan e'tibor hobbitlarning asosiy xususiyatlaridan biri va ularning jozibador oddiyligining ramzi bo'lsa, bu shuningdek, ularning XX asrning boshidagi inglizcha o'ziga xosligiga ham taalluqlidir. Bu Tolkinning O'rta Yeridagi epik va romantik janrlar bilan o'zaro qarama-qarshiligi bilan bog'liq bo'lib, uning kitoblarining jozibadorligining markaziy elementidir. Hobbitar uchun o'zlarining oziq-ovqatga bo'lgan sevgisini o'rta asrlar oshxonasi orqali ifodalash mos emas, chunki ular zamonaviy his-tuyg'ularga (yoki kamida Tolkinning o'zining didiga mos) ega personajlar sifatida tasvirlangan, va o'rta asr adabiyoti bilan boyitilgan, ammo unga to'liq asoslanmagan fantastik dunyoni tushunish uchun samarali vosita hisoblanadi.

Manzara, xotira va ob-havo "Hobbit"da kundalik hayotning kichik tafsilotlaridan ko'ra muhimroqdir. Oddiylik va fantastika o'rtasida muvozanat bo'lishi kerak, va fantastika juda o'rta asrlarga xos bo'lmasligi lozim. Taomlar juda tanish bo'lsa, bu uzoqlik hissiyotini buzadi, shuning uchun tantanalar o'tkazishda juda oddiy taomlarni kiritish mumkin emas. Shu bilan birga, allaqachon tillar, geografiya va mavjudotlarni ixtiro qilgan, butunlay noma'lum oshxonaga ortiqcha e'tibor berish, O'rta Yerni juda batafsil rejalashtirilgan dunyoga aylantirardi. Tolkin o'zining o'rta asr ilhomini ehtiyotkorlik bilan taqsimlashda mohir bo'lgan, shuning uchun, garchi sindirilgan qilichlar, yer osti konchilar-gnomlar va o'simliklar haqida bilim o'rta asr adabiyotidan olingan bo'lsa-da, tasavvur qilingan O'rta Yer aslida neomedieval fantastikadan ancha ko'proqdir[4].

3 The Letters of J.R.R.Tolkien, Humphrey Carpenter, J.R.R.Tolkien, Christopher Tolkien, eds. Boston: Houghton Mifflin, 1981: 288-289.

4 On Tolkien and the Middle Ages see the essays edited in: Chance, Jane. Tolkien the Medievalist. London: Routledge, 2003.

Agar O'rta Yerning taomi o'rta asrlar Yevropasining oshxonasiga (qushlar, yovvoyi hayvonlar, ziravorlar) juda o'xshash bo'lsa, bu o'rta asrlardan haddan tashqari to'g'ri olingan deb ko'rinishi mumkin edi. Boshqa tomondan, agar taomlar juda fantastik bo'lsa, hikoya ilmiy fantastika tusini olardi, ya'ni u alternativ dunyoga aylanar, va shu sababli asosiy dunyo bilan aloqasiz bo'lishi mumkin edi[5]. "Uzuklar hukmdori" – bu fentezi, lekin ilmiy, nazoratli, murakkab va qiziqarli bo'lib, yorqin tafsilotlar va atmosfera orqali yaratilgan.

"Uzuklar hukmdori"dagi taomlar bilan bog'liq sahnalar, xobbitlarning ekin ekilgan va manzarali tabiatga bo'lgan bog'liqligini, boshqa tomondan esa, elflar va boshqa ijobiy fantastik mavjudotlar, masalan, Entlar, hamda Tabiatga qarshi kuch bo'lgan Qora Lord, Sauronning olamiga qarshi turishini ta'kidlaydi. Tolkinning kosmologiyasidagi uchta daraja (abadiy elflar, odamlar va xobbitlar, hamda Sauron tomonidan boshqarilayotgan yovuz mavjudotlar) o'ziga xos taom iste'mol qilish usuliga ega bo'lib, xarakterlarning rivojlanishidagi o'zgarishlar qisman, ular tizim ichida yuqoriga yoki pastga siljigan sari, nimani va qanday ovqatlanishlarida aks etadi. Frodo, Mordor va O'lim Tog'iga yaqinlashgan sari, xobbitlarning taomga bo'lgan tashvishini yo'qotadi; Gollum, xobbitlarga xos bo'lgan normal ishtahadan, jirkanch taomlarga moyiligi oshadi; Sarumaning mag'lubiyati, yaxshilanishi kerak bo'lgan sehrgar uchun noo'rin bo'lgan jismoniy taomga bo'lgan ishtahasi bilan belgilanadi. Biroq butun asarda turli mavjudotlar taomga bo'lgan qiziqishi turli darajalar bilan bog'liq. Asosiy qarama-qarshilik xobbitlar orasida, hikoya ularning nazari bilan aytilgan, va deyarli barcha boshqa mavjudotlar orasida mavjud. Xobbitlar taomni yoqtiradilar va u haqida o'ylaydilar (garchi katta tafsilotlar bilan emas), shu bilan birga, boshqa barcha mavjudotlar yoki o'zlarining yuqori kuchlari tufayli jismoniy oziq-ovqatga ehtiyoj sezmaydilar, yoki shunchaki hayotlarini saqlash uchun mavjuddirlar.

Lingvokulturologiyaning markaziy tushunchalaridan biri bo'lgan "konsept" atamasi, odatda, "umumiy g'oya", "universaliya" sifatida tushuniladi, bu g'oya ma'lum bir etnosning mentalligida, psixikasida va tilida mustahkamlanib, uning dunyoqarashi va xulq-atvor stereotiplarini aks ettiradi. So'z yoki harakat faqat kommunikatsiya jarayonida "konsept"ga aylanadi, chunki kommunikatsiya jarayoni "kalit so'z" yoki harakat bilan birga keladigan tasavvurlar, assotsiatsiyalar va his-tuyg'ular to'plamini ishga soladi. "Kalit so'zlar" – bu milliy ongning konseptosferasini tashkil etuvchi konseptlarning verbal shakllari. Ular ishlatilish tezligi bilan e'tiborni tortadi, doimo frazeologik ifodalar oilasining markazida turadi, maqollar, adabiy asarlarning nomlari, mashhur kitoblar va filmlarning nomlariga kiradi[6]. Har bir etnos o'zining mavjudligi davomida yuzlab konseptlarga ega bo'lib, shu bilan birga ularni ifodalash uchun "kalit so'zlar" ham mavjud. Bu holatda bizni Britaniya lingvomadaniyatining an'anaviy kontekstida "ovqat" konsepti qiziqtiradi, va biz ushbu konseptni J.R.R.Tolkinning "Uzuklar Hukmdori" trilogiyasida o'rganishga qaror qildik. "Fenteziga oid" materialni tanlash tasodifiy emas. Bizning fikrimizcha, Tolkin o'z epopeyasida nafaqat ikki Jahon urushi orasidagi dunyo siyosatini aks ettirgan, balki uni Angliyaning real hayotini, uning an'analari va urf-odatlarini, jumladan, "britan oshxonasi"ni ham aks ettirgan.

"Oziq-ovqat" ("food", "meal") uning denotativ sohasining to'liq hajmi va xilma-xilligi jihatidan insonning hayot faoliyatining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi, bu esa til semantikasida va kommunikatsion faoliyatda o'z aksini topadi. Bundan tashqari, "ovqat",

5 Tolkien J.R.R. (1981). The Letters of J.R.R.Tolkien (H. Carpenter, Ed.). Houghton Mifflin. (Original work published 1981). pp. 270-277.

6 Карасик В.И., Слышкин Г.Г. Лингвокультурный концепт как единица исследования // Методологические проблемы когнитивной лингвистики: Сб. науч. тр. / под ред. И.А. Стернина. — Воронеж: ВГУ, 2001. 75-8 с.

dunyoning lisoniy manzarasidagi fragment sifatida, tegishli tushunchalar, tasavvurlar, obrazlar, qarashlar, ustuvorliklar, stereotiplar va baholarni ochib beradi, bu esa milliy mentalitet va dunyoqarash, ijtimoiy-madaniy munosabatlar tizimi, an'analar, urf-odatlar va e'tiqodlarning o'ziga xosligini aks ettiradi[7].

"Oziq-ovqat" konseptining o'zbek va ingliz tillaridagi tilga oid konseptualizatsiyasi leksik-frazeologik vositalarning xilma-xilligi va ko'p bo'lib, ularning semantik komponentlari ovqatga bo'lgan munosabatni aks ettiradigan belgilarning dolzarbligini amalga oshiradi. Ijtimoiy-madaniy, demak, milliy-o'ziga xos konsept "ovqat" faqatgina oziq-ovqat, taom va boshqalarga bevosita tegishli nomlashlardan tashqari, har bir tilda kalit so'z-lexemalar semantikasi asosida o'z konseptosferasini shakllantiradigan barcha madaniy jihatdan ahamiyatli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bu ingliz tilida – "to eat" va "to drink" (yeyish va ichish) fe'llarining asosida namoyon bo'ladi.

Ushbu maqolada biz trilogiyaning faqat bir "ovqatlanish" makonini ko'rib chiqamiz: hobbitlarning "menyusi". Hobbitlar uchun ovqat, oshxona va ovqat tayyorlash jarayoni muqaddasdir, ular kuniga olti marta ovqatlanishlari mumkin va bu ularga yetarli emas. Oziq-ovqat haqida suhbatlar ushbu asarning deyarli har bir bobida uchraydi, va bu suhbatlar hobbitlar juda yaxshi ko'radigan choy va kekslar bilan tinch uyda o'tkazilsa ham, elflar, trollar va goblinlar bilan janglar davomida bo'lsa ham muhim emas.

J.R.R.Tolkinning trilogiyasida eng ko'p uchraydigan ovqat nomlarini tasniflash qiziqarli. Hobbitlarning hayotining ajralmas qismi bo'lgan choy ichish marosimi tufayli, choy va kekslar hamda lunch (kunduzgi ovqat) haqida eslatmalarni biz deyarli har sahifada, ayniqsa birinchi kitobda "Hobbit, yoki u yerda va Orqaga" ("The Hobbit or There and Back Again") uchratamiz. Masalan: "Sorry! I don't want any adventures, thank you. Not today. Good morning! But please come to tea – any time you like! Why not tomorrow? Come tomorrow! Good-bye!" ("Kechirasiz! Menga sarguzashtlar kerak emas, rahmat, boshqa safar. Hayrli tong! Ammo iltimos, choy ichish uchun keling – istalgan vaqtda! Nega ertaga emas? Ertaga keling! Xayr!")

Hobbitlar bog'dorchilikni juda yaxshi ko'radilar, asosan qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanishadi va pivo pishirishadi, shuning uchun ularning faoliyati natijasida olingan mahsulotlarga ham katta e'tibor qaratilgan: "Now they had bread and cheese, and plenty of ale, and bacon to toast in the embers of the fire. After that they slept, for their night had been disturbed" ("Endi ularda non va pishloq, mo'l-ko'l pivo va cho'g'da qovurish uchun cho'chqa go'shti bor edi. Shundan so'ng ular uxladilar, chunki ularning tunlari buzilgan edi").

Ichimliklarga kelsak, choydan tashqari, sharob, pivo va ba'zan qahva haqida ham yozilganini ko'rishimiz mumkin, ammo bunday misollar bu yerda kamroq uchraydi: "Gandalf, dwarves and Mr. Baggins! We are not together in the house of our friend and fellow conspirator, this most excellent and audacious hobbit – may the hair on his toes never fall out! all praise to his wine and ale!" ("Biz do'stimiz va fitnada hamqadam bo'lgan ajoyib, jasur hobbitning uyiga yig'ildik – uning oyoqlaridan hech qachon yung to'kilmasin! – uning ichkilik va pivosiga hurmat bajo keltiraylik!").

Shunday xulosa qilish mumkinki, oziq-ovqat hobbitlarning hayotida juda muhim rol o'ynaydi, chunki oziq-ovqat va ichimlikning yetishmasligidan kichik qahramonlarning jangovar ruhi yo'qolardi va ovqat haqida

7 Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центр "Академия", 2001. 208 с.

o‘ylashdan, uni qat’iyan yetishmasligidan, qahramonlar boshqa muammolarga diqqatlarini jamlay olishmasdi: “The smell of the roast meats was so enchanting that, without waiting to consult one another, every one of them got up and scrambled forwards into the ring with the one idea of begging for some food” (“Qovurilgan go‘shtlarning hidi shunchalik maftunkor ediki, ularning har biri bir-birlari bilan maslahatlashishni kutmasdan, o‘rnidan turib, bir oz ovqat so‘ramoqchi bo‘lgan bir fikr bilan oldinga maydonga yugurishdi.”).

Ovqat hobbitlarning hayot tarzini, ularning qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikka bo‘lgan munosabatini ajoyib tarzda aks ettiradi (“Silmarillion” kitobiga ko‘ra, ular arpa, tamaki va uzum yetishtirishlari ma’lum). J.R.R.Tolkinning trilogiyasidagi matn parchalarini dastlabki tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, “ovqat” fentezi dunyosi – O‘rta Yerning asosiy konseptosferalaridan biridir, unda milliy o‘ziga xosliklar eng to‘liq aks etgan, bu esa ma’lum bir lingvokultural jamiyatning, ya’ni haqiqiy Britaniya madaniyatining xususiyatlarini ham o‘z ichiga oladi. Tolkinning “hobbitlari” – bu o‘rtacha britaniyaliklar.

Tolkin o‘rta asr madaniyatiga bo‘lgan qiziqishiga qaramay, asarlarida oziq-ovqat tasvirlarini juda ehtiyotkorlik bilan, oddiy va aniq, lekin o‘rta asr oshxonasining tafsilotlari bilan ortiqcha to‘ldirmasdan tasvirlagan. “Uzuklar hukmdori”da oziq-ovqat tasvirlari ko‘proq hikoya va xarakterlar rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan vosita sifatida ishlatilgan. Fikrlash va his-tuyg‘ularni ta’riflashda, Tolkin oziq-ovqat va oshxona orqali o‘zining ingliz madaniyatiga bo‘lgan aloqasini va fentezi dunyosining o‘ziga xosligini ifodalaydi. Umuman olganda, Tolkinning “ovqat”ga bo‘lgan tasavvuri, uning fantastik asarlarida madaniy va ijtimoiy qiyofalarni yaratishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi, bu esa “Uzuklar hukmdori”ni yanada chuqurroq tushunib o‘qish imkoniyatini beradi.

IQTISODIY-MOLIYAVIY TEMATIKALI MATNLARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Shoxida Abdullayeva – f.f.b.f.d., dotsent,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya: *Iqtisodiy-moliyaviy matnlarning pragmatik xususiyatlarini tadqiq etishga bag‘ishlangan ushbu ilmiy maqolada nutqning subyektivligi, til belgilarining inson tajribasi va qadriyatlariga bog‘liqligi, moliyaviy terminlarning semantik-pragmatik tahlili hamda ularning tarjima muammolari va kommunikativ samaradorligini oshirish yo‘llari batafsil yoritilgan.*

Аннотация: *В данной научной статье, посвященной исследованию прагматических особенностей финансово-экономических текстов, подробно рассматриваются субъективность речи, зависимость языковых знаков от человеческого опыта и ценностей, семантико-прагматический анализ финансовых терминов, а также проблемы их перевода и пути повышения коммуникативной эффективности.*

Abstract: *This scientific article, dedicated to the study of pragmatic features of financial and economic texts, thoroughly examines speech subjectivity, the dependence of linguistic signs on human experience and values, semantic-pragmatic analysis of financial terms, as well as their translation challenges and ways to enhance communicative effectiveness.*

Kalit so‘zlar: *Pragmatik xususiyatlar, iqtisodiy-moliyaviy matnlar, indikativ so‘zlar, kontekstual tahlil, semantik ma’no, kommunikativ samaradorlik, nutq subyektivligi, moliyaviy terminologiya, lingvistik birliklar, tarjima muammolari.*

Ключевые слова: *Прагматические особенности, финансово-экономические тексты, индикативные слова, контекстуальный анализ, семантическое значение, коммуникативная эффективность, субъективность речи, финансовая терминология, лингвистические единицы, проблемы перевода.*

Keywords: *Pragmatic features, financial-economic texts, indicative words, contextual analysis, semantic meaning, communicative effectiveness, speech subjectivity, financial terminology, linguistic units, translation challenges.*

Inson nutqi uning dunyoqarashi, ongi, bilimi va ijtimoiy faoliyatidagi siyosiy-mafkuraviy, falsafiy, axloqiy, diniy hamda estetik qarashlarini aks ettiradi. Nutqning subyektivligi, xususan, til belgilarining inson tajribasi, qadriyatlari, qoidalari va inson xatti-harakatlarini tartibga soluvchi normalarga bog‘liqligi, mahalliy va g‘arbiy tilshunoslar tomonidan olib borilgan ko‘plab tadqiqotlarning mavzusi hisoblanadi. Nutq orqali shaxs o‘z milliy o‘zligini, obyektiv olamga munosabatini namoyish etadi. Shuningdek, insonning “harakatdagi” va “jonli” nutqining tahlili va pragmatik talqini ijtimoiy jarayonlardagi o‘rnini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

XX asr boshidan tilshunoslikda tilga semiotik yondashuv ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi. F. de Sossyur g‘oyalari asosida til belgilar tizimi sifatida ko‘rib chiqilib, til birliklarining sistemaviy xususiyatlarini aniqlashga alohida e’tibor qaratildi. Gap va matn kabi sintaktik birliklarning semantik jihatlari chuqur tadqiq qilinmoqda, ayniqsa, matnning semantik tuzilishini murakkablashtiruvchi yashirin mazmun turlari o‘rganilmoqda[1]. Ushbu tadqiqotlar sintaktik birliklarning semantik va pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish bilan uzviy bog‘liqdir.

Y.D.Apresyanning fikriga ko‘ra, lingvistik birliklar (leksema, affiks, grammem, sintaktik qurilish) nutqda uchta asosiy munosabatni ifodalaydi: 1) voqelik; 2) xabar mazmuni; 3)

1 Nurmonov A. Ko‘makchili konstruksiyalar presuppozitsiyasi // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1986. – № 6. – 42–45-b.; Saidxonov M. Noverbal vositalar va ularning o‘zbek tilida ifodalanishi: Filol. fan. nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 1993. – 26 b.; Mo‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol. fan. dok. diss. avtoref. – Toshkent, 2000. – 27 b.

adresat[2]. Ushbu tamoyillar moliyaviy-iqtisodiy matnlarni yozishda va tarjima qilishda matnning aniqligi, tushunarli bo'lishi va kommunikativ samaradorligini ta'minlash uchun muhimdir.

Voqelikka munosabat matnda tasvirlangan voqelikning daliliy asosda ifodalanishini talab qiladi. Bu, ayniqsa, moliyaviy matnlarning aniqligi va ishonchliligini ta'minlash uchun zarurdir, misol uchun:

Ingliz tilida: "The company announced a $5 million investment in renewable energy projects".

Tarjimasi: "Kompaniya qayta tiklanadigan energiya loyihalariga 5 million dollar sarmoya kiritishini e'lon qildi" – ushbu jumlada voqelik (kompaniyaning sarmoya haqida qarori) aniq va dalillar bilan asoslangan holda ifodalangan.

Xabar mazmuniga munosabat matnning kommunikativ maqsadini aks ettiradi. Mazmun tinglovchi yoki o'quvchiga ijobiy ta'sir o'tkazishi va kerakli axborotni samarali yetkazishi kerak, masalan:

Ingliz tilida: "Our quarterly revenue increased by 20%, exceeding expectations".

Tarjimasi: "Bizning choraklik daromadimiz 20% ga oshib, kutilganidan yuqori bo'ldi" – mazmun kompaniyaning moliyaviy muvaffaqiyatlarini ta'kidlab, tinglovchida ishonch uyg'otishga qaratilgan.

Adresatga munosabat nutqning qabul qiluvchiga moslashuvini ifodalaydi. Matn mo'ljallangan auditoriya ehtiyojlariga mos bo'lishi kerak, misol uchun:

Ingliz tilida: "Dear investors, our net profit has grown significantly this quarter".

Tarjimasi: "Hurmatli investorlar, bizning sof foydamiz ushbu chorakda sezilarli oshdi" – ushbu jumlalar rasmiy uslubda yozilgan bo'lib, professional auditoriyaga moslashgan.

Misollardan ko'rinadiki, ular moliyaviy matnlarni yozishda pragmalingvistik tamoyillarning ahamiyatini ochib beradi. Voqelikka munosabat faktlarni aniq va dalillar bilan asoslangan holda tasvirlashni talab qiladi. Xabar mazmuniga munosabat esa maqsadli auditoriya uchun mazmunni tushunarli va ta'sirchan qilishga qaratilgan. Adresatga moslashuv matnning uslubiy va kommunikativ jihatdan auditoriya talablariga moslashuvchanligini ta'minlaydi. Pragmalingvistikaning bu tamoyillari moliyaviy-iqtisodiy matnlarni yozishda aniqlikni, tushunarli bo'lishni va samaradorlikni ta'minlab, xalqaro muloqotda matnlarning sifatini oshiradi, masalan:

Ingliz tilida: "Our quarterly revenue increased by 20%, exceeding expectations".

Tarjimasi: "Bizning choraklik daromadimiz 20% ga oshib, kutilganidan yuqori bo'ldi" – mazmun kompaniyaning moliyaviy muvaffaqiyatlarini ta'kidlab, tinglovchida ishonch uyg'otishga qaratilgan.

Adresatga munosabat nutqning qabul qiluvchiga moslashuvini ifodalaydi. Matn mo'ljallangan auditoriya ehtiyojlariga mos bo'lishi kerak, misol uchun:

Ingliz tilida: "Dear investors, our net profit has grown significantly this quarter".

Tarjimasi: "Hurmatli investorlar, bizning sof foydamiz ushbu chorakda sezilarli oshdi" – ushbu jumlalar rasmiy uslubda yozilgan bo'lib, professional auditoriyaga moslashgan.

Ushbu misollar moliyaviy matnlarni yozishda pragmalingvistik tamoyillarning ahamiyatini ochib berishini ko'rishimiz mumkin. Zero, voqelikka munosabat faktlarni aniq va dalillar bilan asoslangan holda tasvirlashni talab qiladi. Xabar mazmuniga munosabat esa maqsadli auditoriya uchun mazmunni

2 Апресян Ю.Д. Избранные труды (В 2 т.). – Москва: Восточная литература, 1995. – Т. 1. – С. 57–59.

tushunarli va ta'sirchan qilishga qaratilgan. Adresatga moslashuv matnning uslubiy va kommunikativ jihatdan auditoriya talablariga moslashuvchanligini ta'minlaydi.

Pragmalingvistikaning bu tamoyillari moliyaviy-iqtisodiy matnlarni yozishda aniqlikni, tushunarli bo'lishni va samaradorlikni ta'minlab, xalqaro muloqotda matnlarning sifatini oshiradi.

O'z navbatida, N.D. Arutyunova pragmatikani tilning ishlashini tavsiflash bilan bog'liq yo'nalish sifatida quyidagi muhim aspektlarni aniqlaydi:

kommunikativ ishlatish – tilning maqsadga yo'naltirilgan holda qo'llanilishi;

kommunikativ ta'sir – tinglovchiga maqsadli ta'sir ko'rsatish;

maqsadlarga erishish shartlari – til vositalari yordamida belgilangan maqsadlarga yetish yo'llari;

xabar mazmunini talqin qilish – matnda berilgan mazmunning tushunilishi va talqin qilinishi;

yashirin ma'nolarni aniqlash – matnda bevosita aytilmagan ma'nolarni ochib berish;

kontekstual o'zgarishlarni o'rganish – tilning turli kontekstlardagi ishlash jarayonlarini tahlil qilish[3].

Mazkur tamoyillar moliyaviy-iqtisodiy matnlarni tarjima qilishda tilning funksiyalari va nutqning kommunikativ imkoniyatlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ayni matnlar yuqori aniqlik, rasmiylik va pragmatik uyg'unlik talab qiladi, shuning uchun N.D.Arutyunovaning fikrlari mazkur sohada dolzarb hisoblanadi. Jumladan, quyida pragmatik asoslarning moliyaviy matnlar tarjimasida qo'llanilishini tahlil qilamiz:

1. Kommunikativ ishlatish va ta'sir. Moliyaviy matnlar, masalan, hisobotlar yoki investitsiya takliflari, tinglovchilarga ma'lum maqsadlar bo'yicha ta'sir ko'rsatishni maqsad qiladi. Tarjimada bu tamoyil matnning maqsadli auditoriya ehtiyojlariga mos ravishda ifodalanishini talab qiladi:

Ingliz tilida: "Our company has achieved a 25% growth in net profit over the last fiscal year".

Tarjimasi: "Bizning kompaniyamiz o'tgan moliyaviy yilda sof foydani 25% ga oshirishga erishdi" – bu jumlada kompaniyaning muvaffaqiyati ijobiy tarzda ta'kidlanib, investorlarni jalb qilishga qaratilgan.

2. Maqsadlarga erishish shartlari va xabar mazmuni talqini. Matn mazmunini to'g'ri talqin qilish va uni maqsadli auditoriyaga mos shaklda yetkazish muhimdir:

Ingliz tilida: "The financial statement complies with international accounting standards".

Tarjimasi: "Moliyaviy hisobot xalqaro buxgalteriya standartlariga mos keladi" – ayni jumlada mazmun aniq ifodalangan bo'lib, tinglovchida ishonch uyg'otadi va hujjatning rasmiyligini ta'kidlaydi.

3. Yashirin ma'nolar va kontekstual o'zgarishlar. Moliyaviy matnlar ko'pincha yashirin ma'nolar va og'ishlarni o'z ichiga oladi. Ularni tarjima qilishda kontekstual tafovutlarni hisobga olish zarur:

Ingliz tilida: "Our projections indicate stable growth in the coming quarters".

Tarjimasi: "Bizning prognozlarimiz keyingi choraklarda barqaror o'sishni ko'rsatadi" – mazkur jumlada yashirin ma'no sifatida kompaniya barqaror o'sishga e'tibor qaratayotganini ifodalaydi.

4. Til tizimining invariantligi va variantligi. Til tizimi invariant birliklarni saqlash orqali bir xil ma'noni turli kontekstlarda moslashtirish

3 Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – Москва: Языки русской культуры, 1999. – I-XV. – 896 с.

imkoniyatini beradi. Tarjima jarayonida bu, ayniqsa, iqtisodiy atamalarning xalqaro va mahalliy moslashuvini ta'minlashda muhimdir. Masalan, "net profil" atamasi har doim "sof foyda" sifatida tarjima qilinib, invariant mazmunni saqlaydi.

Bizningcha, N.D.Arutyunovaning tamoyillari moliyaviy matnlarni pragmatik yondashuv asosida tahlil qilish va tarjima qilishda quyidagi ilmiy va amaliy natijalarni ta'minlaydi:

- mazmunni aniq ifodalash: til vositalarini tinglovchi ehtiyojlariga mos ravishda tanlash;
- pragmatik moslashuv: matnni qabul qiluvchi auditoriya madaniy va kommunikativ kontekstiga moslashtirish;
- yashirin ma'nolarni ochish: matndagi noaniq yoki bilvosita ma'nolarni tushunish va ularga mos tarjima yechimi topish.

N.D.Arutyunovaning pragmatik yondashuvi moliyaviy matnlarni tarjima qilishda aniqlik, rasmiylik va kommunikativ moslashuvni ta'minlash uchun dolzarbdir. Ushbu yondashuv matnning maqsadi, semantik mazmuni va kommunikativ ta'sirini to'liq aks ettiradi va global iqtisodiy muloqot uchun yuqori sifatli tarjima yaratishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Sistemaviy-struktur tilshunoslik til va nutqni nazariy asosda farqlashga qaratilib, til birliklarining umumiylik va xususiylik dialektikasini o'rganadi. Ayni yondashuvda asosiy vazifa til tizimida xususiyliklarda takrorlanuvchi umumiy jihatlarni aniqlash va ularni modellashtirish orqali tilning funksional tizimini chuqurroq tushunishdan iborat. Dastlab, modellashtirish jarayonida shakl (forma) ustuvor ahamiyat kasb etgan bo'lsa (L.Elpmslev)[4], keyinchalik shakldan mazmunni ajratib bo'lmasligi, bu elementlarning yaxlitligi til tizimining mohiyatini ochib berishi aniqlandi.

F.de Sossyur shakl va mazmunni daftar varag'ining ustki va ostki qismlari kabi bir-biridan ajralmas butunlik sifatida tavsiflagan[5]. Bu nuqtayi nazarga ko'ra, til birliklari faqat shakl emas, balki mazmun bilan uyg'unlashgan holda til tizimida mavjud bo'ladi. Tilning quyi (fonologik) sathidan tashqari barcha sathlarida birliklarning shakl va mazmun o'rtasidagi o'zaro aloqasi kommunikativ jarayonning muvaffaqiyatini belgilaydi.

Til tizimida shakl va mazmunning ajralmasligi, ayniqsa, sintaktik omonimiyalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Sintaktik omonimiyalar turli shakl ko'rinishlarining bir xil semantik mazmunga ega bo'lishiga olib keladi. Bu holatda kontekst ma'noning aniqligini belgilashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ingliz tilida: "The bank decided to close its branch".

Shaklan – "close" so'zi "yopish" yoki "yaqinlik" ma'nosida tushunilishi mumkin.

Mazmunan – kontekstda "close" filial faoliyatini tugatish ma'nosini bildiradi.

Tarjima: "Bank o'z filialini yopishga qaror qildi".

Ingliz tilida: "The company's revenue rose sharply in Q3".

Shaklan – "rose" so'zi ko'tarilish yoki gullash kabi turli ma'nolarni anglatadi.

Mazmunan – kontekstda "rose" daromadning sezilarli oshishini bildiradi. Tarjimasi: "Kompaniyaning daromadi 3-chorakda keskin oshdi".

Mazmun ba'zi hollarda shakldan ustunlik qiladi, bu ayniqsa moliyaviy va iqtisodiy matnlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu

4 Hjelmslev L. Prolegomena to a theory of language (Transl., Francis J.W.). – 2nd ed. – Wisconsin: University of Wisconsin Press, 1961. – pp. 47–58.

5 De Saussure F. Course in general linguistics (Eds., Bally Ch., Sechehaye A., Transl. Baskin W.). – New York: Philosophical Library, 1959. – pp. 111–113.

matnlar aniq atamalar va ularning ma'nolarini kontekstga mos ravishda ifodalashni talab qiladi.

Ingliz tilida: "The investment was classified as high risk".

Tarjimasi: "Mazkur sarmoya yuqori xavf sifatida tasniflandi" – bu yerda "high risk" iqtisodiy termin sifatida ma'nosini aniq saqlashni talab qiladi.

Sintaktik omonimiyalarning aniq talqini shakl va mazmun dialektikasiga asoslanadi. Shakl ma'noni ifodalash uchun vosita bo'lsa-da, mazmun uning to'g'ri talqin qilinishini belgilaydi. Til tizimi doirasida shakl va mazmun birligini ta'minlash orqali matnning semantik izchilligi va kommunikativ samaradorligini oshirishga erishiladi. Moliyaviy-iqtisodiy matnlar, masalan, hisobotlar, shartnomalar yoki tavsiyalar, ushbu tamoyilni amaliyotga tatbiq qilishda aniq misol bo'lib xizmat qiladi. Ushbu matnlar pragmatik, lingvistik va kontekstual nuqtayi nazardan to'g'ri talqin qilinishi uchun shakl va mazmun o'zaro uyg'unlashgan holda ifodalanishi zarur.

Sistemaviy-struktur tilshunoslik shakl va mazmunning ajralmas yaxlitligini tadqiq etish orqali til tizimini chuqurroq tushunishni ta'minlaydi. Shakl va mazmunning dialektik bog'liqligi sintaktik omonimiyalarni, ayniqsa, murakkab moliyaviy-iqtisodiy kontekstlarda tushunish va tarjima qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mazkur yondashuv matnning aniqligi va pragmatik talablarga mos kelishini kafolatlaydi, bu esa xalqaro kommunikatsiyada yuqori samaradorlikka erishishni ta'minlaydi: "This process has brought about a dramatic growth, demographic changes and consumption in society" – mazkur gapda qo'llanilgan "dramatic" leksemasi ikki tilli lug'atlarga muvofiq o'girilganda:

dramatik ya'ni dramaga oid, sahna asariga oid[6];

keskin, tezkor, shiddatli ma'nolarini ifodalab, kontekstga asosan ikkinchi ma'no mos keladi.

Keyingi matnda qo'llanilgan "disguised theft" iborasi so'zma-so'z "niqoblangan o'g'irlik" degan ma'noni anglatadi. Ammo "Minister of Finance labeled some of the payments 'Disguised theft' at a press conference" jumlasida to'lovlar noqonuniy asosda amalga oshirilganligi nazarda tutiladi.

Shuningdek, "iearly-bird price" iborasi "birinchi qaldirg'ochlar uchun narx" mazmunini ifodalab, mahsulot sotuvining dastlabki davrida belgilangan chegirmali narxni anglatadi. Keyingi tushuncha "cannibalism" so'zma-so'z "kannibalizm" degan ma'noni anglatib, iqtisodiy-moliyaviy matnlarda yangi mahsulot paydo bo'lishi sababli mavjud mahsulotlarning sotilishining kamayishini yoki shunga o'xshash jarayonlarni ifodalaydi. Bundan tashqari, mavjud savdo nuqtasida "cannibalization" holati yuz berishi ham nazarda tutilib, u bir ishlab chiqaruvchining yangi mahsuloti bozorga chiqishi natijasida eski mahsulotlarni siqib chiqarishi yoki boshqa ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlaridan bozor ulushini tortib olishini anglatadi. Bunday jarayon yangi mahsulot va mavjud mahsulotlar o'rtasida kichik farqlar mavjud bo'lsa-da, yangi mahsulot eski mahsulotni bozordan siqib chiqarishi natijasida yuzaga keladi. Ushbu guruhga quyidagi iboralarni ham kiritishimiz mumkin:

"hot spots" – "qizib ketgan nuqtalar" yoki "issiq nuqtalar", majoziy ma'noda muhim yoki shiddatli hodisalar yuz berayotgan joylarni anglatadi;

"a council salary schedule leaked" – "kengashdagi maosh jadvali haqidagi ma'lumotlarning sizib chiqishi" yoki "maosh jadvalining oshkor qilinishi";

6 Madvaliyev A. (Muh.). O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 ga yaqin so'z va so'z birikmasi. J. I. A–D. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2020. – 660 b.

"price war" – "narx urushi", ya'ni raqobat kuchayishi natijasida narxlarning ketma-ket pasayishini anglatadi.

Demak, lisoniy birliklarning shakl va mazmun munosabatiga oid mazmuniy yo'nalish maydonga keldi. Tilshunoslikda mazmuniy yo'nalishning maydonga kelishi va bu yo'nalish bo'yicha bir qancha ilmiy tadqiqotlarning olib borilishi natijasida gap semantikasida bir talay muammolarni keltirib chiqardi. Mantiqiy semantikaning yirik vakillaridan biri bo'lgan.

Xususan, B.Rassel so'zlarni ikki asosiy toifaga ajratadi: indikativ (ishora qiluvchi) va indikativ bo'lmagan so'zlar[7]7. Indikativ so'zlar obyektiv borliqdagi hodisa, belgi-xususiyat yoki harakat-holatlarni aniq nomlash va tasvirlash imkonini beradi. Ular bevosita mazmunni yetkazadi, masalan, "profit" (foyda), "loan" (kredit) kabi iqtisodiy terminlar. Indikativ bo'lmagan so'zlar esa ko'pincha abstrakt ma'no kasb etib, ularning mazmuni kontekst yoki metaforik talqin orqali aniqlanadi. Ular ko'proq hissiy, semantik va kontekstual o'zgaruvchanlikka ega, masalan, "financial health" (moliyaviy sog'lik) yoki "economic contagion" (iqtisodiy yuqum).

Sistemaviy-struktur tilshunoslikda ushbu tasnif deskriptiv (tasvirlovchi) va deskriptiv bo'lmagan so'zlar shaklida aniqlanadi. Bu tasnifning moliyaviy va iqtisodiy matnlarni tarjima qilishdagi ahamiyati shundaki, deskriptiv bo'lmagan so'zlarning semantik mosligini va pragmatik talqinini to'g'ri aniqlash zarur.

Indikativ va indikativ bo'lmagan so'zlarning moliyaviy-iqtisodiy matnlardagi rolini tahlil qilamiz. Moliyaviy va iqtisodiy matnlarda indikativ so'zlar texnik terminlar sifatida aniq ma'noni bildiradi va o'z semantik chegaralariga ega. Masalan:

Ingliz tilida: "The company reported a 10% profit increase in Q2".

Tarjimasi: "Kompaniya 2-chorakda foyda 10% ga oshganini xabar qildi".

Bu jumlada "profit" (foyda) so'zi aniq iqtisodiy natijani bildiradi va kontekstda hech qanday ma'noni kengaytirishni talab qilmaydi.

Indikativ bo'lmagan so'zlar esa iqtisodiy matnlarda ko'proq metaforik va idiomatik uslubda qo'llanilib, matnning hissiy ta'sirchanligini oshirish va kompleks iqtisodiy jarayonlarni soddalashtirib tushuntirish uchun ishlatiladi. Masalan:

Ingliz tilida: "The economic contagion spread rapidly across global markets".

Tarjimasi: "Iqtisodiy yuqum global bozorlar bo'ylab tez tarqaldi".

Bu yerda "contagion" so'zi iqtisodiy muammolarning pandemiyaga o'xshash tarzda bir bozorga boshqa bozorlarga tarqalishini tasvirlash uchun ishlatilgan. Ushbu metaforik ifoda iqtisodiy inqirozning jiddiyligi va tezkorligini ta'kidlashga xizmat qiladi.

Metafora va idiomatik iboralarning moslashuvi. Indikativ bo'lmagan so'zlar, masalan, "financial headache" (moliyaviy bosh og'rig'i), "economic paralysis" (iqtisodiy falajlik), "sick economy" (tanazzulga uchragan iqtisodiyot), moliyaviy va iqtisodiy jarayonlarning jiddiyligini va murakkabligini tasvirlashda ishlatiladi. Ularni tarjima qilishda lug'aviy ekvivalentdan tashqari, pragmatik va madaniy moslik ham inobatga olinishi kerak:

Ingliz tilida: "The sick economy needs structural reforms".

Tarjimasi: "Tanazzulga uchragan iqtisodiyotga tuzilmaviy islohotlar zarur".

Pragmatik ta'sirni oshirish. Indikativ bo'lmagan so'zlarning semantik chegarasi kengroq bo'lib, ular ko'pincha ma'noni

7 Russell B. On denoting // Mind. – 1905. – № 14(4). – pp. 479–493.

kengaytirish, tushuntirish yoki hissiy ta'sirni oshirish uchun ishlatiladi. Bu uslubiy vositalar, ayniqsa, moliyaviy inqiroz yoki murakkab iqtisodiy vaziyatlarni tasvirlashda muhimdir:

Ingliz tilida: "A bloodless economy fails to stimulate growth".

Tarjimasi: "Qonsiz iqtisodiyot o'sishni rag'batlantirishga qodir emas".

Kontekstning ahamiyati. Indikativ bo'lmagan so'zlarning ma'nosi faqat kontekst orqali aniqlanadi:

Ingliz tilida: "The company is suffering from economic anemia".

Tarjimasi: "Kompaniya iqtisodiy anemiyadan aziyat chekmoqda" – bu yerda "anemia" (anemiya) iqtisodiy jarayonlarning kuchsizligi yoki samaradorlik yetishmasligini ifodalash uchun ishlatiladi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy-moliyaviy matnlarning pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida quyidagi muhim xulosalarga kelindi: birinchidan, bunday matnlarda nutqning subyektivligi, til belgilarining inson tajribasi va qadriyatlariga bog'liqligi yaqqol namoyon bo'ladi; ikkinchidan, voqelik, xabar mazmuni va adresatga munosabat tamoyillari moliyaviy matnlarning kommunikativ samaradorligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi; uchinchidan, pragmatik yondashuv asosida matnlarning kommunikativ ishlatilishi, ta'siri, maqsadlarga erishish shartlari va yashirin ma'nolarni aniqlash usullari moliyaviy terminlarning tarjima muammolarini hal etishga xizmat qiladi; to'rtinchidan, moliyaviy-iqtisodiy matnlarda indikativ va indikativ bo'lmagan so'zlarning qo'llanilishi, ularning kontekstual va semantik-pragmatik tahlili matnning tushunarli bo'lishi va kommunikativ samaradorligini oshirishga yordam beradi.

AMERIKA ROMANTIZM ADABIYOTI VAKILI EDGAR PO "QARG'A" POEMASI MISOLIDA

Komila Axrorovna Fayziyeva – f.f.d., dotsent,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

***Annotatsiya**: Edgar Po Angliya she'riyatini, xususan, S.Kolrijning poemalari va she'rlarini sevib o'qigani yuqorida aytildi. Bayron ham "Vido" she'rida S.Kolrijning "Kristabel" poemasidan bir parchani epigraf qilib olgan. Valter Skott (Shotlandiyalik) mashhur "So'ngi menestrel (oqin) qo'shiqlari" poemasini yozishda Kolrijning she'rlaridan ilhomlangani haqida eslab, uni o'ziga ustoz deb biladi. Kolrij faqat shoir bo'lib qolmay, Amerika qit'asida hamma teng va adolatli bo'lgan yangi jamiyat qurish bilan shug'ullangan utopiyachi faylasuf, ruhoniy sanalgan.*

***Аннотация**: Выше говорилось, что Эдгар По любил читать английскую поэзию, особенно стихи и поэмы С.Кольриджа. Байрон также в своем стихотворении "Прощание" эпиграфировал фрагмент поэмы С. Кольриджа "Кристабель". Вальтер Скотт (из Шотландии) вспоминает, что стихи Кольриджа вдохновляли его при написании знаменитого стихотворения "Последние песни менестреля", и считает его учителем. Кольридж был не только поэтом, но и философом-утопистом и священником, который занимался построением нового общества, где все на американском континенте были равны и справедливы.*

***Abstract**: It was mentioned above that Edgar Poe loved to read English poetry, especially S. Coleridge's poems and poems. Byron also epigraphed a fragment of S. Coleridge's poem "Christabel" in his poem "Farewell". Walter Scott (from Scotland) remembers that he was inspired by Coleridge's poems when writing the famous poem "The Last Minstrel Songs" and considers him a teacher. Coleridge was not only a poet, but also a utopian philosopher and priest who was engaged in building a new society where everyone was equal and fair on the American continent.*

***Kalit so'zlar:** ilmiy gipotezalar, yashiringan jinoyatchilar, kuch-quvvat timsoli, detektiv hikoyalar, dengizchi albatros, daraxt kesuvchilar, otuvchi ovchilar, artistlar oilasi, aqliy izlanish.*

***Ключевые слова:** научные гипотезы, скрывающиеся преступники, символ власти, детективы, альбатрос-мореплаватель, лесорубы, охотники-снайперы, семья художников, интеллектуальные исследования.*

***Keywords**: scientific hypotheses, criminals in hiding, symbol of power, detective stories, seafaring albatross, loggers, sniper hunters, family of artists, intellectual exploration.*

Amerika romantizm adabiyotining yana bir yorqin vakili H.Melvill "Mobi Dik" ("Oq kit") romanida kitlarga ham, odamlarga ham, o'ziga ham shafqatsiz kema kapitani Axavning bir vaqtlar uning oyog'ini tishlab uzgan Oq kitdan qasos olish uchun tinimsiz kurashi, bu ish uchun nayza (garpun) otuvchi ovchilarning jasurligi, kitlarning ovchilarga nafrati tasvirlanadi. Yozuvchi mashaqqatli ov manzaralarini tasvirlash bilan bir vaqtda kit ovlovchi dengizchilarning tabiatini, xarakterini aniq-ravshan chizadi. H.Melvill "Arkantadas" asarida tabiat ajoyibotlarini, hikoyalarida inson ruhiy go'zalligini tasvirlaydi. U "Mobi Dik" romanida kit ovlash jarayonida begunoh kitlarni so'yib, tonnalab yog'ini sotish uchun bochkalarga to'ldirish vaqtida ovchilarning quvonchini ham tasvirlaydi. Roman oxirida Oq Kit o'zi ham o'ladi va ovchilarni ham kemasi bilan cho'ktirib yuboradi. Yozuvchi romanda dengiz mavjudotlarini himoya qilish bilan birga, kambag'al dengizchilarning ishsizlikdan azoblanib yashayotganini ko'rsatadi. H.Melvill novellalarida hayot, tabiat nafosati tasvirlanadi ("Ayvon" va b.lar).

Amerika romantizm adabiyotining yorqin vakillaridan biri Edgar Po 1809-yilda Bostonda sayyor (ko'chib yuruvchi) artistlar oilasida tug'ilgan. Ikki yoshli yetim Edgarni uzoq qarindoshi, boy savdogar Allan boqib oladi. Lekin qonuniy o'g'illikga olmaydi. Shu boy qarindoshi

yordamida Edgar Virginiya universitetida o'qiydi. Tabiiy fanlarni tez va yaxshi o'zlashtiradi[1].

Edgar kambag'alchilikda mashaqqatli hayot kechiradi. U 17 yoshigacha musiqa, rassomlik, dengizda suzish, ot sporti (chavandozlik), shoirlikda shuhrat qozongandi. Ko'p may ichib, to'polon qilgani uchunmi, savdogar homiysi Allan undan voz kechganidan so'ng Edgar moddiy yordamsiz qolib, gazeta, jurnallarga kichik fantastik va hajviy hikoyalar yozib, kambag'alchilikda, mashaqqatli hayot kechirishi[2] ma'lum bo'ladi.

Amerika romantizimiga, xususan Edgar Po ijodiga Angliya romantizmi shoirlari Bayron, Robert Sauti, Samyuel Kolrij asarlari kuchli ta'sir ko'rsatdi. Edgar Po hikoyalari ("Vaqt o'rog'i", "Asherlar xonadoni tugashi", "Tilla qo'ng'iz", "Morg ko'chasidagi qotillik", "Qora mushuk" ...) Edgar Po detektiv hikoyalarida har qanday mushkul vaziyatlarda, ustalik bilan yashiringan jinoyatchilarni fosh etuvchi iztopar Dyupen xarakterini qoyilmaqom tasvirlashini rus shoiri va tarjimon Valeriy Bryusov uning asarlariga yozgan so'z boshida mukammal ko'rsatgan.

Amerikashunos M.N.Bobrova shu haqda yozadi. U Edgar Po ijodini romantizm ruhidagi she'rlar ("Qarg'a", "Annabel Li", "Tamerlan" va boshqa she'rlar ...) emas, balki detektiv, fantastik, ilmiy gipotezali, xayoliy va sarguzasht hikoyalar, qissalar tashkil etishini ta'kidlaydi. Rus adibi F.M.Dostoyevskiy bu asarlarni maqtashni ham, tanqid qilishni ham bilmay, "g'alati", "ajib asarlar" deydi. Uning fikricha, Edgar Po faqat tasavvuri boyligi bilangina emas, balki tasavvuri, xayoloti boshqa yozuvchilarning tasavvuri, xayolotiga o'xshamasligi bilan farqlanib turadi. U (Edgar Po) qahramonlarini juda kutilmagan, og'ir sharoitlarga tushgan vaqtida, eng aniq tafsilotlari bilan ko'rsatadi[3].

Edgar Po hayoti va ijodi haqida tadqiqot yozgan Xervi Allen adibning ilmiy gipotezalari haqiqatga, hayotga yaqinligini ta'kidlaydi. Edgar Poning bir hikoyasida ixtirochi olim havo sharida Angliyadan Amerikaga uchib o'tadi. Keyinchalik bu ixtiro amalga oshdi.

Atoqli tadqiqotchi M.Urnov amerikalik shoir va yozuvchi Hervi Allen qalamiga mansub "Edgar Po" biografik romaniga so'nggi so'zda F.M.Dostoyevskiyning fikrini keltiradi: "Edgar Po" ijodiy uslubiga xos xususiyatlar ajoyibot, fantaziya bilan birga hayotiylik, analiz, aqliy izlanishidir. Shu ma'noda, Edgar Po ham romantizm, ham realizm adabiyoti vakilidir"[4].

Edgar Po ilk she'riy to'plamlarida Amerika romantizmining mashhur vakillaridan Semyuel Teylor Kolrijning "Xubilayxon" va "Albatros" yoki "Qari dengizchi haqida poema", "Kristabel" asarlarining ta'siri seziladi. S.Kolrijning o'z davrida shuhrat qozongan, Bayronga ma'qul kelgan "Kristabel" poemasida sofdil qiz o'rmonda yig'lab o'tirgan Jeraldina ismli go'zal qizga nisbatan qilingan rahmdilligi tasvirlanadi.

"Qari dengizchi haqida poema"da esa dengizchi yoshligi, beboshligi vaqtida mavjli ummondagi kemani beozor qush kuzatib uchishi, dengizchi albatrosni otib o'ldirishi, bu jabr-zulmga xudoning qahri kelib, kemani ummon dolg'alarida cho'ktirib yuborishi tasvirlanadi[5]. Angliya romantizm adabiyoti Amerikada boshqalardan ko'ra Vashington Irving bilan Edgar Po ijodiga ko'proq ta'sir ko'rsatdi.

Edgar Po "Tamerlan va boshqa she'rlar" kitobida (shoir she'rlarini poemalar deydi. (Kolrij, U.Vordsvort, Edgar Po davrida she'rlarni yaxlit syujetli bo'lsa, poemalar deb

1 Боброва М.Н. "Эдгар По". История амерканской литературы в 2-х томах. I том. – М.: "Просвещение", 1971. – С. 117–120.
2 Боброва М.Н. "Эдгар По". История американской литературы в 2-х томах. I том. – М.: "Просвещение", 1971. – С. 121.
3 Урнов М. Послесловие к роману "Эдгар По". – ЖЗЛ, "Моладая гвардия", 1987. – С. 320–330.
4 Тот источник.
5 Кольриж С. Стихи. – Москва: "Наука", 1974. – С. 155–175.

atashardi.) Kolrijning "Xubilayxon" poemasiga o'xshatmoqchi edi, lekin bu she'rlar bir-biriga mutlaqo o'xshamaydi. S.Kolrij "Xubilayxon" poemasiga o'zi yozgan izohda bu asarini tushida, uyqusida yozganligini aytadi. S.Kolrij tushida Xubilayxon qurdirgan go'zal qasrni, bog'lar va gulzorlarni ko'radi. Tarixiy shaxs mo'g'ul xoni Xubilay bilan Yevropa davlatlari XIII asrda yaxshi aloqa o'rnatgan bo'lgani bois Bag'dod xalifaligi bilan yaqinlashgan Xubilayxon Bag'dodga hujum qilayotgan Xulaguxonga qarshi kurashayotgan edi. "Xubilayxon" poemasida romantik shoir S.Kolrij grotesk usuli (mubolag'a, g'aroyibot) bilan, qudratli mo'g'ul xonini baland tog'lardan shovqin solib, katta toshlarni dumalatib, oqib kelayotgan daryoga o'xshatadi. Shoir fikricha, bu dunyo tobora pastlikka oqib, ummonga quyilib, ovozi o'chadi va o'zi ham yo'qoladi[6].

S.Kolrijning "Qarg'a" nomli kichik poemasida baquvvat dubni (chinorni) bir gala cho'chqalar o'tkir tishlari bilan g'ajib, yiqitishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Qattiq bo'ron-shamol yiqilgan chinorning shoxlarini har yoqqa tarqatadi. Changda qolgan bir urug' o'sib, katta chinorga aylanadi. O'tinchi kelib, uni yana kesib, taxta qilib sotadi. Ustalar bu taxtalardan kema yasaydi. Dengizda shamol turib, kema cho'kadi, odamlar halok bo'ladi. Qarg'a kelib, bu qasosga sevinadi[7].

Angliya romantizmi yetakchilaridan S.Kolrij "Qarg'a" poemasida bir necha ijtimoiy, axloqiy, falsafiy muammolarni, hayot haqiqatini yuksak badiiyat bilan tasvirlaydi:

1. Go'zallik, kuch-quvvat timsoli chinorni g'ajib, kemirib yiqitgan cho'chqalar sog'lom hayot dushmanlaridir.

2. Ko'pchilik mensimaydigan, uzoq yashovchi qarg'a chinorning yong'og'idan va tuproqdan yana o'stiruvchi hayotparvar qush sanaladi.

3. Qayta o'sgan chinorni kesuvchi, chinor shoxidagi hali ucholmaydigan qush bolalari, polaponlarining o'limiga sabab bo'lib, chinorni sotiladigan yog'och sifatida ko'ruvchi, daraxt kesuvchi odam yomonlik timsoli sifatida ko'rilgan.

4. Chinor yog'ochlaridan kema yasovchi ustalar dengizda olislarga borishni, boshqa xalqlar bilan savdo-sotiqni ko'zlar edi.

5. Kemaning cho'kishi va aybsiz odamlarning halok bo'lishi, tabiiy ofatlar uzun tishli cho'chqalar va daraxt kesuvchilar ishi natijasidir.

6. Qarg'aning cho'chqalardan va daraxt kesuvchilardan o'ch olishi shoir fikricha, adolatli hisoblanadi.

7. Qarg'aning uzoq yashashi haqidagi bu poemani shoir bolalarga mavlud ertagi (рождественная сказка для детей) deb atagan, u bolalarga ham, katta yoshdagilarga ham yaxshilik va yomonlik haqida saboq berishi ta'kidlangan.

Amerika romantizm adabiyoti vakili Edgar Po esa "Qarg'a" poemasida bu qushni yaqin orada keladigan falokatdan xabar beruvchi, xosiyatsiz qush sifatida tasvirlaydi. Poema oxirida shoir-muallifning sevgilisi Lenora vafot etgani haqida xabar beriladi[8]. Edgar Po Angliya she'riyatini, xususan, S.Kolrijning poemalari va she'rlarini sevib o'qigani yuqorida aytildi. Bayron ham "Vido" she'rida S.Kolrijning "Kristabel" poemasidan bir parchani epigraf qilib olgan. Valter Skott (Shotlandiyalik) mashhur "So'ngi menestrel (oqin) qo'shiqlari" poemasini yozishda Kolrijning she'rlaridan ilhomlangani haqida eslab, uni o'ziga ustoz deb biladi. Kolrij faqat shoir bo'lib qolmay, Amerika qit'asida hamma teng va adolatli bo'lgan yangi jamiyat qurish bilan shug'ullangan

6 Кольриж С. Стихи. – Москва: "Наука", 1974. – С. 77–80.
7 Кольриж С. Стихи. – Москва: "Наука", 1974. – С. 92–93.
8 По, Эдгар.А. Ворон / изд. подгот. В. И. Чередниченко. – М.: "Наука", 2009. – С. 400.

utopiyachi faylasuf, ruhoniy sanalgan[9].

Amerika adabiyotida tabiat va ruhiy olam ajoyibotlarini hayotga yaqinlashtirgan, romantizm va detektiv adabiyotni birlashtirgan yozuvchilardan biri Vashington Irving edi. U Angliya, Gollandiya, Ispaniyadan, Eski dunyodan Amerika qit'asiga, yangi dunyoda ko'chib kelgan turli toifadagi odamlarning hayotini realistik va fantastik voqealar fonida tasvirlaydi. Yozuvchining ancha katta hajmli "Dolf Xeyliger" novellasida (uni qissa deyish mumkin) romantizm adabiyotiga xos ajoyib-g'aroyib, sirli voqealar, ularni boshdan kechirgan insonlarning o'zaro munosabatida ochiladigan xarakterlari, ruhiy holatlari mufassal tasvirlanadi. Asar boshlanishida ona mehri sofdil mushtipar ayolning otasiz o'sgan, sho'x, beboshligi bilan nom chiqargan o'g'liga mehri tasvirlanadi.

9 Елистратова А.А. Поэма и лирика Кольриджа. С.Кольридж. Стихи. – Москва: "Наука", 1974. – С. 211–215.

ВЫРАЖЕНИЕ СИМВОЛИЧЕСКИХ ЗНАКОВ В ЭТНОФРАЗЕМАХ

Зубайда Шавкатовна Жумаева – д.ф.ф.н., доцент,
Казанский Федеральный университет в городе Джизак

***Аннотация**: В данной статье рассматриваются фразеологизмы, которые представляют собой целое значение. Идёт речь об этнофразеологизмах, которые не только делают нашу речь более эффективной, но и помогают нам выражать свои мысли более ясно и глубоко. Были проанализированы некоторые фразы и сделаны выводы.*

***Annotatsiya**: Ushbu maqolada butun ma'noni ifodalovchi frazeologik birliklar ko'rib chiqiladi. Gap etnofrazeologizmlar haqida ketmoqda, ular nafaqat nutqimizni yanada ta'sirchan qiladi, balki fikrimizni yanada aniq va chuqurroq ifodalashimizga yordam beradi. Ayrim iboralar tahlil qilinib, xulosalar chiqarildi.*

***Abstract**: This article examines phraseological units that represent a whole meaning. We are talking about ethnophraseological units that not only make our speech more effective, but also help us express our thoughts more clearly and deeply. Some phrases were analyzed and conclusions were made.*

***Ключевые слова**: фраза, этнофраза, устойчивое сочетание, более эффективная речь, выражение, функция наименования, анализ.*

***Kalit so'zlar**: ibora, etnofraza, turg'un birikma, ta'sirchanroq nutq, ifoda, nomlash vazifasi, tahlil.*

***Keywords**: phrase, ethnophrase, stable combination, more effective speech, expression, naming function, analysis.*

Узбекский язык невозможно представить без идиом. Потому что именно фразеологизмы не только делают нашу речь более эффективной, но и помогают нам выражать свои мысли более ясно и глубоко. Фразеологизмы не только выполняют функцию наименования предмета или явления, но и образно описывают этих. "Словосочетание — устойчивое сочетание двух или более слов, состоящее в устойчивой связи, значение которого обычно равнозначно одному слову, иногда словосочетанию, предложению, и которое легко вводится в речь, имеет переносное значение"[1]. Изучение фразеологизмов и этнофразеологизмов является одной из актуальных проблем узбекского языкознания. Хотя эта тема изучалась рядом лингвистов и исследователей, все еще остается много важных вопросов, требующих изучения.

Как известно, это выражение в лингвистической терминологии является фразеологизмом. Термин фразеология происходит от древнегреческого языка: phrasis – фраза, logos – понятие, учение[2]. Серьёзное изучение узбекских идиом началось в 1950-х годах, и вклад выдающегося лингвиста Ш. Рахматуллаева в объём и глубину этой работы неоценим. В частности, в его фундаментальной монографии "Некоторые вопросы узбекской фразеологии" рассматривается ряд научных проблем фразеологии[3].

Теория фразеологии была впервые основана французским лингвистом Шарлем Балли. Грамматические, семантические, функционально-стилистические аспекты фразеологизмов можно рассмотреть и в исследованиях русских лингвистов. Например, В. Виноградов классифицирует

1 Н.Улугов. Лингвистическая теория. Идеальная благодатная среда. 2016. Страница 113.
2 Менглиев .Б., Холиёров О. Универсальный справочник по узбекскому языку. Ташкент 2009, 83 стр.
3 Рахматуллаев. Ш. Некоторые вопросы узбекской фразеологии. Ташкент 1966 326 с.

словосочетания по их смысловой группе как лексический пласт. Категориальные значения фразеологизмов определил В. Жуков. В узбекском языкознании фразеологизмы определил. Он широко изучался в трудах таких ученых, как Рахматуллаев, М.Содикова, И.Кочкортоев, А.Рафиев, Б.Юлдошев, А.Маматов, К.Хакимов, К.Бозорбоев[4].

Хотя в узбекской лингвистике нет целостного научно-теоретического исследования по использованию фразеологизмов в художественных текстах, эта проблема серьезно рассматривалась в ряде кандидатских и докторских диссертаций, выполненных в последние годы. Одним из таких исследований является докторская диссертация Б.Юлдошева на тему "Функционально-стилистическая характеристика фразеологических единиц современного узбекского литературного языка". В работе рассматриваются функциональные и стилистические аспекты различных фразеологических единиц, встречающихся в художественных текстах. В значении фразеологизмов выделяют две части: 1) экспрессивно-оценочную окраску; 2) функционально-стилистическая окраска. Подчеркивается, что фразеологизмы нагружены семантическими оттенками в экспрессивной ценности своего значения.

Он пояснил, что эмоциональность и экспрессивность являются основными факторами в этой особенности, что эмоциональность выражает различные чувства и эмоции фразеологизмов, что личностность и предметность выражают относительные, субъективные отношения, и что экспрессивность считается экспрессивной особенностью речи. Кроме того, ученый также анализирует причины изменения этих единиц при использовании в своей работе художественных текстов[5].

Одним из ученых, широко изучавших фразеологизмы, является А.Маматов. Особое значение имеет докторская диссертация ученого на тему "Проблемы формирования узбекских фразеологизмов". Значение. Некоторые фразы были проанализированы и сделаны выводы.

В данной работе излагается мнение о принципах образования фразеологизмов. Основное внимание уделяется коннотативным и номинативным функциям в семантическом формировании фразеологизмов. По его мнению, не все существующие фразеологизмы имеют коннотативное значение. Например: надеяться, простирать руки, обрести благосклонность, возлагать руки и т.д. имеют только лексическое значение и выполняют номинативную функцию. Однако большинство фразеологизмов имеют коннотативный компонент значения[6]. Следующие мысли А.Э.Маматова еще больше проясняют суть вопроса: "... неправильно понимать фразеологию в "широком" и "узком" смысле, ее следует понимать в одном смысле. Независимо от того, к каким языковым единицам они относятся, будь то афоризмы, пословицы или поговорки, устойчивые разговорные формулы, «крылатые слова", словом, если они соответствуют данному нами определению фразеологии, если они могут выполнять его требования, то есть если они структурно эквивалентны словосочетанию или

4 Рахматуллаев Ш. Некоторые вопросы узбекской фразеологии (Фразеологическая полисемия, синонимия, антонимия и омонимия): Доктор филологических наук...дисс. –Ташкент, 1966. -32 с.;

5 Юлдашев Б. Функционально-стилистические особенности фразеологических единиц в современном узбекском литературном языке: Филология. докторская диссертация - Ташкент, 1993.-18.

6 Маматов А. Вопросы образования фразеологизмов узбекского языка: Филология. Докторская диссертация. – Ташкент, 1999. Б-29.

предложению, имеют переносное, обобщенное значение, а лексические элементы которых имеют частично или полностью подвижное значение и зафиксированы в словарях, то любые устойчивые лексико-семантические единицы должны быть включены в объем единиц.

Фразеологизмы – единицы речи как языковое явление. "Слова в группе устойчивых соединений семантически гармоничны и создают семантическую целостность". Часто значение совпадает с одним словом. Такое устойчивое сочетание слов представляет собой фразу. Фразеологическое сочетание – образное, привлекательное и устойчивое сочетание, части которого имеют устойчивое, подвижное значение и функционируют в предложении как единое целое[7]. Фразеологизмы чаще всего используются в художественных текстах, публицистике и научно-популярных текстах. Роль фразеологизмов в художественных текстах очень важна. Фразеологизмы используются в художественных текстах в следующих целях.

Мы видим, что идиомы широко используются в произведениях искусства для образного описания событий или оценки различных ситуаций. Например: у него длинный язык, если бы мир затопило, он бы не дошел до его щиколоток, его глаза расширились бы, и он бы спросил: Что? В глазах Саатовой, которые только что были опущены, словно вспыхнул огонь. Глаза его были широко раскрыты, и он пристально смотрел (О.Хошимов. Живет во сне 213, 8). Фразеологизмы – образные единицы языка, широко используемые писателями и поэтами. Сохраняя образность языка, фразы носят отрицательный характер, например, резкий, ненавистный, вызывающий отвращение, оскорбительный и ругательный; Это образное сочетание, которое выражает положительные дополнительные значения, такие как ласка, юмор и поощрение. Использование фразеологизмов авторами в своих произведениях для описания характеров и событий своих персонажей также играет важную роль в повышении ценности произведения.

Использование фразеологических выражений для живого описания событий, ясного и полного их воплощения в глазах читателя. Значение фразеологизма, понимаемое в целом, не равно простой сумме лексических значений, присущих его составляющим словам; значение словосочетания проявляется как обобщенное значение, значение-знаменатель[8]. В этом процессе сформировались слова и термины, относящиеся к каждому обряду, национальным обычаям, традициям и верованиям, которые связаны с многовековой жизнью, культурой, образом жизни, общественной и духовной деятельностью узбекского народа и составляют определенную лексическую группу в словарном составе узбекского языка. Такие слова в русском и узбекском языкознании называются терминами "этнографическая лексика", "этнографические диалекты", "этнографизмы"[9].

Как известно, этнография в широком смысле изучает вопросы, связанные с историческим формированием народа, его культуры, обычаев, традиций, обрядов, а также образа жизни и духовной жизни в целом. Кроме того, этнофразеология изучает фразеологические сочетания, понятные жителям определенного региона, возникающие из образа жизни

7 Н.Улугов. Лингвистическая теория. Идеальная благодатная среда. 2016. Страница 83.
8 Рахматуллаев .Ш. Некоторые вопросы узбекской фразеологии. Ташкент 1966 326 с.
9 Толковый словарь узбекских этнофразеологизмов. Ташкент 1991.

определенного народа, обычаев, обрядов и верований, сохранившихся в народе, веры в сверхъестественные силы, исламских религиозных воззрений. Этнофраза взята из языка народа и понятна только народам, проживающим в определенном регионе, а используемые нами этнофразы почти неизвестны народам, близким к нему. В основе наших выражений, широко распространенных в народе, лежит определенный образ, конкретное событие, представление о каком-либо предмете.

Такая образность увеличивает стилистический потенциал этнофраз и делает их одним из самых мощных средств выражения в языке. В мире существуют разные нации и народы, и у них также есть свои национальные обычаи, традиции и формы самовыражения, отражающие их традиционный дух. Включая в себя узбекский национальный дух, глубоко укоренившиеся в нем этнофразы также несут в себе большой смысл и древнюю историю народа. Например, джамалак – это плетеная коса, которую обычно плетут из хлопчатобумажных ниток, чтобы волосы у девочек не выпадали. Это также свободная белая или черная нить, вплетенная в волосы[10].

Несмотря на множество наций и этнических групп в мире, люди, живущие в каждом обществе, имеют свои собственные уникальные традиции и ценности. Известно, что вышеприведенные фразы, происходящие из узбекской национальной веры, очень распространены в народе. Живые традиции узбекского народа сохранили свою национальную самобытность, несмотря на различные экономические и политические изменения, происходившие на протяжении веков. Фразы, охватывающие такие существенные и постоянные аспекты личной и семейной жизни, как жилье, еда, одежда, воспитание детей, брак и смерть, всегда присутствовали в лексиконе людей.

10 Тот источник.

QIZILTEPA TUMANI TOPONIMIKASINING TARIXIY VA MADANIY ASPEKTI: OYKONIMLAR, ETNOTOPONIMLAR VA ULARNING PAYDO BO'LISH JARAYONI

Nurbek O'ktamovich G'aniyev – dotsent,
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

***Annotatsiya**: Mazkur maqola Qiziltepa tumani toponimikasining tarixiy va madaniy jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Unda oykonimlar (joy nomlari), etnotoponimlar (etnik guruhlar nomlariga asoslangan joy nomlari) va ularning shakllanish jarayoni tahlil qilinadi. Maqolada toponimlarning mahalliy tarix va madaniyatdagi o'rni, ularning xalq turmush tarzi, urf-odatlari va an'analariga qanday ta'sir ko'rsatgani o'rganiladi. Ushbu tadqiqot Qiziltepa toponimikasining ilmiy ahamiyatini oshirish va mahalliy madaniy merosni saqlashga xizmat qiladi.*

***Аннотация**: Данная статья посвящена изучению исторических и культурных аспектов топонимии Кызылтепинского района. В ней анализируются ойконимы (названия мест), этнонимика (названия мест, основанные на именах этнических групп) и процессы их формирования. В статье рассматривается роль топонимов в местной истории и культуре, а также их влияние на образ жизни, традиции и обычаи населения. Данное исследование способствует повышению научной значимости топонимии Кызылтепы и служит сохранению местного культурного наследия.*

***Abstract**: This article is dedicated to studying the historical and cultural aspects of the toponymy of the Qiziltepa district. It analyzes oikonyms (place names), ethnonyms (place names based on the names of ethnic groups), and their formation processes. The article examines the role of toponyms in local history and culture, as well as their influence on the lifestyle, traditions, and customs of the population. This research contributes to enhancing the scientific significance of Qiziltepa's toponymy and serves to preserve the local cultural heritage.*

***Kalit so'zlar:** Qiziltepa toponimikasi, oykonimlar, etnotoponimlar, tarixiy aspekt, madaniy meros, etnik tarkib, lingvistik tahlil, joy nomlarining shakllanishi.*

***Ключевые слова:** топонимия Кызылтепы, ойконимы, этнонимика, исторический аспект, культурное наследие, этнический состав, лингвистический анализ, формирование названий мест.*

***Keywords**: toponymy of Qiziltepa, oikonyms, ethnonyms, historical aspect, cultural heritage, ethnic composition, linguistic analysis, formation of place names.*

Jahon tilshunosligida joy nomlarini ifodalovchi makro va mikrotoponimlar milliy, tarixiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy nuqtayi nazardan katta ahamiyatga ega. Bu nomlar, bir tomondan, muayyan hududga xos bo'lgan toponimik birliklarning o'ziga xos xususiyatlarini, ularning leksik-semantik aniqligini va to'g'ri ishlatilishini o'z ichiga oladi. Boshqa tomondan, ularning nominativ, kommunikativ va uslubiy vazifalari jamiyatdagi ma'naviy, ijtimoiy, va madaniy munosabatlar bilan bog'liqdir. Shu bois, toponimlar globallashuv jarayonida jahon xalqlari o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy va madaniy aloqalarni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.

Bugungi globallashuv sharoitida har bir millat o'z madaniyatini, til va qadriyatlarini asrab-avaylashga, rivojlantirishga va ularni kelajak avlodlarga yetkazishga alohida e'tibor qaratishi kerak. Bu jarayonda o'zbek onomastikasi, ya'ni joy nomlari sohasini ilmiy tekshirish va tahlil qilish, milliy va tarixiy qadriyatlarimizning o'zligini, o'ziga xosligini saqlab qolishga yordam beradi. Toponimlar – bu mamlakatimizning geografik va madaniy mazmunini, xalqning urf-odatlarini, tarixiy merosini, yodgorliklarini keng ifodalaydigan lisoniy birliklardir.

Shuningdek, o'zbek toponimlarini tadqiq etish milliy madaniyat va ma'naviy merosni

asrab-avaylash, uning tarixiy va madaniy boyligini kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Buning natijasida milliy qadriyatlarimizning zamonaviy sharoitda qanday ahamiyat kasb etishini, ularni kelgusida qanday rivojlantirishimiz kerakligini aniqlash imkonini yaratadi. Bu masala, albatta, mamlakatimizning madaniy va ma'naviy barqarorligi uchun juda muhimdir.

Hozirgi kunda O'zbekistonda "Uchinchi Renessans" poydevorini barpo etish, yoshlarni yangi ilm-fan, tarix, madaniyat va innovatsiyalar asosida tarbiyalash maqsadi bilan amalga oshirilayotgan islohotlar shuning uchun ham muhim ahamiyatga ega. Toponimlarning ilmiy tadqiqoti esa bu maqsadga erishishda muhim vosita bo'lib, xalqning tarixi, qadriyatlari va madaniyatini saqlab, uning rivojlanishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli farmonida O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish, yangi so'z va terminlarni ishlatish, zamonaviy toponimlarning O'zbekona muqobillarini yaratish va ularning bir xilda qo'llanishini ta'minlash kabi muhim vazifalar belgilab berilgan[1]. Shuningdek, toponimik obyektlarga qonun hujjatlariga muvofiq nom berish va ularni monitoring qilish, muvofiqlashtirish ishi ham katta ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan. Bu, o'z navbatida, Qiziltepa tumanidagi mikrotoponimlarning tadqiqi borasidagi ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish va tuman toponimiyasini o'rganishni talab qiladi.

Qiziltepa tumani toponimikasida eng xarakterli xususiyatlardan biri – turli etnik guruhlar va xalqlarning, shu jumladan, o'zbek, qirg'iz, qozoq va tojik xalqlari nomlarining keng tarqalganligi. Bu, o'ziga xos etnotoponimlarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Misol uchun, Qozoqovul, Tojikqishloq, Tojikmahalla va Tojikon kabi toponimlar, bu yerda yashovchi etnik guruhlarning nomlari bilan bog'liq toponimlarning yaratilishiga yangicha nazar tashlashga imkoniyat yaratadi.

Qiziltepa tumani onomastikasida, shuningdek, o'z qatlamga mansub bo'lgan so'zlar bilan atalgan toponimlar ham muhim o'rin tutadi. Masalan, O'rtacho'l va Cho'ponota kabi toponimlar shunday misollardan hisoblanadi.

Tuman toponimlarini mavzusiga ko'ra tasniflash mumkin. Ushbu tasnif bo'yicha toponimlar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

Joyning relyef xususiyatlarini ifodalovchi toponimlar.

Gidrografik toponimlar.

Ayrim o'simlik va daraxt nomlari bilan atalgan toponimlar.

Kasb-hunarni ifodalovchi toponimlar.

Rang-tus bildiruvchi toponimlar.

Hajm, shakl, masofa, yuza va o'lchov ma'nosini bildiruvchi toponimlar.

Son va miqdorni ifodalovchi toponimlar.

Urug' va qabila nomlari asosida yuzaga kelgan toponimlar.

Shuningdek, O'zbekiston toponimiyasida boshqa tillardan, ayniqsa, fors-tojik, arab va rus tillaridan o'tgan so'zlardan tarkib topgan toponimlar ham mavjud. Bu toponimlar o'zlashma qatlamga kirib, boshqa tillardan leksik vositalar orqali yaratilgan, ularda xalqaro aloqalar va tillar orasidagi ta'sirlarni ko'rsatadi. Toponimlar shunday o'zgarish va integratsiya jarayonlarini aks ettiradi, shuning uchun ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish muhimdir.

Qiziltepa tumani hududida forscha va tojik

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni // www.lex.uz

tillariga mansub toponimlar ahamiyatli ulushni tashkil etishi tabiiy holdir, chunki bu ikki xalq qadimdan birga yashab, o‘zaro iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar o‘rnatgan. Ular o‘rtasidagi bu aloqalarning natijasida, ikki xalq yashagan hududlardagi joy nomlari tizimida ham bu munosabatlar o‘z aksini topgan[1]. Bunday toponimlar nafaqat tarixiy va madaniy o‘zgarishlarni, balki xalqlarning o‘zaro aloqalarini, ularning ko‘chmanchi va mahalliy hayotidagi o‘rnini ham chuqur ifodalagan.

Qiziltepa tumani toponimikasining tarixiy aspektlari aniq va boy materiallarga ega. Tuman hududidagi etnotoponimlar o‘zining qadimiy davridan boshlab, XX asrning 10-yillarigacha bo‘lgan davrda tarixiy manba va adabiyotlarda yoritilgan. Ushbu toponimlar ayniqsa o‘rta asrlar davrida yozilgan tarixiy asarlarda keng tarqalgan. Masalan, Narshaxiyning "Tarixi Buxoro" asarida keltirilgan toponimlar haqidagi ma’lumotlar tarixiy va tilshunoslik fanlari nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qilinishi mumkin. Bu tadqiqotlar etnotoponimlarning vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarganini va ularning milliy identifikatsiyadagi ahamiyatini tushunishga yordam beradi.

Qiziltepa va unga yaqin tumanlarda, jumladan, G‘ijduvon, Vobkent va Shofirkon tumanlarida, XX asrning 90-yillarigacha mahalliy shevada "dala" so‘zi o‘rniga "yovon" so‘zi keng qo‘llanilar edi. Bu o‘zgarishlar, o‘z navbatida, xalqning turmush tarzi va madaniy jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lib, ularning so‘z va atamalar orqali ifodalangan ma’nolarini namoyon qiladi. Masalan, hozirgi "tandirxona" so‘zi o‘rniga, mahalliy aholi "tano‘rxona" yoki shunga qisqartirib, "tano‘r" deb atar edi. Bu toponimlar, o‘z navbatida, o‘zbek xalqiga xos qadimiy an’analar va madaniy qadriyatlarni saqlab qolishga xizmat qilgan.

Qiziltepa tumanining xalqi, asosan, ikki tilli bo‘lib, ularning turmush tarzi, an’analari va madaniyati ushbu tilda aks etgan. Sovet davrida, ayniqsa, mahalliy til atamalarining ko‘pchiligi ijtimoiy hayotda ishlatilishi cheklangan va ularning foydalanilishi qisqargan. Masalan, o‘sha davrda kishilar, madaniy voqelikni ifodalovchi ko‘plab so‘zlardan foydalanishgan, lekin hozirgi kunda ularning ko‘pini yosh avlod tushunishda qiynaladi. Bu so‘zlar orasida "dala", "yovon", "hayot", "charvoq", "tashqari", "chorbog‘" va "zaldorizor" kabi toponimlar mavjud. Ushbu so‘zlar o‘z vaqtida aholining turmush tarzi va madaniyatiga, ularning yoshash tarziga, qishloq xo‘jaligining turli sohalariga va maishiy xo‘jalik hayotiga nisbatan ishlatilgan[2].

Shu bilan birga, bu so‘zlar turli madaniyatlarning aralashuvini, xalqlar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalarni va ularning umumiy tarixiy merosini ifodalagan. Madaniyatlar aralashuvi tilda, xalq og‘zaki ijodi va an’analarda o‘z ifodasini topadi va bu jarayon toponimlarning yaratilishi va ularning amaliy ahamiyatida aniq namoyon bo‘ladi.

Qiziltepa tumani joy nomlarini to‘g‘ri va samarali tasniflash muhim ilmiy vazifa hisoblanadi. Hozirda ushbu nomlarni turli mavzular bo‘yicha, ya’ni toponimlar, oykonimlar, gidronimlar, nekronimlar kabi guruhlarga bo‘lmasdan, o‘sha joylardagi qishloq fuqarolar yig‘ini va mahalla fuqarolar yig‘ini bo‘yicha tasniflashda ushbu nomlarning semantik, leksik, kognitiv, etimologik va lingvomadaniy xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Bu tasniflash tarzi, shubhasiz, joy nomlarining ta’rifini to‘liq va kompleks bir ravishda aniqlashga yordam beradi. Bu, shuningdek, nomlarning paydo bo‘lishini, ularning tarixi va madaniyati bilan bog‘liq tarmoqlarni tushunishga imkon

1 Uktamovich, G.N. (2021). Research of the methodology of linguistic toponymy. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(6), 228-230.

2 Ganiev, N.U. (2020). Problematic onomastics uzbek language. Theoretical & Applied Science, (5), 808-811.

yaratadi[3].

Turkiy tillar onomastikasining ilmiy tadqiqi uzoq tarixi bilan bog‘liq. Bunday tadqiqotlar M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asari bilan bog‘lanadi, bu asar turkiy xalqlarning hayoti, turmush tarzi, etnonimlar va toponimlar haqidagi muhim ma’lumotlarni qamrab oladi. A.N.Kononovning fikricha, ushbu asar “XI asr turkiy xalqlarining hayoti, turmush tarzi, qavm-qarindoshlik atamalari, geografik nomlar va atamalar, turli tarixiy, mifologik qahramonlarning nomlari, diniy, etnik atamalar va boshqalar haqida ma’lumot beruvchi yagona manbalardan biri hisoblanadi”. Bu asar turkiy tillarning ulkan onomastik rivojlanishini aniq namoyon etgan[4].

Qiziltepa tumani hududi qadimiy tarixga va ko‘plab arxeologik yodgorliklarga ega. Shu bois, bu hududni diaxron tadqiq qilish, ya’ni uning tarixi va o‘tgan davrlarini birgalikda o‘rganish uchun ilmiy asoslar yaratilgan. Mazkur hududda topilgan 72 ta tarixiy-arxeologik va arxitektura obyektlari nomlari ham tadqiq etilgan. Bu obyektlar o‘zining tarixi va ahamiyatiga ko‘ra, joy nomlarining tarkibi va ularning mavjud bo‘lishi haqida muhim ma’lumotlarni taqdim etadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Qiziltepa tumanining toponimiyasini izohli lug‘at shaklida tasniflash muhim bo‘lib, unda oykonimlar, komonimlar, nekronimlar, doromonimlar va gidronimlar kabi nomlar keltiriladi. Bu nomlar, o‘z navbatida, xalqona rivoyatlar va manbalarga asoslanib, ularning paydo bo‘lishi va ma’nolarini tushunishga yordam beradi. Masalan, oykonimlarning shakllanishi, ko‘pincha, sodda bo‘lib, ba’zan ularda apellyativ leksikadan foydalanilgan, ya’ni umumiy so‘zlardan yoki atamalardan turli xil nomlar yaratilgan. Bu nomlar, o‘zgarishlar va o‘tmishni o‘zida saqlagan holda, qishloqlardagi turmush tarzi, odamlarning hayoti va ularning madaniy muammolariga bog‘liq muhim tasvirlarni namoyon qiladi.

Shu bilan birga, har bir toponim o‘zining tarixi, xalq madaniyati va joyning ijtimoiy hayot tarzi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning tahlili ilmiy izlanishlar uchun muhim bo‘lib xizmat qiladi.

Qiziltepa tumanining oykonimlar tizimi umumturkiy va fors-tojik tiliga mansub bo‘lgan nomlash tizimlarining tabiiy davomi sifatida shakllangan. Bu tizimning asosi turli tillarning leksemalaridan tashkil topgan bo‘lib, ular tarixiy davrlar davomida shakllanib, bugungi kungacha o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Oykonimlar, ya’ni qishloqlar va shaharlarning nomlari, ko‘p asrlik tarixi va turli tillarning ta’siri ostida shakllangan, bu esa ularning ma’nolarini va paydo bo‘lish jarayonini aniqlashni talab qiladi. Qiziltepa tumanining oykonimlarini tahlil qilishda, ularning tarixiy va leksik tarkibi, bu nomlarning turli davrlar va madaniyatlar bilan bog‘liqligi muhim ahamiyatga ega.

Misol uchun, Vaximkor toponimi arab tilidagi “vaqf” so‘ziga asoslanib shakllangan. Vaqf so‘zi “din yo‘lida ajratilgan mol-mulk” degan ma’noni anglatadi. Vaximkor nomining paydo bo‘lishi ushbu so‘zning arab tilidagi “vaqf”dan tarixiy jarayonlar davomida mahalliy tildagi talaffuziga va uning fonetik o‘zgarishlariga bog‘liq. Vaqf so‘zi “vaqf > vaxf > vaxm > Vaxm” shaklida transformatsiyaga uchragan va bu so‘z undagi ma’nolarning o‘zgarishini, shuningdek, toponimga aylanish jarayonini ko‘rsatadi. Bu, o‘z navbatida, joy nomi bo‘lib, “turish, turoq, qo‘zg‘almas, din va xayrli maqsadlar yo‘lida ajratilgan mol-mulk” degan ma’noni anglatadi.

3 Ганиев, Н. У. (2022). Этнографические и исторические особенности топонимов Кызылтепы. In Качество жизни населения промышленных территорий в стратегии “Общество 5.0” (pp. 127-130).

4 Наханова Л.А. Историко-семантическая интерпретация топонимов в Орхоно-Енисейских памятниках. Диссертация на соискание ученой степени (PhD) доктора философии. - Астана, 2014. -С.13; Кононов А.Н. Махмуд Кашгарский и его “Дивану лугат-ит турк”.// Советская Тюркология. – 1972. №1. –С.3-17.

Shuningdek, Emakti toponimi ham eski turkiy tildagi "etmak" so'zidan olingan bo'lib, bu so'z "non" ma'nosini anglatadi. M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida "etmak" so'zi "non" ma'nosida; shuningdek, "er etmaklandi – kishining noni ko'paydi"[5] ma'nosida beriladi. "Etmakchi" shaklidan "emakti"ga o'tish jarayonida fonetik o'zgarishlar yuz bergan. Bu toponim, o'z navbatida, "novvoy" kasbi bilan bog'liq bo'lib, eski o'zbek tilidagi "itmakchi" shaklidan yaratilgan. Buning uchun Alisher Navoiy asarlarida ham "itmakchi" shakli qo'llanganini ko'rish mumkin: "Itmakchi tanuri andin qiziq, allof bozori andin issiq"[6]. Bugungi adabiy tilda ushbu shakllar arxaizm hisoblanadi va faqat tarixiy va madaniy tadqiqotlar orqali aniqlanadi.

Shu sababli, Qiziltepa tumanining toponimik tahlili, ularning paydo bo'lish tarixi va bu nomlarning tilshunoslik, madaniyat, tarix va antropologiya kabi sohalar bilan bog'liqligi muhim ahamiyatga ega. Nafaqat Qiziltepa, balki mamlakatimiz mintaqasidagi barcha joy nomlarini har tomonlama tadqiq qilish va aniqlash uchun tarixchilar, tilshunoslar, jurnalistlar va soha olimlaridan iborat ilmiy jamoalarni jalb etish zarur. Bu jamoalarning faoliyati joy nomlarining tarixiy va madaniy ahamiyatini chuqur o'rganishga, shuningdek, ushbu toponimlarning xalqimiz merosi va qadriyati sifatidagi o'rnini aniqlashga yo'naltirilishi lozim[7].

Qiziltepa tumanining tarixiy va madaniy boyligini o'rganish, shuningdek, uning toponimik atamalarini aniqlash, nafaqat mahalliy xalq uchun, balki butun mamlakatimiz uchun muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotlar bugungi kunda o'zbek tilshunosligi va tarixini rivojlantirishga katta hissa qo'shishda davom etishi kerak.

5 Mahmud Koshg'ariy. "Devonu-lug'otit turk, 1- tom. –Toshkent: Fan, 1960. -B. 65.

6 A.Navoiy. Mahbub ul-qulub. Mukammal asarlar to'plami. 14 tom. – Toshkent: Fan, 1998. –B.35.

7 N.Ganiyev. Navoiy viloyati Qiziltepa tumani toponimlarining etimologik va kognitiv tadqiqi. Fil.fa.fal.dok.(PhD) diss. Avtoref. – Jizzax, 2022.

YASAMA SO'Z VA ULARNING O'RGANILISHI

Akmal Raxmatullayevich Tursunov – dotsent,
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

***Annotatsiya**: Tilshunoslik masalalarini to'g'ri va mukammal yoritish, birinchi navbatda, uning sohalarini aniq belgilashga bog'liqdir. Til sistemasining har tomonlama ilmiy ravishda chuqur o'rganila boshlashi natijasida so'z yasalishi morfologiyadan ham, leksikologiyadan ham ajralib, tilshunoslikning bir sohasi sifatida shakllandi. Demak, bu sohaning obyekti so'zdir. So'zni leksikologiya ham, grammatika ham tekshiradi, lekin bu ikki xil tekshirish bir-biridan ma'lum belgilar bilan ajralib turadi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida so'z yasalishining asosiy usuli affiksatsiya usulidir.*

***Аннотация**: Правильное и совершенное освещение языковой проблемы зависит, прежде всего, от четкого определения ее направлений. Итак, объектом этого поля является слово. И лексикология, и грамматика исследуют слово, но эти два вида экспертизы отличаются друг от друга определенными признаками. Основным способом словообразования в современном узбекском литературном языке является аффиксационный способ.*

***Abstract**: Correct and perfect coverage of the language problem depends, first of all, on a clear definition of its directions. "Our linguistics faces such questions as the structure of the science of linguistics, the division of linguistics into separate areas, their interaction and connection. As a result of a comprehensive scientific study of the language system, word formation was separated from morphology and lexicology and formed as a branch of linguistics.*

***Kalit so'zlar**: tilshunoslik, sohalar, so'z yasalishi, leksikaning, turkiy tillar, affiksatsiya, morfologiya, komponentlar, yasalmalar, imkoniyati.*

***Ключевые слова:** языкознание, поля, словообразование, лексика, тюркские языки, аффиксация, морфология, компоненты, образования, возможность.*

***Keywords**: linguistics, fields, word formation, vocabulary, Turkic languages, affixation, morphology, components, formations, possibility.*

Tilshunoslik masalalarini to'g'ri va mukammal yoritish, birinchi navbatda, uning sohalarini aniq belgilashga bog'liqdir. Bu faktni akademik V.V.Vinogradov o'z vaqtida ta'kidlab, shunday yozgan edi: "Tilshunoslik oldiga fanining tuzilishi, lingvistikaning alohida sohalarga bo'linishi, ularning o'zaro munosabati va bog'lanishi kabi masalalar qo'yilgan. Shu narsa ravshanki, tilshunoslikning to'g'ri bo'linishi turli qismlar yoki tilning tomonlari, strukturasining ichki bo'linishlari bilan muvofiq bo'lishi shart"[1].

Bundan ancha yillar muqaddam aytilgan bu fikr hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Buni birgina so'z yasalishi hodisasi misolidayoq aniq ko'rish mumkin. Ko'pchilik ishlarda so'z yasalishi grammatikaning bir qismi sifatida talqin etilgani holda, ayrim ishlarda esa, u leksikologiyada beriladi, hatto so'z yasalishining mutlaqo leksikologiyaga mansubligi ta'kidlanadi.

Til sistemasining har tomonlama ilmiy ravishda chuqur o'rganila boshlashi natijasida so'z yasalishi morfologiyadan ham, leksikologiyadan ham ajralib, tilshunoslikning sohasi sifatida shakllandi. Bu esa so'z yasalishi sistemasi ilmiy tarzda atroflicha o'rganilishi uchun imkoniyat yaratdi.

So'z yasalishi tilshunoslik fanining bir bo'limi, ya'ni mustaqil lingvistik soha bo'lib, u so'zlarning yasalishini, yangi so'z hosil qilishning qonun-qoidalarini, modellari, shu bilan bog'liq holda, so'zlarning tuzilishini tekshiradi. Demak, bu sohaning obyekti so'zdir. So'zni leksikologiya ham, grammatika ham tekshiradi, lekin bu ikki xil tekshirish bir-biridan ma'lum belgilar bilan

1 Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasalishi tizimi. –T.: 2007. –B. 40 .

ajralib turadi. Shuningdek, so‘z yasalishi qaysi jihatdan tekshirilishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Tilshunoslikning morfemika bo‘limida, birinchidan, yangi so‘zlarning qanday hosil qilinishi, ikkinchidan, mavjud yasalmalarning qanday paydo bo‘lgani tekshiriladi.

So‘z yasalish sohasi bir qancha umumiy hodisalari, tushunchasi mavjud. O‘zbek tilshunosligida bunday umumiy tushunchalar aniq belgilanmagan.

Rus tiliga oid ishlarda so‘z yasalishining umumiy tushunchalari, asosan, aniq belgilangan va bular yuzasidan deyarli bir fikrga kelingan. O‘zbek tili so‘z yasalishining umumiy tushunchalarini belgilash va bayon etishda ana shu ishlardagi fikrlarga tayaniladi.

So‘z yasalish, qanday usul (yo‘l) bilan bo‘lsa ham, yangi so‘z (leksema) hosil bo‘lishi ekanligi yuqorida aytildi. Bunda ikki hodisani farqlash kerak bo‘ladi:

1) tilda umuman yangi so‘zning hosil bo‘lishi;

2) tilga xos ma’lum (qat’iylashgan) usul asosida shu til materiallari bilan yangi so‘z yasash (yangi so‘z hosil qilish).

Tilda, jumladan, o‘zbek tilida so‘z yasalishining xilma-xil usullari borligi ma’lum. Lekin bu usullarning miqdori va turlarini belgilashda, shuningdek, ularni nomlash masalasida hanuz yagona bir fikrga kelingan emas. O‘zbek tiliga, shuningdek, boshqa turkiy tillarga oid adabiyotlarda so‘z yasalishining ikkitadan to yettitagacha bo‘lgan turi ko‘rsatiladi.

Bu tushuncha funksional jihatdan bir vaqtning o‘zida ham so‘z (o‘zak), ham affiksga xos belgilarni mujassam etgan va shunday belgilarga ega bo‘lgan birliklarga nisbatan tatbiq etila boshlandi. XX asrning 50-yillarida bu tushunchani german tillari bo‘yicha yirik mutaxassis M.D.Stepanova “yarim affiks” (“poluaffiks”, “poluprefiks”, “polusuffiks”) nomi bilan atalib kelingan edi. “Yarim affikslar” so‘z qo‘shish va qo‘shma so‘zlar hosil qilish jarayonida ma’no va vazifa siljishi asosida bir qism (komponent)ning o‘xshashlik yo‘li bilan yangi asoslarga qo‘shila borishi natijasida paydo bo‘lib, muayyan til tasvirida bu xil birliklar ham o‘z o‘rni va izohini topishi kerak: “qo‘llanilishdan umuman chiqib ketmagan holda so‘z qo‘shishda ular ko‘pgina holatlarda uchraydi, o‘z ma’nosini qisman yoki to‘liq yo‘qotib, amalda affiks vazifasini bajaradi”[2].

O‘zbek tilida so‘z yasalishining asosiy usuli affiksatsiya usulidir. Adabiy tilda yangi-yangi so‘zlar yasalishi ham, asosan, affiksatsiya usuli bilan so‘z yasalishida ko‘rinadi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida so‘z yasovchi affikslar, aniqrog‘i, so‘zning morfem strukturasida so‘z yasovchi sifatida ajraladigan affikslar juda ko‘p. Lekin ularning hammasi ham yangi-yangi so‘zlar yasalishida qatnashavermaydi. Ulardan ayrimlari hozirda ham yangi so‘zlar yasalishida qo‘llanayotgan bo‘lsa, ba’zi affikslar esa so‘z yasash funksiyasini deyarli yoki butunlay to‘xtatgan. Hozirgi o‘zbek adabiy tili so‘z yasalish sistemasining tahlilida birinchi tipdagi, ya’ni so‘z yasash funksiyasi davom etayotgan affikslar yordamida so‘z yasalishini yoritish muhimdir.

Shuning uchun har bir so‘z turkumidagi so‘z yasalishini o‘rganishda, avvalo, ana shunday affikslar bilan so‘z yasalishi yoritildi. Ma’lumki, ayrim so‘z turkumlarida so‘z yasalishida affiksoidlar ham qatnashadi. Ular yordamida ham sodda yasama so‘zlar hosil qilinadi.

Bu o‘zbek tilshunosligida ham o‘z ifodasini topdi. Jumladan, o‘zbek tilida xona elementiga shunday izoh berilgan: xona mustaqil ma’noli so‘z bo‘lib, hozirgi o‘zbek tilida asosan affiks vazifasida qo‘llanadi va u juda mahsuldordir: choyxona, yotoqxona, oshxona, issiqxona kabilari. Jon so‘zi o‘z ma’nosidan tashqari,

2 Степанова М.Д. Словообразование современного немецкого языка. - М. 1953.-С.165-168.

affiks vazifasida erkalash uchun (bolajon), badiiy ifoda vositasi sifatida qo‘llanadi: onajon, otajon, xolajon, ammajon opajon kabilar. Affikssimon birliklar borasidagi muhokama va munozaralar ta’sirida bo‘lsa kerak, ushbu masala bo‘yicha S.Usmonov “So‘z yasovchi affiksoidlar” nomi bilan maqola e’lon qiladi.Uning fikricha, o‘zakdan keyin qo‘shiladigan -xona, -noma,-poya, -kor, -soz, -furush (ishxona, pashshaxona, taklifnoma, jo‘xoripoya, paxtakor, uysoz, kitobfurush) kabi birliklar, negizdan oldin qo‘shiladigan umum-, ham-, xush- (umumshahar, hamqishloq, xushbichim) kabi birliklar urg‘usiz talaffuz qilinadi va bu “morfemalar yordami bilan yasalgan so‘zlar qo‘shma so‘zlar qatoriga emas, morfologik usulda yasalgan yasama so‘zlarga kiritilishi kerak”.

Maqolada affiksoidlarning affikslarga o‘xshash tomonlari, so‘z yasovchi affikslardan farqi sanab ko‘rsatilgan.

Affiksoidlar quyidagi hususiyatlari bilan affikslarga o‘xshaydi:

1) affiksoid bir butun so‘z tarkibida so‘z yasovchi affiks kabi tushunchaning faqat bir muhim belgisinigina anglatadi. Chunki bunday so‘zda asosiy tushunchani negiz anglatadi. Negizning ma’nosi tayanch bo‘lib, affiksoidning ma’nosi qo‘shimcha ma’no (to‘g‘rirog‘i, qo‘shimcha belgi) sifatida qo‘shiladi;

2) affiksoid leksik negizga qo‘shilgan holda nominativ funksiya bajarmaydi. Boshqacha aytganda, u endi o‘z holicha biron predmetga nom bo‘lmaydi;

3) ba’zi affiksoidlar fonetik jihatdan o‘zgarib, ayrim so‘z holatidagi fonetik qiyofasidan farqli bo‘lib qolgan. Masalan, bachcha ayrim so‘z, ammo -bachcha – amakbachcha affiksoid, ora ayrim so‘z, ammo -aro (xalqaro kabi) affiksoid;

4) affiksoid o‘z tabiatiga ko‘ra affiksga o‘xshash bo‘lgani uchun haqiqiy affiks bilan birikib, bir qo‘shma affiks vazifasini bajarishi mumkin: uysozlik;

5) affiksoid ishtiroki bilan yasalgan so‘zlarning komponentlari orasida aniqlovchi-aniqlanmish munosabati tasavvur qilinmaydi, chunki affiksoid sintaktik jihatdan “puch” bo‘ladi[3].

Shu bilan birga, S.Usmonovning ko‘rsatishicha, affiksoidlarni tamomila affiks bo‘lib ketgan deyish ham mumkin emas. Ular hali o‘rni bilan so‘z sifatida leksik ma’no ifodalay oladi. Shunga ko‘ra, ular so‘z yasovchi affikslardan farq qiladi:

1) affiksoidlar grammatik shakllangan ayrim so‘z sifatida ham ishlatiladi;

2) grammatik ahamiyatga ega bo‘lgan negiz sifatida, ya’ni so‘z yasalishida yoki biron forma yasalishida xizmat qilib, so‘zning leksik yadrosini tashkil qiladi: xonali, nomani kabilar[4].

Ammo kishilik olmoshlari o‘tmishda affiksoidlikka ega bo‘lgan. Ular, bir tomondan, olmosh sifatida gapning egasi va boshqa bo‘laklari vazifasida qo‘llangan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, kesimdan so‘ng kelib, uning egaga munosabatini ta’kidlash uchun qo‘llangan. Bunday funksiya o‘sha olmoshlarning grammatikalizatsiyalashganligini ko‘rsatadi.

Hozirgi tilda mustaqil shakl bilan affiks vazifasidagi shakl fonetik jihatdan farqlangan: olmosh sifatida men, sen, biz, siz variantlari qo‘llansa, affiks sifatida -man, -san, -miz variantlari qo‘llanadi. Ikkinchi shaxsning ko‘pligida esa har ikki holda ham siz qo‘llanaveradi:

Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma,

Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma. (Lutfiy)

Adabiy tilda kishilik olmoshlarining – “-man,

3 Тот источник. –Б.42 -43.

4 Usmonov S. Hozirgi o‘zbek tilida so‘zning morfologik tuzilishi. //Nizomiy nomidagi ToshDPI Ilmiy asarlari. 42-tom, 1-kitob, Tilshunoslik masalalari, T.:1964. – Б. 226.

-san, -miz variantlari tomomila so‘z o‘zgartuvchi affikslarga aylangan”[5].

Shu o‘rinda mustaqil so‘zlarning affiksga aylanishidagi muhim bir jihat – turkiy tillarda mavjud bo‘lgan bir tipologik xususiyatga ahamiyatlidir. Bu turkiy tillarda gap qurish modeli, andazasi, gap tuzishning tarixan shakllangan turlari bilan bog‘liq xususiyatdir. Jumladan, ot eganing kesimdan keyin takrorlanishi kesim tarkibidagi hukm ma’nosini yanada kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Ular, odatda, sifat bilan ifodalangan kesimlardan keyin takrorlanadi.

Bu xil holatlarga turkiyshunoslikda “Oltoy tili grammatikasi” tuzuvchilari, P.M.Melioranskiy, M.Z.Zakiyev, M.B.Balakayev, A.Ibraimov kabi olimlar ahamiyat berib, sening oting – yaxshi ot, bul at – jaksi at, Bezneng uram – zur uram (Bizning ko‘cha – katta ko‘cha. Bu gap – katta gap. Bu qiz – aqlli qiz) modelidagi kesimdan keyin takrorlanuvchi otning ma’no-vazifasida yuz beruvchi o‘zgarishlarga e’tibor qaratgan edilar.

Bunda “turdosh ot o‘zining konkret predmetlik ma’nosini yo‘qotadi va umumiy ma’noga ega bo‘lgan holda kesim tarkibiga kiradi. Bunday paytda ega aniq deb hukm qilingan belgi-xususiyat sifat orqali ifodalanadi. Bu esa, affiksoidlik belgisidir. Ammo shunga qaramay, bunday so‘zlarni so‘z yasovchi affiksoidlar kabi affiksoid deb bo‘lmaydi, chunki bunday takrorlanish ayrim so‘zlar doirasi bilangina chegaralanmaydi”[6].

Demak, affiksoidlarning paydo bo‘lish sabablari turlicha bo‘lib, ular ma’no, vazifa omili, qo‘shimcha qiymat-pragmatik-konnotativ ma’no ifodalash ehtiyoji kabi sabablar bilan izohlanishi mumkin.

Affiksoidlarga xos belgilar, ularning so‘z tarkibidagi o‘rni, vazifasi haqida tilshunoslar olib borgan munozaraga munosabat bildirib, M.D.Stepanova keyingi ishlaridan birida shunday deb yozgan edi: “So‘z tarkibidagi biror qism “yarim affiks”, deb hisoblanishi uchun ular o‘zak morfema bilan formal hamda ko‘pgina hollarda qisman semantik aloqasini uzmagan holda:

1) affikslar kabi keng so‘z yasalish qamroviga ega bo‘lishi;

2) bir asosdan boshqa asosga yengillik bilan ko‘cha olish qobiliyati, ya’ni nisbatan unumlilik bilan ajralib turishi zarur;

3) haqiqiy affikslar bilan raqobatga kirishishlari, qo‘llanilish xududini o‘zaro taqsimlab (bo‘lib) olishlari mumkin (разделяют с ними область действия)”[7].

Y.S.Kubryakova affikslar va “yarim affikslar” orasidagi to‘liq funksional parallelizm yuqoridagi belgilarda aks etishini qayd etar ekan, ushbu birliklarning bir qatorda joylasha olishi uchun bu fikrlar asos, dalil bo‘lishini ta’kidlaydi.

Y.S.Kubryakova ham XX asrning 60-yillarida ayni ana shunday fikrlarni ilgari surganligini va qadimgi german tillaridagi prepozitiv yordamchi birliklarning tahlili ularning predloglar va predlogsimon ravishlar bilan ko‘rsatib, (nisbiy bog‘langan) “yarim affiks”larni so‘z yasalishi nuqtayi nazaridan sof prefikslarga tenglashtirish mumkin degan xulosaga kelish imkonini beradi deb ko‘rsatadi.

Yarim affikslarning xususiyati shundaki, ular ayrim holatlarda kamroq, ba’zi o‘rinlarda nisbatan ko‘proq o‘zi kelib chiqqan (bog‘langan) mustaqil so‘zni eslatib, unga tortilib turadi. Lekin derivatsion faolligi, ifodalaydigan ma’no tipi, eng muhimi, pozitsion taqsimlanishi (o‘xshashlik–analogiya yo‘li bilan yangi yasamalar hosil qila olish qobiliyati) ularni sof affikslar bilan

5 Usmonov S. Hozirgi o‘zbek tilida so‘zning morfologik tuzilishi.//Nizomiy nomidagi ToshDPI Ilmiy asarlari. 42-tom, 1-kitob, Tilshunoslik masalalari, T.:1964. – B. 228 .

6 Mirzakulov T. O‘zbek tili morfemikasida paradigmatik va sintagmatik munosabatlar. II kitob. –Xo‘jand: 1993 –B. 8 .

7 Степанова М.Д. Методы синхронного анализа лексики. М.: 1968. –С. 105.

tenglashtirishga imkon yaratadi[8].

"O'zbek tili grammatikasi"da A.G'.G'ulomov shunday yozadi: "Affikslarning tug'ilishida shunday hol ham uchraydi: ba'zi so'zlar affiks funksiyasini bajarib, ergash morfemaga yaqinlasha boshlagan bo'lsa ham, hali affiksga aylanib yetmagan bo'ladi. Bular affiksoid sanaladi. Masalan, bu uyda to'rt xona bor. Biz ishxonaga bordik.

Ko'rinadiki, xona elementi o'rni bilan so'z bo'lib ham qo'llanadi, affiks bo'lib ham qo'llanadi (keyingi holda o'rin bildiradigan affiksga juda yaqin keladi). U bir o'rinda o'zak morfema, boshqa o'rinda ergash morfema: molxona, muzxona (chog'ishtiring: muzlik. O'zbek tilida affiksoidlar so'z-affiks, affiks-so'z, deb ham yuritiladi). Qo'shimchalarning, jumladan, affiksoidlarning shakllanish va ularning kelib chiqish yo'llarini o'rganish muhimligini A.G'.G'ulomov quyidagi natija, vazifa hamda muammolar bilan bog'laydi: "Affiksoidlarning tarixini, hayot yo'lini o'rganish, ularning aktiv-passivligini, unumli-unumsizligini, mahsulli-mahsulsizligini yana aniqlashtirishga ham yordam beradi, shuningdek, so'z yasash usullarining va vositalarining turli davrlarda tutgan o'rni, o'zaro munosabati kabi hodisalarni oydinlashtirishda ham uning o'rni bor. Masalan, qo'shma so'z bilan sodda yasama so'zning so'z qo'shish bilan affiksatsiya usullarining, ayrim affikslarning "to'la va qisqa" (qisqargan) formalarining o'zaro munosabatini aniqlash kabi"[9].

Fe'llarda yot, o'tir, yur, tur birliklarida grammatikalizatsiyalashish jarayoni yuqori darajada bo'lsa, qolgan fe'llar mustaqil fe'llardan yordamchi (ko'makchi) fe'llarga o'tayotgan, aylanayotgan oraliq shakl ko'rinishidadir. Agar affiks uchun an'anaviy tushuncha saqlanib qolinadigan bo'lsa, ot va fe'llardagi yordamchi birliklarni nisbiy affikslar yoki yarim affikslar deb nomlash mumkin[10].

A.P.Hojiyevning "O'zbek tili so'z yasalishi tizimi" kitobida "so'z yasovchi" termini mazmunidagi umumiy (asosiy) xususiyat haqida fikr bildirilib, so'z yasalish birligi va material birlik tushunchalari o'zaro farqlangan: "so'z yasovchi" termini ham yasama so'zning ikkinchi tarkibiy qismini umumiy (asosiy) xususiyatiga ko'ra ataydi va bu nomda uning material jihatdan qanday birlik ekani aks etmaydi. Masalan, rangdor, qabulxona, kamchiqim so'zlaridagi -dor, -xona, kam- so'z yasalish birligi sifatida so'z yasovchi hisoblanadi[11].

A.P.Hojiyev so'z yasalishi tizimida affiks, affiksoid va yordamchi so'zning vazifa jihatidan o'xshashligi, mushtarakligini alohida ta'kidlaydi: affiksoid va yordamchi so'zlar "so'z yasovchi sifatida, so'z yasovchi affikslardan farqli biron belgiga ega emas. Aksincha, so'z yasovchi affikslarga xos umumiy xususiyatlarga ushbu so'z yasovchilar ham ega. Hatto, kam-va ham-so'z yasovchi ser-va-dosh affikslariga antonim, ma'nodosh: kamhosil – serhosil, hamsuhbat – suhbatdosh. Shuning uchun bularni so'z yasovchi affikslardan ajratib (alohida olib) tahlil etishning hojati yo'q.

Sh.U.Rahmatullayev shu o'rinda "formula", "qolip" tushunchalaridan foydalanadi: "Mustaqil so'zdan, shuni fonetik soyasi, formulasi asosida juftlash juda faol yo'l bo'lib, bularni deyarli har bir ot asosida tuzish mumkin; shunga ko'ra, bu tur juftlikni til birligidan ko'ra nutq birligi deb qarash to'g'riroq: setka-petka, daftar-saftar kabi[12]. Tilda bunday fonetik soyalarni hosil qilish qoliplari bor, ana shu qoliplar bilan istagan ot asosida juftlik hosil bo'ladi. Bu xil juftliklar ma'lum formula, model asosida tuzilar ekan, yuzaga kelgan konkret tuzilma (takror)lar nutq birligi, til egalari ongida mavjud bo'lgan modellarning mahsuli, hosilasi deb baholanishi zarur. Demak, takrorlarning modeli til birligi bo'lsa, shu modellar asosida paydo bo'luvchi konkret birliklar nutq birligidir.

8 O'sha manba: –B. 135 –136 .
9 G'ulomov A. G'. Morfologiya (Kirish). O'zbek tili grammatikasi, II tomlik, I -tom, T.: 1975. –B. 82 .
10 Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Морфология. М., 1988, –С. 3 –7.
11 Hojiyev A., "O'zbek tili so'z yasalishi tizimi" kitobida, T.:2007.–Б. 23.
12 Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: 2000. –B. 151 -153.

ZULFIYA POETIK MAKTABINING TARAQQIYOT TAMOYILLARI

Ma'mura Yusupova – direktor o'rinbosari,
Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi

***Annotatsiya**: Ushbu maqolada poetik maktab tushunchasi, adabiy maktablarning jamiyatda tutgan o'rni, shuningdek, shoira Zulfiyaning poetik maktabi haqida so'z yuritiladi.*

***Аннотация**: В данной статье рассматривается понятие поэтической школы, роль литературных школ в обществе, а также поэтическая школа поэтессы Зульфии.*

***Abstract**: This article discusses the concept of a poetic school, the role of literary schools in society, as well as the poetic school of the poet Zulfiya.*

***Kalit so'zlar**: ijodkor, tadqiqot, milliy, jadid, maydon, davr, darslik.*

***Ключевые слова**: творческий, исследовательский, национальный, современный, отраслевой, период, учебник.*

***Keywords**: creative, research, national, new, field, era, textbook.*

Bugungi globallashuv jarayonida badiiy adabiyotning ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy ahamiyati va ta'sir kuchini keng ommaga yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Ilm-fanning ayni paytdagi taraqqiyot bosqichi esa adabiyot namoyonlarining ijodi, adabiy merosini o'rganish, ular yaratgan poetik maktab tamoyillarini tahlil etishni taqozo etmoqda. Chunki ijodkor poetik maktabini o'rganish nafaqat uning, balki u yaratgan maktab vakillarining ijodkor sifatida shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, ijodining o'ziga xos jihatlari, ustoz-shogird an'analarini ommaga keng targ'ib qilishga zamin yaratadi.

O'zbek adabiyotida ayollar ijodi, ayollar she'riyatining o'z o'rni bor. IX asrda Nodirabegim, Jahon otin Uvaysiy, kabi mumtoz adabiyot namoyondalari sermahsul ijod qilgan bo'lsa, XX asrga kelib o'zbek adabiyotida Zulfiya poetik maktabi dovruq qozondi. U yaratgan maktab an'analari zamonaviy o'zbek lirikasi va publitsistikasini rivojlantirishga munosib hissa qo'shdi. Aynan ushbu poetik maktab negizida o'zbek xalqining ma'naviy-ma'rifiy hayoti, urf-odat va an'analari, uning milliy qiyofasi hamda adabiy hayotining aksini ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun ham Zulfiyaxonim adabiy merosini o'rganish ayni paytda aktual masala bo'lib qolmoqda.

Adabiyotshunos olim Begali Qosimov. "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining ilk bosqichi" maqolasida renessans davridagi adabiy muhit va adabiy maktablar, uning jamiyatimiz hayotidagi o'rni haqida atroflicha to'xtaladi: Milliy uyg'onish davri adabiyoti tom ma'noda yangilanish davri adabiyotidir. Xorazmda Ogahiy, Bayoni kabi ijodkorlar tashabbusi bilan tarjima maktabi maydonga keldi. O'nlab asarlar fors tilidan tarjima qilindi. Toshkentda mashhur hind eposi "Kalla va Dimna"ni Fazlulloh Almaiy (1852-1891), arab ertaklari "Ming bir kecha"ni Sidqiy Xondayliqiy (1884-1934) forschadan o'zbekchaga tarjima qildilar. Murodxo'ja domla tomonidan Sa'diy Sheroziy "Guliston"ining yangi tarjimasi amalga oshirildi. 80-yillarda L.N.Tolstoy, 90-yillardan A.S.Pushkin, A.A.Krilov nomlari Turkistonga kirib keldi. 1887-yili L.N.Tolstoyning "Odamlar nima bilan tirik" hikoyasi, 1899-yili Pushkin tavalludining 100 yilligi munosabati bilan uning "Bog'chasaroy fontani", "Shoir" asarlari tarjimasi "Turkiston viloyatining gazeti" sahifalarida bosildi. So'ngroq Saidrasul Aziziy (1866-1933), Aliasqar Bayramali Kalinin, Abdulla Avloniy (1878-1934) kabi mualliflarimizning usuli jadid

maktablari uchun tuzilgan darsliklariga kiritildi.

Birinchi jadid maktabiga Ismoil Gaspirali (1851–1914) 1884-yil Qrimdagi Bog‘chasaroy shahrida asos solgan bo‘lib, u o‘zi dastur tuzib, darslik yozdi. Ana shu darslik yordamida 40 kun ichida 12 o‘quvchining savodini chiqardi va bu maktab musulmon o‘lkalarida tez shuhrat qozondi. 1893-yilda Ismoil Gaspirali Buxoro amiri huzurida bo‘lib, unga ilm-fanning amirlik taraqqiyotida tutadigan ahamiyatini zo‘r berib tushuntirdi. Amir zo‘rg‘a bitta jadid maktabi ochilishiga rozilik berdi. 1898-yilda Qo‘qonda Salohiddin domla ikkinchi jadid maktabiga asos soldi. Shu yili To‘qmoqda ham shu tipdagi maktab ochildi. 1899-yili Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannon qori jadid maktabiga asos soldi. 1903-yilda Turkiston o‘lkasida 102 ta boshlang‘ich va 2 ta o‘rta jadid maktablari bor edi. Bunday maktablarning ochilishi keyinchalik to‘la gubernatorlik nazoratiga o‘tdi. Jadid maktablarining faoliyati endi nihoyatda og‘ir kecha boshladi. “Usuli jadid” maktablarining taraqqiyoti va ko‘lamining kengayishi, ayniqsa, mustamlaka Turkiston o‘lkasi sharoitida ancha og‘ir kechdi. Bu haqda Munavvarqorining sobiq o‘quvchisi, Anqara universitetining professori Ibrohim Yorqin (Ibrohim Orifxon o‘g‘li – 1902-1993) xotiralarida quyidagilarni yozadi: “1913-yilda Eshonxo‘ja Xoniyning maktabini bitirgach, Munavvarqorining ikki sinfli rushdiy maktabida o‘qigan yillarimizda Rusiya idorasi o‘quv inspektorlari maktabimizga to‘satdan kelib, foydalanayotgan kitoblarimizni tekshirardi. Ularning maqsadlari bizning maktabda mavjud bo‘lgan darslik va boshqa o‘quv kitoblarining Rusiya idorasi nuqtayi nazaridan zararlimi yoki yo‘qmi, shularni tekshirish edi”[1].

General gubernatorlik ma’murlari usuli jadid maktablarining keng quloch yozishiga qanchalik to‘siqlar qo‘ymasin, tabiiy-tarixiy jarayonni to‘xtata olmadi. Mana shunday og‘ir sharoitda o‘zbek jadid pedagoglari ona tili hamda milliy adabiyotni o‘qitishga millatning hayot yoki mamoti masalasi sifatida qaradilar, ona tili va adabiyot o‘qitishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqdilar. Afsuski, o‘sha davrdagi mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum bu ulug‘vor maqsadlarni amalga oshirishga yo‘l bermadi. Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda inson qadri ulug‘lanadigan adolatli, erkin va obod jamiyat, xalqparvar davlat, farovon hayot barpo etishga qaratilgan islohotlarimiz jadid bobolarimizning ezgu g‘oya va dasturlariga har jihatdan uyg‘un va hamohangdir. Shu bois, xalqimiz ozodligi va Vatanimiz ravnaqi yo‘lida aziz jonlarini fido qilgan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyati va merosini yangicha tafakkur asosida o‘rganish hamda targ‘ib etishga alohida e’tibor berilmoqda[2].

Ha, aslida adabiy maktab – biror bir buyuk so‘z san’atkori ijodining boshqa ijodkorlar uchun badiiy mahorat maktabi vazifasini o‘tashidir. Hirot adabiy muhitida aksariyat adiblar Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy atrofiga to‘planib, ular ijodini mahorat maktabi sifatida e’tirof qilishgan bo‘lsalar, XX asr Markaziy Osiyo yozuvchilarining ko‘pchiligi realistik asar yaratishda Abdulla Qodiriyga ergashganlar. Shuning uchun ham adabiyotshunosligimizda “Navoiy maktabi”, “Qodiriy maktabi” kabi tushunchalar shakllangan.

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, o‘z taraqqiyot davrini boshdan kechirayotgan “Ayollar adabiyotshunosligi”ga munosib hissa qo‘shgan ingliz adibasi Virjiniya Vulf sanalsa, o‘zbek adabiyotidagi ana shunday ayol ijodkor Zulfiyaxonimdir.

Shu kunga qadar shoira ijodi N.Karimov, T.Abdukarimov, S.Mamajonov, M.Sultonova, G.Umurova, Z.Erdanovlarning nomzodlik

1 Turdiyev.Sh. Ular Germaniyada o‘qigan edilar. – T.: 2006. 225-bet

2 Mirziyoyev Sh.“Jadidlar: Milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” konferensiyasi ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigi. https://president.uz/

dissertatsiyalarida o‘rganilgan. Tadqiqotchi G.Umurovaning "Zulfiya badiiy olami va poetik maktabi" nomzodlik dissertatsiyasida shoiraning badiiy olami va poetik maktabi uning lirikasi orqali tahlil etilgan. Shuningdek, unda ustoz-shogird an'analari, shoira ijodida motivlar ahamiyati va uning o‘ziga xosliklari haqida atroflicha so‘z yuritilgan.

Shuningdek, Zulfiya hayoti, ijodi va uning shaxsiyatini namoyon etuvchi N.Karimovning "Zulfiya. Ma'rifiy biografik asar", X.Umurovning "She'riyat malikasi", I.G‘afurovning "Zulfiyaxonim siymosi", "Adabiyot dunyosi", O.Sharafiddinovning "Sizni sog‘indim, Zulfiya opa!", O.Xojiyevaning "To‘rt tanho: Zulfiya, Muzayyana Alaviya, Saida Zunnunova, Kibriyo Qahhorova", A.Akbarovning "Adabiy portret", G‘.Musinaning "Zulfiyaning ijodiy yo‘li", "Zulfiya publitsistikasi", M.Sultonovaning "Ijod sahifalari", N.Vladimirovaning "Zulfiya tarjimon", A.Akbarovning "Qalb kuychisi", Q.Yo‘ldoshevning "Yoniq so‘z", J.Kamolning "Yoniq so‘z" kabi ko‘plab risola va maqolalari turkum to‘plamlari adabiyot ixlosmandlariga havola etilgan. Mazkur dissertatsiyaga yuqoridagi kabi ilmiy manbalar, shuningdek, Zulfiya izdoshlari hisoblanmish H.Xudoyberdiyeva, M.Ulug‘ova, O.Xojiyeva, Z.Mo‘minova, Q.Rahimboyeva singari ijodkorlarning shoira bilan suhbatlari, ularning xotira kitoblari, aytgan mulohazalari ham manba bo‘lib xizmat qiladi.

Olima Mashhura Sultonova o‘zining "Ijod sahifalari" kitobida Zulfiya ijodiga baho bergan ijodkorlar fikrlariga atroflicha to‘xtaladi. 1933-yili professor A.Sa'diy "Sotsialistik yosh naslning birinchi ijodiy qalamlari to‘g‘risida" maqolasida o‘z mulohazalarini bildirgan. Muallif yoshlar ijodini obzor qilar ekan, havaskor shoirlarning "Uchinchi bo‘g‘in" sarlavhali she'rlar to‘plamiga kirgan Zulfiyaning she'rlari haqida quyidagicha fikr bildirgan: Shu she'rlar ham bu qalamning tezda o‘sib kelaturgan san'atchi, yana tez o‘sish qobiliyatiga ega bo‘lgan bir qalam bo‘lganini ko‘rsatadi[3].

Endigina 18 yoshga kirgan shoira ijodiga nisbatan aytilgan bashorat rost bo‘lib chiqdi va shoiraning ijodi tez o‘sdi. Ulug‘ Vatan urushi davridan boshlab, Zulfiya ijodida vatan mavzusi ustuvorlik qilib, uning muxlislari ko‘payib bordi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, shu davrdan boshlab kitobxonlar ommasini Zulfiya asarlari bilan tanishtirish ehtiyoji ham tug‘ildi. Zulfiya asarlari rus tiliga tarjima etilib, 1943-yili "Vernost" nomi bilan alohida kitob shaklida nashr etildi. Kitobga katta sovet shoiri V.Lugovskiy so‘z boshi yozib, Zulfiya ijodi uchun harakterli so‘z yuritdi:

Avvalo tabiat, xususan O‘zbekiston tabiati katta, ba'zan esa yetakchi rol o‘ynaydi. Bu she'rlarda tabiat goh qudratli, goh nozik, ammo har vaqt gullarga burkangan va qushlarning sayrashi bilan to‘lgan bo‘lib, ular hamisha turmushning ulug‘vor nashidasi bilan sug‘orilgandir. Zulfiya she'rlarida bu tabiat mehribon onadek, mahbublardek lirik qahramonlarning hayoti bilan chambarchas bog‘langan. Keyingi yillarda Zulfiya ijodining nihoyatda tez suratlar bilan o‘sganligi, mazmunan boyiganligi, peyzajlarda shoiraning kuzatuvchanligi yetakchilik qilganini kuzatish mumkin.

Uzoq urush davrlarida Belorussiyaning mashhur yozuvchisi Yakub Kolos Toshkentda turgan chog‘larida Zulfiyaning kuzga atalgan she'rini o‘qib, unga "she'ringizni o‘qib, kuzni ham bahordek sevib qoldim",-deyishi shoira ruhini ko‘taradi.

Albatta, Zulfiya ijodiga u qatnashgan Mushoira davralaridagi yetuk shoirlardan tortib, oddiy kitobxon ham iliq fikr bildirgan. Zulfiya esa o‘z nomiga yuborilgan xatlar haqida, u yo bu asari haqida ijodkor do‘stlari, muxlislari tomonidan bildirilgan fikrlar haqida gapirishdan iymanadi, chunki shoira ularni shunchaki ko‘ngil uchun

3 Sultonova M. Ijod sahifalari.O‘zbekiston SSSR Fan nashriyoti. 4-bet

aytilgan gaplar deb biladi. Bu fikr esa shoiraning naqadar kamtarligidan dalolat beradi. Zulfiya umrining so‘nggigacha adabiyot ixlosmandlariga ustozlik qildi. Yosh ijodkorlarga keng yo‘l ochishda jonbozlik ko‘rsatdi. U Hamid Olimjon maktabida tahsil olganini shunday izohlaydi:

“Yirik shoir, benihoya mehnatkash, noyob intizom egasi, do‘stlariga mehribon, dushmanlariga ayovsiz Hamid Olimjon turmush o‘rtog‘im, bolalarimning otasi bo‘libgina qolmasdan, ayni chog‘da uyg‘un yo‘ldoshim va sezgir maslahatchim ham edi. Men undan fikrlashni, mehnat qilishni va she’r yozishni o‘rgandim, uning ijod maktabida ta’lim oldim”[4].

Bundan ko‘rinib turibdiki, Zulfiyaxonim turmush o‘rtog‘i vafotidan keyin ikkita qalamda sermahsul ijod qildi. Zulfiya poetik maktabi o‘zining uzoq va samarali faoliyati, o‘zbek adabiyoti va she’riyatining gullab-yashnashiga hissa qo‘shuvchi ijodkorlarni yetishtirib chiqqani va kelgusi avlod vakillari uchun ham ibratli adabiy muhit vazifasini o‘tishi bilan ahamiyatlidir.

4 Zulfiya.She’rlar. O‘zSSR davlat badiiy adabiyot nashriyoti. 1963-yil.

O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA MODERNIZM MUAMMOLARINING O'RGANILISHI

Dilbar Eshboyevna Tangirova – katta o'qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Uzoq asrlar davomida ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlarning paydo bo'lishi, badiiy ijod jarayonida turli tuman metodlarning paydo bo'lishi badiiy asarlarning adabiy tur va janrlarining ham rang-barang shaklda bo'lishi hamda yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Fikrni isbotlash uchun quyida adabiy tur va janrlarning turli davrlarda paydo bo'lishi hamda o'ziga xosliklari bo'yicha atroflicha to'xtalishga harakat qilinadi.*

Аннотация: *Возникновение социальных и политисческих изменений на протяжении долгих веков, появление различных приемов в процессе художественного творчества обусловили появление литературных видов и жанров художественных произведений в различных формах. Чтобы доказать это, ниже мы попытаемся кратко остановиться на возникновении и особенностях литературных типов и жанров в разные периоды.*

Abstract: *The emergence of social and political changes over many centuries, the emergence of various techniques in the process of artistic creation, led to the emergence of literary types and genres of artistic works in various forms. To prove this, below we will try to briefly dwell on the emergence and features of literary types and genres in different periods.*

Kalit so'zlar: *jahon adabiyoti, adabiy-nazariy jarayon, yangilik hamda zamonaviylik, jahonning ilg'or ijodkorlari.*

Ключевые слова: *мировая литература, литературно-теоретический процесс, новаторство и современность, передовқе творцы мира.*

Keywords: *world literature, literary-theoretical 'rocess, innovation and modernity, advanced creators of the world.*

Jahon adabiyotida modernizm metodi paydo bo'libdi hamki, adabiyotshunoslik ilmida u haқda doimo qizg'in bahs-munozaralar bo'lib kelmoqda. Hanuzgacha mazkur metod haqida alohida to'xtamga kelingani yo'q. D.Quronov aytganidek, bu borada aksariyat tadqiqotlar "ma'qullash-inkor qilish" shaklidan uzoqlashgani yo'q.

Shu o'rinda modernizm hamda modern adabiyotidan farqini anglab o'tish o'rinlidir. Adabiyotshunos Muhammadjon Xolbekov ushbu savolga to'xtalib, quyidagicha xulosalarga kelgan edi: " ...modernizm-bu qonun –qoidalariga , aqida va tamoyillariga ega bo'lgan adabiy oqim, jarayon tushunchasini ifodalasa, modern-bu zamonaviy, yangicha adabiyot ma'nosini anglatadi. ...modernizm XX asr G'arbiy Yevropa va Amerika abyotida kechgan adabiy-nazariy jarayon, ya'ni oqim deb tushunilsa, modern har bir milliy adabiyotda sodir bo'luvchi zamonaviy, yangicha uslub va tamoyillarning majmuasidan iboratdir"[1]. Xullas, modernizm keng ma'noda ishlatilib, adabiyot va san'atning umumlashgan tasnifi sifatida namoyon bo'lsa, modern adabiyoti atamasi aniq ma'noda- har bir milliy adabiyotlarda qo'llaniladigan yangilik hamda zamonaviylik yig'indisidan iborat tushuncha hisoblanadi.

Modernizm adabiy metod sifatida, ya'ni adabiyot va san'atning umumlashgan tushunchasi sifatida XIX asrning oxiri hamda XX asr boshlaridan paydo bo'libdiki, bu borada qator tortishuvlar, bahslar, ilmiy xulosa hamda qarashlar dunyo yuzini ko'rdi. Ayrim tadqiqotchilar uni badiiy ijodning alohida metodi sifatida talqin etgan bo'lsalar, ayrimlar uni faqat adabiy metod sifatida qarashni ma'qul, deb bildilar. Bu boradagi tadqiqot hamda bahs-munozaralar eng avvalo tabiiy ravishda G'arbiy

1 Xolbekov M. XX asr modern adabiyoti manzaralari. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2014. – B. 14.

Yevropa hamda Amerika tadqiqotchilari orasida paydo bo‘la boshladi. Modernchilar bu dunyoni o‘zgartirish lozim. Lekin ular bu dunyoni "... tadbirlar bilan tuzatib bo‘lmaydi deb butun e’tiborni botinga qaratadi.Inson real hayotda emas, balki xayolidagina baxtli bo‘la oladi..."[2], deb o‘ylaydilar. O‘zbek adabiyotshunosligida bo‘lgani kabi jahon adabiy jarayonida ham modernizm hamda uning aqidalarini tushunadiganlar hamda tushunmaydiganlar guruhlari paydo bo‘ldi. Bu haqda Ispan faylasufi O.Gesset shunday degan edi: "... yangi san’at, ya’ni modern san’ati odamlarni ikkiga bo‘lib tashladi: uni tushunadiganlar va tushunmaydiganlarga, tushunadiganlar kamchilikni tashkil qiladi, tushunmaydiganlar esa yangi san’atni yomon ko‘radi"- deydi.

O.Gesset bu boradagi qarashlarini davom ettirib, modernizmning realizmdan o‘xshash hamda farqli jihatlarini o‘zaro taqqoslab quyidagi fikrlarni bildiradi. Uning fikricha, realizm borliqni aks ettirsa, modernizm yangi reallik yarataman deydi. Chunki mavjud reallikni tuzatib bo‘lmaydi. Modernizm olamni xaos deb bildi va undan qochdi.Tashqi dunyoda go‘zallik yo‘q, uni botindan qidirish kerak , deya butun boshli modernizm metodining asosiy mohiyatini ifodalashga harakat qiladi.

Shuningdek, jahon adabiyotshunoslaridan Yung K.G., A.Genis, Borev Y, kabi qator olimlar modernizm va uning kelib chiqishi borasida fikrlar bildirdilar. Adabiyotshunos Ulug‘bek Hamdam ularning qarashlarini umumlashtirib, quyidagi fikrni bildirgan edi: "Chindan ham, XX asrga kelib insonning turmush tarzi sivilizatsiya natijasida misli ko‘rilmagan darajada o‘zgardi, murakkablashdi, odamlarning o‘zaro ruhiy-ma’naviy muloqotiga putur etdi-kamaydi, natijada ruhiy muloqot ehtiyoji insonning ichiga hibs etildi. Tashqaridan kutilgan baxt, najot ikkita jahon urushi oqibatida sarobga aylandi va inson ўz ehtiyoji bilan yolg‘iz qoldi. Modernizmning ruhiy-psixologik asosi shu nuqtadan boshlanadi"[3]. Bu haqdagi qarashlarini yakunlab Ulug‘bek Hamdam quyidagi xulosalarga keldi: "U (modernizm- T.D) ma’lum muddat davrning umumiy, universal kayfiyati darajasiga chiqdi. U realizmga qarshi emas, balki realizm zamirida (materialida) barpo etilgan zamonaviylikning yangi qasri bo‘lib dunyoga keldi, yashadi, yashamoqda".

Modernizm masalalari borasida dunyo olimlari qator taklif va mulohazalarni bildirayotgan bir vaqtda, jahonning ilg‘or ijodkorlari mazkur metodda ijod qilib, metodning turli tuman afzal tomonlarini isbotlab bera boshladilar. Hatto bu metodda ijod qilib, adabiyot va san’at bo‘yicha Nobel mukofotini ham qo‘lga kiritgan adiblar ham etishib chiqdilar. Xususan, fransuz yozuvchisi A. Kamyu ana shunday mukofotni қo‘lga kiritgan ijodkor bo‘lib, uning modern yo‘nalishdagi roman janrida yaratilgan "Begona","Vabo", "Kaligula" dramatik asari hamda "Sizif haqida afsona", "Isyon qilayotgan inson" esselari uning mukofotlanishiga sabab bo‘ldi. Ҳatto Kamyuni ko‘pchilik "Yevropaning vijdoni", deya ulug‘lashadi.

Nemis tilida ijod qilgan, yahudiy millatiga mansub Frans Kafka esa o‘zining "Jarayon" romani, "Evrilish", "Jazo koloniyasi" hikoyalari, "Otamga maktublar", "Melinaga maktublar" kabi epistolyar janrdagi xatlari bilan modern adabiyotida mustahkam o‘rin egallagan.

Shuningdek, Joys, Bekket, Prust, Vulf, Folkner, Yeliot kabi jahon adabiyoti vakillari ham modernizm metodining gullab yashnashiga katta hissa qo‘shdilar.

Xulosa qilib aytganda, modernizm metodi XIX asrning 2-yarimi va XX asr boshlarida yuzaga kelgan metod bo‘lib, u o‘z o‘rnida jahonning qator xalqlari adabiyotshunosligida bo‘lgani kabi o‘zbek adabiyotshunosligida ham turli tuman tarzda baholanib kelindi hamda uni yoqlovchilar yoxud unga qarshi bo‘luvchilar guruhini yuzaga keltirdi.

2 Гессет Х.О. Дегуманизация искусства.-М.: Радуга, 1991.

3 Hamdam U. Jahon adabiyoti: Modernizm va postmodernizm. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – B. 17.

ZULFIYA SHE'RLARIDA FRAZEMALARNING QO'LLANILISHI

Shaxribon Gulmurodovna Musurmankulova – katta o'qituvchi,
Guliston davlat pedagogika instituti
Hamrooy Qahramon qizi Safarova – talaba,
Guliston davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada iboralar va ularga xos xususiyatlarning badiiy matndagi roli aniqlanib, muayyan umumlashma xulosalarga kelingan hamda iste'dodli shoiramiz Zulfiya Isroilova she'rlarida qo'llangan ba'zi iboralar badiiy, leksik-semantik jihatdan tahlil etilgan.*

Аннотация: *В данной статье определяется роль фраз и их характеристик в художественном тексте, делаются некоторые общие выводы, а также анализируются некоторые фразы, использованные в стихотворениях нашей талантливой поэтессы Зульфии Исраиловой, с художественной, лексико-семантической точки зрения. вид.*

Abstract: *This article identifies the role of phrases and their characteristics in the literary text, draws certain general conclusions, and analyzes some phrases used in the poems of our talented poet Zulfiya Isroilova from an artistic, lexical and semantic perspective.*

Kalit so'zlar: *frazeologizm, frazema, ibora, emotsionallik, turg'un birikma, leksik, kechinma, personaj ruhiyati, obraz.*

Ключевые слова: *фразеологизм, словосочетание, выражение, эмоциональность, устойчивое сочетание, лексика, опыт, склад ума персонажа, образ.*

Keywords: *phraseology, phraseology, expression, emotionality, stable combination, lexicon, experience, character psyche, image.*

"Frazeologizm til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birlikdir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko'rinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli ma'noviy tabiatga ega bo'lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi: tepa sochi tikka bo'ldi, sirkasi suv ko'tarmaydi, o'takasi yorildi, do'ppisi yarimta, ikki gapning birida, boshga ko'tarmoq va boshqa.

Frazeologizm ibora, frazeologik birlik, turg'un birikma, barqaror birikma, frazeologik birikma, frazema atamalari bilan ham yuritiladi.

Frazeologiya leksikologiya bo'limining tarkibiy qismidir. Frazeologizm tashkil etuvchisiga ko'ra qo'shma leksema, so'z birikmasi va gapga o'xshaydi. Biroq ular ko'proq qo'shma leksema kabi til jamiyati ongida tayyor va barqaror holda yashaydi. Frazeologizmlar tilshunosligimizda muayyan so'z turkumi bo'yicha tasnif qilinmagan va grammatik xususiyati yetarli darajada o'rganilmagan"[1].

Frazemalar tushuncha ifodasiga ko'ra lug'aviy birliklarga, shaklan birikma yoki gap ko'rinishida bo'lishiga asosan barqaror birikmalarga mansubdir. Frazemalar tarkibini tashkil qiluvchi leksemalar yaxlit bir lug'aviy ma'no ifodalashga xizmat qiladi. Frazemalar lisoniy ongda muayyan belgi, narsa-buyum, harakat-holatni aks ettiradi. Frazemalarning belgi va harakat-holatni aks ettirishi faol kuzatiladi.

Frazemalar tilning emotsional-ekspressiv funksiyasini namoyon qiladi, axborot berishdan tashqari fikrni ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladi[2].

"Har qanday chinakam ijodkor uchun so'z va frazeologizmlar bu fikrlarni aytish, kechinmalarni ifodalash vositasigina emas, balki yashash tarzi, yashash shakli hamdir. Har bir so'z yoki frazema badiiy asardagi g'oyaviy

1 Sayfullayeva R., Mengliyev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2011. -B. 98-99.

2 Musurmankulova Sh. O'zbekcha va turkcha frazemalar korpusining lingvistik ta'minoti. Filol. fan b.fals.dok. diss. –Toshkent, 2024. –B.57

– estetik maqsadga koʻra muayyan maʼno kasb etadi, zamiridagi mazmun orqali oʻzining yangi – yangi qirralarini, maʼnolarini namoyon qiladi"[3]. Xuddi shu xususiyatlar isteʼdodli shoiramiz Zulfiyaxonim ijodida ham uchraydi, uning sheʼrlaridagi estetik tuygʻularni goʻzal tarzda kitobxon qalbiga singdiradi. Shuning uchun ham Zulfiya sheʼrlari doimo xalq qalbida, adabiyotshunos, tilshunoslar nazarida. Zulfiya sheʼriyatida frazemalarning qoʻllanilishiga nazar tashlaydigan, uni tahlil etadigan boʻlsak, undagi maʼno nozikliklari – yuraklarga oʻt yoqishi, ongimizga ziyo tarqatishiga guvoh boʻlamiz:

Tunda qancha xayol, qancha kuy,

Men berilib quloq solaman.

Soʻz topolmay ifodasiga,

Rang axtarib shoshib qolaman.

("Tun" sheʼridan)

Keltirib oʻtilgan parchalardan koʻrinadiki, shoira asaridagi til xususiyatlari, frazeologik va lisoniy birliklari sheʼrning emotsionalligini oshirib bergan. Parchadagi birgina "quloq solmoq" iborasi orqali parcha mazmuni ochib berilgan, yaʼni tunda qanday holat boʻlmasin ularni jim, berilib kuzatishi va ularni ifodalash uchun soʻzlar emas, balki ranglar qidirishi, his-tuygʻularini ranglar orqali ifoda etishga kirishadi. Shoira sheʼrlaridagi turgʻun birikmalar – frazemalar oʻzgartirilmagan, buzilmagan holda shakliy jihatidan kengaytirilib, yoki qisqa shaklda beriladi. Buning sababi shoira emotsiyasi.

Ota boʻlib soldim men yoʻlga,

Ona boʻlib mehrimga oldim.

Mana, yurtga oʻgʻil oʻstirgan

Bir badavlat boy boʻlib qoldim.

("Oʻgʻlim, sira boʻlmaydi urush" sheʼridan)

Sheʼriy parchada "yoʻlga solmoq" iborasi mavjud boʻlib, unda shoira farzandini toʻgʻri yoʻlga boshlash, hayotning oʻnqir-choʻnqir yoʻllarini qanday bosib oʻtishini oʻrgatishi, oʻzi yashayotgan jamiyatga, xalqqa nafi tegadigan qilib tarbiyalashi kerakligini oʻziga burch deb bilishi ham chuqur maʼno kasb etadi.

Qalb boʻlganda yiroqda

Iroda ekan ojiz.

Doʻstlar ham koʻp atrofda,

Ammo men yakka yolgʻiz...

Birdan qalbim keksarib,

Qon ham qochdi yuzimdan...

Sen, sirdoshni axtarib,

Xayol ketar izingdan.

("Sen qaydasan, yuragim" sheʼridan)

Shoira sheʼrlarida ruhiy emotsionallik, uning holati va vaziyatni toʻgʻri ifodalashga, oʻzining xos tabiatini boʻrttirib koʻrsatishiga koʻproq urgʻu beradi va, albatta, buni ifoda etish uchun adabiy tilimizda mavjud boʻlgan frazemalardan foydalanishi qoʻl keladi. "Yuzidan qon qochmoq" iborasi ruhiy emotsionallikni, ekspressivlikni ifoda etmoqda. Misra soʻngida kelgan "xayol(i) ketmoq" iborasi esa kuchaytirish maʼnosida, xayollari tarqoq boʻlib qolganini ifoda etmoqda. Misollardan koʻrinadiki, shoira oʻz asarlarining tilini juda chuqur bilgan va oʻzbek tilida mavjud boʻlgan til boyliklari qatoriga kiruvchi frazeologizmlarni ham asarlarida oʻz oʻrnida qoʻllay olgan.

Shirin ekan farzand, u bilan

Oilaga kirar ekan jon.

Koʻz-koʻzga tushishi bilan

Mehri balqir ekan bepoyon.

("Farzand" sheʼridan)

3 "Zulfiya ijodining maʼnaviy-maʼrifiy ahamiyati". –Toshkent, 2015 –B.180

Albatta, ko‘z bilan bog‘liq 40 dan ortiq iboralar bor va ularning har biri bir ma’no ifoda etadi. “Ko‘z-ko‘zga tushmoq” hamda “jon kirmoq” iboralari bu yerda mehr-muhabbatni tarannum etib kelmoqda. Oila bag‘riga qaytar ekan, ular ko‘zida ko‘rgan mehr unga yana hayot bag‘ishlashi, yashashi, ijod qilishi uchun yagona motivatsiya bo‘lganligini tasvirlamoqda. Bundan tashqari, Zulfiyaxonim bu yerda ma’noni ham, iborani ham o‘rinli qo‘llab, yana oiladagi mehr-muhabbat ko‘zlar orqali ifoda etishini aytmoqda. So‘zlashuv jarayonini ham, badiiy adabiyotni ham iboralarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Iboralarsiz til ta’sirchanligi yo‘qola borishi yoki sun’iylashish holati yuzaga kelishi, asarlar o‘z ekspressivligini yo‘qotishi mumkin.

Sening pok parchangga bosib kirdi yov,

Bizning saodatga solmoq bo‘ldi chang.

Qo‘zg‘al, qutqar deding, qo‘zg‘aldi el-xalq,

Har qarich yer uchun qildik qattiq jang.

“Mening Vatanim” she’ridan)

Vatan...bir qarich yerini yovlardan qizg‘anadigan o‘lkamiz. Shoira ham tildagi eng chiroyli, nozik til xususiyatlari, lisoniy birikmalardan, frazemalardan yetarli darajada foydalana olgan. She’rda esa “chang solmoq” iborasi yovlar va xalq o‘rtasida bo‘lgan kurash va Vatan taqdirini tasvir etadi. Guvohi bo‘lganimiz kabi shoira adabiy til qoidalarini, normalarini juda yaxshi bilgan.

Ikkimizga ma’lum bir qudrat

Yillar o‘ta senga tortadi.

Unutay deyman-u, faqat

Dilda uning o‘ti ortadi.

Ham tabiat, ham do‘st, ham raqib,

Barchasini qoldirib dog‘da,

Ko‘rishsag-u, yana tirilsa,

O‘sha o‘lgan bo‘lsa dudoqda.

(“Sog‘inganda” she’rida)

Shoira ijodining asosiy mavzularidan biri bu sog‘inch. Iboralar orqali ta’sir doirasini oshirib tasvirlash shoira ijodining bir yo‘nalishi deb qarasak, adashmagan bo‘lamiz. Nega va nimani “dog‘da qoldirib” ketmoqchi? Buning sababi nimada? Barchasiga bir so‘z javob – “Sog‘inch”. Aslida frazemalarning orasida insonning ruhiy holatini aks ettiruvchi leksemalari ham mavjud. Bularning ramziy ifodasini qog‘ozga tushira olgan Zulfiyaxonim Isroilova til va adabiyotni ham birlashtira olgan, lisoniy birikmalarni adabiyotda go‘zal shakllarda qo‘llay olgan birinchi ayol shoira bo‘lib qoldi. “Yozuvchilar, shoirlar, tilshunos olimlar frazeologik birliklarni tilimizning nodir, bebaho boyligi, xalq donoligining xazinasi, deb hisoblaydilar. Chunki iboralar nutqni, ayniqsa, badiiy nutqni jonlantiradi, uni obrazli, emotsional, bo‘yoqdor qiladi, iboralar fikrni qisqa, ixcham shaklda ifodalash vositasi bo‘lib xizmat qiladi”[4]. Darhaqiqat, buning isbotini yuqorida, shoira ijodining tahlil jarayonida ko‘rib chiqdik.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, eng yaxshi badiiy asar, ta’sirchanlik doirasi keng bo‘lgan she’r butun adabiyot ixlosmandlari, kitobxonlar diqqat e’tiborida turadi. Asarni qalbga yaqin va yuksak tuyg‘ular bilan ifoda eta olish haqiqiy iste’doddir. Yuqorida keltirilgan fikrlar ayni Zulfiyaxonim she’rlarida o‘z aksini topib, beqiyos ahamiyat kasb etmoqda hamda asar kuchini boyitmoqda. Zulfiya Isroilova o‘z she’rlarida tilning barcha sathidan, butun jozibasidan foydalana olgan. Qalbining tub-tubidagi hislarini ham qog‘ozga tushira olgan ijodkor. Zulfiyaxonimning boy va kuchli merosidan bahramand bo‘lish bugungi kun yoshlarini komillik sari yetaklashi ham mubolag‘a emas.

4 “Zulfiya ijodining ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati” – 24.04.2015 –B.181

TURKUM ROMANLARDA BADIIY NUTQ MASALASI

Dilnoza Nematullayevna To'rayeva –f.f.b.f.d.,
dotsent, Guliston davlat universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada turkum romanlarda badiiy nutq masalasi, badiiy asar tilining o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, tarixiy asarlarda xalq og'zaki ijodiga murojaat yetakchilik qilishi, badiiy tasvir vositalari, frazeologik birikmalarning ishlatilishi, harakatlanayotgan personajlar xarakterining to'laqonli tasvirlashda qo'l kelishi tadqiq etilgan. Asarda persanaj nutqining ahamiyati, turkum asarlarning tili bilan bog'liq nazariy qarashlar umumlashtirilgan.*

Аннотация: *В статье рассматривается проблема художественной речи в серийных романах, специфика языка литературных произведений, а также доминирование народных устных традиций в исторических произведениях, использование художественных средств выразительности, фразеологических единиц в полноте изображения персонажей. движущихся персонажей. В работе обобщены теоретические взгляды на значение речи персонажей и языка литературных произведений.*

Abstract: *This article examines the issue of artistic speech in serial novels, the specific features of the language of the literary work, as well as the dominance of folk oral traditions in historical works, the use of artistic means of expression, phraseological units in the full description of the characters' characters. The work summarizes the importance of character speech and theoretical views related to the language of serial works.*

Kalit so'zlar: *badiiy nutq, badiiy asar tili, roman, romanchilikda turkumlilik, adabiy turkum, sikl, sujet, personaj, bosqichlilik, tadrijiylik.*

Ключевые слова: *художественный дискурс, язык художественного произведения, роман, серия в романоведении, литературная серия, цикл, тема, персонаж, градуализм, постепенность.*

Keywords: *artistic speech, language of fiction, novel, serialism in romance, literary category, cycle, plot, character, staging, evolutionism.*

Badiiy asar tili uning mohiyatini anglatuvchi birlamchi unsurlardandir. Yozuvchi ijodiy niyati asar tili orqali voqelanar ekan, uni o'z ifoda uslubi orqali badiiylashtiradi. "Badiiy nutq shunchaki informatsiya yetkazmaydi, balki lisoniy obrazlar qatorini davriy ketma-ketlikda yaratib boradi va provardida o'quvchini yalang fikr-xulosaga emas, badiiy voqelikka ro'baro' qiladi. Shu bois ham o'quvchi o'sha badiiy voqelik haqida shunchaki ma'lumotga ega bo'libgina qolmaydi, uning ichida yashab, his qilib o'tadi"[1]. Ko'rinadiki, badiiy asar tilining asosiy vazifasi kitobxonga biror ma'lumotni yetkazmaydi, aksincha, o'sha olamga yetaklaydi. Uning sir-sinoatlarini anglashga, his qilishga undaydi, estetik qudratini ko'rsatadi. Yozuvchi yaratgan obrazlarini dastlab qanday tasvirlasa, uning emotsional munosabati kitobxonda o'zi ifodalaganidek taassurot uyg'otadi. Obraz xarakteriga xos ko'zga tashlanib turadigan jihatlar ularni kashf qilishga imkon yaratadi.

Yozuvchi tarixiy mavzudagi asarlarda qalamga olinayotgan davr kaloritini berishda milliy tilning turli qatlamlariga murojaat etadi. Tarixiy shaxslar nutqini individuallashtirishda, tasvir predmetiga munosabatni ifodalashda arxaizm va istorizmlardan unumli foydalanadi. Tarixiy mavzudagi asarlarning zaruriy shartlaridan biri ham ularning tili masalasidir. Badiiy asarga mos til tanlanmas ekan, uning badiiy quvvati sustlashadi. Tarixiy davr, unda ro'y bergan voqealar badiiy talqinida eskirgan so'zlarni ishlatilishi meyor sanaladi. Ularning ishtirokisiz davr hayotini berishning imkoni yoq. Tarixiy asarda qaysi davr, qaysi muhit, qaysi joy tasvirlanishi,

1 Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent. Noshir, 2019. – B.169.

narsa-buyum, hodisalar, qahramonlarning nasl-u nasabi, mansabini ifodalovchi eskirgan so‘zlardan foydalanish zaruriy shartlardan biridir. O‘tmishning to‘laqonli va haqqoniy manzarasini yaratishda badiiy asar tilining o‘rni katta. O‘sha davr kishilari nutqi orqali jonlantilisagina tasvirlangan makon va zamon ko‘z o‘ngimizda reallashadi. "Badiiy asarda qo‘llangan obrazli ifodalar, badiiy tasvir vositalari, frazeologik birikmalar, xalq og‘zaki ijodi namunalari – maqol, matal, rivoyat va hikoyatlar ijodkorning iste'dod qirralarini, badiiy tafakkuri va syujet qurish mahoratini ko‘rsatuvchi omillardan sanaladi"[2]. Haqiqatdan yozuvchi, badiiy asar matnini xalq og‘zaki ijodi namunalaridan, badiiy tasvir vositalaridan bahramand etib, mazmunga mos tarzda mohiyatni yoritishga yo‘naltirgan holda namunalarini tanlay olsagina, uning o‘ziga xos ijodiy yo‘li, betakror uslubi ko‘zga tashlanadi. Tarixiy asarlarda ham xalq og‘zaki ijodiga murojaat yetakchilik qiladi. Badiiy tasvir vositalari, frazeologik birikmalarning ishlatilishi harakatlanayotgan personajlar xarakterining to‘laqonli tasvirlashda qo‘l keladi. Asarda persanaj nutqining ahamiyati juda katta. Obraz real hayotning bir bo‘lagi ekan, uning yoshi, nasl nasabi, kasb-kori, tafakkuri tili orqali oydinlashadi.

"Yozuvchining badiiy til vositasida obraz, portret, xarakter, peyzaj yaratish, mohiyatni yoritishda zarur so‘z va iboralarni qo‘llay bilishi, kishi tasavvurida konkret voqea-hodisani gavdalantira olishi muhim ahamiyat kasb etadi"[3]. Ta'kidlanganidek, ijodkorning iqtidori, eng avvalo, tilni meyorida va o‘z ornida ishlata bilishi, badiiy to‘yintirilgan, mag‘zi to‘q so‘zlarni o‘rnida qo‘llay olishi, turli badiiy tasviriy vositalar orqali jonli, obrazli ifodalar yaratib, shunga mos umumlashma fikrni bayon qilishida ko‘rinadi. Badiiy asar tili bilan bog‘liq bu masalani "Tanazzul" va "Qiyomatga qolmagan qasos yoxud qabrdan chiqqan qul" turkum romanlarini qiyosiy tahlil qilish asnosida oydinlashtiramiz. Har ikkala roman ham tarixiy mavzuda ekanligi, uning hajman yirik turkum asarlar sirasiga kirishi, aynan ikkala asarda ham bitta zamon – xonliklar davri qalamga olinganligi bu asarlarni qiyosiy o‘rganishga imkon beradi. Badiiy asar tili masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, tarixiy turkum romanlar badiiy maydoni keng bo‘lishiga qaramay, ularda shunga yarasha mazmunning ham salmog‘ katta bo‘ladi. Unda ilgari surilgan g‘oya tarixiy asar qonuniyatiga ko‘ra, til orqali moddiylashadi. Mazmunning moddiylashuvi badiiy til imkoniyatiga bog‘liq ekan, uning salmoqdor bo‘lishi yozuvchi mahoratiga bog‘liq.

Yetti kitobdan iborat "Tanazzul" turkum romanida davr ruhiga mos badiiy asar tili yaratilgan. Ammo uning asosiy qismini dialektizmga ajratilishi, personajlarning nutqiga xos bir xillikni yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Natijada o‘sha qahramonlarning bir-biridan ajralib turishiga soya solgan. Ammo asarda maqol va naqllardan, frazalogik birliklardan, turli badiiy tasvir vositalaridan o‘rinli foydalanishi asar tilini boyitib, uning badiiyatini oshirishga xizmat qilgan. Turkum romanda obrazlar soni ancha ko‘p, ammo shunga yarasha har birining xarakteriga mos nutqini yaratish ham ancha mushkul vazifa. "Tanazzul" romanida badiiy nutq masalasi ijodiy imkoniyat darajasida uddalangan deyish mumkin. Masalan, yozuvchi asarda Xudoyorxon, Musulmonqul, Mallaxon, Hokimoyim, Saidbek kabi obrazlar xarakterini badiiy til imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda o‘ziga xos tarzda talqin etgan.

"Xudoyorxon, o‘n besh-o‘n olti yoshlar atrofida bo‘lishiga qaramasdan, o‘zining yoshidan katta ko‘rinar, ovozi do‘rillashga o‘tgan, mo‘ylovlari endi sabza ura boshlagan, tabiatan qaysarroq, o‘qish-yozishdan ko‘ra otda chopishni,

2 Холдоров Д. Ижод моҳияти – услуб хосияти. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2017. – Б.21.

3 Расулова У. XX аср ўзбек қиссачилиги (поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари) фил. фан. док. дисс. – Тошкент. 2020. – Б.214

qilichbozlikni, ov qilishi xush ko‘radi. Saidbek shaxzodadan farqli o‘laroq – vazmin, mulohazali, bo‘sh vaqtini kitob mutolaa qilish bilan o‘tkazar, fors, arab tillarida erkin so‘zlashardi”[4]. Asardan olingan mazkur parchada ikkita obraz xarakteriga ishora qiluvchi jihatlarni aks ettiruvchi siqiq ifoda uslubi. Bunda yozuvchi tomonidan taxtga o‘tirishi arafasidagi o‘spirin Xudoyorxon portreti mahorat bilan chizilgan. Xudoyorxonning o‘n besh-o‘n olti yoshlar atrofida bo‘lishiga qaramay, o‘zining yoshidan katta ko‘rinishi jismonan baquvvatligini hukmdorlarga xos savlatga ishora qilsa, ovozi do‘rillashi, mo‘ylovlari sabza ura boshlagani, tabiatan qaysar ekanligi orqali uning yoshiga mos holatini ko‘rsatishga uringan. O‘qish-yozishdan ko‘ra otda chopishni, qilichbozlikni, ov qilishni xush ko‘rishi esa uning ilm olishdan ko‘ra, xarb ishini o‘rganishga moyilligi kelajakda hukmdorlarga xos hislat sifatida tasvirlangan. Saidbekning vazmin, mulohazali ekanligi, kitob mutolaa qilishga qiziqishi, qator tillarning bilishi uning kelajakda dunyo ilmini o‘rganishiga, o‘zini egallagan bilimi bilan hukmdor yonida unga hamrohlik qilishiga loyiq xarakter sifatida talqin qilingan. Yozuvchi tomonidan Musulmonqul portreti ham obraz xarakteriga mos qilib tasvirlangan. “Musulmonqul o‘rta bo‘yli, balandroq, bug‘doyrang, qisiq ko‘zlarining orasi tekis, siyrak cho‘qqi soqol, tishlarining orasi ochiq, yoshi o‘tinqirab qolishiga qaramay, mushakdor baquvvat, qishin-yozin boshida oq barra qalpoq, qora chakmoning ustidan qayish kamar bog‘lab, sopi toshlar bilan bezatilgan qilich taqib olgan. Bir vaqtlar ko‘pkarida otdan yiqilib, chap oyog‘i mayib bo‘lgan, shundan oqsoqlanib yuradi”[5]. Yozuvchi Musulmonqulning bug‘doyrang tusga egali, ko‘zlarining qisiqligi kelib chiqishi qipchoq urug‘idan ekanligiga, siyrak cho‘qqi soqoli va tishlarining orasi ochiqligi orqali esa obrazdagi salbiy xislatlarga ishora qiladi. Mushakdor baquvvatligi Musulmonqulning xarb ishida tajribali ekanligini bildirib, qishin-yozin boshida oq barra qalpoq, qora chakmoning ustidan qayish kamar bog‘lab, sopi toshlar bilan bezatilgan qilich taqib yurishi orqali unda o‘ziga xos ishonch va kibor borligidan dalolat beradi. Ma’lum bir davr Xudoyorxon soyasida turib Qo‘qon xonligiday katta davlatni boshqargan obraz xuddi shunday ifoda uslubi orqali badiiy asardan o‘rin oladi.

“Badiiy nutq orqali voqelanuvchi tasvirda bo‘rtib turgan hissiy munosabat yozuvchiga o‘quvchining qahramonlariga o‘zi istagandek munosabatda bo‘lishini, asrni o‘zi istagandek tushunilishini ta’minlash imkonini beradi. Demak, epik asarda emotsional tonallikning muttasil o‘zgarib, tovlanib turishi ko‘zda tutilgan mazmunning ifodalanishida ham, asarning qabul qilinishida ham muhim ahamiyatga ega”[6]. Obraz yaratish vositasi til ekan, ijodiy imkoniyatidan foydalangan ijodkor bu unsur vositalari orqali badiiy asar salmog‘ini yanada oshiradi. Yaratgan obrazlari orqali ko‘zlagan ijodiy niyatini kitobxonga ham singdirish imkoni bor. Jumladan, Soyim Is’hoq ham “Qiyomatga qolmagan qasos yoxud qabrdan chiqqan qul” turkum romanida azaliy haqiqat: yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurash qalamga olingan. Yaxshi insonlarni qilgan ezgu ishlari yomonlik urug‘ini tarqalishiga imkon bermasligi asar mohiyatiga singdirib yuborilgan. Bu hayot haqiqati badiiy olamda ro‘y bersa-da, uning hayotiy haqiqat qatidan sizib chiqqanligi anglashilib turadi. Asarda Buxoro amiri Nasrulloxon tarixiy shaxs emas, badiiy obraz sifatida harakat qiladi. Yozuvchi asar boshidanoq uni “qassob” laqabini olgan Nasrullo ekanligiga alohida urg‘u beradi va asar yakuniga qadar uning qilgan ishlari “qassob”ga xos xislat bilan “ziynatlanadi”. “Bu qassob rahm-shafqat hissidan uzoq – boshlariga aynan naymanlarning kunini solishdan toymasligini bilishardi”(32-b),

4 Саъдихон Мавлахон ўғли. Таназзул. – Тошкент: Ўқитувчи, 2019.1- китоб, – Б. 23.
5 Саъдихон Мавлахон ўғли. Таназзул. – Тошкент: Ўқитувчи, 2019. 1- китоб, – Б. 12.
6 Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent. Noshir, 2019. 173-bet.

"Nasrulloning g'azabi qo'ziganida hech kim va hech narsa ko'rinmasdi: ro'parasida onasi tursa ham irkilmiy jallodga topshirib yuborardi"(40-b), "Amir Nasrullo odam o'ldirishning barcha usullarida – osish, chopish, bo'g'ishlardan tashqari, baland minoralardan irg'itish, asov otlarga sudratish, qopga solib, chuqur suvlarga cho'ktirish kabi ko'pgina turlaridan shafqatsizlik bilan foydalangan. Ammo aybdorni uloq o'rnida ko'pkariga tashlattirmagandi" (171-b), "Qassobdi fe'lini bilmaydig'onday gapirasiz, – o'pkalandi yuzboshi. – Uni tushunish mushkul, ko'klam havosiday o'zgaruvchan: bir qarasangiz chaqmoq chaqib, sel quyadi, bir qarasangiz qor-yomg'ir..." (223-b) romanning birinchi kitobidan olingan mazkur parchalarda uning xarakteriga berilgan chizgilar ochiq ifodalanadi. Obraz xarakteri shu darajada tushunarsiz jumboqligi, qor va yomg'ir kabi xohlaganida yog'ishiga qiyoslanadi. Yozuvchi tomonidan Nasrulloxonga berilgan ta'riflarning kulminatsiyasi sifatida birgina "ro'parasida onasi tursa ham irkilmiy jallodga topshirib yuborardi" jumlasini olib, obraz haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin. Yozuvchi bu obraz xarakterini shu tariqa tarixiy haqiqatga mos ravishda tasvirlashga harakat qilgan. Bunda mutanosiblik qay darajada o'zini oqlaganligi yozuvchi ijodiy imkoniyatlari orqali bo'y ko'rsatgan. "Shunqorbek har uchrashganida Muzaffarning yangi bir xislatini aniqlardi. U Otasining aksi edi: ancha xushmuomala, jiddiy, o'rni bilan ustamonlik ham qilarkan. Baqir-chaqir, g'azab, taadiga (zug'um) xushi yo'q"[7]. Sayid Muzaffarxon haqidagi mazkur fikrlar esa uning otasiga qaraganda ancha xushmuomala, ga'zabnok emasligini ko'rsatadi. Butun asar davomida bu obraz xarakteri haqidagi qarash shundayligicha davom etadi.

Romanda Abduqayum to'qsoba xarakterini yaratishda ham yozuvchi badiiy til imkoniyatlaridan unumli foydalangan. Bu obrazda farzandi bilan bog'liq hayotning og'ir sinovlariga duch kelganligi, shunday qayg'uli damlarda ham sabot bilan barcha qiyinchiliklarga dosh berishi, metinday bardoshli ekanligi mahorat bilan talqin etilgan. Bu sitamgar dunyoda yolg'iz farzand dog'ida kuyib umurguzaronlik qilganidan ko'ra, boradigan joyiga bolasidan ilgari borib turgani xilofi adolat bo'lmasmidi..." (117-b) Hech bir ota-ona o'zidan oldin farzandi o'lishini tasavvuriga sig'dira olmaydi. Afsuski, shunday vaziyatga tushgan qahramon ruhiyati, holatiga mos tarzda ifodalangan. Uning g'am-anduhi tashqi xatti-harakatlarida emas, botinida g'alayon qilishi mahorat bilan tasvirlangan. Qahramonning ruhiyatidagi kechinma yozuvchi tomonidan ho'l o'tinday tutardi, tutab chirsillardi, chirsillab tutardi, yuragi hilvirab, tuz quyganday achishardi va simillab og'rirdi kabi o'xshatishlar bilan ochib berishga harakat qilinadi. Obrazning qayg'u to'la qalbini tasvirlar ekan, uning ichida qalashib ketgan dardlari bo'g'zidan qanday otilib chiqqanini o'zi ham bilmay qolgan holat quyidagicha talqin etiladi: Bo'g'zidan beixtiyor kuyindiga o'xshash bir faryod otilib chiqdi. – Vo-o-o, bola-a-mm!!! (118-b). Qahramon yuragining tubidan otilgan bu faryod oddiy faryod emas, u farzand dog'i faryodi. Uning kuyindiga o'xshash narsaga qiyoslanishi ham tabiiy. Farzandidan ajralgan otaning dardini tasvirlashda bunday o'xshatish tasvir bilan bog'liq ta'sirchanlikni yanada oshirishga xizmat qilgan.

Romanda yozuvchi badiiy til imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda, dealektizmlarga, xalq maqollariga, naqllariga, turli qochirimli so'zlarga murojaati asar tilini yanada boyitgan. "Kimsag'a yaqinlik qilmoq istarsen, yo qiz berg'il, yo qiz olg'il" (1-k.33-b), yoki "Uldan borg'on sovchining zavqi bor, qizdan borg'on sovchining xavfi bor"(1-k.34-b). Mazkur maqollarni asarda Iziddin Inoqning Abduqayum toqsobanikiga qizini Shunqorbekka berish taklifi bilan borishi jarayonida keltiriladi. Inoq toqsabo bilan yanada

7 Саъдихон Мавлахон ўғли. Таназзул. – Тошкент: Ўқитувчи, 2019. 1- китоб, - В. 48.

aloqalarini yaxshilash maqsadida, qolaversa, har tomonlama o‘rnak bo‘ladigan yigitni qizi uchun munosib kuyov ekanligini bilib, garchi mentalitetga zid bo‘lsa-da, to‘qsobanikiga sovchi bo‘lib boradi. Berilgan birinchi maqol Iziddin inoq tilidan aytilib, uni tavakkaliga ish ko‘rish maqsadini ifoda etsa, ikkinchi maqol, o‘zbekchilikda sovchi qizga yigit tomonidan jo‘natilishi, qiz tarafdan sovchi yuborildimi, demak, bir balosi bor, degan xayolga kelishi maqsadda qo‘llanilgan.

“Mol desam shoxi yo‘q, odam desam namagi...”(1-k. 49-b) yoki “G‘oz bo‘laman degan chumchuqning buti yirtilgani – shu!”(1-k. 50-b). Qo‘lidan kelmagan ishni qilgan kishi chumchuqning holiga tushishi mumkinligi haqidagi o‘xshatish Abduborining xarakterini ochib berishga qaratilgan. Iziddin Inoq o‘g‘lini Shunqorbekka o‘xshashini, undan o‘rnak olishini doim uqtiraverganidan, Abdubori ham zo‘rma-zo‘raki unga ergashishga harakat qilar, undan qolmaslik uchun bor imkoniyatini ishga solar edi. Ammo puch narsani bir kunmas bir kuni misi chiqishi asarda mahorat bilan talqin etiladi. Shunqorbekka ergashib, amir Muzaffarxon bilan uchrashuvi chog‘ida uquvi yetmagan ishga qo‘l urganligi uni shahzoda oldida sharmanda bo‘lishiga sabab bo‘ladi. “Jangnomayi Nasrullo”ni bitishi unga qimmatga tushadi. Abduboriga yuqorida Muzaffarxon tilidan berilgan ta’rifning o‘zi uni xarakterini baholashga imkon beradi.

Shuningdek, adabiy asarda dialektizmlarning qo‘llanilishi makon kaloritini yaratishga imkon bergan. Har bir hududning o‘z shevasi bo‘lgani bois, persanaj tilida uni o‘zining hududiga oid tilda so‘zlatish obraz hayotiyligini ta’minlaydi. Asarda davr ruhini aks ettiruvchi tarixiy so‘zlardan tashqari, obrazlar realligini taminlash maqsadida ishlatilgan shevaga xos so‘zlar ham uchraydi. Asar voqealari, asosan, Buxoroda sodir bo‘lganligi bois o‘sha joyning shevasi yetakchilik qilsa-da, asarda Forish shevasining o‘rni ham sezilarli darajada. Bozorboy obrazi bilan bog‘liq voqealarda bu sheva ko‘rinish beradi. “Men karvonboshi Abduvohid bilan shahrisavzlik birovnikida ijaraga turaminan, o‘sherg‘a boravuz. Ketduk”(1-k. 256-b.), “Endi nemene qilmoqchi vo‘lotsan?”(1-k, 258-b), “Otasi vermasa-chi”(1-k.261-b.). Ammo asarda shevalarning ifodalanishida ayrim nuqsonlar borligi ham ko‘zga tashlanadi. Masalan, forish shevasidagi “nima?” so‘roq olmoshining ikki xil shaklda (nememe, neme), “bo‘ladi” fe’li ham shunday ikki xil (vo‘ladi, bo‘ladi) ko‘rinishda ifodalangan. Obrazlar nutqidagi har-xillik “Tanazzul” romanida ham uchraydi. Masalan, Xudoyorxon nutqida men olmoshi bir o‘rinda “men” tarzida ishlatilsa, bir o‘rinda “man” tarzida ifoda etiladi. Bahodir shig‘ovul nutqida ham bunday holat kuzatiladi: “...Odamlarni cho‘chitishni sanga shaytonni o‘zi o‘rgatgan. Buni gavdasiga qarang, to‘yga boqilgan cho‘qim ham seni oldingda tozi itday...”(1-k.56-b) yoki “... jiyan, sen Usmonali bilan boqqa chiqib boringlar.. ”(1-k.57-b).

“Adabiy asar tilining poetikligi, obrazliligi, tasviriyligi asar g‘oyasini, shuningdek, qahramon harakterini jozibali qilib ochishga xizmat qiladi. Biroq bundan faqat maxsus tasvir vositalarini qo‘llash orqali asar tilining tasviriyligiga, obrazliligiga erishilar ekan-da, degan bir yoqlama xulosa chiqarish yaramaydi. Chunki adabiy asar tilida o‘z o‘rnida topib ishlatilgan so‘z va iboralar ham harakter va manzaralarni aniq ifodalay oladi: binobarin, bunday so‘z va iboralar ham tasvir vositasi rolini bajaradi”[8]. Ta’kidlanganidek, asardagi har bir so‘z o‘z o‘rnida topib qo‘llansagina, u badiiy topilma sifatida bo‘y ko‘rsatadi. Ijodkor asarining badiiy maydoni keng bo‘lishiga qaramay, so‘zni tejab, undan oqilona foydalanadi. Negaki, siqiq jumlalar qatiga katta ma’no yashiringan tasvir orqali ijodiy niyatini yuzaga chiqaradi. Bunday teran ifodalarda yozuvchining falsafiy-estetik qarashlari namoyon bo‘ladi. Umuman olganda, badiiy asar tili yozuvchiga bor iqtidorini ko‘rsatishga imkon yaratadi.

8 Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, – Б. 162.

06

TABIIY VA ANIQ FANLAR

ON THE SOLUTION OF SOME LINEAR PARTIALLY INTEGRAL EQUATION

Ulug'bek Abdukadirovich Soatov – PhD of phizics and mathematics, associate professor, Jizzakh Polytechnic Institute
Abduvali Shamshiyev – PhD in economics, associate professor, Jizzakh State Pedagogical University

Abstract: *In this article, we study the question of the solvability of a certain linear integral equation with partial integrals in the space of functions continuous on* $[a,b]^3$ *, prove the existence and uniqueness of a solution of the considered equation with degenerate kernels and at parameters* $\lambda_i = -1,\ i = 1,2,3$ *and find an exact formula solving the equation.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada* $[a,b]^3$ *uzluksiz funksiyalar fazosida ba'zi bir xususiy integralli integral tenglamaning yechiluvchanligi masalasi o'rganilgan bo'lib, bir o'lchamli ajralgan yadroli va* $\lambda_i = -1,\ i = 1,2,3$ *parametrli xususiy integralli integral tenglama yechimi mavjudligi va yagonaligi isbotlangan hamda yechimning aniq ko'rnishi topilgan.*

Аннотация: *В данной статье мы исследуем вопрос о разрешимости некоторого линейного интегрального уравнения с частными интегралами в пространстве непрерывных на* $[a,b]^3$ *функций, доказываем существование и единственность решения рассмат-риваемого уравнения с вырожденными ядрами и параметрами* $\lambda_i = -1,\ i = 1,2,3$*, найдена точная формула решения изучаемиго уравнения.*

Keywords: *partial integral equation, space, function, Fredholm integral equation, kernel, parameter, condition, Fredholm method, determinant, unique solution, formula.*

Kalit so'zlar: *xususiy integral tenglama, fazo, funksiya, Fredgolm integral tenglamasi, yadro, parametr, shart, Fredgolm metodi, determinant, yagona yechim, formula.*

Ключевые слова: *частично интегральное уравнение, функция, интегральное уравне-ние Фредгольма, ядро, параметр, условие, метод Фредгольма, детерминант, единственное решение, формула.*

Functional equations have occupied an important place in the work of mathematicians for a long time. Recently, the attention of mathematicians has been especially directed to a special type of functional equations, the so-called integral equations, i.e. such equations in which the unknown function appears under the integral sign. The resolution of an equation of this kind is sometimes interpreted as the reversal of a certain integral. The outstanding Swedish scientist Fredholm for the first time developed a complete theory of integral equations of the second kind.The solution of an equation of this kind is sometimes interpreted as the inverse of a definite integral.

The study of spectral properties as well as bound states of multiparticle operators of quantum mechanics is associated with the problems of solving linear integral equations in partial integrals of functions of three variables. In particular, the problem for the equation of eigenfunctions of a four-particle Schrodinger operator with paired interactions is given for the solution of a linear integral equation with partial integrals of functions of three variables[1].

The question of the existence of a solution to an integral equation with partial integrals for

1 S. Albeverio, S.N. Lakaev, Zh.I. Abdullaev, The finiteness of the discrete spectrum of a four-particle operator on a lattice. Functional analysis and its applications. 36 (2002), no. 3, pg. 56-60.

functions of two variables was considered in the works of Abdus Salam[2] and others[3], and for functions of three variables[4], and in connection with the study of the spectral properties of many-particle operators was studied in books by S.P.Merkuriev, L.D.Faddeev[5], S.Albeverio., F.Gestesi, Z.Xeeg-Kron, X.Xolden[6] and in the works of S.N.Lakaev[7].

In particular, the question of the existence of a solution to a partial integral equation with partial integrals for functions of two variables of the following form

$$\varphi(x,y)=f(x,y)+\lambda\int_0^1 K(x,t)\varphi(t,y)dt+\mu\int_0^1 N(y,s)\varphi(x,s)ds,$$

where the kernels $K(x,t)$ and $f(x,y)$ are symmetric and, together with the free function $f(x,y)$, belong to the space of $L_2(D)$, $D=[0,1]\times[0,1]$, λ,μ -parameters, is considered. In the presence of eigenvalues and the corresponding eigenfunctions of the kernels K and N, it is proved that the equation under consideration has a solution expressed in terms of eigenfunctions[8].

The aim of this work is to study the solvability of some linear integral equation with partial integrals with degenerate kernels in the space of functions continuous on $[a,b]^3$.

Problem statement. In a space of functions continuous on $[a,b]^3$ consider a linear integral equation with partial integrals of the form

$$\varphi(x_1,x_2,x_3)+\lambda_1\int_a^b K_1(x_1,t_1)\varphi(t_1,x_2,x_3)dt_1+$$
$$+\lambda_2\int_a^b K_2(x_2,t_2)\varphi(x_1,t_2,x_3)dt_2+\lambda_3\int_a^b K_3(x_3,t_3)\varphi(x_1,x_2,t_3)dt_3=f(x_1,x_2,x_3) \quad (1)$$

and the corresponding homogeneous equation

$$\varphi(x_1,x_2,x_3)+\lambda_1\int_a^b K_1(x_1,t_1)\varphi(t_1,x_2,x_3)dt_1+$$
$$+\lambda_2\int_a^b K_2(x_2,t_2)\varphi(x_1,t_2,x_3)dt_2+\lambda_3\int_a^b K_3(x_3,t_3)\varphi(x_1,x_2,t_3)dt_3=0, \quad (2)$$

where $K(x_i,t_i)$ $i=1,2,3$ and $[a,b]^2$ - are given continuous functions defined on $[a,b]^2$ and $[a,b]^3$ respectively; $\varphi(x_1,x_2,x_3)$ - unknown function, $\lambda_i, i=1,2,3$ -parameters.

Research methodology. When proving the equivalence of the partially integral equation under study to some Fredholm integral equation of the second kind, the resolvent method is applied. When proving the existence of a solution as well as the uniqueness of this solution of the considered integral equation with partial integrals, degenerate kernels for functions of three variables, methods of the theory of integral equations, methods of the theory of functions, mathematical analysis and functional analysis.

Let's formulate the main result.

Theorem. Let $K_i(x_i,t_i)=\psi_i(x_i)\hat{\psi}_i(t_i)$ $\lambda_i=-1,\quad i=1,2,3$ and determinants

$$d_i=1+\int_a^b \psi_i(t)\hat{\psi}_i(t)dt\neq 0,\quad i=1,2,3; \qquad \Delta_\alpha=d_\beta+d_\gamma-1\neq 0,$$

$\alpha\neq\beta\neq\gamma,\ \alpha,\beta,\gamma=1,2,3.$ Then:

a) if determinant $\Delta=d_1+d_2+d_3-2\neq 0,$ then equation (1) for any f has a unique solution

2 Abdus Salam, Fredholm Solution of Partial Integral Equations.oc. Cambridge Philos.Soc. 49 (1952), pg.213-217.

3 1.Stefan Fenyo, Beitrag zur Theorie der Linearen partiellen Integral gleichungen. Publs.mat., (1955), № 1,2, 98-103. / 2.Likhtarnikov L.M. // Diff. Equations, 11, 1975, № 6, pg. 1108-1117. / 3. Okolelov O.P., Reports of the 3-rd Siberian Conference on Mathematics and Mechanics. 1964, Tomsk, Tomsk University, pg.140-148. / 4. Kakichev V.A., N.V. Kovalenko. Ukr.Mat. magazine. 25 (1973), №3, pg.302-312 / 5. Vitova L.Z. Functional analysis (interuniversity collection) 1976, issue 3, Ulyanovsk.

4 1.Lakaev S.N., Soatov UA, On the solution of a partial integral equation for functions of three variables, Reports of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, 1997, №11, pg. 8-10. / 2.Lakaev S.N., Soatov U., Solition of partial integral equations for three variable functions, ICSTM-96, Samarkand, 1996, pg.62.

5 Merkuriev S.P., Faddeev L.D. "Quantum scattering theory for systems several particles ". Moscow," Science ", 1985.

6 Albeverio S., Gestesi F., Xeeg-Kron Z., Xolden X. Solvable models in quantum mechanics. Moscow, Mir. 1991.

7 1.Lakaev S.N. On an infinite number of three-particle bound states systems of three quantum lattice particles. Theoretical and Mathematical Physics, 89 (1991), No. 1, pg. 94-104. / 2.Lakaev S.N. On the Efimov effect in a system of three identical quantum particles. Functional analysis and its applications, 27 (1993), issue 3, pg. 15-28. / 3 Sergio Albeverio, Saidakhmat N.Lakaev, Ulugbek A.Soatov, Some models in perturbation theory of the essential spectrum of several particle operators. SFB 611, Bonn, October 2002, 19p.

8 Likhtarnikov L.M. // Diff. Equations, 11, 1975, № 6, pg. 1108-1117.

expressed by the formula

$$\varphi(x,y,z)=f(x,y,z)-\left\{\int_a^b \frac{K_1(x_1,t_1)f(t_1,x_2,x_3)}{d_1}dt_1+\int_a^b \frac{K_2(x_2,t_2)f(x_1,t_2,x_3)}{d_2}dt_2+\right.$$
$$\left.+\int_a^b \frac{K_3(x_3,t_3)f(x_1,x_2,t_3)}{d_3}dt_3\right\}+$$
$$\frac{d_1+d_2}{d_1d_2\Delta_3}\int_a^b\int_a^b K_1(x_1,t_1)K_2(x_2,t_2)f(t_1,t_2,x_3)dt_1dt_2+$$
$$+\frac{d_1+d_3}{d_1d_3\Delta_2}\int_a^b\int_a^b K_1(x_1,t_1)K_3(x_3,t_3)f(t_1,x_2,t_3)dt_1dt_3+$$
$$\frac{d_2+d_3}{d_2d_3\Delta_1}\int_a^b\int_a^b K_2(x_2,t_2)K_3(x_3,t_3)f(x_1,t_2,t_3)dt_2dt_3+$$
$$d_1d_2d_3(\Delta_1\Delta_2+\Delta_1\Delta_3+\Delta_2\Delta_3)]- \qquad (3)$$

where $d_1d_2d_3(\Delta_1\Delta_2+\Delta_1\Delta_3+\Delta_2\Delta_3)]-$

$d_1d_2d_3(\Delta_1\Delta_2+\Delta_1\Delta_3+\Delta_2\Delta_3)]-$

$$-\left(d_1d_2\Delta_3+d_1d_3\Delta_2+d_2d_3\Delta_1+d_1d_2d_3\right)\left[d_1d_2d_3\Delta-(d_1-1)(d_2-1)(d_3-1)(1+\Delta)\right].$$

b) if determinant $\Delta=d_1+d_2+d_3-2=0$, then the homogeneous integral equation (2) with kernels $K_i(x_i,t_i)=\psi_i(x_i)\hat{\psi}_i(t_i)\quad i=1,2,3$ corresponding to equation (1) has a nonzero solution.

Proof. Scheme of proof of the theorem.

a) By assumption $K_i(x_i,t_i)=\psi_i(x_i)\hat{\psi}_i(t_i),\lambda_i=-1,i=1,2,3$, then equation (1) will take the following form

$$\varphi(x_1,x_2,x_3)+\psi_1(x_1)\int_a^b\hat{\psi}_1(t_1)\varphi(t_1,x_2,x_3)dt_1+\psi_2(x_2)\int_a^b\hat{\psi}_2(t_2)\varphi(x_1,t_2,x_3)dt_2+$$
$$+\psi_3(x_3)\int_a^b\psi_3(x_3)\hat{\psi}_3(t_3)\varphi(x_1,x_2,t_3)dt_3=f(x_1,x_2,x_3) \qquad (4)$$

Considering,

$\int_a^b\hat{\psi}_2(t_2)\varphi(x_1,t_2,x_3)dt_2$ и $\int_a^b\hat{\psi}_3(t_3)\varphi(x_1,x_2,t_3)dt_3$

known in equation (4), we obtain the following partial integral equation

$$\varphi(x_1,x_2,x_3)+\psi_1(x_1)\int_a^b\hat{\psi}_1(t_1)\varphi(t_1,x_2,x_3)dt=f_1(x_1,x_2,x_3)$$

. (5)

Here

$$f_1(x_1,x_2,x_3)=f(x_1,x_2,x_3)-\psi_2(x_2)\int_a^b\hat{\psi}_2(t_2)\varphi(x_1,t_2,x_3)dt_2-\psi_3(x_3)\int_a^b\hat{\psi}_3(t_3)\varphi(x_1,x_2,t_3)dt_3.$$

(6)

By fixing variables x_2,x_3, equation (5) can be reduced to the form

$$\varphi_{x_2x_3}(x_1)+\psi_1(x_1)\int_a^b\hat{\psi}_1(t_1)\varphi_{x_2x_3}(t_1)dt_1=f_{1x_2x_3}(x_1). \qquad (7)$$

Equation (7) is a linear integral Fredholm equation of the second kind. The kernels of this urania is degenerate, a degeneracy of rank one. This equation is known to be easy to solve.

Let

$$\alpha_1(x_2,x_3)=\int_a^b\hat{\psi}_1(t_1)\varphi_{x_2x_3}(t_1)dt_1,$$

then we have

$$\varphi_{x_2x_3}(x_1)=f_{1x_2x_3}(x_1)-\psi_1(x_1)\alpha_1(x_2,x_3),$$

with which we will find $\alpha_1(x_2,x_3)$:

$$\alpha_1(x_2,x_3)=\int_a^b\hat{\psi}_1(t_1)f_{x_2x_3}(t_1)dt_1-\alpha_1(x_2,x_3)\int_a^b\psi_1(t_1)\hat{\psi}_1(t_1)dt_1,$$

$$\alpha_1(x_2,x_3)\left[1+\int_a^b\psi_1(t_1)\hat{\psi}_1(t_1)dt_1\right]=\int_a^b\hat{\psi}_1(t_1)f_{x_2x_3}(t_1)dt_1.$$

According to the theorem

$$d_1=1+\int_a^b\psi_1(t_1)\hat{\psi}_1(t_1)dt_1\neq 0,$$

therefore

$$\alpha_1(x_2,x_3)=\frac{1}{d_1}\int_a^b\hat{\psi}_1(t_1)f_{x_2x_3}(t_1)dt_1.$$

And, equation (7) for any right side has a unique solution expressed by the formula has

$$\varphi_{x_2x_3}(x_1)=f_{1x_2x_3}(x_1)-\frac{\psi_1(x_1)}{d_1}\int_a^b\hat{\psi}_1(t_1)f_{1x_2x_3}(t_1)dt_1,$$

That is, for each value of the variables x_2,x_3 we get

$$\varphi(x_1,x_2,x_3)=f_1(x_1,x_2,x_3)-\frac{\psi_1(x_1)}{d_1}\int_a^b\hat{\psi}_1(t_1)f(t_1,x_2,x_3)dt_1,$$

which is the solution to equation (5). Now, substituting the expression $f_1(x_1,x_2,x_3)$ from (6) for it, we obtain the partially integral equation

$$\varphi(x_1,x_2,x_3)+\psi_2(x_2)\int_a^b\hat{\psi}_2(t_2)\varphi(x_1,t_2,x_3)dt_2=f_2(x_1,x_2,x_3),$$ (8)

where

$$f_2(x_1,x_2,x_3)=f(x_1,x_2,x_3)-\frac{\psi_1(x_1)}{d_1}\int_a^b\hat{\psi}_1(t_1)f(t_1,x_2,x_3)dt_1-$$
$$-\psi_3(x_3)\int_a^b\hat{\psi}_3(t_3)\varphi(x_1,x_2,t_3)dt_3+\frac{\psi_1(x_1)\psi_2(x_2)}{d_1}\int_a^b\int_a^b\hat{\psi}_1(t_1)\hat{\psi}_2(t_2)\varphi(t_1,t_2,x_3)dt_1dt_2+$$
$$+\frac{\psi_1(x_1)\psi_3(x_3)}{d_1}\int_a^b\int_a^b\hat{\psi}_1(t_1)\hat{\psi}_3(t_3)\varphi(t_1,x_2,t_3)dt_1dt_3.$$

Further, considering all terms of the expression on the right side of (8) known and fixing the variables, we again arrive at some linear Fredholm integral equation of the second kind :

$$\varphi_{x_1x_3}(x_2)+\psi_2(x_2)\int_a^b\hat{\psi}_2(t_2)\varphi_{x_1x_3}(t_2)dt_2=f_{2x_1x_3}(x_2)$$

. (9)

Equation (9) is an analogue of equation (7). Therefore, repeating the above solution process twice we arrive at a partially integral equation of the form

$$\varphi(x_1,x_2,x_3)-\frac{\psi_2(x_1)\psi_3(x_3)}{d_1}\int_a^b\int_a^b\hat{\psi}_2(t_1)\hat{\psi}_3(t_3)\varphi(x_1,t_2,t_3)dt_1dt_3-$$

$$-\frac{\psi_1(x_1)\psi_3(x_3)}{d_1d_3}\int_a^b\int_a^b\hat{\psi}_1(t_1)\hat{\psi}_3(t_3)\varphi(t_1,x_2,t_3)dt_1dt_3-$$

$$\frac{\psi_1(x_1)\psi_2(x_2)}{d_1d_2}\int_a^b\int_a^b\hat{\psi}_1(t_1)\hat{\psi}_2(t_2)\varphi(t_1,t_2,x_3)dt_1dt_2-$$

$$-\frac{2\psi_1(x_1)\psi_2(x_2)\psi_3(x_3)}{d_1d_2d_3}\int_a^b\int_a^b\int_a^b\hat{\psi}_1(t_1)\hat{\psi}_2(t_2)\hat{\psi}_3(t_3)\varphi(t_1,t_2,t_3)dt_1dt_2=F(f,x_1,x_2,x_3)$$

или запищем его в виде

$$\varphi(x_1,x_2,x_3)-\frac{\psi_2(x_1)\psi_3(x_3)}{d_1}\int_a^b\int_a^b\hat{\psi}_2(t_1)\hat{\psi}_3(t_3)\varphi(x_1,t_2,t_3)dt_1dt_3=\Phi_1(f,\varphi,x_1,x_2,x_3)$$

, (10)

Here

$$\Phi_1(f,\varphi,x_1,x_2,x_3)=F(f,x_1,x_2,x_3)+\frac{\psi_1(x_1)\psi_3(x_3)}{d_1d_3}\int_a^b\int_a^b\hat{\psi}_1(t_1)\hat{\psi}_3(t_3)\varphi(t_1,x_2,t_3)dt_1dt_3+$$

$$-\frac{2\psi_1(x_1)\psi_2(x_2)\psi_3(x_3)}{d_1d_2d_3}\int_a^b\int_a^b\int_a^b\hat{\psi}_1(t_1)\hat{\psi}_2(t_2)\hat{\psi}_3(t_3)\varphi(t_1,t_2,t_3)dt_1dt_2,$$

where $F(f,x_1,x_2,x_3)$ is expressed through $x_1(x_2,x_3)$ and its integrals.

Equation (10) is the Fredholm equation with a degenerate kernel and is easily solvable. Solving it in a similar way as solving equation (5) and subsequent repetition this process, fixing the variables $x_1(x_2,x_3)$ sequentially, we finally arrive at the complete Fredholm integral equation of the second kind of the following form

$$\varphi(x_1,x_2,x_3)=F^*(f,x_1,x_2,x_3)+$$

$$+\frac{1-d_1-d_2-d_3}{\Delta_1\Delta_2\Delta_3}\psi_1(x_1)\psi_2(x_2)\psi_3(x_3)\int_a^b\int_a^b\int_a^b\hat{\psi}_1(t_1)\hat{\psi}_2(t_2)\hat{\psi}_3(t_3)\varphi(t_1,t_2,t_3)dt_1dt_2$$

, (11)

where $F^*(f,x_1,x_2,x_3)$ is expressed through $f(x_1,x_2,x_3)$ and its integrals. Note that equation (11) is equivalent to the considered partial integral equation (1). To solve equation (11), we introduce the notation

$$C=\int_a^b\int_a^b\int_a^b\hat{\psi}_1(t_1)\hat{\psi}_2(t_2)\hat{\psi}_3(t_3)\varphi(t_1,t_2,t_3)dt_1dt_2.$$

Then, solving equation (11) similarly to the above, we obtain its solution to the equation in the form

$$\varphi(x_1,x_2,x_3)=F^*(f,x_1,x_2,x_3)+$$

$$+\frac{1-d_1-d_2-d_3}{d_1d_2d_3\Delta}\psi_1(x_1)\psi_2(x_2)\psi_3(x_3)\int_a^b\int_a^b\int_a^b\hat{\psi}_1(t_1)\hat{\psi}_2(t_2)\hat{\psi}_3(t_3)F^*(f,t_1,t_2,t_3)dt_1dt_2dt_3$$

, (12)

where according to the conditions of the theorem $\Delta=d_1+d_2+d_3-2\neq 0$. Substituting the expression of the function through this function and its integrals, we finally obtain a solution of type (3) of the equation (1) under consideration.

b) If the conditions of the theorem are met, it can be proven that the homogeneous equation (2) under consideration is equivalent to a complete homogeneous integral equation of the form

$$\varphi(x_1,x_2,x_3)=$$

$$\frac{1-d_1-d_2-d_3}{\Delta_1\Delta_2\Delta_3}\psi_1(x_1)\psi_2(x_2)\psi_3(x_3)\int_a^b\int_a^b\int_a^b\hat{\psi}_1(t_1)\hat{\psi}_2(t_2)\hat{\psi}_3(t_3)\varphi(t_1,t_2,t_3)dt_1dt_2dt_3.$$

(13)

According to Fredholm's theorem[9], given the condition $\Delta=d_1+d_2+d_3-2=0$, equation (13) has a nonzero solution. Believing that

$$\tilde{N}=\frac{1-d_1-d_2-d_3}{\Delta_1\Delta_2\Delta_3}\int_a^b\int_a^b\int_a^b\hat{\psi}_1(t_1)\hat{\psi}_2(t_2)\hat{\psi}_3(t_3)\varphi(t_1,t_2,t_3)dt_1dt_2dt_3.$$

We have

$$\varphi(x_1,x_2,x_3)=\tilde{N}\psi_1(x_1)\psi_2(x_2)\psi_3(x_3).$$

Substituting this expression of the function $\varphi(x_1,x_2,x_3)$ into equation (2) we get

$$\tilde{N}\psi_1(x_1)\psi_2(x_2)\psi_3(x_3)\left[1+\int_a^b\psi_1(t_1)\hat{\psi}_1(t_1)dt_1+\int_a^b\psi_2(t_2)\hat{\psi}_2(t_2)dt_2+\int_a^b\psi_3(t_3)\hat{\psi}_3(t_3)dt_3\right]=$$

$$=\tilde{N}\psi_1(x_1)\psi_2(x_2)\psi_3(x_3)\left[1+(d_1-1)+(d_2-1)+(d_3-1)\right]=$$

$$\tilde{N}\psi_1(x_1)\psi_2(x_2)\psi_3(x_3)(d_1+d_2+d_3-2)=0.$$

It means that

9 Vasilyeva A.B., Tikhonov N.A. Integral uranias, Moscow University Publishing House, M. 1989, New edition: Lan Publishing House, 2022, Series: Mathematics. / 2. Lovitt U.V., Linear integral equations. M.: Mir. 1963. / 3.Kolmogorov A.N., Fomin S.V. - Элементи теории функции м функционалного анализа, Издателъство – Физматлит, М. 2019.

$\varphi(x_1, x_2, x_3) = \tilde{N}\psi_1(x_1)\psi_2(x_2)\psi_3(x_3)$, $\tilde{N} \neq 0$

There is a non-zero solution to homogeneous equation (2) (there is a continuous solution to equation (13), equivalent to equation (2)), since by the conditions of the theorem $\Delta = d_1 + d_2 + d_3 - 2 = 0$.

The theorem has been proven.

From the theorem we have proved it follows for the case $f = 0$.

Consequence. If $K_i(x_i, t_i) = \psi_i(x_i)\hat{\psi}_i(t_i)$ $\lambda_i = -1$, $d_i = 1 + \int_a^b \psi_i(t)\hat{\psi}_i(t)dt \neq 0$, $i = 1,2,3$;

$\Delta_\alpha = d_\beta + d_\gamma - 1 \neq 0$, $\alpha \neq \beta \neq \gamma$, $\alpha, \beta, \gamma = 1,2,3$,

$\Delta_\alpha = d_\beta + d_\gamma - 1 \neq 0$, $\Delta = d_1 + d_2 + d_3 - 2 \neq 0$,

then the homogeneous integral equation with partial integrals (2) has only a zero

solution $\varphi(x_1, x_2, x_3) = 0$.

Partially integral equations for functions of three variables have not been studied well enough earlier. Partial integral equations with degenerate kernels for three variable functions (1), under some conditions based on the kernels, are equivalence to the second type Fredgolm's integral equation (11). This equivalence is proved by sequential inversion of partially integral operators $I + K_i, i = 1,2,3$ with respect to variables x_1, x_2, x_3, where $K_i\varphi = \int_a^b K_i(x_i, t_i)\varphi(\cdot, t_i, \cdot)dt_i$, $K_i(x_i, t_i) = \psi_i(x_i)\hat{\psi}_i(t_i)$ $i = 1,2,3$, sequential inversion of partially integral opera-tors $i < j, i, j \in \{1,2,3\}$, $i < j, i, j \in \{1,2,3\}$ with respect to variables x_1 и x_2, x_1 и x_3, x_2 и x_3, где $(K_j\varphi) = \int_a^b\int_a^b\int_a^b K_i(x_i, t_i)\varphi(t_{i'}, t_{j'}, \cdot)dt_i dt_j$. Note that we arrive at equations (10) and (11) regardless of the order of the stages of inversion with respect to the variables. In a space of functions continuous on $[a, b]^3$ the existence and uniqueness of solution of partial integral equations with one dimensional degenerate kernels for three variable functions is proved and for the solution an exact formula is obtained.

DUAL TA'LIMNI "TARMOQ – KORXONA – UNIVERSITET" DARAJASIDA TASHKIL ETISHNI BO'LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANISHIDAGI AHAMIYATI

Ismoil Norkobilovich Kodirov – f-m.f.n., professor,
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti

Annotatsiya*: Maqolada "Tarmoq-korxona-universitet" darajasida dual ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirishning tamoyillari, o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, bitiruvchilarni kasbiy kompetensiyalarini shakllanishida o'z-o'zini baholashga jalb qilinishi va bundan olingan natijalar haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Аннотация*: В статье рассматриваются принципы и особенности успешной реализации дуального образования на уровне "Отрасль-Предприятие-Вуз". Также представлена информация о вовлеченности выпускников в самооценку при формировании своих профессиональных компетенций и полученных при этом результатах.*

Abstract*:The article examines the principles and features of successful implementation of dual education at the level of "Industry-Enterprise-University". It also provides information on the involvement of graduates in self-assessment in the formation of their professional competencies and the results obtained in this regard.*

Kalit so'zlar: *"Tarmoq-korxona-universitet","dual ta'lim, tamoyillar, kasbiy shakllanish, o'z-o'zini baholash, kompetensiyalar.*

Ключевые слова: *"Отрасль-Предприятие-Вуз", дуальное образование, принципы, профессиональное развитие, самооценка, компетенции.*

Keywords*:"Industry-Enterprise-University","dual education, principles, professional development, self-assessment, competencies.*

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, sanoat va ishlab chiqarish korxonalarining yanada yangi yutuqlarga erishishlarida muhandis kadrlarga bo'lgan ehtiyoj kundan kunga oshib bormoqda va oliy ta'lim muassasalarida malakali muhandis kadrlarni tayyorlash doimiy dolzarb masalalardan hisoblanadi.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 20.06.2024-yilda "Muhandislik sohalaridagi kadrlar tayyorlash va oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan ustuvor vazifalar" masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishida va u bugungi kunda respublikada innovatsiyalar va muhandis kadrlarning muhim ahamiyatini alohida qayd etib, qilinadigan asosiy muhim vazifalarni belgilab berdi, jumladan:

- "Tarmoq – korxona – universitet" zanjiri asosida har bir oliygohga sanoat hamkori belgilab beriladi va respublikaning 10 ta oliygohida "Oliy muhandislik maktablari" ochiladi.

- Barcha muhandislik oliy ta'lim muassasalarining hamkor korxonalarda kafedralar ochiladi va dual ta'lim yo'lga qo'yiladi va hakazolar.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida dual ta'limni qo'llanilishini yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida"gi 163-son qarori bilan professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida Nizom tasdiqlangan.Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasida malakali muhandis kadrlar tayyorlash borasida maxsus dastur ishlab chiqish, mazkur soha uchun oliy ta'lim muassasalarida

dual ta'lim tizimini qo'llagan holda malakali muhandis kadrlar tayyorlash borasida yangi innovatsion tizim yaratish dolzarb masalalardan hisoblanadi[1]1.

Hozirgi paytda dual ta'limni amalga oshirishda yuzaga keladigan muammolar ko'rib chiqildi va ma'lum bo'lishicha, dual ta'limning shakli har doim va har yerda ham uni joriy etishga mos kelavermasligi hamda yuqori samara berib ishlamasligi aytib o'tilgan[2]. Bugungi kunga qadar, dual ta'limning usullari va uni tashkil etishning metodologik asoslari va uslubiy tamoyillari, kamchiliklari,afzalliklari yetarlicha o'rganilmagan va bu boradagi ilmiy-tadqiqotlar olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Dual ta'limni joriy qilishda oliy ta'lim muassasalarining bo'lajak muhandis kadrlarining va ish beruvchi korxonalarining ishtirok etish imkoniyatlari, dual ta'lim sharoitida ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirilishining shakllantirilishida o'z-o'zini baholashga jalb qilinishi ham yetarlicha o'rganilmagan va bu masalalar dolzarb hisoblanadi.

Bundan tashqari, "Tarmoq-korxona-universitet" darajasida dual ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirishda talabalar o'z-o'zini baholash natijalarini hisobga olgan holda bilim, ko'nikmalarni ongli ravishda egallashi, ko'nikmalar, tajriba, talabalar o'rtasida aks ettiruvchi shaxsiy va professional bilimlarini yanada muvaffaqiyatli shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilariga talabalarni o'qitish usullarini yanada takomillashtirish imkonini beradi va ularga talabalarning tajriba va bilimlariga asoslanib, dual ta'lim sharoitida o'qitishning yangi mukammal dasturiy ta'minotini ishlab chiqish vazifalarini qo'yadi.

Dual ta'lim tizimi Germaniya, Xitoy, AQSh, Koreya, Daniya, Fransiya, Makedoniya, Chernogoriya, Shveysariya, Niderlandiya, Daniya, Avstriya, Serbiya, Sloveniya, Makedoniya, Chernogoriya, Shveysariya, Niderlandiya kabi ko'pgina mamlakatlarda va ayrim Osiyo davlatlarida keng qo'llanilmoqda va u zamonaviy o'qitish ta'lim texnologiyalaridandir hamda o'qitishning asosiy tizimi hisoblanib, bunda ta'lim jarayoni va amaliyotning integratsiyasi ishlab chiqarish korxonalarning turli xil sohalarida malakali muhandis mutaxassislarning yuqori sifat darajasida tayyorlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi[3].

"Dual" degan nom haqida to'xtaladigan bo'lsak, dualizm (lot. dualist – ikki yoqlama) – bir-biri bilan birlashtirib bo'lmaydigan holatlar, tamoyillar, fikrlash tarzi, dunyoqarash, intilish va gnoseologik tamoyillar yonma-yon mavjudligini targ'ib qiluvchi ta'limot. Dualizm plyuralizm ko'rinishlaridan biri. Dualizm terminini nemis faylasufi X.Volf (1679-1754) kiritgan. Dualizm quyidagi juft tushunchalarni ifodalaydi: g'oyalar dunyosi va voqeiy dunyo. Dualizm falsafiy, diniy, antropologik, etik shakllarda namoyon bo'lishi mumkin2.

L.V.Sidakova dual ta'lim tizimi "ta'lim muassasasining o'qish faoliyatini ishlab chiqarish korxonalari faoliyati bilan kombinatsiyasini nazarda tutuvchi ta'lim tizim" ekanligini e'tirof etadi3. Mutaxassislar tayyorlashning dual ta'lim tizimini "oliy kasbiy ta'limning ish beruvchi ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi aniq muvofiqlashtirilgan, muayyan kasb-hunar bo'yicha talab qilinadigan malaka darajasiga ega bo'ladigan mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan ta'lim tizimi" deb qarash mumkin4. Shuningdek, mahalliy va xorijiy adabiyotlarni chuqurroq tahlil qilib ko'rilganda dual ta'lim

1 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida"gi 163-son qarori. https://lex.uz/docs/-5346217?ONDATE2=29.03.2021&action=compare

2 Сидакова Л.В. Сущность и основные признаки дуальной модели обучения. Образование и воспитание. 2016; 2: 62 – 64.

3 Терещенкова Е.В. Дуальная система образования как основа подготовки специалистов. Научно-методический электронный журнал "Концепт". 2014; 4: 41 – 45.

tizimini nazariy mashg‘ulotlar oliy ta’lim muassasalarida, amaliyot – esa ishlab chiqarish korxonalarida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan ta’lim modeli sifatida tasavvur qilish mumkin5.Ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, hozirgi vaqtda dual ta’limni tashkil etish borada paydo bo‘lgan bir qator savollarga javob berish mumkin hamda “dual ta’lim”, “dual ta’lim dasturi”, va “dual o‘qitish” kabi tushunchalarning texnik ma’nosiga aniqlik kiritilgan[4],[5].

Keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini yanada mukammallashtirish borasida oliy ta’lim bitiruvchilarining kelajakdagi ish funksiyalarini hisobga olgan holda moslashtirilgan davlat ta’lim standartlarini va professional standartlarini joriy etish orqali bu bo‘shliqni asta-sekin kamaytirishga qaratilgan chora tadbirlar olib borilmoqda. Har qanday kasbning bo‘lajak mutaxassislarini tayyorlashda bunday ta’limning modelini amalga oshirish dual ta’lim tizimidan foydalanilgan holda amalga oshirish mumkin bo‘ladi[6],[7],[8].

Oliy ta’lim muassasalarining muhandis kadrlar tayyorlashdagi eng muhim muammolardan biri bu-oliy ta’lim muassasalarida talabalarning nazariy va amaliy mashg‘ulotlari bir biriga mos holda uzviy olib borilmasligi va undagi o‘zgarishlar sabab bir vaqtda o‘zlashtira olmasliklari, ish beruvchi korxonalar va mehnat bozori orasidagi bo‘shliqning mavjudligidir va bu muammoni bartaraf etishda oliy ta’lim tizimiga dual ta’lim modelini qo‘llash yaxshi natijalar beryapti.

Ma’lumki, dual ta’lim tizimini tashkil etishning “Korxona – universitet”, “Korxona – kafedra”, “Korxona – laboratoriya”,“Tarmoq – korxona – universitet” kabi bir qancha tuzilmaviy darajada qurishda dual ta’lim bilan bog‘liq bir qator muammolar paydo bo‘ladi. Bunda qo‘yilgan maqsadga qarab keraklisi tanlab olinadi.

Oliy ta’lim muassasalarida dual ta’lim tizimini tashkil etishning bir qancha ko‘plab xususiyatlari mavjud bo‘lib, ulardan eng muhimlarini o‘ziga xos xususiyatini tahlil qilish asosida dual ta’limni “Tarmoq – korxona – universitet” darajasida tashkil etishda uning bir qancha tamoyillari, afzalliklari aniqlangan.

Dual ta’lim va an’anaviy ta’lim tizimlari xususiyatlarini taqqoslash natijasiga ko‘ra dual ta’limni tashkil etishning sakkizta (8 ta) mezoni o‘ta muhim hisoblanishi aniqlandi va bular quyidagilardir:

1. Mutaxassislarni o‘qitishning tuzilishi, mazmuni va hajmi korxonaning haqiqiy ehtiyojlariga mos keladi.

2. Amaliyot to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlab chiqarish korxonalarining zamonaviy uskunalarida amalga oshiriladi.

3. Laboratoriya, kurs ishi va bitiruv malakaviy ish mavzulari ish beruvchi korxonalarning potensial ehtiyojlari uchun yo‘naltirilgan.

4. Korxonaning har bir auditoriyada ishlab chiqarish uskunalarining zamonaviy analoglari (haqiqiy modellar, namunalar) mavjudligi.

5. Talabalar korxonaning korporativ

4 Матвеев Н.В. Дуальное обучение студентов техни-кума: преимущества и риски в оценке выпускников, пре-подавателей и работодателей // Вестник Новгородского государственного университета им. Ярослава Мудрого. 2015. № 5 (88). С. 71-74.

5 Серкова Г.Г. Дуальное образование: проблемы, пер-спективы // Инновационное развитие профессионально-го образования. 2016. № 12. С. 72-76.

6 Kodirov I.N.Dual education system in training qualified alternativi energy personnel in cooperation with manufacturing enterprises. Proccedings of International Educators Conference.Hosted online from Rome,Itale. Website: conferenceseries.com.E-ConferenceSeries. Date: 25th March, 2024.ISSN:2835-396X.Pp.100-110.

7 Серкова Г.Г. Дуальное образование: проблемы, пер-спективы // Инновационное развитие профессионально-го образования. 2016. № 12. С. 72-76.

8 Kodirov I.N. The Method Of Training Engineering Personnel In The Field Of Alternative Energy Through The Dual Education System. Pedagogical Cluster- Journal of Pedagogical Developments. PCJPD: Volume 2 Issue 2, February 2024. Pp. 512-518.

madaniyati bilan tanishadilar va bir jamoa bo‘lib ishlaydilar.

6. Ta’limning nazariy qismi uchun davlat mas’ul, amaliy qismi uchun korxona javobgar yoki hammasi birgalikda javobgar.

7. Amaliy ishlar korxonaning ustoz rahbarligida olib boriladi.

8. O‘qituvchilarni korxonada maxsus fanlar bo‘yicha malakasini oshirish imkoniyati mavjud.

Hozirgi paytda dual ta’limni tashkil etishning metodologik asoslari va metodik tamoyillari to‘liq o‘rganilmagan. Shuningdek dual ta’lim dasturlarini joriy qilishda talabalarning ishtirok etish imkoniyatlari, dual ta’lim sharoitida kompetensiyalarini rivojlanishini shakllanishida o‘z-o‘zini baholashga jalb qilinishi ham yetarlicha ilmiy tadqiqot qilinmagan.Bundan tashqari, dual ta’lim sharoitida talabalar o‘z-o‘zini baholash natijalarini hisobga olgan holda o‘zlarining bilim, tajriba va ko‘nikmalarini ongli ravishda egallashlarini aks ettiruvchi shaxsiy va professional bilimlarini yanada muvaffaqiyatli shakllantirishlarini nazorat qilish mumkin bo‘ladi. Talabalarning tajriba va bilimlarini o‘z-o‘zlarini nazorat qilishlariga asoslanib o‘qituvchilar dual ta’lim sharoitida o‘qitishning mukammal dasturiy ta’minotini ishlab chiqishlari kerak bo‘ladi bu esa talabalarni o‘qitish usullarini takomillashtirish imkonini beradi.

Tadqiqotning samarali olib borilishida, “Tarmoq-korxona-universitet” darajasida dual ta’limni muvaffaqiyatli amalga oshirishning tamoyillarini aniqlashtirishda, dual o‘qitishning uslubiy ta’minotini ishlab chiqish hamda bitiruvchilarni umumiy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirilishida o‘z-o‘zini baholashga jalb qilishda, dual ta’limni tashkil qilish borasidagi ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, oliy ta’lim dasturining mazmunini o‘zaro baholash, so‘rov, taqqoslash, tahlil qilish kabi metodlardan foydalanildi.

Zamonaviy ta’limning “obyektlar”, “turlar”, “elementlar”,“kasbiy faoliyatni amalga oshirish shartlari” kabi metodologik kategoriyalari dual ta’limni “Tarmoq-korxona-universitet” darajasida tashkil etishning uslubiy tamoyillarini shakllantirishga imkon berishi mumkinligi ko‘rsatilgan.

Ma’lumki, dual ta’lim sharoitida talabalarni amaliy mashg‘ulotlarga tayyorlash, ularda obyektlar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishni, amaliy mashg‘ulotlarga o‘z faoliyatining kasbiy ahamiyatga ega turlari va elementlari tajribasini yaratishni amalga oshirishni ta’minlashi kerak.

Oliy ta’lim muassasalarining bitiruvchilari tomonidan dual ta’limni tashkil etishni baholash natijalari diagrammasi dual ta’limni “Tarmoq-korxona-universitet” darajasida tashkil etish “Korxona – kafedra (laboratoriya) darajasida qurishdan qiyinroq ekanligini ko‘rsatdi. Oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilar tomonidan o‘nta kompetensiyani rivojlanish darajasini o‘z-o‘zini baholashda birorta ham respondent “kompetensiya rivojlanmagan” pozitsiyasini tanlamadi, ammo respondentlar ma’lum bir kompetensiyalarning zaif rivojlanishini qayd etdilar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, dual ta’lim doirasida kompetensiyalarni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun nafaqat uni tashkil etish tamoyillarini amalga oshirish, balki o‘qitish usullarini ham takomillashtirish zarur ekanligi aniqlandi.

Hozirgi kunda dual ta’limni joriy etish amaliyotini tahlil qilish natijasida shu narsani aniqlandiki, buning uchun avvalom bor meyoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, barcha ta’lim sohalarida dual ta’limni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratishni ta’minlash kerak bo‘ladi.

Dual ta’limni “Tarmoq-korxona-universitet” darajasida oqilona tashkil etish, taklif etilayotgan uslubiy tamoyillarning xilma-


xilligi, fanlarning o‘quv-uslubiy majmualari talabalarning o‘quv va kognitiv faoliyati (nazariy va amaliy mashg‘ulotlar), ularda dual ta’limni shakllantirishni muvofiqlashtirish va rivojlantirish muammolarini hal qilish imkonini berishi aniqlandi.

Dual ta’limni tashkil etish tamoyillarini amalga oshirishda bir qancha qiyinchiliklar mavjud ekanligini hisobga olinadigan bo‘lsa dual ta’limni oliy ta’lim tizimiga qo‘llash borasida 100 % foiz natijaga ega bo‘lish mumkin emasligi aniqlandi. Mavjud muammolarni tadqiqot qilish natijalari ikkita diagrammada o‘z aksini topadi:

1-rasmda - professional modul doirasidagi dasturlar asosida kadrlar tayyorlashning kafedraning barcha fanlari bo‘yicha kadrlar tayyorlashda dual o‘qitishni “Tarmoq-korxona-universitet” darajasida tashkil etilgan holda bitiruvchilarni baholash o‘z aksini topgan.


2-rasmda – korxona va oliy ta’lim muassasalarining professional laboratoriyalar darajasida dual o‘qishni tashkil etilishi va bunda talabalarni “Muqobil energiya manbalari” ta’lim yo‘nalishi fanlarini qanchalik o‘zlashtirganliklarini baholashligi ko‘rsatilgan. Bitiruvchi talabalarga (“amalga oshirilmagan”, “past darajada amalga oshirilgan”, “o‘rta darajada amalga oshirilgan”, “yuqori darajada amalga oshirilgan”) to‘rt xil baholash yordamida yuqorida ko‘rsatilgan 8 ta mezonning 1, 2, 3, 5-bandlariga mos keladigan dual ta’limni tashkil etishdagi pozitsiyalarni baholash taklif qilindi va baholandi. Shuni ta’kidlash kerakki, respondentlardan hech kim “amalga oshirilmagan” pozitsiyasini tanlamadi va ularning javoblarida “past darajada amalga oshirilgan” javoblari yo‘q edi.

Respondentlarning javoblari shuni ko‘rsatdiki, “Tarmoq-korxona- universitet” darajasida dual ta’limni qurish “korxona-kafedra (laboratoriya) “ darajasiga nisbatan qiyinroq ekan.



Yuqori darajada amalga oshirilgan. O‘rta darajada amalga oshirilgan Past darajada amalga oshirilgan.

1-rasm. “Tarmoq-korxona- universitet” darajasida dual ta’limni tashkil etish bo‘yicha bitiruvchilarning bahosi. 1-Umuman olganda, dual ta’lim o‘quv davrida malaka oshirishga yordam berdi. 2-Таълим davomida korporativ madaniyat bilan yaqindan tanishилади. 3-Amaliyot bevosita zamonaviy ishlab chiqarish uskunalarida amalga oshirildi. 4-Yakuniy malakaviy ishlarning mavzulari ish beruvchilarning potensial ehtiyojlariga qaratilgan. 5-Kasbiy yo‘naltirilgan fanlarning mazmuni va hajmi korxona ehtiyojlarini qondiradi.



Yuqori darajada amalga oshirilgan. O‘rta darajada amalga oshirilgan

2-rasm. “Korxona-kafedra(laboratoriya)” darajasida dual ta’limni tashkil etish bo‘yicha bitiruvchilarning bahosi. 1-“Korxona-kafedra(laboratoriya)” darajasida amalga oshirilgan dual ta’limni kasbiy

rivojlanishga qo‘shgan hissasi. 2-“Korxona-kafedra(laboratoriya)” darajasidagi korporativ madaniyat bilan tanishildi. 3-Amaliyot bevosita zamonaviy ishlab chiqarish uskunalarida amalga oshirildi. 4-“Korxona-кафедра(laboratoriya)” darajasida o‘zlashtirilgan kasbiy yo‘naltirilgan fanлapning mazmuni va hajmi korxona ehtiyojlariga mos keladi.

Xulosa qilib aytganda, “Tarmoq-korxona-universitet” darajasida dual ta’limni joriy etish amaliyotining tahlili uni rivojlantirishning me’yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish zarurligi aniqlandi. Dual ta’limni “Tarmoq-korxona- universitet” darajasida tashkil etishning uslubiy tamoyillari Oliy ta’lim muassasalari va korxonaning hamkorlikdagi o‘quv platformasini yanada muvaffaqiyatli shakllantirish imkonini beradi. Oliy ta’lim muassasalari va korxonaning hamkorlikda yangi dual ta’limning o‘quv dasturlarini ishlab chiqilishi hamda ta’lim jarayonini oqilona tashkil etilishi talabalarning nazariy va amaliy mashg‘ulotlarini olib borishda o‘ta muhim hisoblanadi.

- Talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan anketa so‘rovlariga binoan “Tarmoq-korxona-universitet” dual ta’limni muvaffaqiyatli tashkil etish “Korxona-kafedra (laboratoriya)” darajasida tashkil etishga qaraganda dual jarayonini qurish qiyinroq ekanligi ma’lum bo‘ldi. Shuningdek, korxona ehtiyojlarini hisobga olgan holda o‘qitiladigan fanlarni tarkibi va ulardagi materiallarni mazmunini qayta ko‘rib chiqish zarurati aniqlandi.

- Talabalar va bitiruvchilarni dual ta’lim tizimini baholashga jalb qilinishi, ularda kompetensiyalarini shakllanishini yanada rivojlantirishda o‘z-o‘zini baholash tartibga dual ta’limni takomillashtirishga yordam berishi aniqlandi.

- Kasbiy kompetensiyalarni muvaffaqiyatli shakllanishini rivojlantirish uchun dual ta’limni tashkil etish tamoyillarini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega va talabalarni dual ta’lim asosida o‘qitish uslublarini yanada takomillashtirishni bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni davom ettirish kerak.

GEOGRAFIK OBYEKTLARGA NOM TANLASHNING HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI

Koshkar Makkamovich Xakimov – g.f.n., dotsent,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Mashrab Rustamovich Usmanov – dotsent,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Maqolada geografik obyektlarga nom tanlashning huquqiy-me'yoriy asoslari hamda, nomlash va qayta nomlashning tartib-tamoyillari va ularga qo'yilgan talablar, sohadagi mavjud muammolarning yechimiga qaratilgan tavsiyalar aniq misollar yordamida tahlil qilingan.*

Аннотация: *В статье анализируется нормативно-правовая база выбора наименований географических объектов, а также принципы и требования к наименованию и переименованию, а также на конкретных примерах даются рекомендации, направленные на решение существующих проблем в данной области.*

Abstract: *In this article through clear examples analyzed legal and regulatory basics of choosing names for geographical objects and had given recommendatiions for rules and requirements of naming and renaming, resolving of yexisting problems in this sphere.*

Kalit so'zlar: *geografik obyekt, joy nomi, geografik nom, toponimik siyosat, nomlash, qayta nomlash, huquqiy-me'yoriy hujjatlar, toponimiya.*

Ключевые слова: *географический объект, топоним, географическое название, топонимическая политика, наименование, переименование, нормативно-правовые документы, топонимия.*

Keywords: *geographical objest, name of place, geographical name, toponimic policy naming, re-naming, legal and regulatory dosuments, toponymy.*

Har qanday davlat toponimik siyosatida geografik obyektlar nomi tizimiga befarq bo'lolmaydi, ularni milliy qadriyatlarning ajralmas tarkibiy qismi sifatida, saqlab qolish va rivojlantirishga harakat qiladi. Chunki ma'muriy-hududiy birliklar, aholi punktlari, tashkilot va korxonalar, ijtimoiy tarmoq obyektlari, tadbirkorlik subyektlari va boshqa ko'plab geografik obyektlarning nomlari bevosita jamiyat manfaatlari uchun xizmat qiladi.

Shuning uchun, so'nggi yillarda geografik obyektlar nomiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda oxirgi yillarda qabul qilingan "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari (2011-y. 2022-y.), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining (2012-y. № 295, 2014-y. № 48) qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining (2020-y. PF-6084) farmoni, davlat ijroiya organlari uchun aniq maqsadlarga yo'naltirilgan toponimik siyosat yurgizishda huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Mazkur qonunda geografik obyektga quyidagicha ta'rif berilgan: - yerning hozirda yoki o'tmishda mavjud bo'lgan hamda muayyan o'rnashgan joyi bilan tavsiflanadigan, kelib chiqishi tabiiy yoki sun'iy bo'lgan yaxlit va nisbatan barqaror hosilalari. Ular jumlasiga: ma'muriy-hududiy birliklar (viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar); aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlari (mahallalar, shoh ko'chalar, ko'chalar, maydonlar, bog'lar, xiyobonlar); transport va muhandislik-texnika infratuzilmasi obyektlari (temir yo'l stansiyalari, avtostansiyalar, metropoliten stansiyalari, vokzallar, aeroportlar, portlar, pristanlar, ko'priklar, razyezdlar, yo'llar, kanallar, suv omborlari, to'g'onlar, dambalar); tabiiy

obyektlar (daryolar, ko'llar, muzliklar, tekisliklar, tog'lar, tog' tizmalari, g'orlar, cho'llar, vodiylar, daralar, muhofaza yetiladigan tabiiy hududlar, yonbag'irlar, foydali qazilmalar konlari) va boshqa shu kabi obyektlar kiradi[1].

Geografik obyektlar nomlariga oid qonun, farmon va qarorlarni qabul qilinishi davr talabi bilan bog'liq va muhim siyosiy, ijtimoiy, tarixiy ahamiyatga molik ish hisoblanadi. Masalan, "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonunning qo'shimchalar va o'zgartirishlar bilan takomillashtirilgan holda (2022-y.) qabul qilinishi:

- geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan yanada tartibga solishga hamda sohadagi qonun osti hujjatlarning takomillashuviga;

- O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish ishlarining muvofiqlashtirilishiga;

- xalqning tarixi, ma'naviyati, madaniyati bilan bog'liq nomlarni muhofaza qilish hamda ularning asossiz o'zgartirilishining oldini oluvchi qonuniy asoslarning vujudga kelishiga;

- geografik obyektlarga nom berishda mahalliychilik, xizmat mavqeyini suiiste'mol qilish kabi salbiy hollarga yo'l qo'ymaslikka;

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, korxonalar, muassasalar hamda tashkilotlar o'z vakolatlari doirasida sohaga mas'ul qilib belgilangan idoralar bilan kelishgan holda geografik obyektlar nomlarining rasmiy kataloglari va ma'lumotlarini nashr yetilishiga;

- O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha geografik лelar nomining yagona elektron bazasini yaratishga xizmat qilmoqda[2].

Eng avvalo, ushbu qonunning qabul qilinishi geografik obyektlarning nomlari sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishni muhimligi, ulardan to'g'ri foydalanish, joy nomlarini xalqimiz milliy va ma'naviy merosining tarkibiy qismi sifatida saqlash zarurligini tasdiqlaydi. Davlat tili qoida va me'yorlariga muvofiq keladigan, milliy qadriyatlarga mos hamda geografik obyektlarga qo'yish tavsiya yetiladigan nomlarni yaratish imkoniyatini berdi.

Mazkur qonun talablarining bajarilishini ta'minlash maqsadida qabul qilingan qarorlar yesa, mamlakatimiz toponimik siyosatida yuz berayotgan o'zgarishlarni o'z vaqtida anglab yetishni, mintaqalar toponimiyasidagi mavjud muammolarni mukammal o'rganish va bartaraf qilishni, yangi geografik obyektlarni nomlashda xalqimizning asrlar osha shakllangan va takomillashgan an'analariga, nomshunoslik qoidalariga qat'iy amal qilishni nazarda tutadi[3]. Shu bilan birga, ushbu normativ hujjatlar geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bilan bog'liq bo'lgan ayrim nomuvofiqliklarni to'la bartaraf yetadi va ularni standartlashtirish imkoniyatini beradi.

Ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Binobarin, shahar va qishloqlarimiz qiyofasi tanib bo'lmas darajada o'zgaryapti. Zamonaviy yangi shaharlar, posyolkalar, qishloq va ovullar paydo bo'lmoqda. Ular bilan birga ko'plab tadbirkorlik obyektlari, bilim dargohlari, tibbiy, madaniy-maishiy, savdo va umumiy ovqatlanish shoxobchalari, mahallalar, ko'cha-yu xiyobonlar

1 O'zbekiston Respublikasi "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi 2011-yili № O'RQ-303 -sonli va 2022-yil № O'RQ -799 – sonli Qonunlari.

2 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida" gi 2012-yili № 295-sonli Qarori.

3 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo'lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o'zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o'zgartirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 2014-yili № 48-sonli Qarori.

bunyod yetilmoqda. Ularning barchasiga bejirim, chiroyli, xalqimizning ko‘p asrlik an’analari va mentalitetiga mos keladigan nom tanlash zarurati mavjud[4].

Shunday ekan, har bir nomlovchi geografik obyektga nom tanlashning huquqiy asoslari, tanlash mezonlari, sohaga mas’ul davlat tashkilotlari hamda nomlovchining huquq va majburiyatlari nimalardan iborat ekanligini bilishi zarur. Chunki sohaga oid qabul qilingan qonun va qarorlarning talablarini aniq bilmasdan turib, mulk shaklidan qat’iy nazar geografik obyektlarga nom tanlashda xato va chalkashliklarga olib kelishi mumkin.

Shu sababdan, bu ishga mas’ul bo‘lgan shaxslar kamida sohaga oid qonun va qarorlar talablaridan xabardor bo‘lishi shart. Nom tanlayotgan vaqtda, ularni o‘tgan avlodlar bizga qanday nomlarni meros qilib qoldirgan, biz kelajak vorislarga qanday nomlarni qoldiryapmiz degan, andisha doimo bezovta qilishi kerak. Agar, nomlarning ma’naviy va tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi, ular insonlarda faxr va g‘urur hissini uyg‘otib, vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qilishini inobatga olsak mas’uliyat yanada ham oshadi[5].

Binobarin, nom tanlash zaruriyati paydo bo‘lganda, birinchidan, sohaga oid huquqiy-me’yoriy hujjatlar bilan yaqindan tanishishi kerak, ikkinchidan, yaxshi o‘ylab, shoshmasdan mulohaza qilib ish tutgan ma’qul. Eng muhimi geografik obyektga nom ma’muriy tashkilotlar qarori bilan emas, balki xalqimizning qalb qo‘ridan qaynab chiqishi kerak, shunda haqiqiy nom paydo bo‘ladi. Ko‘rinadiki, obyektlarga eng maqbul nomni tanlash ancha murakkab masala. Shuning uchun, eng avvalo, tanlagan nom quyidagi talablarga javob berishi kerakligini unutmaslik zarur:

- geografik obyektga eng xos bo‘lgan belgilarni aks ettirishi;

- mazkur geografik obyekt joylashgan hududdagi toponimik tizimga mos tushishi;

- mahalliy aholi turmushining geografik, tarixiy, milliy, etnik, tilga oid va boshqa xususiyatlarini hisobga olishi;

- qoida tariqasida, ko‘pi bilan uchta so‘zdan iborat bo‘lishi[6].

Shu bilan birga, tanlangan nom sodda, barchaga tushunarli, real haqiqatni aks etadigan, chuqur ilmiy, siyosiy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lishini unutmaslik darkor. Bu masalada nomlovchiga eng yaqin hamkor viloyat, shahar va tuman hokimiyatlari qoshida tashkil etilgan geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash komissiyalari hisoblanadi. Doimiy amal qiluvchi ushbu komissiyalar tarkibiga ko‘pincha, sohani yaxshi biladigan mutaxassislar, olimlar, ilm-fan, maorif, madaniyat muassasalari vakillari jalb qilingan bo‘ladi. Ular har qanday geografik obyektga, ularning mulkchilik shaklidan qat’i nazar nom tanlashda malakali yordam berishlari mumkin.

Binobarin, viloyat, shahar va tuman hokimiyatidagi mas’ul shaxslar yangi tashkil qilinayotgan geografik obyektlarga nom tanlashga jiddiy e’tibor qaratib, mazkur komissiyalar ishini faollashtirishlari zarur bo‘ladi. Komissiya a’zolari mahalliy hokimiyat vakillari boshchiligida nafaqat yangi obyektlarga nom nom tanlashda ko‘maklashishi, balki shahar va tumanlardagi barcha geografik obyektlar nomlarini ilmiyligini tekshirib, ularning lotin alifbosida to‘g‘ri yozilishi nazorat qilmog‘i lozim.

Har qanday geografik obyekt nomida asrlar davomida hududda sodir bo‘lgan tarixiy

4 Karayev S. Toponimiya Uzbekistana s toponimicheskim slovaryom. -T.: 2015. 500 -str.

5 Xakimov K.M. Mirakmalov M.T. Toponimika. Darslik. -T.; 2020. 355 -b.

6 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 20.10.2020-yili PF-6084 Farmoni.

voqea-hodisalar, iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlar aks yetgan bo‘ladi. Shuning uchun, joy nomlari ma’nosini aniq bilmasdan turib, ularni almashtirishga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Boshqacha aytganda, davlat tili qoida va me’yorlariga muvofiq keladigan, milliy qadriyatlarga mos hamda geografik obyektlarga qo‘yish tavsiya yetiladigan nomlar yaratishda, shunday yo‘l tutmoq lozimki, har bir avlod vakili nomlar orqali o‘z ona yurti tarixi, buguni va kelajagini ko‘z oldiga keltira olsin[7].

Shu bilan birga, yangi yaratilgan nomlarni saqlash va muhofaza qilish ham nihoyatda muhim vazifa sanaladi. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarining nomlari to‘g‘risida”gi Qonunida (2011-y. № O‘RQ-303) geografik obyektlarning nomlari davlat tomonidan muhofaza qilinadi va nomlarning birini boshqasiga o‘zboshimchalik bilan almashtirishga, geografik obyektlarning buzib ko‘rsatilgan nomlaridan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi, deb aniq belgilab qo‘yilgan.

Mazkur Qonunda geografik obyektlarning nomlaridan foydalanilishi va ularning saqlanishi ustidan nazoratni belgilangan vakolatlar doirasida: davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari; respublika komissiyasi; O‘zbekiston Respublikasi toponimika xizmati markazi; fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan.

Nom tanlashda hududning tabiiy sharoiti, iqtisodiyoti, mahalliy geografik terminlari, aholining tili va shevalari, tarixi, etnik tarkibi kabi omillar asos bo‘lib xizmat qilishi kerak. Shu bilan birga, joy nomining ma’naviy va tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi, ular insonlarda faxr va g‘urur hissini uyg‘otib, vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Eng muhimi har bir geografik nom bizning o‘zligimiz, milliyligimiz va boy tariximiz ko‘zgusi ekanligini unutmaylik.

7 Qorayev S. Toponimika. -T.: O‘zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati nashriyoti, 2006.- 320 -b.

ATOM ELEKTRON QAVATLARINING TUZILISHI MAVZUSINI INTERFAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QITISH

Dilafruz Muradova – dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada atom elektron qavatlarining tuzilishi mavzusini o'qitishning samarali interfaol metodlari keltirilgan.*

Аннотация: *В этой статье представлены эффективные интерактивные методы обучения структуре атомных электронных слоев.*

Abstract: *This article presents effective interactive methods of teaching the structure of atomic electronic layers.*

Kalit so'zlar: *pedagogika, metodika, aqliy hujum, kimyoviy rebus, "Tasdiqla" metodi, "Bilish zavqi" metodi, nostandart test.*

Ключовые слова: *педагогика, методика, мозговой штурм, химический ребус, метод "Подтверждение", метод "Удовольствие от познания", нестандартный тест.*

Keywords: *Pedagogy, methodology, brainstorming, chemical rebus, "Confirm" method, "Pleasure of knowing" method, non-standard test.*

Ushbu maqolaning bayonini uzoq vaqtlarda aytilgan rivoyatdan boshlaymiz. Kunlardan bir kun ko'l bo'yida qorni och qolgan bir kishi baliq tutib turgan donishmandga duch kelibdi va unga murojaat qilib: "Men ochman, menga yordam ber!", Donishmand quyidagicha javob beribdi: "Men senga baliq berishim mumkin, sen tez to'yasan va biroz vaqt o'tgach, xuddi shunday yana och qolasan va mendan yana yordam so'raysan. Men senga qarmoq berishim mumkin, lekin u qachondir sinib qolishi mumkin, unda sen menga yana murojaat qilishingga to'g'ri keladi. Yaxshisi, men senga qarmoq yasashni o'rgataman, bu uzoq va qiyin, lekin keyinchalik senga mening yordamim kerak bo'lmaydi. O'z yo'lingni tanla...

Yuqorida keltirilgan rivoyatdan kelib chiqadigan xulosa shuki, yaxshi o'qituvchi o'quvchiga "qarmoq yasashni" o'rgatishi va aqlli o'quvchi esa uni o'rganishi lozim. O'quvchilar "qarmoq yasashni" qanchalik tez va mustahkam o'rganib olsalar, ular shunchalik birovlarga muhtoj bo'lmasdan o'z "ovlariga" ega bo'ladilar. Mana shunday vazifalarni amalga oshirishda yangi interfaol va noan'anaviy pedagogik texnologiyalar juda qo'l kelishini tadqiqotchilar tomonidan turli ta'lim muassasalarida o'tkazilayotgan ko'pgina pedagogik tajribalarining natijalari tasdiqlamoqda[1].

Shuning uchun ham, ta`lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar o'z sohalari bo'yicha olib borayotgan mashg'ulotlarida innovatsion texnologiyalarni o'z o'rnida qo'llashni bilishlari o'ta zarur. Interfaol metodlar o'z mohiyatiga ko'ra ta'limiy yoki tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishda ma'lum darajada samaradorlikka erishishni ta'minlasada, biroq ularning har bir ta'lim yoki tarbiya jarayonida mahsuldorlikni ta'minlash bo'yicha turli imkoniyatlarga ega. Shu sababli professor-o'qituvchi (pedagog)lar interfaol metodlarni tanlashda o'rganilayotgan mavzu, muammo yoki hal qilinishi lozim bo'lgan masalaga e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, interfaol metodlarning samaradorligi yanada oshadi, qachonki, ularni qo'llashda ta'lim oluvchi talabalarning yosh, psixologik xususiyatlari, dunyoqarash darajasi, hayotiy tajribalari inobatga olinsa. Bu professor o'qituvchi (pedagog)lardan


1 Ergash o'g'li J.S. Kimyo o'qitishning metodlari va uslublari haqida tushuncha //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 8. – С. 596-600

kasbiy mahorat, malaka, bilimdonlik, sezgirlik ega bo‘lishni taqozo etadi[2].


Kimyo fanini o‘zlashtirishda, kimyoviy elementlarning kimyoviy xossalarini ifodalashda, tushuntirishda atomlarning atom elektron qavatlarining tuzilishi, qavatlarning elektronlar bilan to‘lib borishini tushuntirish muhim hisoblanadi. Bu mavzuni tushuntirish pedagogdan o‘ziga xos mahorat talab qiladi, shuning uchun interfaol metodlar yordamida o‘quvchilarda atom elektron qavatlarining tuzilishi bo‘yicha ko‘nikma shakllantirish dolzarb hisoblanadi. Quyida atomlarning elektron tuzilishi mavzusini o‘qitish metodikasi haqida to‘xtalib o‘tamiz[3].

Kimyoviy rebus. Har qaysi dars o‘tilgan mavzular bo‘yicha savol-javobdan boshlanadi. Biz esa o‘quvchilarning kimyo faniga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish uchun darslarni turli xil o‘yin texnologiyalaridan foydalanib boshlashni tavsiya etamiz. Shunday tavsiyalarimizdan biri bu kimyoviy rebuslardan foydalanishdir. Kimyoviy rebuslar turli xil rasmlar asosida tuziladigan boshqotirmalar hisoblanib, bu rasmlar ostiga turli kimyoviy terminlar yashiringan bo‘ladi. Rebusdan foydalangan vaqtga kimyoga qiziqishi yo‘q, kimyoviy bilimi past o‘quvchilar ham faol qatnashadilar. Bu esa yangi mavzu bayonini tushuntirishda ham bu kabi o‘quvchilar o‘qituvchini diqqat bilan tinglashlari va kimyo fanidan yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirishlariga, kimyo faniga qiziquvchi o‘quvchilar soni ortishiga olib keladi.

Quyida bir nechta kimyoviy rebuslarga misollar keltirilgan:



O‘tilgan mavzularni takrorlashda bundan tashqari quyidagicha tarqatma savollardan foydalanish mumkin:



“Juftini toping”

^{1}H, ^{2}D, ^{3}T IZOBAR

^{40}Ar, ^{40}K, ^{40}Ca IZOELEKTRON

Al, Si; Cu, Zn IZOTOP

Na+ Ne, H_2O, CH_4 IZOTON

“Ortiqchasini toping”

1s, 2s 2p 2d, 3s

1s, 1p, 2s, 2p, 3s, 3p, 3d

1s, 2s, 2p, 3s, 3p, 4s, 3d, 4p, 5s, 4d, 4f

Yangi mavzu bayonini aqliy hujum metodi bilan boshlaymiz va ko‘rgazmalilik tamoyili asosida davom ettiramiz.

Aqliy hujum: Manfiy zaryadlangan elektronlar musbat zaryadlangan yadroga tortilib qulab tushmaydimi?


Kimyoviy element atomi yadrosi atrofida har bir elektron juda katta tezlik bilan harakat qiladi. Natijada markazdan qochma kuch hosil bo‘lishi hisobiga yadroga qulab tushmaydi.

Ko‘rgazmalilik tamoyili asosida kimyo darslarini tashkil etish o‘quvchilar bilimini oshirishda, ularning kimyoviy bilimlarini oshirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ayniqsa, atomlarning elektron tuzilishi mavzusini tushuntirishda bu tamoyilning o‘rni

2 Begimkulov U.Sh., Djurayev R.X. va boshqalar. Pedagogik ta’limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot. – Toshkent: 2011
3 Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. -T.: Nihol, 2013.


beqiyos. Atom juda ham kichik o'lchamga ega bo'lganligi sababli eng zamonaviy va eng kuchli elektron mikroskop orqali ham atom tuzilishini ko'rish imkoniyati cheklangan. Atomning tuzilishi faqatgina kimyoviy tekshirishlar va matematik, kvant-kimyoviy hisoblashlar orqaligina taklif etilgan va tasdiqlangan. Shunday ekan o'quvchilarga atomning tuzilishini real holatda ko'rish imkoniyati cheklangan. Atomning elektron tuzilishini quyida keltirilganga o'xshash ko'rgazmali vositalardan foydalanishni tavsiya etamiz.

Elektron yadro atrofida energiya zaxirasi miqdoriga va boshqa sabablarga bog'liq ravishda ma'lum bir energetik pog'onalarda harakat qiladi. Elektronning energiya miqdori qanchalik kam bo'lsa, yadroga yaqinroq bo'ladi. Energiya miqdori ortib borishi bilan yadrodan uzoqroqda harakatlanadi.



Energetik pog'onalar n — harfi bilan belgilanadi, uning son qiymati 1, 2, 3, 4, 5, 6,... yoki harflarda: K, L, M, N, O, P, Q bilan ifodalanadi. $N = 2n^2$


Energetik pog'onalar sonining raqamlar bilan ifodalanishi	1	2	3	4	5	6
Harflar bilan ifodalanishi	K	L	M	N	O	P
Elektronlar soni	2	8	18	32	50	72



Atomida elektron yadro atrofida sharsimon bulut hosil qilib harakatlanadi. Bunda elektron yadrodan $0.53*10^{-10}$ m uzoqlikda bo'ladi?

Bilasizmi? Elektronlar qanday xususiyatlariga ko'ra bitta energetik pog'ona (qavat)da joylashadi?

Energiya miqdori deyarli bir-biriga yaqin bo'lgan bir necha elektronlar ma'lum bir energetik pog'onani hosil qiladi.



Element belgisi	Yadro zaryadi	K	L
Li	+3	2 ē	1 ē
Be	+4	2 ē	2 ē
B	+5	2 ē	3 ē
C	+6	2 ē	4 ē
N	+7	2 ē	5 ē
O	+8	2 ē	6 ē
F	+9	2 ē	7 ē
Ne	+10	2 ē	8 ē

O'tilgan mavzuni mustahkamlashda esa "Tasdiqla" yoki "Bilish zavqi" metodlaridan foydalanish mumkin.

"Tasdiqla" metodi

Elementning kimyoviy belgisi	Tartib raqami	Yadro zaryadi	K	L	M
Na					
P					
Cl					

"Bilish zavqi"

	Na	K	Ca	Mg	Li
$1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6 4s^1$					
$1s^2 2s^2 2p^6 3s^1$					
$1s^2 2s^1$					
$1s^2 2s^2 2p^6 3s^2$					
$1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6 4s^2$					

Interfaol ta'lim samaradorligini aniqlashda nostandart testlardan foydalanishni tavsiya etdik, chunki nostandart test topshiriqlarini ta'lim-tarbiya jarayonida maqsadga muvofiq foydalanish jarayoni o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini haqqoniy va odilona nazorat qilish va baholash imkonini beradi. Nostandart test topshiriqlarini tayyorlashda mazmun va shakl asosiy o'rinni egallaydi.Shu sababli,test topshiriqlari mazmunini tanlash printsiplari haqida fikr yuritish lozim[4].

Atomlarning elektron tuzilishi mavzusi bo'yicha nostandart testlardan na'munalar:

Agar 150-element ixtiro qilinsa, uning 5-pog'onachasida eng ko'pi bilan nechta elektron bo'lar edi?

Javob: ... ta

37- elementning 3- pog'onasida ko'pi bilan nechta elektron bo'ladi?

Javob: ... ta

3. Elementning elektron konfiguratsiyasi $1s^2 2s^2 2p^6 3s^1$ bo'lsa bu metall?

a)xa b)yo'q

4. Quyidagilardan qaysi biri: 1) $3d^9 4s^1$; 2) $3d^8 4s^2$; 3)$3d^6 4s^2 4p^2$; 4) $3d^7 4s^3$ 28-elementning elektron konfiguratsiyasini to'g'ri aks ettiradi?

5. Elektron konfiguratsiyasi ...$4s^2 3d^{10}$ ketma-ketligida to'ladigan element qaysi davrga joylashganligi, uning energetik pog'onalarida nechtadan elektron bo'lishi va undagi valent elektronlar sonini toping.


Javob: ...

6. Germaniy atomi valent elektronlarining kvant sonlarini (n, l, ml, ms) aniqlang.

n				
l				
m_l				
m_s				


7. Quyidagi orbital kvant sonlarga mos qiymatlarni yozing (0,1,2,3)

8. Ushbu rasmda kislorodning qaysi ionining tuzilish modeli keltirilgan?



A) O^{2-} B) O^{2+} C) O — D) O +

9. Quyidagilardan s-1, p-2, d-3 orbitallarni ko'rsating.



a b c d

A) 1d, 2b, 3c B) 1d, 2a, 3b C) 1d, 2c, 3a D) 1d, 2a, 3c

4 Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari.-T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.

10. $X^{3}+$, Y^{2-}, Z^{4-} ionlaridagi elektronlar soni teng. Z elementning protonlari soni 32 ta bo‘lsa, X va Y ning neytronlari yig‘indisini aniqlang.

A) 85 B) 72 C) 95 D) 105

Xulosa qilib aytish mumkinki, atom elektron tuzilishi mavzusini o‘qitishda interfaol ta’lim metodlaridan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi. Ayniqsa mavzu uchun aqliy hujum, ko‘rgazmali usul, “Tasdiqla” yoki “Bilish zavqi” metodlari, o‘tilgan mavzu samaradorligini aniqlashda esa nostandart testlardan foydalanish samarali sifatida taklif etildi. Bundan tashqari o‘quvchilarning individual va guruh bo‘lib ishlashlari ta’minlansa, darslarda turli innovatsion texnologiyalar, o‘yin texnologiyalardan foydalanilsa, ularning darsga bo‘lgan qiziqishlari ortib boradi, fikrlash doirasi kengayadi, ko‘proq mustaqil bilim olishga intiladi va hamkorlikda ishlashni o‘rganadi. Bu tarzda darslarni tashkil qilish nafaqat o‘quvchilarning bilim samaradorligii oshiradi, balki o‘qituvchining ham o‘z ustida ishlashga, yuqori natijalarga erishishiga va vaqtni to‘g‘ri taqsimlay olishiga ham yordam beradi.

NEYTRINO ASTRONOMIYASINING ERISHGAN NATIJALARI ORQALI KOSMOLOGIYANI O'RGANISH SAMARADORLIGI

Anvar Razzoqovich Qurbonov – dotsent,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Jaxongir Abdumalikovich Xotamov – o'qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

***Annotatsiya**: Ushbu maqolada steril neytrinolar yangi zarralar ekanligi va bu zarralar elementar zarralar fizikasi hamda kosmologiyaning umumiy standart modelini kengroq tushuntirishi haqida yoritilgan. Steril neytrinolarning mavjudligi neytrinolar massasini, qorong'u materiyaning tabiati va kosmik tuzilmaning shakllanishi kabi muhim masalalarni tushunishga yordam beradi. Shuningdek, neytrino astronomiyasining yutuqlari koinotni o'rganishdagi yangi imkoniyatlarni kashf etadi.*

***Аннотация**: В этой статье подчеркивается, что стерильные нейтрино – это новые частицы и что эти частицы объясняют физику элементарных частиц и общую стандартную модель космологии в более широком смысле. Существование стерильных нейтрино помогает понять такие важные вопросы, как масса нейтрино, природа темной материи и формирование космической структуры. Кроме того, достижения нейтринной астрономии открывают новые возможности в изучении Вселенной.*

***Abstract**: This article highlights that sterile neutrinos are new particles and that these particles explain particle physics and the general standard model of cosmology more broadly. The existence of sterile neutrinos helps to understand such important questions as neutrino mass, the nature of dark matter, and the formation of cosmic structure. In addition, the achievements of neutrino astronomy open up new possibilities in the study of the Universe.*

***Kalit so'zlar:** neytrino, kosmologiya, model, materiya, steril neytrino, radiatsiya, evolyutsiya, katta portlash.*

***Ключевые слова:** нейтрино, космология, модель, материя, стерильное нейтрино, радиация, эволюция, большой взрыв.*

***Keywords**: neutrino, cosmology, model, matter, sterile neutrino, radiation, evolution, Big Bang.*

Neytrino astronomiyasi bu – astronomiyaning yangi va tez rivojlanayotgan bo'lim bo'lib, koinot modellarini ishlab chiqishda astrofizikaning yechilmayotgan muammolarini yechishga yordam beradi. Yaqinda Ice Cube Neytrino Observatoriyasi tomonidan neytrinolarning astrofizik oqimining kashf qilinishi bilan neytrino astronomiyasi paydo bo'ldi va bu kosmosni neytrino obyektivi orqali ko'rish imkoniyatini keltirib chiqardi. Shu o'rinda asrlar davomida optik teleskoplar osmonni ko'rinadigan yorug'lik bilan o'rganish uchun qulay vosita bo'lib kelgan. XIX asrda, olimlar qurollanmagan ko'zga ko'rinmaydigan yorug'likning ko'proq shakllarini kashf qilishlari sababi, bu Habil teleskopi kabi qurilmalarning yaratilishi bo'ldi[1].

Hozirgi kunga kelib, standart modelning eng sirli zarralaridan biri bo'lgan neytrinolar astrofizik tadqiqotlar uchun yangi imkoniyatlar ochdi. Neytrino astronomiyasi koinotni o'rganishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda, chunki neytrinolar yuqori penetratsion kuchga ega bo'lib, ular yulduzlar ichidagi jarayonlarni tushunishga yordam beradi va ultra yuqori energiyali kosmik nurlarning kelib chiqishini o'rganishga imkon beradi. Yulduz portlashlarida neytrino axborotlari elektromagnit nurlanishdan bir necha soat oldin bizga yetib kelishi mumkin, bu esa portlashlar haqidagi ma'lumotlarni oldindan olish imkonini beradi. Neytrinolar koinot evolyutsiyasining turli bosqichlarida, ayniqsa fotonlar bilan birga koinotning kengayish

1 Chernikov P.A., Ivanchik A.V. The influence of the effective number of active and sterile neutrinos on the determination of the values of cosmological parameters. Astron. Lett. 48, 689–701 (2022).

dinamikasini aniqlashda muhim rol o'ynaydi.

Neytrinolarning yuqori penetratsiya qobiliyati koinotdagi materiya va energiya taqsimotini tushunishga yordam beradi. Radiatsiya hukmron bo'lgan davrda, neytrinolar fotonlar bilan birga koinotning kengayishiga ta'sir qiladi, keyinchalik esa norelativistik bo'lib, ular relativistik bo'lmagan materiyaning, masalan, sovuq qorong'i materiya va barion materiyaning taqsimotiga ta'sir qiladi. Neytrinolar koinot evolyutsiyasining turli bosqichlariga, jumladan birlamchi nukleosintez va barion assimetriyasiga ta'sir qiladi.

Yaqinda, Katta portlashdan olingan relikt neytrinolardan tashqari, birlamchi nukleosintezdagi antineytrinolarning mavjudligi nazariy jihatdan bashorat qilingan. Ularning aniqlanishi koinotdagi barion assimetriyasiga qo'shimcha dalil bo'lishi mumkin. Shuningdek, ayrim mustaqil tajribalarning natijalari yengil steril neytrinolarning mavjudligini ko'rsatmoqda, bu esa standart kosmologik modelning bashoratlariga qarshi turadi. Biroq bu qarama-qarshiliklar koinotning lepton assimetriyasini o'z ichiga olgan kengaytirilgan modellar bilan bartaraf etilishi mumkin.

Kosmologik neytrinolarni to'g'ridan to'g'ri aniqlash hozircha juda qiyin, chunki ularning o'zaro ta'siri juda kichik. Ammo kelajakda buni amalga oshirish mumkin bo'lsa, Katta portlashdan keyingi koinot evolyutsiyasining dastlabki bosqichlari haqida to'g'ridan to'g'ri ma'lumot olishimiz mumkin.

Astronomiyaning rivojlanishi insoniyatning koinotga bo'lgan qarashini kengaytirdi. Optik astronomiya, radioastronomiya va keyinchalik rentgen va gamma-nurli astronomiya orqali biz galaktikalarning markazlari, yulduzlararo fazolar va qora tuynuklarning tabiati haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ldik. Bularning barchasi elektromagnit nurlanishi asosida amalga oshirildi, ammo koinot sirlarini o'rganishning boshqa usullari, jumladan neytrino va tortishish to'lqinlari astronomiyasi, yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bu tadqiqotlar koinotning dastlabki davrlaridan hozirgi kungacha bo'lgan rivojlanishini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Elementar zarrachalar fizikasining standart modelini kengaytirish variantlaridan biri steril neytrinolarni joriy etishdir. Bu bir vaqtning o'zida bir nechta muammolarni hal qiladi: steril neytrinolar tebranish mexanizmi orqali faol neytrino turlarining massasini (elektron, muon va tau neytrinolar) hosil qiladi, ular qorong'i materiya roliga mos keladi va ular ham bo'lishi mumkin. Koinotning barion assimetriyasini yaratish manbai[2]. Steril neytrinolarning massa diapazoni aniqlanmagan. Ular yengil bo'lishi mumkin, massalari bir necha elektronvoltga teng va juda og'ir, massalari 10^{15} GeV gacha. Steril neytrinolarning kosmologiyadagi roli ham ularning massasi bilan belgilanadi. 10^{9} – 10^{15} GeV massali o'ta og'ir steril neytrinolar erta koinotda lepton va barion assimetriyasini yaratishga qodir. Ularning umri shunchalik qisqaki, ular birlamchi nukleosintezdan oldin parchalanadi va termodinamika ularning mavjudligining barcha izlarini yo'q qiladi; Faqatgina koinotning barion assimetriyasi haqiqati hozirgacha bunday imkoniyat haqida gapira oladi (boshqalarni hisobga olmaganda). Og'ir steril neytrinolar, massasi 10^{2}–10^{9} GeV va umri koinotning hozirgi yoshi bilan taqqoslanadigan yoki undan uzoqroq, sovuq qorong'i materiya roli uchun yaxshi nomzodlardir. Va nihoyat, massasi 1eV bo'lgan yengil steril neytrinolar kosmologiyaga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin, ular quyidagi adabiyotda batafsilroq muhokama qilinadi[3].

2 Chernikov P.A., Ivanchik A.V. The influence of the effective number of active and sterile neutrinos on the determination of the values of cosmological parameters. Astron. Lett. 48, 689–701 (2022).

3 V.Ivanchik, O.A.Kurichin, and V.Y.Yurchenko. Cosmological neutrinos and their influence on the evolution of the universe. Radiophysics and Quantum Electronics, Vol. 66, No. 9, February, 2024

Bugungi kunga kelib, ushbu tajribalarning holati juda ziddiyatli, chunki natijalar har doim ham bir-biriga mos kelmaydi va ba'zida ular butunlay mos kelmaydigan deb aytiladi. Masalan, yaqinda chop etilgan maqola steril neytrino mavjudligi haqidagi gipotezani rad etadi[4]. Shunga qaramay, STEREO va Neytrino-4 tajribalari natijalariga rasmiy ravishda zid kelmaydigan yengil steril neytrino tebranishlarining bir qator parametrlari hali ham mavjud, shuning uchun yengil steril neytrino mavjudligi haqidagi savolni ko'rib chiqish mumkin emas.

Radiatsiya ustunlik qiladigan bosqichda energiya zichligining o'zgarishiga olib keladi, bu relyativistik neytrino turlarining N_{eff} deb ataladigan samarali soni yordamida parametrlash uchun qulaydir, bu esa o'z navbatida munosabatlar bilan belgilanadi.

$$\frac{\rho_\nu}{\rho_\gamma} = \frac{7}{8} N_{eff} \left(\frac{4}{11}\right)^{4/3} \quad (1)$$

Mana, ρ_ν va ρ_γ mos ravishda neytrino va foton energiya zichligi, oxirgi omil neytrino-foton harorat nisbati $T_n / T = (4/11)^{1/3}$ va N_{eff} = 3,044 standart modelda[5]. Yengil steril neytrino mavjud bo'lganda N_{eff} ga qo'shilishini aniqlaydigan ΔN_{eff} miqdorini kiritib, steril va faol neytrinolarning haroratlari mos kelishini hisobga olsak, umumiy energiya zichligini quyidagicha yozish mumkin.

$$\rho_R = \rho_\gamma \left[1 + \frac{7}{8}(N_{eff} + \Delta N_{eff}) \left(\frac{4}{11}\right)^{4/3}\right] \quad (2)$$

$$\Delta N_{eff} = \left[\frac{7}{8}\left(\frac{4}{11}\right)^{4/3}\right]^{-1} \frac{\rho_\nu^{(s)}}{\rho_\gamma} \quad (3)$$ son

$\rho_\nu^{(s)}$ steril neytrinolar faol neytrinolarning tebranishlari natijasida hosil bo'lganligi sababli, ular o'z navbatida Fermi-Dirak muvozanatining birlashgan taqsimot funksiyasi bilan tavsiflanadi, steril neytrinolar ham muvozanat taqsimot funksiyasiga ega bo'lishini kutish mumkin. Quyida keltirilgan maqolada neytrinolarni aralashtirish parametrlarining haqiqiy o'lchovlaridan foydalangan holda amalga oshirilgan hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, massalari bir necha elektronvoltga teng bo'lgan yengil steril neytrinolar neytrinolarning ajralish momentiga qadar to'liq issiqlikka aylanib, kengayib borayotgan koinotda qolishi uchun vaqtlari bor[6]. ΔN_{eff} = 1 bilan qo'shimcha relyativistik erkinlik darajasi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, tajribalarda olingan yengil steril neytrinolarning parametrlari juda katta noaniqlik oraliqlariga ega va ishonchliligi bu natijalar qo'shimcha tasdiqlashni talab qiladi. Aralash burchaklari sezilarli darajada past bo'lsa, steril neytrinolarning termalizatsiyasi to'liq bo'lmaydi va shuning uchun relyativistik erkinlik darajalari soni $0 \le \Delta N_{eff} < 1$ oralig'ida bo'lad[7]. To'liq termalizatsiya holatida biz ΔN_{eff} =1 ga egamiz va bu fakt Olamning kengayish tezligini va natijada dastlabki nukleosintezning taxminlarini sezilarli darajada o'zgartiradi. 2[a] shakl shuni ko'rsatadiki[8], neytrino turlarining samarali sonini to'rttaga oshiradigan yengil steril neytrinoning mavjudligi [4] He ning nisbiy ko'pligi haqidagi nazariy prognozni tubdan o'zgartirishga olib keladi, bu deyteriy va anizotropiya bo'yicha kosmik mikroto'lqinli fon radiatsiyasi kuzatuv ma'lumotlariga mos kelmaydi. Bugungi kunga kelib, bu yengil steril neytrino mavjudligi uchun eng qattiq cheklovdir.


4 V.V.Barinov at all. Search for electron-neutrino transitions to sterile states in the BEST experiment. Phys. Rev. C 105, 065502 (2022)

5 P.Serebrov ,1,* R.M.Samoilov,1 V.G.Ivochkin,1 A.K. Fomin,1 V.G.Zinoviev,1 P.V.Neustroev,1 V.L.Golovtsov,1 S.S.Volkov,1 A.V.Chernyj,1 O.M.Zherebtsov,1 M.E.Chaikovskii,1 A.L.Petelin,2 A.L.Izhutov,2 A.A.Tuzov,2S.A.Sazontov,2 M.O.Gromov,2 V.V.Afanasiev,2 M.E.Zaytsev,1,3 A.A.Gerasimov,1 and V.V.Fedorov1. Search for sterile neutrinos with the Neutrino-4 experiment and measurement results. Physical review d 104, 032003 (2021)

6 Jack J. Bennett, Gilles Buldgen, Pablo F. de Salas, Marco Drewes, Stefano Gariazzo, Sergio Pastor and Yvonne Y.Y. Wong "Towards a precision calculation of the effective number of neutrinos Neff in the Standard Model. Part II. Neutrino decoupling in the presence of flavour oscillations and finite-temperature QED" Journal of Cosmology and Astroparticle Physics, Volume 2021, April 2021.

7 D.S.Gorbunov. Sterile neutrinos and their role in particle physics and cosmology. Journal Physics-Uspekhi 31 May 2014.

8 Chernikov, P.A., Ivanchik, A.V. The influence of the effective number of active and sterile neutrinos on the determination of the values of cosmological parameters.Astron. Lett. 48, 689–701 (2022).



1-rasm. Yengil steril neytrino ΔN_{eff} ning qo‘shimcha nisbiy erkinlik darajalari ta’sirini lepton assimetriyasi ξ orqali kompensatsiya qilish. Panel a, Y_p ning baryon–foton nisbati η_{10} ga bog‘liqligini hisoblangan qaramliklarni ko‘rsatadi. Qizil nuqtali chiziq Yp (η_{10}) bog‘lanishini, agar bitta yengil steril neytrino mavjud bo‘lsa, ko‘rsatadi. Turkuaz nuqtali chiziq esa lepton assimetriyasi ξe = 0.05 mavjud bo‘lsa, Yp (η_{10}) bog‘lanishini ko‘rsatadi. Panel b esa, yengil steril neytrino bilan bog‘liq qo‘shimcha nisbiy erkinlik darajasining ta’sirini to‘liq kompensatsiya qiladigan lepton assimetriyasi ξ ni ko‘rsatadi[9].

Neytrino astronomiyasi koinotni o‘rganish uchun juda qimmatli imkoniyatlarni taqdim etadi, chunki neytrinolar koinotning dastlabki davrlarida tug‘ilib, uning evolyutsiyasiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Neytrinolarning xususiyatlari, ayniqsa, kosmik mikroto‘lqinli fon nurlanishining anizotropiya spektri orqali aniqlanishi mumkin bo‘lgan kosmologik parametrlar bilan bog‘liq. Bu parametrlar koinotning kengayishi va uning tarkibidagi turli moddalar (masalan, qorong‘i materiya va qorong‘i energiya)ni o‘rganishga yordam beradi.

Katta portlashdan keyingi dastlabki daqiqalarda hosil bo‘lgan neytrinolar koinotning evolyutsiyasining boshlang‘ich bosqichlarida ishtirok etgan va bu ularning izlari kosmologik kuzatuvlar orqali topilishi mumkin. Ayniqsa, birlamchi nukleosintez jarayonida hosil bo‘ladigan antineytrinolarning mavjudligi, Katta portlashdan keyin olamdagi nomutanosiblik jarayonlariga, ya’ni barion assimetriyasiga dalil bo‘lishi mumkin. Barion assimetriyasi, ya’ni materiya va antimateriyaning tengsizligi, koinotdagi energiya va moddalar taqsimotini tushunishda asosiy rol o‘ynaydi.

Shuningdek, steril neytrinolar yoki ularning mavjudligi, standart kosmologik modelga mos kelmasligi mumkin, ammo ba’zi kengaytirilgan modellarda (masalan, lepton assimetriyasini qo‘shish orqali) bu qarama-qarshiliklar bartaraf etilishi mumkin.

Kosmologik neytrinolarni qayd etish imkoniyati koinotning dastlabki soniyalaridan, daqiqalaridan va soatlaridan to‘g‘ridan to‘g‘ri ma’lumot olishga yordam beradi. Bu esa Katta portlashdan keyin koinotning qanday shakllanishini va uning keyingi evolyutsiyasini yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Neytrino astronomiyasi, shunday qilib, kosmologiyaning rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi va bizga koinotning eng oldingi tarixidan bevosita dalillarni taqdim etishi mumkin.

9 Particle Data Group, R.L.Workman, V.D.Burkert at all. Review of Particle Physics. Progress of Theoretical and Experimental Physics, Volume 2022, Issue 8, August 2022,

RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASH (NEFT-GAZ) MUHANDISLARINI IXTIROCHILIK FAOLIYATIGA TAYYORLASHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA XORIJIY TAJRIBALAR

Marjona Qiyom qizi To'raqulova – p.f.f.d., dotsent,
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

***Annotatsiya**: Mazkur maqolada, bo'lajak raqamli transformatsiyalash muhandislarini ixtirochilik faoliyatiga tayyorlashga ta'sir etuvchi turli omillar va xorijiy tajribalar tahlil qilinadi. Tadqiqotda, avvalo, ixtirochilik faoliyatiga tayyorlashda ta'limning ahamiyati va raqamli texnologiyalarning innovatsion ekosistema bilan aloqasi o'rganiladi. Bo'lajak muhandislar uchun raqamli transformatsiyaning turli sohalaridagi bilim va ko'nikmalarni egallash, shuningdek, ijtimoiy va texnologik o'zgarishlarga moslashuvchanlikni rivojlantirish muhim omillari bayon etiladi. Shuningdek, xorijiy tajribalar, jumladan, sanoat va ta'lim tizimining integratsiyasi, amaliyotlar, startaplar va ilmiy tadqiqotlar orqali yangi innovatsiyalarni ishlab chiqish, sanoatdagi muammolarni "loyilash" metodi orqali yechish ko'nikmasini shakllantirish natijasida neft-gaz sohasi muhandislari tayyorlanadi.*

***Аннотация**: В статье анализируются различные факторы и зарубежный опыт, влияющие на подготовку будущих инженеров цифровой трансформации к изобретательской деятельности. В исследовании в первую очередь рассматривается важность образования в подготовке к изобретательской деятельности и его связь с инновационной экосистемой цифровых технологий. В курсе излагаются ключевые факторы, позволяющие будущим инженерам приобретать знания и навыки в различных областях цифровой трансформации, а также развивать способность адаптироваться к социальным и технологическим изменениям. Также инженеры нефтегазовой отрасли обучаются на основе зарубежного опыта, включая интеграцию промышленности и систем образования, разработку новых инноваций посредством стажировок, стартапов и научных исследований, а также формирование навыков решения проблем в отрасли посредством метод "дизайна".*

***Abstract**: This article analyzes various factors and foreign experiences that affect the preparation of future digital transformation engineers for inventive activity. The study, first of all, examines the importance of education in preparing for inventive activity and the connection of digital technologies with the innovation ecosystem. It describes important factors for future engineers to acquire knowledge and skills in various areas of digital transformation, as well as develop adaptability to social and technological changes. It also analyzes foreign experiences, including the integration of the industry and education system, the development of new innovations through internships, startups and scientific research, and the formation of skills to solve problems in the industry through the "sandwich" method.*

***Kalit so'zlar:** integratsiya, startap, raqamli trasformatsiya, innovatsiya, muhandis, ixtiro, patent, sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik.*

***Ключевые слова:** интеграция, стартап, цифровая трансформация, инновации, инженер, изобретение, патент, искусственный интеллект, кибербезопасность.*

***Keywords**: integration, startup, digital transformation, innovation, engineer, invention, patent, artificial intelligence, cyber security.*

Bugungi kunda global iqtisodiyotning asosiy rivojlanish yo'nalishlaridan biri raqamli transformatsiya bo'lib, bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun yuqori malakali muhandislar zarur. Iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirish uchun bizga yuqori malakali muhandis-texnologlar suv bilan havodek zarur. Har bir vazir, tarmoq rahbari, rektor va professor-o'qituvchi mas'uliyatni chuqur his qilib, qattiq ishlasa, izlansa, bunga albatta erishamiz, – dedi Shavkat Mirziyoyev o'zining 2024-yil 20-iyun kuni muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash va oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishida. Raqamli "O'zbekiston – 2030" strategiyasini

tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida farmonlari ushbu taqdiqotning asosi hisoblanadi. Ayniqsa, raqamli transformatsiyalash muhandislari, ya’ni ixtirochilik va innovatsiyalarni yaratish bo‘yicha yuqori darajada tayyorlangan mutaxassislar, bu jarayonning markaziy aktorlari hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar sohasidagi tezkor o‘zgarishlar va yangi imkoniyatlar ishlab chiqarish va xizmatlar sektorida samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Biroq bunday muhandislarni ixtirochilik faoliyatiga tayyorlash uchun nafaqat texnologik bilimlar, balki ijodkorlik, tizimli fikrlash, shuningdek, ijtimoiy va etikal jihatlar kabi ko‘plab omillarni hisobga olish zarur[1].

Raqamli transformatsiya muhandislarini tayyorlashda asosiy e’tibor ixtirochilik va innovatsiyaga yo‘naltirilgan yondashuvlarni rivojlantirishga qaratilgan. Ixtirochilik faoliyati, o‘z navbatida, texnologik yangiliklarni yaratishdan tashqari, muammolarni hal qilish va yangi, ilg‘or yechimlarni topish jarayonini ham o‘z ichiga oladi. Bunday faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun talabalar nafaqat o‘z fanlari bo‘yicha chuqur bilimlarga ega bo‘lishi, balki ularni real hayotdagi masalalar bilan bog‘lay olishlari lozim[2].

Raqamli transformatsiyalashning ko‘plab sohalarda joriy etilishi, shuningdek, mavjud texnologiyalarning doimiy yangilanib turishi ixtirochilik faolligini yanada muhimroq qilishga undaydi. Shuning uchun bo‘lajak muhandislarga yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish, ulardan innovatsion yechimlar yaratishda samarali foydalanish, shuningdek, jamoada ishlash va kommunikatsiya qilish kabi ko‘nikmalarni o‘rgatish zarur.

Ilg‘or muhandislik maktablari bo‘lajak muhandislarga innovatsiyalar yaratishda katta rol o‘ynaydi. Bu maktablar talabalarga zamonaviy texnologiyalarni, ilmiy yondashuvlarni va kreativ fikrlashni o‘rgatish orqali jamiyatni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Quyida ilg‘or muhandislik maktablarining bo‘lajak muhandislarga qanday innovatsiyalar yaratish imkoniyatlarini taqdim etadi bularga quyidagilar kiradi:

1. Yuqori texnologiyalarni o‘rganish va amaliyotda qo‘llash – ilg‘or muhandislik maktablari talabalarga sun’iy intellekt, robototexnika, IoT (Internet of Things), 3D bosib chiqarish va boshqa ilg‘or texnologiyalarni o‘rganish imkoniyatini beradi. Bu texnologiyalarni o‘rganish va amaliyotda qo‘llash orqali muhandislar quyidagi innovatsiyalarni yaratishlari mumkin:

–avtonom tizimlar – sun’iy intellekt va robototexnikaning integratsiyasi yordamida avtonom transport vositalari, aqlli fabrikalar, yangi tibbiy texnologiyalar yaratish;

–aqlli shaharlarda barqaror infratuzilma – IoT texnologiyalari yordamida energiyani tejash, xavfsizlikni oshirish va resurslarni samarali boshqarish tizimlarini ishlab chiqish.

2. Barqarorlik va ekologiya muhandisligi – bugungi kunda ekologik inqiroz va iqlim o‘zgarishlari masalalari muhandislarga barqaror texnologiyalarni yaratishni taqozo etadi. Ilg‘or muhandislik maktablari ekologik texnologiyalarni yaratishga qaratilgan innovatsiyalarni rivojlantiradi, masalan: yashil energiya – quyosh, shamol va boshqa qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish texnologiyalarini yaratish;

–atrof-muhitni muhofaza qilish texnologiyalari – qayta ishlash, chiqindilarni

1 Turakulova M.K., Rakhmonov K.S. (2020). Identification and development of the abilities and creativity of gifted students in higher educational institutions. Asian journal of multidimensional research. Special issue.

2 Turakulova M.K. (2022) Scientific And Creative Training Of Teachers In The Formation Of Technical Creativity Of Talented Students. International Congress on Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences. Malaysia.

kamaytirish va atrof-muhitni toza saqlashga qaratilgan tizimlar.

3. Interdisipliner yondashuv. Bugungi kunda texnologiya va fanlar o'rtasidagi chegara tobora kamaymoqda. Ilg'or muhandislik maktablari talabalarga boshqa fanlar bilan hamkorlikda ishlashni o'rgatadi, bu esa yangi va innovatsion mahsulotlarni yaratishga yordam beradi. Masalan:

Biotexnologiyalar – genetik muhandislik, bioinformatika va biomateriallar kabi sohalarda yangi texnologiyalarni ishlab chiqish;

Nano-texnologiyalar – Nano-o'lchamdagi materiallar va tizimlar ishlab chiqish orqali yangi turdagi mahsulotlar va tibbiyot vositalarini yaratish.

4. Innovatsion tadqiqot va startaplar yaratish – ilg'or muhandislik maktablari talabalarga yangi g'oyalar bilan ishlash, startaplar yaratish va o'z loyihalarini amalga oshirish uchun zarur bilim va resurslarni taqdim etadi. Bu yerda talabalar yangi texnologiyalarni yaratish va ularni tijoratlashtirishni o'rganishadi masalan:

O‘quv dasturlarining katta guruhidan foydalangan holda, o‘qituvchi fikrlash jarayonlarining ikki turi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan o‘quv faoliyatini yaratadi: o‘quvchi tomonidan ta’lim mazmunini (o‘quv materialining bilim va ko‘nikmalarini) o‘zlashtirish va o‘qituvchi tomonidan ushbu o‘quv jarayonlarini boshqarish. Talaba o‘qituvchi tomonidan yoki o‘quv qo‘llanmasi, elektron darslik yoki internet orqali boshqariladi. Qayta aloqa tamoyili asosida ta’lim mazmunini assimilyatsiya qilish jarayonini boshqarish pedagogikada keng tanilgan. Ta’limga bunday yondashuv kompyuterga asoslangan ta’limni ko‘rib chiqishda samarali ekanligini isbotlaydi.

Adaptiv dasturlar sizga o‘quv jarayonini individuallashtirishga imkon beradi, ya’ni ma’lum bir talabaning individual xususiyatlariga moslashadi. Bunday holda, kompyuter talaba bilan suhbat o‘tkazadi, qanday va nimada xato qilganini tan oladi va aniq xatolarga mos yordam beradi.

2. Namoyish dasturlari o‘quv materiallarini ekranda vizual ravishda namoyish etish uchun mo‘ljallangan interfaol grafikalardan foydalanish yangi materialni chizmalar, grafiklar, jadvallar, kino parchalari va boshqalar ko‘rinishidagi aniq hayotiy misollar yordamida tushuntirishga imkon beradi.

Namoyish dasturlari o‘qitishda diagrammalar, chizmalar va multfilmlar kabi rol o‘ynaydi. Ushbu dasturlarning o‘ziga xos xususiyati monitorlarning grafik va rangli imkoniyatlaridan foydalanish natijasida olingan yaxshi statik va dinamik ko‘rinishdir. Namoyish dasturlari talabaning o‘rganilayotgan materialni tushunishi yoki o‘zlashtirishini nazorat qilmaydi, shuning uchun ularni kompyuter yoki an’anaviy nazorat shakllari bilan birgalikda ishlatish kerak.

3. Modellashtirish dasturlari ekranda matematik obyektlarni yaratish va ularni o‘rganish uchun ishlatiladi. Mavhum tushunchalar aniq bo‘ladi. Modellashtirish dasturlari talabaga kompyuter tomonidan namoyish etilgan jarayon parametrlarini o‘zgartirishga va parametrlarning o‘zgarishi o‘rganilayotgan tizimning xatti-harakatlariga qanday ta’sir qilishini kuzatishga imkon beradi. Modellashtirish dasturlari aslida kuzatish mumkin bo‘lmagan jarayonlar va hodisalarni o‘rganadi, ya’ni: qiyin, qimmat, xavfli. Modellashtirish dasturlari, shuningdek, namoyish dasturlari talabaning o‘rganilayotgan materialni tushunishi va o‘zlashtirishini nazorat qilmaydi, shuning uchun ularni kompyuter yoki an’anaviy nazorat shakllari bilan birgalikda ishlatish kerak bo‘ladi.

4. Sinov va xato echimlarini talab qiladigan turli xil vazifalarga asoslangan muammoli o‘quv dasturlari. Ularning asosiy maqsadi qo‘shimcha ta’lim ma’lumotlarini tizimlashtirish va saqlashdir.

5. O‘quv dasturlari bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va mustahkamlash, shuningdek talabalarning mustaqil faoliyati uchun mo‘ljallangan. Bunday dasturlardan foydalanish nazariy materialni talabalar tomonidan o‘rganilishini nazarda tutadi. Asosiy tamoyil

to‘g‘ri javobni mustahkamlashdir. O‘quv vazifalari tasodifiy ketma-ketlikda hosil bo‘ladi, ularning qiyinchilik darajasi o‘qituvchi tomonidan belgilanadi.

6. Nazorat dasturlari ma’lum darajadagi bilim va ko‘nikmalarni avtomatlashtirilgan boshqarish va talabalarning o‘zini o‘zi boshqarish uchun mo‘ljallangan. Bunday dasturlardan foydalanish o‘qituvchi ishining samaradorligini oshiradi, o‘qituvchining subyektiv munosabatidan nazorat mustaqilligini beradi.

7. Ta’lim ma’lumotlarini qidirish, to‘plash va qayta ishlash bo‘yicha axborot faoliyatini amalga oshirishga imkon beradigan axborot-ma’lumotnoma dasturlari. Kompyuter yordamida siz istalgan ma’lumot bankiga kirishingiz mumkin. Talabalarga ma’lumotnomalar bilan ishlashni o‘rgatish, ayniqsa, jamiyatni axborotlashtirishning kuchayishi bilan bog‘liq.

8. O‘quv kompyuter o‘yinlari o‘quv jarayoniga o‘yin vaziyatlarini aralashtirish orqali o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishga yordam beradi; ular o‘qituvchiga dars mavzusi bo‘yicha talabalar uchun turli xil vazifalarni izchil belgilashga, ularning shartlarini kompyuter ma’lumotlar bazasidan tanlashga imkon beradi, keyingi vazifaning murakkablik darajasi esa avtomatlashtirilgan ma’lumotlar asosida aniqlanadi. Talaba kompyuter xarakterini o‘rgatayotganda, bilmagan holda yangi o‘quv materialini o‘rganishni boshlaydi.

Bundan tashqari, matematikani o‘qitishda o‘quv va rivojlantiruvchi kompyuter o‘yinlaridan foydalanish g‘oyalarini amalga oshirish tavsiya etiladi. Ushbu yosh guruhida bolalar o‘ynashni yaxshi ko‘radilar, ular multfilmlarni tomosha qilishga va o‘zlarini kompyuter monitorida yuk mashinalari sifatida tasavvur qilishga odatlangan, ammo, afsuski, ularning faqat ba’zilari mantiqiy va matematik tarkibga ega o‘yinlarga jalb qilinadi.

Multimedia o‘yin dasturlarining maqsadi o‘quvchilarga matematikani o‘rganishda zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikmalarni rivojlantirishdir: xotira, diqqat, mantiqiy fikrlash, ijodiy ko‘nikmalar, fazoviy tasavvurni rivojlantirish. Bir nechta qiyinchilik darajalari har bir bola uchun uning yoshi va xarakterini hisobga olgan holda eng yaxshi variantni tanlash imkonini beradi.

Dasturning “o‘ynash orqali o‘rganish” tamoyiliga asoslangan o‘qitish usuli ko‘plab o‘qituvchilar tomonidan tasdiqlangan. Dasturlar o‘yinchining faol ishtirokini hisobga olgan holda o‘quv va rivojlanish jarayonini vizual idrok etishga asoslangan. Uch o‘lchovli tasvirlar va stereo tovush o‘quvchilarning motivatsiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va o‘zini voqealarning haqiqiy ishtirokchisi kabi his qilish imkonini beradi. Rangli animatsion syurprizlar ekrandagi deyarli har bir tasvirni “jonlantiradi” va bolalarning bilim yurti bo‘ylab sayohatini qiziqarli va hayajonli qiladi.

Shunday qilib, matematikani o‘qitish jarayonida ETR dan foydalanish bizga ularni qo‘llashning uslubiy maqsadlarini aniqlashga imkon berdi:

- interfaol o‘zaro ta’sir sharoitida funksional qaramlik haqidagi g‘oyalarni shakllantirish;

- raqamli va alfavitli iboralarni tuzish, ularni formulalar yordamida aylantirish qobiliyatini shakllantirish;

- belgilangan parametrlarga muvofiq turli xil ekran obyektlarini qurish;

- o‘rnatilgan parametrlarni qayta-qayta o‘zgartirish orqali ekrandagi matematik modellarni o‘rganish qobiliyati;

- ta’lim ma’lumotlarini avtomatlashtirilgan qidirishni amalga oshirish qobiliyatini shakllantirish;

- o‘rnatilgan kalkulyator yordamida tabiiy, kasr, musbat va manfiy sonlarda hisoblash operatsiyalarini soddalashtirish;

- fikr-mulohaza va interaktiv suhbat

kontekstida gipoteza va taxminlarni yaratish va ularni tekshirish usullarini ishlab chiqish qobiliyatini shakllantirish;

- talabalarni nazorat qilish va o‘zini o‘zi nazorat qilishni amalga oshirish.

Yuqoridagilarga asoslanib, bu jarayonda matematikada ETR dan foydalanish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- talabalarning o‘quv materiallarini izlashlari;

- ta’lim faoliyati natijalarini nazorat qilish jarayonlarini avtomatlashtirish;

- ta’lim ma’lumotlari taqdimotini kompyuterda vizualizatsiya qilish;

- ekranda turli xil bog‘liqliklarning grafikalari va diagrammalarini tuzishda o‘quv mashqlarini bajarish;

- hisoblash operatsiyalarini amalga oshirish;

- fazoviy tasavvurni shakllantirish va rivojlantirish va boshqalar.

ALDEGIDNING OLINISHI VA KIMYOVIY XOSSALARINI KLASTER USULIDA O'QITISH

Habiba Toshboboyevna To'rayeva – p.f.b.f.d.,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada "Aldegidlar" mavzusiga oid laboratoriya mashg'ulotlarini klaster usulida olib borish yoritilgan bo'lib, qisman nazariy jihatlari, ya'ni tuzilishi, olinishi, kimyoviy xossalari o'rganilgan. Maqolada tajriba mashg'ulotlar, amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ta'lim mavzularini talabalar tomonidan o'zlashtirilganda bilimlari yanada oshib borishini ko'rishimiz mumkin.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается проведение лабораторных занятий по теме альдегиды кластерным способом, частично изучаются теоретические аспекты, а именно структура, экстракция, химические свойства. В статье мы увидим, что знания становятся еще больше, когда учащиеся осваивают темы практических занятий, практических занятий, самостоятельного обучения.*

Abstract: *This article covers the clustering method of laboratory training on the subject of aldehydes, with partial theoretical aspects i.e. structure, derivation, chemical properties studied. In the article, we can see that experience increases even more when the subjects of training, practical training, independent education are mastered by students.*

Kalit so'zlar: *klaster, amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modul-kredit tizimi, masofali o'qitish, aralash o'qitish, mahorat.*

Ключевые слова: *практические игры, проблемное обучение, интерактивное обучение, модульно-кредитная система, дистанционное обучение, смешанное обучение и навыки.*

Keywords: *practical games, problem-based learning, interactive learning, modular-credit system, distance learning, blended learning and skills.*

Organik kimyoda nazariy bilimlarni berishda, amaliy ish va laboratoriya mashg'ulotlarni bajarishda, mustaqil ta'limni o'zlashtirishda klaster usulidan foydalanish orqali talabalarda ilmiylik, uzviylik, interfaollik tamoyillarining didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish natijasida dars samaradorligi yanada oshishiga olib keladi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi1 me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda kimyo fanini qiziqarli va zamonaviy metodlar bilan olib borish va kimyo laboratoriyasini yangi jihozlar bilan ta'minlash muhim ahamiyatga egadir.

Talabalarni o'qitish jarayonida induktiv va deduktiv usullarni qo'llash o'rganilayotgan mavzu mazmunini oshishning ma'lum mantiqini, xususiydan-umumiyga yoki umumiydan-xususiyga o'tishni tanlashni anglatadi. Organik kimyoning o'qitishda induktiv va deduktiv usullar, interfaol usullar yordamida dars jarayonini olib borish ta'lim sifatini yanada oshirishga olib keladi. Aldegidlarni olinishi, kimyoviy va fizik xossalarini, nazariy, amaliy, tajriba mashg'ulotlarini klaster usulda olib borilganda talabalarni bilim darajalarini yanada oshirishga erishildi.


Zamonaviy sharoitda talabalarning dars jarayonlarini tashkil etishda dialogik o'qitish, uinterfaol o'qitish, breynstorming, aqlni zo'r berib ishlatish kabi iboralar ishlatila boshlandi va bularning barchasida e'tibor guruhning ishlatila boshlandi va bularning barchasida

e'tibotr guruhning umumiy biror masala yoki muammoni hal qilishdagi umumiy intilishlari nazarda tutiladi[1].

Interfaollik talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muyyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklarini anglatadi. Klaster-bir-birlar bilan bog'liq bo'lgan va biror umumiy belgilariga ko'ra ajratiladigan obektlarning guruhlarga birlashishdir. Dastlab bu atama statistika va kompyuter sohasida paydo bo'lgan, keyinchalik kimyo fanini o'qitishda klaster usulidan keng qo'llanila boshlandi. Mazkur atama organik kimyo fani va ishlab chiqarish sohalari xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, turlicha ta'riflanib, har xil talqin etilsa-da, lekin ammo ularni birlashtirib turadigan umumiy jihatlar mavjud: o'zaro manfaatli hamkorlik; raqobatbardoshlikni kuchaytirish; ishtirokchilarning teng huquqliligi; kimyo sohasida ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Ta'limda klaster muayan sohalardagi kadrlar tayyorlash, nanotexnologiya, robototexnika, resurslarni tejash va boshqalar ta'limiy faoliyat shakllarga ko'ra birlashgan ta'lim, ishlab chiqarish, ilmiy va boshqa tashkilotlarning ochiq tizimidir. Klasterning samaradorlig uchun uning ichidagi o'zaro munosabat va o'zaro ta'sir katta ahamiyatga ega, buning uchun klaster subyektlari bir-birini etarlicha qo'llab-quvatlashi zarur.

Organik kimyoni o'qitishda klaster usulida olib borishda mavzularni to'liq o'zlashtirilgandan so'ng tatbiq etilsa talabalar bilimlari yanada oshirishga olib keladi. Aldegidlar mavzusini laboratoriya mashg'ulotlarini klaster usulida olib borilganda qisman nazariy jihatlari ya'ni tuzilishi, olinishi, kimyoviy xossalari haqida tushuncha beriladi. Tajriba mashg'ulotlarida natriy bisulfit bilan birikishi, kumush ko'zgu reaksiyasi, mis ko'zgu reaksiyasilariga xos reaksiyalar bajariladi.

Amaliy mashg'ulotni amalga oshirishda aldegidlarga xos masalalar, misollar, testlarni Kahoot it. dasturi asosida bajarishadi[2].



1-rasm. Aldegidni klaster usulida tushuntirish.

To'yingan aldegidlar uglevodorod radikali bilan bog'langan aldegid guruhi – CHO ni tutgan birikmalardir. Ularning umumiy formulasi C_nH_{2n+1} –CHO.

Ikkita uglevodorod radikali bilan bog'langan karbonil guruhi bor birikmalarga ketonlar deyiladi. To'yingan ketonlarning umumiy formulasi C_nH_{2n+1}–CO–C_nH_{2n+1}.

1.Tajriba mashg'uloti. Kumush ko'zgu reaksiyasi.

Reaktivlar: distillangan suv, 1% li kumush nitrat, ammoniy gidroksid, sirka aldegid


Ishning borishi. Toza va quruq reaksion probirkaga (avval ishqor bilan, keyin distillangan suv bilan yuvilgan)soling, pipetka bilan 1 ml 1% li kumush nitrat eritmasidan quying, uning ustiga avval hosil bo'lgan oq cho'kma erib ketguncha, oz-ozdan ammoniy gidroksid eritmasidan qo'shing. Shu eritmaga 5-6 tomchi sirka aldegid tomizing. Aralashmani ohista qizdiring. Probirka tubida kumush jilo (kumush ko'zgu) hosil bo'ladi[3]

1 To'rayeva H.T. Kredit-modul tizimidagi mustaqil ta'limni klaster usulida olib borish jarayoni.// Tafakkur ziyosi ilmiy-uslubiy jurnal. –Jizzax.- 2023. №1. –B.202-205.

2 To'rayeva H.T. Organik kimyoni klaster usulida o'qitish metodikasini takomillashtirish.// Tafakkur ziyosi ilmiy uslubiy jurnal. –Jizzax.- 2024. №1. –B.164-167.

3 To'rayeva H.T., Abduraximovna D.N., Pedagogik texnologiya bu ta'lim jarayoniga sistemali yondashuv bo'lib xizmat qiladi.//Journal of integrated education and research. 2023. №2(1). B- 160-163.

$$AgNO_3 + NH_4OH \longrightarrow AgOH + NH_4NO_3$$
$$AgOH + 2NH_4OH \longrightarrow [Ag(NH_3)_2]OH + 2H_2O$$
$$2[Ag(NH_3)_2]OH \longrightarrow Ag_2O + 4NH_3 + H_2O$$



Kumush nitratning gidroksidga aylanishi, mo‘l ammiak bilan kompleks hosil qilishi va qizdirilgan kumush oksid hosil bo‘lishi, kumush oksidning esa aldegid bilan qaytarilishi reaksiyalari tenglamasi “kumush ko‘zgu” hosil bo‘lishidan dalolat beradi.




2-rasm. Kumush ko‘zgu reaksiyasi


Mis ko‘zgu reaksiyasi.

Ikkinchi probirkaga NaOH ning 10%li eritmasidan 1 ml soling va unga zangori rangli cho‘kma hosil bo‘lguncha mis kuporosining 5%li eritmasidan tomchilab qo‘shing. Aralashmani ehtiyotlik bilan qizdiring. Cho‘kmaning dastlab sariq, keyin qizil rangga o‘tishiga e’tibor bering:

$$CuSO_4 + 2NaOH \longrightarrow Cu(OH)_2 + Na_2SO_4$$

zangori





3-rasm. Aldegidni mis ko‘zgu reaksiyasi

2) Amaliy mashg‘ulot.

1.Malina komponentlaridan biri tabiiy xushbo‘y modda 4-(para-gidroksifenil) butanon-2 dir. Bu birikmaning tuzilish formulasini yozing va element tarkibini aniqlang[4].

2. Arpabodiyon aromat komponentlaridan biri tabiiy xushbo‘y hidli 4-metoksibenzil spirti hisoblanadi. Uning tuzilish formulasini yozing va element tarkibini aniqlang.

J: $CH_3 - O - C_6H_4 - CH_2 - OH$; C - 69,57%; H - 7,25%; O -23,18%.

3. Chumoli va sirka aldegiddan iborat 17,8 g aralashmani mos ravishda spirtlargacha katalitik gidrogenlash uchun 11,2 l vodorod talab etiladi. Boshlang‘ich aralashmadagi aldegidlarning massa ulushini aniqlang. J: 50,56% HCOH; 49,44% CH3CHO.

Yechish: Reaksiya tenglamalarini yozamiz:

$$H\text{-}\overset{x}{C}(=O)H + H_2 \longrightarrow CH_3OH;\ CH_3\text{-}\overset{y}{C}(=O)H + H_2 \longrightarrow CH_3\text{-}CH_2OH$$

Masala sharti bo‘yicha 11,2 yoki 0,5 mol vodorod talab etiladi. Demak, quyidagi sistemani tuzish mumkin:

$$\begin{cases} 30x + 44y = 17,8 \\ x + y = 0,5 \end{cases}$$ dan x = 0,3 mol va y = 0,2 mol kelib chiqadi.

$m_{CH_2O} = 0,3 \cdot 30 = 9g$; $m_{CH_3CHO} = 44 \cdot 0,2 = 8,8g$. Ularning massa ulushlari esa

$$\omega_{CH_2O} = \frac{9}{17,8} = 0,5056;\ \omega_{CH_3CHO} = \frac{8,8}{17,8} = 0,4944.$$

4. Atsetaldegid va propion aldegiddan iborat 1,46 g aralashmaga kumush oksidining ammiakdagi eritmasidan mo‘l miqdor qo‘shilganda 6,48 g cho‘kma hosil bo‘ldi. Aralashmadagi moddalarning massa ulushini aniqlang. J: 60,3% CH_3CHO; 39,7% C_2H_5CHO.

4 To‘rayeva H.T. Methods of Statistical Analysis of the Process of Organic Chemistry in the Cluster Method.//Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Impact factor (ISI): 6.798. Amerika. 2023.-V-25, p-22-26. (SJIF № 23)

Interfaol o'qitish metodlaridan foydalanishda pedagogning xususiy imkoniyatlariga mos kelishi lozim. Bu pedagogning o'qitish metodlari nazariyasi va amaliyoti bilan o'qitish jarayoning qonuniyatlari bilan bilish nazariyalari ta'lim mazmuni nazariyasi va boshqa mavjud qonunlar bilan qurollanganllik darajasini hisobga oladi[5].

Talabalar tomonidan o'zlashtirgan bilimlarni ya'ni aldegidlarni tuzilishi, olinishi, kimyoviy xossalari va ishlatilishini klaster usulida namayon etishdi. Ushbu maqolada aldegidlarni nazariy bilimlarni, amaliy va tajriba mashg'ulotlarini klaster usulida olib borish jarayoni keltirilgan. Olingan bilimlarni klaster usulida tuzish orqali talabalarni xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Ta'limga nisbatan o'ziga xos yangi yondashuv bo'lgan klaster nafaqat hayot davomida ta'lim olish uchun shart-sharoitlarni ta'minlabgina qolmay, balki ta'limning uzluksizligini ta'minlaydigan takrkibiy qismlar o'rtasidagi mavjud va istiqbolli aloqalarni qayta tiklashga imkon beradi. Organik kimyoga oid tajribalarni o'rganish metodikasini ta'lim jarayonida klaster usuliga doir topshiriqlar ishlab chiqish, adaptiv test savollari tuzish, mustaqil ta'lim mavzularini klaster asosida takomillashtirilgan, shaxsni rivojlanishiga yo'naltirilgan metodik ta'minot asosida metodik yo'riqnomalar asosida sifat va samarodorlik ko'rsatkichlarini aniqlashda foydalanish mumkinligi bilan isbotlangan.

5 Вербицкий А.А. Воспитание в современной образовательной парадигме //Педагогика. – 2016. – № 3. – С. 3-16.

FIZIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARDA EKOLOGIYAGA OID BILIMLARNI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING O'RNI

Orzigul Shonazarovna Eshtuxtarova – katta o'qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

***Annotatsiya**: Ushbu maqolada maktab fizika kursini o'qitish jarayonida o'quvchilarda bilimlar mazmunini o'rganishida integrativ yondoshuvning o'rni ochib berilgan.*

***Аннотация**: В этой статье в школе ведется преподавание курса физики раскрыта роль интегративного подхода в усвоении содержания знаний у студентов.*

***Abstract**: In this article, the school is in the process of teaching a physics course the role of the integrative approach in learning the content of knowledge among students is revealed.*

***Kalit so'zlar**: ekologiya, ekologik ta'lim, integratsiya, ekologik material, fizika.*

***Ключевые слова:** экология, экологическое образование, интеграция, экологический материал, физика.*

***Keywords**: ecology, environmental education, integration, ecological material, physics.*

Mamlakatimiz ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya mazmuni va sifatini takomillashtirishda didakt va metodist olimlar, psixologlar, pedagoglar diqqatini fanlararo aloqadorlik muammolariga qaratishni talab qilmoqda. Buning boisi fan-texnikaning jadal rivojlanishi o'quvchilarda erkin va mustaqil fikrlash, g'oyaviy-siyosiy yetuklik, ilmiy dunyoqarashga asoslangan e'tiqodni rivojlantirishni dolzarb muammoga aylantirdi. O'quvchilarda bu sifatlarni rivojlantirishda fanlararo aloqadorlik katta imkoniyatlarga ega[1].

Mamlakatimizda ekologiya va atrof-muhit muhofazasi uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi sifatida rivojlantirilmoqda. Shuningdek, "Uzluksiz ekologik ta'lim konsepsiyasi" amaliyotga tatbiq etilgan, ekologik ta'lim mazmuni takomillashtirilib, moddiy- texnik bazasi modernizatsiya qilinmoqda.

Maktab ta'limidagi tabiiy fanlar o'quvchilarga olamning hozirgi ilmiy manzarasini ochib beradi. Shu bois tabiat haqidagi fanlar o'quvchi dunyoqarashining tabiiy-ilmiy asosini tashkil etadi. Fanlararo aloqadorlik o'quvchilarning umumlashgan ilmiy tushunchalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bilimlar integratsiyasi ta'limga o'zgacha yondashishni taqozo qiladi.

Integratsiyalashgan ta'lim, avvalo, bir-biriga yaqin va mos bo'lgan o'quv fanlarini yaqinlashtirish, yaxlitlash va majmua holda o'qitishni ko'zda tutadi. Ta'lim mazmunini integratsiyalashtirish pedagog uchun ham ta'lim oluvchi uchun ham katta ahamiyat kasb etadi, ta'lim sifatini oshirish, ta'lim oluvchining faoliyatini yaxshilash, faollashtirish, bilimlarini mustahkamlash, ularda kuchli motivatsiyani uyg'otish va o'z-o'zini rivojlantirishda muhim omillardan biri hisoblanadi[2].

1 Норбутаев Х.Б.Биологияни табиий фанлар билан боғлаб синхрон ва асинхрон ўкитишда ўкувчилар экологик тафаккурини ривожлантириш. "O'zbekistonda ilm-fan va ta'lim masalalari: muammo va yechimlar" mavzusidagi 2-son konferensiya materiallari.-Chirchiq: "Scientific progress" markazi, 2020. -Б. 325-330.

2 Ахмедова Н.М. Интегратив ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларнинг касбий тайёргарлигини такомиллаштириш: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. -Ташкент, 2020. - 54 б.

Integratsiyalashgan darslar tuzilishini o'rganishning barcha bosqichlarida o'rganilayotgan materiallar aniqligini va izchilligini, puxta o'rganilganligini va o'zaro mantiqiy aloqalarini talab qiladi. Bunga dasturdagi o'quv materialining ixcham ekanligi, bundan tashqari, o'quv materialini o'rganishni tashkil etishning ba'zi zamonaviy usullarini kiritish orqali erishish mumkin.

Integratsiyalashtirilgan darslar o'quvchilar dunyoqarashida bir butunlikni, voqealar uzviyligini tushunishni tabiatan anglab etishga o'rgatadi. Shuni hisobga olish joizki, maktabdagi darslarning integratsion bog'lanishlari ilmiy jihatdan sayoz ishlab chiqilgan. Mavjud turli fikrlar va qarashlar bir-biriga zid va uzviy bo'lmaganligi sababli integratsiya muammosi hamon olimlar o'rtasida bahsli muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Binobarin, integratsiyalashgan ta'lim maktablarda fan asoslaridan beriladigan bilimlar mazmuniga yangicha yondashuvni kuzda tutadi va uning asosiy maqsadi o'quv materiallarini mantiqan tugal mazmundagi muammolar majmuasi sifatida o'rganish o'quvchilar ongida olamning ilmiy manzarasini shakllantirish, tabiat va unda insonning o'rni haqida ilmiy tushuncha va bilimlarni tarkib toptirishdan iborat.

Integratsiyaning universalligi shunda namoyon bo'ladiki, u umumiy va universal tushuncha dunyoda integrativ xossalarga ega bo'lmagan narsa va hodisa bo'lishi mumkin emas[3].

Fanlar integratsiyasi evaziga taraqqiyotning noyob yutuqlari qo'lga kiritilmoqda. Fanlardagi differensiatsiya-olamni bilib olish va uni o'zgartirishning qudratli richagiga aylanib bormoqda. Masalan, molekulyar biologiya klassik biologiyaning ko'pgina an'analarini buzib yubordi va hayotiy jarayonlarga bo'lgan qarashlarini tubdan o'zgartirdi. Fizikaviy elektronika esa moddiy olamning eng mayda subbirliklarida inqilob sodir etdi[4].

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, boshqa fan vakillari kabi fizika o'qituvchilari ham ekologik ta'limga o'zlarining katta hissalarini qo'shib kelishmoqda. Bir qarashda, fizika va ekologiyaning manfaatlari bir-biriga qarama-qarshidek tuyuladi: ekologiya tabiatdagi o'zaro bog'liqliklar haqidagi, fizika esa ilmiy-texnika taraqqiyoti asosida yotuvchi fan hisoblanadi. Ammo ma'lumki, yunon tilidan tarjima qilingan "fizika" so'zi "tabiat" degan ma'noni anglatadi.

O'quvchilarda tabiiy muhit va inson salomatligiga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish ekologik ong, tafakkur va ekologik barkamol xulq-atvorni tarbiyalash asosida sodir bo'ladi. Bu masalalarni hal qilish umum ta'lim maktablari o'quvchisining ekologik ta'limi bilan bog'liq bo'lib, u quyidagilarda namoyon bo'ladi:

• tabiat, jamiyat va insonning bir-biriga bo'lgan ekologik o'zaro ta'siri, bugungi kunning ekologik muammolari va ularni hal etish yo'llari haqida tizimli bilimlarga ega bo'lish;

• asosiy hayotiy va axloqiy va estetik qadriyatlardan biri sifatida tabiatga tarbiyali munosabatda bo'lish, ekologiyaga mos keladigan xulq-atvor va faoliyat, bizni o'rab olgan tabiiy muhitni faol himoya qilish va uni tiklashga bo'lgan doimiy intilish;

• ekologik vaziyatlarni sababiy va ehtimollik tahlil qilish va kundalik turmush darajasida ekologik muammolarni hal qilish usullarini tanlashda muqobil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Jamiyatning tabiat bilan o'zaro munosabati o'z ichiga ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy ilmiy, texnik,

3 Чапаев, Н.К. Педагогическая интеграция: методология, теория, технология / Н.К.Чапаев.- Екатеринбург: РГППУ, 2004. – 168 с.

4 Омонов Х.Д.Оламнинг умумий илмий манзарасини яратишда фанлар интеграцияси ва дифференциациясининг роли // "Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар". - 2007. 3-сон. 137 б.

gigiyenik, huquqiy, falsafiy va axloqiy jihatlarni o‘z ichiga oladi. Shunga muvofiq fizikani o‘rganishda ekologik ta’lim va tarbiyaning quyidagi vazifalarini belgilab olish mumkin:

·yetakchi g‘oyalar, asosiy tushunchalar va ilmiy faktlarni o‘zlashtirish, ular asosida insonning tabiatga optimal ta’siri uning qonuniyatlariga muvofiq belgilanadi;

· jamiyat moddiy va ma’naviy kuchlarining manbasi sifatida tabiatning ko‘p qirrali qadriyatlarini tushunish;

· ijtimoiy va mehnat faoliyatining barcha turlarida atrof-muhit holatini baholash va uni yaxshilash bo‘yicha to‘g‘ri qaror qabul qilish, o‘z harakatlarining mumkin bo‘lgan oqibatlarini oldindan bilish va tabiatga salbiy ta’sirlarning oldini olish qobiliyatini rivojlantirish;

· tabiatda xulq-atvor normalariga ongli ravishda rioya qilish, unga zarar yetkazish, tabiiy muhitni ifloslantirish yoki buzishni istisno qilish;

· tabiat bilan muloqotga bo‘lgan xohishi va ta’sirini, atrof-muhitni axloqiy va estetik birlikda tushunishga intilish;

· tabiiy va o‘zgaruvchan muhitni yaxshilash bo‘yicha faoliyatni faollashtirish, odamlarning unga zarar yetkazuvchi harakatlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lish, ekologik g‘oyalarni targ‘ib qilish[5].

O‘quvchilarda ekologiyaga bo‘lgan javobgarlik hissi ekologik ta’lim jarayonida shakllanadi, bu esa, o‘z navbatida, ekologik bilimlar bilan boyitilgan turli fanlarni o‘rganish jarayonida amalga oshiriladi.

Fizik bilimlar fundamental va amaliy bo‘lgan bilimlarga bo‘linadi. Maktab fizika kursiga oid ekologik bilimlarni amaliyga ajratish mumkin. Ularni rivojlantirish fizikani o‘qitishda hayot bilan bog‘liqlik tamoyilini amalga oshirishga yordam beradi deb hisoblanadi. Ekologik bilimlarning politexnik jihatining asosiy tomoni “tabiat – jamiyat – inson” tizimidagi o‘zaro ta’sirni optimallashtirish haqidagi yetakchi g‘oyani ochib berish bilan bog‘liq.

Politexnika tamoyili bu, maktab fizikasi kursida o‘quvchilarni texnika taraqqiyotining fizik asoslari bilan tanishtirishdir. Shu munosabat bilan politexnika jihati deyilganda tabiiy tizimlarga minimal salbiy ta’sir ko‘rsatadigan texnik va texnologik jarayonlarning fizik asoslari haqidagi bilimlar sifatida tushuniladi.

Fizika kursidagi ekologik bilimlar mazmunini uch qismga guruhlash mumkin:

I. Energiyaning toza manbalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish usullari va toza ishlab chiqarishni tashkil etish tamoyillari. Energiyaning toza manbalariga daryolar, shamol, quyosh radiatsiyasi va boshqalar kiradi. Toza ishlab chiqarishga toza manbalar energiyasidan foydalanadigan, hamda yopiq hisoblanuvchi ishlab chiqarish sikllari kiradi. Toza manba va ishlab chiqarishlar shunisi bilan xarakterliki, ular tabiiy tizimlarga salbiy ta’sirlarning oldini olish yoki kamaytirish uchun maxsus choralarni talab qilmaydi va ularning o‘zlari bunday ta’sirlarni yo‘qotadi.

II. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish yoki har bir foydali effekt birligi uchun energiya va materiallar sarfini kamaytirish quyidagi bilimlarni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi:

· texnik qurilmalar va texnologik jarayonlarning samaradorligini (FIK) oshirish usullari haqida;

· muammosiz, ishlamay qoladigan texnologiyani amalga oshirishning ba’zi bir usullari haqida;

· ikkilamchi moddiy va yoqilg‘i-energetika

5 Сейзер Н.М.Преэмственност экологического образования // Вестник Челябинского государственного университета. – 2008. – №4. – С. 121-123.

resurslaridan foydalanish usullari haqida;

• energiya va materiallar yo‘qotilishini kamaytirish va natijada ifloslantiruvchi moddalar chiqishini kamaytirish yo‘llari haqida.

III. Himoya qurilmalarining ishlash tamoyillari. Turli xil tipdagi ishlab chiqarishlarda tozalash va saralash, tartibga keltirish prinsipi asosida ishlaydigan turli xil himoya qurilmalaridan foydalanadi. Boshqalari baxtsiz hodisa yuz bergan taqdirda (beton va po‘lat qobiqlar, maxsus rezervuarlar) ishga tushiriladi. Konservatsiya qurilmalari chiqindilarni ma’lum fazoviy chegaralardan (konteynerlar, yopiq tabiiy rezervuarlar) chiqarishga yo‘l qo‘ymaydi, sochuvchilari esa moddalar yoki energiyani atrof-muhitga (dud mo‘rilari, havo va bug‘lanishli sovutish tizimlari) tarqatib tashlaydi. Tozalash inshootlari chang gazini yig‘ish va suv tozalash inshootlarini o‘z ichiga oladi. Ular chiqindi gazlardan yoki suvdan (elektr cho‘kindi, aerozol filtri va boshqalar) ifloslantiruvchi moddalarni ushlaydi. Saralash moslamalari foydalanish qiyin bo‘lgan aralashmalarni ajratish imkonini beradi. Agar bunday ajratish amalga oshirilmasa, aralashmalar chiqindilar va atrof-muhitni ifloslantiruvchi moddalarga aylanadi.

Zamonaviy fizika kursi o‘quvchilarni ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishning bir qator masalalari (energetika, elektrlashtirish, elektrotexnika, radioelektronika, lazer, membrana texnologiyalari, (Magnitogidrodinamik generatorlari va boshqalar) bilan tanishtiradi. Ushbu masalalarni o‘rganishda turli xil qurilmalarning ishlashining fizik va ekologik tamoyillarini aniqlashtirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Atom elektr stansiyasini o‘rganayotganda, uning ishlashining umumiy tamoyillarini ko‘rib chiqish kerak: yadro yoqilg‘isini tanlash, sekinlashtiruvchi, sovitish suvi, radioaktiv moddalar chiqindilaridan ishonchli himoya, uning geografik joylashuvi va boshqalar. Bundan tashqari, o‘quvchilar uzoq muddatga davlatning energetika strategiyasini tanlashda muammoning barcha jihatlarini: birinchi navbatda energiya iste’moli obyektlarining joylashuvi, yoqilg‘i zaxiralari, energiya ishlab chiqarish usulining ekologik tozaligi, texnik va texnologik rivojlanish darajasi, tirik organizmlar va atrof-muhitga ta’sir darajasi ushbu yondashuv o‘quvchilarda elektr energiyasini ishlab chiqarishning ikki tomoni – yoqilg‘i va ekologiya ekanligi haqidagi fikrni shakllantirishga imkon beradi[6].

Fizika fanini o‘rganishda ekologik mas’uliyatni shakllantirishda fanlararo integratsiya masalasi katta ahamiyatga ega. Ekologik bilimlar turli xil tabiat hodisalari o‘rtasidagi bir –biriga yaqin munosabatlarni aks ettiradi, shuning uchun uning mazmuni fanlararo va kompleks xarakterga ega bo‘ladi. Fanlararo aloqadorlik o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga, ta’limni tizimlashtirishga ko‘maklashadi, ekologik bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishga asos bo‘lib hisoblanadi.

Fizika fani tabiat haqidagi barcha tabiiy fanlarning asosiy markazi hisoblanganligi uchun, fizika o‘qitishning asosini fanlararo integratsiya tashkil qiladi. Bir tomondan, tabiatning ko‘pgina fizik hodisalari va qonuniyatlarini o‘rganishda o‘quvchilarning kimyo, biologiya, matematika, geografiya va boshqa fanlarga oid bilimlari ishtirok etadi. Ikkinchi tomondan, ushbu o‘quv fanlarini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning fizika bo‘yicha bilimlaridan foydalaniladi. O‘quvchilarning ekologik ta’limi va tarbiyasi jarayonida fanlararo integratsiyani amalga oshirish quyidagi funksiyalarni bajaradi:

• undagi barcha jarayonlarning dialektik birligi asosida tabiat haqidagi yaxlit tasavvurni

6 Eshto‘xtarova O. O‘quvchilar bilan tabiatni muhofaza qilishishlarida fizika fanining o‘rni. Материалы международной научно-практеческой конференции “Физика и экология” 15-16 сентябр 2023 й. 37-39б.

shakllantirish;

• bilimlar tizimliligini ta'minlash (mavzu ichida va predmetlararo;)

• o'quvchilarda hodisa va jarayonlar, tushunchalar va nazariyalar o'rtasidagi aloqalarni mustaqil o'rnatish asoslari va ko'nikmalarini shakllantirish;

• o'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirish[7].

Fizika darslarida fanlararo aloqadorlik quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Biosferaning normal faoliyat yuritishi uchun fizik omillar va tabiiy muhit parametrlarining rolini ochib, quyidagilar ko'rib chiqiladi:

a) fizik parametr o'zgarishining bevosita biologik tizimlarga ta'siri;

b) fizik omilning kimyoviy hodisa yoki jarayonning borishiga ta'siri → bu ta'sirning biologik oqibatlari;

v) tabiatning boshqa fizik parametri omili ta'sirida o'zgarishi → parametr o'zgarishining kimyoviy hodisalarga ta'siri → buning biologik oqibatlari.

2. Energiya resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha materialni taqdim etishda qo'yidagi ketma -ketliklarni (zanjirlarni) kuzatish mumkin:

a) texnika → biologik tizimlarga bevosita ta'sir qilish;

b) texnika (yoki texnologiya) → biosfera fizik parametrlarining o'zgarishi → bu o'zgarishlarning biologik oqibatlari;

v) texnika → biosfera kimyoviy parametrlarining o'zgarishi → bu o'zgarishlarning biologik oqibatlari;

g) texnika → biosfera kimyoviy parametrlarining o'zgarishi → uning fizikaviy parametrlarining o'zgarishi → biologik oqibatlari;

3. Tabiatni har xil turdagi ifloslanishlardan muhofaza qilishning fizik usullarini ochib berish quyidagilardan himoya qilish usullarini ko'rib chiqish bilan birga olib boriladi:

a) jismoniy ifloslanish; b) kimyoviy; v) biologik ifloslanish.

O'quvchilarda ekologik mas'uliyatni rivojlantirish samaradorligi ko'p jihatdan tegishli o'quv materialini tanlashga, shuningdek uni o'rganish yo'llari va vositalariga bog'liq. Shuning uchun fizika kursida o'rganiladigan ekologiyaga oid materialni tanlash tamoyillari muhim hisoblanadi.

Qaralayotgan material asosiy fizik va texnik omillarni, jamiyat va tabiatning o'zaro ta'siri parametrlarini o'z ichiga olishi va bu omillarning hayvonlar, o'simliklar va odamlar hayotidagi roli haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi kerak. Bulardan tashqari, ushbu material bir qator zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlarining tabiatga ta'sirining halokatli oqibatlarini o'z ichiga olishi, o'quvchilarni tabiatni muhofaza qilish va uning resurslaridan oqilona foydalanishning ayrim ijtimoiy-siyosiy muammolarini hal qilishning asosiy xususiyatlari va uning boyliklaridan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilishning fizik qonuniyatlarga asoslangan zamonaviy usullari, ushbu usullarni ishlab chiqish va qo'llash istiqbollari bilan tanishtirishi kerak.

Fizika kursida o'rganiladigan ekologiyaga oid masalalarning mazmuni ta'lim va tarbiyaning umumiy maqsadlaridan kelib chiqqan holda belgilanishi kerak. Ular kurs dasturi bilan mantiqiy bog'langan va maktab o'quvchilari uchun tushunarli bo'lishi kerak, shuningdek, shakllanayotgan axborot jamiyati tendensiyalariga mos keladigan turli xil ma'lumotlar manbalaridan, shu jumladan

7 O'sha manba.

Internet saytlaridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lishi kerak.

Tabiatni muhofaza qilish muammosiga o‘quvchilarning kognitiv qiziqishini rivojlantirish, tabiatni muhofaza qilish masalalarini tanlashda o‘quv jarayoniga kerakli ijtimoiy ahamiyat, o‘ziga xoslik va hissiylikni berish uchun, shuningdek, maktab joylashgan hududning tabiiy-iqlim, iqtisodiy va geografik xususiyatlarni ham hisobga olish kerak.

Ekologiyaga oid materialni tanlashda asosiy didaktik tamoyillardan biri – ilmiylik tamoyili haqida unutmaslik kerak, bu esa o‘quv predmeti mazmuniga ekologik masalalarini buzib, soddalashtirmasdan va vulgarizatsiya qilmasdan kiritishni talab qiladi. Shuning uchun, ekologik materialni taqdim etishda ekologiyaning hozirgi rivojlanish darajasi – uning asosiy nazariyalari, usullari va olingan ma’lumotlar (ilmiy faktlar, tushunchalar, qonuniyatlar) saqlanishi kerak. Buni maktab fizikasi kursining o‘quv davrlari, bo‘limlari, mavzulari va savollariga darsning ichki mantiqiy tuzilishiga qat’iy rioya qilgan holda va fanlararo bog‘liqliklarni hisobga olgan holda materialni uzviy ketma-ketlikda taqsimlash orqali amalga oshirish mumkin[8],[9].

Ekologiyaga oid masalalarini o‘rganishda fanlararo integratsiyani amalga oshirish prinsipi asosiy hisoblanadi, chunki o‘quvchilarning “tabiatni muhofaza qilish” tushunchasini tushunishlari uchun boshlang‘ich nuqta biosferaning yaxlit ko‘rinishidir va ekologiya elementlari esa tabiiy fanlar siklining (fizikadan tashqari) tabiatshunoslik, biologiya, kimyo, fizik geografiya, astronomiya kabi fanlarida ham hisobga olinib qarab chiqiladi.

Tabiiy fanlarni o‘rganish jarayonida olingan fizikaviy va ekologik bilimlar bo‘laklarsiz bo‘lishligi va talablarga javob berishi uchun ekologiya masalalarini fanlararo asosda umumlashtirib majmuaviy va tizimli ko‘rib chiqish zarur. Shu bilan birga, bu yerda o‘quv materiali asosiy ekologik tushunchalar atrofida umumlashtiriladi. Masalan, maktabda o‘qitiladigan tabiiy fanlarda muhokama qilinadigan ekologik materiallarni uchta asosiy yo‘nalishga birlashtirish mumkin:

1) tabiiy muhit;

2) tabiatni muhofaza qilish;

3) tabiiy resurslardan oqilona foydalanish.

Ekologiyaga oid materiallarini bayon qilishda bir nechta shartlarga rioya qilish kerak. Ularga quyidagilar kiradi:

1. Ekologiyaga oid masalalar o‘rganilayotgan o‘quv materialining mazmuni bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi kerak.

2. Ularni ma’lumot sifatida bayon qilish vaqti 5-6 daqiqadan oshmasligi kerak.

3. Ulardan o‘quvchilarda o‘rganilayotgan materialga qiziqish uyg‘otish uchun foydalanish kerak (masalan, darsda muammoli vaziyat hosil qilish uchun).

4. Maktab o‘quvchilarini ekologiyaga oid masalalar bilan tanishtirishda ularning boshqa fanlar bo‘yicha olgan bilimlarini jalb qilish, ta’limning ko‘rgazmali (grafik, jadval, fotosurat va hokazolar) va texnik vositalaridan keng foydalanish kerak.

Taqdimotning didaktik maqsadlari va ekologiyaga oid materialning mazmuni fizika darslarining qo‘yidagi turlarini uni o‘rganish uchun eng maqbul deb hisoblash imkonini beradi: kirish, yangi materialni o‘rganish, umumlashtirish va hisobga olish –tekshirish.

Fizika darslarida o‘quvchilarning ekologik

8 Шефер О.Р. Методика формирования у учащихся умений комплексно применят знания для решения физических задач (на материале физики X класса): дисс. кан. пед. наук // – Челябинск, 1999.

9 Исламетдинова Л.Р.. Формированиэ экологической ответственности при изучении физики// Вестник совета молодых учёных и спесиалистов Челябинска. №4 (19) T.1. 2017

bilimlarni o‘zlashtirishlarini ta’minlash uchun o‘qitishning barcha asosiy usullaridan foydalanish mumkin: tushuntirish va illyustrativ, muammoli, tadqiqot va boshqalar.

Har bir aniq holatda tarbiyaning u yoki bu usulini tanlashda, eng avrola, o‘rganilayotgan ekologik ma’lumotlarning mazmunini, o‘quvchilarning hayotiy tajribasi va dastlabki bilimlarini, ular yoshining xususiyatlarini hisobga olish kerak. Fizika, kimyo va boshqa tabiiy fanlar bo‘yicha o‘quv materiallarini birlashtirgan holda yuqori darajada ekologiyaga yo‘naltirilgan darslarni ma’ruza, suhbat, o‘quv seminarlari va konferensiyalar ko‘rinishida o‘tkazish mumkin.

O‘quvchilarning fizika va texnika qonunlarining muayyan ishlab chiqarish sohasida qo‘llanilishini kuzatadigan ekskursiyalar maktab o‘quvchilarining ekologik va politexnik dunyoqarashini kengaytirishda katta rol o‘ynaydi. Ayniqsa, o‘quvchilar e’tiborini o‘z maktabi atrofidagi, haligacha atrof-muhitni ifloslantirib kelayotgan korxonalarga qaratish, ular keltirib chiqaradigan zararni tushuntirish muhimdir. Bu o‘quvchilarning tabiatga bo‘lgan munosabatiga katta ta’sir qiladi[10],[11].

Shunday qilib maktab fizika fanini o‘qitish jarayonida hozirgi davrning ekologik muammolarini atroflicha tahlil qilish mumkin va bu bizga ekologik muammolar va insoniyat taraqqiyotining istiqbollarini tushunish imkonini beradi. Maktab o‘quvchilarida ekologiyaga bo‘lgan mas’uliyatni yanada rivojlantirish uchun quyidagi fundamental tamoyillarga tayanish kerak: tabiiy muhitga mas’uliyatli munosabatni shakllantirish jarayonida global, milliylik va o‘lkashunoslik yondashuvning o‘zaro bog‘liqligi hisobga olinadi; atrof-muhitni intellektual va hissiy idrok etishning birligi va uni yaxshilash bo‘yicha amaliy faoliyat hisobga olinadi. Boshlang‘ich nuqtalar bo‘lib, ekologik ta’lim va tarbiyaning tizimliligi, uzluksizligi va fanlararo aloqadorligi, shuningdek, atrof-muhitning yaxlitligi, bir butinligi haqidagi tasavvurlar hisoblanadi.

10 Уразалиев А. Экологическое образование и воспитание учащихся средних школ во внеклассной работе по физике: автореф. дисс. на соиск. учен. степ. канд. пед. наук / А.Уразалиев. – Ташкент, 1989. – 16 с.

11 Турдикулов Э.А. Экологическоэ образованиэ и воспитаниэ учащихся в процессе обучения физике: кн. для учителя. / Э.А. Турдикулов– М: Просвещениэ, 1988. – 124 с.

ON CERTAIN ASPECTS OF TEACHING METHODS FOR SOLVING CHEMISTRY PROBLEMS

Komila Khudoiberdievna Abduvaliyeva — senior lecturer,
Jizzakh State Pedagogical University
Sarvinoz Sadridinovna Xojiyeva — senior lecturer,
Jizzakh State Pedagogical University

Abstract: *This article delves into the multifaceted dimensions of teaching methodologies for solving chemistry problems, emphasizing their pedagogical and cognitive underpinnings. The study systematically classifies chemistry problems by their typology and complexity, offering a critical evaluation of traditional and contemporary instructional strategies, including the integration of digital technologies and active learning approaches. The research highlights the importance of fostering higher-order thinking skills, such as analytical reasoning and problem-solving, while addressing the psychological and educational determinants that shape student engagement and learning efficacy. Additionally, the article provides evidence-based recommendations for designing innovative educational resources and assesses their impact on the development of competency in solving chemistry problems.*

Annotatsiya: *Ushbu maqola kimyo masalalarini yechish uchun o'qitish metodikasining ko'p qirrali o'lchovlarini o'rganadi, ularning pedagogik va kognitiv asoslarini ta'kidlaydi. Tadqiqot kimyo muammolarini tipologiyasi va murakkabligi bo'yicha tizimli ravishda tasniflaydi, an'anaviy va zamonaviy o'qitish strategiyalarini, shu jumladan raqamli texnologiyalar va faol o'qitish yondashuvlarini integratsiyalashuvini tanqidiy baholashni taklif qiladi. Tadqiqot talabalarning faolligi va ta'lim samaradorligini shakllantiradigan psixologik va ta'lim omillarini ko'rib chiqishda analitik fikrlash va muammolarni hal qilish kabi yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muhimligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, maqolada innovatsion ta'lim resurslarini loyihalash bo'yicha dalillarga asoslangan tavsiyalar berilgan va ularning kimyo muammolarini hal qilishda kompetensiyani rivojlantirishga ta'siri baholanadi.*

Аннотация: *В данной статье исследуются многогранные аспекты методики преподавания решения задач по химии, выделяются их педагогические и познавательные основы. В исследовании систематически классифицируются задачи по химии по типологии и сложности, а также предлагается критическая оценка традиционных и современных стратегий обучения, включая интеграцию цифровых технологий и подходов к активному обучению. Исследования подчеркивают важность развития навыков мышления более высокого порядка, таких как аналитическое мышление и решение проблем, при одновременном учете психологических и образовательных факторов, которые формируют вовлеченность учащихся и их успеваемость. Кроме того, в статье даются научно обоснованные рекомендации по разработке инновационных образовательных ресурсов и оценивается их влияние на развитие компетенций при решении задач по химии.*

Keywords: *advanced chemistry pedagogy, Instructional methodologies, Cognitive skill development, Analytical reasoning in chemistry, Problem-solving frameworks, Active learning strategies, Digital tools in chemistry education, Educational innovation in STEM.*

Kalit so'zlar: *ilg'or kimyo pedagogikasi, o'qitish metodologiyasi, kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish, kimyoda analitik fikrlash, muammolarni hal qilish tizimi, faol o'rganish strategiyalari, kimyo ta'limida raqamli vositalar, STEMda ta'lim innovatsiyasi.*

Ключевые слова: *передовая химическая педагогика, Методики обучения, Развитие когнитивных навыков, Аналитическое мышление в химии, Системы решения проблем, Стратегии активного обучения, Цифровые инструменты в химическом образовании, Образовательные инновации в STEM.*

Teaching students to solve chemistry problems is a fundamental aspect of chemistry education, serving as a bridge between theoretical knowledge and practical application. This process not only deepens students' understanding of chemical principles but also develops essential cognitive skills, such as analytical reasoning, critical thinking, and systematic problem-solving. The ability to tackle complex chemistry problems is critical in preparing students for advanced academic research, professional careers in STEM fields, and addressing global challenges related

to energy, sustainability, and healthcare[1].

However, the inherent complexity of chemistry problem-solving – requiring the integration of abstract concepts, quantitative reasoning, and practical application – presents significant challenges for educators. Traditional methods of teaching, often centered on rote memorization and formulaic approaches, may fail to fully engage students or foster the deeper conceptual understanding needed for real-world problem-solving. This underscores the necessity for innovative pedagogical strategies that combine the strengths of traditional instruction with modern advancements, such as digital technologies, interactive simulations, and collaborative learning environments[2].

Furthermore, the psychological and pedagogical dimensions of learning must not be overlooked, as students' success in solving chemistry problems is influenced by their prior knowledge, cognitive development, motivation, and the level of support provided by educators. By addressing these challenges, educators can design more effective methods for teaching problem-solving in chemistry, ultimately cultivating a generation of learners equipped to think critically, innovate, and contribute meaningfully to scientific progress. This article examines these issues in depth, offering a comprehensive analysis of methodologies, psychological factors, and evidence-based strategies for fostering excellence in the teaching and learning of chemistry problem-solving.

The development of effective teaching methods for solving chemistry problems requires a multifaceted approach that integrates pedagogical theory, cognitive science, and practical application. A critical challenge lies in the inherent diversity of chemistry problems, which range from straightforward stoichiometric calculations to complex tasks involving multi-step synthesis, thermodynamic analysis, or chemical equilibrium. This diversity necessitates a teaching methodology that not only addresses the technical aspects of problem-solving but also encourages students to think creatively and adaptively. For example, while traditional algorithmic approaches are effective for basic problems, they may hinder the development of higher-order thinking skills when applied rigidly to more complex and conceptual problems[3].

To address this, educators must prioritize strategies that promote deeper conceptual understanding, enabling students to recognize patterns, establish connections between theoretical principles, and apply them to novel situations. This requires a shift from rote memorization to active learning techniques, such as guided inquiry, problem-based learning (PBL), and collaborative group work, which have been shown to improve engagement and retention of knowledge.

A crucial component of teaching chemistry problem-solving lies in the scaffolding of learning experiences. Students often struggle when faced with complex, multi-step problems due to gaps in foundational knowledge or an inability to identify appropriate problem-solving strategies. Scaffolding involves breaking problems into manageable parts, providing structured guidance initially, and gradually reducing support as students gain confidence and proficiency. This approach not only enhances problem-solving skills but also builds self-efficacy, which is essential for tackling increasingly difficult tasks. Additionally, integrating formative assessments, such as low-stakes quizzes or reflective exercises,

1 Address of the President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev to the Oliy Majlis. Narodnoe Slovo. December 30, 2020. No. 276.

2 Abduvalieva K.Kh. "Optimal Approaches to Solving Simple and Complex Chemistry Problems" / Proceedings of the International Scientific and Practical Conference, Petrozavodsk, MCPP "New Science", 2022, pp. 174-178

3 Abduvalieva K.Kh. "International PISA Research and Challenges in Developing Solutions to Chemical Problems" / Proceedings of the Republican Scientific and Practical Conference, Nukus, 2023, pp. 373-375

allows educators to identify and address specific areas of difficulty in real time, tailoring instruction to meet individual needs[4].

Another vital element in teaching problem-solving is leveraging technology to create dynamic and interactive learning environments. Digital tools, such as virtual laboratories, simulation software, and adaptive learning platforms, enable students to experiment with chemical processes, visualize abstract concepts, and receive immediate feedback on their progress. These technologies also provide opportunities for self-paced learning, allowing students to revisit challenging topics or explore advanced concepts beyond the standard curriculum. Furthermore, the use of real-world scenarios and interdisciplinary problems can make chemistry more relevant and engaging, helping students see the practical applications of their knowledge in fields such as environmental science, medicine, and materials engineering[5].

The psychological and motivational aspects of learning cannot be overlooked in this process. Educators must foster a positive learning environment that emphasizes growth mindset, resilience, and collaboration. Encouraging students to view mistakes as opportunities for learning and providing constructive feedback can help reduce anxiety and build confidence. Ultimately, effective teaching methods for solving chemistry problems require a holistic approach that integrates cognitive, pedagogical, and technological strategies. By equipping students with robust problem-solving skills and fostering a deep understanding of chemical principles, educators can prepare them to meet the challenges of a rapidly evolving scientific and technological landscape[6]. Expanded Context Based on Keywords

Chemistry education has evolved significantly over the years, with a growing emphasis on developing not only subject-specific knowledge but also cognitive skills essential for solving complex problems. At the heart of this shift lies advanced chemistry pedagogy, which seeks to refine and diversify teaching methodologies to better equip students for the challenges they will face in academic and professional spheres. Contemporary approaches go beyond rote memorization and formulaic instruction, focusing instead on fostering critical thinking, problem-solving, and analytical reasoning. These pedagogical innovations are essential in developing students' ability to approach chemistry problems creatively and strategically, enabling them to address real-world issues in fields such as medicine, environmental science, and materials engineering.

One key aspect of this modern approach is the exploration of various instructional methodologies that actively engage students in the learning process. Traditional lecture-based teaching has proven to be less effective in cultivating problem-solving skills, especially in a subject as dynamic and complex as chemistry[7].

To overcome this, educators increasingly incorporate active learning strategies, such as inquiry-based learning, problem-based learning (PBL), and collaborative group work. These methods place students at the center of their learning, encouraging them to engage with problems through hands-on activities, peer discussions, and real-world applications. Research has shown that these strategies not only improve student engagement but also enhance long-term retention and understanding of

4 Abduvalieva K.Kh. "Utilizing PISA Research in Solving Chemical Problems and Exercises for School Students" / Materials of the Republican Scientific and Practical Conference, Nukus, 2023, pp. 382-385

5 Abduvalieva K.Kh. "Application of PISA Research in Solving Chemical Problems and Exercises" / Proceedings of the Republican Scientific and Practical Conference, November 25, 2022, pp. 441-443

6 Abduvalieva K.Kh. "Using Didactic Materials in Solving Chemical Problems and Exercises" / Tashkent, Bulletin of the National University of Uzbekistan, 2022, [1/11/1] ISSN 2181-7324, vol. 1, pp. 53-55

7 Ikhtiyorova G., Bekchanov D., Akhadov M. Teaching Chemistry Based on Modern Technologies. Tashkent, 2019.

complex chemical concepts.

Central to the success of these methodologies is the development of cognitive skills, particularly those related to analytical reasoning in chemistry. Solving chemistry problems requires more than just applying memorized formulas; it demands that students interpret data, recognize patterns, and draw conclusions based on a deep understanding of the subject. Cognitive science has provided valuable insights into the mental processes involved in problem-solving, helping educators design tasks that challenge students to think critically and analytically. By breaking down problems into smaller, manageable components and encouraging students to explore multiple solution pathways, educators can help students develop the mental agility necessary for solving complex chemical problems[8].

A critical component of effective problem-solving in chemistry is the use of problem-solving frameworks. These frameworks guide students through a structured process of understanding the problem, applying relevant concepts, and evaluating possible solutions. By introducing students to step-by-step methodologies, such as the "conceptual framework" or "heuristic approach," educators can help students build confidence in tackling unfamiliar problems. Furthermore, scaffolding – gradually reducing instructional support as students gain proficiency – ensures that students become increasingly independent in their problem-solving capabilities.

As digital tools become more integral to education, digital tools in chemistry education have gained prominence as powerful resources for enhancing the problem-solving process. Technologies like virtual laboratories, interactive simulations, and adaptive learning platforms offer students the ability to visualize chemical reactions, manipulate variables, and experiment in a virtual space. These tools allow for a more personalized learning experience, where students can receive immediate feedback on their performance and revisit concepts as needed. Additionally, by integrating real-world case studies and interdisciplinary problems into digital platforms, educators can make chemistry more relevant and engaging, helping students understand the practical applications of their knowledge[9].

Lastly, the broader context of educational innovation in STEM (Science, Technology, Engineering, and Mathematics) cannot be ignored. The challenges of solving chemistry problems are not isolated to chemistry alone but reflect the broader demands of STEM education, where problem-solving, critical thinking, and interdisciplinary collaboration are central. By adopting innovative strategies from across the STEM disciplines, chemistry educators can ensure that students are not only equipped with deep knowledge of the subject but also prepared to approach complex problems with creativity, flexibility, and a collaborative mindset. This holistic approach will ultimately help cultivate the next generation of scientists, researchers, and professionals capable of addressing global challenges through scientific and technological innovation[10].

Conclusion Effective teaching methods for solving chemistry problems are essential for fostering both subject mastery and the development of critical skills such as analytical reasoning, creativity, and adaptability. As this article has explored, addressing the complexity of chemistry problem-solving requires a comprehensive and multifaceted approach that combines traditional pedagogical principles with modern advancements in technology, active

8 M. Primkulov, R. Ziyaev, B. Akbarov, U. Khaidarov. "Familiar and Unexplored Chemistry". Publisher "Uchitel", Tashkent, 2011.
9 Akbarov B., M. Primkulov. "The Book of Wunderkinds". Tashkent "Uzbekistan", 2015.
10 Dostmuradov T., A.Aloviddinov. "Cognitive Chemistry". Academy, Tashkent, 2005.

learning techniques, and scaffolding strategies. By creating structured yet flexible learning environments, educators can support students in overcoming common challenges, building confidence, and developing the higher-order thinking skills necessary for tackling complex problems.

Moreover, the integration of digital tools and real-world scenarios not only enhances engagement but also connects chemistry to practical applications, making learning more relevant and inspiring for students. At the same time, acknowledging the psychological and motivational factors in the learning process allows educators to cultivate resilience and a growth mindset, further empowering students to excel[11].

Ultimately, by implementing innovative and evidence-based teaching methodologies, educators can ensure that students are not only equipped to succeed in chemistry but also prepared to contribute meaningfully to scientific progress and address global challenges. The continued refinement of these approaches, driven by research and collaboration, holds the key to advancing chemistry education and shaping the next generation of problem-solvers and innovators.

11 Akhlydinov R.Sh., Ibragimov Kh.I. "Integration into the General Education System". Scientific and Pedagogical Foundations of Ensuring // "Continuous Education Process".

07

YOSH TADQIQOTCHILAR

"DISKRET MATEMATIKA VA MATEMATIK MANTIQ" FANINI O'QITISHDA "BOOL_TEST" DASTURIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Javlon Yusupovich Xolmatov – katta o'qituvchi,
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: *Ushbu maqolada "BOOL_TEST" dasturidan foydalanib, "Diskret matematika va matematik mantiq" fanini o'qitishga oid amaliy usullar va metodik tavsiyalar keltirilgan. "BOOL_TEST" – bu mantiqiy sxemalar yaratish va ularni tahlil qilish uchun mo'ljallangan dasturiy vosita bo'lib, u orqali mantiqiy funksiyalarni ko'rgazmali tarzda tushuntirishga imkon beradi. Shuningdek, "BOOL_TEST" dasturining imkoniyatlari, uni dars jarayonida qo'llash usullari va o'quvchilarni nazariy bilimlardan amaliy ko'nikmalarga o'tkazish bo'yicha batafsil metodik tavsiyalar keltirilgan. Bu dastur talabalarning mavzu bo'yicha qiziqishini oshiradi, ularda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga, tahliliy fikrlash qobiliyatlarini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. "BOOL_TEST" dasturining qo'llanilishi zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan integratsiya qilinib, "Diskret matematika va matematik mantiq" fanini yanada qiziqarli va interaktiv o'qitish imkoniyatini yaratadi.*

Аннотация: *В статье представлены практические приемы и методические рекомендации по преподаванию дисциплины "Дискретная математика и математическая логика" с использованием программы "BOOL_TEST". Программный инструмент, предназначенный для создания и анализа логических схем – "BOOL_TEST",позволяющий наглядно объяснять логические функции. Также представлены возможности программы "BOOL_TEST",методика ее использования на уроках и подробные методические рекомендации по переходу учащихся от теоретических знаний к практическим навыкам. Эта программа повышает интерес студентов к предмету, помогает им развивать практические навыки и укрепляет навыки аналитического мышления. Использование программы "BOOL_TEST," интегрированной с современными образовательными технологиями, создает возможность более интересного и интерактивного преподавания предмета "Дискретная математика и математическая логика".*

Abstract: *The article presents practical techniques and methodological recommendations for teaching the subject "Discrete Mathematics and Mathematical Logic" using the program "BOOL_TEST". "BOOL_TEST" is a software tool designed to create and analyze logical circuits, allowing you to clearly explain logical functions. The capabilities of the program "BOOL_TEST," the methodology for using it in lessons and detailed methodological recommendations for the transition of students from theoretical knowledge to practical skills are also presented. This program increases students' interest in the subject, helps them develop practical skills and strengthens analytical thinking skills. The use of the program "BOOL_TEST," integrated with modern educational technologies, creates the opportunity for more interesting and interactive teaching of the subject "Discrete Mathematics and Mathematical Logic".*

Kalit so'zlar: *"BOOL_TEST" dasturi, mantiqiy elementlar, chinlik jadvali, elektron sxemalar, metodik yondashuv.*

Ключевые слова: *программа "BOOL_TEST", логические элементы, таблица истинности, электронные схемы, методический подход.*

Keywords: *program "BOOL_TEST",logical elements, truth table, electronic circuits, methodological approach.*

Hozirgi vaqtda barcha mamlakatlarda, shu jumladan O'zbekistonda ham fanlarni o'qitish zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali amalga oshirilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim oldida ilg'or o'qitish amaliyotini kengaytirish va ta'lim usullarini takomillashtirish muammosini keltirib chiqarmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shu jumladan dasturiy vositalarning xilma-xilligi va doimiy ravishda uzluksiz yangilanib borayotganligi fanlarni o'qitishda ta'lim usullarini mutanosib tarzda o'zgartirib moslashtirib borish hamda rivojlantirishni talab qiladi. Shuning uchun biz tadqiq qilayotgan dasturiy injiniring ta'lim

yo‘nalishi talabalariga ta’lim berishda zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish orqali bo‘lajak dasturchilarni kasbiy faoliyat turlariga tayyorlashda doimo yangi metodik yondashuv talab qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash...”[1] ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Bo‘lajak dasturchilarga barcha fanlar kesimida dasturiy vositalaridan foydalanib ta’lim berish bugungi kunda eng muhim vazifadir. Barcha oliy ta’lim muassasalari zamonaviy kompyuter va multimedia jihozlari bilan ta’minlanganligini inobatga olsak, xususan, dasturiy injiniring ta’lim yo‘nalishi malaka talablarida keltirib o‘tilgan kasbiy faoliyat turlarini inobatga olgan holda ta’lim jarayonida dasturiy vositalardan foydalanish yanada dolzarb ekanligi ko‘zga tashlanadi.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, oliy ta’lim muassasalarida “Diskret matematika va matematik mantiq” fanini o‘qitishda kompyuter dasturlaridan foydalanish talabalarning mavzuni chuqurroq tushunishlariga imkon yaratadi va qiziqishini oshiradi. Ana shunday kompyuter dasturidan biri bu “BOOL_TEST” dasturi hisoblanadi[2],[3],[4],[5].

BOOL_TEST dasturining imkoniyatlari.

BOOL_TEST dasturining asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

Vizual ko‘rgazmalilik: Mantiqiy elementlar (AND, OR, NOT, XOR, NAND, NOR, NXOR) orqali mantiqiy funksiyalarni sxemalar shaklida ko‘rsatish imkoniyati.

Interaktiv tahlil: Talabalar sxema ishlash jarayonini real vaqt rejimida kuzatib, uning qanday natijalar berishini tushunishlari mumkin. Ya’ni simulyativ xarakterga ega.

Soddaligi: Dastur o‘zining qulay interfeysi va sodda ishlash qoidalari bilan o‘qituvchilar va talabalar uchun oson o‘zlashtiriladi.

Bepul foydalanish: Dastur ochiq manba kodiga ega bo‘lib, har kim uni erkin yuklab olib foydalanishi mumkin.

“Diskret matematika va matematik mantiq”ni o‘qitishda “BOOL_TEST” dasturidan foydalanish.

“BOOL_TEST” dasturi yordamida “Diskret matematika va matematik mantiq” fanining quyidagi mavzularining o‘qitish samaradorligini oshirish mumkin:

Talabalarga mantiqiy funksiyalarning algebraik shakli berilganda, ularni “BOOL_TEST” yordamida vizual tarzda tasvirlash mumkin. Masalan, uch o‘zgaruvchiga bog‘liq bo‘lgan $f(A,B,C) = (A \vee B) \wedge (\bar{B} \oplus \bar{C})$ funksiyasi uchun quyidagi (1-rasm) ko‘rinishda sxema chizilib, uning ishlashi tahlil qilinadi[6].

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yillargacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. 08.10.2019 y. // https://lex.uz/docs/4545884


2 Холматов, Д., & Мустафоев, Э. (2023). Zamonaviy diskret matematikaning vazifalari. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 352-356.

3 Xolmatov J. Interfaol ta’lim metodlaridan diskret matematika va matematik mantiq fanini o‘qitishda foydalanish //News of UzMU journal. – 2024. – T. 1. – №. 1.1. 1. – C. 119-222.

4 Xolmatov, J. (2024). Diskret matematika va matematik mantiq fanidan mantiqiy sxemalar qurish mavzusida interfaol o‘qitish metodlaridan foydalanish. International Journal of scientific and Applied Research, 1(3), 38-42.

5 Xolmatov, J. (2024). Bo‘lajak AKT mutaxassislarini tayyorlashda intellektual kompetensiyalarni shakllantirish. International Journal of scientific and Applied Research, 1(3), 42-44.


6 Холматов, Ж., Худойшукурова, Р., & Ибадуллаев, Ш. (2023). Bul algebrasi funksiyalari sistemasini post teoremasi asosida to‘liqlikka tekshirish. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 66-70.



1-rasm. $f(A,B,C) = (A \vee B) \wedge (\bar{B} \oplus \bar{C})$ mantiqiy funksiyaning sxemasi


"BOOL_TEST" dasturi orqali mantiqiy funksiyalarning chinlik jadvallarini avtomatik ravishda hosil qilish va natijalarni tahlil qilish imkoniyati mavjud. Bu talabalarni funksiyalarni qo'lda hisoblashga ketadigan vaqtdan tejash imkonini beradi[7].

"BOOL_TEST" dasturi yordamida mantiqiy elementlar o'zaro qanday ulanishini tushuntirish mumkin. Bu talabalarni raqamli elektronika bilan tanishtirishning dastlabki bosqichida foydali bo'ladi(2-rasm).




2-rasm. Mantiqiy qurilmalarning ishlashi.

Mantiqiy funksiyalarni minimallashtirish va optimallashtirish usullari (masalan, Karno xaritalari) "BOOL_TEST" dasturi yordamida tushuntirilganda, o'quvchilar ularning amaliy natijalarini vizual tarzda ko'rishlari mumkin (3 va 4-rasm)[8].



3-rasm.

$f(A,B,C) = A \wedge B \wedge C \vee A \wedge B \wedge \bar{C} \vee A \wedge \bar{B} \wedge \bar{C} \vee \bar{A} \wedge \bar{B} \wedge \bar{C}$ - $f(A,B,C)$ funksiyaning mukammal dizyunktiv normal shaklining mantiqiy sxemasi



4-rasm. 3-rasmda berilgan $f(A,B,C)$ mantiqiy funksiyaning minimal dizyunktiv normal shaklining mantiqiy sxemasi.

"BOOL_TEST" dasturidan foydalanish jarayonida quyidagi metodik tavsiyalarni e'tiborga olish lozim:

Dastur imkoniyatlaridan foydalanishni oddiydan murakkabga tamoyili asosida tashkil etish.

Talabalarga dasturda o'zlari mustaqil ravishda mantiqiy sxemalar yaratishga imkon berish.

Talabalarga mantiqiy funksiyalar bilan bog'liq muammoli vazifalarni berib, ularning yechimlarini "BOOL_TEST" dasturi orqali ko'rib chiqish.

Talabalarni kichik guruhlarga ajratib,

7 O'sha manba.
8 O'sha manba.

birgalikda mantiqiy sxemalarni loyihalash va natijalarni muhokama qilishni tashkil etish[9],[10],[11],[12],[13].

BOOL_TEST dasturidan foydalanib dars o‘tish metodikasini ko‘rib chiqamiz.

Dars mavzusi: Mantiq funksiyalarining tatbiqlari. Mantiqiy sxemalar qurish

Darsning maqsadi:

Talabalarga BOOL_TEST dasturidan foydalanish asoslarini o‘rgatish.

Raqamli sxemalarni qurish va sinash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar berish.

Mantiqiy elementlar va ularning ishlash prinsiplarini tushuntirish.

Darsning rejasi

1-bosqich: BOOL_TEST dasturini o‘rnatish va sozlash

BOOL_TEST dasturini yuklab olish va o‘rnatish.

Dastur interfeysi bilan tanishish.

Asosiy menyu va funksiyalarni tushuntirish.

2-bosqich: Mantiqiy elementlar bilan ishlash

Asosiy mantiqiy elementlar (AND, OR, NOT, XOR, NAND, NOR) bilan tanishish.

Har bir elementning ishlash prinsipi va uning haqiqat jadvalini o‘rganish.

Oddiy mantiqiy sxemalarni qurish va ularga signal berish.

3-bosqich: Amaliy mashg‘ulotlar

Oddiy mantiqiy sxema yaratish (masalan, XOR eshigi yordamida ikkita signaldan natija olish).

Murakkab sxemalar yaratish (masalan, ikkilik qo‘shuvchi, multiplexer, demultiplexer, triggerlar va boshqalar).

Olingan natijalarni tahlil qilish va xatolarni aniqlash.

4-bosqich: Mustaqil ish va muammolarni hal qilish

Talabalarga mustaqil ravishda sxemalar yaratish topshirig‘ini berish.

Turli mantiqiy masalalarni BOOL_TEST yordamida yechish.

Ishlangan sxemalarni tahlil qilish va natijalarni baholash.

5-bosqich: Yakuniy tekshiruv va xulosa.

Talabalar tomonidan yaratilgan sxemalarni tekshirish va ularni baholash.

O‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlash uchun muhokama va savol-javob tashkil qilish.

BOOL_TEST dasturining qo‘shimcha imkoniyatlari bilan tanishtirish.

Darsning baholash mezonlari.

BOOL_TEST dasturida ishlash ko‘nikmalarini egallaganlik.

Mantiqiy sxemalarni to‘g‘ri yaratish va ishlash prinsiplarini tushunish.

Berilgan masalalarni mustaqil yecha olish.

9 Xolmatov J. Interfaol ta’lim metodlaridan diskret matematika va matematik mantiq fanini o‘qitishda foydalanish //News of UzMU journal. – 2024. – T. 1. – №. 1.1. 1. – C. 119-222.

10 Xolmatov, J. (2024). Diskret matematika va matematik mantiq fanidan mantiqiy sxemalar qurish mavzusida interfaol o‘qitish metodlaridan foydalanish. International Journal of scientific and Applied Research, 1(3), 38-42.

11 Xolmatov, J. (2024). Bo‘lajak AKT mutaxassislarini tayyorlashda intellektual kompetensiyalarni shakllantirish. International Journal of scientific and Applied Research, 1(3), 42-44.

12 Intellektual kompetentlik intellektual qobiliyatlar va ijodkorlikning birligi sifatida. (2024). Ta’limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari, 31(2), 103-106.

13 J.Y.Xolmatov. (2024) Dasturiy vositalar yordamida mantiqiy funksiyalarning sxemasini yaratish. Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. 1, 357-360.

O‘z sxemalarini tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyati.

Dasturiy vositalar asosida o‘qitishning afzalliklarini quyidagicha xulosalash mumkin:

O‘qituvchining ish, ya’ni mehnat samaradorligini oshiradi.

Amaliy mashg‘ulotlar jarayonida dasturiy vositalarning imkoniyatlaridan kengroq foydalanish maqsadida pedagogik jarayonlarni tashkil qilish, o‘qitish natijasini baholashda esa xususiy (subyektiv) baholanishdan o‘qituvchini ozod etish imkonini beradi.

O‘qitish jarayoni bo‘yicha bosh vazifalarni o‘qitish vositalariga jumladan dasturlarga yuklash orqali o‘qituvchining vaqtini samarali qiladi, shu bois o‘qituvchi ko‘proq vaqtini har bir talabaning shaxsiy rivojlanishiga berishga imkon yaratiladi.

Talabalar bilim darajasini belgilash, uni nazorat qilish va monitoring tizimida subyektiv baholash mezonlariga imkon bermaydi, ular obyektiv kechadi, baholash va nazoratda shaffoflikka erishiladi.

Dasturiy vositalar asosida o‘qitishda intellektual kompetensiyaning quyidagi kompetentliklarining rivojlanishiga zamin yaratiladi: mantiqiy fikrni rivojlantirish; ijodiy fikrni rivojlantirish.

“BOOL_TEST” dasturi yordamida “Diskret matematika va matematik mantiq” fanini o‘qitish talabalarning o‘quv jarayoniga qiziqishini oshirib, mavzuni yanada chuqurroq o‘zlashtirishlariga imkon yaratadi. Ushbu dasturdan foydalanish o‘qituvchi va talabalar uchun qulay bo‘lib, ta’lim sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, bu usul talabalarga kelajakda raqamli elektronika va mantiqiy dasturlash bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi.

BAXT VA HAYOTNING MAZMUNI MASALASI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Aziza Po‘latovna To‘rayeva – katta o‘qituvchi,
Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada insonning baxtga intilishi va hayotining mazmuni haqidagi fikr-mulohazalar falsafiy asosda bayon qilingan.*

Аннотация: *В статье представлены философские размышления о стремлении человека к счастью и смысле жизни.*

Abstract: *In this article, opinions about the human's pursuit of happiness and the meaning of the life are presented on a philosophical basis.*

Kalit so‘zlar: *inson, baxt, orzu, ideallik, salomatlik, boylik, muhabbat, haqiqat, ma’naviy barkamollik, hayotning mazmuni.*

Ключевые слова: *человек, счастье, мечта, идеальность, здоровье, богатство, любовь, истина, духовное совершенство, смысл жизни.*

Keywords: *human, happiness, dream, ideality, health, wealth, love, truth, spiritual perfection, meaning of life.*

Hamma zamon-u zaminlarda ham inson muammosi, uning orzu-intilishlari, baxtga munosabati, hayotning mazmunini izlashga bo‘lgan urinishlar dolzarb bo‘lib kelgan. Shu bois falsafada insonning hayoti, uning baxtga intilishi va yashashdan maqsadini anglash haqida turli xil qarashlar, nazariyalar, ta’limotlar va gipotezalar vujudga kelgan, diniy manbalarda ham bu mavzular to‘g‘risida xulosalar bayon qilingan.

Falsafiy va diniy ta’limotlarda insonning yashashdan maqsadi nima, degan savolga javob izlanadi. Jahonning barcha yirik dinlari bu dunyoni foniy, o‘tkinchi hisoblaydi. Insonning yashashdan maqsadi foniy dunyoda xayrli(savobli) ishlar qilib, boqiy dunyoga tayyorgarlik ko‘rish, jannatga sazovor bo‘lish degan g‘oyani yoqlaydi. Ayrim diniy va oqimlar va mazhablar bu masalani yanada keskinroq qo‘yadi. Masalan, xristianlarda o‘rta asrlarda “ruhingni qutqarish uchun pushtingni so‘ndir”, degan da’vat keng tarqalgan edi. Sharqda keng tarqalgan tasavvuf ta’limotida esa nafsingdan kechsang, bu dunyo noz-ne’matlaridan nafratlansang, Haq visoliga erishasan, deyilgan.

Dunyoviy falsafa vakillari esa antik zamonlardanoq insonning yashashdan maqsadi huzur-halovatli umr kechirish yoki baxtli bo‘lish deb hisoblaganlar.

Darhaqiqat, inson nomli murakkab mavjudot axloqiy normalar va qoidalarni ishlab chiqish va o‘zlashtirish qobiliyatiga ega bo‘lganidan so‘ng uning jamiyatda tutgan o‘rni, maqomi ham o‘zgara borgan. Yaxshi yashashga, baxtga intilish va bu yo‘lda turli qiyinchiliklarni yengib o‘tish inson hayotining mazmuniga aylana bordi.

Mutaxassislar fikricha, baxt ma’naviyat kategoriyasi bo‘lib, kishining o‘z turmushidan mamnunligi, hayotining bekami-ko‘stligi va muayyan ma’no kasb etganidan hosil bo‘ladigan qanoatidir[1]. Baxt yuksak ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan, insonlarni muayyan maqsadlarga erishishga chorlaydigan, ijobiy mohiyatga ega bo‘lgan kategoriyadir. Baxt so‘zi ko‘pincha saodat tushunchasi bilan birgalikda ishlatiladi, aslida esa ular bir ma’noni ifodalaydi, ya’ni baxt turkiycha, saodat forsiy tildan kelib chiqqan. Baxtning ziddi

1 Назаров Қиём. Жаҳон фалсафаси қомуси. Т: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти”, -2022, 1-жилд, 148-б.

baxtsizlik bo‘lib, har ikkala tushuncha ham o‘zini tashkil etuvchi elementlardan iborat.

Baxtni har kim har xil tushunib talqin qiladi va o‘z tushunchalari asosida baxtning formulasini yaratadi. Va bu formulalari asosida hayotini tashkil qilishga harakat qiladi. Birov uni boylikda, boshqasi mansab martabada, yana biri oila to‘kisligida, ayrimlar jism salomatligida deb bilsa, kimdir ma’naviy kamolotga erishishni baxt deb hisoblaydi. O‘zgalarga kerakligingni his etish ham baxt hissini tuyishga olib keladi, degan mulohazalar ham mavjud. Ba’zilar esa baxtni muhabbatda deb biladi. Halol mehnat orqali baxtga erishish mumkinligi to‘g‘risidagi qarashlarni ham inkor qilib bo‘lmaydi. Erkinlikni baxtli yashashning asosiy manbai sifatida e’tirof etuvchilar ham ko‘pchilikni tashkil qiladi.

Qadimgi yunon falsafasida evdemonizm ta’limoti baxtni-hayotning asosiy maqsadi, kishilar intiladigan farovonlikka erishilgan holat, shod-xurram bo‘lishning oliy ko‘rinishi sifatida taqdim etadi. Epikur esa etikani hayotda yashashning maqsadi to‘g‘risidagi, azob-uqubatdan xalos bo‘lish, kishilarga baxt keltiradigan huzur-halovatga erishish yo‘larini o‘rgatadigan ta’limot, deb qaraydi. Epikur fikricha, baxtga intilish odam uchun tabiiy narsa, uning o‘zi ham rohatlanish, huzur-halovat istagidan kelib chiqadi. Epikur axloqining muhim xususiyati shundaki, u barqaror ruhiy huzur-halovatni o‘tkinchi jismoniy huzur-halovatdan ustun qo‘yadi.

“Sharq Arastusi” sifatida e’tirof etilgan Forobiy ham inson hayotining oliy maqsadini baxt-saodatga erishuvdan iborat, deb hisobladi. Buning uchun esa inson, avvalo, baxt-saodatning nimaligini bilmog‘i zarurligini, unga erishuvni o‘ziga maqsad qilib olmog‘i, unga eltadigan ish-amal va vositalarni bilmog‘i va bajarishga kirishmog‘i lozim. Faylasuf insonning baxtli bo‘lishi uning sog‘ligi, irodasi, hayotini mazmunli tashkil etishiga bog‘liqligini ta’kidlaydi.

“Baxtimizning o‘ndan to‘qqiz qismi salomatligimizdadir” degan edi g‘arb uyg‘onish davri vakili Fransua Laroshfuko. “Alloh taoloning bandasiga bergan ne’matlarining orasida iymondan keyingi eng ulug‘i – tan sihatligidir” deyiladi hadisi shariflarda ham. Chindan ham badanining biror bir qismida og‘riqni muntazam his qiluvchi odam hech qachon o‘zini to‘kis baxtiyor his eta olmaydi. “Sog‘ tanda – sog‘lom aql”, degan xalqimizning maqoli bejizga aytilmagan. Demak, jismning sog‘ligi ruhga va aqlga bevosita ta’sir qiladi. Sharqda shakllangan rivoyatga ko‘ra kunlardan bir kun bukri Xizrga duch keladi. Xizr undan “seni bukrilikdan xalos qilaymi?”, deb so‘raganida bukri esa Xizrning bu iltifotiga nisbatan “Boshqalarni ham men kabi bukri qilsang bo‘lgani”, deb javob bergan ekan. Ba’zan bu rivoyat shu mazmunda so‘qir obrazida ham taqdim qilinadi. Demak, jism salomatligi asta-sekinlik bilan inson ma’naviy olamiga-ruhi va shuuriga o‘z ta’sirini o‘tkazib, uni o‘tmaslashtirib qo‘yishi ham mumkin.

Baxt va hayotning ma’nosini muhabbatdan izlaganlar uni yuksak axloqiy tuyg‘u sifatida e’tirof etadilar. Darhaqiqat, muhabbat – hayotga ma’no beradigan, uni rang-barang va qimmatli qiladigan kuchli qudrat. Muhabbat sevgilisiga bo‘lgan munosabatdan boshlab, yaqinlarga, vataniga va butun insoniyatga bo‘lgan muhabbatni o‘z ichiga oladi. Muhabbat – baxt, ilhom va takomillashuvning kuchli manbai. Sevib va sevilib yashayotgan inson o‘zini to‘laqonli va baxtli his qiladi. Lekin hayot ma’nosini faqat muhabbat bilan cheklash juda oddiylashtirilgan va hissiyotlarga tayanilgan fikr. Muhabbat kuchli dvigatel bo‘lsa ham, hayot ma’nosi bu – har bir inson uchun individual bo‘lgan ko‘p qirrali tushuncha. Konslagerlarning dahshatlarini boshdan kechirgan Viktor Frankl (psixoterapevt, aynan hayotni ma’nosini qidirayotgan insonlar uchun qo‘llaniladigan mashhur logoterepiya usuli asoschisi) o‘z logoterapiyasida hayot ma’nosi oldindan belgilanmagan, balki inson tomonidan maqsadni izlash, mavjudligini

anglash va mas'uliyatni qabul qilish orqali yaratiladi, deb ta'kidlagan. Uning "inson "nima uchun" degan savolga javob topsa, har qanday "qanday"ga chidab bera oladi" – degan fikri shaxsiy maqsad va ma'noni izlashning ahamiyati qanchalik ekanligini ko'rsatadi. Albert Kamyu esa o'z absurdlik falsafasida: hayot obyektiv ma'nodan mahrum bo'lsa-da, lekin bu uni bema'ni qilmaydi, deydi. Ma'no inson tomonidan dunyoni faol idrok etish, tanlov erkinligini qabul qilish va mavjudlikning absurdligi bilan kurashish jarayonida yaratiladi. Demak, muhabbat muhim, lekin yagona ma'no manbai emas. Hayot ma'nosini izlash bu – o'zini anglash, o'zini ro'yobga chiqarish va dunyo bilan o'zaro munosabatda bo'lishning doimiy jarayoni hisoblanadi.

Insonning hayotdan qoniqmaslik, barcha orzu-umidlari to'la ushalmasligi bir tomondan, uning yashashi, ijodiy faoliyat ko'rsatish uchun qudratli qo'zg'atgich vazifasini bajarsa, ikkinchi tomondan, xuddi shu qudrat insonning turli qobiliyatlarini, malakalarini, iste'dodlarini har tomonlama rivojlantirishga yordam beradi. Har bir kishi hayotining mazmunini shu holat tashkil etadi[2].

O'rta asrlar Sharqining mashhur mutafakkiri Jaloliddin Rumiy nazarida ham erishganiga qanoat qilish hissi- inson uchun ma'naviy o'lim, zamon bilan hamnafas bo'lib qadam tashlash, doimo olg'a intilish esa – hayot edi:

O'sha Ahmadman-u, ammo kechagi Ahmad ermasman,

Samandar qushman-u, lekin kechagi donni yermasman.

Yashar bir podshokim, orzu aylar o'zga podsholar

O'shal podshoh - o'zim. Lekin kecha sen bilgan ermasman...[3].

Jaloliddin Rumiy falsafasidan cheksiz ilhomlanganini qayd etgan nemis klassik falsafasining yirik vakili Fridrix Gegel esa baxtning mohiyatini juda oddiy, ammo konkret ifodalaydi. Faylasuf har tong uydan ishxonasigacha shoshilib, oshiqib borishni va kechki payt ishxonasidan o'z uyiga orziqib, intiqib borishni baxt deb ataydi. Haqiqatan ham inson o'z kasbini sevsa va faxrlansa, mehnatining mahsulini ko'rsa, ishxonasiga oshiqib boradi. Kasbi va mehnatidan zavqlanish esa insonni mehnatdan begonalashuvga yo'l qo'ymaydi. Zavqli mehnatdan so'ng oilasiga orziqib borish baxti esa hammaga ham nasib etmasligi mumkin. Faylasuf oilasida sevimli ayoli lazzatli taom tayyorlab, jondan aziz farzandlari bilan turmush o'rtog'ini kutib olishini, stol atrofidagi yoqimli va qiziqarli suhbatlarni haqiqiy baxt sifatida ta'riflaydi.

Baxtga intilishda maqsadlarning ulug'vorligi va ideallik muhim ahamiyat kasb etadi. Ideal inson hayotidagi eng oliy ma'naviy-axloqiy talab bo'lib, unga erishish yo'lidagi sa'y-harakatlar shaxsni kamolotga yetaklaydi. Ideal narsalar va hodisalarning xayoldagi, tasavvurdagi eng mukammal, nuqsonsiz namunasidir. Inson qo'lga kiritilgan yutuqlarni, yaratgan asarlarni, ilmiy va badiiy ijodini yashayotgan jamiyati va undagi tartib-qoidalarni doimo fikran muayyan ideallarga qiyoslaydi, mavjud holatlardan qoniqmasdan, yanada takomillikka intiladi. O'zi ham bu jarayonda kamol topa boradi. Ushbu ma'noda ideal jamiyat va shaxsning o'sib borayotgan, yuksalayotgan ehtiyojlari va intilishlarini axloqda, huquqda, badiiy va ilmiy ijodda, ta'lim-tarbiyada, umuman turmushda ifodalaydigan, yuzaga chiqarishga qaratilgan eng yuksak, oliy ijtimoiy mo'ljallardir. Maqsadning ro'yobga chiqishi esa endi yuksakroq ideallarni ko'zlash lozimligini taqozo qiladi:

2 Чориев А. Инсон фалсафаси. Биринчи китоб. Т. -1998. 205-б.

3 Фиш Р. Жалолиддин Румий. Т: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти,-1986. 240-б.

Oshiqki murodi kom bo‘lg‘ay,

Oshig‘liq anga harom o‘lg‘ay, -

deb yozgan edi buyuk mutafakkir Alisher Navoiy.

Ammo idealni mutlaqlashtirmaslik lozim, aks holda u mavhum va xayoliy hodisaga aylanadi. Husn va iste’dodda, boylikda tengsiz bo‘lgan shoira, boburiylar sulolasining vakili Zebiniso begim (shoh Avrangzebning qizi) hayotga qo‘ygan talabi nihoyatda yuksak bo‘lganligi uchun dunyoda o‘ziga munosib turmush o‘rtog‘i topolmadi. “Mening baxtim ham kitob, erim ham kitob, hatto jannatim ham kitbdir”, degan fikrlar aynan Zebiniso begimga tegishlidir.

Baxt manbaini faqatgina farovonlik va moddiy boylik tashkil qilishini ta’kidlagan ba’zi kishilar esa umrining poyonida o‘zlarining xulosalari to‘g‘ri emasligiga iqror bo‘lishadi..

Rivojlangan mamlakatlarning olimlari ushbu masala ustida ilmiy tadqiqotlar o‘tkazib, negadir bir-biridan tushkun xulosalarga kelishmoqda. Masalan, so‘nggi 25 yilda amerikaliklar o‘zlarini unchalik baxtli emas, deb hisoblay boshlaganlar. Yevropa Ittifoqida ham vaziyat xuddi shunday. Vaholanki, o‘tgan davrda ularning turmush sifati va darajasi bir necha barobarga o‘sgan. Tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, hayot sifatining jiddiy yaxshilanishi odamlarni baxtliroq qila olmadi. “Hatto Amerikadagi 100 nafar eng badavlat kishilar sirasiga kiruvchi milliarderlarni o‘rtahol fuqarodan baxtli, deyish mushkul”, – deb yozishadi olimlar.

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, mol-dunyoga erishganlar faqat vaqtincha xursand bo‘ladilar. Qisqasi, boylik bamisoli olovga o‘xshaydi: garchi uning mutlaqo yo‘qligi bir kulfat sanalsa-da, bu unsur mavjudligi chinakam baxt-saodatli hayot bo‘lishini kafolatlay olmaydi.

XX asr o‘zbek prozasining yetuk vakili O‘.Hoshimov qahramonlaridan biri esa umr mazmunini shunday ifodalaydi: “Ming yil yashagan sahoba” Essiz, essiz, bu eshikdan kirib keldim-u, u eshikdan chiqib ketyapman, degan ekan. Shunday insonlar borki, u eshikdan kirib, bu eshikdan chiqib ketayotganida, hayot deb atalmish ulkan imoratga loaqal bitta g‘isht qo‘yib ketadi. Ba’zi odamlar esa u eshikdan kirib, narigi eshikdan chiqib ketayotganda bitta bo‘lsa ham g‘isht o‘g‘irlab ketgisi keladi. O‘g‘irlab-ku hech qayoqqa olib ketolmaydi, baribir narigi eshik oldiga borganida tashlab ketadi, o‘rtada imoratning buzilgani qoladi, xolos[4].

Xulosa qilib aytganda, inson umrining mazmuni qancha yashaganligi bilan emas, balki qanday yashaganligi bilan belgilanadi. Xalq dardi bilan yashash, ma’naviy barkamollikka erishish, o‘zidan yaxshi nom va solih farzandlar qoldirish inson umriga yanada mazmun bag‘ishlaydi. Inson hayotining mazmuni va ma’nosi haqidagi fikr-mulohazalarimiz quyidagi savollarga javob berishni taqozo etadi: Inson zoti yer yuzidan yo‘q bo‘lib ketishi mumkinmi? Uni saqlab qolish uchun nima qilmoq darkor? Insoniyatning yer kurrasida bundan keyin yashashi uchun kafolat bormi? Global muammolarni bartaraf etish imkoni bormi? Qanday qilsak insonparvarlik g‘oyalarini, hazrati inson degan nomni saqlab qolamiz? Bu murakkab masalalar esa tadqiqotchilar uchun alohida mavzular bo‘lib, yechimini kutayotgan dolzarb muammolar qatoriga kiradi.

4 Ҳошимов Ў. Икки эшик ораси.-Т: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1985.

EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI

Sitora Ayonovna Azamova – katta o'qituvchi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Zarina Lochin qizi Arolova – talaba,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ekologik madaniyatni har bir shaxsga ta'lim orqali o'rgatish va ekologik madaniyatni rivojlantirish, bu ishni dastlab maktablardan boshlash haqida fikrlar bildirilgan.*

Аннотация: *В данной статье представлены идеи по обучению каждого человека экологической культуре посредством образования и развития экологической культуры, начиная эту работу еще со школ.*

Abstract: *This article presents ideas on teaching environmental culture to each individual through education and developing environmental culture, starting this work in schools.*

Kalit so'zlar: *ekologiya, ekologik tarbiya, globallashuv, ekologik madaniyat, ekologik ta'lim, ona tabiat, ko'kalamzorlashtirish, landshaftlar.*

Ключевые слова: *экология, экологическое образование, глобализация, экологическая культура, экологическое образование, мать-природа, озеленение, ландшафты.*

Keywords: *ecology, environmental education, globalization, environmental culture, environmental education, mother nature, landscaping, landscapes.*

Global miqyosda tobora keskinlashib borayotgan ekologik muammolar insoniyatdan atrof-muhitga bo'lgan munosabatini o'zgartirishni talab etmoqda. Bu jarayonda ekologik ta'lim tizimli va uzluksiz jarayoni bo'lib, uning maqsadi nazariy va amaliy bilimlarni, dunyoqarashni, xulq-atvor normalari va qoidalarini, shu jumladan, atrof-muhitga, tabiatdan foydalanishga va umuman ekologik vaziyatga bo'lgan munosabatni shakllantirishdir. Ekologik tarbiyaning ilk ildizlari insoniyatning qadim turmush tarziga borib taqaladi. O'sha kezlardan insonlar tabiat bilan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga intilishgan va buni yosh avlod ongiga sindirishga harakat qilishgan. Ibtidoiy jamiyatdagi shaxs o'z hayotini tabiat bilan chambarchas bog'liqligini his qilgani bois, hatto olamning asosida ham to'rtta tabiat unsuri yer, suv, havo va olov yotadi deb qaragan va aynan shu tabiatga intilgan. Ularning hayot ekanligiga juda qattiq ishonishgan[1]. Endilikda inson o'z aql-kuchiga tayanib, tabiatdan juda ko'p narsalar talab qila boshlagan. Buning natijasida esa ya'ni tabiat barcha bergan ne'matlaridan foydalanib uni isrof qilib, eng noyob hayvonlar va o'simliklar yo'q bo'lib ketishiga inson sababchi bo'lib qolmoqda. Xalqimizda shunda bir maqol bor " Bir daraxtni kessang, o'rniga yuz daraxtni ek". Bunda bitta daraxt ham qancha insonlarga foyda keltirishi haqida aytiladi. Shu sababli, ekologik madaniyatni rivojlantirish va shu sohada yangidan-yangi ta'lim tizimlarini o'ylab topish va uni amalda qo'llash har birimizning burchimizdir. Biz ekologiya so'zini aytishdan oldin barchasining negizida tabiat haqidagi tushunchaga ega bo'lishimiz lozim. Tabiat deganda biz o'zimizni o'rab turgan havo, suv, tuproq, tog' jinslari, o'simlik va hayvonlardan iborat, murakkab moddiy borliqni ko'z o'ngimizga keltiramiz. U insonning barcha moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondiruvchi

1 Ergashev A., Ergashev T. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. Darslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.

yagona manba hisoblanadi. Bu jihatdan uni onaga qiyoslab bejizga "Ona tabiat" deb ardoqlanmaydi. Tabiatning inson va jamiyat uchun ahamiyati juda katta va turli-tumandir. Uni inson ehtiyojlarini qondirish jihatlariga qarab iqtisodiy, ilmiy, sog'lomlashtirish, tarbiyaviy va estetik kabi ahamiyatlarini farqlash mumkin. Hozirgi kunda eng kerakligi tarbiyaviy ahamiyatligidir. Sababi, sof haqiqiy tabiatni kishilarda oliyjanoblik, xushfe'llik, bag'rikenglik, vatanparvarlik, ulug'vorlik, muloyimlik kabi axloqiy xislatlarni uyg'otish va shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Tabiatning estetik ahamiyati ham beqiyosdir. Insondagi barcha go'zallik, mukammallik, musiqa, tasviriy san'at, kuy-navo hislari, va ularga bo'lgan ehtiyojlarning negizida tabiat yotadi. Chunki inson tabiat bilan mavjuddir. Shunday ekan, tabiatni asrash va uni yanada ko'kalamzorlashtirish har bir insonning burchidir. Ekologiya insoniyat rivojlanish davrining ilk bosqichlarida hamda shu davr kishilari o'rtasida muhim o'rinni egallaydi[2]. Qadimgi odamlardan qolgan g'orlar, qoyalardagi turli rasmlarga qaraganda ekologiya juda qadimgi fanlardan ekanligini bilishimiz mumkin. O'sha davrda yashagan har bir kishi ochlikdan sovuq va issiqlikdan saqlanish uchun o'zini o'rab turgan muhitning holatidan xabardor bo'lib, kerakli o'simliklarning urug'ini, mevasini terish, hayvonlarni tutish bilan bir qatorda unga xavf tug'diradigan dushmanlar, tabiiy ofatlardan qochish, bekinish yo'llarini bilgan. Tabiat kuchini, uning qonunlarini o'rganib shu qonunlarga moslashib yashagan. Qadimgi yunon olimlari, Gippokrat va Aristotellarning ilmiy asarlaridagi, 500 ta o'simlik turi va hayvonlarning 454 ta turi haqidagi ma'lumotlar ekologik xarakterga ega bo'lgan. Masalan, Aristotel o'zining ilmiy asarlarida 500 dan ortiq turli hayvonlar, qushlar, baliqlarning hayoti, tarqalishi, bir yerdan ikkinchi yerga ko'chishi haqida ma'lumot beradi. Z.M.Bobur o'zining "Boburnoma" nomli tarixiy asarida O'rta Osiyo va Hindistonning turli o'simlik va hayvonlari, ularning o'sadigan, yashaydigan joyi, gullash, ko'payish davrlari haqida ko'pgina ma'lumotlar keltiradi[3]. Bularni barchasini yodga olishdan

asosiy maqsad har bir davrning podshohlari o'z asarlarida tabiatni asrash va unga yaxshi munosabatda bo'lish haqida yozib qoldirganlar. Ular o'z asarlarida albatta, tabiatni asrash haqida ko'plab ma'lumotlar yozib qoldirishgan. "Inson tomonidan biosferaga ko'rsatilayotgan ta'sirni tartibga solish, ijtimoiy taraqqiyot bilan qulay tabiiy muhitni saqlab qolishning o'zaro ta'sirini uyg'unlashtirish, inson va tabiatning o'zaro munosabatlarida muvozanatga erishish muammolari borgan sari dolzarb bo'lib qolmoqda"[4]. Mamlakatimizdagi ekologik xavfsizlik siyosati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, atrof-muhit va barqaror rivojlanishga oid qonunchilik hamda Rio-de-Janeyro va Yoxanesburg Deklaratsiyalari prinsiplari tamoyillari asosida olib borilib, ijtimoiy va ekologik yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti orqali huquqiy demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyatini barpo etilmoqdadir. Ma'lumki, 5-iyun BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish kuni sifatida belgilangan. Mazkur sana jahon hamjamiyati e'tiborini atrof-muhit muammolariga qaratish,ekologiya muhofazasiga jiddiy munosabatga bo'lish tuyg'usini uyg'otishga xizmat qiladi[5]. "Biz iste'mol qiladigan mahsulotlar, biz nafas oladigan havo, biz ichadigan suv, biz yashaydigan sayyoraga hayot bag'ishlovchi iqlim – barchasi tabiat tufayli. Ustiga – istak, hozir tabiatning o'zi bizga ishorat bermoqda – o'z xalqimizda qayg'urish uchun, avvalo, tabiatga g'amxo'rlik qilishimiz kerak.

2 Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
3 Hayitboyev R. Ekologik turizm. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
4 Yormatova D. Ekologiya. O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
5 Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.

Hozir – Uyg‘onish davri. Muammolarni payqash uchun, ovozimizni ko‘tarish uchun... Insoniyat uchun, Yer sayyorasi uchun yaxshiroq muhit yaratish uchun. Bu xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish kuni – tabiat vaqtidir", deyiladi " Xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish - 2020" kun tartibida. BMT Atrof-muhit dasturi ma'lumotlariga ko‘ra, inson faoliyati Yer kurrasi quruqlik qismining to‘rtdan uch qismi, suv havzalarining uchdan ikki qismidagi ekologik muhitni sezilarli darajada o‘zgartirgan. Keyingi besh yil ichida yashil o‘rmonlarning 32 million gektar maydoni inson omili natijasida qisqargan. So‘nggi 150-yil davomida global isish tufayli suv havzalaridagi marjon qoyalaridan iborat tirik qoplama ikki barobar kamaygan – ular qurib, rangsizlanib bormoqda[6]. Shu boisdan barcha hukumatlar o‘z mamlakati hududida ekologik barqarorlikni ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asarida iqlim o‘zgarishi, ekologik buxronlar, Orol va ona tabiatni asrash zarurati haqida fikr yuritilgan. Unga asosan, O‘zbekistonda ekologik muammolar jiddiy tashvish tug‘dirmoqda. Orolbo‘yida xalqaro " Yashil iqlim" va "Global ekologik jamg‘armalar"ning bioxilma-xillik, iqlim o‘zgarishi va tuproq yemirilishining oldini olishga qaratilgan ko‘plab ma'lumotlar keltirilgan.

P.S.Sultonovning "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari" kitobida tabiat o‘ziga xos murakkab tizimliligi, inson va jamiyat uning hosilasi ekanligi hamda ta'lim tizimining barcha bosqichlarida "Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish asoslari " fanini o‘qitish muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida yozilgan. Ahadqul Ergashev, Timur Ergashev va Abdurahmon Ergashev, Mavluda Turg‘unovna, O‘zar Ahmedov, Akmal Abzalov kabi ilm egalari esa "Ekologiya" nomli darsliklarida Markaziy Osiyo mintaqasidagi ekologik vaziyat ulardagi muammolarni hal qilish yo‘llarini o‘z asarlarida batafsil yoritganlar.

Mazkur maqolada mavzuning mohiyatini yoritishda tarixiylik analiz sintez, umumlashtirish, taqqoslash kabi mantiqiy uslublardan foydalanilgan. Tarixiy uslubda asosan ilk inson yaralganida tabiatga bo‘lgan ehtiyoji hamda unga bo‘lgan munosabatlari haqida yoritilgan. Ekologik ta'lim tizimida zamonaviy metodlarni qo‘llash, bugungi kunning talab qiladigan majburiyatlaridan biridir. Tabiatni insonga yaratgan keng ko‘lamli imkoniyatlaridan to‘g‘ri oqilona qo‘llash har bir insonning ekologik huquqiga kiradi. Jumladan, inson jamiyatda o‘ziga maqbul bo‘lgan ijtimoiy hayotini ekologik vaziyat, ekologik munosabatlarini taqsimlab bormoqda. Hamda, Harakatlar strategiyasiga muvofiq, atrof-tabiiy muhitga, aholi sog‘ligi va genofondda putur yetkazuvchi ekologik muammolarning oldini olishni o‘z faoliyatimizning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab olmoq zarurdir. 2019-yil 9-oktabrda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan, 11-oktabr kuni Senat tomonidan ma'qullangan "O‘zbekiston Respublikasining Biologik xilma-xillik haqidagi Konvensiyaning bioxavfsizlik bo‘yicha Kartaxena protokoliga qo‘shilishi to‘g‘risida"gi qonun imzolandi. Unga ko‘ra, biologik xilma-xillikni saqlash va undan barqaror foydalanish, ekologik tizimlarni muhofaza qilishni, oziq-ovqat xavfsizligini, aholi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishni, mamlakat barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun 2030-yilgacha Milliy strategik maqsadlar belgilandi[7].

Ekologik madaniyatni rivojlantirishda avvalambor "Ekologik turizm" tushunchasini tushunib olish ham zarurdir. Ekologik turizm

6 Azamova S. Ekologik globallashuv sharoitida O‘zbekiston umumta'lim maktablari o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish zaruriyati. Fals.f.f.d.(PHD) diss. Avtoref. – Buxoro: BuxDu, 2024.

7 Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.

1 Очилов З. Х.Задачи интегральной геометрии на плоскости и отображения Даламбера для симметричных областей // Узб. мат. жур.-Ташкент, 2011.-№3.- С.136-142.

2 М.М.Лаврентъев и Л.Я.Савельев "Теория операторов и некорректные задачи" Новосибирск 1999. С.607-636.

$$\hat{u}(\lambda,y)=\frac{1}{\pi y}\frac{\partial}{\partial y}\int_0^y \frac{\eta \sin\left(\lambda\sqrt{\eta(2y-\eta)}\right)}{\sqrt{\eta(2y-\eta)}}\hat{f}(\lambda,y)d\eta \qquad (2)$$

Isbot: (1) tenglamani quyidagi ko‘rinishda olamiz:

$$\int_0^y\left[u\left(x-\left(y-\sqrt{\eta(2y-\eta)}\right),\eta\right)-u\left(x+\left(y-\sqrt{\eta(2y-\eta)}\right),\eta\right)\right]\frac{y-\eta}{\sqrt{\eta(2y-\eta)}}d\eta=f(x,y)$$

(3)

(3) tenglamaning chap qismida $h=y-\sqrt{\eta(2y-\eta)}$ belgilash yordamida ushbu tenglamaga ega bo‘lamiz[3]3

$$\int_0^y[u(x-h,\eta)-u(x+h,\eta)]\frac{y-\eta}{y-h}d\eta=f(x,y) \qquad (4)$$

va quyidagi funksiyani qaraymiz:

$$\psi(x,y,t)=\int_0^y\left[u\left(x-\sqrt{1-t}h,\eta\right)-u\left(x+\sqrt{1-t}h,\eta\right)\right]\frac{y-\eta}{y-h}d\eta$$

$t\in[0,1]$

$$\frac{\partial^2}{\partial y\partial t}\psi(x,y,t)+\frac{y}{2}\frac{\partial^2}{\partial x^2}\psi(x,y,t)=0 \qquad (5)$$

$$\psi(x,y,0)=f(x,y) \qquad (6)$$

$$\psi(x,0,t)=0 \qquad (7)$$

$$\hat{\psi}(\lambda,y,0)\big|_{y=0}=\hat{f}(\lambda,0)=0=\hat{\psi}(\lambda,0,t)\big|_{t=0}$$

(5) tenglik va (6), (7) chegaraviy shartlardan foydalanib, x o‘zgaruvchi bo‘yicha Fur’e almashtirishini qo‘llaymiz:

$$\frac{\partial^2}{\partial y\partial t}\hat{\psi}(\lambda,y,t)+\frac{y\lambda^2}{2}\hat{\psi}(\lambda,y,t)=0$$

Klassik Gursa masalasiga ega bo‘lamiz:

$$\hat{\psi}(\lambda,y,0)=\hat{f}(\lambda,y) \qquad (8)$$

$$\hat{\psi}(\lambda,0,y)=0 \qquad (9)$$

Gursa masalasi yechimining yagonaligidan, $\psi(x,y)$ funksiya Fur’e obrazlarida yagonaligiga ega bo‘lamiz. $\psi(x,y)$ funksiyani birqiymatli aniqlashda Fur’e obrazlaridan foydalanamiz. (5) tenglik (6), (7) chegaraviy shartlarda yagona yechimga ega[4].

$\psi(x,y)$ funksiya $t=1$ holda $u(x,y)$ funksiya bilan 1- tur integral tenglama orqali bog‘langan:

$$\psi(x,y,t)=2\int_0^y u(x,y)\frac{y-\eta}{\sqrt{\eta(2y-\eta)}}d\eta \qquad (10)$$

(10) tenglama yechimining yagonaligi F.Trikomi kitobida isbotlangan. Masala yechimining yagonaligi (10) tenglama yechimining yagonaligidan kelib chiqadi[5].

(3) ifodaga x o‘zgaruvchi bo‘yicha Fur’e almashtirishini qo‘llaymiz:

$$\hat{f}(\lambda,y)=\int_{-\infty}^{\infty}e^{i\lambda x}\int_0^y[u(x-h,\eta)-u(x+h,\eta)]\frac{y-\eta}{y-h}d\eta dx=$$

$$=\int_{-\infty}^{\infty}e^{i\lambda x}\int_0^y u(x-h,\eta)\frac{y-\eta}{y-h}d\eta dx-\int_{-\infty}^{\infty}e^{i\lambda x}\int_0^y u(x+h,\eta)\frac{y-\eta}{y-h}d\eta dx=$$

$$=\int_0^y e^{i\lambda h}\int_{-\infty}^{\infty}e^{i\lambda(x-h)}u(x-h,\eta)dx\frac{y-\eta}{y-h}d\eta-\int_0^y e^{-i\lambda h}\int_{-\infty}^{\infty}e^{i\lambda(x+h)}u(x+h,\eta)dx\frac{y-\eta}{y-h}d\eta=$$

$$=\int_0^y\hat{u}(\lambda,\eta)e^{i\lambda h}\frac{y-\eta}{y-h}d\eta-\int_0^y\hat{u}(\lambda,\eta)e^{-i\lambda h}\frac{y-\eta}{y-h}d\eta=$$

$$=\int_0^y\hat{u}(\lambda,\eta)\left[e^{i\lambda h}-e^{-i\lambda h}\right]\frac{y-\eta}{y-h}d\eta=$$

$$=\int_0^y\hat{u}(\lambda,\eta)[\cos(\lambda h)+i\sin(\lambda h)-\cos(\lambda h)+i\sin(\lambda h)]\frac{y-\eta}{y-h}d\eta=$$

$$=2i\int_0^y\hat{u}(\lambda,\eta)\sin(\lambda h)\frac{y-\eta}{y-h}d\eta$$

bundan

$$\hat{f}(\lambda,y)=2i\int_0^y\hat{u}(\lambda,\eta)\sin(\lambda h)\frac{y-\eta}{y-h}d\eta \qquad (11)$$

(11) tenglamaga $\frac{\eta\sin\left(\lambda\sqrt{\eta(2y-\eta)}\right)}{\sqrt{\eta(2y-\eta)}}$ yadroli volter operatori va (11) tenglamaning chap qismi uchun Fubini teoremasini qo‘llaymiz:

$$\int_0^y\frac{\eta\sin\left(\lambda\sqrt{\eta(2y-\eta)}\right)}{\sqrt{\eta(2y-\eta)}}\hat{f}(\lambda,y)d\eta=$$

$$=2i\int_0^y\int_0^\tau\frac{\eta\sin\left(\lambda\sqrt{\eta(2y-\eta)}\right)}{\sqrt{\eta(2y-\eta)}\sqrt{\tau(2y-\tau)}}\hat{u}(\lambda,\eta)\sin\left(\lambda\sqrt{\tau(2y-\tau)}\right)d\tau d\eta=$$

$$=2i\int_0^y\tau\hat{u}(\lambda,\tau)\left[\int_0^y\frac{\eta\sin\left(\lambda\sqrt{\eta(2y-\eta)}\right)}{\sqrt{\eta(2y-\eta)}\sqrt{\tau(2y-\tau)}}\sin\left(\lambda\sqrt{\tau(2y-\tau)}\right)d\eta\right]d\tau=$$

$$=2i\int_0^y\tau\hat{u}(\lambda,\tau)\left[\int_0^1\frac{s\sin\left(\lambda\sqrt{\eta(2y-\eta)}\sqrt{1-s^2}\right)\sin\left(\lambda\sqrt{\eta(2y-\eta)}\right)}{\sqrt{1-s^2}}ds\right]d\eta \qquad (12)$$

(12) tenglamada

$$\int_0^1\frac{\sin(\lambda h)\sin\left(h\sqrt{1-s^2}\right)}{\sqrt{1-s^2}}ds=\frac{\pi}{2}$$

ekanidan quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\pi i\int_0^y\eta\hat{u}(\lambda,\eta)d\eta=\int_0^y\frac{\eta\sin\left(\lambda\sqrt{\eta(2y-\eta)}\right)}{\sqrt{\eta(2y-\eta)}}\hat{f}(\lambda,y)d\eta \qquad (13)$$

3 БегматовАкр. Х., Очилов З.Х. О восстановлении функции по семейству парабол на плосткости. СамДУ илмий тадқиқотлар ахборотномаси, 2001.

4 М.М.Лаврентъев и Л.Я.Савельев «Теория операторов и некорректные задачи» Новосибирск 1999. С.607-636

5 Бегматов Акр. Х., Очилов З. Х.Задачи интегральной геометрии с разрывной весовой функцией // Доклады РАН. 2009 Т. 429, №3,С. 295-297.

(13) tenglamaning ikkala qismini $i\pi y$ ga bo‘lamiz:

$$\hat{u}(\lambda,y)=\frac{1}{\pi y}\frac{\partial}{\partial y}\int_0^y \frac{\eta \sin\left(\lambda\sqrt{\eta(2y-\eta)}\right)}{\sqrt{\eta(2y-\eta)}}\hat{f}(\lambda,y)d\eta$$

teorema isbotlandi.

Yuqori yarim tekislikdagi chorak aylanalar oilasi bo‘yicha integral geometriya masalalari geometriya va analizning turli sohalarida amaliy ahamiyatga ega. Ushbu maqolada asosiy formulalar va masalalar tahlil qilindi. Mazkur mavzuni yanada chuqur o‘rganish matematik tadqiqotlar uchun yangi imkoniyatlarni ochadi.

IBN ARABIY TA'LIMOTIDA RUHIY POKLIK VA KAMOLOTGA YETISHISH MASALALARI

Mohlaroyim Shuxrat qizi Yarashova – o'qituvchi,
Osiyo xalqaro universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada insonning mohiyati, jamiyatdagi o'rni va uning axloqiy hamda ma'naviy barkamollikka erishish yo'llari falsafiy va tasavvufiy ta'limotlar nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Insonning biosotsial mavjudot sifatida o'z umrining cheklanganligini anglagani va o'zligini izlash jarayonida axloqiy qadriyatlar – yaxshilik, to'g'rilik, adolat kabi tushunchalarni shakllantirgani ko'rsatiladi. Shuningdek, tasavvuf ta'limotida komillik darajalariga erishish yo'llari, insonning o'zligini anglashda ruh va nafsning o'rni, shuningdek, axloqiy yuksalishga erishish usullari muhokama qilinadi. Maqolada inson kamoloti nafaqat individual shaxs, balki butun jamiyatning ma'naviy va madaniy taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadigan asosiy omil ekani ta'kidlangan.*

Аннотация: *В данной статье анализируются сущность человека, его роль в обществе и пути достижения нравственного и духовного совершенства с точки зрения философских и суфийских учений. Показано, что человек, осознавая ограниченность своей жизни как биосоциального существа и находясь в процессе поиска своего "я", формирует такие моральные ценности, как доброта, честность и справедливость. Также обсуждаются пути достижения ступеней совершенства в суфийском учении, роль духа и низшей души в осознании человеком своей сущности, а также методы достижения нравственного возвышения. В статье подчеркивается, что совершенство человека является основным фактором, влияющим не только на индивидуальную личность, но и на духовное и культурное развитие всего общества.*

Abstract: *This article analyzes the essence of a human being, their role in society, and the ways to achieve moral and spiritual perfection from the perspective of philosophical and Sufi teachings. It highlights how a person, as a biosocial being, becomes aware of the limitations of their life and, in the process of self-discovery, develops moral values such as kindness, honesty, and justice. Additionally, the article discusses the paths to achieving levels of perfection in Sufi teachings, the role of the spirit and the nafs in self-realization, as well as methods for attaining moral elevation. The article emphasizes that human perfection is a fundamental factor influencing not only the individual but also the spiritual and cultural development of society as a whole.*

Kalit so'zlar: *tasavvuf, komillik, ta'limot, adolat, ma'naviyat, ma'rifat, qadriyat, nafs, falsafa, axloq, odob.*

Ключевые слова: *суфизм, совершенство, учение, справедливость, духовность, просвещение, ценность, философия, нравственность, этикет.*

Keywords: *sufism, perfection, teachings, justice, spirituality, enlightenment, values, philosophy, morality, etiquette.*

Insonning yaralishi, mohiyati va jamiyatda tutgan o'rni falsafiy muammolar tizimida muhim o'rin tutadi. Turli falsafiy ta'limotlarda bu masalalar turlicha talqin etib kelingan. Shunday bo'lishi tabiiy ham edi, chunki inson mohiyatan ijtimoiy-tarixiy va madaniy mavjudot sifatida har bir yangi tarixiy sharoitda o'zligini chuqurroq anglashga, insoniy mohiyatini ro'yobga chiqarishga intilaveradi.

Inson deb nomlanuvchi biosotsial uyushma tirik mavjudot sifatida o'z hayoti cheklanganligini tushunib olishi bilan olamdagi boshqa tirik mavjudotlardan tubdan farq qiladi. Boshqacha aytganimizda, olamdagi tirik mavjudotlar ichida inson o'z umrining chegarasi, muddati borligini tushunib yetadi.

Inson bugunmi, ertami o'zining o'lishini, boshqacha aytganimizda, o'lim muqarrarligini tushunib yetgani uchun ham uning oldini olish, o'z hayotini mazmunliroq qilishga intiladi. Hamisha yangi-yangi orzu-istaklar ummonida yashaydi va o'z navbatida, o'zining barcha orzu-umidlarining to'la ushalmasligini tushunib yetadi. Insonning xuddi shu orzu-umidlari, intilishlari yaxshilik, to'g'rilik, adolatlilik, insof kabi tushunchalarda o'z ifodasini topadi. Kimki maqsadsiz, orzusiz,

umidsiz yashasa, unda axloq ham, odob ham bo‘lmaydi. Axloqsiz, odobsiz, umidsiz insonning esa hamisha tuhmat-bo‘htonga mayli ko‘p, adolatsizlik, hatto yovuzlikka intilishi katta bo‘ladi.

Olamdagi tirik mavjudotlar ichida o‘z umrining qisqaligini tushunib yetgan o‘sha odam bolasida nega yaxshilik bilan yomonlik, to‘g‘rilik bilan yolg‘onchilik, adolatpeshalik bilan adolatsizlik mavjud bo‘ladi? Inson o‘zining ma’naviy qiyofasidagi ushbu ziddiyatlarni bartaraf etish uchun asrlar osha kurashdi. Bunday muammolar yechimini ba’zan dindan, ba’zan fandan qidirdi. Boshqacha aytganimizda, inson hayotga va o‘limga hamisha o‘zining munosabatini bildirdi. Xuddi shuning uchun ham ushbu muammolar insoniyat madaniyatining markazida bo‘ldi.

Butun insoniyat doimo barkamol inson haqida orzu qilgan. “Avesto”dan “Qur’oni karim”gacha barcha muqaddas kitoblarda bu masala qo‘yilgan. Buyuk faylasuf va hikmat ahli Suqrot-u Aflotun, Forobiy, Ibn Sino, Navoiy va undan keyingi davrlarda ham bu masala yuzasidan fikr bildirilgan.

“Avesto”da inson hayotining mohiyati halol va poklikdadir. Inson “ezgu fikr”, “ezgu kalom” va “ezgu amal” orqali yomonlik bilan kurashadi.

Ezgu fikr, ezgu kalom, ezgu amal insonni komillik sari yetaklovchi birinchi ruh bo‘lib, unga erishgan odam Alloh taologa yaqinlashib boradi[1]. Haq yo‘lida ezgu amallar ila axloqiy poklikka erishgan, shuurini tazarru to‘lqinlari egallagan inson mohiyati keyinchalik o‘rta asrlar falsafasining tasavvuf oqimida o‘z taraqqiyot o‘zaniga ega bo‘ldi. Inson fikri, so‘zi va ishi bilan go‘zaldir. Xuddi mana shu fazilatlarning mushtarakligi inson qalbi va amallarining go‘zalligini belgilaydi.

Komil inson g‘oyasi ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo‘lgan, odamzodga xos eng yuksak ma’naviy va jismoniy barkamollikni mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan oliyjanob tuyg‘udir. Bu g‘oya nafaqat alohida shaxslarni, balki butun-butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari yetaklagan, ularni ma’naviyat va ma’rifat bobida tengsiz yutuqlarga ilhomlantirgan. Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodni voyaga yetkazish haqida qayg‘urmagan xalqning, millatning kelajagi yo‘q. Bunday xalq tanazzulga mahkumdir. Inson kamoloti barcha qadimgi bitiklar va falsafiy manbalarda asosiy g‘oya bo‘lgan.

Tasavvuf ta’limotida komil inson muammosi asosiy tadqiqot obyekti hisoblanib, unda bu masala juda chuqur va keng tahlil etilgan. Tasavvuf ta’limoti uchun bu nazariya emas, balki amaliy masala bo‘lgan va tariqatlarda insonning kamolotga yetish yo‘li va uslublari ixtiro etilgan. Zero, mutasavviflarning ta’kidlashicha, komil insonning siyrat va suratida ilohiylik va insoniylik mujassamdir, zotan ilohiylikni insoniylikdan va insoniylikni ilohiylikdan ajratib tasavvur etib bo‘lmaydi. Tasavvufdagi komil inson tushunchasi ilohiylik va insoniylik tajallisining mukammal va oliy darajasi, barcha inson zoti yagona ilohiy javharning shu’lasi, tajallisidir. Shuning uchun borlikdagi barcha mavjudotlar uni hurmat-ehtirom qilmoqlari, unga xizmat qilmoqlari zarur.

Inson yaratilishining maqsadi Haq ma’rifati, ya’ni yaratilgan jonzot ichida inson Allohni tanish va bilish iste’dodiga egadir. Alloh insonni aql-idrok va komillik bilan sharaflantirgan. Inson ruhiyatining zabardast tadqiqotchisi Jaloliddin Rumiy ruhni inson mohiyati, uning tabiatdagi boshqa jonzotdan farq qiluvchi belgisi sifatida tushuntirgan:

Tingla naydin, chun hikoyat aylagay,

Ayriliqlardin shikoyat aylagay[2].

1 Abduraxmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. -Toshkent, 2000. – 231 b.

2 Mavlono Jaloliddin Rumiy. Masnaviyi ma’naviy. – B. 8.

Komil inson tushunchasi birinchi marta Muhyiddin Ibn Arabiy tomonidan muomalaga kiritilganini qayd etmoq joiz. Ibn Arabiy nazdida "komil inson-bu aqli avval yoki nafsi avval, aqli kul"[3] tushunchalari bilan ma'nodoshdir. Chunki Tangri taolo ilohiy nurdan ilk marta Aqli avvalni yaratdi va uning surat-u shaklini komil inson qiyofasida zuhur etdi.

Mutasavvifning "Tahzib ul-axloq" risolasi bevosita inson va uning komillik darajalariga bag'ishlangan bo'lib, muallif asarni doimgidek barcha olamlar Rabbisi bo'lgan Allohga hamdlar hamda Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomga va uning oilasi, sahobalariga ko'plab salavot, durudlar aytish bilan boshlagan.

Ibn Arabiy insonni tahlil qilib quyidagi fikrni keltiradi:

"Bilginki, inson boshqa jonzotlar orasida aql va farosati bilan farqlanadi. U agar farosatidan ayrilmagan bo'lsa va maqsadiga erishishda hoy havasiga berilmasa, hamisha ishlarning afzalrog'ini, martabalarning oliyrog'ini, buyumlarning nafisrog'ini sevadi"[4].

Forobiy fikricha, inson paydo bo'lganidan so'ng avvalo "oziqlantiruvchi kuch" paydo bo'ladi, uning yordamida oziqlanish jarayoni yuz beradi. So'ngra sezgi organlari paydo bo'ladi, ular insonga sezish, tasavvur qilish qobiliyat va xotirani beradi. Shundan keyingina inson "orzu kuchi" yordamida bilim va hunarlarni o'zlashtiradi, foydali narsalarni foydasiz narsalardan farqlaydi, o'z xulq-atvorini tartibga soladi.

Ibn Arabiy ta'limotida inson o'zi uchun qiladigan eng to'g'ri ishi bu o'zining komil bo'lish g'oyasiga yetishda to'xtamasligi, ishni oxiriga yetkazmasdan tinchimasligi kerak.

Inson o'z-o'zini anglashi, o'zini topishi va o'zini kashf etishi insonning Yaratuvchisi bilan munosabatiga bog'liq bo'lib, inson ruhiyati kashfini uning o'zidan boshqa hech kim topa olmaydi. Bu masalaga har bir shaxs individual yondashadi. Buning sababi din va e'tiqod, ilohiy mohiyatni tanish hamda anglash qalbning ishi ekani bilan izohlanadi.

Ibn Arabiy fikricha, yomon xulqlarga xasislik, qo'rqoqlik, zolimlik va yomonlik qilish kabi yomon sifatlar kiradi. Ko'p kishilarda bu odatga aylanib, ularni mag'lub qilgan va ularni boshqaradi. Juda kam insonlar esa yomon xulqlar va ayblardan xalos bo'lganlar. Ular boshqalardan afzaldirlar.

"Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi. Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-birlariga yetkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'paydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o'rnashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi"[5] – deydi Forobiy.

Ibn Arabiy ta'limotiga ko'ra tabiatida yaxshi xulqlar jibilliy bo'lgan insonlar kamchilik bo'lib, ularning tabiatida yaxshilik boshqa yaxshi xulq egalaridan ko'ra ustun bo'ladi.

Tasavvuf ta'limoti nafsni bilish va uni tarbiyalashga alohida e'tibor bergan. "Nafs insonning moddiy o'zligi "men"ligidir. Bizning botinimizda bir idora etuvchi, jismimizni,

3 Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. -Toshkent: Yozuvchi, 1996. – 145 b.
4 Ibn Arabiy, Tahzib ul-Axloq. Kuvayt: Olamul fikr, 1986, 9-bet.
5 Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1993. 186- bet.

moddiy borlig'imizni, hayot uchun zaruriy manfaatlarimizni qo'riqlash va qo'llash maqsadida faoliyat ko'rsatuvchi ma'naviy bir borliq nafsdir"[6].

Ibn Arabiy tasnifiga ko'ra nafs uch xil ko'rinishda bo'ladi:

1. "An-nafsu-l-mu'mina" (النفس المؤمنة "Iymonli nafs"). Bu nafs turi o'z egasiga bo'ysunuvchan, tarbiyalangan va istaklari jilovlangan bo'ladi.

2. "An-nafsu-l-lavvoma" (النفس اللوامة "O'zini malomat qiluvchi nafs"). Bu nafs o'zining tabiiy istaklaridan to'la qutilmagan va doim o'zini-o'zi tergab turadi.

3. "An-nafsu-l-ammora bi-s-su'" (النفس الأمارة بالسوء "Yomonliklarga buyuruvchi nafs"). Nafsning bu ko'rinishi hali o'zining tabiiy holda qolgan va xohish istaklarini ro'yobga chiqarishda yomonliklardan qaytmaydigan bo'ladi.

Ibn Arabiy nafs masalasiga nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan katta e'tibor qaratadi: "Shayximiz Abu Ja'far al – Uraybiy bizga savol berdilar. "Javob qaytaringlar" dedi, biroq guruhdan birorta kishidan sado chiqmadi. U savolni menga qaytardi va nafsim menga hamla qilib, savolning javobini xato aytishga majbur qila boshladi. Biroq men ko'nmadim va o'z nafsimni gapirishga qo'ymadim"[7].

Komil inson tushunchasi birinchi marta Muhyiddin Ibn Arabiy tomonidan muomalaga kiritilganini qayd etmoq joiz. Ibn Arabiy nazdida "komil inson-bu aqli avval yoki nafsi avval, aqli kul" tushunchalari bilan ma'nodoshdir. Chunki Tangri taolo ilohiy nurdan ilk marta Aqli avvalni yaratdi va uning surat-u shaklini komil inson qiyofasida zuhur etdi.

Ibn Arabiy ta'limotida inson o'zi uchun qiladigan eng to'g'ri ishi bu o'zining komil bo'lish g'oyasiga yetishda to'xtamasligi, ishni oxiriga yetkazmasdan tinchimasligi kerak. Ibn Arabiy xulqlarning har xil bo'lishining sababi sifatida inson nafsini ko'rsatadi: "Insonlarning xulqi har xil bo'lishiga nafs sababchidir. Nafs uch xil quvvatga ega bo'ladi: shahvoniy nafs, g'azabiy nafs va notiqa nafs.

Barcha xulqlar ana shu uch nafsdan sodir bo'ladi. Bu nafslarning ba'zisi yakka holda, ba'zisi ikkitasini birlashtirib, ba'zisi uchovini ham birlashtirib keladi".

Agar inson fikr, farosat, hayo va ibo kabi xulqlarsiz faqat tabiatiga ergashsa, unda hayvonlik xulqi g'olib bo'ladi. Negaki, inson hayvonlardan tafakkur qilishi va farosati bilan ajralib turadi. Inson yaxshi xulqlardan foydalanmasa, hayvonlarga sherik bo'lib qoladi. Unda shahvat ustunlik qilib, hayo yo'qoladi, sakinat o'rniga g'azab keladi, hirs-u hasad va yomonlik undan ayrilmaydi.

Ibn Arabiy so'z kasalliklariga fitna, g'iybat va boshqalarni sanab o'tadi. Fe'l kasalligi (yoki xatti-harakat)ga odamlar nazariga tushish va maqtov eshitish kabi biror dunyoviy manfaatni ko'zlab biror harakatni sodir etishni nazarda tutadi. Hol kasalliklari sirasiga soxta obro' olish maqsadida mansabdorlarga yaqin bo'lishga intilish, ularga xushomad qilish, shon-shuhratga intilish kabilarni kiritadi.

Ibn Arabiy yuqoridagi masalalarning barcha jihatlarini o'zining "vahdatu-l-vujud" nazariyasi orqali tahlil qilgan. Uning ixtiyor erkinligi, do'zax azoblarining abadiy emasligi, Allohning rahmati ustunligi, "qahri" ning rahmatiga qorishiqligi, axloq to'g'risida bildirgan fikr va g'oyalarni xulosalaydigan bo'lsak, u an'anaviy – shar'iy hukmlar doirasidan chiqib, yangicha g'oyalarni erkin o'rtaga tashlaganining guvohi bo'lamiz.

6 Jo'shon. M.A. Tasavvuf va nafs tarbiyasi. – Toshkent: Cho'lpon, 1998. – 13 b.

7 Ibn Arabiy. Ruhul qudus fi muhasabatin nafs. Damashq: Matba'atu Nazr, 1994. 48-bet.

CHORVA KASALLIKLARINI AN'ANAVIY DAVOLASH USULLARI XUSUSIDA (JIZZAX VOHASI MISOLIDA)

Muhammad Xolmumin o'g'li Tilavboyev – o'qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Jizzax vohasi aholisining chorva mollari, xususan mayda shoxli mollarda uchraydigan kasalliklar, chorvaning parazitar, teri, nafas olish, oyoq va oshqozon-ichak kasalliklarini davolashda qo'llaniladigan an'anaviy usullar tahlilga tortilgan bo'lib, unda xalqona davolash usullarining afzalliklari, ularning qulay va arzonligi, tabiiyligi hamda mahalliy giyohlardan foydalanishning samarali ekanligi dala tadqiqotlari va ilmiy manbalar asosida yoritib berilgan.*

Аннотация: *В данной статье проанализированы традиционные методы, используемые при лечении болезней скота, особенно мелкого рогатого скота, в частности, паразитарных, кожных, респираторных, стопных и желудочно-кишечных заболеваний жителей Джизакского оазиса, а также на основе полевых исследований и научных источников выделены преимущества народных методов лечения, их удобство и дешевизна, натуральность, эффективность использования местных трав.*

Abstract: *In this article, the traditional methods used in the treatment of livestock diseases, especially small horned cattle, in particular, parasitic, skin, respiratory, foot and gastrointestinal diseases of the inhabitants of Jizzakh oasis, are analyzed, and the advantages of folk methods of treatment, their convenience and cheapness, naturalness, and the effectiveness of using local herbs are highlighted on the basis of field studies and scientific sources.*

Kalit so'zlar: *Jizzax vohasi, chorva kasalliklari, ovsil va qorason kasalligi, an'anaviy davolash usullari, qo'y chorvachiligi, tabiiy dorivor o'simliklar, xalq tabobati.*

Ключевые слова: *Джизакский оазис, болезни скота, болезнь овсила и бешенства, традиционные методы лечения, овцеводство, натуральные лекарственные растения, народная медицина.*

Keywords: *Jizzakh oasis, livestock diseases, ovsil and rabies disease, traditional methods of treatment, sheep breeding, natural medicinal plants, folk medicine.*

Jizzax vohasida chorvachilik xo'jaligi qadimdan o'z tarixiy shakllanish bosqichlariga ega bo'lib, vohaning tabiiy-geografik joylashuvi, iqlim sharoitlariga ko'ra chorvachilikning keng mintaqaga yoyilishi hamda son jihatidan ko'payishi uchun qulay shart-sharoitlar mavjud bo'lgan. Mintaqada ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvachilikning meridional, vertikal va statsionar shakllarining[1] mavjudligi yaylov chorvachiligi paydo bo'lishi va rivojlanishida muhim omil bo'lgan.

Jizzax vohasida olib borilgan dala tadqiqotlari natijasida shu ayon bo'ldiki, aholining asosiy mashg'ulotlaridan biri hisoblangan chorvachilik bilan bog'liq hali o'rganilishi lozim bo'lgan masalalar juda ko'p bo'lib, chorvadorlarni doimiy tarzda qiynab kelgan chorva mollaridagi kasallanish va uni davolash usullari kengroq o'rganishni taqozo etadi. Yana shuni ta'kidlash kerakki, kuzatishlarimiz davomida chorvani davolash bilan bog'liq xalqona usullarning faqat Jizzax vohasiga xos xususiyatlari bilan bir qatorda qo'shni mintaqalarga xos jihatlar, ma'lum farqlar ham ko'zga tashlanadi[2].

Vohada joylashgan ko'plab yaylovlarda doimiy va mavsumiy tarzda faoliyat olib boruvchi mahalliy chorvadorlar tomonidan chorva mollarida uchrab turadigan turli

1 Eshmuhammatov A. Jizzax vohasida yaylov chorvachiligi rivojining tarixiy ildizlari xususida/Tarixiy manbashunoslik, tarixnavislik, tarix tadqiqotlari metodlari va metodologiyasining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: 2021. – B. 359.

2 Dala yozuvlari Forish, G'allaorol, Zomin, Baxmal, Sh.Rashidov tumanlari. 2023-2024-yillar.

kasalliklarni davolashda ular tomonidan turli urf-odatlar va marosimlar doimiy o'tkazib kelganligini etnolog A.Eshmuhammedovning tadqiqotlarida tahlil etilgan[3]. Ammo maqolada yoritilayotgan faqat Jizzax vohasi aholisi orasida saqlanib qolgan chorvani davolash bilan bog'liq xalqona usullarning ba'zilari hali alohida tadqiq e'tilmagan. Vaholanki, zamonaviy tibbiyot chorvachilikka kirib kelguniga qadar mahalliy chorvadorlar tomonidan an'anaviy davolash usullaridan muntazam foydalanib kelingan. Dala tadqiqotlari natijasida shu ayon bo'ldiki, bugungi kungacha chorvaning ko'payishi, kasallikka chalinishi, davolash va o'limi bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos davolash usullari hamda urf-odatlar va marosimlar o'tkazilib kelinmoqda.

Bugungi kunda vohada chorva mollarida uchrayotgan kasalliklarni zamonaviy veterinariya usullaridan tashqari, an'anaviy davolash usullari orqali davolash ham keng qo'llaniladi. Bu usullar asosan tabiiy dorivor o'simliklar, mineral moddalar va qadimdan saqlanib kelinayotgan marosimlardan iboratdir.

Jizzax vohasining G'allaorol, Zomin, Forish, Baxmal, Sh.Rashidov tumanlarida olib borilgan dala tadqiqotlarida chorva mollarida uchraydigan kasalliklar va uni davolash bilan bog'liq turli ma'lumotlar to'plandi. Ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

– molning tili qilov (uliganda) bo'lganda tuz ishqalangan, ovsil bo'lsa, issiq cho'qqa oyog'i tiqib olingan;

– ovsil kasalligida oyog'i sho'r suvga botirilgan yoki kam sug'orilgan, shuningdek, Baxmallik chorvadorlar sigirning ikki beliga chakki bilan yarim oy chizilgan, Zominda esa undan atala tayyorlab qoramolning orqa qismiga oy shaklida surtib qo'yilgan;

– qorason bo'lsa, bigiz yoki pichoq bilan soniga tiqilgan va harom qoni oqizilgan yoki salarka bilan yuvilgan;

– ko'zi yoshlansa, 3 kun tuz suv va yana 3 kun novvot suv bilan ko'ziga purkalgan;

– oshqozoni damlasa, baqayong'oq o'simligi qaynatib ichirilgan;

– qoramol sariq kasal bo'lsa, ayronning zardobi ichirilgan;

– mol qavus (siyolmay qolish) bo'lsa, toldan yasalgan cho'pon tayoq bilan belidan, qorin qismidan o'tkazib ko'tarilgan;

mol tug'masa, qizil sabzi berilgan;

– buzog'ining ichi o'tib qolsa, dumiga qizil ip bog'langan[4];

– bo'qoq kasalligida chorvaning tomog'ini yorib tuz bilan chakkini qorib ichiga tiqilgan.

– Qo'y gul kasalligiga uchrasa, ya'ni badaniga yara toshsa, bo'rini qo'y ichiga oralatgan yoki o't yoqib atrofida aylantirilgan. Natijada qo'rquvdan yarasi yo'qolgan;

– Qo'y uchma kasalligiga uchrasa, tovuqni chala so'yib oldiga qo'yib yuborilgan;

– Bersilos kasalligiga uchrasa, ikki terakni bir-biriga bog'lab orasidan haydab o'tishgan[5] va bosh.

Shuningdek, bu kabi davolashning an'anaviy usullaridan tashqari voha hududidagi chorva mollariga turli ko'rinishlardagi ziyon yetmasligi uchun ham bir qancha urf-odat va marosimlar o'tkazilgan. Masalan, daladagi qo'tonlarga ilon, chayon, bo'ri kabi hashorat va hayvonlar yaqinlashmasligi uchun ola ip (echkining junidan) aylantirib chiqishgan bo'lsa, cho'pon ham o'z navbatida zaharli hasharotlardan himoyalanish

3 Eshmuhammatov A. Jizzax vohasi chorvadorlarining ziyorat manzilgohlari va shifobaxsh buyumlari haqida / Imom Buxoriy saboqlari jurnali. № 1, Samarqand: 2024. –B. 13-15.

4 Dala yozuvlari. G'allaorol tumani Guliston qishlog'i. Xo'rozova Hamida. 2024-yil

5 Dala yozuvlari. G'allaorol tumani Uzunbuloq qishlog'i. Gadoyev Abduxalil. 2023-yil

uchun qo‘y junidan tikilgan chakmon kiyib yurgan va undan ko‘rpa vazifasida ham foydalangan[6].

Chorvadorlar qo‘ylar otarini aprel oyidan boshlab toqqa o‘tlatish uchun haydab chiqib ketib, bahor va yoz oylarida tog‘, adir va yaylovlarda turli o‘t, giyoh va o‘simliklarga to‘yingan qo‘ylar podasini noyabr oyi oxirida qishlov uchun uyga qaytarish mavsumida ob-havo noqulay bo‘lishi, tuman hosil bo‘lgan vaqtlarda va tun payti cho‘ponlar adashib ketmasligi uchun tom ustiga doimiy ravishda chiroq yoqib qo‘yishgan. Podani haydashda ham cho‘ponlar o‘ng tomondan chapga qarab qaytarishgan. Uni boshqarishda hattoki yumshoq muomalada bo‘lishgan, ya’ni baqir-chaqir qilinmasligidan ularga bo‘lgan e’tibor ko‘rsatilgan, axborotchilarning bergan ma’lumotlariga ko‘ra cho‘ponlar qo‘ylarni boqishda bitta joyda ko‘p ushlab turishmagan va buning sababi sifatida qancha ko‘p yursa, egiz tug‘ish ehtimoli shuncha oshishini keltirishgan[7].

Chorvachilikda qadimdan cho‘ponlar o‘rtasida ustoz-shogirdlik an’anasiga alohida e’tibor berilgan. Cho‘pon ma’lum vaqt kelganda o‘z kasbini va cho‘pon tayog‘ini shogirdiga berish jarayonida o‘ziga xos maxsus marosim o‘tkazilgan. Ushbu marosimda chorva ichidagi eng sara qoramol yoki qo‘yni so‘yishgan va uni go‘shtini xalqqa ehson sifatida tarqatilib ko‘pchilik duosi olingan. Cho‘pon tayog‘ini shogirdiga ataganini bildirib, unga oq fotiha bergan[8]. Cho‘pon tayog‘ini tayyorlashda asosan jing‘il, qizilcha, tol daraxtlaridan foydalanilgan[9]. Cho‘pon nafaqat shogirdiga o‘z vazifasini, shu bilan birga chorvachilik sohasida egallagan bilim, ko‘nikma va tajribalarini ham o‘rgatgan. Yangi cho‘pon chorvani to‘g‘ri boqishi, ba’zida uchrab turadigan kasalliklarni xalqona usulda davolay olish ko‘nikmasiga ham ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etgan.

Xulosa qilib aytganda, Jizzax vohasi aholisining chorvachilik an’analari bilan bog‘liq urf-odatlari o‘zining ko‘p ming yillik tarixiga ega. Ajdodlarimiz qadimdan chorva mollariga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lganlar, ularni turli kasalliklardan, balo-qazolardan asrashga astoydil harakat qilganlar. Chunki, aholining turmushini, mahalliy yashash tarzini chorvasiz tasavvur etib bo‘lmasdi. Voha chorvachilik xo‘jalik mashg‘ulotida ushoq va yirik shoxli mollarni boqish, yilqichilik hamda tuyachilik ustuvor bo‘lgan. Chorvachilik bilan bog‘liq qator diniy-magik ko‘rinishdagi rasm-rusumlar jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etgan bo‘lsa-da, keyinchalik bu kabi an’ana va marosimlar islomiy an’analar bilan qorishib ketgan. Hozirgi kunda asosan chorva kasalliklarini davolashda zamonaviy veterinariya tajribasidan foydalanayotgan bo‘lishsada, an’anaviy usullar, mahalliy tabiiy giyohlar asosida davolashdan ham voz kechilmagan va bu qancha davrlar o‘tmasin, ko‘hna qadriyatlarimiz sifatida bugungi kunda ham mahalliy xalq orasida saqlanib qolgan.

6 Dala yozuvlari. Baxmal tumani Sutlibuloq qishlog‘i. Yigitova Nazira. 2024-yil
7 Dala yozuvlari. Forish tumani Mojrum qishlog‘i. Xusan Muhammatov. 2023-yil
8 Dala yozuvlari. Forish tumani Uxum qishlog‘i. Nazarova Bozorgul. 2023-yil
9 Dala yozuvlari. Forish tumani Sayyod qishlog‘i. O‘g‘ilbibi Kamolova. 2023-yil

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA ASTRONOMIYA O'QITISHDA KUZATUV ISHLARINI TASHKIL ETISH USULLARI

Obid Bahodir o'g'li Saydayev – o'qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Maqola umumiy o'rta ta'lim maktablarida astronomiya o'qitishda kuzatuv ishlarini tashkil etishning muhim jihatlari, texnik shartlari va metodik yondashuvlarini o'rganishga bag'ishlangan. Astronomik kuzatuvlar uchun zarur texnik vositalar va metodik tavsiyalar keltirilib, interaktiv va innovatsion yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan.*

Аннотация: *Статья посвящена исследованию важных аспектов, технических условий и методических подходов организации наблюдательной работы при преподавании астрономии в общеобразовательных школах. Приведены необходимые технические средства и методические рекомендации для астрономических наблюдений, подчеркнута важность интерактивных и инновационных подходов.*

Abstract: *The article is devoted to the study of the important aspects, technical conditions and methodological approaches of the organization of observation work in the teaching of astronomy in general secondary schools. The necessary technical tools and methodical recommendations for astronomical observations are given, and the importance of interactive and innovative approaches is highlighted.*

Kalit so'zlar: *astronomik kuzatuv ishlari, teleskoplar, quyosh va oy kuzatuvlari, astronomik dasturlar (Stellarium, SkySafari), yulduz xaritalari, STEM-ta'limda astronomiya, innovatsion yondashuv, astrofotografiya.*

Ключевые слова: *астрономические наблюдательные работы, телескопы, наблюдения Солнца и Луны, астрономические программы (Stellarium, SkySafari), звездные карты, астрономия в STEM-образовании, инновационный подход, астрофотография.*

Keywords: *astronomical observation works, telescopes, solar and lunar observations, astronomical programs (Stellarium, SkySafari), star maps, astronomy in STEM-education, innovative approach, astrophotography.*

Jahonda astronomiya fanini o'qitish sifatini oshirish va yosh avlodning astronomik tasavvurlarini rivojlantirishda zamonaviy ilmiy tadqiqot natijalari hamda amaliyotga yo'naltirilgan bilimlar majmuidan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro astronomiya ittifoqining 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategik rejasida "Hozirgi davrga qaraganda ko'proq mamlakatlarga astronomik ilmiy tadqiqot natijalarni yetkazish va ularni ommalashtirish uchun ommaviy axborot vositalari (OAV), veb-saytlar, elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlaridan keng foydalanish; professional astronomlarning ilmiy astronomik tadqiqot natijalarini har qanday yoshdagi jamoatchilikka yetkazishni rag'batlantirish; kengroq auditoriyani qamrab olishga yordam berish uchun yaqin o'n yillikda ma'lumot almashishni kengaytirish hamda ko'plab tillarda astronomik tadqiqot natijalarni tarqatish" ustuvor vazifalardan etib belgilangan[1]. Bu vazifalar zamonaviy ilmiy tadqiqot natijalaridan foydalanish astronomiya fanining jahondagi rivojlanishida muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, astronomiya fanini o'qitishda ilg'or tadqiqotlar natijalariga asoslangan yangi metodik tizim yaratish zaruratini belgilab beradi.

O'zbekiston tarixida astronomiyaga oid tadqiqotlarning ildizlari eng qadimgi davrga borib taqaladi. Miloddan avvalgi birinchi ming yillikda O'zbekiston hududida dehqonchilikning rivojlangan tarixiy-madaniy markazlarida Quyosh, Oy va sayyoralarning harakatlanish

1 International Astronomical Union (IAU) // Strategic Plan 2020-2030. – Paris, France, 2019. – 36 p.

qonuniyatlariga doir chuqur bilimlarga asoslangan holda qishloq xo'jaligi ishlarini amalga oshirish muddatlarini belgilovchi taqvimlarni ishlab chiqqanlar. O'zbekistonda astronomiya fanining jadal sur'atlarda rivojlanishi o'rta asrlar davriga to'g'ri keladi. O'rta asrlar davrining buyuk mutafakkirlari Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, ayniqsa Mirzo Ulug'bekning matematika va astronomiyaning rivojlanishiga qo'shgan ulkan hissasi jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilgan[2]2.

Astronomiya – insoniyatning olam va koinot tuzilishini anglashga bo'lgan intilishlarining asosi bo'lib, u nafaqat nazariy, balki amaliy yo'nalishda ham katta ahamiyatga ega. Astronomiya qadimdan insoniyatni qiziqtirgan va tabiatning asosiy qonunlarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etgan fandir. Zamonaviy ta'lim jarayonida bu fan o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish vositasi sifatida qaraladi. Bugungi kunda maktab ta'limi uchun astronomiyani chuqur o'rganish zarurati yanada dolzarblashmoqda.

Ta'lim muassasalarida astronomik kuzatuvlarni tashkil etishlarning maqsadi: avvalambor o'quvchilarga nazariy jihatdan bayon etilgan astronomik hodisa va jarayonlar bilan amalda tanishtirish va holatlarni tabiiy ravishda tushuntirishdan iborat. Tabiiy kuzatuvlarsiz astronomik jarayonlarni nazariy jihatdan tushuntirish, astronomik ta'limni faqatgina formal holatda olib borish bilan bog'liq bo'lib qoladi. Astronomik kuzatuvlardan o'quvchilar osmon yoritqichlariga qarab oriyentir olish hamda astronomik o'lchashlar olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak[3]3.

Ta'lim jarayonida faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolish o'quvchilarning qiziqishini pasaytiradi, shu bois astronomiya o'qitishda kuzatish ishlarini ta'limga joriy etish zarur.

Astronomiya o'qitishda umumta'lim maktablarida kuzatuv ishlarini tashkil etishning muhim jihatlari:

nazariy astronomiyani o'quvchilarga tushuntirish qiyin bo'lishi mumkin, lekin kuzatuvlar orqali osmon jismlari haqidagi bilimlarni oson va qiziqarli tarzda o'rganish mumkin bu esa o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi;

–astronomik kuzatuv ishlari fizika, matematika va informatika fanlari bilan integratsiyalashgan holda o'quvchilarning umumiy bilim bazasini boyitadi, bu esa fanlararo integratsiyani keltirib chiqaradi;

–amaliy kuzatuvlar va jihozlar bilan ishlash o'quvchilarda mustaqil tahlil qilish va ilmiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi, bu esa ijodiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi;

–astronomik kuzatuvlar o'quvchilarni STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) yo'nalishlarida qiziqtirishga xizmat qiladi, bu esa o'quvchilarni STEM-ta'limga moslashtiradi.

Shu bilan birga, astronomik kuzatuvlarni samarali tashkil etish uchun texnik jihozlar va qulay kuzatuv maydonlarini ta'minlash talab qilinadi. Texnik shartlarning mavjudligi kuzatuv jarayonining sifatini belgilaydi va o'quvchilarning ilmiy bilimlarni amalda o'zlashtirishini osonlashtiradi.

Maktabda astronomik kuzatuvlarni tashkil etish uchun quyidagi minimal talablar bajarilishi lozim.

1. Astronomik kuzatuvlarni tashkil etish uchun kerakli texnik jihoz va vositalar:

- oddiy kichik teleskoplar, masalan, refraktor yoki reflektor teleskoplar.

- quyoshni xavfsiz kuzatish uchun maxsus

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-sentyabrdagi "Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat umumiy o'rta ta'lim maktab-internatini va "Astronomiya va aeronavtika" bog'ini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3275-son Qarori

3 Djorayev M., Sattarova B. Fizika va astronomiya o'qitish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – B. 220.

filtrlardan foydalanish.

- astrofotografiya uchun raqamli kameralar, o‘quvchilar smartfonlarini maxsus moslamalar yordamida ulashlari mumkin.

- Stellarium, Celestia yoki SkySafari kabi astronomik kompyuter dasturlari osmon jismlarini kuzatish va tushuntirishda yordam beradi.

- teleskop orqali kuzatish uchun qulay joy (shahar yoritgichlaridan uzoqroq) ochiq maydonni tanlash.

2. Astronomik kuzatuvlari umumta’lim maktab o‘quv

dasturidagi mavzularga moslashtirilgan holda quyidagicha tashkil etiladi:

- quyosh eng yaqin yulduz. Quyosh haqida umumiy ma’lumot. Quyosh fotosferasi va uning tuzilmalari. Quyosh dog‘lari mavzusidan Quyosh dog‘lari va ularning harakatini teleskop yordamida o‘rganish.

- osmon koordinatalari. Yulduzlarning xaritalari. Yulduzlarning ko‘rinma yulduz kattaliklari mavzusidan yulduzlarning joylashuvi va osmon xaritasini o‘rganish.

- yer rusumidagi planetalar. Merkuriy va Venera. Yer va uning tabiiy yo‘ldoshi Oy. Mars mavzusidan Oy sirtidagi kraterlar va boshqa relyeflarni o‘rganish.

- gigant planetalar, ularning yo‘ldoshlari va halqalari mavzusidan Quyosh sistemasidagi yaqin sayyoralarni (masalan, Yupiter va Saturn) kuzatish[4].

- yulduzlar va sayyoralarni suratga olish orqali astrofotografiya ko‘nikmalarini shakllantirish.

- virtual observatoriyalar yordamida osmon jismlarini tadqiq qilish (masalan, Stellarium).

Texnik shartlardan tashqari, astronomik kuzatuvlarni o‘quv dasturi bilan uyg‘unlashtirish ham katta ahamiyatga ega. O‘quvchilarning o‘zlashtirishi uchun qulay mavzularni tanlash va kuzatuvlarni shu mavzular bilan bog‘lab tashkil qilish samaradorlikni oshiradi.

Astronomik kuzatuvlarni tashkil etishning metodik jihatlari.

1. Interaktiv yondashuv asosida o‘quvchilarning faolligini oshirish uchun kuzatuv darslarida loyiha va kichik guruhli ishlash usullaridan foydalanish muhim. Masalan, bir kichik guruh quyosh dog‘larini kuzatsa, boshqa kichik guruh yulduzlarni o‘rganishi mumkin.

2. Bosqichma-bosqich yondashuv asosida astronomiya bilimlari murakkab bo‘lishi sababli, dastlab oddiy kuzatuvlar va mashqlar bilan boshlash kerak. Masalan, Oy fazalarini kuzatish bilan boshlanib, keyinchalik murakkab obyektlarni o‘rganishga o‘tiladi.

3. O‘quvchilar astronomik kuzatuvlarni o‘tkazib, natijalarini qayd etadi va ularni tahlil qiladi. Bu ularning ilmiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

4. Zamonaviy raqamli ilovalar yordamida osmon jismlarining harakatini innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali interaktiv ravishda tushuntirish mumkin. Masalan, Stellarium dasturi orqali yulduzlarning joylashuvi va harakatini aniqlashni o‘rgatish.

Bundan tashqari, zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida osmon jismlarining harakatini tushuntirish jarayonni yanada qulay va qiziqarli qiladi. Masalan, Stellarium dasturi orqali o‘quvchilar yulduzlarning joylashuvini va harakatini ko‘z bilan ko‘rib o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Astronomiya o‘qitishda ta’lim sifatini oshirish uchun darsdan tashqari ishlarni tashkil qilish muhim ahamiyatga ega:

4 Mamadazimov M. Astronomiya. – Toshkent: Davr, 2018. 59-81 betlar.

-yulduzli kechalarda o‘quvchilarni osmon jismlarini kuzatish uchun kuzatuv kechalariga jalb qilish;

-astronomiya faniga qiziqadigan o‘quvchilar o‘rtasida “Eng yaxshi astrofoto”, “Yulduz xaritasini tuzish” kabi tanlovlar o‘tkazish;

-astronomiya faniga qiziqadigan o‘quvchilar uchun maktabda maxsus to‘garak tashkil etish;

-o‘quvchilar osmon jismlarining harakatini kuzatib, o‘z tadqiqotlarini taqdimot shaklida taqdim etishi mumkin.

Shu tarzda, dars jarayonida va darsdan tashqari faoliyatlarda astronomik kuzatuvlarni tashkil etish orqali o‘quvchilarda astronomiyaga qiziqishni oshirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash va ularni kelajakdagi ilmiy faoliyatga tayyorlash mumkin.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida astronomiya o‘qitishda kuzatuv ishlarini tashkil etish, o‘quvchilarning astronomiyaga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, nazariy bilimlarni amalda qo‘llash imkonini beradi va STEM-ta’limni rivojlantirishga xizmat qiladi. Buning uchun umumta’lim maktablarida minimal texnik vositalar va metodik ko‘rsatmalarni joriy qilish kifoya. Ushbu astronomik kuzatuvlar nafaqat astronomiya fanini o‘qitishda, balki o‘quvchilarning ilmiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda ham muhim o‘rin tutadi.

O‘quvchilarda astronomik kuzatuvlarga oid bilim, malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalar:

–fizika va astronomiya fanlari bo‘yicha pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot institutlari o‘quv dasturlarida berilgan mavzularning amaliy ahamiyatini yoritish maqsadida astronomik kuzatuvlarni tashkil etish usullari kiritilishi lozim;

–astronomik kuzatuvlarni tashkil etish uchun umumta’lim maktablarining moddiy texnik bazasini texnik jihoz va vositalar bilan ta’minlash;

–umumta’lim maktablarida astronomik kuzatuvlarni tashkil etishga oid dasturlar ishlab chiqish.

PERIFRAZA TILSHUNOSLIK SOHASIDA STILISTIK VOSITA SIFATIDA

Shaxnoza Primkulovna Allayorova – o'qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

***Annotatsiya**: Mazkur maqolada perifraza tushunchasi va uning tilshunoslik sohasidagi stilistik vosita sifatidagi o'rni tahlil qilinadi. Perifraza – muayyan tushuncha yoki predmetni bevosita nomlamasdan, uni tavsiflovchi iboralar orqali ifodalash usuli bo'lib, nutqning ekspressivligini oshirish va matnga stilistik rang-baranglik bag'ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada perifrazaning turli janrlardagi qo'llanilishi, uning uslubiy xususiyatlari hamda ma'noviy ifoda imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, perifrazaning tarjima jarayonidagi roli ham tahlil qilinib, uning boshqa stilistik vositalar bilan aloqadorligi yoritiladi.*

***Аннотация**: В данной статье анализируется понятие перифраза и его роль как стилистического инструмента в области языкознания. Перифраз – это метод выражения определенного понятия или предмета посредством описательных фраз без прямого его названия. В статье рассматривается употребление перифраза в различных жанрах, его стилистические особенности, возможности духовной выразительности. Также анализируется роль перифраза в процессе перевода и выделяется его взаимосвязь с другими стилистическими средствами.*

***Abstract**: This article analyzes the concept of periphrasis and its role as a stylistic tool in the field of linguistics. Periphrasis is a method of expressing a specific concept or subject through descriptive phrases without directly naming it. The article examines the use of periphrasis in various genres, its stylistic features, and the possibilities of spiritual expression. Also, the role of periphrasis in the translation process is analyzed, and its relationship with other stylistic tools is highlighted.*

***Kalit so'zlar:** perifraza, stilistik vosita, ekspressivlik, nutq uslubi, tarjima, lingvistik tahlil, toponimlar, asl perifraza, an'anaviy perifraza.*

***Ключевые слова:** перифраз, стилистический прием, выразительность, стиль речи, перевод, лингвистический анализ, топонимы, оригинальный перифраз, традиционный перифраз.*

***Keywords**: periphrasis, stylistic device, expressiveness, speech style, translation, linguistic analysis, toponyms, original periphrasis, traditional periphrasis.*

Perifraza birliklarini tarjima qilish va ularni til o'rgatishda qo'llash yo'llari ham o'rganilishi lozim bo'lgan dolzarb vazifadir. Tilshunoslar va xorijiy til o'qituvchilarining zimmasiga yurtimiz tomonidan yuksak vazifa – til o'rganuvchilarning duch keladigan muammolariga yechim topish va samarali uslublarni taklif qilish yuklatilgan. Bu masala davlat darajasida e'tiborga olinib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-sonli qarorida ta'lim muassasalarida chet tillarni o'qitish sifatini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan[1].

Ingliz va o'zbek tillaridagi perifrazalarni o'rganish esa hali to'liq tadqiq etilmagan, lekin ahamiyatli mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda yoshlarning ingliz tilini chuqur o'zlashtirishi, uni to'laqonli tushunishlari uchun qulay muhit yaratish dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, ingliz va o'zbek tillarida tasviriy ma'noni aniqlash va idrok etish til o'rganuvchilar uchun katta ahamiyatga ega. Chunki nafaqat tinglayotgan nutqni tushunish, balki matn mazmunini anglab yetish ham tilni mukammal o'zlashtirish yo'lidagi muhim omillardan biri sanaladi.

Aslida, perifraza – matnni yanada chuqurroq tushunish uchun uni qayta izohlash yoki

1 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son "Ta'lim muassasalarida chet tillarni o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

tushuntirish san'atidir. Shu bois ushbu ilmiy ishning natijalari o'quvchilarga murakkab va mantiqiy jihatdan og'ir bo'lgan matnlarni osonroq anglashda, shuningdek, chet tilida so'zlayotgan kishilar nutqini ilg'ashda katta yordam beradi.

Chet ellik va mahalliy tilshunos olimlar perifraza tushunchasini chuqur o'rganib, bu borada keng ilmiy izlanishlar olib bordilar. Ushbu tushuncha turli manbalarda turlicha talqin qilinadi va har xil qarashlar bilan izohlanadi. Masalan, ingliz tilidagi nufuzli "Webster" lug'atida perifraza shunday ta'riflanadi: "... qisqaroq va soddaroq ifoda shakli o'rniga uzunroq iboralardan foydalanish".

Aslida, "perifraza" atamasi yunon tilidan kelib chiqqan bo'lib, "perifrazein" so'zidan olingan. Bu so'z "peri-" (atrof) va "frazein" (ifoda etmoq) tarkibiy qismlaridan tashkil topgan. Perifraza – ma'lum bir so'z yoki iboraning oddiy va qisqa shaklini qo'llash o'rniga, uni murakkabroq, batafsilroq yoki obrazli tarzda ifodalash usulidir. Ushbu uslub, odatda, biror narsa yoki hodisani bevosita emas, balki bilvosita tavsiflash, uni turli nuqtayi nazardan yoritish imkonini beradi.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan, perifraza obyekt yoki tushunchaning nomini o'zgartirish shakli bo'lib, u ba'zan sinonimik almashtirish, ba'zan esa poetik yoki obrazli tasvirlash shaklida namoyon bo'ladi. Shu bois u to'g'ridan to'g'ri sinonimlar va umumiy so'z turkumlari bilan bir qatorda o'rganiladi.

Tilshunos olim Galperin perifraza atamasiga ta'rifni quyidagicha beradi, ya'ni "lingvistik tabiati nuqtayi nazaridan qaraganda, perifraza obyektning nomini o'zgartirishni anglatadi va shuning uchun ularning to'g'ridan-to'g'ri nomlarini almashtiradigan so'z belgilarining umumiy guruhi bilan birga ko'rib chiqilishi mumkin"[2]. Ba'zi bir so'z yoki iboralarni to'g'ridan-to'g'ri aytish o'rniga, ba'zida yozuvchi yoki ma'ruzachi uning ma'nosini muqobil yoki sinonimik so'zlar bilan amalga oshiradi.

Tilshunos olim Galperin shunday ta'kidlaydi: "An'anaga ko'ra, til yoki lug'at perifrazalari va ular bildiradigan so'zlar tabiatan sinonimdir, perifraza so'z birikmasi bilan ifodalanadi". Stilistik vosita sifatida perifraza – bu obyektning yangi, haqiqiy nominatsiyasi bo'lib, u o'tkinchi bo'lsa ham, obyektning ba'zi sifatini ochib berish va uni yolg'iz o'zi ifodalash orqali obyektlarga yangi nomlar berish qobiliyatini anglatuvchi jarayondir. Misol tariqasida, Buyuk Getsbida Daisy "qarzga olingan kabrioletda tepadan pastga tushadigan qiz", – deb ta'rif beriladi[3].

L.V.Grehneva perifraza tushunchasining ma'nosini shunday tushuntiradiki, perifraza nominativ xarakterning tavsifiy ifodasidir. Obyektni ifodalovchi perifraza birikmasi uning xarakterli belgilarini nomlaydi[4].

Perifraza – bu hodisa bo'lib, tilshunoslik fanida bir ma'noli tushunchaga ega emas. Buni tavsiflovchi ifoda sifatida aniqlash mumkin va ko'pincha boshqa til birliklari bilan – frazeologizmlar va iboralar bilan identifikatsiyalash sifatida olinadi.

Professor Ashurovaning ta'kidlashicha, "perifraza hodisaning yangi xususiyatini ko'rsatish maqsadida mumkin bo'lgan qisqaroq so'z o'rniga uzunroq va aylanma iborani qo'llashdir"[5]. Olim Q.Musayev bu tushunchani shunday targ'ib qiladi: "Obyektni ibora bilan shunday nomlash tushunchasi kontekst doirasida o'quvchi tomonidan oson tushuniladi". Olimning ta'kidlashicha, perifrazalar bilan ba'zi bir so'zlar, ifoda va to'plamlar o'quvchi yoki tinglovchiga tushunarli bo'lgan boshqa

2 Galperin I.R. "Stylistics". 1981 p.169
3 Cherednichenko Y.E.- Astraxan.: Izvestiya VGPU. 2014. — p.96.
4 N.A.Zabolotsky's Poetry". L.V.Grehneva "Objects of Periphrasis in. 2010 p.504
5 Ashurova D.U., Galiyeva M.R. Stylistics of literary text. Turon-Iqbol, Tashkent, 2016, p.235.

so‘zlar bilan almashtirilishi mumkin. Bundan tashqari, Musayevning fikricha, perifrazali so‘z misollari kontekstsiz ham tushuniladi, chunki ular so‘zlarning sinonimik variantidir.

Perifraza tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, uning uzoq tarixga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Tarixiy tadqiqotlarga qaraganda ushbu qurilma Bibliyada va Gomerning Iliadasida keng qo‘llanilgan. She’riy vosita sifatida u Virgilning she’riy satrlarida ham keng qo‘llanilgan va she’rga o‘zgacha joziba baxsh etgan. Bu qurilma lotin she’riyatida juda mashhur edi. Perifraza o‘ta ta’sirchanligi kuchli bo‘lganligi tufayli, u butun o‘rta asrlar va Uyg‘onish davrigacha epik va tasviriy she’riyatning muhim xususiyatiga aylandi. Narsalarni qayta nomlash amaliyoti tufayli perifraza XIIV-XIIIV asrlarda eng ko‘p ma’qullangan vositalardan biriga aylanib, hatto Fransiya va boshqa mamlakatlar adabiyotida perifraza usuli deb atalgan maxsus yo‘nalish paydo bo‘ldi. Ingliz tilida bir qator iboralar mavjud bo‘lib, ular hali ham narsalar va hodisalarning oddiy ma’nolari uchun perifrastik sinonimlar sifatida ishlatiladi.

Professor Yarseva XVI asrda perifrazaning qo‘llanishi zeb-ziynat xarakterida bo‘lganligi va perifrazaning ma’lum bir adabiy uslubga xos xususiyatga aylanganini ta’kidlaydi[6].

Perifraza tushunchasi ko‘plab tilshunos olimlar tomonidan turlicha tahlil qilingan va ta’riflangan. Yuqoridagi ta’riflarni umumlashtirib, shuni tasdiqlaymizki, perifraza aniq so‘zlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushuniladigan tegishli ma’no o‘rnini bosuvchi so‘zlarni almashtirish uchun stilistik vosita sifatida qabul qilinadi. Gap tarkibini o‘zgartirish yoki so‘zlarni oldingi ma’noni saqlab qolgan holda sinonimik versiyalari bilan almashtirish mumkin. Perifraza so‘zlari yoki iboralari kontekst ichida ham, kontekstsiz ham tushunilishi mumkin. Nutq, rivoyatlar, matnlar takrorlashdan qochib, rang-barang va jozibador bo‘lishi mumkin.

Zamonaviy tilshunoslikda perifraza – eng murakkab va ko‘p qirrali stilistik vositalardan biri sifatida talqin qilinadi. Uning asosiy vazifasi – ma’lum bir obyektning xususiyat va belgilari asosida uni bevosita emas, balki obrazli va aylanma yo‘l bilan ifodalashdir. Tadqiqotlar davomida perifrazaning turli shakllari tahlil qilinib, ularni ma’lum mezonlarga ko‘ra tasniflash imkoni tug‘ilgan.

L.V.Grehneva perifraza vositalarini obyekt turiga qarab quyidagicha tasniflaydi:

Atoqli otlar – mashhur shaxslarning ismlari, familiyalari, shuningdek, to‘qima nomlar va uy hayvonlari laqablari (apellyativ perifraza);

Geografik nomlar (toponimlar) – shahar, mamlakat yoki hududlar nomlarini badiiy talqin qilish. Masalan, “Ikkinchi jahon urushida Non shahriga juda ham ko‘plab yetim qolgan bolalar olib kelindi” (Aleksandr Neverov, Toshkent – non shahri, 1968). Ushbu misolda “Non shahri[7] iborasi stilistik vosita sifatida ishlatilgan bo‘lib, Toshkent shahri nazarda tutilgan. Ikkinchi jahon urushi yillarida bu shahar ko‘plab yetim bolalarga mehr va g‘amxo‘rlik ko‘rsatgani bois, xalq orasida “Non shahri” degan nom bilan ham yuritilgan. Bu esa perifrazaning badiiy nutqni yanada ta’sirchan va chuqur ma’noli qilishdagi ahamiyatini yana bir bor namoyon etadi. Masalan, “She moved to the Big Apple after she graduated” jumlasida Big Apple iborasi Nyu-York shahrini nazarda tutadi. Bugungi kunda dunyoning ko‘plab aholisi ushbu atamani eshitishi bilan aynan Nyu-York haqida gap ketayotganini darhol tushunadi.

Tilshunos olim I.R.Galperin o‘z tadqiqotida perifrazalarni ikki asosiy turga ajratadi:

Asl perifraza – muallif yoki yozuvchi tomonidan ixtiro qilingan, badiiy ifoda kuchiga

6 Grehneva L.V. “On some aspects of periphrastic nomination”.. 2009 p.207.
7 Aleksandr Neverov “Toshkent — non shahri”, 1968.

ega bo‘lgan yangi iboralar. Misol tariqasida “Men o‘rik mevasini mevalar shohi deb hisoblayman”. Bu iborada o‘rik o‘zining mazasi va foydali xususiyatlari sababli “mevalar shohi” deya talqin qilinmoqda[8].

An’anaviy perifraza – kontekstsiz ham tinglovchi yoki o‘quvchi uchun tushunarli bo‘lib, hech kim tomonidan alohida yaratilmagan, balki avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan iboralar. Masalan, Oq kiyimdagi xaloskor – shifokor; Gentlemen of the road – sayyor sotuvchi (yo‘lning janobi). Bunday perifrazalar tilning jonli va tabiiy qismiga aylangan bo‘lib, ularning asosiy xususiyati – keng omma tomonidan bevosita anglashilgan obrazliligi va ifodaviyligidir. An’anaviy perifrazalar tilning boyligi va ifodaliligini oshiruvchi sinonimik birliklardir.

Tilshunos olim T.V.Liskovo o‘zining “Perifraza ma’nolarining tasnifi va denotativ-semantik bog‘lanishlar jihati”[9] nomli maqolasida perifrazalarni denotativ-semantik belgilar asosida tasniflaydi.

Unga ko‘ra, perifrazalar quyidagi turlarga bo‘linadi:

Sinonimik perifrazalar. Bu turdagi perifrazalar ma’lum bir tushunchaning obrazli yoki tavsifiy ifodasidir:

Yer ostidagi ishchi xodimlar – metro kassiri;

Qora dori – narkotik;

Ko‘k sayyora – Yer;

Buyuk daraxt – Yunon yong‘oq daraxti.

Tarixiy va madaniy perifrazalar. Mashhur shaxslar yoki geografik joylarni ramziy yo‘sinda ifodalashga asoslangan:

Sherlok Xolmas – Artur Konan Doyl (uning asarlari bilan bog‘liq obraz);

Yerning birinchi kosmonavti – Yuriy Gagarin;

Hasadgo‘y – Otello (Shakespeare qahramoni);

Quyosh chiqish mamlakati – Yaponiya;

Tennis vatani – Angliya.

Kasb-hunar va ijodiy faoliyatga oid perifrazalar. Bu turdagi iboralar kishilarning kasbi yoki mahoratini obrazli ifodalash uchun ishlatiladi:

Qalam ustasi – yozuvchi yoki shoir;

Qumdagi go‘zallik – qumdan yasalgan qal’alar.

Transport va qurilish obyektlariga oid perifrazalar. Bular texnologiya va transport vositalarini tasvirlash uchun qo‘llaniladi:

Suzish mehmonxonasi – parovoz;

Suv ustidagi uy – yaxta;

Suzuvchi muz tog‘i – aysberg;

Havo transporti – samolyot.

Metonimik perifrazalar. Bu turdagi iboralar obyekt yoki hodisaning asosiy belgilaridan kelib chiqib yaratilgan:

Dala malikasi – makkajo‘xori;

Zangori ekran – televizor;

Moyqalam sohibi – rassom;

Salomatlik posboni – shifokor;

Charm qo‘lqop posboni – bokschi;

Oltin boshoq – bug‘doy.

Metaforik perifrazalar

Bular aniq obraz yoki taqqoslash asosida yaratilgan iboralardir:

Gaz malikasi – Yuliya Timoshenko;

Opera malikasi – Irina Arxipova;

8 Galperin I.R. “Stylistics”. 1981 p.169

9 Lyskova. Classification of Periphrasis Meanings and the Aspect of Denotative-Semantic Correlations. 2010. p198

Temir qush – samolyot.

Ko‘rinib turibdiki, perifrazalar nafaqat tilga estetik ohang bag‘ishlaydi, balki fikr ifodasini yanada obrazli va chuqur ma’noli qilishga xizmat qiladi.

N.M.Gonzina va Y.E.Myazina tilshunos olim I.R.Galperinning an’anaviy perifraza tasnifini tahlil qilib, ushbu hodisaning turli shakllarini aniqladilar. Ularning fikricha, perifrazalar quyidagi asosiy turlarga bo‘linadi:

Tasviriy perifrazalar. Bu turdagi perifrazalar majoziy ifodalar bilan bog‘liq bo‘lib, frazeologik metaforalarga tayanadi. Galperinning ta’kidlashicha, bunday perifrazalar odatda obrazli va chuqur ma’noli bo‘lib, xalq tilida keng qo‘llaniladi. Masalan:

Tepa sochi tikka bo‘lmoq – g‘azablanmoq.

Og‘zining tanobi qochmoq – sevinmoq.

Qovog‘idan qor yog‘moq – xafa bo‘lmoq.

Mantiqiy perifrazalar. Bu turdagi iboralar sinonimik almashtirishlar asosida shakllanadi. Ya’ni, so‘zning muqobil varianti sifatida ishlatiladi. Misol uchun:

“Uzoq uzoqdagi qishloqlarimizga hali ham zangori olov yetib bormagan”. Bu gapda “zangori olov” iborasi tabiiy gazni nazarda tutmoqda.

Tilshunos V.P.Moskvin perifrazani nominativ adekvat birlik sifatida baholab, uning ikki shaklini ajratib ko‘rsatadi:

Aniq perifrazalar. Obyektning aniq va mavjud belgilari asosida tuziladi:

Havoga ko‘tarilmoq – uchish.

Noaniq perifrazalar. Bu turdagi perifrazalarda tasvirlangan obyektning aniq xususiyatlari ko‘rsatilmaydi, balki umumiy tushuncha orqali ifodalanadi:

Hayvonlar shohi – sher.

Ozodlik oroli – Kuba.

Xulosa shuki, tilshunoslik tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, perifrazalarni tasniflash umumiy mantiqiy tamoyillarga asoslanadi. Dastlab asosiy tushuncha o‘rganilib, keyin uning perifrazani shakllari tahlil qilinadi. Perifraza stilistik qurilma sifatida ishlatilganda metonimiya, metafora va sinekdoxa kabi stilistik vositalardan foydalaniladi.Aslida, metafora va metonimiya ham majoziy perifrazalar bilan bog‘liq bo‘lib, ular orasidagi farq keskin emas. Perifraza doimo so‘z birikmasi orqali yuzaga kelishi sababli, uning tarkibiy jihatdan ajralishi tabiiy jarayondir.

ABDULLA QODIRIYNING "O'TKAN KUNLAR" ROMANI TARJIMALARIDA MADANIY VA MILLIY XUSUSIYATLARNI YETKAZISH MUAMMOLARI

Kamola Khujumova – stajor o'qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning "O'tkan Kunlar" romani tarjimalarida madaniy va milliy xususiyatlarni yetkazish muammolari keng yoritiladi hamda milliy o'ziga xoslikni boshqa til vositalari bilan berish, badiiy asarlar tarjimasida milliylikni qayta yaratish muammolari masalalari Angliya tarjimashunos olimasi Karol Ermakova va o'zbek olimi Ilhom To'xtasinovlar tomonidan beriladi.*

Аннотация: *В данной статье широко освещаются проблемы передачи культурных и национальных особенностей в переводах романа Абдуллы Кадыри "Минувшие дни" и рассматриваются трудности передачи национальной самобытности средствами другого языка. Вопросы воссоздания национальной идентичности в художественном переводе рассматриваются на основе работ английского переводоведа Кэрол Ермаковой и узбекского ученого Илхома Тухтасинова.*

Abstract: This article extensively covers the problems of conveying cultural and national characteristics in translations of Abdulla Kadiriy's "Bygone days" and examines the difficulties of conveying national identity through other language means. Issues of recreating national identity in literary translation are considered based on the works of English translators Carol Yermakova and Uzbek scholar Ilhom Tuxtasinov.

Kalit so'zlar: *badiiy asar, madaniyat, milliylik, tarjima, O'tkan kunlar, Days Gone By.*

Ключевые слова: *художественное произведение, культура, национальная самобытность, перевод, прошедшие дни, Days Gone By.*

Keywords: *literary work, culture, national identity / nationality, translation, utkan kunlar, Days Gone By.*

Badiiy tarjimada milliy xususiyatlarni saqlash muammosi tarjima nazariyasida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Har bir millatning o'ziga xos madaniyati, tarixi va urf-odatlari mavjud bo'lib, bular badiiy matnlarda aks etadi va ularni tarjima jarayonida to'g'ri yetkazish tarjimonning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Milliylik – bu millatning moddiy va ma'naviy hayotidagi o'ziga xosliklar yig'indisidir. Ma'naviy hayotga insonlarning xarakteri, tafakkur tarzi, ruhiyati, intilishlari, qiliqlari, hazil-mutoyibasi va boshqa jihatlar kiradi. Moddiy hayot esa urf-odatlar, marosimlar, kiyim-kechak, me'morchilik, ro'zg'or buyumlari, milliy taomlar, ismlar, taxalluslar va boshqa madaniy ko'rinishlar bilan bog'liq. Adabiyotshunoslikda milliy kolorit deb ataluvchi bu tushuncha badiiy asarlarda xalqning an'ana va qadriyatlarini o'zida aks ettiradi. Tarjimon ushbu milliylikni tarjimada saqlash uchun turli usullardan foydalanishi lozim.

Milliy xos so'zlar – bu madaniy va etnografik jihatdan muhim bo'lgan leksik birliklar bo'lib, ular qatoriga quyidagilar kiradi:

Milliy taomlar (osh, somsa, norin, lag'mon);

Kiyim-kechaklar (do'ppi, chapan, belbog');

Cholg'u asboblari (doira, rubob, dutor);

Ro'zg'or buyumlari (lagan, tandir, kosa);

Geografik nomlar va qishloq hayoti bilan bog'liq so'zlar;

Diniy marosimlar va bayramlar (Navro'z, hayit, qurbon hayiti);

Tashkilotlar va muassasalar (mahalla, xonlik,

madrasa).

Bunday so‘zlarning tarjimasida uchraydigan asosiy muammolar shundan iboratki, ularning bevosita ekvivalenti boshqa tillarda mavjud bo‘lmasligi mumkin. Shu sababli, tarjimada quyidagi usullar qo‘llaniladi:

Transliteratsiya – so‘zning fonetik yoki grafik jihatdan boshqa tilga moslashtirilishi. Masalan, “lag‘mon” ingliz tilida “lagman” shaklida transliteratsiya qilinishi mumkin.

Izohli tarjima – milliy xos so‘z tarjimasi izoh bilan tushuntiriladi. Masalan, “do‘ppi” ingliz tilida “doppi (a traditional Uzbek skullcap)” tarzida berilishi mumkin.

Adaptatsiya – milliy tushunchani boshqa madaniyatga mos keluvchi ekvivalent bilan almashtirish. Masalan, “mahalla” tushunchasi ingliz tilida “neighborhood” deb tarjima qilinishi mumkin, ammo to‘liq ekvivalentlik ta’minlanmaydi.

Kalkalash – so‘z yoki iboraning tarkibiy qismlarini so‘zma-so‘z tarjima qilish. Masalan, “Qurbon hayiti” – “Feast of Sacrifice” tarzida tarjima qilinishi mumkin.

Badiiy tarjimada milliy xususiyatlarni saqlash va qayta yaratish tarjimonning asosiy vazifalaridan biridir. Har bir milliy xos so‘z va madaniy tushunchani boshqa tilga yetkazishda, uning kontekst va madaniy o‘rni hisobga olinishi kerak. Tarjimon milliy koloritni yo‘qotmaslik uchun mos usullarni tanlashi va tarjimani tushunarli hamda madaniy jihatdan to‘g‘ri shaklda yetkazishi lozim.

O‘zbek adabiyoti tarixida o‘zining bebaho ijodi bilan iz qoldirgan va uning taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan ulug‘ yozuvchilar yetarlicha. Ularning hayot tarzi hamda boy adabiy merosi bugungi avlodni tarix haqida chuqurroq o‘ylashga undaydi. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani esa o‘zbek tilida yozilgan ilk tarixiy roman sifatida alohida o‘rin tutadi. Joriy yilda asarning dastlabki boblari yozilganiga roppa-rosa 100 yil to‘lmoqda. Mazkur roman Otabek va Kumushning muhabbat qissasi orqali XIX asr o‘rtalaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni badiiy talqinda aks ettiradi.

Asar bugungi kungacha rus, nemis, turk, tojik, qozoq, turkman va boshqa ko‘plab tillarga tarjima qilingan. So‘nggi yillarda uni bevosita o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilish bilan I.To‘xtasinov boshchiligidagi jamoa shug‘ullanib kelmoqda. Shuningdek, roman rus tilidan ingliz tiliga tarjimon va adabiyotshunos Kerol Ermakova tomonidan ham o‘girilgan. Asarning yana bir tarjimasi AQSh harbiy-dengiz akademiyasining Mintaqaviy tadqiqotlar markazining sobiq direktori, amerikalik olim Mark Riz tomonidan amalga oshirilgan. M.Riz 1994-1996-yillarda “Tinchlik korpusi” dasturi doirasida O‘zbekistonda faoliyat yuritgan ilk ko‘ngillilardan bo‘lib, mamlakatimizning turli hududlarida, ayniqsa, Farg‘onada ko‘p vaqtini o‘tkazgan. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, u vodiyga tashrif buyurgan ilk amerikaliklardan biri hisoblanadi. Olim roman tarjimasi ustida o‘n besh yildan ortiq mehnat qilgan.

Kitobning nashr etilishida O‘zbekistonning AQShdagi elchixonasi, vatandoshlarimiz va o‘zbek mutaxassislarining faol ishtiroki jarayonni ancha tezlashtirdi. Tarjimaning umumiy hajmi 660 betni tashkil qilib, u 400 dan ortiq izohlarni, shuningdek, XIX asrning birinchi yarmida o‘zbek xalqining madaniy hayoti, urf-odatlari va an’analariga oid sharhlarni o‘z ichiga oladi.

M.Rizning ta’kidlashicha, Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar”ni aynan o‘sha murakkab davrda yashab, hayot sinovlariga duch kelayotgan o‘quvchilar uchun yaratgan. “Adib o‘z asari orqali 1917-yilgi voqealardan so‘ng yuzaga kelgan murakkab siyosiy jarayonlarda zamondoshlarini ogohlantirishga intilgan. Roman ko‘tarayotgan mavzular bugungi jamiyat uchun ham dolzarb

bo‘lib, fuqarolik jamiyatini faol bo‘lishga undaydi”[1], – deydi tarjimon.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, adabiy asarlar, ayniqsa romanlarni tarjima qilish o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bunday asarlar boshqa adabiy janrlardan farqli ravishda asl nusxaning to‘liq o‘rnini bosa olmaydi va matn ham har doim to‘liq tarjima qilinmaydi. “O‘tkan kunlar” romanining turli tarjimalarini tahlil qilish jarayonida, xususan, Kerol Ermakovaning (“Days Gone By”) va Samarqand chet tillar instituti rektori Ilhomjon To‘xtasinovning (“The Days Gone By”) variantlarini o‘rganar ekanmiz, tarjimonlarning asliyat tili turlicha bo‘lgani sababli ularning tarjimalari orasida muayyan farqlar mavjudligini ko‘rish mumkin.

Quyida romandagi tarixiylikni belgilovchi tarixiy-arxaik tushunchalar, unvon va kasb-korga oid atamalar hamda milliy xos so‘zlarning tarjimasi tahlil qilinadi. Chunki bunday elementlarning tarjimada to‘g‘ri aks ettirilishi katta ahamiyatga ega.

Asliyat: “Musulmonqul Normuhammad qushbegiga besh ming sipoh qo‘shib, Toshkand ustiga jo‘natqan!”[2]

Rus tilidan ingliz tiliga tarjimasi: “Musulmon Kul has sent five thousand warriors headed by Nar Mohammed Kushbegi” to suppress the uprising!”[3].

O‘zbek tilidan rus tiliga tarjimasi: “Мусулманкул отправил в Ташкент пять тысяч воинов, во главе которых стоит Нармухаммад кушбеги”[4].

Ma’lumki, “qushbegi” unvoni amir va xonlar saroyida bosh vazir yoki huquqiy vazir darajasidagi yuqori martabali amaldorni anglatgan. Tarjima variantlarini tahlil qilganimizda, barcha tarjimalarda “qushbegi” so‘zi o‘zbekcha shaklda, ya’ni “Qushbegi”, “Кушбеги” yoki “Kushbegi” tarzida berilgan. Shu bilan birga, ingliz va rus tilidagi o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishi uchun matnda izoh keltirilgan. Biroq bevosita o‘zbek tilidan ingliz tiliga amalga oshirilgan tarjimada bu tushuntirish berilmagan. Ushbu lisoniy birlikni transliteratsiya orqali saqlab qolish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Karol Ermakova o‘z tarjimasida o‘quvchilarning o‘qish jarayonida qiyinchilikka duch kelmasligi uchun roman tarkibidagi ismlarni tarjima qilmasdan qoldirgan. Bu yondashuv to‘g‘ri bo‘lib, chunki har bir kitobxon begona tilga oid nomlarni o‘qishda va tushunishda muammoga duch kelishi mumkin. Shu bois Ermakova bu masalani oldindan his qilgan deb aytish mumkin.

Ma’lumki, tarjima san’atning bir ko‘rinishi bo‘lib, u asl asarni qayta yaratish jarayoni hisoblanadi. Bir badiiy asarni o‘n nafar tarjimon o‘girsa, ularning tarjimalari mutlaqo bir xil bo‘lib qolmaydi, balki sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Buning sababi shundaki, har bir tarjimon ijodkor sifatida o‘zining individual uslubiga ega bo‘ladi. Ularning barchasi asarning mualliflik uslubini to‘g‘ri aks ettirishni maqsad qilgan bo‘lsa-da, tarjimalari bir-biridan farq qiladi. Shu bois, tarjima jarayoni asl muallif va tarjimon o‘rtasidagi ijodiy bellashuvga o‘xshaydi”[5]. Tarjimon ijodkor sanaladi. U muallif uslubiga qanchalik mahliyo bo‘lmasin va asliyatga sodiqlikni maqsad qilmasin, uning o‘ziga xos uslubi baribir sezilib turadi. Shu jihatdan, yuqorida tilga olingan ikki tarjimon ham asarni o‘ziga xos yondashuv bilan tarjima qilgan, bunda o‘z mahorati va san’atkorligini namoyon etishga intilgan.

Tarjima jarayonida mutarjimlar asliyatdagi

1 Mark Reese “By Gone Days” Muloqot Cultural Engagement Program (May 23, 2020) - 510 p.
2 Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – B. 34.
3 Abdulla Qodiriy. The Days Gone By. Translaters: I.M.Tukhtasinov, O.M.Muminov, A.A.Khamidov. Toshkent:”Mashhur -press”, 2017.
4 Abdulla Kadyri. Minuvshiye dni. Roman, Tashkent.
5 Salomov G‘. Tarjima san’ati. – Toshkent: Fan, 1973, 57-b.

shakl va mazmun birligini saqlash uchun boshqa tildagi muqobil vositalarni izlab topganlar. Ular muallif uslubini qayta yaratishga, asarning ritmi va intonatsiyasini asliyatda qanday bo‘lsa, shunday yetkazishga, personajlar nutqining tabiiyligini ta’minlashga, milliy koloritni aks ettirishga, frazeologizmlarga mos muqobil topishga, shuningdek, sheva xususiyatlarini ifodalashga alohida e’tibor qaratganlar.

Tarjimonlar nafaqat o‘zbek tilini puxta bilishlari, balki xalqimizning ijtimoiy o‘zini anglash jarayoni, milliy xarakteri, hayot tarzi, urf-odatlari, qadriyatlari va dunyoqarashi haqida ham chuqur bilimga ega ekanliklarini isbotlaganlar. Shuni ta’kidlash joizki, tarixiy asarlarda xalq hayotining ma’lum bir davri ijtimoiy-tarixiy harakatlar jarayonida ifodalanadi. Bunday asarlarda qo‘llanilgan til vositalarining katta qismi vaqt o‘tishi bilan turli o‘zgarishlarga uchragan: ayrim so‘zlar eskirib iste’moldan chiqqan, ba’zilari esa yangi ma’no kasb etgan yoki toraygan. Shu sababli, asar yaratilgan davr tilida qanday bo‘lsa, uni o‘sha shaklda saqlab qolish tarjimada mushkul masalalardan biri hisoblanadi. Til doimo o‘zgaruvchan jarayonga ega bo‘lib, unda doimiy, turg‘un hodisalar bilan bir qatorda, vaqtinchalik va o‘tkinchi hodisalar ham uchraydi. Tarjimon tarjima qilayotgan asar yaratilgan davrni chuqur o‘rganishi, muallif uslubi va dunyoqarashini bilishi, uning asarlari haqida keng ma’lumotga ega bo‘lishi zarur. Shuningdek, tarixiy asarning avvalgi tarjimalarini tahlil qilib, ulardagi yutuq va kamchiliklarni inobatga olish ham muhim ahamiyatga ega. Bu kabi omillar tarixiy asarning mazmunini yanada chuqurroq anglashga, tarjima jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni bartaraf etishga va xatoliklarning oldini olishga yordam beradi.

Tarixiy asar tarjimasida barcha til vositalarini zamonaviy til orqali aynan o‘girishning imkoni yo‘q. Buning asosiy sababi asliyat tilining qadimiyligidir. Biroq boshqa tomondan, tarjimaning bugungi o‘quvchi uchun tushunarli bo‘lishi ham muhim, chunki tarixiy asar zamonaviy tilda yozilishi bilan birga, o‘zida o‘sha davr ruhini ham aks ettirishi kerak. Har bir asar o‘ziga xos zamon va makonga ega bo‘lib, tarjimada shu zamon va makon izlarini yetkazish tarjimonga katta mas’uliyat yuklaydi. Tarjimon nafaqat bugungi kun o‘quvchisi, balki asliyat badiiy jihatlarini tahlil qila oladigan tanqidchi, asarni o‘z tilida qayta yaratishga qodir bo‘lgan ijodkor hamdir. Shu boisdan, tarixiy asarlar tarjimasi – faqatgina til o‘girish jarayoni emas, balki muallif niyatini, tarixiy ruhni va madaniy xususiyatlarni saqlab qolish san’atidir. Quyida keltirilgan parchani tahlil qiladigan bo‘lsak, asliyat:

“Mirzaboshi kirib xong‘a qulluq qildi va Musulmonqulg‘a qarab qo‘l bog‘ladi. Musulmonqul yana xumori bo‘lg‘an edi – “Chilim!” deb tashqarig‘a qichqirdi, so‘ngra mirzaboshig‘a dedi:

-Hozir Marg‘ilon hokimi O‘tabboy qushbegiga bir xat yozib, chopar bilan yubor. Xatni olg‘an zamon Yusufbek hojining o‘g‘li Otabek deganni olib huzurimizga kelsin!”

O‘zbek tilidan rus tiliga tarjimasi: Вошел мирза-баши, поклонился почтительно хану, а затем Мусульманкулу. Тот все еще был крайне раздражен и испытывая физическую потребность покурить, приказал – “Чилим!”, затем обратился к мирза-баши:

-Немедленно напиши правителю Маргилана Утаббаю-кушбеги чтобы он явился сюда вместе с сыном Юсуфбека-хаджи Атабеком. Письмо отошли с гонцом.

Rus tilidan ingliz tiliga K.Ermakova tarjimasi: “Mirza-bashi entered, bowed respectfully, and clasped his hands before Musulmonqul. But Musulmonqul, still feeling the effects of his indulgence, shouted, “Chilim!” Then, turning to Mirza-bashi, he said:

“Write a letter to the governor of Margilan,

O‘tabboy Qushbegi, and send it with a rider. As soon as he receives the letter, let him bring Yusufbek Hoji’s son, Otabek, to my presence!”

O‘zbek tilidan ingliz tiliga I.To‘xtasinov tarjimasi: “Mirzaboshi entered the hall and greeted Musulmonkul who got frustrated again and shouted-“Kalian”, then said to Mirzaboshi: -Right now send a letter to the governor of Margilon, to tabboy, with the courier. Ask him to bring Otabek, the son of Yusufbek Khoji, immediately!

Biz keltirgan tahlilda tarjima jarayonidagi muhim masalalar, xususan, tarixiy unsurlarni aks ettirish, leksik birliklarni saqlash va ekvivalentlik muammosi yoritilgan. Quyidagi asosiy jihatlarni ta’kidlash mumkin:

“Mirzaboshi” lavozimi tarjimalarda o‘z holicha saqlangan, bu esa tarixiy kontekstni jonlantirishga xizmat qiladi. Tarjimada bunday unvonlarni bevosita tarjima qilish ba’zan ma’no yo‘qotilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, transliteratsiya va izohli taglamalar berish yaxshi strategiyadir. “Chilim” so‘zi Ermakova tarjimasida o‘zbek tilidagi shaklda saqlangan, To‘xtasinov esa “kalyan” deb zamonaviylashtirgan. Bu esa tarjimonning uslubiy tanloviga bog‘liq bo‘lib, tarixiy kontekstni saqlash yoki o‘quvchiga tushunarliroq qilish o‘rtasidagi muvozanatga taalluqlidir.

“Tarjimon – asarni boshqa tilda, ya’ni ona tilida qayta yaratish uchun muallif fikrini ancha pishitadi, o‘ziga singdirib oladi, keyin matn xarakteriga qarab muqobil so‘z tanlaydi, bu so‘zlar ma’nosi, jarangdorligi, shakli, uslubiy muqobilligi, asl nusxadagi fikrni iloji boricha to‘laroq ifodalash tashvishida yonadi”[6], – deb yozadi G‘aybulla Salomov.

Tarjima jarayonida ushbu talabga rioya qilmasdan, iste’moldagi lug‘atlarga tayanib ish ko‘rish adekvat tarjima yaratish tamoyiliga zid holda, muallif matnini zamonaviylashtirib qo‘yishga olib kelsa, milliy xususiyatli lisoniy vositalarni beasos shunday xususiyatdan xoli bo‘lgan birliklar yoki tarjima tili sohiblariga xos lisoniy vositalar bilan almashtirib talqin etish muallif matnini milliy asosdan mahkum etadi.

6 Aminova L. Turk yozuvchisi Yashar Kamol asarlarida badiiy mahorat masalalari,-fil.fan.nom.ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, T.:2003

KOGNITIV LINGVISTIKADA KONSEPT NAZARIYASI VA UNING TAVSIFI

Solijon Azizov – stajor o'qituvchi,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya: *Kognitiv lingvistikada konsept nazariyasi rivojlanishining evolyutsion bosqichlarini, konseptning lisoniy, kognitiv va madaniy jihatlarini hamda uning tahlil metodologiyasi, kategoriyalash, mental leksikon bilan munosabati masalalarini tahlil qilar ekan, ushbu maqolada muallif konseptning lingvistik termin sifatida shakllanishi va bugungi kungacha bo'lgan taraqqiyot yo'lini yoritib, konsept nazariyasining zamonaviy tilshunoslikda til va tafakkur munosabatlarini o'rganishning fundamental metodologik asosi sifatida amal qilishi hamda konsept tushunchasining turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilinishi esa bu hodisaning murakkab va ko'p qirrali ekanligini ko'rsatib bergan.*

Аннотация: *Анализируя эволюционные этапы развития теории концептов в когнитивной лингвистике, лингвистические, когнитивные и культурные аспекты концепта, а также его методологию анализа, категоризацию и связь с ментальным лексиконом, в данной статье автор проливает свет на свет на формирование концепта как лингвистического термина и его развитие до наших дней, а также тот факт, что теория концепта служит фундаментальной методологической основой для изучения взаимоотношений языка и мышления в современной лингвистике, и различные интерпретации концепции разных ученых показывают, что это явление сложное и многогранное.*

Abstract: *Analyzing the evolutionary stages of concept theory development in cognitive linguistics, linguistic, cognitive and cultural aspects of concept, its analysis methodology, categorization, and relationship with mental lexicon, the author in this article illuminates the formation of concept as a linguistic term and its developmental path up to the present, demonstrating that concept theory serves as a fundamental methodological basis for studying language-thought relationships in modern linguistics, while various interpretations of the concept notion by different scholars indicate the complex and multifaceted nature of this phenomenon.*

Kalit so'zlar: *kognitiv lingvistika, konsept, mental leksikon, kategoriyalash, konseptual tahlil, tafakkur, lisoniy birlik, konsept nazariyasi, konseptual struktura, madaniy muhit.*

Ключевые слова: *когнитивная лингвистика, концепт, ментальный лексикон, категоризация, концептуальный анализ, мышление, языковая единица, теория концептов, концептуальная структура, культурная среда.*

Keywords: *cognitive linguistics, concept, mental lexicon, categorization, conceptual analysis, thinking, linguistic unit, concept theory, conceptual structure, cultural environment.*

Insoniyat tafakkuri va til o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni o'rganish har doim tilshunoslarning diqqat markazida bo'lib kelgan. XIX asrdan boshlab, Vilgelm fon Gumboldit, Ferdinand de Sossyur kabi mashhur tilshunoslar tomonidan til va tafakkur munosabatlari chuqur tadqiq etila boshlangan bo'lsa, XXI asrga kelib, bu masala yangi ilmiy paradigma – kognitiv lingvistika doirasida yanada keng qamrovli o'rganilmoqda. Xususan, bu yo'nalishning markaziy tushunchalaridan biri – konsept nazariyasi bo'lib, u inson ongida shakllangan bilim va tajribalarning tildagi ifodasini kompleks tarzda tadqiq etadi va aks ettiradi. Vaholanki, konsept tushunchasi bugungi kunda falsafa, psixologiya, antropologiya va madaniyatshunoslik kabi qator fanlar kesishmasida turgan murakkab hodisa sifatida qaralmoqda, natijada uning tadqiqot ko'lami va o'rganilishi zarur bo'lgan yangidan yangi qirralari yuzaga chiqmoqda.

Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikda konsept nafaqat lisoniy, balki madaniy, kognitiv va psixologik jihatlarni o'zida mujassam etgan ko'p qirrali fenomen sifatida tahlil qilinmoqda. Konseptning bu kabi murakkab tabiati uning

tadqiqida turli metodologik yondashuvlar va nazariy qarashlarning shakllanishiga olib keldi. Jumladan, lingvomadaniy, psixolingvistik, semantik va pragmatik aspektlarda o‘rganish konsept mohiyatini har tomonlama to‘liq va batafsil ochib berishga xizmat qilmoqda. Bu esa insonning bilish jarayonlari, tafakkur tizimi va til o‘rtasidagi munosabatlarni yanada teranroq anglash imkoniyatini soha mutaxassislariga bermoqda.

Jumladan, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham kognitiv tilshunoslik va konsept nazariyasiga bo‘lgan qiziqish jadallik bilan ortib bormoqda. Ko‘plab tadqiqotchilar turli konseptlarning milliy-madaniy xususiyatlarini, ularning lisoniy reprezentatsiyasini va kognitiv asoslarini o‘rganishga e’tibor qaratmoqdalar. Bu izlanishlar nafaqat nazariy tilshunoslik rivojiga, balki madaniyatlararo muloqot, tarjima nazariyasi va amaliyoti, til o‘qitish metodikasi kabi amaliy sohalarga ham muhim hissa qo‘shmoqda. “Konsept” terminining etimologiyasiga nazar tashlasak, u lotin tilidagi “conceptus” (tushuncha) va “concipere” (tasavvur qilmoq, o‘ylamoq) so‘zlariga borib taqaladi. Shu bilan birga, “umumiy tushuncha, fikrning bevosita obyekti” – 1550-yillardan, o‘rta asr lotinchasi conceptum – “qoralama, mavhum” so‘zidan kelib chiqqan. Klassik lotinchada “(predmet) tasavvur qilingan” ma’nosini anglatgan concipere – “qabul qilish va ushlab turish” fe’lining o‘tgan zamon shaklidan olingan. Bu fe’l con- old qo‘shimchasi va capere – “olmoq” fe’lining birikishidan hosil bo‘lgan (Hind-Yevropa tili oilasining kap- “tutmoq” ildizidan)[1]. Demak, idrok va tasavvurning o‘zaro mushtarak uyg‘unlashuvi konseptda o‘z aksini topadi. Shu o‘rinda konseptning lingvistik termin sifatida shakllanish tarixi xususida asosiy jihatlar to‘g‘risida fikr yuritsak, ilk bor nemis faylasufi Fridrix Lyudvig Gottlob Frege o‘zining 1892-yilda nashrdan chiqqan “Ma’no va referensiya haqida” (“Über Sinn und Bedeutung”) nomli asarida birinchilardan bo‘lib, ma’no va tushunchaning farqini tahlil qildi, natijada bu konsept tushunchasining ilmiy jihatdan shakllana boshlashiga turtki bo‘ldi. Biroq “konsept” terminini kognitiv lingvistik termin sifatida birinchi bo‘lib rus olimi S.A.Askoldov 1928-yilda e’lon qilingan “Konsept va so‘z” (“Концепт и слово”) nomli maqolasida qo‘llagan va nazariy asoslarini taklif qilgan.

Umuman olganda, kognitiv lingvistika 1970-yillarning oxirida alohida yo‘nalish sifatida shakllana boshladi. Chunki, nemis tilshunoslari F.Ungerer va H.-Y.Shmidning ta’kidlashicha, bu davrda tilni faqat struktural jihatdan emas, balki inson bilish jarayonlari bilan bog‘liq holda o‘rganish zarurati paydo bo‘ldi[2]. Shundan so‘ng, ayni yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, kognitiv lingvistikaning shakllanish jarayonini uch asosiy bosqichga bo‘lishimiz mumkin: (1) 1970-yillarning oxiri 1980-yillarning boshi – dastlabki nazariy asoslarning yaratilishi – shakllanish bosqichi; (2) 1980-yillarning o‘rtalari 1990-yillarning boshi – asosiy tushunchalarning shakllanishi – rivojlanish bosqichi; (3) 1990-yillar va hozirgi davr – fan taraqqiyoti va unga oid nazariyalarning keng qo‘llanilishi – taraqqiyot bosqichi. Darhaqiqat, ayni uch bosqichda konsept nazariyasi turli nuqtayi nazarlar doirasida rivoj topdi va qamrov ko‘lami oshdi. Jumladan, Ch.Fillmorning “Freym semantikasi” (“Frame Semantics”) nazariyasi, ilk bor R.Langakerning kognitiv grammatikaga oid ma’ruzalari, Germaniyada kognitiv lingvistikaga oid o‘tkazilgan birinchi konferensiya, J.Lakoff va M.Jonson tomonidan “Biz yashayotgan metaforalar” (“Metaphors We Live By”) asarining e’lon qilinishi, M.Jonsonning “Ayollar, o‘t va xatarli narsalar” (“Women, Fire and Dangerous

1 Onlayn etimologiya lug‘ati (etymonline.com). Murojaat sanasi: 2025-yil 5-yanvar – https: //www. etymonline. com/word/concept#etymonline__v__17307 manzili.

2 Ungerer F., Schmid H.-J. An introduction to cognitive linguistics. – 2nd ed. – London: Routledge, 2013. – 400 p. https://doi.org/10.4324/9781315835396.

Things") nomli kitob, R.Langaker tomonidan esa ikki jildli "Foundations of Cognitive Grammar" ("Kognitiv grammatikaning asoslari") asarining e'lon qilinishi, Xalqaro Kognitiv Lingvistika Assotsiatsiyasi va "Kognitiv fanlar jamiyati" ("Cognitive Science Society")ning tashkil etilishi, belgiyalik tilshunos D.Girarts tashabbusi bilan "Kognitiv lingvistika" ("Cognitive Linguistics") xalqaro jurnaliga asos solinishi, De Gruyter nomi bilan mashhur bo'lgan nemis ilmiy nashriyoti tomonidan 1990-yildan buyon chop etiladigan, kognitiv tilshunoslikka oid ilmiy kitoblar seriyasi – "Cognitive Linguistics Research" kabi har tomonlama dolzarb natijalarga mazkur uch bosqichda erishildi.

Natijada kognitiv lingvistikada konsept nazariyasi sezilarli darajada taraqqiy topdi hamda dunyo bo'ylab kognitiv tilshunoslik faniga bo'lgan qiziqishning, konsept nazariyasiga bag'ishlangan istiqbolli tadqiqotlarning olib borilishiga zamin yaratdi. Quyida ayni masalada olib borgan izlanishlarimizning muhim natijalariga batafsil to'xtalib o'tamiz:

Amerikalik tilshunos R.U. Langaker 1987-va 1991-yillarda nashrdan chiqqan ikki jildli "Kognitiv grammatikaning asoslari" nomli asarida konseptni kognitiv struktura sifatida talqin qiladi va bir qator muhim xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi: (1) bilimlarni tashkil etish birligi; (2) mental tasavvurning asosi; (3) tajriba asosida shakllanadi[3]. Ayni xususiyatlar asosida qayd etishimiz joizki, konsept inson uchun turli yo'nalishlar bo'yicha o'z bilimlarini tashkil etish birligi, olamni mental tasavvur qilish asosi, bu esa asosan tajriba orqali shakllanishi mumkin. Zero, idrok va tafakkur taraqqiyoti yillar davomida tushunish va anglash asnosida amalga oshadi. Bunda tilning, insonlar bilan bo'ladigan har turli, ya'ni og'zaki, yozma yoki raqamli muloqotning ahamiyatini inkor qilib bo'lmaydi, chunki olingan axborot muzokara yoki mushohada qilish bilan yanada chuqur o'zlashtiriladi.

Amerikalik tilshunos R.Jekendoff 1992-yilda nashr qildirgan "Ong tillari: mental tasavvur haqidagi esselar" ("Languages of the Mind: Essays on Mental Representation") nomli kitobida konseptning uch asosiy kognitiv xususiyatini ilgari surdi: (1) tafakkur komponenti; (2) lisoniy ifoda orqali namoyon bo'ladi; (3) uzoq muddatli xotirada saqlanadi[4]. Bundan tashqari, britaniyalik kognitiv tilshunos V.Evans 2009-yilda chop etilgan "So'zlarning ma'no hosil qilishi: leksik tushunchalar, kognitiv modellar va ma'no yaratilishi" ("How Words Mean: Lexical Concepts, Cognitive Models, and Meaning Construction") nomli asarida konseptning kategorizatsiya, bilimlarni saqlash va ma'no hosil qilish kabi uch muhim funksiyasini ko'rsatib o'tdi[5]. Haqiqatan, inson tafakkurining muhim hosilasi sifatida konsept til orqali namoyon bo'ladi, tilda o'z ifodasini topgan konsept – narsa-hodisa umumiy belgilariga ko'ra tasniflanadi. Shu orqali konsept muayyan ma'no hosil qilib, o'zida unga tegishli bo'lgan bilimni saqlaydi, shu bilan birga, ayni jabhada inson konseptlardan muntazam tarzda o'z nutqida foydalangan holda xotirasida saqlab boradi.

O'z navbatida, "konsept" terminiga ingliz va Amerika olimlari tomonidan berilgan ta'riflar tahliliga to'xtalib o'tsak, konsept – (1) "umumiy g'oya yoki tushuncha bo'lib, u ma'lum bir turdagi predmetlarga mos keladi va bu turga xos bo'lgan asosiy xususiyatlardan tashkil topadi"[6]; (2) "... bizga kategoriyalarimizni aqliy jihatdan

3 Langacker R.W. Foundations of cognitive grammar Vol. II: Descriptive application. – California: Stanford University Press, 1991. – 516 p.

4 Jackendoff R.S. Languages of the mind: Essays on mental representation. – Massachusetts: The MIT Press, 1992. – 200 p.

5 Evans V. How words mean: Lexical concepts, cognitive models, and meaning construction. – Oxford: Oxford University Press, 2009. – 396 p.

6 Kollins onlayn lug'ati (Collins Dictionary – collinsdictionary.com). Murojaat sanasi: 2025-yil 10-yanvar –https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/concept manzili.

tavsiflash va ular haqida mulohaza yuritish imkonini beruvchi asab tuzilmalaridir. Inson konseptlari tashqi voqelikning shunchaki aksi bo‘lmay, balki tanalarimiz va miyamiz, ayniqsa sensor-motor tizimimiz tomonidan shakllantiriladi”[7]; (3) “tashkil etilgan bilimlarni ifodalovchi va idrok etish, o‘rganish va mulohaza yuritishda mental tasavvurning asosiy birligi sifatida amal qiluvchi kognitiv tuzilmadir”[8]; (4) “bizning bilim va tajribalarimizni tuzishga xizmat qiluvchi fundamental kognitiv tasavvurlar bo‘lib, ular mental mazmun va lisoniy ifoda o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajaradi”[9]; (4) “ma’no shakllanishining birligi bo‘lib, muayyan tajriba kategoriyasiga oid keng qamrovli bilimlar majmuiga yo‘l ochib beradi”[10]. Mazkur ta’riflarga binoan aytishimiz mumkinki, konsept o‘zida inson idrokining murakkab mental tuzilma sifatida lisoniy ifodalanish vositasi va birligi hisoblanadi.

Shuningdek, rus olimlari tomonidan ilgari surilgan ta’riflarga ko‘ra, konsept – bu (1) “inson psixikasida aks etgan bilim va tajriba birligini tashkil etuvchi, operativ xotiraviy mazmunga ega ma’lumot birligi bo‘lib, mental leksikonning asosiy elementi hisoblanadi”[11]; (2) “madaniy qadriyatlar, ideallar va stereotiplarni o‘z ichiga olgan, milliy-madaniy dunyoqarashni aks ettiruvchi mental tuzilma”[12]; (3) “bilimlarni tashkil etish va saqlashning asosiy birligi bo‘lib, u jamiyat va madaniyat ta’sirida shakllangan individual va jamoaviy tajribani o‘zida mujassamlashtiradi”[13]; (4) “madaniy jihatdan belgilangan, ko‘p qatlamli mental tuzilma bo‘lib, u jamoa ongi va individual ongda mavjud bo‘lgan, lisoniy vositalar orqali voqelanadigan bilim birligi”[14]. O‘z o‘rnida, ushbu ta’riflar asosida quyidagicha umumlashma hosil qilishimiz mumkinki, konsept – jamiyat yoki millat madaniyati, qadriyatlari, qarashlari hamda tajribalarini o‘zaro mushtaraklikda namoyon qiluvchi o‘ziga xos mental tuzilmadir.

Xususan, o‘zbek olimi Sh.Safarovning ta’kidlashicha, “konsept ham tafakkur birligi va uning asosida tushuncha, obraz va lisoniy ma’no umumlashmasi yotadi. Konseptning shakllanishi individual obraz tug‘ilishidan boshlanib, lisoniy birlikning paydo bo‘lishi bilan tugaydi”[15]. Bu holat konsept o‘zida tafakkur va idrokning har tomonlama mukammal uyg‘unligi asosida shakllangan tushuncha, obraz va lisoniy ma’no umumlashmasining hosilasi o‘laroq konseptning o‘ziga xos murakkab tabiatini bevosita namoyon qiladi. Yuqoridagi ta’riflar asosida umumlashtirib aytishimiz mumkinki, konsept nazariyasi kognitiv lingvistikaning fundamental nazariy asosi bo‘lib, u til va tafakkur munosabatlarini yangicha nuqtayi nazardan o‘rganish imkonini beradi. Konsept tushunchasining turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilinishi esa bu hodisaning murakkab va ko‘p qirrali ekanligini ko‘rsatadi.

Konsept nazariyasining uzluksiz va uzviy taraqqiyoti fanda unga oid tadqiqot metodlarining ham yaratilishiga turtki bo‘ldi. Ayniqsa, amerikalik kognitiv tilshunoslar J.Lakoff va M.Jonson konseptual tahlilda

7 Lakoff G. Women, fire, and dangerous things: What categories reveal about the mind. – Chicago: University of Chicago Press, 1987. – pp. 281-282.

8 Langacker R.W. Foundations of cognitive grammar. Vol 2: Descriptive application. – Stanford: Stanford University Press, 1991. – pp. 2-3.

9 Talmy L. Toward a cognitive semantics. Vol. 1: Concept structuring systems. – Cambridge, MA: MIT Press, 2000. – pp. 4-6.

10 Evans V. How words mean: lexical concepts, cognitive models and meaning construction. – Oxford: Oxford University Press, 2009. – pp. 74-77.

11 Kubryakova Y.S., Demyankov V.Z., Pankras Y.G., Luzina L.G. Kratkiy slovar kognitivnix terminov. – Moskva: Moskovskiy gosudarstvenniy universitet imeni M.V.Lomonosova, 1996. – C. 90–93.

12 Maslova V.A. Kognitivnaya lingvistika. – Minsk: TetraSistems, 2004. – C. 46–48.

13 Болдырев Н.Н. Введенийе в когнитивную лингвистику. – 4-е изд., испр. и доп. – Тамбов: Тамбовский государственный университет имени Г.Р. Державина, 2014. – С. 39–42.

14 Карасик В.И. Язиковая спирал: сенности, знаки, мотиви. – Волгоград: Парадигма, 2017. – С. 52–56.

15 Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – B. 17.

neyrokognitiv yondashuvning muhimligini ta'kidlab, konseptlarni "asab tuzilmalari" sifatida o'rganish metodikasiga alohida e'tibor qaratishdi. Bu esa konseptual tahlilni nafaqat lingvistik, balki neyrofiziologik aspektda ham olib borish zarurligini ko'rsatadi[16]. Rus olimlari Z.D.Popova va I.A.Sternin konseptual tahlil metodologiyasi bo'yicha muhim tadqiqotlar olib borishdi. Natijada ular konseptual tahlilning kognitiv-semantik asoslarini ishlab chiqib, "insonning bilish faoliyati natijasida shakllangan" tafakkur birliklarini o'rganish metodikasini taklif etishdi[17]. Bu borada rus olimasi M.V.Pimenova quyidagicha muhim fikrini bildirgan: "Konseptlarni tadqiq etish metodikasi... konseptlarning u yoki bu xususiyatlarini obyektivlashtiruvchi konstruksiyalar ma'nosini talqin qilishda; ko'plab konseptlarga xos bo'lgan taksonomik xususiyatlarni aniqlashda va bu xususiyatlar bo'yicha o'rganilayotgan konseptlarning umumiy tipologik belgilarini aniqlashda; keyin – ular asosida – konseptlarning xususiyatlarini umumlashtirish, shuningdek taqqoslanayotgan tillardagi o'rganilayotgan konseptlarning aktuallashuv konseptual strukturalari, kognitiv modellari va til sxemalarini ajratishda namoyon bo'ladi"[18]. Aslini olganda, konseptual tahlil metodlari nafaqat konseptning turli xususiyatlarini chuqurroq o'rganish, balki inson tafakkurining qanchalik ma'no-mazmun va sir-sinoatga boy ekanligini tasdiqlaydi.

Ayni muddao bilan kognitiv lingvistika taraqqiyotida konseptual tahlil metodlari doirasida (1) komponentlarga ajratish – tushunchani asosiy elementlarga bo'lish va ularning o'zaro aloqalarini aniqlash (nemis faylasufi G.V.Leybnis boshlab bergan va ingliz faylasuflari B.Rassel va J.E.Mur tomonlaridan takomillashtirilgan); (2) kategorizatsiya – tushunchalarni umumiy belgilari asosida guruhlash va tasniflash (Aristotel bilan boshlangan kategoriyalar nazariyasi amerikalik olima E.Rosh tomonidan rivojlantirildi); (3) semantik tahlil – tushunchaning ma'no va mazmunini, boshqa tushunchalar bilan bog'liqligini o'rganish (nemis faylasufi G.Frege tomonidan boshlanib, nemis tili faylasufi R.Karnap izlanishlari asosida rivoj topgan); (4) lingvistik tahlil – tushunchaning til birliklari orqali ifodalanishini tekshirish (shveysariyalik tilshunos F. de Sossyur struktural lingvistikaga asos soldi va amerikalik tilshunos N.Xomskiyning transformatsion grammatika nazariyasi bilan taraqqiy topdi); (5) kontekstual tahlil – tushunchaning turli kontekstlarda qo'llanilishini ko'rib chiqish (avstriyalik faylasuf va mantiqshunos L.Vitgenshteyn va ingliz tili faylasufi J.L.Ostin tomonlaridan pragmatik tilshunoslik doirasida rivojlantirilgan) kabilar ishlab chiqildi.

Shuningdek, kognitiv tilshunoslikda konseptlarning turli tasniflari mavjud. Xususan, J.Lakoff konseptlarni kategoriyalash asosida tasnif qilib, ularning ikki asosiy turini ajratadi: (1) bazaviy darajadagi konseptlar (basic level concepts); (2) yuqori va quyi darajadagi konseptlar (superordinate and subordinate concepts)[19]. Y.S.Kubryakova rahbarligidagi olimlar guruhining "Kognitiv terminlar qisqa lug'ati" ("Краткий словар когнитивних терминов")da konseptning quyidagi turlari ajratiladi: (1) reprezentativ konseptlar – predmet va hodisalarning mental obrazini aks ettiruvchi konseptlar; (2) sezgi-taassurot konseptlari – hissiy tajribani umumlashtiruvchi konseptlar; (3) tushuncha-konseptlar – mantiqiy fikrlash natijasida shakllanadigan konseptlar[20]. Mazkur

16 Lakoff G., Johnson M. Philosophy in the flesh: The embodied mind and its challenge to western thought. – New York: Basic Books, 1999. – 624 p.

17 Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. – Москва: АСТ: Восток-Запад, 2007. – 314, [6] с.

18 Пименова М.В. Душа и дух: особенности консептуализации. – Кемерово: ИПК Графика, 2004. – С. 20.

19 Lakoff G. Women, fire, and dangerous things: What categories reveal about the mind. – Chicago: University of Chicago Press, 1987. – pp. 281-282.

20 Кубрякова Й.С., Демянков В.З., Панкрас Й.Г., Лузина Л.Г. Краткий словар когнитивных терминов. – Москва: Московский

turdagi konsept tasniflari inson tafakkuri va idrokida olamning lisoniy manzarasi qay darajada va koʻlamda oʻz aksini topishini aniq hamda chuqur tadqiq etishga yoʻl ochdi, desak mubolagʻa boʻlmaydi. Qolaversa, tilni oʻzlashtirish va ishlatish jarayonida miyada shakllanadigan soʻzlar jamlanmasi mental leksikon hisoblanadi, ya'ni u soʻzlarning ma'nosi, talaffuzi, imlo qoidalari va qoʻllanilishi haqidagi ma'lumotlarni oʻz ichiga oladi.

Oʻz navbatida, R.U.Langaker mental leksikon va konsept munosabatini tahlil qilar ekan, konseptni "mental leksikonning asosiy birligi" sifatida talqin qiladi va uning (1) mental leksikonning tuzilishini belgilashi; (2) lisoniy birliklarning ma'no strukturasini shakllantirishi; (3) bilimlarni tashkil etish va saqlashda muhim rol oʻynashi[21] kabi muhim xususiyatlarini qayd etdi. Shunga koʻra, mental leksikon va konsept munosabalarining bevosita ajralmas munosabati konseptlarning muayyan tartib asosida inson ongida tizimlashtirilishi hamda tasniflanishi uchun zamin yaratadi. Binobarin, V.Evans leksik konseptlar nazariyasini ishlab chiqib, ularning quyidagi jihatlarini ta'kidladi: (1) leksik konseptlar til va tafakkur oʻrtasidagi bogʻlovchi vazifasini bajaradi; (2) ma'no shakllanishida asosiy rol oʻynaydi; (3) tajriba asosida shakllanadi va rivojlanadi[22]. Koʻrib turganimizdek, leksik konseptlar til va tafakkur oʻrtasidagi har tomonlama muhim vosita vazifasini bajarib, insonning hayoti davomida orttirib boruvchi tajribalari asosida rivoj topib boradi.

Oʻz oʻrnida qayd etishimiz joizki, lisoniy birlik sifatida shakllanish jarayonining yakuniy bosqichiga etgan konseptlar kategoriyalarga ajratiladi. Bu borada, misol uchun, J.Lakoff konsept va kategoriyalash munosabatini chuqur oʻrganib, (1) konseptlar kategoriyalashning asosiy vositasi hisoblanadi; (2) kategoriyalash jarayonida konseptlarning iyerarxik tizimi shakllanadi; (3) konseptual kategoriyalar prototip asosida tashkil topadi kabi xulosalarga kelganligini oʻz ilmiy asarida[23] qayd etdi. Bundan tashqari, amerikalik tilshunos L.Talmi konseptual strukturalarning kategoriyalashdagi rolini tahlil qilib, ularning (1) tajribani tashkil etish va saqlash; (2) bilimlarni sistemalashtirish; (3) yangi ma'lumotlarni mavjud bilimlar tizimiga integratsiya qilish funksiyalarini ajratdi[24]. Bu holatda kategoriyalash inson tafakkurida konseptlarning nafaqat iyerarxik tizimlashtirilishiga, balki konseptlar oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik zanjirining mustahkamlanishiga zamin yaratadi. Bogʻlovchi zanjirning mustahkam boʻlishi, yuqorida aytib oʻtib oʻtganimizdek, muayyan tartib asosidagi tizimga bogʻliqdir. Masalan, R.Jekendoff konsept shakllanishining kognitiv asoslarini oʻrganar ekan, bu jarayonning (1) sezgi organlari orqali axborot qabul qilish; (2) qabul qilingan axborotni kategoriyalash; (3) mavjud bilimlar tizimi bilan integratsiya; (4) uzoq muddatli xotirada saqlash bosqichlarini[25] ajratdi. Mazkur bosqichlarning ketma-ketlikda amalga oshishi ichki omillar qatorida bevosita tashqi omillarga ham bogʻliqdir. Bu borada Y.S.Kubryakova va ayni masalada tadqiqot olib borgan boshqa olimlarning ta'kidlashicha, konsept shakllanishida (1) bevosita tajriba; (2) bilish faoliyati; (3) til oʻzlashtirish jarayoni; (4) madaniy muhit ta'siri kabi omillar muhim rol oʻynaydi. Shunday qilib, konsept nafaqat lingvistik, balki kognitiv, psixologik va madaniy hodisa sifatida namoyon boʻladi. Uning

государственний университет имени М.В.Ломоносова, 1996. – С. 90–95.

21 Langacker R.W. Foundations of cognitive grammar. Vol 2: Descriptive application. – Stanford: Stanford University Press, 1991. – pp. 2–5.

22 Evans V. How words mean: Lexical concepts, cognitive models, and meaning construction. – Oxford: Oxford University Press, 2009. – pp. 74–77.

23 Lakoff G. Women, fire, and dangerous things: What categories reveal about the mind. – Chicago: University of Chicago Press, 1987. – pp. 281-282.

24 Talmy L. Toward a cognitive semantics. Vol. 1: Concept structuring systems. – Cambridge, MA: MIT Press, 2000. – pp. 4–6.

25 Jackendoff R.S. Languages of the mind: Essays on mental representation. – Massachusetts: The MIT Press, 1992. – pp. 28–31.

shakllanishi va rivojlanishi murakkab jarayon bo‘lib, unda turli omillar ishtirok etadi.

Xulosa sifatida ta’kidlashimiz joizki, kognitiv lingvistikada konsept nazariyasi fundamental ahamiyat kasb etib, til va tafakkur munosabatlarini yangicha nuqtayi nazardan o‘rganish imkonini beradi. Konseptning shakllanishi va rivojlanishida lisoniy, kognitiv, psixologik va madaniy omillar o‘zaro mushtarak amal qiladi. Konsept nazariyasi doirasida komponentlarga ajratish, kategoriyalash, semantik, lingvistik va kontekstual tahlil kabi metodlar ishlab chiqildi. Mental leksikon va konsept munosabati, konseptlarning kategoriyalashdagi o‘rni, ularning shakllanish bosqichlari chuqur o‘rganildi. Zamonaviy tilshunoslikda konsept nazariyasi asosiy metodologik baza sifatida xizmat qilib, bu esa insonning bilish jarayonlari, tafakkur tizimi va til o‘rtasidagi munosabatlarni teranroq anglash imkoniyatini bermoqda. Sohada olib borilayotgan tadqiqotlar nafaqat nazariy tilshunoslik rivojiga, balki madaniyatlararo muloqot, tarjima nazariyasi va amaliyoti, til o‘qitish metodikasi kabi amaliy sohalarga ham muhim hissa qo‘shmoqda.

INGLIZ TILIDA ENERGETIKAGA OID BIRLIKLARNING SINTAKTIK USULDA YASALISH TADQIQI

Zebo Meliyevna Nizomova – tayanch doktorant,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

***Annotatsiya**: Ushbu maqola ingliz tilidagi elektroenergetikaga oid terminologik birliklarning sintaktik usulda yasalishini o'rganishga bag'ishlangan. Unda yasalish modellarining shakllari (masalan, NNN, ANN, V-edNN) bir nechta misollar orqali ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ko'p komponentli termin-birikmalar, jumladan, to'rt komponentli (NNNN, V-edNNN) modellari ham o'rganilgan. Maqolada sintaktik usulning samaradorligi va atama yaratishda qo'llanishi bo'yicha xulosalar keltirilgan.*

***Аннотация**: Эта статья посвящена изучению синтаксического способа образования терминологических единиц в области электроэнергетики на английском языке. Рассматриваются формы моделей образования (например, NNN, ANN, V-edNN) с использованием нескольких примеров. Кроме того, анализируются многокомпонентные терминологические сочетания, включая четырехкомпонентные модели (NNNN, V-edNNN). В статье представлены выводы об эффективности синтаксического метода и его применении в создании терминов.*

***Abstract**: This article is devoted to the study of the syntactic formation of terminological units in the field of electrical power engineering in English. It examines the structures of formation models (e.g., NNN, ANN, V-edNN) through several examples. Additionally, multi-component term combinations, including four-component models (NNNN, V-edNNN), are analyzed. The article concludes with findings on the effectiveness of the syntactic method and its application in term creation.*

***Kalit so'zlar**: elektroenergetika, terminologiya, sintaktik usul, atama yaratish, so'z birikmalari, ko'p komponentli birliklar, ikki komponentli termin, uch komponentli termin, to'rt komponentli termin, yasalish modeli.*

***Ключевые слова**: электроэнергетика, терминология, синтаксический метод, создание терминов, словосочетания, двухкомпонентные термины, трехкомпонентные термины, четырехкомпонентные термины, модель образования.*

***Keywords**: power engineering, terminology, syntactic method, term formation, multi-word terms, two-component terms, three-component terms, four-component terms, formation model.*

Elektroenergetika sohasida ilmiy va texnik bilimlarning rivojlanishi bilan birga, ushbu sohaga oid maxsus terminlarning yaratilishi va tizimlashtirilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayon texnikaviy tushunchalar va jarayonlarni aniq ifodalash hamda xalqaro muloqotni osonlashtirish uchun zarur. Ingliz tilida elektroenergetikaga oid terminologiyaning shakllanishida sintaktik usul muhim o'rin tutadi. Sintaktik usul – bu termin yaratishda mavjud so'z va birikmalardan foydalanib yangi atamalar hosil qilishning samarali usuli hisoblanadi[1].

Mazkur maqolada elektroenergetikaga oid tanlangan lug'atdagi atama va terminologik birikmalar asosida sintaktik usulning tahlili amalga oshirilgan. Unda ikki va uch komponentli birikmalarning eng keng tarqalgan modellari, ularning yasalish tamoyillari va foydalanish chastotasi o'rganilgan. Bundan tashqari, kam uchraydigan, lekin ilmiy terminologiyani boyituvchi noyob modellarga ham e'tibor qaratilgan.

Tadqiqotimizning maqsadi elektroenergetika sohasidagi terminlar yaratishda sintaktik usulning samaradorligini baholash, keng tarqalgan va noyob yasalish modellari orasidagi nisbatni aniqlashdir. Bu elektroenergetika va texnik tarjima sohalarida ishlovchi mutaxassislar uchun amaliy ahamiyatga ega. Shuningdek, ushbu tahlil boshqa texnik sohalar uchun umumiy

1 Sager, J.C. Term formation // Handbook of terminology management. Sue Ellen Wright & Gerhald Budin (eds.). Amsterdam: John Benjamins, 1997. p.25.

termin yaratish tamoyillarini aniqlashda ham foydali bo‘lishi mumkin.

S.V.Grinev- Grinvichning ta’kidlashicha, sintaktik usul termin yaratishda eng samarali metodlardan biri bo‘lib, turli Yevropa tillaridagi terminologiyalarda atamalar 60% dan 95% gacha ushbu usul bilan hosil qilinadi[2]. Elektroenergetika kabi texnik sohalarda aniq va izchil terminologiya muhim, chunki u ilmiy hamda amaliy faoliyatni osonlashtiradi va xalqaro standartlarga moslashtiradi[3].

Zamonaviy elektroenergetika terminologiyasida sintaktik usulni o‘rganish uchun biz ingliz tilidagi atama va terminologik birikmalardan iborat lug‘atni tahlil qildik, xuddi morfologik usullarni o‘rganishda bo‘lgani kabi.

B.N. Golovin va R.Y.Kobrinning grammatik tasnifiga ko‘ra, odatda, atamalar ikkita asosiy turga ajratiladi: bir so‘zli atamalar va so‘z birikmalaridan tashkil topgan atamalar[4].

Dastlabki tahlilimizni bir so‘zli atamalardan boshlaymiz. Ma’lumki, bir so‘zli atamalar bitta so‘zdan iborat bo‘lib, ular energetikaga oid barcha lug‘atlarning deyarli 70 foizini tashkil qiladi. Bir so‘zli atamalar morfemalarning tuzilishiga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi[5]:

Sodda so‘zlar (produktiv bo‘lmagan). Bu kabi so‘zlar sodda so‘zdan tashkil topgan bo‘lib, ularga hech qanday qo‘shimcha qo‘shilmaydi, masalan: alam – avariya holati, bus – shinalar (elektr sim), bodi – (qism), approach — (yondashuv, farq, usul)

Yasama so‘zlar. Bu kabi birliklar bir nechta morfemalardan tashkil topgan bo‘lib so‘z yasashga xizmat qiladi, misol uchun: alternator – (elektr energiya ishlab chiqaruvchi qurilma), amendment – (tuzatish, to‘g‘rilash, o‘zgarish).

Navbatdagi sintaktik tur so‘z birikmalaridan tashkil topgan atamalar bo‘lib, ular bir nechta so‘z (tarkib)larning birikishidan hosil bo‘ladi. Quyida ularning bir nechta yasalish shakllarini ko‘rib chiqamiz.

Terminologik birikmalarda fe’l birinchi element sifatida ishlatiladigan VN (fe’l+ot) shakli. Ammo shuni ham ta’kidlash kerakki, bu shakl kam uchraydi. Masalan: disconnect switch – ajratkich, retain file – saqlangan fayl, save case – saqlash va o‘rganish uchun mo‘ljallangan ma’lumotlar nusxasi.

S.V.Grinev-Grinevich kam uchraydigan quyidagi shakllarning mavjudligini ham qayd etadi:

1. must-V/N, masalan:

must-run generator – majburiy ishlash rejimidagi generator,

must-run condition – majburiy ish rejimi.

2.Adj-N/N, masalan:

real-time database – real vaqt rejimidagi ma’lumotlar bazasi,

real-time nucleus – real vaqt yadrosi.

Ikki tarkibli terminlarda ba’zida qisqartmalar ishlatiladi. Misollar:

V schedule – kuchlanish jadvali,

lagging MVAr – reaktiv quvvatni iste’mol qilish rejimi.

Bundan tashqari predlogli ikki komponentli birikmalarni ham energetikaga oid leksik birliklar qatorida ko‘rishimiz mumkin, masalan:

in service – yuk ostida ishlayotgan (PrepN),

2 Гринев-Гриневич С.В. Терминоведение: учеб. пособие для студ.выс. заведений. М.: Академия, 2008. 304 с.

3 Шелов С. Д. Термин. Терминологичность. Терминологические определения. СПб.: Изд-во филол. ф-та СПбГУ, 2003. 277 с.

4 Головин Б.Н., Кобрин Р.Ю. Лингвистические основы учения отерминах: учеб. пособие для филол. спец. вузов. М.: Высш. шк., 1987. 104 с

5 Максимова Н. В. Современная электроэнергетическая терминология: структурный и семантический аспекты //М.: МГОУ. – 2020. 74 с.

ramping up/down – yuklash/yukni tushirishni tartibga solish (VPrep).

Ikki tarkibli termin-birikma tuzilmasida har doim ikkinchi element asosiy yoki tayanch hisoblanadi, birinchi element esa unga aniqlovchi xususiyat yoki sifat beradi.

Tarkibiga uchta komponentni olgan birikmalarga uch komponentli termin-birikmalar deb ataladi[6]. Aksariyat uch komponentli birikmalar ikki komponentli terminlarga asoslanib hosil qilingan. Masalan:

ancillary service market – qo‘shimcha xizmatlar bozori

ancillary services – qo‘shimcha xizmatlar,

oad flow balance – oqim balansi

load flow – oqim.

Eng keng tarqalgan uch komponentli birikmalar modellarini ko‘rib chiqamiz:

NNN(Ot+ot+ot):

Accumulator data point – elektr energiyasini hisobga olish parametri,

accuracy threshold value – aniqlik chegarasi,

area control error – boshqaruv hududining xatosi.

ANN(Sifat+ot+ot):

Automatic generation control – avtomatik generatsiya boshqaruvi,

daily load curve – sutkalik yuklama grafigi,

optimal power flow – optimal oqim taqsimoti..

ParNN(sifatdosh+ot+ot):

Controlled network section – elektr tarmog‘ining boshqariladigan bo‘limi,

refined dispatch schedule – aniqlangan dispetcher jadvali.

AAN(Sifat+ot+ot):

Automatic supervisory control – avtomatik masofadan boshqaruv,

current-operating plan – joriy operatsion reja,

optimal transient stability – optimal dinamik barqarorlik.

VingNN(fe’l-ing+ot+ot):

Dispatching time interval – dispetcher vaqt oralig‘i,

generating plant schedule – stansiyalar ishlab chiqarish jadvali.

VedAN (Fe’l-ed+sifat+ot):

Calculated electrical scheme – hisoblangan elektr sxemasi,

parameterized mathematic model – parametrik matematik model.

Ko‘p komponentli terminologik birikmalar ikki yoki uch komponentli terminlarga qaraganda kam uchraydi.

To‘rt komponentli birikmalarning keng tarqalgan shakllari:

NNNN(ot+ot+ot+ot):

air power transmission line – havo elektr uzatish liniyasi,

energy market management system – elektr energiyasi bozori boshqaruv tizimi,

group generation control facilities – generatsiyani boshqarish guruh obyektlari,

power system network analysis – elektr tizimi tarmog‘ining tahlili,

standard equipment repair requests – jihozlarni ta’mirlash bo‘yicha standart so‘rovlar,

6 Besse, Nkwenti-Azeh, Sager. Glossary of terms used in terminology // Terminology. Amsterdam: John Benjamins B.V., 1997, Vol. 4:1. p. 117.

information storage and retrieval system – ma'lumotlarni saqlash va qayta olish tizimi.

V-edNNN (fe'l-ed+ot+ot+ot):

compressed air energy storage – siqilgan havo energiya akkumulyatori,

coordinated equipment repair schedule – ta'mir jadvalining muvofiqlashtirilishi.

ANNN (sifat+ot+ot+ot):

relational database management system – relyatsion ma'lumotlar bazasi boshqaruv tizimi,

short term load predictor – qisqa muddatli yuk prognozchisi.

AANN (sifat+sifat+ot+ot):

primary general power reserve – birlamchi umumiy zaxira,

relative incremental cost characteristics – nisbiy xarajat o'sishi xususiyatlari.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, mazkur tadqiqotda elektroenergetika sohasidagi ingliz tilidagi terminologik birikmalarning sintaktik usul yordamida shakllanishi tahlil qilindi. Tadqiqotda ma'lum bo'ldiki, elektroenergetika terminologiyasida ikki va uch komponentli birikmalar eng keng tarqalgan bo'lib, ular sintaktik usulning samaradorligini isbotlaydi.

So'z birikmalarining ikki komponentli turlari eng ko'p uchraydigan tur ekanligi bilan ustunlik qiladi va turli xil modellar asosida hosil qilingan. Eng keng tarqalgan modellar N+N va Adj+N bo'lib, ular ko'p hollarda terminologiyada aniq va ixcham ifodani ta'minlaydi. Uch komponentli terminologik birikmalar esa asosan ikki komponentli birikmalar asosida kengaytirilgan. Bu esa termin yaratishda mavjud atamalarni rivojlantirish va ularni chuqurlashtirish muhim ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida noyob va kam uchraydigan shakllar aniqlangan bo'lib, ular terminologiyani yanada boyituvchi omil sifatida qaraladi. Masalan, V-edNN, V-ingNN kabi modellar juda kam uchraydi, lekin texnik tushunchalarni aniq ifodalashda ahamiyatga ega. To'rt va undan ortiq komponentli birikmalar esa juda kam uchraydi va asosan maxsus texnik tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi.

Tadqiqot natijalari elektroenergetika terminologiyasini rivojlantirishda sintaktik usulning samaradorligini tasdiqlaydi. Bu usul nafaqat yangi terminlar yaratishga, balki mavjud terminlarni izchil tizimlashtirishga ham xizmat qiladi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, u elektroenergetika sohasidagi mutaxassislar va tarjimonlar uchun termin yaratish va foydalanish jarayonlarini osonlashtiradi. Shuningdek, bu usulni boshqa texnik sohalarda qo'llash uchun ham asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Mazkur tadqiqotning natijalari texnik terminologiyani standartlashtirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va ilmiy-texnik muloqotni rivojlantirish uchun foydali bo'ladi. Bu esa elektroenergetika sohasida aniq va samarali muloqotni ta'minlashga xizmat qiladi.

XALQ RIVOYATLARI VA HIKMATLI SO'ZLAR – O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHDA ILMIY MA'LUMOTLAR MANBAI SIFATIDA

Saodat Dilshodovna Fayzullayeva – tayanch doktorant,
Navoiy davlat universiteti

***Annotatsiya**: Ushbu maqolada o'quv jarayonini tashkil etishda tabiat bilan bog'liq xalq rivoyatlari va hikmatli so'zlardan foydalanishning amaliy ahamiyati hamda ularning astronomik ma'nolari keltirilgan. Maqolada keltirilgan ma'lumotlar o'quv jarayonining jozibadorligini oshirib, fanga oid o'quv adabiyotlaridagi mavzularni boyitish va mazmunan to'ldirishga xizmat qiladi.*

***Аннотация**: В данной статье рассматривается организация учебного процесса при использовании народного повествовании и слов мудрости, связанные с природой, также приведено их астрономический смысл. Приведенные сведения увеличивается привлекательность науки, обогащает и заполняет учебных литератур ценными материалами.*

***Abstract**: This article examines the organization of the educational process using folk narratives and words of wisdom related to nature, and also gives their astronomical meaning. The information provided increases the attractiveness of science, enriches and fills the educational literature with valuable materials.*

***Kalit so'zlar**: pedagog, o'qitish, o'qitish texnologiyasi, xalq rivoyati, Oy, to'linoy, Quyosh, nurlanish, harakat, aylana, ekliptika, sutka, yil, hikmatli so'z.*

***Ключевые слова**: педагог, обучения, технология обучении, народное повествование, Луна, полнолуние, Солнце, излучения, движения, круг, эклиптика, сутка, год, слово мудрости.*

***Keywords**: teacher, teaching, teaching technology, folk story, moon, full moon, sun, radiation, movement, circle, ecliptic, day, ear, word of wisdom.*

Hozirgi kunda ilm–fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiya sohalarining taraqqiyoti jamiyatimiz qiyofasini belgilab bermoqda, bu esa malakali, etuk va raqobatbardosh kadrlarni jamiyatga etkazib berishni taqozo etadi. Oliy ta'limda talabalarga an'anaviy tarzda, ya'ni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatish yaxshi natija bermaydi va bu usul talabalarda mustaqil fikrlash, ishlash, ijodiy izlanish, tashabbus ko'rsatish qobiliyatlarini rivojlantirishga katta imkoniyatlar bermasligi aniq.

Endilikda fan, texnika va texnologiyalarning rivojlanishi natijasida o'quv-tarbiya jarayonida ta'limning innovatsion, noan'anaviy, individual pedagogik texnologiyalaridan foydalanib, ta'limning sifat samaradorligini ko'tarish davr talabiga aylanmoqda. Ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan o'quv mashg'ulotlari egallanayotgan bilimlarni talabalar tomonidan o'zlari qidirib topishlari, mustaqil o'rganib, ularni tahlil qilishlari, o'z bilimlarini baholashlari, to'g'ri xulosalar chiqarishga qaratilgan. Professor-o'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga, shuningdek, erkin fikrlab kursdoshlari bilan o'zaro hamkorlikda ishlash va harakat qilishlariga sharoit yaratadi, shunda talaba o'quv-tarbiya jarayonida ishtirokchiga aylanadi[1].

Zamonaviy jamiyatning eng muhim o'ziga xos jihati uning barcha sohalarida globallashuvning ko'zga tashlanayotganligidir. Globallashuv o'z–

1 Kamolov I. R. "Oliy ta'limda o'quv jarayonini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida tshkil etish", bitiruv ishi. Toshkent,: 2016. -28 bet

o‘zidan tezkor harakatlanish, zarur axborotlarni tezda qo‘lga kiritish, ularni qayta ishlash va amaliyotga samarali tatbiq qilishni talab etadi. Bu tarzda harakatlanish imkoniyatiga o‘z sohasining bilimdoni bo‘lgan, kasbiy malakalarni yuqori darajada egallay olgan, boy tajriba va mahoratli kadrlargina ega bo‘ladilar. Yuksak malakali kadrlarni tayyorlashda esa ushbu jarayonning asosiy ishtirokchilari bo‘lgan–oliy ta’lim muassasalari (OTM) pedagoglarining kasbiy kompetentlik hamda kreativ qobiliyatga egaliklari alohida dolzarblik kasb etadi. OTM pedagoglarining kasbiy kompetentligi, kreativ qobiliyatga egaligi mehnat bozorida yuzaga kelgan kuchli raqobatga bardoshli kadrlarni tayyorlashda ustuvor o‘rin tutishini belgilaydi.

Demak, pedagoglar o‘zlarining kasbiy faoliyatini tashkil etishda kompetentlik sifatlari va kreativlik qobiliyatini izchil o‘zlashtirib borishga alohida e’tibor qaratishlari zarur. Sifatli ta’limning asosiy maqsadi – ta’lim oluvchilarda kelajakka mas’uliyat hissini va o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchni shakllantirishdir. Shunday ekan, tashkil etilayotgan har bir dars mashg‘uloti mazmunan, ma’nan boy bo‘lishi, talabaning shaxsiy, ijodiy faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilishi shart va lozimdir. Ta’limda yuqori sifat va samaradorlikka erishishda o‘qitishning noan’anaviy usullardan, ya’ni zamonaviy pedagogik texnologiyaning turli usullaridan dars mavzusiga mos foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Biz quyida astronomiya fanini o‘qitishni mavzuga oid xalqimiz orasida ishlatilib kelinayotgan ilmiy-milliy meroslardan, ya’ni rivoyat va ibratli so‘zlardan foydalangan holda tashkil etishni lozim topib, ularning astronomik ma’nolarini ilmiy hamda fan nuqtayi-nazardan tahlilini keltiramiz:

Vaqt haqidagi hikmatli so‘zlar:

Vaqtni yo‘qotish uning qadriga etadigan kishilar uchun har narsadan og‘irdir;

Vaqt barcha moyillik, his va aloqalarning tekshirish o‘lchamidir;

Dunyodagi hamma narsa yo‘qolib ketsa ham, Koinot va vaqt qoladi;

Vaqt – bu aqliy mehnat kishisining kapitali;

Vaqt qadriga etmagan mashhur bo‘la olmaydi;

Vaqting ketdi, naqting ketdi...

Insonda vaqtni o‘lchashga juda qadimdan ehtiyoj paydo bo‘lgan. Vaqtni qadrlab, uni kun davomidagi yumushlar uchun to‘g‘ri taqsimlashga harakat qilishgan. Hozirgi kunda ham vaqtni to‘g‘ri taqsimlash kunlik ishlarning bajarilish sifati va samaradorligiga ta’sir etishi e’tirof etib kelinmoqda. Quyoshli kunlarda ixtiyoriy jismning soyasi turli vaqtda turlicha holatlarda bo‘lishi va uzunligini o‘zgartirib turishini bilgan kishilar soyaning bu xususiyatidan foydalanib, undan vaqtni o‘lchash uchun foydalanganlar. Astronomiyada vaqtni o‘lchashning ikki turi mavjud: qisqa vaqt oraliqlarini o‘lchash va katta vaqt oraliqlarini o‘lchash. Vaqtni o‘lchashda dastlab, soat degan moslamalardan foydalanganlar (qum soat, suv soat, Quyosh soat...). Vaqt o‘tishi bilan bu moslamalar asta-sekin takomillashib, (o‘lchash chegarasining oshishi, aniqlik darajasining oshishi) bugungi kunda asbob darajasiga etib keldi. Soat vaqtning qisqa oraliqlarini o‘lchashga mo‘ljallangan bo‘lib, hozirgi kunda ularning aniqlik darajasi 0,001 sekundga (elektron soat) teng.

Vaqtning qisqa oraliqlarini o‘lchashda asosiy birlik sifatida Yerning o‘z o‘qi atrofida bir marta to‘la aylanib chiqish davri – sutka olinadi. Sutkaning hisob boshi qilib osmon sferasida tanlangan nuqtaning osmon meridianidan o‘tish payti olinadi. Demak, vaqtning sutka o‘lchov birligi osmon jismlarining harakatiga bog‘liq ekan.

Vaqtning katta oraliqlarini o‘lchashda esa, taqvimlar degan moslamalardan foydalanamiz. Taqvim tuzishda Oy fazalarining almashinish davri yoki yil fasllarining almashinish davri

(tropik yil) asos qilib olinadi. Oy fazalarining almashinish davri (sinodik davr) asos qilib olingan taqvimlar Oy taqvimi deb, yil fasllarini almashinish davri asos qilib olinganlari esa Quyosh taqvimi deb yuritiladi.

Oy fazalarining almashinish davri, ya'ni sinodik oy (bu Oyning Yer atrofini bir marta to'la aylanib chiqishi uchun ketgan vaqt) 29,53 sutkaga, yil fasllarining almashinish davri, ya'ni tropik yil (bu Yerning Quyosh atrofini bir marta to'la aylanib chiqishi uchun ketgan vaqt) esa 365, 2422 sutkaga teng bo'lib, bular butun sutkalarda ifodalana olmasligi taqvimlar tuzishni ancha mukammallashtiradi. Chunki taqvim oyi ham yili ham amalda butun sutkalarda ifodalashni talab etadi. Bu talablar biz ishlatib kelayotgan taqvimlarda to'la inobatga olingan[2].

Vaqt fizika asosiy ettita fizik kattalikdan biri bo'lib, u tabiatda kechadigan hodisa va jarayonlarning uzluksizligini (ketma-ketligini) ifodalaydi. Shunday ekan, vaqt bo'lmasa, tabiatdagi hech bir hodisa yoki jarayonning kuzatilish imkoniyati yo'q. Shu jihati bilan vaqt o'ta qadrlidir.

Quyosh nurlarini berkitib bo'lmaganidek, haqiqatning chirog'ini so'ndirib bo'lmaydi.

Xalqimiz orasida "haqiqat egiladi, bukiladi, lekin hech qachon sinmaydi" degan hikmatli so'z ham bor. Bu so'zni Quyosh nurlarini yashirib bo'lmaslik bilan qiyoslanyapti, haqiqatan-da bu to'g'ri fikrdir.

Astronomik o'lchamlar bo'yicha Quyoshgacha bo'lgan masofa unchalik katta emas, undan sochilgan yorug'lik nurlari bor yo'g'i 8,33 minut (aniqrog'i 500 sekund) da Yerga etib keladi. Agar yorug'lik tezligini sekundiga 300 ming kilometrga tengligini inobatga olsak, u holda Quyosh va Yer orasidagi masofa 150 million kilometr ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Shunday ekan, Quyoshdan kelayotgan yorug'lik nurlarini berkitishni umuman imkoniyati mavjud emas.

Butun dunyo xalqlarining dini, afsona va hikoyalarida, rivoyat-u ertaklarida Quyosh doimo alohida o'rin tutib kelgan. Ming yillar davomida Quyosh tekshirish obyekti sifatida emas, balki sig'inish obyekti bo'lib sanalgan. Quyosh sharsimon shaklda bo'lib, u o'zidan barcha tomonga ulkan energiya sochadi. Hozirgi zamon fani o'lchashlariga ko'ra, Quyosh Yerning bir kvadrat yuzasi (atmosferadan tashqarida) ni 1365 W quvvat bilan yoritadi va isitadi hamda erdagi hayotni ta'minlab turadi.

Quyoshning nurlanishiga asosiy sabab, undagi haroratning yuqoriligidir. Ma'lumki, har qanday yuqori haroratli jism nurlanadi. Quyosh sirtida harorat 6000 K va u bosim va zichlik bilan birgalikda markaz tomon ortib boradi. Quyosh markazida harorat 15ЧQuyoshdek beg'ubor.

Bu gap xalq orasida insonning orzu-niyatlari sof va toza bo'lishini istab aytiladi yoki biror kishi tomonidan birovga bildirilgan tilak va istaklarda namoyon bo'ladi. Shuningdek, bolalikni ham g'uborsiz quyoshga o'xshatishadi.

Oddiy ko'z bilan g'ubor (chang, gaz)ni olis masofada ko'rish mumkin emas. Quyosh ham bizga yaqin ko'ringani bilan, yuqorida qayd etilganidek, bizning Yer sayyoramizdan 150 million kilometr masofa joylashgan. Shu bois, biz Quyosh sirti (fotosferasi) da sodir bo'layotgan fizik-kimyoviy jarayonlarni oddiy ko'z bilan ko'ra olmaymiz.

Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi.

Xalq orasida ushbu gap inson tomonidan yo'l qo'yilgan noto'g'ri ish, noto'g'ri faoliyat yashirilgan vaqtda yoki biror inson tomonidan aytilgan yolg'on fikr yoki ish oshkor bo'lganda aytiladi.

Bizning Yer sayyoramizga eng yaqin bo'lgan osmon jismi Oy bo'lib, u erning tabiiy yo'ldoshi

2 Kamolova D.I. Ommabop astronomiya. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Lider Press,: 2009. -56 bet

hamdir. Shuningdek, Oy inson qadami etgan yagona osmon jismidir. Oy doimiy ravishda er atrofida aylanaga yaqin (ellips) bo'lgan trayektoriya bo'ylab harakatlanadi. Aslida Oy osmonda bizga yaqin bo'lib ko'rinsa-da, u ancha uzoqda joylashgan. Yer va Oy orasidagi o'rtacha masofa 384400 kilometrga teng. Oyning er atrofidagi harakati aynan aylana bo'lmaganligi sabab, u erga yaqinlashib (363400 kilometr) ham, uzoqlashib (405400 kilometr) ham turadi. Shuning uchun, inson harakatlanganda (biror transport vositasida bo'lganda ham) go'yoki Oy uni doimo ta'qib etayotgandek tuyuladi.

Yulduzlarni ham qorong' u tushgandagina ko'rish mumkin.

Bu so'z xalqimiz orasida har qanday qilingan ezgu ishlar, insondagi iqtidor birdan ko'rinmaydi, u ham qandaydir vaqtni talab etadi, degan ma'noda ishlatiladi.

Yulduzlar koinotda eng ko'p tarqalgan samoviy jismlar hisoblanadi. Bizlar kechki osmon sferasida oddiy ko'z bilan jami 6000 ta yulduzni, bir vaqtning o'zida esa 3000 ta yulduzni ko'ra olamiz. Chunki, erning shimoliy yarim sharida yashayotganlar Janubiy yarim sharda ko'rinadigan yulduzlarni, janubiy yarim sharda yashayotganlar Shimoliy yarim sharda ko'rinadigan yulduzlarni ko'rib bilmaydi. Optik asboblar yordamida milliardlab yulduzlarni osmon sferasida kuzatish mumkin. Yulduzning hammasi Quyosh kabi, bag'rilaridan nihoyatda ko'p energiya ajralib chiqarayotgan nurlanuvchi cho'g'langan gaz (plazma) sharlardir[3]. Ammo yulduzlar, bizdan juda olisda, bo'lganliklari uchun hatto eng kuchli teleskoplar yordamida ham, atigi nurlanayotgan nuqtalar shaklidagina ko'rinadi.

Kunduzgi osmon sferasida yulduzlarni ko'ra olmaymiz, chunki Quyosh bizga yaqin bo'lganligi sabab, uning yorqinligi yulduzlarnikiga nisbatan o'ta katta. Aslida yulduzlar osmon sferasida doimiy bo'ladi. Agar biz 11÷12 metr chuqurlikdan turib osmonga qarasak, unda yulduzlarni bemalol ko'ramiz. Buni ham ajdodlarimiz oldindan bilishgan. Masalan, Samarqanddagi Mirzo Ulug'bek rasadxonasidagi asbob-sekstant ham, 11 metr chuqurlikda joylashgan va bu bilan ajdodlarimiz butun sutka davomida osmonni kuzatish imkoniyatiga ega bo'lganlar

Mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan har qanday islohotlar raqobatbardosh va yuqori darajada fikrlay oladigan kadrlar tayyorlashni maqsad qilib qo'ygan. Bu esa o'qitishni metodik nuqtayi nazardan yuqori pog'onaga ko'tarilishini taqozo etadi. Astronomiya fanini o'qitishda xalqimizning boy milliy-ilmiy meroslardan foydalanishimiz ham muhim ahamiyat kasb etadi[4].

Bu esa o'quv jarayonida ta'lim samaradorligini va sifatini oshirishga olib kelishini ta'minlaydi. roli ko'p qirralidir. O'ylaymizki, astronomiya fanini o'qitishda milliy-ilmiy meroslarning qo'llanilishi, ta'lim oluvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini, o'qitish jarayoniga jalb qilinishini, astronomiya fanini o'zlashtirish darajasini oshirish imkonini beradi. Buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy mohir pedagog sifatida pedagogik mahorat masalasida o'zining qator tavsiyalarini ishlab chiqqan. "O'qituvchini hamma narsaga o'rgatish" san'ati, tabiatga moslik, ta'lim oluvchilarning shaxsiy xususiyatini hisobga olish shular jumlasidandir. Beruniy: "Maqsad vaqtni cho'zish emas, balki ta'lim oluvchini zeriktirmaslik. Chunki doimo bir xil narsaga qarayverish malollik va sabrsizlikka olib keladi. Ta'lim oluvchi fandan fanga o'tib tursa, turli bog'larda yurganga o'xshaydi. Birini ko'rib ulgurmay boshqasi boshlanadi va u "Har bir yangi narsada o'ziga yarasha lazzat oladi", ularni ko'rishga qiziqadi va ko'zdan kechirishni istaydi.

3 Kamolov I.R., Kamolova D.I., Sayfullayeva G.I., Sattorov A.R., Barakayeva S.T., Narbayev A.B., Tillaboyev A.M. Umumiy astronomiya (darslik). – Termez: TerDU NMM., 2023. –B.67.

4 Ravshanova S.D. Astronomiya fanini o'qitishni milliy-ilmiy meroslardan foydalanib takomillashtirish metodikasi. (magistrlik dissertatsiyasi). – Navoiy: Navoiy DPI., 2023. –B.90.

Bir xil narsa charchatadi, "xotiraga malol keladi", deb yozgan edi. Beruniy o'qish jarayonida quruq yodlashni qoralaydi. U "Tushunish yodlashdan afzaldir" deb biladi.

Ushbu maqolada ham tabiat va inson hamda fanlararo bog'lanishga ham katta ahamiyat berilgan bo'lib, ta'lim oluvchining fanga nisbatan qiziqishining ortishi, fan bo'yicha bilimlarini yanada oshirilishi nazarda tutilgan. Maqolada keltirilgan ma'lumotlar fanning axborotlar bazasini kengayishiga ma'lum bir darajada xizmat qiladi.

PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI O'QUVCHILARIDA IQTISODIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH JARAYONI

Yulduz Boboxolovna Mingboyeva – mustaqil tadqiqotchi,
Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya: *O'quvchilarning iqtisodiy kompetensiyalarini shakllantirishda o'quv dasturlari, o'qitish usullari va sinfdan tashqari mashg'ulotlarning rolini hisobga olgan holda, iqtisodiy bilimlarni real hayotdagi qo'llanmalar bilan integratsiyalash muhimligini ta'kidlaydi. Natijada o'quvchilarning iqtisodiy savodxonligini rivojlantirishda yaxlit yondashuv muhimligini ta'kidlaydi, bu esa tobora globallashib borayotgan va raqobat muhitida ularning shaxsiy va professional muvaffaqiyati uchun zarurdir.*

Аннотация: *Подчеркивается важность интеграции экономических знаний с практическим применением с учетом роли учебных программ, методов обучения и внеклассной деятельности в формировании экономических компетенций студентов. Результат подчеркивает важность целостного подхода в развитии экономической грамотности студентов, которая необходима для их личного и профессионального успеха в условиях все более глобализированной и конкурентной среды*

Abstract: *Considering the role of curricula, teaching methods, and extracurricular activities in shaping students' economic competencies, it emphasizes the importance of integrating economic knowledge with real-life applications. As a result, it emphasizes the importance of a holistic approach to developing students' economic literacy, which is essential for their personal and professional success in an increasingly globalized and competitive environment.*

Kalit so'zlar: *iqtisodiy kompetentlik, professional ta'lim, o'quv dasturlarini ishlab chiqish, iqtisodiy savodxonlik, tanqidiy fikrlash, qaror qabul qilish, o'qitish usullari.*

Ключевые слова: *экономическая компетентность, профессиональное образование, разработка учебных программ, экономическая грамотность, критическое мышление, принятие решений, методы обучения.*

Keywords: *economic competence, professional education, curriculum development, economic literacy, critical thinking, decision-making, teaching methods.*

Zamonaviy jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy sohalarida ro'y berayotgan o'zgarishlar o'qituvchiga yangi talablarni keltirib chiqardi. Bu keng ko'lamli umumiy madaniy, professional va maxsus vakolatlarga ega, yangi kasbiy talablar va mehnat sharoitlariga munosib javob bera oladigan mutaxassis bo'lishi kerak. Shiddat bilan o'zgarib borayotgan jamiyatda yashash va ishlashga tayyor bo'lgan professional o'qituvchini tayyorlash – bu kasbiy pedagogik ta'lim tizimi oldida turgan strategik vazifadir.

Statistik tahlillar professional ta'lim va iqtisodiy natijalar o'rtasidagi sezilarli bog'liqlikni ko'rsatadi. Yevropa Komissiyasi tomonidan olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, professional ta'lim bitiruvchilari ko'pincha universitet bitiruvchilariga qaraganda tezroq va kamroq talaba qarzi bilan ish kuchiga kirib, iqtisodiyotga tezroq hissa qo'shadilar[1]. Ushbu ijobiy tendensiyalarga qaramay, professional ta'limini jahon iqtisodiyotining o'zgaruvchan talablari bilan uyg'unlashtirishda muammolar saqlanib qolmoqda. Jahon Iqtisodiy Forumi ma'lumotlariga ko'ra, ko'plab professional ta'lim va professional ta'lim (VET) tizimlari kirish, tenglik, sifat va dolzarblik bilan bog'liq muammolarga duch keladi, bu esa talabalarni ishchi kuchiga tayyorlashda ularning samaradorligiga to'sqinlik qilishi mumkin.

O'zbekistonda professional ta'lim

1 Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2023). Spotlight on Vocational Education and Training. Retrieved from https://www.oecd.org/en/publications/spotlight-on-vocational-education-and-training_acff263d-en.html

muassasalarida iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirish ayniqsa dolzarbdir. Mamlakatning iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va jahon bozoriga integratsiyalashuviga strategik e'tibor qaratilishi iqtisodiy tamoyillar va amaliyotlarni yaxshi biladigan kadrlarni talab qiladi. O'quvchilar o'rtasida iqtisodiy kompetensiyani oshirish orqali professional ta'lim muassasalari iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikni oshirishda hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin[2]. Ushbu maqola professional ta'lim muassasalari o'quvchilarida iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirishning o'ziga xos jihatlarini o'rganish, shu nuqtayi nazardan professional ta'limning metodologiyasi, muammolari va istiqboldagi yo'nalishlarini o'rganishga qaratilgan.

Professional ta'lim muassasalarida iqtisodiy kompetensiyaning rivojlanishi keng qamrovli o'rganilib, metodologiyalar, natijalar va muammolarning ko'p qirrali manzarasini ochib berdi. Professional ta'limni rivojlantirish bo'yicha Yevropa markazi (Cedefop) tomonidan o'tkazilgan tizimli tahlil professional ta'limi va ta'limining (VET) qisqa va o'rta muddatli ijobiy iqtisodiy samarasini ta'kidlab, professional ta'limi bitiruvchilari umumiy ma'lumotga ega bo'lgan tengdoshlariga nisbatan ko'pincha ish bilan ta'minlanish ko'rsatkichlari va ish haqi ustamalarini boshdan kechirishlarini ta'kidlaydi[3].

Baholash nuqtayi nazaridan adabiyotlarda professional ta'lim muassasalarida iqtisodiy kompetensiyalarni baholash uchun qo'llaniladigan bir qator usullar aniqlangan. Professional ta'lim va ta'limda empirik tadqiqotlar jurnalida chop etilgan tadqiqot iqtisodiy sohalar uchun psixometrik modelni ishlab chiqishni muhokama qilib, nazariy bilim va amaliy qo'llash orqali kompetensiyalarni o'lchash muhimligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, ASEAN Iqtisodiy Hamjamiyatida professional ta'lim o'quv dasturlarini har tomonlama tahlil qilish malakani rivojlantirishga yaxlit yondashuvni aks ettiruvchi texnik ko'nikmalar va yumshoq ko'nikmalarning ustuvorligini ta'kidlaydi. Ushbu tadqiqot professional ta'lim muassasalari talabalarida iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirishni tahlil qilish uchun aralash usullardan foydalanadi[4]. Tadqiqot loyihasi mavzuni har tomonlama tushunishni ta'minlash uchun sifat va miqdoriy ma'lumotlarni to'plash usullarini birlashtiradi.

Turli professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarning iqtisodiy kompetensiyalarini baholash uchun so'rov vositasi ishlab chiqilgan. So'rov nazariy bilimlarni, amaliy qo'llashni va iqtisodiy kompetensiyaga tegishli yumshoq ko'nikmalarni o'lchaydigan narsalarni o'z ichiga oldi. Turli professional dasturlardan talabalarning vakillik namunasini tanlash uchun tabaqalashtirilgan tasodifiy tanlab olish usuli qo'llanildi. Ma'lumotlar tavsiflovchi va inferensial tahlillarni o'tkazish uchun statistik dasturiy ta'minot yordamida tahlil qilindi, shu jumladan, asosiy kompetensiya konstruksiyalarini aniqlash uchun omil tahlili va turli ta'lim omillarining kompetensiya rivojlanishiga ta'sirini o'rganish uchun regressiya tahlili.

Iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirish uchun qo'llaniladigan pedagogik strategiyalar va o'quv dasturlari loyihalari haqida tushunchaga ega bo'lish uchun o'qituvchilar va o'quv dasturlarini ishlab chiquvchilar bilan chuqur suhbatlar o'tkazildi. Samarali o'qitish amaliyotlari, duch keladigan muammolar va malakani rivojlantirishda idrok etilgan natijalar bilan bog'liq takrorlanadigan mavzular va naqshlarni aniqlash uchun intervyu transkriptlarida tematik

2 Xamidova D.M. Professioal ta'lim tizimida iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirish jarayoni/ Ilim-fan, innovatsiya, ILMIY-AMALIY KONFERINSIYASI. 2024-yil. 55-58 b.

3 European Commission. (2022). Vocational Education Statistics. Retrieved from https://ec.europa.eu/eurostat/statisticsexplained/index.php?title=Vocational_education_statistics

4 World Economic Forum. (2023). Technical and Vocational Training Systems for Sustainable Development Goals. Retrieved from https://www.weforum.org/stories/2023/09/technical-vocational-training-systems-sustainable-development-goals

tahlil qo'llanildi.

Professional ta'limda iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirishning kelajakdagi tendensiyalarini prognoz qilish uchun tadqiqotda bashoratli modellashtirish usullari qo'llanildi. Ta'lim amaliyotlari, mehnat bozori talablari va texnologik yutuqlarga oid mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish orqali o'rganish malaka talablaridagi potensial o'zgarishlarni va o'quvchilarni kelajakdagi iqtisodiy muammolarga tayyorlashda professional ta'limning o'zgaruvchan rolini loyihalashtiradi. Ushbu keng qamrovli metodologiya professional ta'limda iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar to'g'risida batafsil tushuncha berishga qaratilgan bo'lib, bu sohadagi siyosatchilar, o'qituvchilar va manfaatdor tomonlar uchun qimmatli tushunchalarni taqdim etadi.

Professional ta'lim muassasalarida iqtisodiy kompetensiyalarning rivojlanishi tahlili empirik ma'lumotlar va bashoratli tushunchalar bilan tasdiqlangan bir qancha muhim xulosalarni ochib beradi.

Ishchi kuchining katta qismi professional malakaga ega. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) ma'lumotlariga ko'ra, OECD mamlakatlarida 25-34 yoshdagi shaxslarning taxminan uchdan bir qismi o'zlarining eng yuqori ta'lim darajasi sifatida professional malakaga ega bo'lib, professional ta'limning malaka oshirishdagi muhim rolini ta'kidlaydi. Yevropa Ittifoqida 2020-yilda 10 va undan ortiq xodimga ega korxonalarning 67,4 foizi o'z xodimlariga uzluksiz professional ta'lim berishgan. Bu ishchi kuchida doimiy malaka oshirishga jiddiy jalb etilganidan dalolat beradi[5].

Texnologik yutuqlar professional ta'limga yanada ta'sir qilishi kutilmoqda. O'quv dasturlarida virtual haqiqat va to'ldirilgan reallik kabi texnologiyalarning integratsiyalashuvi o'rganish tajribasini oshirishi va talabalarni o'zlari tanlagan sohalarning raqamli landshaftiga yaxshiroq tayyorlashi kutilmoqda. Ijobiy tendensiyalarga qaramay, professional ta'limidan teng huquqli foydalanishni ta'minlashda muammolar saqlanib qolmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, noqulay hududlardagi korxonalar yuqori darajadagi professional ta'lim imkoniyatlaridan foydalanishdagi nomutanosiblikni ta'kidlab, ilg'or shogirdlik kurslarini taklif qilish ehtimoli kamroq.

Professional ta'lim muassasalarida iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirish dinamik soha bo'lib, muhim yutuqlar va davom etayotgan muammolar bilan ajralib turadi. Professional ta'limi bandlik va iqtisodiy natijalarga sezilarli hissa qo'shgan bo'lsa-da, foydalanish imkoniyatlaridagi nomutanosibliklarni bartaraf etish va o'quv dasturlarini rivojlanayotgan sanoat ehtiyojlariga moslashtirish uning ta'sirini maksimal darajada oshirish uchun muhim bo'lib qolmoqda. Kelajakdagi tendensiyalar texnologik integratsiyaga e'tibor kuchayishini va jahon iqtisodiyotida professional malakalarning ahamiyatini yanada kengroq tan olishni ko'rsatmoqda.

Professional ta'lim muassasalarida iqtisodiy kompetentsiyani rivojlantirish ko'p qirrali ish bo'lib, uning samaradorligi va zamonaviy mehnat bozoridagi dolzarbligini shakllantiradigan turli omillar ta'sirida. Ushbu munozara natijalar bo'limidan olingan natijalarni umumlashtiradi, ularni kengroq ta'lim va iqtisodiy doiralar doirasida kontekstga aylantiradi va kelajakdagi siyosat va amaliyot uchun oqibatlarini o'rganadi

Professional ta'lim aholi bandligi va iqtisodiy natijalarga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, professional ta'lim bitiruvchilari umumiy ma'lumotga ega bo'lgan tengdoshlariga qaraganda ko'pincha

5 Empirical Research in Vocational Education and Training (2015). Development of a Psychometric Model for Economic Domains. Springer. Retrieved from https://link.springer.com/article/10.1007/s12186-015-9139-y

ish bilan ta'minlanish darajasi va ish haqi ustamalarini boshdan kechirishadi. Masalan, Yevropa Professional Ta'limni Rivojlantirish Markazi (Cedefop) ma'lumotlariga ko'ra, Yevropa Ittifoqida professional ta'lim bitiruvchilari ish bilan ta'minlanganlik darajasi 80% ni tashkil etadi va bu umumiy bandlik darajasi 75% dan oshadi[6].

Bundan tashqari, Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) professional malakaga ega bo'lgan shaxslar umumiy ma'lumotga ega bo'lganlarga nisbatan umrbod ishsizlik darajasi pastroq va yuqori daromadga ega ekanligini ta'kidlaydi. Bu shaxsiy iqtisodiy harakatchanlikni oshirish va milliy iqtisodiy o'sishga hissa qo'shishda professional ta'limning iqtisodiy ahamiyatini ta'kidlaydi. Professional ta'lim sohasi malakali ishchi kuchiga bo'lgan talab ortib borayotgani tufayli sezilarli o'sishni boshdan kechirmoqda. Professional ta'lim bozori 2028-yilga kelib 1,1 trillion dollarni tashkil etishi va yillik o'sish sur'ati (CAGR) 8,5% ni tashkil qilishi kutilmoqda. Ushbu kengayish rivojlanayotgan iqtisodiy landshaftda amaliy, martabaga yo'naltirilgan ko'nikmalarning ahamiyati global e'tirofini aks ettiradi. Yevropa Ittifoqida professional dasturlari 2022-yilda o'rta ta'limdagi barcha o'quvchilarning 49,0 foizini tashkil etdi, bunda erkaklar o'quvchilarining ulushi ko'proq[7]. Ushbu demografik tendensiya ayollarning professional ta'limda ishtirokini rag'batlantirish, shu orqali turli kasblarda gender tengligini ta'minlash uchun maqsadli strategiyalar zarurligini ko'rsatadi.

Ijobiy tendensiyalarga qaramay, professional ta'lim va ta'lim olishda nomutanosibliklar saqlanib qolmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, noqulay hududlardagi korxonalar yuqori darajadagi professional ta'lim imkoniyatlariga kirishda ijtimoiy-iqtisodiy to'siqlarni ko'rsatib, ilg'or shogirdlik kurslarini taklif qilish ehtimoli kamroq. Bundan tashqari, kichik korxonalarning atigi 4 foizi yirik kompaniyalarning 72 foiziga nisbatan shogirdlik kurslarini taklif qiladi, bu esa malaka oshirish imkoniyatlaridagi tengsizlikni kuchaytiradi[8]. Ushbu muammolarni hal qilish professional ta'lim tizimlarining o'quvchilar va mehnat bozorining turli ehtiyojlarini qondirishini ta'minlash uchun juda muhimdir.

Kelajakda professional ta'limga yangi texnologiyalarning integratsiyalashuvi muhim tendensiya bo'lishi kutilmoqda. O'quv dasturlariga virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) qo'shilishi o'rganish tajribasini oshirishi va talabalarni o'zlari tanlagan sohalarning raqamli landshaftiga yaxshiroq tayyorlashi kutilmoqda.

Bundan tashqari, barqarorlik va yashil ko'nikmalarni rivojlantirishga e'tibor ortib borishi kutilmoqda, bu esa ekologik mas'uliyatga global siljishni aks ettiradi. Professional ta'lim tizimlari yashil texnologiyalar va barqaror amaliyotlarni o'z ichiga olgan o'quv dasturlarini o'z ichiga olishi, o'quvchilarni qayta tiklanadigan energiya va atrof-muhitni boshqarish kabi rivojlanayotgan sohalarda martaba uchun tayyorlashi kutilmoqda.

Professional ta'limga kirishdagi nomutanosibliklarni bartaraf etish uchun siyosatchilarga inklyuzivlik va tenglikni ta'minlovchi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi. Bunga noqulay hududlardagi korxonalarni shogirdlik kurslarini taklif qilish uchun rag'batlantirish va professional ta'lim dasturlari turli ijtimoiy-iqtisodiy qatlamlarga ega bo'lgan shaxslar uchun ochiq bo'lishini ta'minlash kiradi. Bunday tashabbuslar ijtimoiy

6 Xamidova D. (2023). Texnikum o 'quvchilarini o'qitishda iqtisodiy kompetensiyasini takomillashtirish mazmuni. Евразийский журнал академических исследований, 3(6), 167-169.

7 Ren Network. (2023). Unpacking the Key Trends in Vocational Education. Retrieved from https://ren-network.com/unpacking-the-key-trends-in-vocational-education

8 Times. (2023). Co-op Issues Wake-Up Call Over Access to Apprenticeships. Retrieved from https://www.thetimes.co.uk/article/co-op-issues-wake-up-call-over-access-to-apprenticeshipsto-end-of-url-please-add-enterprise-network-nb5mlgjk2

va iqtisodiy harakatchanlikka hissa qo‘shishda professional ta’limi imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish uchun muhim ahamiyatga ega.

Professional ta’lim muassasalarida iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirish iqtisodiy tendensiyalar, texnologik yutuqlar va jamiyat ehtiyojlari ta’sirida jadal va rivojlanayotgan sohadir. Muhim yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, mavjud nomutanosibliklarni bartaraf etish va ta’lim amaliyotini kelajakdagi mehnat bozori talablariga muvofiqlashtirish muhim bo‘lib qolmoqda.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, professional ta’lim muassasalarida iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirish jarayoni nafaqat o‘quvchilarni iqtisodiy bilimlar bilan ta’minlash, balki ularning real hayotdagi iqtisodiy vaziyatlarga moslashuvchanligini shakllantirishga ham qaratilgan. Buning natijasida, o‘quvchilar nafaqat iqtisodiy nazariyani o‘rganib, balki amaliy ko‘nikmalarni ham egallashadi, bu esa ularni bozor iqtisodiyotida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlaydi. Ta’lim muassasalari, o‘quvchilarga o‘z iqtisodiy fikrlashlarini rivojlantirish uchun innovatsion o‘quv dasturlarini joriy etish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, shuningdek, amaliyot va tajriba almashinuvi imkoniyatlarini yaratish orqali iqtisodiy kompetensiyani yuqori darajada rivojlantirishga erishishlari mumkin.

XX ASRNING 40-YILLARIDA SAMARQAND SANOATIDA XOTIN-QIZLARNING MEHNAT FAOLIYATI VA ULARNING IJTIMOIY O'RNI

Aziza Usarovna Shotemirova – tadqiqotchi,
Samarqand davlat universiteti

***Annotatsiya**: XX asrning 40-yillarida Samarqand viloyatida engil sanoatni rivojlantirishga qaratilgan muhim tashabbuslar amalga oshirildi. Ushbu jarayon viloyatdagi engil sanoat korxonalarida mahalliy ishchi kuchining sezilarli darajada ko'payishiga olib keldi. Mazkur maqolada urush yillarida Samarqand viloyatiga ko'chirilgan sanoat korxonalari va ularning faoliyati, shu jumladan, mazkur korxonalarda ishlagan ishchi-xodimlar, ayniqsa, xotin-qizlarning mehnati haqida to'plangan ma'lumotlar asosida tahlil o'tkaziladi. Ushbu tadqiqotda arxiv hujjatlari, ilmiy dissertatsiyalar va boshqa tarixiy manbalardan foydalanilgan holda mavzu yanada chuqur yoritiladi.*

***Аннотация**: В 40-е годы XX века в Самаркандской области были реализованы важные инициативы, направленные на развитие легкой промышленности. Этот процесс привел к значительному увеличению местной рабочей силы на предприятиях легкой промышленности региона. В данной статье анализируются промышленные предприятия, перебазированные в Самаркандскую область во время войны, и их деятельность, в том числе труд рабочих, особенно женщин, работавших на этих предприятиях. В данном исследовании для более глубокого освещения темы используются архивные документы, научные диссертации и другие исторические источники.*

***Abstract**: In the 1940s, significant initiatives were taken in Samarkand region to develop light industry. This process led to a significant increase in the local workforce at light industry enterprises in the region. This article analyzes the industrial enterprises relocated to the Samarkand region during the war ears and their activities, including the labor of workers, especially women, who worked at these enterprises. This study explores the topic in more depth using archival documents, scientific dissertations, and other historical sources.*

***Kalit so'zlar**: 122 ta korxona, "Krasniy dvigatel",A.Aliqulova, A.Fozilova, O.Shetkina, mahalliy ishchilar, FZM.*

***Ключевые слова:** 122 предприятия, "Красный двигатель",А.Алигулова, А.Фозилова, О.Щеткина, местные рабочие, ФЗМ.*

***Keywords**: 122 enterprises, "Krasniy dvigatel",A.Aliqulova, A.Fozilova, O.Shetkina, local workers, FZM.*

XX asrning 40-yillari dunyoning ko'plab davlatlariga, shu jumladan, O'zbekiston iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan murakkab davr bo'ldi. Mazkur yillarda mamlakatning turli hududlarida sanoat korxonalari qayta tashkil qilinib, front ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada oshirildi. Samarqand viloyati ham bu jarayonlarning muhim ishtirokchilaridan biri bo'ldi. Viloyatga ko'chirilgan sanoat korxonalari va ularda faoliyat ko'rsatgan xotin-qizlar urush yillari sanoat taraqqiyotida muhim rol o'ynadi. Bu davrda O'zbekiston hududiga, jumladan, Samarqand viloyatiga 93 ta yirik sanoat korxonasi to'liq yoki qisman ko'chirilgan edi. Ushbu korxonalardan 48 tasi mashinasozlik, metallga ishlov berish, kimyo va boshqa og'ir sanoat tarmoqlariga tegishli bo'lsa, qolgan 45 tasi engil sanoat korxonalari hisoblanardi. Ushbu korxonalar nafaqat ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, balki frontning strategik ehtiyojlarini ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega edi. Ko'chirilgan sanoat korxonalari bilan birgalikda ular uchun zarur bo'lgan malakali ishchi kuchi ham Samarqandga joylashtirildi. Ular orasida tajribali injenerlar, texnik mutaxassislar va malakali ishchilar bo'lib, ular korxonalarni qisqa vaqt ichida ishga tushirishga katta hissa qo'shdi. Ushbu omillar Samarqand viloyatining urush yillaridagi iqtisodiy salohiyatini oshirishda

muhim rol o'ynadi.

Sobiq Sovet Ittifoqida sanoat faoliyatini besh yillik rejalar doirasida rejalashtirish va amalga oshirish keng tarqalgan amaliyot edi. Bu yondashuv Samarqand viloyatida ham o'z aksini topdi. O'ninchi besh yillik davrida viloyatda zamonaviy texnika bilan jihozlangan 122 ta sanoat korxonasi muvaffaqiyatli faoliyat olib bordi. Ushbu korxonalar hudud iqtisodiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. 1942-yilning avgust-sentyabr oylarida urush sharoitida ishlab chiqarishni uzluksiz davom ettirish maqsadida "Krasniy Dvigatel" zavodi Samarqandga ko'chirildi. Ushbu korxona ishchilari va injener-texnik xodimlari Samarqanddagi "Kolxozchi" zavodi jamoasi bilan birlashib, sanoat jarayonlarini tez fursatda qayta yo'lga qo'ydi. Bunday birlashuv nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirishga, balki zavodlar o'rtasida tajriba almashinuvi orqali samaradorlikni oshirishga ham xizmat qildi[1]. Zavod va fabrikalarda etishmayotgan ishchilar mahalliy millatga mansub yoshlar va ayollar orasidan o'qitilishi kerak edi. Ko'chirib keltirilgan korxonalarning murakkab uskunalari, metall kesish dastgohlarini ishlatish uchun malakali kadrlarning etishmasligi sababli ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishni qiyinlashtirdi[2]. Ushbu zavod g'oyat qisqa muddatda ishga tushirilgan va ko'chirilgandan keyingi bir oy muddat o'tgach, front uchun mahsulotlar ishlab chiqara boshlagan. Aynan ko'chirilgan zavodlar bilan birgalikda yuqorida ta'kidlanganidek, ishchi, injener-texnik xodimlar ham birga keltirilgan, lekin zavodlar ishlab chiqarish hajmi yuqori bo'lganligi uchun ishchi-xodimlar etishmagan. Natijada, kadrlar tayyorlash uchun FZM (fabrika-zavod maktabi) lari va zavod kasb-hunar maktablarida amalga oshirildi.

1940-yilda yirik sanoat korxonalarida ishchi kuchining 50 foizini ayollar tashkil etgan bo'lsa, 1943-yilga kelib bu ko'rsatkich 69,5 foizgacha oshdi. Bu o'sish urush davrida erkaklarning frontga safarbar etilishi natijasida yuzaga kelgan. Ayniqsa, front ehtiyojlari uchun zarur mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonalarda ayollar mehnatining ahamiyati ortdi. Biroq barcha resurslar va e'tibor frontga xizmat qiluvchi yirik sanoatga qaratilgani sababli, engil sanoatning ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada kamaydi. Ushbu pasayish mahalliy ehtiyojlarning e'tibordan chetda qolishiga va ichki bozor tanqisligiga olib keldi, bu esa aholi turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Urushdan so'ng urushdan zarar ko'rgan hududlarni tiklash va sanoatni urushdan oldingi holatga keltirish uchun 1946-1950-yillarga mo'ljallangan besh yillik rejaning birinchi yilida ancha tiklandi, ammo ishchilar tanqisligi tufayli mahalliy yoshlar bilan birga xotin-qizlar mehnatidan ham foydalanildi.

O'zbekiston sanoatiga ishchi kadrlarni jalb qilish va tayyorlashning muayyan usullarini yaratish hamda ishlab chiqish juda muhim shartlaridan biri hisoblangan. Sovet hokimiyati yillarida aynan O'zbekistonda ishsizlikni bartaraf qilishga qaratilgan masalalardan biri bo'lgan. Lekin ishsizlik mavjud bo'lgan sharoitlarda ham sanoatni ishchi kadrlar bilan ta'minlash stixiyali tarzda emas, balki tegishli organlar orqali davlat tomonidan rejali tartibda amalga oshirilar edi. Ishsizlikni tugatish sanoat korxonalarni ishchi kuchi bilan ta'minlash muammosini mushkullashtirib qo'ygan edi, chunki sanoat sohasida urushdan oldingi besh yilliklarda reja topshiriqlarining bajarilishi katta miqdorda qo'shimcha ishchi kuchini jalb qilar edi.

1931-yildan boshlab faoliyat yuritgan mehnat birjasi negizida maxsus kadrlar boshqarmasi tashkil etilgan edi. 1930-yilda umumiy boshlang'ich ta'lim tizimining joriy etilishi, 1934-1935-yillarda esa majburiy yetti yillik ta'lim

1 Алескеров Ю.Н., Нормуродов Х.Н. Самарқанд области: (Справочник). –Т.: Ўзбекистон, 1982. Б-54
2 История узбекской ССР. -Т.: Изд-во "Фан", 1974. С.407

dasturining ishga tushirilishi qizlarni maktabga jalb etishda sezilarli yutuqlarga erishishga imkon berdi. Biroq ko‘plab ta’lim muassasalarida ayol o‘qituvchilarning etishmasligi bu jarayonda muhim to‘siq bo‘ldi. Ayniqsa, qishloq joylarda ta’lim sifati va o‘qituvchi kadrlarning etishmovchiligi masalasi dolzarbligicha qolgan[3]. Kadrlar boshqarmasining asosiy vazifasi ishchilar sinfini tashkiliy ravishda ishchi kuchi bilan ta’minlab turish edi. Ishchilarni uyushgan holda ishga qabul qilish boshlangan edi[4].

40-yillardan boshlab Respublika sanoatiga ishchilarni jalb qilishning navbatdagi davri boshlangan. SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1940-yil 2-oktyabrdagi farmoniga muvofiq, mamlakatda xalq xo‘jaligini malakali ishchi kadrlar bilan rejali ravishda to‘ldirib borishni ta’min etgan mehnat zaxiralari davlat tizimi barpo etilgan edi[5]. Ayni shu davrda sanoat korxonalaridagi ishchilar o‘rtasida mahalliy millat vakillari, xususan, o‘zbeklar miqdori katta muammolardan biri hisoblangan. 1947-yilda O‘zbekistondagi Oliy o‘quv yurtlarini turli yo‘nalishlarda jami 2536 nafar talaba bitirib chiqqan bo‘lsa, ularning 589 nafarigina o‘zbek millatiga mansub edi[6].

Yana bir muhim masala shundan iborat bo‘lganki, biron bir sanoat korxonasi etarlicha bilim va malakaga ega bo‘lgan mahalliy qishloq aholisini ishga qabul qilar ekan, ularni uy-joy bilan ta’minlagan, nari borsa umumiy yotoqxonadan joy berardi. Lekin boshqa respublikalardan kelgan ishchi yo injener ko‘p vaqt o‘tmasdan alohida uy bilan ta’minlangan. Shuning uchun ham bunday sharoitda mahalliy kadrlarning o‘z qishloqlariga qaytib ketishga majbur bo‘lganiga ajablanmasa ham bo‘ladi.

Buning isbotini 1961-yildagi engil sanoat boshqarmasining hisoboti orqali ko‘rish mumkin. Unda keltirishicha, o‘sha yil yengil sanoat korxonalariga 5497 kishi ishga qabul qilingan va 6172 kishi ishdan bo‘shatilgan bo‘lib, ulardan 3972 tasi yoki 64,4%i ishdan bo‘shashiga uy-joy sharoitining yo‘qligi, bolalar bog‘chasi va shu kabi bir necha muammolarni sabab qilib ko‘rsatgan[7]. Urushdan keyingi yillarda FZM lari (fabrika-zavod maktabi) sanoatni malakali kadrlar bilan ta’minlashning asosiy manbalaridan biri hisoblangan. Agar tayyorlab bergan bo‘lsa, 1960-1970-yillarda FZMlarini 17 ming o‘quvchi tamomlab chiqqan edi.

Sanoatda mahalliy kadrlar salmog‘i katta bo‘lmasligining bir qancha sabablari bo‘lgan. Ularning asosiylaridan biri respublika hududida sanoat korxonalarini rejalashtirish va joylashtirish siyosati bilan bog‘liq bo‘lgan. Tadqiqotlarda ko‘ramizki, odatda sanoat korxonalari yirik va katta shaharlarda qurilgan. Yana shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, birgina Toshkent sanoatidagi asosiy ishlab chiqarish fondlari boshqa viloyatlardagi fondlarga qaraganda ikki barobar ko‘p bo‘lgan. Samarqand esa bu davrda sanoat fondlari ishlab chiqarish bo‘yicha Toshkent, Farg‘onadan keyingi o‘rinda turgan. Buni ishlab chiqarish korxonalarida 1956-yildagi holatiga ko‘ra ishchilar sonidan ham ko‘rish mumkin: Toshkentda 161,7 ming, Farg‘onada 38,9 ming, Samarqandda 26,4 ming kishini tashkil etgan.

Butun mamlakatda bo‘lgani kabi, Samarqand korxonalarida ham keng quloch yoygan kommunistik mehnat harakati yetti yillik rejani muvaffaqiyatli bajarish, ishlab chiqarishni tashkillashtirish kishilarning ma’naviy o‘sishi

3 Mardiyeva G.K. The Issue of Education of Uzbek Women in the Early Years of Soviet Rule. // Intersections of Faith and Culture: AMERICAN Journal of Religious and Cultural Studies. Vol. 2, Iss. 1, 2024. – P. 63.

4 O‘zbekiston sanoati strukturasidagi progressive siljishlar. -T.: Fan, 1974. -B.141.

5 Xaydarov I.M. O‘zbekiston sanoatining sovet ittifoqi yagona xalq xo‘jaligi kompleksidagi o‘rni (1945-1991 yy) Dissertatsiya. 2020

6 O‘sha joy

7 O‘zbekiston MDA. 2384-fond, 1-ro‘yxat, 937-ish, 13-varoq

uchun g'oyat katta ahamiyatga ega bo'ldi[8].

Tarix fanlari doktori I.Haydarov o'z tadqiqot Ishida ta'kidlab o'tganidek[9], mahalliy xotin-qizlarni ishlab chiqarishga keng jalb qilish, avvalo, o'zbek mentalitetiga zid bo'lib, ayollarni og'ir ishlarga jalb qilish jismoniy tomondan ham noto'g'ri edi. Avval boshdan sotsializmning bosh maqsadi o'z iqtisodini rivojlantirish bo'lib, shu maqsadda xotin-qizlardan ham ishchi kuchi sifatida foydalanib, ularni ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etdi.

Shuning uchun ham "iqtisodiy mustaqillik-jamiyatda xotin-qizlar teng huquqliligini ta'minlashda asosiy va bosh yutuq", "iqtisodiy mustaqillikni ta'minlashdagi bosh vazifa – xotin-qizlarni ijtimoiy mehnatga jalb qilishdan iborat", deb hisoblandi[10]. Misol qilib, Samarqand Trikotaj fabrikasida kommunistik mehnat brigadasi nomini olish uchun kurashayotgan 1-brigada ishchi xotin-qizlari katta yutuqlarni qo'lga kiritdi. Ayniqsa, A.Aliqulova, A.Fozilova, O.Shetkina[11] va boshqalar tashabbuskorlik ko'rsatib, brigadani avangardlari bo'lishgan. Ma'lumotlarga qaraganda, hattoki, Samarqand Superfosfat zavodining kislorod, suv va elektr sexlarida ham ayol-ishchilar faoliyat yuritgan. Bunga misol qilib, L.Nurmatovani olishimiz mumkin. Barcha ishchilar qatorida L.Nurmatova ham brigadalar bilan birgalikda yuksak natijalarga erishgan.

"Hujum" fabrikasining brigadalari Larisa Sulaymonova va Raisa Kirilovalar ham tashabbuskorlik ko'rsatdilar. Sulaymonova orqada qolayotgan brigadaga o'tib, birinchi oydayoq birinchi sort mahsulot ishlab chiqarishni 47,5 foizdan 77 foizga ko'tarildi. Kirilova brigadasida esa ipak ishlab chiqarish yanada ko'paydi. Bundan tashqari fabrikada Gaganovchilarning ko'rsatgan tashabbuskorligi kommunistik mehnat uchun musobaqaning keng rivojlanishiga yordamlashdi. 1959-yilda bu fabrikada bunday brigadalardan 5 tasi muvaffaqiyatli ish olib borgan, ushbu jamoaga 17 kishi birlashgan. Masalan, Soniya Elatova kabi jamoa a'zolari yillik topshiriqni 109,2 foizga bajargan va eng muhimi shundan iboratki, bu jamoa rejadagi 31,9 foiz o'rniga 79 foiz birinchi sort mahsulot etishtirib bergan. Aleksandra Popova boshchiligidagi kommunistik mehnat brigadasi topshiriqni 108,5 foizga bajarib, 73,2 foiz birinchi sort mahsulot bergan. Ushbu "Hujum" pillakashlik fabrikasining ilg'or brigadalaridan 7 tasi Gaganovadan iborat bo'lib, orqada qolayotgan brigadalarga o'tadi va bu holat fabrika rivojida yaxshi natija bergan[12].

Orqada qolib kelayotgan hamma uchastkalar ishlab chiqarish topshirig'ini ortig'i bilan bajarib, sifatli mahsulotlar berganlar. Yaxshi natijaga erishgan ilg'or brigadalarning a'zolari "Sotsialistik musobaqa a'lochisi" degan nishonlar bilan ham taqdirlanganlar.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, XX asrning ikkinchi choragida butun O'zbekiston bo'lgani singari, Samarqand viloyatida ham engil va og'ir sanoat korxonalarini qurish, qayta jihozlash ishlari amalga oshirildi. Urush yillarida Samarqand viloyatiga ko'chirib keltirilgan sanoat korxonalari nafaqat front ehtiyojlarini qondirdi, balki hudud iqtisodiyotining rivojlanishiga ham katta hissa qo'shdi. Xotin-qizlarning sanoatdagi faoliyati ayniqsa e'tiborga loyiqdir, chunki ular og'ir sharoitlarda ishlab, sanoat ishlab chiqarishining o'sishiga salmoqli hissa qo'shdilar. Urushdan keyingi davrda sanoatni tiklash va rivojlantirishda xotin-qizlarning faolligi davom etdi. Ayollar og'ir va murakkab sharoitlarda ishlab, o'z bilim va ko'nikmalarini

8 Самарқанд тарихи. II том. Тош-1970. Б-347
9 Xaydarov I.M. O'zbekiston sanoatining sovet ittifoqi yagona xalq xo'jaligi kompleksidagi o'rni (1945-1991 yy) Dissertatsiya. 2020. –B.193.
10 Худжум-значит наступление. -Т.: 1987. -С.22
11 Самарқанд тарихи. II том. Тош-1970. –Б.347.
12 Самарқанд тарихи. II том. Тош-1970. –Б.348.

oshirib bordilar[13]. Ularning sanoatdagi ishtiroki nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, balki ijtimoiy tenglik va gender tengligini mustahkamlashga ham xizmat qildi. Biroq sanoat korxonalarida mahalliy millat vakillaridan ko'ra ko'proq Yevropa millatiga mansub ishchi-xodimlar va xodimalar faoliyat olib borganligi, mahalliy ishchi kadrlarni tayyorlashni dolzarb masalaga aylantirdi. Ushbu muammo mahalliy ishchi kuchining yetishmasligi va ular uchun yaratilgan sharoitlarning yetarli emasligi bilan bog'liq edi.

Bu tadqiqot kelgusida urush yillarida sanoatdagi xotin-qizlarning faolligini va ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi rolini yanada chuqurroq o'rganishga hissa qo'shadi. Xotin-qizlarning sanoatdagi faolligi ularning jamiyatdagi mavqeyini oshirishga va iqtisodiy mustaqillikka erishishga katta ta'sir ko'rsatdi. Shuning uchun urush yillarida va undan keyingi davrda ayollarning sanoatga qo'shgan hissasi, ularning mehnatga bo'lgan munosabati, jamiyat hayotidagi o'rni va bu jarayonda duch kelgan qiyinchiliklarini o'rganish kelgusida ijtimoiy tarix va gender munosabatlari sohasidagi ilmiy izlanishlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

13 Джамиля Бакиевна Вафаева. Влияние политической активности граждан на процесс становления гражданского общества в Узбекистане.// Вестник науки и образования. 13-1 (67) 2019. – С. 99-102

JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA YOSHLAR IJTIMOIY MANFAATLARINI RO'YOBGA CHIQARISHNING AHAMIYATI

Ja'farxon Isaxonov – mustaqil tadqiqotchi, Samarqand davlat chet tillar instituti, Jizzax shahar "Registon" o'quv markazi direktori

***Annotatsiya**: Mazkur maqolada jamiyat barqaror rivojlanishi sharoitida yoshlar ijtimoiy manfaatlarini ta'minlash ijtimoiy-falsafiy mohiyat kasb etishi, bu ularni moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, har tomonlama qo'llab-quvvatlash, turmush farovonligini oshirishga xizmat qiladigan muhim xususiyatlarni o'zida mujassam qilishi kabi jihatlar falsafiy tahlil etilgan.*

***Аннотация**: В данной статье в условиях стабильного развития общества обеспечение социальных интересов молодежи приобретает социально-философскую сущность, воплощает в себе важные особенности, которые служат удовлетворению ее материальных и духовных потребностей, оказывают всестороннюю поддержку, повышают их благополучие.*

***Abstract**: In this article, in the conditions of stable development of the society, ensuring the social interests of young people acquires a socio-philosophical essence, it embodies important features that serve to satisfy their material and spiritual needs, provide all-round support, and increase their well-being.*

***Kalit so'zlar**: jamiyat, yoshlar, ijtimoiy manfaatlar, ijtimoiy barqarorlik, moddiy ehtiyojlar, qo'llab-quvvatlash, insonparvarlik, adolat, turmush farovonligi, hayotiy qadriyatlar, ijtimoiy an'analar.*

***Ключевые слова:** общество, молодежь, социальные интересы, социальная стабильность, материальные потребности, поддержка, гуманизм, справедливость, благополучие, жизненные ценности, социальные традиции.*

***Keywords**: society, youth, social interests, social stability, material needs, support, humanitarianism, justice, well-being, life values, social traditions.*

Jamiyatda ijtimoiy manfaatlarni ta'minlash islohotlarning o'ziga xos tamoyili bo'lib, mamlakat aholisi ijtimoiy hayotining ko'p davrlardan beri shakllanib kelayotgan ijtimoiy madaniyatiga xos bo'lgan yangi tamoyillarning qaror topishi hamda ularning amalga oshishi bilan bog'liq. Ushbu umummanfaatlarga xos bo'lgan, inson va jamiyat barqaror munosabatlariga aloqador tamoyillarning jamiyatda ro'yobga chiqishi tizimlilik xususiyatiga ega hisoblanib, davlatning strateg dasturlarida o'z ifodasini topadi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning ta'kidlashicha, "Yurtimizda keng ko'lamli islohotlarimiz barqaror tus oldi. Ularni yanada rivojlantirish maqsadida biz Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqdik. Uning asosida "Inson qadri uchun", degan ulug'vor g'oyani amalga oshiramiz"[1].

Yoshlar ijtimoiy manfaatlarini ta'minlash ijtimoiy-falsafiy mohiyat kasb etib, bu ularni moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, har tomonlama qo'llab-quvvatlash, turmush farovonligini oshirishga xizmat qiladigan muhim xususiyatlarni o'zida mujassam etadi. Bu jarayon yoshlarning hayotiy qadriyatlari, avlodlardan avlodga o'tuvchi ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy an'analarini ro'yobini o'zida aks ettiradi. Mazkur munosabatlar yoshlar va jamiyat tizimidagi ma'rifiylik va insonparvarlikka asoslangan faoliyatining natijasi hisoblanadigan xulq-atvor qoidalari ham hisoblanadi. Mazkur qoidalarning jamiyatda mavjud bo'lishi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning muhim mezoni hisoblanadi.

1 Sh.M.Mirziyoyev. Yangi yil munosabati bilan O'zbekiston xalqiga yo'llagan tabrigi. 31.12.2021-y. https://president.uz/uz/lists/view/4857.

O‘z navbatida, jamiyatda yoshlar manfaatlarini ta’minlash borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishda davlat va jamoatchilik tuzilmalari munosib va keng masshtabda ishtirok etadi. Yoshlarning jamiyat hayotida eng muhim ijtimoiy guruh sifatida qaralishi, uning ma’naviy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotini barqaror asoslarda rivojlantirish madaniy tamaddunga erishayotgan har bir jamiyat uchun ahamiyatli hisoblanadi. Yoshlar va ularning guruhlari jamiyatning bir bo‘lagi bo‘lib, ular umumiy manfaatlar, ehtiyojlar va intilishlar bilan bog‘lanadigan muhim hayotiy an’analarga ega bo‘ladi.

Bugungi globallashuv jarayonida yuz berayotgan turli-tuman hodisalar, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarning birmuncha jihatdan emirilishi dunyo xalqlari uchun o‘zaro munosabatda yoshlar manfaatlarini ta’minlash jarayoni keng ma’no-mazmun kasb etmoqda. Yoshlar ijtimoiy manfaatlarini himoya qilish har bir jamiyatning eng ustuvor yo‘nalishi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yoshlarning ijtimoiy manfaatlarini ta’minlash insonparvarlik tamoyillardan biri bo‘lib, bu jamiyatning inson ravnaqi uchun adolat va farovonlikni kafolatlaydigan ijtimoiy manfaatlar ustunligi uchun xizmat qiladigan jamiyat takomilini yanada rag‘batlantiradi.

O‘zbekistonda olib borilayotgan bugungi kundagi islohotlar mohiyatida yoshlar manfaatini ustuvorligiga oid tamoyillar yaqqol ifodasini topgan. Bugun mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar shunchaki islohot uchun emas, aynan inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli Qarorida ta’kidlanishicha, “Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O‘tgan vaqt ichida yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida tizim yaratildi”[2].

Jamiyatdagi keng ko‘lamli ijtimoiy munosabatlar ko‘lamida yoshlar manfaatlarini ta’minlash – yurtimizda yashayotgan har bir yoshlar vakili va ularning guruhlarini huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta’minlash demakdir. Yangi O‘zbekistonda “Davlat – inson uchun” tamoyili asosida yoshlar huquqlarini mustahkamlash, ularni turmush tarzida katta o‘zgarishlar yasash hamda ularni hayotda har tomonlama rozi qilish islohotlarning eng ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

Yoshlarning turmush tarzi va uning darajasini oshirish inson manfaatlarini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan jarayon hisoblanadi. “Aholi turmush darajasi deganda, odamlarning zarur moddiy va ma’naviy ne’matlar bilan ta’minlanganligi, ularning iste’moli va ehtiyojlari qondirilganligi darajasi tushuniladi. Turmush darajasi tor ma’noda aholining iste’mol ehtiyojlari qondirilganligi, iste’molning daromad va xarajatlar bilan ta’minlanishini, keng ma’noda insonni rivojlanishi darajasini (sog‘lik, ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari) va uning yashash shart-sharoitlarini (atrof-muhit, xavfsizlik masalalari) anglatadi”[3].

Yoshlarning jamiyatdagi turmush tarzi va ijtimoiy mavqeyi darajasini aniqlashda uning hayotidagi quyidagi mezonlar mavjudligi bilan bog‘liq:

Iqtisodiy jihatdan ta’minlanganlik miqdori;

O‘z faoliyatidan foyda olish darajasi salmog‘i;

Hayot tarzi va turmush darajasining yuqoriligi;

2 Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори. Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини 2025 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида. Тошкент ш., 2021 йил 18 январь, 23-сон. https://lex.uz/ru/docs/5234746.

3 Рустамов Н. Аҳоли турмуш даражаси ва Ўзбекистонда уни ошириш имкониятлари. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий-электрон журнали. №5, 2015. –Б. 5.

Ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni;

Ta’lim olganlik darajasi yuqoriligi;

Diniy va milliy qarashlari erkinligi;

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi.

Yoshlar uchun eng muhim qadriyatlardan yana biri – bu, uning hayotda maqsadga muvofiq darajada mavjudligini anglash, o‘zi tanlagan faoliyatdan qoniqish hosil qilishdir. Davlat mamlakatda yoshlar faoliyatining barcha jabhalarini barqaror asosda takomillashib borishi uchun doimiy g‘amxo‘rlik qilishi, yoshlar manfaati ustuvorligi uchun doimiy chora-tadbirlar olib borishi ijtimoiy rivojlanishning muhim o‘zagi bo‘lib xizmat qiladi. Jamiyatda doimiy yangilanish, innovatsion taraqqiyot va texnologik jihatdan ta’minlangan ijtimoiy rivojlanish jarayonlari yoshlar omilini va uning farovonligini ta’minlashning muhim shartlari hisoblanadi. Olimlarning ta’kidlashicha, “Inson qadr-qimmati, sha’ni, huquq va erkinliklari daxlsizligini kafolatlashga qaratilgan qonunchiligimiz umuminsoniy tamoyillar va milliy qadriyatlar asosida rivojlantirildi. Bu esa barcha sohalarda erishilgan yutuqlarning bosh omili bo‘ldi”[4] .

Jamiyatda yoshlarning ijtimoiy manfaatlarining yuksalib borishi va huquqlarining to‘laqonli ro‘yobga chiqishi ularning ijtimoiy mavqe darajasi bilan bog‘liqdir. Yoshlar ijtimoiy mavqeyi uning huquq va majburiyatlar tizimi boshqa maqomlari bilan birgalikda ma’lum ijtimoiy guruhlar tarkibida yoki jamiyatning ijtimoiy tuzilishida ma’lum o‘rinlarga ega bo‘lib borishini anglatadi. Ijtimoiy maqom esa, jamiyatda yoshlar, ularning ijtimoiy guruhlari yoki jamiyatning alohida ijtimoiy tizimi egallagan ijtimoiy-siyosiy mavqeni anglatadi. Jamiyatda ijtimoiy mavqe jinsi, yoshi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar insonga beriladigan imtiyozlar va huquqlar ko‘lami orqali ijtimoiy hayotda o‘zining munosib o‘rnini topib borishidir.

Yoshlarning ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topib borishi ideal qadriyat ekanligi haqida G.Osadchayaning ta’kidlashicha, “mazkur kategoriya strukturasi dastlab o‘z tarkibiga o‘zining muhit chegaralarini tasvirlovchi shaxs, guruh ehtiyojlaridan iborat bo‘ladi. Shaxs va guruhning orzu, manfaat va intilishlarida gavdalangan qadriyatlar tizimi ehtiyojlarini shakllantirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘z navbatida qadriyatlar tizimining tarkibi ratsional, emotsional va xulq-atvor komponentlaridan iborat bo‘ladi. Eng yuqori qismida ideal qadriyatlar turadi”[5].

Ijtimoiy maqom yoshlarni jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarda ishtiroki darajasini, bu jarayondagi xatti-harakatlari xususiyatini, turmush tarzini, tanishlar doirasini, huquqiy madaniyati, axloqiy qiyofasi va xulq-atvorini belgilaydi. Zamonaviy jamiyat vakillari uchun asosiy maqom ko‘pincha yoshlarning kasbiy faoliyat va jamoatchilik bilan integratsiyasiga bog‘liq holda shakllanadi. Ijtimoiy mavqega yoshlar o‘zining aqliy salohiyati, ijtimoiy foydali mehnati va fuqarolik mas’uliyatini namoyon etishi orqali erishadi.

Jamiyatda yoshlar o‘ziga xos mavqe va maqomga ega bo‘lish uchun ma’lum ijtimoiy rollarni ham bajaradi va natijada ijtimoiy hayotda tegishli manfaatlarini ta’minlanishiga erishadi. Ijtimoiy rollar ma’lum bir ijtimoiy mavqeni egallash uchun har bir yoshlar vakilining me’yoriy tasdiqlangan va tasdiqlanmagan xati-harakatlar namunasi majmuasi hisoblanadi. Ijtimoiy rollar yoshlarda jamiyatda ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ma’lum ehtiyojlarning namoyon bo‘lishi bilan ijtimoiy amaliyotda kuzatilib, ijobiy xarakterga

4 Qodirov A., Narbayeva T. va boshq. Aziz, yagonamsan jonajon O‘zbekistonim. –Toshkent: Muharrir, 2018. –B. 65.

5 Осадчая Г.И. Социальная сфера общества: теория и методология социологического анализа. М., 1996. – С.56.

ega bo‘ladi, ma’lum ma’noda taraqqiyotga xizmat qiladi.

Jamiyatda ba’zi ijtimoiy muammolarning mavjud bo‘lishi ham yoshlar manfaatlarini ta’minlashda ma’lum bir to‘siqlarni vujudga keltiradi. Jamiyatda mavjud ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy muammolarni hal etib borilishi yoshlar omili va qadrini yuksalishi, pirovardida uning farovon turmush kechirishiga olib keladi. Jamiyatda uchrab turadigan, yoshlar manfaatlariga zid keladigan ijtimoiy, ma’naviy va iqtisodiy muammolardan korrupsiya, iqtisodiy jinoyatchilik, noqonuniy raqobat, byurokratiya, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, tanish-bilishchilik, jinoyatchilik, huquqbuzarlik, narkotrafik, odam savdosi, axloqiy jihatdan buzilishlar, axborot tahdidlari, internetmaniya, ommaviy madaniyat va boshqalarni misol keltirish mumkin.

Jamiyatda ilgarigi davrlardagi totalitar va byurokratik an’analarga asoslangan tizimning ko‘pgina illatlari va qoldiqlarining ma’lum vaqtlargacha saqlanib qolishi sababli ijtimoiy hayotda ba’zi muammolarni vujudga kelishiga zamin yaratilgan edi. B.Iminovning ta’kidlashicha, “Jamiyatning jami jabhalaridagi ijtimoiy munosabatlar mazmunida shakllanib, rivojlanib borgan mazkur salbiy holatlar ko‘p kezlarda o‘z holiga tashlab qo‘yilgani sababli ham iqtisodiy munosabatlarda – pinhona iqtisod; ijtimoiy munosabatlarda - mahalliychilik va millatchilik; siyosiy munosabatlarda – ekstremizm; ma’naviy munosabatlarda – ma’naviy qashshoqlik; huquqiy munosabatlarda – qonunbuzarlik va jinoyatchilikning shakllanishi va rivojlanishi uchun sharoit vujudga keladi”[6].

Yoshlar hayotiy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish va bu jarayonlar ko‘lamini yuksaltirib borish jamiyatda yaratilgan quyidagi shart-sharoitlar bilan bog‘liq:

- yoshlarning jismoniy, ruhiy salomatligi, har tomonlama sog‘lom va baquvvat bo‘lib turmush kechirishi, salomatligi haqida yuqori darajada g‘amxo‘rlik qilish, reproduktiv jarayonlarni mukammal olib borish natijasida sog‘lom avlod tarbiyasini amalga oshirishni yanada takomillashtirish;

- jamiyatda ta’lim va tarbiya jarayonlarini tubdan isloh qilish, yuqori salohiyatga ega bo‘lgan innovatsion yoshlarni tarbiyalash, maktablar, oliy oquv yurtlari soni va shunga mos ravishda o‘quvchilar va talabalar sonini ko‘paytirish, kadrlar tayyorlash sifatini yuqori talablar asosida oshirish;

- yoshlar huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini yanada ulug‘lash, ularning ijtimoiy manfaatlarini ta’minlash, turmush sharoitlarini zamonaviy shart-sharoitlar va xalqaro standartlar asosida innovatsion texnologiyalarni joriy etgan holda yaratib berish;

- ijtimoiy hayotga yoshlarning tadbirkorlik va biznesini tashkil etishlari uchun turli xil imtiyozlarni joriy etish, oilaviy farovonlik va turmush shart-sharoitlarini yanada yaxshilashga qaratilgan dasturlarni yanada ko‘plab joriy etish.

6 Иминов Б. Мафкуравий ўзаро муносабатлардаги уйғунлик. //Ижтимоий фикр, инсон ҳуқуқлари, 2001. №2. –Б. 81.

MAHALLA RAISLARINING MA'NAVIY-AXLOQIY SIFATLARINI TIZIMLI TA'LIM JARAYONIDA RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

Ikrom Muxtarovich Matkarimov – mustaqil tadqiqotchi,
Urganch davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mahalla fuqarolar yig'ini raisining tizimli ta'lim orqali ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish, malaka oshirish jarayonida aynan ma'naviy-axloqiy masalalarga bag'ishlangan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, raislar uchun ma'naviy va axloqiy sifatlarning ustuvorlik jihatlariga bag'ishlangan tadqiqot natijalari tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek, mahalla raisining qonunchilik va amaliy nazariy jihatlariga asoslangan holda, axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish uchun amalga oshirilgan tadbirlar, strategiyalar va ularning ijtimoiy ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan.*

Аннотация: *В данной статье анализируются результаты исследования развития духовно-нравственных качеств председателя общественного собрания посредством систематического обучения, организации учебных занятий, посвященных духовно-нравственным вопросам в процессе профессионального развития, а также приоритетные аспекты духовно-нравственных качеств председателей махалля. В статье также уделяется внимание действиям, стратегиям и их социальной значимости для развития моральных ценностей, основанных на законодательных и практических теоретических аспектах деятельности председатели махалля.*

Abstract: *This article analyzes the results of the study on the development of spiritual and moral qualities of the chairman of the public assembly through systematic training, organization of training sessions devoted to spiritual and moral issues in the process of professional development, as well as priority aspects of spiritual and moral qualities of mahalla chairmen. The article also pays attention to the actions, strategies and their social significance for the development of moral values based on the legislative and practical theoretical aspects of the activities of the mahalla chairmen.*

Kalit so'zlar: *mahalla, fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organi, fuqarolar yig'ini, rais axloqi, rais ma'naviyati, ta'lim, tarbiya, ma'naviyat, axloq, odob, ijtimoiy, madaniy – ma'rifiy rivojlanish.*

Ключевые слова: *махалля, орган самоуправления граждан, собрание граждан, этика председателя, духовность председателя, образование, воспитание, духовность, нравственность, социальное, культурно-просветительское развитие.*

Keywords: *mahalla, self-governing body of citizens, citizens' assembly, ethics of the chairman, spirituality of the chairman, education, upbringing, spirituality, morality, social, cultural and educational development.*

Mahalla O'zbekiston jamiyatining tarixiy boshqaruv shakli, urf – odat va qadriyatlarga asoslangan hududiy birligidir. Mamlakatimizda fuqarolar o'zini o'zi boshqarishining noyob usuli sifatida tan olingan mahalla instituti azaldan chinakam milliy qadriyatlar, ezgu amallar maskani bo'lib kelgan. Mahalla – asrlar osha milliy urf-odat va an'analarimizni bezavol saqlab, xalqimiz uchun ezgulik va tarbiya beshigi, yaxshi qo'shnichilik va hamjihatlik maskani bo'lib kelmoqda. Biz mahalla deganda, dunyoda kamdan-kam uchraydigan, insonni jamiyat bilan uyg'un bo'lib yashashga o'rgatib, bag'rikenglik ruhida tarbiyalaydigan, xalq bilan davlat o'rtasidagi ishonchli ko'prik vazifasini bajaradigan noyob tuzilmani tushunamiz[1]1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 bob 127-moddasiga ko'ra "Shaharchalar,

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 22-mart – mahalla tizimi xodimlari va faollari kuni munosabati bilan soha vakillariga tabrigi. // URL: https://president.uz/oz/lists/view/4250 (Greetings of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to representatives of the field on March 22 — the day of employees and activists of the neighborhood system. // URL: https://president.uz/oz/lists/view/4250)

qishloqlar va ovullarda, shuningdek shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular raisni saylaydi"[2]. Ushbu tuzilmaning fuqarolik jamiyati institutlari ichida eng sharafli va ayni paytda, keng ko'lamli vazifalar ijrochisi – xalq vijdoni, deb ta'riflanishi bejiz emas, albatta. Keyingi yillarda davlat boshqaruv instrumentlarining mahalla tizimiga o'tkazilayotgani, joylarda ma'muriy boshqaruv mexanizmlarini "mahallabay" usulda tashkil etilishi bu sohani chuqurroq tadqiq qilish va ilmiy o'rganishni taqozo etadi. Har qanday sohani barqaror va samarali faoliyati unda xizmat qilayotgan subyektlarning kadrlarning salohiyatiga bog'liq. Bugungi kunda respublikamizda 9452 ta mahalla fuqarolar yig'inlari mavjud bo'lib, ularda 57591 nafar xodim faoliyat yuritib kelmoqda[3]. (shundan Xorazm viloyatida 531 ta mahallada 3 181 nafar "mahalla yettiligi" xodimlari faoliyat yuritmoqda).

Fuqarolar yig'ini raisining aholi ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirishdagi o'rni haqidagi adabiyotlarga nazar tashlash, ushbu tizimning ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy jihatlariga bog'liq tadqiqotlarning muhimligini ko'rsatadi. Ushbu mavzuga oid adabiyotlarda fuqarolar yig'inlari, mahalla tizimi, mahallaning ijtimoiy faoliyati va ma'naviy-axloqiy sohadagi rahbarlik rolini o'rganishga qaratilgan bir qator ilmiy va metodologik ishlarni topish mumkin. Bu adabiyotlar fuqarolar yig'inlari raisining aholi o'rtasida axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash va ularni rivojlantirishdagi qiyinchiliklarini va imkoniyatlarini ko'rsatib, davlat va jamiyat siyosatining ma'naviy-huquqiy asoslarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

So'nggi davrlarda ko'lga kiritilgan arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakat hududida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishning ilk belgilari bronza davriga borib taqaladi. Bronza davrining yodgorligi bo'lgan hozirgi Surxondaryo viloyati hududidan topilgan Sopollitepa manbalarining guvohlik berishicha, u yerda miloddan avvalgi XVIII – XV asrlarda sakkiz oilaning bir joydagi manzilgohi qayd etilgan. Demak ko'rinadiki jamoa bo'lib yashashning va turmush muammolarini birgalikda hal etishning dastlabki belgilari O'zbekiston hududida miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi[4]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Mustaqillik yillarida mahalla aholiga eng yaqin va xalqchil tuzilmaga aylandi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" konsepsiyasini hayotga tatbiq etishda eng muhim tashkiliy- institutsional bo'g'inga aylandi". Mahallaning tashkiliy-huquqiy shakllari, vazifa va vakolatlari globallashuv jarayonlariga mos takomillashtirilmoqda[5].

Darhaqiqat, mahalla boshqaruvining tuzilmasi ham uning bajaradigan vazifalariga mos ravishda takomillashib boraveradi. Ayniqsa keyingi yillarda jamiyat boshqaruvida mahallaning ahamiyati oshib bormoqda.

Amaldagi normalarga asosan O'zbekistondagi mahalla fuqarolar yig'inining tuzilmasini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin[6].


2 O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023, 03/23/837/0241-son // URL: https://lex.uz/docs/-6445145. (Constitution of the Republic of Uzbekistan, National Database of Legislative Information, 01.05.2023, No. 23.03.837/0241 // URL: https://lex.uz/docs/-6445145)

3 Qarshiyev E. O'zgarishlar nafasi har bir mahalla, ko'cha va xonadonga kirib boryapti // Mahalla ko'zgusi. – 2024. — № 10/2024.– B.4-7 bet. (Karshiyev E. The breath of changes is entering every neighborhood, home and apartment // Mahalla ko'zgusi . – 2024. – No. 10/2024. – P. 4-7)

4 Raxmonkulov H.R. Fuqarolik huquqi muammolari (1-qism). Darslik. – Toshkent: TDYUI, 2010. — B. 65. (Rakhmankulov H.R. Civil Rights Issues (Part 1). Textbook. — Tashkent: TSLI publishing house. 2010. -P. 65.)

5 Mirziyoyev Sh.M. Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish barqaror taraqqiyot kafolatidir. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal Demokratik partiyasining 2016-yil 19-oktabrdagi VIII syezdidagi ma'ruzasi. URL: https://president.uz/oz/lists/view/4605 (4. Mirziyoyev Sh.M. Consistent continuation of democratic reforms. Peace and tranquility for our people. Creating a decent standard of living is a guarantee of sustainable development. The movement of entrepreneurs and businessmen — the report of the 8th meeting of the Liberal Democratic Party of Uzbekistan on October 19, 2016.// URL: https://president.uz/oz/lists/view/4605)

6 O'zbekiston RespublikasiVazirlar Mahkamasining 2024-yil 15-martdagi 137-son qarori 2-ilovasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.03.2024 y., 09/24/137/0220-son (5. Appendix 2 of the Resolution No. 137 of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated March 15, 2024. National database of legislative information, 16.03.2024, No. 09/24/137/0220)



I Jadval

Mustaqillik yillarida A.Azizxo‘jayev, O.Husanov, S.Odilxo‘jayeva, Sh.Jalilov, S.Sultonov, K.Komilov, A.Saidov, M.Boydadayev, D.Ahmedov, G.Malikova, G.Ismailova, M.Suvonkulov, Z.Reymova, Sh.Mahmudbekov, M.G‘ulomov kabi huquqshunos va tarixchi olimlar fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish sohasida ilmiy ishlar qilishgan[7]. Ammo mahalla xodimlarini xususan rais faoliyatini takomillashtirish va ularni malakasini oshirish yuzasidan pedagogik jihatdan tadqiq qilinishiga doir materiallar juda kam. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 10-oktabrdagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-2050-sonli qarori qabul qilinib, joylardagi hududiy hokimliklar huzurida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish bo‘yicha O‘quv kurslari tashkil etilgan[8]. Shunga asosan Mahalla tizimi xodimlarini kasbiy malakasini oshirish O‘zbekistonda 2014-yildan boshlab tizimli yo‘lga qo‘yilgan.

Dastlabki yillarda O‘quv kurslarida mahalla raislari, ularning oila, xotin- qizlar va ijtimoiy-ma’naviy masalalar bo‘yicha hamda obodonlashtirish, tomorqa va tadbirkorlik masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlari, oila va xotin-qizlar masalalari bo‘yicha mutaxassislar, shuningdek, profilaktika (katta) inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo‘yicha yordamchilarining malakasini oshirish belgilangan. 2022-yilga qadar mahalla raislarining obodonlashtirish, tomorqa va tadbirkorlik masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlari, 2022-yil may oyiga qadar mahalla raislarining oila, xotin- qizlar va ijtimoiy-ma’naviy masalalar bo‘yicha o‘rinbosarlar hamda oila va xotin-qizlar masalalari bo‘yicha mutaxassis shuningdek, profilaktika (katta) inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo‘yicha yordamchilari 36 soatlik (bir haftalik) kurslarda o‘qitilgan[9]. Bugungi kunda mazkur tizimda faqatgina Mahalla fuqarolar

7 Malikova G.R. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish institutining konstitutsiyaviy huquqiy asoslarini takomillashtirish muammolari: Yurid. fan.dok.dissertatsiya.-Toshkent.2009. // URL: https://diss.natlib.uz/tanishish/05bdcc30-7673-4ef2-b094-c01ed8d30c5b (Malikova G.R. Problems of improving the constitutional legal framework of the Institute of Citizen Self-Government: Doctor of Law Dissertation.-Tashkent, 2009. // URL: https://diss.natlib.uz/tanishish/05bdcc30-7673-4ef2-b094-c01ed8d30c5b)

8 O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y., 41-son, 546-modda. (Collection of legal documents of the Republic of Uzbekistan, 2013, No. 41, Article 546.)

9 T.Tog‘ayqulov, “Mahalla yettiligi” kasb malakasini oshirish davr talabi // Mahalla ko‘zgusi. – 2024. — № 10/2024. – B. 14. (8. T. Togaykulov, “Seven employes of Mahalla” period demand for professional qualification improvement // Mahalla ko‘zgusi . – 2024. — No. 10/2024-P-14)

yig‘inlari raislari o‘qitilib kelinmoqda.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha obyekt sifatida aynan raislarning ma’naviy – axloqiy sifatlarini malaka oshirish jarayonida rivojlantirish masalasi o‘rganildi. Ilmiy tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki o‘tgan 10 yildan ortiq davr mobaynida 36 soatlik malaka oshirish o‘quv kurslarida mahalla raislarining aynan ma’naviy – axloqiy sifatlarini rivojlantirishga daxldor mavzular bo‘yicha mashg‘ulotlar tashkil etilgan. Quyida xronologik tahlildan 2014-yildan 2024-yil dekabrigacha tashkil etilgan tizimli malaka oshirish kurslarida MFY raislarining ma’naviy -axloqiy sifatlarini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi kurslar tashkil etilib kelinganini ko‘rish mumkin:

1. 2014-yil

A) “Mahallada yuz beradigan ijtimoiy muammolarni yechish yo‘llari”. 2 soat nazariy dars mashg‘uloti

B) “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida boshqaruv jarayonlarining o‘ziga xosligi. Tashkilotchilik madaniyati, rahbarlik va yetakchilik. Ijtimoiy mas’uliyat va adolat mezonlari. Zamonaviy axborot texnologiya”. 2 soat amaliy dars mashg‘uloti

2. 2015-yil

A) “Mahallada yuz beradigan ijtimoiy muammolarni yechish yo‘llari”. 2 soat nazariy dars mashg‘uloti

B) “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida boshqaruv jarayonlarining o‘ziga xosligi. Tashkilotchilik madaniyati, rahbarlik va yetakchilik. Ijtimoiy mas’uliyat va adolat mezonlari”. 2 soat amaliy dars mashg‘uloti

S) “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlarining barkamol va sog‘lom avlodni tarbiyalash masalalariga oid bilimlarini oshirish”. 2 soat nazariy dars mashg‘uloti

3. 2016-yil

“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida boshqaruv jarayonlarining o‘ziga xosligi. Tashkilotchilik madaniyati, rahbarlik va yetakchilik. Ijtimoiy mas’uliyat va adolat mezonlari”. Jami 4 soat – 2 soat nazariy va 2 soat amaliy dars mashg‘uloti

4. 2017-yil

“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida boshqaruv jarayonlarining o‘ziga xosligi.Tashkilotchilik madaniyati, rahbarlik va etakchilik. Ijtimoiy mas’uliyat va adolat mezonlari hamda boshqaruv mahorati”. 2 soat amaliy dars mashg‘uloti

5. 2018-yil

“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida boshqaruv menejmenti, mahalla fuqarolar yig‘ini raisining etakchilik, tashkilotchilik mahorati, muloqot madaniyati.

2 soat nazariy dars mashg‘uloti

6. 2019-2020 O‘quv yili

A) “Mahallalarda o‘zaro hurmat, mehr oqibat hamda hamjihatlik muhitini shakllantirishda fuqarolar yig‘inlari xodimlarining muomala va xulq-atvor madaniyatining tutgan o‘rni, fuqarolar yig‘inlari raislarining rahbarlik mahorati va muloqot madaniyatini shakllantirish yo‘llari.“ 2 soat nazariy dars mashg‘uloti

B) “Oilalardagi ijtimoiy-psixologik muhitni o‘z vaqtida aniqlash va nizoli holatlarning oldini olishda oila va mahallaning o‘zaro hamkorligi.” 2 soat nazariy dars mashg‘uloti

7. 2020-2021O‘quv yili

A) “Mahallalarda o‘zaro hurmat, mehr oqibat hamda hamjihatlik muhitini shakllantirishda fuqarolar yig‘inlari xodimlarining muomala va xulq-atvor madaniyatining tutgan o‘rni, fuqarolar yig‘inlari raislarining rahbarlik mahorati va muloqot madaniyatini shakllantirish yo‘llari.“ 2 soat nazariy dars mashg‘uloti

B) "Mahallalarda "Ma'naviyat soatlari" va "Huquqiy bilimlar", "Huquqbuzarliklar profilaktikasi", "Yong'inlar profilaktikasi", "Yo'l harakati xavfsizligi targ'iboti" kunlarini tashkil etish va o'tkazish mexanizmlari." 2 soat nazariy dars mashg'uloti

8. 2022-2023 O'quv yili

A) "Mahalla raisining rahbarlik, mahallada yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish mahorati, muomala va xulq atvor madaniyati, imiji hamda mahallalarda o'zaro hurmat, mehr – oqibat, hamjihatlik muhitini shakllantirish masalalari". 2 soat nazariy dars mashg'uloti

B) "Mahalla raisining aholi o'rtasidagi psixologik muammolarning oldini olish, oilaviy ajralishlarning sabablarini aniqlash, bartaraf qilish, oilalarni mustahkamlash, notinch oilalardagi muhitni sog'lomlashtirish bo'yicha manzilli ishlarni tashkil etish tartib-taomillari". 2 soat amaliy dars mashg'uloti

S) "Mahalla raislari tomonidan mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni barqarorlashtirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar". 2 soat nazariy dars mashg'uloti

9. 2024-2025 O'quv yili

A) "Mahallalarda o'zaro hurmat, mehr oqibat hamda hamjihatlik muhitini shakllantirishda fuqarolar yig'inlari xodimlarining muomala va xulq-atvor madaniyatining tutgan o'rni, fuqarolar yig'inlari raislarining rahbarlik mahorati va muloqot madaniyatini shakllantirish yo'llari." 2 soat nazariy dars mashg'uloti

B) "Mahallalarda "Ma'naviyat soatlari" va "Huquqiy bilimlar", "Huquqbuzarliklar profilaktikasi", "Yong'inlar profilaktikasi", "Yo'l harakati xavfsizligi targ'iboti" kunlarini tashkil etish va o'tkazish mexanizmlari." 2 soat nazariy dars mashg'uloti

Tahlillardan ko'rish mumkinki mahalladagi ijtimoiy – ma'naviy muhitning barqarorligi aynan fuqarolar yig'ini raisining o'zidagi ma'naviy axloqiy sifatlarning holatiga bevosita bog'liq. Chuni mahalladagi aholining o'zaro hamjihat yashashi, turmushning turli muammolarini hal etilishida rais odatda hal qiluvchi subyekt sifatida maydonga chiqadi. Tadqiqotimiz davomida respublikamizning Farg'ona, Xorazm, Namangan, Jizzax viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasidagi 1000 nafarga yaqin mahalla raislarining ma'naviy – axloqiy sifatlarini o'rganish bo'yicha so'rovnomalar o'tkazildi. Ilmiy ishlarga doir tajriba sinov jarayonlarini tashkil etildi. Mahalla raislarining yosh, jins, ma'lumot darajasi, hududiy mansubligi, kasb tajribasi kabi xususiyatlar bo'yicha ustuvor qadriyatlar ajratildi. Misol uchun ustuvorlik darajasi bo'yicha 100 dan ortiq ma'naviy – axloqiy sifatlar ichida respondentlar ya'ni mahalla raislarining 43 foizi "Adolat", "Shijoat", "Olijanoblik" kabi sifatlarni belgilagan bo'lsa, 35 foizida asosan "Xushmuomalalik", "Bilimlilik", "Yetakchilik" kabi xususiyatlar ustuvor sanalgan.

Mahallani jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish, uning jamiyatdagi o'rni va rolini kuchaytirish, mahallalardagi muammolarni o'z vaqtida va samarali hal etishda davlat organlari va tashkilotlarining mahallalardagi vakillarining imkoniyatlarini yanada kengaytirish bugungi kundagi dolzarb vazifalardan sanaladi. "Mahalla yettiligi" faoliyatini samarali va rejali asosda tashkil etish hamda uning a'zolarini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) bo'yicha baholash tizimini takomillashtirish maqsadida hukumat qarori ham qabul qilingan[10]. Mazkur qarorga muvofiq mahalla raislari uchun quyidagilar har oylik bajarishi kerak bo'lgan

10 Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.05.2024 y., 09/24/292/0356-son. URL // https://lex.uz/en/docs/6931871 (National database of legislative information, 21.05.2024, No. 09/24/292/0356 //. URL // https://lex.uz/en/docs/6931871)

asosiy tadbir va vazifalar sifatida belgilandi:

– milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarni targ'ib qilish;

– davlat organlari vakillarini aholi muammolarini hal etishga safarbar etish;

– mahalla infratuzilmasini yaxshilash;

– "Obod mahalla", "Obod ko'cha" va "Obod xonadon" mezonlarini joriy etish;

– "Yashil makon" umummilliy loyihasi amalga oshirilishiga ko'maklashish;

– ommaviy hasharlarni tashkil qilish va ularga aholini jalb qilish;

– qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlash;

–nuroniylar bilan birgalikda ta'lim muassasalarida tarbiyaviy soatlar va suhbatlar o'tkazish;

–"Mahalla yettiligi" a'zolari faoliyatini muvofiqlashtirib borish.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda albatta raislarning ma'naviy axloqiy sifatlarini rivojlantirish masalasi muhim ahamiyatga ega. Mahalla fuqarolar yig'inlari raislarining ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirishni alohida obyekt sifatida o'rganish, jamoatchilikning qadriyatlarga asoslangan boshqaruv bo'g'ini hisoblanadigan mahalladagi ishlarni samarali tashkil etishda, munosib nomzodlarni rais sifatida saylanishiga, raislar faoliyatini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash hamda baholashda, aholining jamiyat va davlat boshqaruviga ishonchini ortishiga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, mahalla raislarini bilim va malakasini oshirib borish, ma'naviy – axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni uslubiy-amaliy ho'llab-quvvatlash, mehnat faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlar bo'yicha to'g'ri, oqilona va adolatli qaror qabul qilishiga sharoit yaratish orqali mahallada ish samaradorligi ortadi. Boshqaruvning eng quyi bo'g'inidagi mahalla raislarning o'z xizmat vazifasini yaxshi bilishi va shu asosda aholiga sifatli xizmat ko'rsatishi ta'minlanadi. Pirovard natijada aholining mahalla tizimidan, "yettilik" vakillaridan roziligi ortadi.

JAMIYAT TARAQQIYOTIDA INSON RESURSLARI AHAMIYATINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

Suyarbek Amrullayevich Saydiyev – mustaqil tadqiqotchi,
Samarqand chet tillari instituti

Annotatsiya: *Inson resurslari faqat ishchi kuchining majmuasi emas, balki shaxsning intellektual, ijodiy va ma'naviy salohiyatini qamrab oluvchi keng tushunchadir. Ushbu maqolada inson resurslarining mohiyati, ularning falsafiy xususiyatlari va har tomonlama rivojlanish masalalari tahlil qilinadi.*

Аннотация: *Человеческие ресурсы – это широкое понятие, охватывающее не только совокупность рабочей силы, но и интеллектуальный, творческий и духовный потенциал личности. В данной статье анализируются сущность человеческих ресурсов, их философские характеристики и вопросы всестороннего развития*

Abstract: *Human resources are a wide notion that includes not just the labor force complex, but also a person's intellectual, artistic, and spiritual capacity. This article examines the essence of human resources, their philosophical qualities, and concerns of holistic development.*

Kalit so'zlar: *inson resurslari, innovatsiya, kognitiv, mehnat resurslari, inson kapitali, inson salohiyati, ekzistensializm, dialektik, kataklizm, adekvat.*

Ключевые слова: *человеческие ресурсы, инновации, когнитивный, трудовые ресурсы, человеческий капитал, человеческий потенциал, экзистенциализм, диалектический, катаклизм, адекватный.*

Keywords: *uman resources, innovation, cognition, labour resources, human capital, human potential, existentialist, dialectic, catastrophe, adequate.*

Inson resurslari tushunchasi bugungi kun jamiyatida strategik ahamiyatga ega bo'lib, turli ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda samaradorlikni oshirishda asosiy omil sifatida qaraladi. Inson resurslari biznes va jamiyatdagi asosiy aktivlardan biri bo'lib, ular tashkilotlarning maqsadlariga erishishda va turli vazifalarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Bu strategik rejalarni ishlab chiqishdan to innovatsiyalarini tatbiq qilishga qadar bo'lgan jarayonlarda namoyon bo'ladi. Shu boisdan, inson resurslarini ilmiy va falsafiy nuqtayi nazardan o'rganish dolzarb masalaga aylandi.

Inson resurslari davlat darajasida ham hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki aholining ta'lim darajasi, malakasi va sog'ligi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va innovatsion salohiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu yo'nalishdagi fikr-mulohazalar O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 6-noyabrda bo'lib o'tgan lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqida asosiy o'rinni egalladi. Nutqda "Yangi O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasi" doirasida "inson – jamiyat – davlat", degan yangi tamoyil asosida faoliyat olib borilishi ta'kidlandi[1].

Inson resurslari bo'yicha olimlar tomonidan konsepsiyaning tarixiy rivojlanishi yetarlicha o'rganilganligini ko'rishimiz mumkin. E.Ibrayevning ta'kidlashicha, "inson resurslari atamasi 1970-yillarda dolzarb bo'lib, o'sha davrda shaxsning iqtisodiyot va jamiyat jarayonlaridagi roli qayta ko'rib chiqilgan"[2]. Xorijiy manbalarda

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

2 Ибраева Э.А. Теоретические подходы к толкованию понятия "человеческие ресурс"// European Science. 2022. Том 2. № 64. С. 28-33. DOI: 10.24411/2410-2865-2022-10202

"inson resurslari" tushunchasi asosan tashkilotning xodimlar bilan ishlovchi bo'limi sifatida belgilanishiga urg'u berishadi. Masalan, rus olimi V.Nikolaenkoning ilmiy tahlilida bu tushuncha, "tashkilotning faqat xodimlarini emas, balki kapital va texnologiyalar kabi boshqa muhim resurslarni ham o'z ichiga olgan resurs", sifatida talqin qilinadi[3].

Inson resurslari tashkilot, korxona, muassasa, idora, biznes, tadbirkorlik sektori yoki iqtisodiyot tarkibiga kiradigan mehnat resurslarini tashkil etuvchi shaxslardir. Inson resurslari mamlakat aholisining faol bo'la olgan, milliy xo'jalikda ishtirok etish uchun jismoniy, kognitiv va amaliy qobiliyatlarga ega bo'lgan qismi sifatida ko'riladi. Umuman olganda, ushbu konsepsiyani ikki asosiy yo'nalishga ajratish mumkin:

- tashkilot xodimlari bilan bog'liq boshqaruvga ixtisoslashgan tor yo'nalish;

- tashkilotning barcha asosiy resurslarini o'z ichiga oluvchi kengroq tushuncha. Moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish tabiiy, inson, ishlab chiqarish, moliyaviy, axborot resurslari kabi tarkibiy qismlardan iborat. Inson resurslari – aholining ma'lum sifat xususiyatlariga ega bo'lgan qismidir. Biroq milliy iqtisodiy adabiyotlarda va statistik hisobda "inson resurslari" atamasi keng tarqalmagan, uning o'rniga "mehnat resurslari" va "mehnat salohiyati" atamalari qo'llaniladi. Mehnat resurslari va mehnat salohiyati birgalikda inson resurslarining aniq ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. M.Arnautning ta'kidlashicha, "Inson resurslari har qanday jamiyatning asosiy boyligini aks ettiruvchi tushuncha bo'lib, uning ravnaq topishi har bir insonning manfaatlarini hisobga olgan holda ushbu resursni qayta ishlab chiqarish, rivojlantirish va undan foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratilganda mumkin bo'ladi"[4].

Mehnat resurslari mamlakat aholisining mehnatga layoqatli qismi hisoblanib, o'zining psixofiziologik va intellektual xususiyatlari tufayli moddiy ne'matlar yoki xizmatlarni ishlab chiqarishga qodir bo'ladi. Mehnat resurslariga iqtisodiyotda band bo'lgan va band bo'lmagan, lekin mehnat qilishga qodir bo'lgan odamlar kiradi. "Inson resurslari" tushunchasi barcha "mehnat resurslari"dan ko'ra kengroq ma'noga ega, chunki u insonlarning ijtimoiy-madaniy xususiyatlari va shaxsiy-psixologik xislatlarini o'z ichiga oladi. A.Stepanovning fikricha, "Mehnat resurslari–faqat bilim, ko'nikma, tajriba, professionalizm va jismoniy holatni qamrab oladi, lekin shaxsning axloqiy va ma'naviy jihatlarini inobatga olmaydi"[5].

Boshqa resurslardan farqli o'laroq, inson resurslari muhim xususiyatga ega. N.Sinitskayaning fikricha, "Bu "jonli resurslar", ya'ni ong va his-tuyg'ularga ega bo'lgan resurslardir va ularning mehnat natijalari ehtimoliy xarakterga ega. Bu, ko'pincha, har bir aniq inson yoki ishchi guruhdan qanday natija olinishini oldindan baholashning qiyinligi anglatadi. Inson faoliyatida ruhiy va nomaterial jihatlarning ahamiyati katta, shuning uchun bunday resurslarga individual yondashuv zarur"[6].

Inson resurslari jamiyatning har tomonlama rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ularning mohiyatini anglash orqali jamiyatda samaradorlikni oshirish mumkin. Xususan:

-Iqtisodiy rivojlanish: inson resurslari yuqori malaka va bilim orqali iqtisodiy o'sishga hissa

3 Николаенко В . К вопросу о сущности понятия "человеческие ресурсы" // BENEFICIUM. 2023. № 3(48). С. 83-88. DOI: 10.34680/BENEFICIUM.2023.3(48).83-88

4 Арнаут М.Н. Дефиниция понятий "человеческий капитал", "человеческий потенциал" и "человеческий ресурс" // Этап: экономическая теория, анализ, практика. 2021. № 2. С. 79-85. DOI: 10.24412/2071-6435-2021-2-79-85

5 Степанов А.Д. К вопросу о концепции содержания и сравни тельной характеристике человеческого капитала // Науковеде ние. 2012. № 1. С. 1-5.

6 Синицкая Н.Я. Развитие теории человеческого капитала: науч ный обзор // Научное обозрение. Экономические науки. 2016. № 2. С. 182-190.

qo‘shadi.

-Ijtimoiy barqarorlik: inson resurslari ijtimoiy munosabatlarning barqarorligini ta’minlaydi.

-Innovatsion rivojlanish: innovatsiyalar inson resurslarining ijodiy salohiyatiga bog‘liqdir.

-Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot: inson resurslari fan va texnika sohasidagi rivojlanishni ta’minlaydi.

Inson resurslarini ilgari surish va inson kapitaliga sarmoya kiritish inson salohiyatini ro‘yobga chiqarishga yordam beradi. G.Stepanovning fikricha, “Inson resurslarining roli, ularni rivojlantirish va samarali foydalanishni chuqurroq tushunish inson kapitalini optimallashtirish uchun asos hisoblanadi. Shu bilan birga, inson salohiyatini tadqiq qilish uni rivojlantirishning asosiy omillarini aniqlashga, uni faollashtirish uchun usul va yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qildi”[7].

Shunday qilib bu konsepsiyalar bir-biri bilan bog‘liq va bir-biriga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

O‘z navbatida, rivojlangan inson salohiyati inson kapitali va inson resurslarining muhim manbaiga aylanadi. Shu tariqa, ushbu konsepsiyalarni birgalikda tadqiq qilish insonning jamiyat va iqtisodiyotdagi rolini chuqurroq tushunishga, uning muvaffaqiyatli rivojlanishi va samarali foydalanish omillarini aniqlashga imkon beradi.

Alohida shaxs yoki bir necha odamga sarmoya kiritilishi natijasida inson kapitali shakllanadi, uning asosiy maqsadi qo‘shimcha foyda olish va daromadlarni (moddiy va nomoddiy) oshirishdan iboratdir. Bu shaxslar, xo‘jalik subyektlari, hududlar, mintaqalar yoki davlatlar uchun amalga oshiriladi. Inson salohiyati-bu shaxsning tug‘ma va orttirilgan kuchlari, sifatlari hamda imkoniyatlarining yig‘indisidir. U shaxsiy va ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun foydalanilishi (yoki foydalanilmasligi) mumkin. Qulay sharoitlarda inson salohiyatini faollashtirish inson kapitali va resurslarining shakllanishiga yordam beradi va ijobiy natijaga olib keladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, davlat boshqaruvi kontekstida “inson resurslari” tushunchasini quyidagicha ta’riflash taklif qilinadi: Inson resurslari muayyan hududda yashayotgan insonlarning tug‘ma va orttirilgan xususiyatlari, sifatlari va qobiliyatlarining majmuasi bo‘lib, ularni uzoq muddatli sarmoyalar orqali rivojlantirish va to‘g‘rilash mumkin. Shuningdek, ulardan ma’lum ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda shaxsiy va ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun foydalanish mumkin.

Bu ta’rifni qo‘llash yagona qabul qilingan nazariy yondashuvning yo‘qligi sababli taklif qilinadi. Yagona talqin mazkur tushunchalarning o‘zaro aloqasini aniq ko‘rsatib beradi. U inson resurslari, kapitali va salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining strategik maqsadlari va vazifalarini ishlab chiqishda qo‘llanishi mumkin. Bundan tashqari, ushbu ta’rif insonning muayyan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashish qobiliyatini ta’kidlaydi. Bu insonning mehnat bozoridagi o‘zgarishlar, texnologik taraqqiyot, innovatsiyalarni joriy etish, turli kataklizmlar kabi tashqi sharoitlarga o‘z vaqtida va adekvat javob qaytarish qobiliyatini anglatadi. Ushbu tushuncha shuningdek, prognozlashtirish jihatini ham o‘z ichiga oladi. Rivojlanish istiqbollari inson va jamiyat hayotining turli sohalari ko‘rsatkichlariga asoslanishi mumkin. Bunda ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni hisobga olish zarur. Shuningdek, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarni baholash tahlilni yanada murakkablashtiradi.

Inson resurslarining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarni tahlil qilish uning mohiyatini

7 Степанова Г.Ф. Конспект лекций дисциплинию Управление персаналом. Омск. 2015. – С.6-252.

yana chuqurroq tushunishimizga yordam beradi. Ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan inson resurslarining asosiy xususiyati – insonning o‘ziga xoslik va unikalligidir. Insonlar nafaqat moddiy ishlab chiqarishning bir qismi, balki ma’naviy va ijtimoiy jarayonlarning subyektlari sifatida qaraladi. Inson resurslari faqat moddiy yoki iqtisodiy maqsadlarni emas, balki ma’naviy, axloqiy va intellektual salohiyatni ham o‘z ichiga oladi.

Ekzistensializm falsafasi nuqtayi nazaridan inson resurslarining xususiyati insonning o‘z mohiyatini anglash va uni rivojlantirish jarayonida namoyon bo‘ladi. Inson o‘z hayotining ma’nosini izlovchi mavjudot sifatida ko‘rib chiqiladi va bu jarayonda uning ichki salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ekzistensial yondashuv inson resurslarini boshqarishda faqat moddiy manfaat emas, balki shaxsning ma’naviy rivojlanishiga e’tibor qaratishni talab qiladi.

Inson resurslarini boshqarishda etik me’yorlar va qadriyatlarning ahamiyati yuqori. Inson qadr-qimmatini hurmat qilish, uning huquq va erkinliklarini himoya qilish boshqaruvdagi adolat va insonparvarlik prinsiplarining asosidir. Etik tamoyillarga asoslangan boshqaruv tizimi inson resurslarining samaradorligini oshiradi va jamoadagi ijtimoiy muhitni yaxshilaydi. Inson resurslari doimiy o‘zgarish va rivojlanish jarayonida bo‘ladi. Dialektik yondashuvga ko‘ra, inson resurslari yangi sifat bosqichlariga o‘tib boradi, bu esa jamiyat taraqqiyotiga ta’sir qiladi. Inson resurslarining dialektik xususiyati ta’lim, tarbiya va ijtimoiy muhitning inson rivojlanishiga ta’sirida namoyon bo‘ladi.

Inson resurslarining muhim falsafiy xususiyatlaridan biri – ularning doimiy rivojlanish va o‘zgaruvchanlikka moyilligidir. Inson o‘zining intellektual salohiyatini rivojlantirib, yangi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. Bu esa inson resurslarini samarali boshqarish uchun doimiy o‘quv jarayonlarini tashkil etish zarurligini anglatadi.

Falsafiy jihatdan inson resurslari shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va aloqalarni qamrab oladi. Shaxsning rivojlanishi jamiyatning taraqqiyotiga bog‘liq bo‘lgani kabi, jamiyatning rivojlanishi ham shaxsning kamolotga erishishiga xizmat qiladi. Inson resurslarini boshqarishda bu o‘zaro bog‘liqlikni hisobga olish muhimdir. Falsafa insonning ma’naviy kamolotiga katta ahamiyat beradi. Inson resurslarining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy, balki ma’naviy samaradorlikka ham xizmat qilishi kerak. Ma’naviy boyish shaxsning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlaydi va uning ijtimoiy faolligini oshiradi.

Shunday qilib inson resurslarining mohiyati va falsafiy xususiyatlarini chuqur anglash jamiyat taraqqiyoti va barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Inson resurslari faqat iqtisodiy vosita sifatida emas, balki ma’naviy-axloqiy jihatdan ham boylik manbai sifatida qaralishi lozim. Shu boisdan, inson resurslarini boshqarishda adolat, insonparvarlik va rivojlanish kabi falsafiy tamoyillarga tayanish katta ahamiyatga ega. Inson resurslari har bir jamiyatning eng muhim salohiyati bo‘lib, uning to‘g‘ri yo‘naltirilishi va rivojlantirilishi jamiyatning kelajakdagi muvaffaqiyatini belgilaydi.

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISHDA MA'LUMOTLAR BAZASIDAN FOYDALANISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

Dilshod Pahlavonovich Nabiyev – tayanch doktorant,
Buxoro davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda ma'lumotlar bazasidan foydalanishning ta'lim jarayonidagi ahamiyati va samaradorligi tadqiq etilgan. Eksperimental va nazariy yondashuvlar asosida o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ma'lumotlar bazalaridan foydalanish o'quvchilarning mustaqil o'rganish, analitik fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini sezilarli darajada oshiradi. Innovatsion texnologiyalar bilan ta'minlangan guruhlar an'anaviy usullar bilan o'qitilgan guruhlarga nisbatan yuqori natijalarga erishdi. Interfaol texnologiyalar va raqamli platformalardan foydalanish o'quvchilarning faolligini oshirib, dars samaradorligini yanada oshirdi. Maqolada ta'lim jarayonida ma'lumotlar bazasi va axborot texnologiyalarini keng joriy etish zarurligi ta'kidlanib, kelajakda sun'iy intellekt, virtual laboratoriyalar va "Blockchain" kabi texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim sifatini yanada oshirish mumkinligi ko'rsatilgan.*

Аннотация: *В данной статье исследуется важность и эффективность использования баз данных в процессе преподавания информатики и информационных технологий. Результаты исследования, проведенного на основе экспериментальных и теоретических подходов, показывают, что использование технологий баз данных значительно повышает способности учащихся к самостоятельному обучению, аналитическому мышлению и решению проблем. Группы, использующие инновационные технологии, достигли более высоких результатов по сравнению с группами, обучаемыми традиционными методами. Применение интерактивных технологий и цифровых платформ повысило активность учащихся и еще больше улучшило эффективность уроков. В статье подчеркивается необходимость широкого внедрения баз данных и информационных технологий в образовательный процесс и указывается на возможность повышения качества образования в будущем за счет использования искусственного интеллекта, виртуальных лабораторий и технологий блокчейн.*

Abstract: *This article examines the importance and effectiveness of using databases in teaching informatics and information technologies within the educational process. The research, based on experimental and theoretical approaches, demonstrates that the use of database technologies significantly enhances students' independent learning, analytical thinking, and problem-solving abilities. Groups utilizing innovative technologies achieved higher results compared to those taught through traditional methods. The use of interactive technologies and digital platforms increased student engagement and further improved the efficiency of lessons. The article emphasizes the necessity of widely implementing database and information technologies in education and highlights the potential for enhancing the quality of education through the application of artificial intelligence, virtual laboratories, and blockchain technologies in the future.*

Kalit so'zlar: *ma'lumotlar bazasi, axborot texnologiyalari, innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, sun'iy intellekt, dasturiy taminot, virtual laboratoriya, va boshqalar.*

Ключевые слова: *база данных, информационные технологии, инновационные технологии, интерактивные методы, искусственный интеллект, программное обеспечение, виртуальная лаборатория и другие.*

Keywords: *database, information technologies, innovative technologies, interactive methods, artificial intelligence, software, virtual laboratory, and others.*

Informatika va axborot texnologiyalari zamonaviy jamiyatda muhim ahamiyat kasb etib, har bir sohada raqamli yechimlarning joriy etilishini talab qilmoqda. Ta'lim tizimida esa axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali samaradorlikni oshirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda ma'lumotlar bazasi va axborot tizimlardan foydalanish bu jarayonning ajralmas

qismiga aylanib bormoqda.

Zamonaviy jamiyatlarda axborot texnologiyalari va informatika fanining ahamiyati tobora ortib borgani sayin, yurtimizda ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va ta'lim tizimini zamonaviy talablar darajasiga ko'tarish maqsadida bir qator muhim qarorlar va farmonlarni qabul qildi. So'nggi yillarda Prezidentimiz tomonidan imzolangan farmonlar va qarorlar ta'lim sohasida, ayniqsa, informatika va axborot texnologiyalari fanlarini o'qitishda innovatsion yondashuvlarni joriy etishga yo'naltirilgan. Masalan, 2020-yil 5-oktabrda "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-6079-sonli Farmonida raqamli texnologiyalarni joriy etish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi bilim va ko'nikmalarni oshirish, shuningdek, ta'lim tizimida zamonaviy usullarni qo'llash yo'lga qo'yildi va bu strategiya ta'lim jarayonida ma'lumotlar bazasi kabi innovatsion texnologiyalardan foydalanishni rag'batlantirishni nazarda tutadi.

Ushbu farmon asosida O'zbekistonda ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi kengaymoqda, informatika va axborot texnologiyalari fanlarini o'qitishda innovatsion usullar, jumladan, ma'lumotlar bazasi texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati ortib bormoqda. Bu esa o'quvchilarning zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlanishiga, ularning mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Ma'lumotlar bazalari katta hajmdagi axborotni samarali boshqarish va saqlash imkonini beradi. Bu esa o'quvchilarga real hayotdagi masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi[1]. Zamonaviy o'qitish metodlaridan foydalanish orqali o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishga bo'lgan qiziqishi ortadi. Ayniqsa, ma'lumotlar bazasi va axborot texnologiyalari bilan ishlash bugungi kunda talab yuqori bo'lgan kasbiy ko'nikmalar qatoriga kiradi[2].

Ushbu maqolada informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda ma'lumotlar bazasidan foydalanishning innovatsion texnologiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – o'qitish jarayonida ma'lumotlar bazasidan foydalanishning ta'lim samaradorligiga ta'sirini aniqlash va ilg'or pedagogik texnologiyalar orqali ta'lim sifatini oshirish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu tadqiqotda informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda ma'lumotlar bazasidan foydalanishning innovatsion texnologiyalari o'rganildi. Tadqiqot jarayonida eksperimental va nazariy yondashuvlardan foydalanildi. Eksperimental tadqiqot informatika darslari davomida amalga oshirildi, bunda o'quvchilarning ma'lumotlar bazasi texnologiyalarini qo'llash orqali ta'lim olish samaradorligi o'rganildi. Eksperimentda turli metodikalar, shu jumladan interfaol ta'lim texnologiyalari va amaliy mashg'ulotlar asosida o'qitish usullari tahlil qilindi.

O'quvchilarning bilim darajasini baholash uchun diagnostika metodlari, testlar, so'rovnomalar va amaliy topshiriqlar orqali natijalar o'lchandi[3]. Tadqiqot davomida ma'lumotlar bazasi bilan ishlash ko'nikmalarining o'quvchilar o'rtasida qanday shakllanganligi kuzatildi. Test natijalari asosida o'quvchilarning bilim darajasi tahlil qilindi va ularning ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil

1 Зарипов Н.Н. использование иностранного опыта в обучении информатике и информационным технологиям в школе // проблемы современного образования. – 2020. – №. 6. – С. 213-218

2 Zaripov, N. (2024). Maktab o'quvchilariga dasturlash tillarini o'qitish usullari: muammolar va yechimlar. News of the NUUz, 1(1.9), 88-90.

3 Paxlavonovich, N. D. (2024). The problem of innovative activity in the organization of education on the base of information technologies in general education schools. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(6), 634-638.

qilish hamda yechim topish ko‘nikmalariga ta’siri baholandi.

Nazariy yondashuvlar doirasida ilg‘or pedagogik va texnologik adabiyotlar o‘rganildi, ilgari o‘tkazilgan tadqiqot natijalari tahlil qilindi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta’lim jarayoniga integratsiya qilinishi natijasida yuzaga keladigan o‘zgarishlar ko‘rib chiqildi. Pedagogik tadqiqot natijalariga asoslanib, ma’lumotlar bazasidan foydalanish ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faolligini oshirishi va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi[4]. Bundan tashqari, o‘quvchilarning innovatsion texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatini oshirish uchun ularni mustaqil va jamoaviy loyihalar bilan shug‘ullanishga yo‘naltirish muhimligi ta’kidlandi.

Eksperiment natijalari statistik usullar yordamida qayta ishlanib, ularning ma’lumotlar bazasi texnologiyalarini o‘zlashtirishga ta’siri aniqlandi. Shuningdek, ta’lim jarayonida interfaol texnologiyalar va raqamli ta’lim platformalaridan foydalanish samaradorligi ham o‘rganildi. Natijalarga ko‘ra, ma’lumotlar bazalaridan foydalanish informatika darslarining interfaolligini oshirib, o‘quvchilarning ilg‘or texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatini mustahkamlashga yordam bergan.

Nazariy yondashuvda esa pedagogik va texnologik adabiyotlar tahlil qilindi, ilg‘or tajribalar va ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari ko‘rib chiqildi. Eksperiment natijalari statistik usullar yordamida qayta ishlanib, olingan ma’lumotlar tahlil qilindi. Shuningdek, ta’lim jarayonida interfaol texnologiyalar va raqamli ta’lim platformalaridan foydalanish samaradorligi o‘rganildi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ma’lumotlar bazasi texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish qobiliyatini oshirishga katta ta’sir ko‘rsatdi. O‘quvchilar amaliy mashg‘ulotlar orqali real hayotdagi masalalarni hal qilish bo‘yicha tajriba orttirishdi. Eksperiment davomida aniqlanishicha, innovatsion texnologiyalarni qo‘llagan guruhdagi o‘quvchilar an’anaviy metodlar bilan o‘qitilgan guruhga nisbatan ma’lumotlarni yaxshiroq tushunishdi va mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishdi. Bundan tashqari, ma’lumotlar bazasidan foydalanish o‘quvchilarning muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi[5]. Ular turli xil loyihalarda ishtirok etib, ma’lumotlarni tahlil qilish, qayta ishlash va amaliy qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu esa ularning nafaqat texnik bilimlarini, balki ijodiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantirishga xizmat qildi.

Statistik natijalar shuni ko‘rsatdiki, innovatsion texnologiyalarni qo‘llagan guruhning o‘quvchilari 80% hollarda mustaqil muammolarni hal qilishga qodir bo‘lishdi, bu esa an’anaviy metod bilan o‘qitilgan guruhga nisbatan 30% yuqori natija ekanligini bildiradi. Shuningdek, ular murakkab masalalar bo‘yicha ham jamoaviy ishlashni o‘zlashtirishgan va natijaviy yechimlarga erishgan.

O‘quvchilarning interfaol texnologiyalar bilan ishlashga bo‘lgan qiziqishi ham sezilarli darajada ortgan. So‘rovnomalar natijalariga ko‘ra, ularning 85% zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ularga o‘z bilimlarini yanada rivojlantirishga yordam berganligini ta’kidlagan. Ayniqsa, ma’lumotlar bazasi bilan bog‘liq loyihalar bajarish orqali ularning kelajakdagi kasbiy yo‘nalishlariga bo‘lgan qiziqishi ortgan. Shu bilan birga, o‘qituvchilar ham ushbu texnologiyalarning ta’lim jarayoniga kiritilishi natijasida dars samaradorligini oshirish imkoniyatiga ega bo‘lishdi. Ular yangi usullar orqali o‘quvchilarni rag‘batlantirish, mustaqil

4 Nabiyev D. (2023). Modern in education electron technologies and interactive of the methods of use importance. innovative research in modern education, 1(3), 27-30.

5 Abdullayevich S.M. (2024). Linking tables in database management system. pedagogical reforms and their solutions, 3(2), 57-58.

ishlashga o‘rgatish va real loyihalar orqali ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llarini muvaffaqiyatli amalga oshirishdi. Natijada, o‘quv jarayoni yanada dinamik va samarali tus oldi.

O‘quv usullari samaradorligi. 1-jadval.

Ko‘rsatkichlar	An’anaviy o‘qitish	Innovatsion o‘qitish
O‘quvchilar faolligi	O‘rtacha	Yuqori
Mustaqil o‘rganish	Kam	Yaxshi rivojlangan
Raqamli texnologiyalardan foydalanish	Cheklangan	To‘liq joriy etilgan
Analitik fikrlash	Past	Rivojlangan
Dars samaradorligi	O‘rtacha	Yuqori

Yuqoridagi jadval an’anaviy va innovatsion o‘qitish usullari o‘rtasidagi asosiy farqlarni ko‘rsatadi. Ushbu tavsifda har bir ko‘rsatkich bo‘yicha batafsil tahlil beriladi.

1. O‘quvchilar faolligi – An’anaviy o‘qitish tizimida o‘quvchilar ko‘proq passiv rol o‘ynaydi, ya’ni ular o‘qituvchi tomonidan berilgan bilimlarni qabul qilish bilan cheklanadi. Innovatsion o‘qitishda esa interfaollik muhim ahamiyat kasb etib, o‘quvchilar mustaqil fikrlashga, muhokama qilishga va amaliy mashg‘ulotlarda faol qatnashishga undaladi.

2. Mustaqil o‘rganish – An’anaviy o‘qitishda mustaqil izlanish imkoniyati cheklangan bo‘lsa, innovatsion usullarda o‘quvchilar mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltiriladi. Zamonaviy texnologiyalar va ma’lumotlar bazalaridan foydalanish orqali o‘quvchilar o‘zlari qiziqqan mavzularni chuqurroq o‘rganish imkoniga ega bo‘ladilar.


3. Raqamli texnologiyalardan foydalanish – An’anaviy usullarda darslar odatda an’anaviy materiallar – kitob, daftar, doska kabi vositalar yordamida o‘tkaziladi. Innovatsion o‘qitishda esa raqamli texnologiyalar (ma’lumotlar bazalari, elektron resurslar, onlayn ta’lim platformalari) faol qo‘llanilib, o‘quvchilarning bilim olish jarayoni ancha samarali bo‘lishiga xizmat qiladi.

4. Analitik fikrlash – Innovatsion o‘qitish metodlari o‘quvchilarda analitik va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Ma’lumotlarni tahlil qilish, turli manbalarni solishtirish va natijalarga asoslangan xulosalar chiqarish imkoniyati o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini kengaytiradi.

5. Dars samaradorligi – Innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali dars samaradorligi sezilarli darajada oshadi. O‘quvchilar mavzularni yanada tezroq va aniqroq tushunib, o‘qituvchilar bilan faol muloqotda bo‘ladilar. Bunday yondashuv dars vaqtini tejash bilan birga, o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlashga ham yordam beradi.

Jadvaldan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, innovatsion o‘qitish texnologiyalari o‘quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil o‘rganish qobiliyatlarini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni samarali qo‘llash orqali dars samaradorligini oshirish imkonini beradi. Ayniqsa, ma’lumotlar bazalari va raqamli resurslar ta’lim jarayoniga integratsiya qilinsa, o‘quvchilar axborotni mustaqil izlab topish va tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ta’lim sifatini oshirish va kelajak avlodni innovatsion fikrlashga yo‘naltirish uchun muhim omildir.

Informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llagan holda ma’lumotlar bazasidan foydalanish va an’anaviy usul orqali o‘quvchilarning bilim o‘zlashtirish natijalari quyidagi diagrammada taqqoslangan:



1-rasm. O‘quvchilarning bilim o‘zlashtirish natijalari diagrammasi.

An’anaviy o‘qitish usuli bilan ta’lim olgan o‘quvchilarning bilim o‘zlashtirish darajasi 29.7% ni tashkil etmoqda. Bu shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy dars usullari o‘quvchilarga ma’lum darajada ta’sir qilsa-da, ularning bilim olish jarayoni sekinroq va amaliyotga yo‘naltirilmagan bo‘lishi mumkin.

Ma’lumotlar bazalaridan foydalangan holda o‘qitilgan o‘quvchilar bilim o‘zlashtirish darajasi 70.3% ga yetgan. Ma’lumotlar bazasi bilan ishlash o‘quvchilarga interaktiv o‘qitish, tezkor axborot qidirish va real loyihalar bilan ishlash imkoniyatini yaratadi, natijada bilim olish jarayoni samaraliroq kechadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, ma’lumotlar bazalaridan foydalanish ta’lim jarayonida nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki o‘quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni joriy etish o‘qitish jarayonida individual yondashuv imkoniyatlarini kengaytiradi va o‘qituvchilar uchun samarali boshqaruv mexanizmini yaratadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda ma’lumotlar bazalaridan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. O‘quvchilar yangi bilimlarni o‘zlashtirishda faolroq ishtirok etadi, mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi va texnologik yondashuvlardan foydalana boshlaydi. O‘qituvchilar uchun esa dars jarayonini interfaol va samarali tashkil etish imkoniyati kengayadi.

Kelajakda ushbu yondashuvni yanada takomillashtirish muhim vazifa hisoblanadi. Xususan, sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili asosida moslashtirilgan ta’lim tizimlari ishlab chiqilishi mumkin. Virtual laboratoriyalar va interfaol o‘qitish platformalari orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini yanada chuqurroq o‘zlashtirishlari uchun imkoniyatlar kengayadi. Shuningdek, ta’lim jarayoniga “Blockchain” texnologiyalarini joriy qilish orqali o‘quvchilarning bilim natijalarini ishonchli tarzda qayd etish va sertifikatlashtirish mumkin bo‘ladi. Ma’lumotlar bazasi texnologiyalaridan foydalangan holda o‘quvchilarni shaxsiy ta’lim yo‘nalishlariga yo‘naltirish imkoniyati ham kengayadi.

Kelgusida ushbu yondashuvlarni keng miqyosda joriy etish orqali ta’lim jarayoni yanada samarali va innovatsion bo‘lishiga erishiladi.

ICHKI NUTQNING SHAKLLANISHI VA EGOSENTRIK NUTQDAN FARQLI TOMONLARI

Marjona Jinaydullo qizi Raxmonova – izlanuvchi,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya: *Ichki nutq – ovozsiz ichki mulohaza bo'lib, dastlab, bolalarda tashqi nutq shakllana boshlashi bilan yoki undan oldinroq paydo bo'la boshlaydi. Ushbu tadqiqot ishida ichki nutq haqidagi eng bahsli masalalardan biri bo'lmish egosentrik nutq va ichki nutqning dastlab shakllanish bosqichi, bolalarda ichki nutqning funksiyasi, egosentrik nutq va monologik nutqning farqlari hamda bolalarda ichki nutqni shakllantiruvchi bir qator mashqlar haqida fikr yuritiladi. Bolalar bilan o'tkazilgan tajribalar va badiiy matnlardan olingan parchalar orqali fikrlar dalillanadi.*

Аннотация: *Внутренняя речь – это молчаливое внутреннее отражение, которое начинает проявляться у детей одновременно с формированием внешней речи или даже раньше. В данной исследовательской работе рассмотрен один из наиболее спорных вопросов о внутренней речи, эгоцентрической речи и начальном этапе формирования внутренней речи, функции внутренней речи у детей, отличиях эгоцентрической речи от монологической речи, а также ряд упражнений, которые Формирование внутренней речи у детей. Идеи подкрепляются экспериментами с детьми и отрывками из художественных текстов.*

Abstract: *Inner speech is a silent internal reflection that initially begins to appear in children as soon as or before the formation of external speech. This research paper discusses one of the most controversial issues about inner speech: egocentric speech and the initial stage of formation of inner speech, the function of inner speech in children, the differences between egocentric speech and monologic speech, and a number of exercises that form inner speech in children. The ideas are substantiated through experiments conducted with children and excerpts from literary texts.*

Kalit so'zlar: *ichki nutq, egosentrik nutq, kognitivlik, intellekt, tashqi nutq, motorika, monologik nutq, intellektual qobiliyat va h.k.*

Ключевые слова: *внутренняя речь, эгоцентрическая речь, познание, интеллект, внешняя речь, моторика, монологическая речь, интеллектуальные способности и др.*

Keywords: *inner speech, egosentric speech, cognition, intellect, outer speech, motor skills, monologic speech, intellectual ability, etc.*

Bugungi kunda tilshunoslikning eng ko'p munozara va bahslarga sabab bo'layotgan yo'nalishlaridan biri bu psixolingvistika sohasidir. Chunki psixolingvistika fanida, asosan, insonning ichki kechinma va ruhiyatining til hamda nutqqa ta'siri hamda nutqda ifodalanishi o'rganiladi. Tajriba va amaliyotlar o'tkazishda esa bir qator qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Sababi ruhiyat va ichki kechinmalar har bir inson uchun individual holat hisoblanadi va aksariyat insonlar his-tuyg'ularini boshqalar bilan baham ko'rishni xohlamaydilar. Biz tadqiqot olib bormoqchi bo'lgan mavzu – ichki nutq ham aynan shunday masalalar sirasiga kiradi. Ushbu maqolada biz yosh bolalarda ichki nutqning shakllanish bosqichlari haqida ham fikr yuritmoqchimiz. Chunki hozirgi vaqtda bolalar orasida duduqlanish, o'z fikrlarini nutqda aniq yoritib bera olmaslik yoki eshitilgan ma'lumotlarni o'zlashtira olmaslik kabi holatlar ko'p uchramoqda. Bu esa o'z navbatida bolalardagi ichki nutqning holatiga, ya'ni yaxshi shakllangan yoki yo'q ekanligiga bog'liq jarayondir.

Ichki nutq har bir shaxsning o'z ichki his – tuyg'u va kechinmalarini, voqelikka nisbatan asl bahosini bera oladigan yashirin nutqi demakdir. Inson ichki nutq orqali suhbatdoshining fikrlariga bo'lgan e'tirozlarini ham aniq ayta oladi, ammo tashqi nutqqa shu holicha chiqarmaydi. Chunki tashqi nutqda vaziyat, tashqi ta'sirlar, suhbatdoshning kayfiyati ham hisobga olinishi lozim. Shu o'rinda fikr va mulohazalarimizni insonda ichki nutq shakllanish bosqichlari va ko'rinishlari haqida fikr yuritishdan boshlasak.

Ichki nutq, dastlab, 3-4 yoshdan, ya'ni bolada tashqi nutq shakllanish jarayoni takomillasha borgani sayin paydo bo'la boshlaydi. Bolalarda ichki nutq dastlab egosentrik nutq ko'rinishida shakllanadi[1]. Bunda bola o'z ichki kechinmalarini baland tovushda, hatto baqirib ham aytishi mumkin. Ammo bu nutqning tinglovchisi uning nazarida faqat o'zi bo'ladi. Vigotskiyning fikrlariga ko'ra, bolalarda egosentrik nutq, ko'pincha biror bir o'yin mashg'ulotiga berilib ketgan paytda aniqroq namoyon bo'ladi[2]. Ichki nutq bolalarda biror muammoning yechimini topish jarayonida yorqinroq namoyon bo'ladi. Bunda egosentrik nutq ichki nutq uchun asos vazifasini bajaradi. Dastlab egosentrik nutq shakllanadi va ichki nutq hosil bo'lishi uchun zamin yaratadi. Lev Vigotskiy ichki nutqni insonning intellektual qobiliyati va xulq-atvorini tartibga solish uchun juda ham muhim jarayonlardan biri deya ta'riflaydi[3]. Bundan ko'rinib turibdiki, insonlarning o'zaro muloqotga kirishuvi va ma'lumot almashinuvi uchun tashqi nutqni asos sifatida ko'ramiz. Ushbu jarayonni tartibga solib turadigan vosita ichki nutqdir. Katta yoshlilarda ham egosentrik nutq kuzatilishi mumkin. Bu holat odatda, kuchli aqliy zo'riqishlar, depressiya, stress va kuchli hayajon natijasida bo'lishi mumkin. Bunday holatda, asosan, ichki nutqdagi afsuslanish, o'zimizni koyish, xafachiligimizni tashqi nutqqa chiqaramiz, ammo bu tashqi nutq emas, ichki nutqning egosentrik ko'rinishi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, bunday holatda ham nutq egasi uchun so'zlovchi va tinglovchi birlashgan holatda bo'ladi. Garchi egosentrik nutqimizni atrofdagilar eshitsa-da, bu nutq o'z-o'zimizga qaratilgan nutq shaklidir[4]. Shu o'rinda egosentrik nutqning nutqning monologik shaklidan farqini aytib o'tsak. Egosentrik nutqni garchi, atrofdagilar eshitsa-da, fikr yuritilayotgan masalani aniq anglay olmaydilar. Chunki uning asosi bizning ichki nutqimizda boshlangan bo'ladi. Monologda esa matndan tashqari holatda ham mavzu va muammo aniq ko'rinib turadi. Vigotskiy egosentrik nutqni ichki nutqning funksional ekvivalenti deb hisoblaydi. Chunki har ikkala nutq ko'rinishida ham so'zlovchi va tinglovchi birlashgan (I shaxs) holatida bo'ladi[5]. Badiiy matnlardan olingan parchalar orqali fikrlarimizni dalillaymiz:

"U gapiradi, gapiradi. Men hayron bo'laman. Buncha nomlarni qaydan biladi? Hammasi qandoq qilib esida turadi? Hammasini o'z ko'zi bilan ko'rganmi? Yo meni laqillatib, o'z ichidan chiqarib aytadirmi?"[6]

Badiiy matndan olingan parchada qahramon ichki nutqida subatdoshining fikrlarini tahlil qilmoqda.

"O'zgarib ketibdi, – derdi Abdulla uyga qaytar ekan. – Juda o'zgarib ketibdi. Nahotki ikki yil ichida shunday o'zgarish mumkin bo'lsa? Ilgari qop-qora qiltiriq bir qiz edi. Endi-chi?"[7]

Ichki nutq shakllanib bo'lgach, dastlab u egosentrik nutq ko'rinishida bo'lishini aytib o'tdik. Bola 6-7 yoshga yetganda esa unda haqiqiy yashirin shakldagi ichki nutq shakllanadi va u o'z kechinma va harakatlarini ichki nutqida tahlil va tanqid qila oladi. Egosentrik nutqning ichkilashtirilishi bolalarda dars jarayonida matematik misollarni tahlil qilish bilan ham amalga oshiriladi. Chunki dars vaqtida o'qituvchi bolalardan tinchlikni saqlashlarini hamda "ichida" masalani tahlil qilishini talab qiladi. Bu esa, o'z navbatida, ichki nutqning shakllanishi uchun sharoit yaratib beradi. 6-7 yosh bolalarda

1 Выготский, Лев С., Мишление и реч. Translated as Thought and Language, Alex Kozulin (trans.), Cambridge, MA: MIT Press, 1986.
2 O'sha manba.
3 Vygotsky, Lev S., Display work.
4 Agustin Vicente and Fernando Martinez Manrique. Inner Speech: Nature and Functions. – Granada, 2011. –P. 12.
5 Agustin Vicente and Fernando Martinez Manrique. Display work.
6 Cho'lpon. Kecha va Kunduz.– Toshkent: Sharq, 2018. – 304 b.
7 Umarbekov O'. Odam bo'lish qiyin. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 212 b.

ichki nutqning egosentrik nutq holida qolib ketishining oldini olish uchun ularga ko‘proq rasm chizdirish, mayda motorikani shakllantiruvchi mashqlar (mosh, loviya, guruch va no‘xat kabi mahsulotlarni aralash holda berish hamda ularni turlarga ajrattirish) bajartirish lozim[8]. Yana bir usuli shundan iboratki, bolaga biror bir ko‘p predmetli suratni bo‘laklarga bo‘lgan holatda beramiz. Dastlab surat bo‘laklari to‘g‘ri tartibda yig‘ib ko‘rsatiladi. Bola 2-3- daqiqa qarab turib, suratni o‘rgangach, yana tartibsiz holatga keltirib, qaytadan yig‘ib chiqishi talab qilinadi. Agar u rasmni to‘g‘ri yig‘ib bera olsa, bu ichki nutqning yaxshi shakllanganligini bildiradi. Aksincha bo‘lganda esa bu mashqi ko‘proq bajarib turish lozim, chunki bunaqa holatda bolada ichki nutq yaxshi shakllanmagan yoki umuman yo‘q bo‘lishi ham mumkin. Bolada ichki nutqning yaxshi shakllanishi uning tashqi nutqining ravonligi, fikrlashining izchilligi, impulsivlikni yengishi hamda kognitiv rivojlanishi uchun asos vazifasini bajaradi. Bolalarda egosentrik nutq birdan ichkilashtirilmaydi. Dastlab, shivirlash, pichirlash orqali tovush chastotasi biroz pasaytiriladi. Shundan keyin sekin-asta ichkilashtirish jarayoni boshlanadi, ya’ni haqiqiy ichki nutq shakllanadi. Ana endi bolada shaxsiyatning shakllanish bosqichi tezlashib boradi. Yosh bolalarda ham ichki nutq rivojlanishi natijasida uning ongi tez o‘sa boshlaydi[9]. Bola mustaqil fikrlashni o‘rganadi. Ichki nutq orqali keyinchalik o‘z dunyosini quradi. Tajribalarimiz davomida bolalar bilan ham ishladik. 4 yoshli boladan onasi va o‘zi haqida bilishni xohlashimizni aytganimizda u onasining rasmini chizib berishini aytdi va quyidagi rasmni chizdi:



Birinchi rasmni “onam yomg‘irda ham yuradilar” deb izohladi. Bizning fikrimizcha, bola onasining yomg‘irda ivib, ishdan qaytgan holatidan ta’sirlangan va bu onasi haqida so‘raganimizda, uning xotirasida jonlandi hamda ichki nutqi orqali uni tasvirladi. 2-rasmni esa u “onam va men” deb nomladi. 3-rasmni “onam, otam va men” deb izohladi. 2-3 rasmlarda ba’zi bir tana a’zolari nomutanosib ravishda katta yoki kichik tasvirlangan. Bu bolaning intellektual qobiliyatining qo‘l motorikasi bilan moslasha olmayotganidan dalolat beradi. Rasmlarda tasvirlar va ularning izohlari mutanosibligi esa bolada allaqachon ichki nutqning fikrlash bilan mos ravishda rivojlanganining isbotidir. Chunki u chizgan rasmlarini hech qanday qiyinchilik va qo‘rquvlarsiz izohlab bera oldi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, insonda ichki nutq dastlab 3 yoshdan boshlab uning ekvivalenti bo‘lmish egosentrik nutq ko‘rinishida shakllana boshlaydi. Bu davrda bolaga ertaklar o‘qib berish, rang-barang tasvirli rasmlar bilan ishlash foydaliroq. Chunki ichki nutqning yaxshi rivojlanishi bolaning kognitiv fikrlashi va intellektual qobiliyatining o‘sishi uchun xizmat qiladi. Shu bila birga ichki nutq tashqi nutq uchun asos vazifasini bajarib, tashqi nutqning qolipi ham ichki nutq jarayonida tuziladi. Ongimizdagi fikrlarni saralash va tashqi nutqqa moslashtirish jarayoni ham ichki nutqda amalga oshiriladi.

8 Белянин В.П. Психолингвистика: учебник.. — Москва: Флинта. Московский психолого-социальний институт, 2003.

9 Brinthaupt Michael B.Hein and Trace Kramer. The Self–Talk Scale: Development, Factor Analysis, and Validation. Journal of Personality Assessment. 2010.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

E'zozaxon Baxrom q'izi Xaitova – magistrant,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi pedagoglarning tarbiyalanuvchilarni maktabga tayyor ekanliklarini Davlat ta'lim standarti va Ilk qadam davlat dasturlariga asosan pedagogik bilim va mahoratlariga tayangan holda to'g'ri aniqlay olishlari lozimligi hamda bolalarni maktabga tayyorlashda metodik bilimga tayanish, o'yini ta'limdan foydalanish haqida so'z yuritilgan. Bundan tashqari tarbiyalanuvchilarning maktabda o'qishga aqliy va jismoniy tayyorligi nimalarni o'z ichiga olishi haqida ma'lumot berilgan.*

Аннотация: *В данной статье идёт речь о педагогах, работающих в организациях дошкольного образования, должны уметь правильно определять готовность учащихся к школе, опираясь на свои педагогические знания и умения, основанные на государственных программах ГОСО и "Первый шаг", а также опираясь на методические при подготовке детей к школе, использование игрового обучения. Кроме того, была дана информация о том, что включает в себя психическая и физическая готовность учащихся к обучению в школе..*

Abstract: *In this article, educators working in preschool education organizations should be able to correctly determine whether students are ready for school, relying on their pedagogical knowledge and skills based on the State Education Standard and First Step state programs, and relying on methodical knowledge in preparing children for school. the use of game education was discussed. In addition, information was given about what mental and physical readiness of students to study at school includes.*

Kalit so'zlar *:pedagogik bilim, mahorat, o'yin ta'limi, metodik bilim, aqliy tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik, Davlat ta'lim standarti, ma'naviy yetuklik.*

Ключевые слова: *педагогические знания, навык, игровое обучение, методические знания, умственная подготовка, физическая подготовка, Государственный образовательный стандарт, духовная зрелость.*

Keywords: *pedagogical knowledge, skill, game education, methodical knowledge, mental training, physical training, State educational standard, spiritual maturity.*

Bolalarni har tomonlama rivojlanishiga diqqat etgan holda, maktab ta'limiga tayyorlashda maktabgacha ta'lim tashkilotlari miqyosida tashkil etiladigan ta'lim va tarbiyaviy faoliyatlar, mashg'ulot jarayonlarida foydalaniladigan pedagogik innovatsion texnologiyalar va tarbiyachilarning yetarlicha kasbiy salohiyatga ega bo'lishlari juda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bir qator olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolaning rivojlanish jarayonida uning jismoniy, aqliy, psixologik, ma'naviy imkoniyatlarini hisobga olish lozimligi, va aynan mana shu rivojlanish ko'rsatkichlariga tayangan holda ishlab chiqilgan mashg'ulotlar bilan maktab ta'limiga tayyorlovga o'rgatish samarali hisoblanadi. Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida maktab ta'limi bilan hamkorlik aloqalarini olib borilishi ham tarbiyalanuvchilarni maktabga tayyorlashning asosiy bir bo'g'iniga kiradi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi pedagoglari guruhdagi har bir tarbiyalanuvchining maktabga tayyorligini to'g'ri aniqlay olishlari uchun yetarlicha pedagogik bilim, tajriba va malakaga ega bo'lishlari kerak, bunda tarbiyachilar davlat ta'lim standartlari va Ilk qadam davlat o'quv dasturi talablariga tayangan holda faoliyat olib borishlari muhim ahamiyatni kasb etadi.. Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida tarbiyachilar tomonida olib boriladigan pedagogik faoliyatlar yangi innovatsion texnologiyalar bilan boyitilgan hamda mukammal darajada bo'lishi, bolalar

faoliyatlar jarayonida faol bo‘lishlari muhim hisoblanadi[1].

Maktabgacha ta’limning bola hayotidagi o‘rni.

Maktabgacha ta’lim bolaning sog‘lom, har tomonlama yetuk bo‘lib shakllanishini ta’minlabgina qolmay, unda o‘qish va o‘rganishga intilish hissini uyg‘otadi, uni muntazam ta’lim va tarbiya olishga tayyorlaydi. Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida yuqorida aytib o‘tilganidek O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun ishlab chiqilgan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi qo‘llanilishi lozim. Ushbu hujjat O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablariga muvofiq yaratilgan. Hozirgi shiddat bilan rivojlanib kelayotgan zamonda, maktabgacha ta’lim sohasi ham jadal rivojlanib kelayotgan soha bo‘lib, ushbu sohani yanada rivojlantirish uchun nafaqat bizning mamlakatimizning , balki butun dunyo mutaxassislari birdek harakat qilishmoqda, ushbu ishlab chiqilgan davlat o‘quv dasturi mamlakatimizning maktabgacha ta’lim davlat standartini amalga oshirish mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturining asosiy vazifasi kompetensiyaga asoslangan holda bola shaxsini rivojlantirish hisoblanadi. Dasturga amal qiladigan har bir pedagog bolaning shaxsiga hurmat ko‘rsatishi va ta’lim-tarbiya jarayonini dastur tamoyillariga muvofiq tashkil etishi lozimdir. Pedagoglar tarbiyalanuvchilarni maktabga tayyorlash mobaynida, ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etar ekanlar, avvalo ushbu jarayonni rejalashtirib oladilar, bolaning har tomonlama kamol topib rivojlanishiga va uning qobiliyatini ochishga hissa qo‘shadigan rivojlantiruvchi muhitni yaratadilar. Buning uchun avvalo pedagog bolaning rivojlanish xususiyatlarini bilishi ,uning his-tuyg‘ularini tushunishi, har bir bolaning qiziqish va ehtiyojlarini aniqlay olishi va ta’lim jarayonini tashkil etishda ushbu ko‘rsatkichlarni hisobga olishi kerak. Pedagog guruhda shunday rivojlantiruvchi muhit yaratadiki, unda har bir tarbiyalanuvchi o‘zini ardoqli, qobiliyatli va ta’lim jarayoniga jalb qilinib, faol ishtirok etayotgandek his qilishi kerak. Tarbiyachi pedagog bolaning mustaqil faoliyat olib borishi, natijalarga erishish va yutuqlarga ega bo‘lish hamda ulardan zavqlanish qobiliyatini rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

Shuningdek, zarurat tug‘ilganida, pedagog har bir bola undan yordam va dalda olishi mumkinligiga ishonch hissining paydo bo‘lishiga yordam beradi. Tarbiyachi pedagog muntazam tarzda kasbiy kompetentligini takomillashtirish uchun o‘z kasbiy faoliyatini hujjatlashtiradi, tahlil qiladi va o‘z o‘zini baholay olishi lozim. Bundan tashqari u o‘z atrofidagi jamiyatning ya’ni bolaning, ota-onalarning va mahalliy jamoatchilik vakillarining fikri va tajribasini hurmat qilishi va o‘z ishini teng sheriklik asosida qurishi ham asosiy vazifalaridan biridir[2]. O‘yin bolalarga ta’lim va tarbiya berish jarayonida yetakchi faoliyatdir.

Davlat o‘quv dasturida bolaning o‘yin o‘ynash huquqiyiga alohida urg‘u berilgan, o‘yinning bola uchun naqadar ahamiyatliligi hamda uning pedagogik imkoniyatlari ta’lim jarayonini tashkil etishda albatta inobatga olinadi. O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalar orasida yetakchi faoliyat hisoblanadi. Bolalarni ta’lim olishi va rivojlanishining yondashuvlaridan biri bu – o‘yin orqali ta’lim olish. O‘yin – bu bolani o‘zini, jamiyatni va atrof-muhitni o‘rganishga undashning tabiiy usuli bo‘lib bolaning shaxsiyati, uning bilish, ijtimoiy-hissiy, ijodiy va jismoniy jihatlarini yanada rivojlantiradi. O‘yin asosan bolalarning tengdoshlari va pedagogi bilan o‘zaro

1 Shavkat Mirziyoyev: “Boy va farovon yashamoqchi bo‘lsak, haqiqiy bozor iqtisodiyotiga o‘tishimiz shart. Yagona yo‘limiz shu” (xabar.uz). (Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi).

2 Qodirova F., Toshpo‘latova Sh., Kayumova N., A’zamova M. Maktabgacha pedagogika. - T.: Ma’naviyat, 2019. - 688 b.

munosabati, nutq va ijtimoiy koʻnikmalarni rivojlantirishga yordam beribgina qolmay, uning motorikasini ham takomillashtirib boradi. Oʻyin bolalar orasida oʻzaro hamkorlikni oʻrnatib, ta'lim va tarbiya olish imkoniyatini yaratadi, ularga tavakkal qilish, xato qilish va qiyinchiliklarni yengish hamda muammoli vaziyatlardan chiqish imkonini beradi. Va, eng asosiysi, oʻyin ta'lim olish jarayonini quvonchli qiladi, bolalarning tasavvurini va ijodkorligini rivojlantiradi. Oʻyin turli xil boʻlishi mumkin – tarbiyalanuvchining yoki tarbiyalanuvchilar guruhining tashabbusi bilan toʻlaligicha erkin, pedagogning qisman yoki toʻliq ishtirokisiz – pedagog tomonidan tashkil etilgan va uning tavsiya va koʻrsatmalari yordamida amalga oshirilishi mumkin. Erkin oʻyini faoliyatning ahamiyatini tushunish va e'tirof etish bilan birga, tashkil etilgan oʻyinda pedagogning hal qiluvchi rolini ham tan olish kerak.

Ta'lim va tarbiya jarayoni oʻyin oʻynash imkoniyatini toʻliq ta'minlashi kerak, rivojlantiruvchi muhit esa oʻyin oʻynash imkoniyatiga hissa qoʻshishi lozim. Oʻyin uchun sharoit va imkoniyat yaratish, ya'ni bolalarni yetarli vaqt, joy, qoʻllab-quvvatlovchi resurs va materiallar ya'ni oʻyinchoqlar bilan ta'minlash juda muhimdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan faoliyat olib boradigan pedagoglar bolalar oʻyiniga yordam berishlari muhim hisoblanadi[3].

Bolalar oʻyinini tashkil etishda pedagogning oʻrni quyidagilar bilan ifodalanadi:

– bolalar oʻyinlari uchun shart-sharoit va imkoniyat yaratish (vaqt, joy, resurs, materiallar). Pedagog oʻyin maydonchasi yoki oʻyin uchun maxsus joy tayyorlaydi, bolaning yoshi, qiziqishi, salohiyati va madaniyatiga mos keladigan ragʻbatlantiruvchi oʻyin materiallari bilan ta'minlab, xavfsizlik talablariga rioya qilgan holda xona ichida va tashqarisida ham oʻyin uchun imkoniyatlar yaratadi;

– bolalar oʻyinini rivojlantirish. Pedagog bolalarga oʻyin orqali ta'lim va tarbiya olish, oʻrganish va rivojlanishlari uchun imkoniyatlar yaratadi ya'ni bolalarga oʻyin holatiga kirishga yoki oʻynashni davom ettirishga yordam beradigan koʻnikmalarni shakllanishida yordam beradi.

– bolalarning individual va psixologik xususiyatlari, ularning qiziqishlari, qobiliyat va salohiyatlarini hamda rivojlanish ehtiyojlarini kuzatish asosida oʻyinni rejalashtiradi;

– bolalarning oʻyin jarayonida oʻzaro munosabatga kirishishlariga yordam berish.

Bolalarni oʻyin davomida kuzatish, pedagogga bolaning boshqa bolalar bilan qanday oʻynashini, qay tarzda munosabatga kirishayotganini, bola oʻyinda qanday bilim va koʻnikmalarni namoyon etishini, oʻyin orqali qanday qobiliyatlarini rivojlantirish kerakligini anglashga yordam beradi. Pedagog oʻyin jarayonida oʻzi ham ishtirok etib, bolaning ta'lim va tarbiya olishini, uning tasvirlash, tushuntirish, asoslashi, anglash kabi qobiliyatini, shuningdek, ijobiy xulq-atvor koʻnikmalarini shakllantirishga oʻz hissasini qoʻshadi;

– tarbiyalanuvchilarga oʻzlari va qobiliyatlarini namoyish qilish imkoniyatini berish. Pedagog rejalashtirish jarayonida bolaning oʻz gʻoyasi asosida yoki uning tashabbusi bilan oʻynash uchun yetarli boʻlgan vaqt ajratib, bunda bolalar shoshilmasdan va tarbiyachi tomonidan toʻxtatilishidan qoʻrqmasdan oʻynashlari mumkin. Bolalarga erkin oʻyin uchun yetarlicha vaqt va kattalarning faol aralashuvisiz olib borilgan faoliyat, ularning oʻz qobiliyatlarini ifoda etish imkoniyatini beradi.

Yangi Oʻzbekistonimizning kelajagi albatta barkamol, ma'naviy yetuk hamda intellektual salohiyatli avlod va unga ta'lim-tarbiya berish sifati va samaradorligiga bogʻliqdir. Shu sababli

3 "Ilk qadam" Davlat oʻquv dasturi. T.: 2020

Vatani, xalqini sevib ardoqlaydigan, istiqlol g'oyalariga sadoqatli, mustaqil fikrlay oladigan, ijodkor va ma'naviy yetuk shaxsni shakllantirish Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ta'lim tizimida olib borilayotgan tub islohotlar orqali shaxs ma'naviy kamolotini ta'minlash mazkur yo'nalishning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, bu haqda O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim tarbiya to'g'risida" gi qonunida keltirib o'tilgan[4].

O'zbekiston Respublikasida bolalarni sifatli maktab ta'limiga tayyorlash haqida bir qator qaror va farmoyishlar ijro etilmoqda. K.S.Shodiyeva, Sh.A.Sodiqovalar, D.Abdurahimova, X.B.Tulenova, P.Yusupova, R.M.Qodirova, D.R.Boboyeva, V.I.Loginova, P.R.Samorukova, M.A.Solihova tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish, ta'lim jarayonlarini sifatli tashkil etish va maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar o'rganilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari asosan sog'lom va yetuk tarbiyalanuvchilarni maktabga sifatli tayyorlash, ularda erkin fikrlash qobiliyatini shakllantirib borishdan iboratdir. Maktabgacha yoshda bo'lgan tarbiyalanuvchilarni har tomonlama rivojlanish va tarbiyalanish muammosi tarixiy xarakterga ega bo'lib, bu borada Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, A.Navoiy kabi sharq buyuk mutafakkir, olimlari tomonidan yaratilgan ta'lim-tarbiyaga oid ilmiy adabiyotlar ham katta ahamiyatga ega. Yosh avlodimiz yetuk va barkamol bo'lib shakllanishi uchun har tomonlama ta'lim-tarbiya berish maqsadida P.Jo'rayev, O.Jamoldinova, B.Adizov, O.Musurmonova, M.Inomova M.Quronov, Z.Ismoilova, U.Mahkamovlar tomonidan ijtimoiy-pedagogik, antropologik va akmeologik muammolar keng saviyada ilmiylikka asoslangan holda o'rganib chiqilgan. Psixolog olimlardan M.Davletshen, B.Karimova, Z.Nishonova, N.Safayev, E.G'oziyevlar tomonidan muammoning psixologik jihatlari o'rganilgan.

Tarbiyalanuvchining maktab ta'limiga psixologik tayyorgarligining komponentlari.

Maktab ta'limiga psixologik jihatdan tayyorgarlik bolaning o'qishga bo'lgan intilishini, o'quvchi bo'lish xohishida kognitiv faoliyati va tafakkur operatsiyalarining yetarlicha yuqori darajasini o'z ichiga olib, bolaning o'quv faoliyati davomida ta'lim elementlarini egallashda iroda va ijtimoiy rivojlanishning muayyan darajasida namoyon bo'lgan tayyorgarlikni aks ettiradi. Bolani maktabga psixologik tayyorgarligining komponentlari bu bolani sinf jamoasiga olib kirish hamda maktabdagi o'quv materiallarini, bola ongini faol egallashi, keng doirada aytadigan bo'lsak maktabga oid majburiyatlarni bajarishni qamrab oladi. Bolani maktabga maxsus tarzda tayyorligi maktabda o'qishga umumiy psixologik tayyorligiga qo'shimchadir.

U bolada o'qish, matematika va ona tili kabi o'quv fanlarini o'rganish uchun zarur bo'lgan maxsus bilim, ko'nikma va malakalarning mavjudligiga ko'ra aniqlanadi. Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarda eng oddiy matematik tasavvurlarni rivojlantirish, nutqni o'stirish hamda savodni egallashga tayyorlanish bo'yicha o'tkaziladigan jadal ishlar, bolalarni maktabda o'qishga maxsus tayyorlashning zarur bosqichini ta'minlaydi. Shuni aytib o'tish lozimki, maktabga psixologik tayyorgarlik doimiy yoki bir xil shaklli hisoblanmaydi, balki u muntazam o'zgarib hamd boyib boradi. Psixologik tayyorlikning tarkibiy komponentlari: intellektual (aqliy), ma'naviy va ifodaviy tayyorgarlikdan iboratdir. Ko'p xollarda bolaning aqliy rivojlanish darajasi haqida so'z ketganda uning so'z boyligi zaxirasi bilan aniqlanadigan aqliy bilimlari nazarda tutiladi. Ota-onalar, hatto ayrim pedagoglar ham bola qanchalik ko'p bilsa, u shunchalik rivojlangan

4 O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri) 23.09. 2020

bo‘ladi, deb o‘ylaydilar. Aslida esa bu yanglish fikr bo‘lib, texnika hamda ommaviy axborot vositalarining keng tarqalganligi tufayli bugungi kun bolalarining so‘z boyligi oshib bormoqda, ammo so‘z boyligining keskin o‘sishi, bu ularning tafakkuri ham shunday jadallikda rivojlanyapti, degan gap emas[5].

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida Davlat dasturiga tayangan holda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Muhtaram yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev ta’birlari bilan aytganda: “Aslida, farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ahamiyatini hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Aynan maktabgacha ta’lim sohasiga bo‘lgan e’tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi”. Ushbu so‘zlarning isboti sifatida ta’lim sohasida ko‘plab islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarning asosiy vazifasi o‘zi faoliyat yuritayotgan tashkilotda Davlat tomonidan taqdim etilgan dasturga tayangan xolda tarbiyalanuvchilarni xar tomonlama rivojlantirish hamda ularni sifatli maktabga tayyorlashdir. Ilg‘or innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarni, mutaxassislar tomonidan tavsiya etilgan yangi dasturlar, metodik qo‘llanmalar hamda didaktik materiallar ta’lim sifati va samaradorligi ortishini yanada ta’minlaydi. Pedagog kadrlarning o‘zaro munosabatlari, hamkorlik jarayonlari, shaxsning o‘z qadr-qimmatini bilishi, kasbiga bo‘lgan hurmati ularni yanada kasbiy salohiyatini oshiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablariga tayangan holda ishlab chiqilgan davlat o‘quv dasturi ta’lim va tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil etishda yordam beradi. Bu tayanch dasturlari bugungi kunda maktabgacha ta’lim-tarbiya muassasalariga jalb etilmagan bolalarni ham rivojlantirish va yagona davlat talablari asosida maktabga tayyorlash imkonini beradi. Ta’lim-tarbiya jarayoni yakunida mustaqil va erkin fikrlaydigan, bilimli, ma’naviy yetuk, qisqa’chaqilib aytganda barkamol shaxsni voyaga yetkazish asosiy maqsad qilib belgilandi. Albatta, bu uzluksiz ta’lim tizimining ilk turi bo‘lgan maktabgacha ta’lim sohasidan o‘ziga xos yondashuvni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, bola dunyoga kelgan kundan boshlab, nafaqat ota-ona balki davlat va jamiyat zimmasiga uni sog‘lom, aqlli, bilimli va o‘z yurtiga foydasi tegadigan qilib tarbiyalash vazifasi yuklatiladi. Bolalarda aqliy faoliyatni dastlab muomala madaniyati orqali, so‘ng ta’limiy, o‘yini va boshqa faoliyatlar orqali amalga oshiriladi. Bola har doim buyumlar, atrof-muhit hodisalari orasida bo‘ladi. Muntazam ravishda ma’lum bir narsa bilan tanishadi, nimanidir bilib oladi, ushlab kuradi, his qildi, nimagadir quloq soladi, shu tarzda bola dunyoni anglay boshlaydi. Atrof-muhit, buyum va narsalar bolalarining sezgi organlariga, analizatorlarga ta’sir etadi va sezgi hissini hosil qiladi. Sezgi bolalarda ayrim xususiyatlarni bilib olishga yordam beradi. Bolada aqliy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish, eng sodda faoliyat usullari ya’ni buyumlarni tekshirish, ulardagi ahamiyatli va ahamiyatli bo‘lmagan belgilarni ajratib ko‘rsatish boshqa predmetlar bilan taqqoslash maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda aqliy tarbiya berishning va ularni maktabga tayyorlashning asosiy vazifalaridan biridir.

5 Boboyorova G. Bolalarni maktabga tayyorlashda interfaol usullardan foydalanish. Maktabgacha ta’lim j., 2007. 6-son. -14 b.

IJODKOR SHAXSINING BADIIY ASARDA NAMOYON BO'LISHI (TO'RA SULAYMON LIRIKASI MISOLIDA)

Yorqinjon O'rmonali o'g'li Xayitboyev – magistrant,
Guliston davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada To'ra Sulaymon she'riyati misolida ijodkor shaxsining badiiy asarda namoyon bo'lishi masalasi ilmiy jihatdan o'rganilgan. Shoirning "Saylanma","Sirdaryo qo'shiqlari" va boshqa kitoblariga kirgan she'rlari, shaxsiy arxividagi maktublar, adiblar va olimlarning ijodkor haqida bildirgan fikrlari shoir shaxsiyati bilan bog'lab tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida bir qancha ilmiy manbalardan foydalanilgan va masalaga oid ilmiy-nazariy qarashlar umumlashtirilgan.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается вопрос проявления личности творца в художественном произведении на примере поэзии народного поэта Узбекистана Торы Сулеймана. Стихи, вошедшие в книги поэта "Сайланма," "Сырдарьинские песни" и другие книги, анализируются с точки зрения воплощения личности вместе с письмами из его личного архива, мнениями писателей и ученых о художнике. В процессе анализа было использовано несколько научных источников и применен теоретический подход к вопросу.*

Abstract: *This article talks about the issue of the manifestation of the creator's personality in an artistic work, as an example of the poetry of the national poet of Uzbekistan, Tora Sulayman. Poems included in the poet's books "Saylanma," "Sirdarya songs" and other books are analyzed from the point of view of the embodiment of personality together with the letters from his personal archive, the opinions expressed by writers and scientists about the artist. In the process of analysis, several scientific sources were used and a theoretical approach was taken to the issue.*

Kalit so'zlar: *lirika, folklor, ijodkor shaxsi, ijodiy niyat, ijodkor laboratoriyasi, grafomaniya, dekadent, ijodkor uslubi.*

Ключевые слова: *лирика, фольклор, личность творца, творческий замысел, творческая лаборатория, графомания, декадентство, авторский стиль.*

Keywords: *lyrics, folklore, creator's personality, creative intention, creator's laboratory, graphomania, decadent, creator's style.*

Adabiyotning so'z san'ati ekanligini inobatga olgan holda aytish mumkinki, har bir so'z san'atkorining, ya'ni ijodkorning ijodiy ishni ifoda etish, unda badiiy obraz yaratish, ichki menini talqin qilish, keng kitobxonlar ommasiga taqdim etish borasida o'z uslubi mavjuddir. Xususan, Abdulla Oripov lirikasidagi falsafiylik, Erkin Vohidov lirikasidagi mushohadakorlik, Muhammad Yusuf lirikasidagi xalqonalik, Halima Xudoyberdiyeva lirikasidagi ruhiy kechinmalar, Rauf Parfi lirikasidagi his-tuyg'ular evrilishi yuqoridagi fikrimizga asos bo'la oladi.

"Ijodkorning bilimi, dunyoqarashi, o'ziga xos fazilatlari u yaratgan badiiy asarlarda ma'lum darajada namoyon bo'ladi. Har bir obraz ma'naviy-axloqiy dunyosini adib badiiy-estetik olamidan ayri tasavvur etish qiyin.

Adabiyotshunoslikdagi bunday o'rinli mulohaza va talqinlar ijodkorning ma'naviy dunyosini tushunish va u yaratgan asarlarni tarixiy voqelik bilan qiyoslab o'rganishda alohida ahamiyatga ega"[1]. Darhaqiqat, har qanday ijod namunasida, garchi u tamoman boshqa lirik qahramon tilidan aytilsa ham muallifning o'zi namoyon bo'ladi. Sababi, ijodkorning ijodiy niyati badiiy asarda birlamchi hisoblanadi. "Adabiyotshunoslik lug'ati"dan o'rin olganidek: "Ijodiy niyat – badiiy ijod jarayonidagi ilk bosqich. U san'atkorning voqelik bilan munosabati, voqelikni o'zicha (o'zining estetik ideali, dunyoqarashi, sajiyasi, madaniy-ma'rifiy darajasi, hayotiy va ijodiy tajribasi, tug'ma iste'dodi quvvati

1 To'rayeva D. Badiiy g'oya, ijodiy tasavvur va estetik talqin masalasi. – Farg'ona: PhD dissertatsiyasi, 2020.

asosida) qabul qilinishi va idrok etishi natijasi o‘laroq yuzaga keladi”[2]. Shuning uchun ham ijodiy niyat ijodkor laboratoriyasini tadqiq etishda muhim omil vazifasini o‘taydi. “Yozuvchining hayotga munosabati, uning e’tiqodi, imoni, kimlarni yoqlashi, nimalarga qarshi kurashishi, talantining xarakteri, hayotiy tajribasi, uslubi – hammasi ijodiy mehnat jarayonida yaratilgan obrazlarga, xarakter va tiplarga o‘tadi”[3]. Bu jarayonga har bir adibning asarida guvoh bo‘lish mumkin.

Ijodkor shaxsining badiiy asarda namoyon bo‘lishi masalasini atoqli shoir To‘ra Sulaymon ijodi misolida ham batafsil o‘rganish mumkin. Adibning yigirmadan ziyod kitoblari, shaxsiy arxividagi qo‘lyozmalar va unga bag‘ishlangan respublika ilmiy-amaliy anjumanlarining materiallari jamlangan to‘plamlar To‘ra Sulaymonning shaxsiyati va she’riyatini bir-biriga uzviy bog‘liq ekanligini ifodalay oladi. Shoirning shaxsiyati va ijodi bo‘yicha bir qancha olimlar, adiblar, davlat arboblarining qarashlari, shoir bilan bo‘lgan suhbatlari va bu jarayonlardan olgan xulosalari matbuotda hamda kitob to‘plamlarida e’lon qilingan. Xususan, Abdulla Oripovning “Yashab o‘tdi bir shoir”, Sayyorning “Yosh shoirning do‘mbirasi”, Aliboy Ergashevning “Fozil shoir uslubin saqlab”, Ma’ruf Jalilning “So‘yla siring, do‘mbiram”, Ohunjon Sobirovning “Mirzacho‘l kuychisi”, Mashrab Boboyevning “Safdagilardan biri”, Anqaboy Quljonovning “Sozchi qo‘shiqlari”, Ayub Fayziyevning “Soz va ovoz hamohangligi”, Tursunboy Adashboyevning “Kuylaguvchi misralar”, “To‘ra Sulaymonning o‘n ikki maktubi”, Aliqul Xonimqulovning “Bahor ketmas sening bog‘ingdan”, Nabijon Boqiyning “Go‘ro‘g‘li sulton bir yon”, “Bolalikdan bolalikka qaytgan shoir”, Muxtor Nosirning “... To‘ra Sulaymon bir yon!”, Sa’dulla Siyoyevning “She’riyatimiz To‘rasi”, Munavvar Pardayevning “Bir she’r tarixi”, Ravshanbek Mahmudovning “Pokiza ijodkor haqida bilganlarim”, Qozoqboy Yo‘ldoshning “Ikkinchi umr manzaralari”[4], Ibrohim Haqqulning “Bir baxshining ortida”[5] kabi maqolalarida To‘ra Sulaymon shaxsiyatiga, ayniqsa, uning ijodiyotida insoniy fazilatlarning namoyon bo‘lishiga urg‘u qaratilgan.

O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov shunday yozadi: “To‘ra Sulaymon bir umr Sirdaryo bo‘ylarida umrguzaronlik qildi. O‘sha xalqning tili, udumlarini jon-dildan qadrladi. Chinakam xalq shoirlari nainki poytaxtlarda, balki uzoq vohalarimizda ham yashab ijod qilishi mumkinligi va kerakligini isbotladi”[6]. To‘ra Sulaymon shaxsiyatiga oid ma’lumotlardan ma’lumki, shoir umri davomida Sirdaryoda yashab, ijod etgan. Uning “Go‘zal Gulistonimsan” she’ri ijodkorning yurtsevarligidan, Vatanni oddiy so‘zlar bilan emas, balki haqiqiy ijod zavqi bilan madh etishidan dalolatdir.

Sirdaryo siynasiga

Gulday yarashib tushgan.

Shams bilan, Qamar bilan

Husn talashib tushgan.

Tonglari yorug‘likda

Zuhrodan oshib tushgan

Muborak oshyonimsan,

Go‘zal Gulistonimsan[7].

Yuqoridagi satrlarda tasvirlangani kabi To‘ra Sulaymon Sirdaryo viloyati uchun gulday yarashadigan, husn-u tarovatda Oy-u Quyosh

2 Jamoa. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
3 Jamoa. Adabiyot nazariyasi. II jildlik II jild. Ijodiy jarayon. – Toshkent: Fan, 1979. – B. 109.
4 Jamoa. Go‘ro‘g‘li sulton bir yon. – Toshkent: Tafakkur, 2015.
5 Haqqulov I. Bir baxshining ortida. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/tora-sulaymon-ikki-kitob-ibrohim-haqqul-bir-baxshining-ortida.html
6 Jamoa. (A.Oripov) Go‘ro‘g‘li sulton bir yon. – Toshkent: Tafakkur, 2015. – 18 b.
7 Sulaymon T. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2020. – 94 b.

bilan ham bellasha oladigan, tonggining yorug‘ligi Zuhro yulduzidan ham yorqin bo‘lgan maskanni, ayniqsa, “muborak oshyon”ni tark etishni xohlamaydi, aksincha, bu oshyon haqida qator kitoblar, maqolalar, she’rlar yozadi. A.Oripov shoir haqida yozar ekan, uning Toshkentga talpinmay viloyatda yashab, O‘zbekiston xalq shoiri faxriy unvoniga sazovor bo‘lganiga alohida to‘xtaladi. O‘rganishimiz natijalari shuni ko‘rsatadiki, haqiqatan To‘ra Sulaymon kabi respublika markazidan boshqa hududda yashab, Xalq shoiri bo‘lgan ijodkorlar kamdan-kam ekan. Namangandan Habib Sa’dulla, Andijondan To‘lan Nizom, Farg‘onadan Enaxon Siddiqovalar ushbu yuksak mukofotga sazovor bo‘lishgan.

To‘ra Sulaymon ustozlarga alohida hurmat va e’tibor ko‘rsatadigan, ularni ehtirom bilan eslaydigan shogird bo‘lgan. Uning shogirdlik muhabbati badiiy asarlarida ham o‘z aksini ko‘rsatadi. Ma’lumki, xat almashish o‘tgan asr ijodkorlari orasida o‘zaro adabiy aloqani yuzaga keltirgan. To‘ra Sulaymon ham o‘z o‘rnida atoqli ijodkorlar bilan xat almashib turgan. Ayniqsa, shoirning Zulfiya Isroilova bilan yozishgan xatlari ikki ijodkorning, shuningdek, ustoz-shogirdning bir-biriga bo‘lgan cheksiz hurmati, adabiy aloqalarining mustahkamligidan nishonadir. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori A.Turdiyev “Toshdan ham, nurdan ham” maqolasida bu masalaga atroflicha to‘xtaladi. Tadqiqotchining keltirishicha, 1974-yilning noyabr oyida Zulfiyaxonim va To‘ra Sulaymon o‘rtasida quyidagicha yozishma jarayoni kechadi:

Zulfiyaxonim: “Hurmatli To‘rajon!.. Men Sizning sadoqatli, pokiza ilhomli qalbingizni hurmat qilaman... Nega kam yozasiz? Yumushlar, tashvishlar ko‘pmi? U kimda oz?!”

To‘ra Sulaymon: “Sog‘insam sog‘inadiganim, suyansam suyanadiganim Zulfiya opamga!

Xatingizni olib boshim ko‘kka yetdi. Qunt bilan, muhabbat bilan bitibsiz. Qulluq... Sizning ardoqli opa o‘rnida, suyukli ustoz o‘rnida yozgan xatingiz men uchun har qanday mukofotdan ustuvor”[8].

Yuqoridagi xatlar orqali Zulfiyaxonimning To‘ra Sulaymonga ustozlik, To‘ra Sulaymonning Zulfiyaxonimga shogirdlik muhabbati anglashiladi. Ustozga bo‘lgan ayricha munosabat keyinchalik Zulfiyaxonimga bag‘ishlab yozilgan “Sizni eslayman” she’rida o‘z badiiy aksini namoyon qiladi. She’rda shoirning “tuz-namak, non hurmati, jon-u jahon hurmati”dan “Fozil otaday toshib, bir shoshmay, birda shoshib” Zulfiyaxonimni eslashi baralla kuylanadi.

Ne qorli, qabohatli, ne bir armonli kunlar,

Yerdan ayrila tushmish mash’um, hijronli kunlar,

Azalik, ta’ziyalik qontalash, qonli kunlar,

Qay mahal yodga tushsa – yurak-bag‘rim uyushsa,

Sizni eslayman[9].

Yuqoridagi bandda shogirdning ustozdan ayrilishi shoir nazdida “qorli”, “qabohatli”, “armonli”, “mash’um”, “hijronli”, “qontalash”, “qonli” kunlar sifatida gavdalantiriladi. She’rning bir bandidagina aks etgan ayriliq kunlarining “qorli” sifatidan boshlanib, to “qonli” sifatigacha dekadentlik[10] holatida tadrijiy yuksalib borishi To‘ra Sulaymondagi badiiy mahoratning qay darajada baland ekanligini ko‘rsatadi. “Sizni eslayman” she’rining lirik qahramoni, shubhasiz, To‘ra Sulaymonning – ustozidan judo bo‘lib, “azalik, ta’ziyalik, qontalash kunlar”ni boshidan o‘tkazgan shogirdning o‘zidir.

2007-yilning 8-fevral kuni “Hayot” gazetasining 6-, 11-sahifalarida To‘ra

8 Jamoa. Go‘ro‘g‘li sulton bir yon. – Toshkent: Tafakkur, 2015. – 18 b.
9 Sulaymon T. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2020. – 38 b.
10 Jamoa. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.

Sulaymonning "Qirmizi yuzli qizimga salomlarimiz" sarlavhasi ostida katta qizi Yulduz To'rayevnaga yozgan maktublari e'lon qilinadi. Shoir oilasining ma'lumotlariga ko'ra, Yulduz To'rayevna Toshkentda o'qib yurganida Zulfiyaxonimning uyida, shoira bilan birga yashaydi. Bu ham yuqorida bayon etilgan masalaning – shoira va shoir munosabatlarining qalinligidan, rishtalarning oilalararo bog'langanidan dalolatdir. Bu jarayonda shoirning qiziga bo'lgan otalik muhabbati va bu muhabbatning badiiy asarga ko'chgani muhimdir. To'ra Sulaymon o'z maktublarini shoirona uslub bilan, yuksak muhabbat bilan yozadi. Goh farzandini Yulduzjon deb atasa, goh unga qiyosi yo'q, boshqa otalar tomonidan aytilishi kuzatilmaydigan sifatlar bilan murojaat qiladi. Xususan, "qirmizi yuzli" sifatining o'zi ham shoir otaning farzandga bo'lgan ayricha e'tiborini namoyon etadi. U bir she'rida shunday yozadi:

Otasiga o'xshagan,

Guldan poyandoz to'shagan,

Toshkentda borib, yashagan,

Yulduz qizimga bir salom[11].

Yuqoridagi satrlarning qahramoni hisoblangan Yulduz To'rayevnaning ta'kidlashicha, ushbu to'rtlik "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining bir chetiga shoir tomonidan yozib qo'yilgan ekan. To'ra Sulaymonning kitoblarga chizib, belgilab, munosabatlarini yozib o'qiganligi – kitobxon shoir ekanligi Nabijon Boqiyning "To'ra Sulaymon kutubxonasi" kitobida batafsil yoritilgan. Bu o'rinda shoirning she'rni nimaga yozgani emas, nimani yozgani muhimdir. To'ra Sulaymonning asarlaridagi xalqona ifoda uslubi uning o'zbek adabiyotidan munosib o'rin egallashida asosiy rollardan biri bo'lib, xizmat qilgan. Gazeta chetiga yozib qo'yilgan she'rni o'qigan kishi uning xalq og'zaki ijodidagi marosim qo'shiqlari toifasiga kiruvchi "Kelin salom" yo'nalishida yozilganini payqaydi. "Kelin salom"dan To'ra Sulaymon yozgan she'rning farqi shuki, yuqoridagi to'rtlik "Ota salom"dir. Ya'ni otaning Toshkentda yashaydigan qiziga sog'inchli salomi, his-tuyg'ularining in'ikosidir. To'rtlikning lirik qahramoni hisoblangan ota o'z qizini guldan poyandoz to'shashi-yu Toshkentda yashashigacha tasvirlash bilan chegaralanmay uning o'ziga o'xshashi bilan faxrlanishini alohida ifoda etadi. Bu esa har bir o'zbek otasiga xos xislatdir. To'ra Sulaymon she'riyatini shaxsiyati bilan mutanosib tarzda tadqiq etganimiz sari shoirning asarlaridagi lirik qahramon qiyofasi ko'z o'ngimizda yanada yorqin gavdalanadi.

To'ra Sulaymon umri davomida grafomaniya[12]ga aloqador ijodkorlar toifasidan chetlanib, haqiqiy badiiy asarlar yozishga intilgan shoirdir. Shuning uchun uning she'riyatida ham, boshqa janrlardagi asarlarida ham shaxsiyati boricha ko'rinish beradi. Bu esa shoirning o'z uslubiyatiga sodiqligidan, ijodiy laboratoriyasining rang-barangligidan dalolatdir. Kichik tadqiqot davomida bir qancha she'rlarda ijodkor shaxsining namoyon bo'lishiga to'xtaldik, biroq bu faqatgina yuqoridagi namunalardagina shoir shaxsiyati gavdalanadi degani emas. To'ra Sulaymonning juda ko'plab asarlarini shaxsiyat nuqtayi nazaridan tadqiq etish mumkin. Chunki shoir she'riyatining obrazlar tizimidagi o'ziga xoslik, xarakter yaratishdagi ichki kechinmalarning badiiy talqini, lirik qahramonning his-tuyg'ularini ifodalashdagi o'zgacha uslubiyat To'ra Sulaymonning o'xshashi yo'q shoirligidan dalolat berib, yozganlari adabiyotning ajralmas bo'lagiga aylanganligini ta'minlaydi.

11 Y. To'rayevnaning shaxsiy arxivi.

12 Jamoa. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.

XOLID HUSAYNIYNING "MING QUYOSH SHU'LASI" ASARIDA OBRAZLAR TALQINI

Sevinch Nurilla qizi Yaxshilikova – magistrant,
Guliston davlat universiteti

***Annotatsiya**: Ushbu maqolada Xolid Husayniyning "Ming quyosh shu'lasi" asaridagi badiiy obraz va obrazlilik, davr va shaxs ruhiyati masalalari ilmiy tadqiq etilgan. Shuningdek, mazkur masala bo'yicha ilmiy-nazariy qarashlar umumlashtirilgan.*

***Аннотация**: В этой статье вы получите информацию о понятии художественный образ и его функции в произведении, литературном типе и литературно-художественном хронотопе, речь идет о менталитете эпохи и личности.*

***Abstract**: In this article, you will get information about the concept of artistic image and its function in the work, literary type, and literary-artistic chronotope. It talks about the mentality of the era and the individual.*

***Kalit so'zlar**: adabiyotshunoslik, obraz, xarakter, adabiy tip, adabiy-badiiy xronotop, syujet, qahramon ruhiyati.*

***Ключевые слова**: литературоведение, образ, персонаж, литературный тип, литературно-художественный хронотоп, сюжет, психика героя.*

***Keywords**: literary studies, image, character, literary type, literary-artistic chronotope, plot, hero's psyche.*

Badiiylik – san'atning ham joni, ham ruhi ekan, uni yuzaga keltiruvchi asosiy vositalardan biri badiiy obrazdir va u adabiyotshunoslik fanining asosiy masalasi sanaladi. Taniqli rus olimi Belinskiy bu borada: "...Unda hech bir tasodifiy va ortiqcha narsa yo'q. Hamma qismlar butunga bo'ysungan, hammasi bitta maqsadga yo'naltirilgan, hammasi birlikda bitta go'zallik, yaxlitlik, individuallikni maydonga keltiradi", – deydi[1]. Chindan ham har bir detaldan ko'zlangan maqsad bor. Ular asarga ma'lum bir vazifa bajarish uchun olib kiriladi. Obraz orqali yozuvchi badiiy niyatini aks ettirishi mumkin. Badiiy asarda xarakter (obraz) tushunchasi asosan ma'lum davrga, muhitga, kasbga, yoshga, jinsga mansub kishiga xos xususiyatlarni yorqinlik bilan ifodalaydi[2]. Obraz o'zida ma'lum davrni ,jamiyatimizdagi ba'zi insonlar qiyofasini shakllantiradi. Xolid Husayniy ham "Ming quyosh shu'lasi" asarida o'zini qiynagan muammolar: o'z diyorida 1973-yil Kobulda 40 yil hukumatni boshqargan Zohirshoh taxtdan ag'darilishi voqeasi bilan boshlangan va bir necha o'n yillardan beri davom etib kelayotgan qonli urushning millionlab insonlar taqdirini o'zgartirib yuborganini, belgilangan qonunlarga bo'ysunishga majbur bo'lgan ayollar qismatini,ularning chekkan azob-uqubatlarini obrazlar yordamida aks ettiradi.

Fandagi obraz voqea – hodisaning shunchaki tashqi ko'rinishi emas, balki ana shu ko'rinishlarning eng tipigi (o'rnakli misolini, eng arzirli namunasi) ni ifodalashga xizmat qiladi, u ko'rgazmali (illyustrativ) obrazdir[3]. Ya'ni biz oddiy qahramon deya qabul qilgan obraz tubida juda ko'p sir-u asrorlar yashiringan bo'ladi. Asarning bosh obrazi Maryam hayot sinovlaridan diydasi qotgan ,nohaqliklarga duch kelsa ham churq etmaslikka majbur bo'lgan, bir so'z bilan aytganda, matonat hidi ufurib turgan "tabargul"dir. U ilk bora onasidan

1 Belinskiy V.G . Adabiy orzular. T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1977, – B. 101.

2 Sulton I. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –T.: O'qituvchi. 1986,-B.200.

3 Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik / Mas'ul muharrir : B.Valixo'jayev. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004, – B. 204-206.

eshitgan "haromi" so'zining butun umr o'ziga tamg'a bo'lishini bilmas edi. Otasi keladigan chorshanba kunini intiqlik bilan kutadigan, uni jonidan ortiq yaxshi ko'radigan Maryam o'sha kuni barchasini anglab yetgan edi. Hashamatli uyning derazasidan boqib turuvchi tanish ko'zlar o'z obro'-e'tiboriga putur yetmasligi uchun boshqalar tomonidan "haromi" sanalgan qizining ko'chada tunashiga ko'z yumgan edi. "Mening gulg'uncham" deya erkalagan otasi uni o'n besh yoshga to'lganida qirq yoshli kobullik etikdo'z Rashidga turmushga berdi. "Mehribon" o'gay onalarining og'zidan bol tomib maqtalgan Rashid uning dardiga malham bo'lish o'rniga kamar bilan uni jarohatlar ,unga zulm qilar edi. Maryam Nananing o'limida o'zini aybdor deb bilar, onalik baxtidan mosuvo bo'lishini ham shu xatosidan ko'rar edi. Maryam barcha-barchasiga: otasining unga qilgan nohaqligi, Rashidning bergan azoblari, dunyoning boshiga solgan sinovlariga ko'z yumdi. Lekin so'nggi onlarda vujudidagi alam, azob aralash bir tuyg'u uni qasos olishga chorlar edi va shunday ham bo'ldi. U qotilga aylandi. Butun hayotini do'zaxga aylantirgan "hayvon"ni o'ldirishga majbur bo'ldi.

Badiiy asarda mukammal tasvir etilgan va katta umumlashma ahamiyatga ega bo'lgan xarakterlar tip deb ataladi ("Tip" – yunon tilida "namuna", "nusxa" demakdir). Adabiy tip – insonning individual tasviri bo'lgani holda, ma'lum tarixiy davr va jamiyat kishisining eng muhim xususiyatlarini o'zida aks ettiradi[4]. Jumladan, asarning bosh qahramoni Maryam ana shu xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan. Maryam o'z otasi, o'z oilasi, o'z uyi, o'z farzandlari bo'lishini juda xohlar edi. U ham boshqa ayollardek hayot kechirishga haqli edi, axir. Layloga yuzlanib "Hamma gunohlarimiz ortda qoladi, bizga hech kim xalal bermaydi, biz ham o'z bilganimizcha tinch, xotirjam va baxtli yashaymiz. Nima, biz bunga arzimaymizmi?", – degan edi[5]. U bir haqiqatni bilar va hayoti davomida unga amal qilar edi: "Qur'onda aytilgan: Mag'rib ham, Mashriq ham Allohga tegishlidir. Qayoqqa yuzlanma Allohning siymosini ko'rasan. Darhaqiqat, Alloh buyuk va qudratlidir. Maryam matonat va sabr bilan hayotning ketma-ket zarbalariga chidagan o'sha davr ayollarining badiiy umumlashma obrazidir.

Laylo Tariq bilan o'tkazgan baxtli kunlariga urush chang solishini, butun oilasidan ajralishini, vujudidagi mitti yurakning hayotini saqlab qolish uchun oltmish yoshdagi Rashidga turmushga chiqishini tasavvuriga ham keltirmagan edi. Ha, hayot unga shunday "hadya"lar berdi. Laylo Tolibonlar tomonidan belgilangan qoidalarga qaramay bolalar uyiga borar (Aziza o'sha yerda edi), radiopriyomnik antennasi bilan savalash ham uni bu yo'ldan qaytara olmas, kaltak o'tmasligi uchun kunning issig'ida ham ikki-uch qavat kiyinib olar, farzandini ko'rish uchun har narsaga tayyor onaga aylangan edi. Otasining "ishonaman qachondir bu be'mani urushlar tugaydi va sen ana shunda Vatanga kerak bo'lasan", degan so'zlarini qalbiga muhrlagan edi. Vatani uchun Muridan qaytib keldi, ona diyorining kelajagi bo'lgan bolalarga ilm-ma'rifat ulashish harakatida bo'ldi. Ota-onasi Maryam orzu qilgan yorug' kunlarni Layloning ko'zi bilan ko'rdi.

Rashid tilyog'lamachi, razil, o'z manfaati uchun hamma narsa qilishga qodir, hamma narsani pul bilan o'lchaydigan, kuchi faqatgina ayollarga yetadigan "erkak". O'sha vaqti Afg'onistonda unga o'xshagan odamlar ham yo'q emas edi. Fariba obrazi orqali o'sha davrdagi urush sababli jigargo'shalaridan ajralgan va oqibatda es -hushidan ajralish holatigacha kelgan onalar qiyofasi aks ettirilgan.

4 Mixail B. Romanda zamon va xronotop shakllari. Tarixiy poetikadan ocherklar (Rus tilidan Uzoq Jo'raqulov tarjimasi). – T.: Akademnashr, 2015. -B. 100.

5 Xolid Husayniy. Ming quyosh shu'lasi: roman / Tarjimonlar: Rustam Jabborov, Munira Norova. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2022. – B. 688.

Urush! Noming o‘chsin jahonda,

Hamon bitmas sen solgan alam.

Sen tufayli ko‘p xonadonda

Ota nomli buyuk shodlik kam[6].

Zulfiyaxonim qalamiga mansub ushbu misralar Faribaning ruhiyatidagi tug‘yonlarni aks ettiradi. Uning nazarida Ahmad va Nurdan ajralgandan so‘ng har bir soniya soatdek cho‘zilardi. Fariba bir kuni urush tugashini, yorug‘ kunlarni farzandlari ko‘zi bilan ko‘rishni istar va bu uni hayotda saqlab turgan yagona narsa edi. Jiti va Hasina kabi urushning eng kichik qurboniga aylangan bolalar kimlarningdir ko‘z qorachig‘i edi. Xolid Husayniy: “Afg‘onistonda bolalar ko‘p, bolalik yo‘q”, – degan edi. Urush bolalarning bolaligini tortib olgan edi.

Adabiy-badiiy xronotopda makon va zamon alomatlarini bir butun va aniq idrok etish mumkin. Bu yerda vaqt tig‘izlashadi, badiiy nigohga aylanadi; makon esa vaqt, syujet va tarix harakati doirasida jadallashadi hamda kengayadi. Zamon alomatlari makonda ko‘rinsa, makon zamonda o‘lchanadi va anglanadi. Bunday qorishiq alomatlar oqimida badiiy xronotop tabiati namoyon bo‘ladi”. Darhaqiqat, makon va zamon voqeligi qahramon ruhiyati orqali, uning qarashlari zamirida yanada yorqinroq aks eta boshlaganligini his etish mumkin. 1996-yilda hukumat tepasiga chiqqan Tolibon harakati o‘z faoliyatini bir necha cheklovlar bilan boshlagani. Jumladan: ayollarning pardoz-andoz qilishi, taqinchoqlar taqishi ,maktabga borishi taqiqlangani, hattoki turmushiga xiyonat qilgan ayollar toshbo‘ron qilib o‘ldirilishi belgilangani,ayollar va erkaklarning boshqa-boshqa kasalxonada davolanishi qat’iyan belgilangan bo‘lsa-da, ayollar uchun ajratilgan kasalxonalar ahvoli juda og‘irligi, “devordan eski, chirkin rakovina turtib chiqqan, jo‘mrakdan anchadan beri suv chiqmagani shundoq bilinib turganligi”, jarohatlangan ayollar, qizlar shu kasalxonadagi bir nechtagina shifokorlarga umid bilan boqishi holatlari ochiq-oydin tasvirlangan. Xolid Husayniy o‘z yurtida sodir bo‘lgan jarayonlarni bir necha obrazlarning taqdiri orqali ochib berdi. Ayniqsa, o‘sha davrda qiynalgan, tahqirlangan ayollar qismatini yoritishga harakat qildi. Bir necha asarlarida o‘zi guvohi bo‘lgan, yuragini tirnagan holatlarni, o‘zi kabi qismatdoshlarining taqdirini qahramonlariga ko‘chirdi.

Badiiy obraz murakkab tuzilish va ko‘rinishga ega. U borliq va ruhiy dunyoning bir-biriga o‘tishidagi barcha holatlarni o‘z ichiga oladi. Badiiy obraz vositasida subyektivlik va obyektivlik, yakka holat va umumiylik, ideallik va reallikning o‘zaro muvofiq munosabatlari ijodiy ishlab chiqiladi. Yozuvchi muayyan obrazda voqea-hodisalarning eng muhim xususiyatlarini umumlashtiradi. Yuqorida Xolid Husayniyning “Ming quyosh shu’lasi” asaridagi obrazlardan biri Maryamda bosh xususiyat qilib bardoshlilik, kechirimlilik, jasurlik xislatlari shunchalik umumlashtirilganki, biz hayotda uchragan qat’iyatli, sabrlilarni – “Maryamlar” deb atayveramiz. Insoniyat tarixida yuz bergan barcha muhim voqealar, unutilmas hodisalar, keskin o‘zgarishlar avvalo ijodkor qalbida, so‘ng so‘zda va nihoyat, amalda namoyon bo‘ladi. Ijodkorda ko‘pchilikda bo‘lmagan eng kichik o‘zgarishni ham oldindan sezish, uning ahamiyatini teran anglash iqtidori borligining biologik yoki ijtimoiy sababini topish iqtidori bor. Chunki iste’dod – ijodkor ongi, shuuridan bir qadar tashqarida mavjud bo‘lgan, hayot hodisa va holatlari o‘zgacha xislatlar kasb etgan so‘zga do‘nishi kuzatiladigan ilohiy, bir qadar jununvash jarayon. Yozuvchi o‘z asarida obrazlarga o‘zlariga xos faoliyat va fikrni singdira bilishi, har qanday asarning markazida obrazlarning fikrlari, faoliyati, ruhiy dunyosi yotadi. Yuqorida tahlilga tortilgan asar ham faqatgina qahramonlar taqdirinigina emas, balki o‘sha davr ruhiyati, fojiasini ham o‘zida aks ettirgan.

6 Isroilova Z. Bahor keldi seni so‘roqlab: she’rlar / – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – B. 192.